

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА
ИНСТИТУТИ**

**“ФИЛОЛОГИЯНИНГ УМУМНАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ”ГА
БАҒИШЛАНГАН РЕСПУБЛИКА МИҚЁСИДАГИ
ИЛМИЙ – АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**

**Тошкент
“VNESHINVESTROM”
2020**

УЎК: 985.165.2
КБК: 178.2 (3)

Мазкур тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус ҳамда Халқ таълими вазирликлари тасарруфидаги таълим муассасаларида фаолият кўрсатаётган профессор–ўқитувчи ва ёш тадқиқотчиларининг Абдулла Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика институтида бўлиб ўтган “Филологиянинг умумназарий масалалари”га бағишланган Республика миқёсидаги илмий – амалий конференция материаллари асосида тайёрланди. Тўплам адабиётшунос олимлар, изланиш олиб бораётган илмий-тадқиқотчилар, ўзбек тили ва адабиёти фани ўқитувчилари, магистрантлар ҳамда талабаларга мўлжалланган.

Бош муҳаррир:

Ўзбек адабиёти ўқитиш методикаси кафедраси мудири, f.f.f.d. (PhD)

Тўхтамурод Қўчқоров

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:

ЖДПИ доценти ф.ф. номзоди **Нодира Соатова**

Такризчилар:

ф.ф. доктори, проф. **Шоира Дониярова**

ф.ф. номзоди, доцент **Усмонжон Қосимов**

Таҳрир хайъати аъзолари:

Ўзбек тили ва адабиёти факультети декани, доцент С.Сойипов,
доцент А.Мусаев, доцент. С.Эшонқулова, доцент З.Мамадалиева,
ф.ф.н. А.Турсунқулов, ф.ф.н. Ю.Каримова, f.f.f.d. (PhD) Д.Салимова, f.f.f.d.
(PhD) Ф.Жумаева; катта ўқитувчилар: С.Бойсинов, М.Жўраев; ўқитувчилар:
Ж.Лутфуллаев, Э.Ҳазраткулова, Г.Қурбонова.

Ушбу тўплам Абдулла Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика институти Илмий Кенгашининг 2019 йил 28 декабрь ойидаги 5–сонли қарори билан нашрга тавсия этилган.

Тўпламда нашр этилган мақола ва тезислар мазмуни ҳамда савияси учун муаллифлар масъулдир.

ҚАЛБЛАРДАН ЖОЙ ОЛГАН ШОДЛИК КУЙЧИСИ

А.Ж.Холбеков.,

**Жиззах давлат педагогика институти ректори,
социолог фанлар доктори, профессор.**

Барчага маълумки, бугунги кунда мамлакатимиз, миллатимиз фахри ва ифтихори саналган кўплаб шоирлар, ёзувчилар ҳамда илм аҳлларининг порлоқ номлари абадийлаштирилди.

Шунингдек, мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан маънавий ҳаётимиз ҳамда бадиий санъатни янада ривожлантириш борасида ҳам муҳим қарорлар қабул қилинди. Ижод аҳлига давлат сиёсати доирасида қилинган эътибор натижасида истеъдодли ижодкорларимизнинг номлари абадийлаштирилиб ижод мактаблари, ҳайкаллари кўйилган хиёбонлар, ижодкорлар боғи ташкил этилди.

2017 йилда Жиззах воҳасининг севимли фарзанди Шароф Рашидов таваллудининг 100 йиллиги нишонланган бўлса, 2019 йил 12 декабрда Жиззахнинг яна бир фарзанди, бахт ва шодлик куйчиси Ҳамид Олимжон таваллудининг 110 йиллиги кенг миқёсда нишонланди.

Шодлик ва бахт куйчиси, истеъдодли шоир, драматург, олим, давлат ва жамоат арбоби Ҳамид Олимжон 1909 йил 12 декабрда Жиззах шаҳрида дунёга келди. Наримонов номидаги бошланғич мактабни тугатиб, Самарканд педагогика билим юртида, кейинчалик Ўзбекистон Педакадемиясида ўқиди. Ҳамид Олимжон талабалик йилларидаёқ шеър ёзди. Унинг асарлари ўзи ишлаган “Зарафшон” газетасида чиқа бошлади.

Ҳамид Олимжоннинг “Кўклам”, “Олов сочлар”, “Ўлим ёвга”, “Пойга” каби шеърини тўпламлари нашр этилган. Унинг “Водийларни яёв кезганда”, “Жангчи Турсун” асарлари ўз даврининг долзарб муаммоларини кўтариб чиқди. Ҳамид Олимжон А.С. Пушкин, Л.Н. Толстой, М. Горкий, В. Маяковский, А.Серафимович, Т.Шевченко, М.Лермонтов, Н.Островский, А.Корнейчук асарларини таржима қилди ва улар ҳақида мақолалар ёзди. Ўзбек халқ оғзаки ижодининг ажойиб дурдона асари “Алпомиш” достони биринчи марта Ҳамид Олимжон томонидан нашрга тайёрланиб, сўз боши билан (1938) чоп этилган.

Ҳамид Олимжон 1939 йилдан то умрининг охиригача Ўзбекистон Ёзувчилари уюшмасига раҳбарлик қилди. Ҳамид Олимжондан ўзбек адабиёти хазинасига “Дарё кечаси”, “Чирчиқ соҳилларида”, “Ўлка”, “Бахт” каби тўпламлар, “Икки кизнинг ҳикояси”, “Ойгул билан Бахтиёр”, “Зайнаб ва Омон”, “Семурғ” дostonлари, “Муқанна” номли шеърини драмаси, “Жангчи Турсун”, “Роксананинги кўз ёшлари” каби қатор балладалари мерос бўлиб қолди. Шоирнинг асарлари қардош ва хорижий халқлар тилларига таржима қилинган. Ҳамид Олимжон 1944 йилда автомобил халокатига учраб вафот этган.

Ҳамид Олимжон хотирасини абадийлаштириш, у зотнинг миллатпарварлик, халқпарварлик, ватанпарварлик, тинчликсеварлик ғоялари билан йўғрилган бадиий ижодини ёш авлод қалбига сингдириш ҳам қарз, ҳам фарздир. Шоирнинг қисқа ҳаёт йўли, сермазмун бадиий ижоди ҳали-ҳануз, даврлар, замонлар ўтса-да миллатимиз кишисини тўлқинлантиради. Чунки

унинг табиатига, хос бўлган, шунингдек, гўзалликка ошно қалбидан, севги–муҳаббат жўш урган юрагидан ўтган шеърлари қўшиқ бўлиб куйланмоқда, китобхонлар томонидан севиб ўқилмоқда. У ўз ижод сирлари билан ёш шоирларга увайсий устозлик қилмоқда. Бир сўз билан айтганда Ҳамид Олимжон иккинчи умрини яшамоқда. Асирлар ва йиллар ўтса-да шоир ижоди адабиёт ихлосмандлари, ижодкорлар ва олимларни тадқиқот майдонига чорлайди, қалбларига ватанга, ёрга бўлган меҳрни жойлайди.

Ҳамид Олимжон ижодининг юксаклигини кўрсатадиган жихатлардан бири шуки, шоир халқ оғзаки ижоди дурдоналари билан ёшлигидаёқ тўйинтирилган. Шу сабабли унинг асарларига халқона оҳанглар, самимий мисралар, халқ дostonлари, мумтоз адабиётимиз анъаналари сингдирилган, шунинг учун ҳам шеърлари ўқувчиларни сеҳрлабгина қолмай, уларнинг халқнинг асрий орзулари, дарду–аламлари, қалбини ларзага солган туйғулари, кечинмаларидан огоҳ этади.

Ҳамид Олимжон шеърлари, дostonлари, ҳикоялари, очерклари, драмалари, публицистик ва адабий–танқидий мақолалар ҳамда таржималари бугунги кунда адабиётшунослар эътиборини янада ўзига тортмоқда. Унинг ижоди катта–кичик тадқиқотчилар томонидан турли муаммолар доирасида ўрганилган ва ўрганилмоқда. Чунки шоир ижоди мисли бир уммон. Уни кашф этиш денгиз тубидаги битмас–туганмас ҳазинани қўлга киритиш билан баробар. Шу сабабли шоир ижоди инсонни оҳанг рабодек ўзига тортиб туради, унинг ушбу кенг, теран, ижтимоий, ҳаётий масалаларга кўчган меросини маънавий ҳазинамизнинг ўлмас дурдоналаридан бири сифатида қадрлаймиз. Шундай экан, Ҳамид Олимжон ижодининг бугунги шиддаткор, инновацион замонда янгича нуқтай–назардан кашф этилиши давр талаби дейиш мумкин.

Ҳамид Олимжоннинг ҳаёт йўли ва бадий мероси шоирнинг ажойиб шогирди ва умр йўлдоши Зулфияхоним томонидан бир умр қадрланди ва ўз номи билан уйғунлаштириб келинди. Халқимиз Ҳамид Олимжон деганда Зулфияни, Зулфия деганда Ҳамид Олимжонни ёнма–ён тассаввур этишади. Чунки Ҳамид Олимжон Зулфия шеърларида қайта–қайта бўй кўрсатиб туриши сир эмас.

Ҳамид Олимжон меросига бўлган муносабатнинг яна бир ёрқин далили сифатида, қолаверса, халқимиз маънавиятига хос ажодлар меросига ҳурмат, эъзоз, ижодкор бадиий–ижодий оламини кашф этиш мақсадида Ўзбек тили ва адабиёти факультети жамоаси томонидан ташкил этилган қўлингиздаги мазкур илмий–назарий тўплам юзага келди. Унда республикамиз етачи олимлари ва тадқиқотчилари, институтимиз профессор–ўқитувчилари, магистрантлари, истеъдодли талаба ёшларининг илмий мақолалари жой олган бўлиб, у мутахассислар ва кенг китобхонларнинг қизиқишларини оширишга арзигулик манба сифатида баҳоланади ҳамда илмий жамоатчиликка манзур келади деб умид қиламиз. Магистр ва бакалавр йўналишидаги талабаларимиз томонидан берилган ушбу мақола ва тезисларни уларнинг илк илмий ишлари сифатида қаралишини истаган бўлардик.

Мазкур тўплам адабиётшунос олимлар томонидан шоир ҳаёти ва ижоди муаммолари бўйича олиб борган тадқиқотлари жамламаси бўлиб,

Ўзбек тили ва адабиёти фани ўқитувчилари ҳамда бадиий ижод билан кизиқувчи барча мухлисларга мўлжалланганлиги билан катта аҳамиятга эга.

ОТАШҚАЛЬ ШОИР

**Абдулла Улуғов, Алишер Навоий
номидаги Тошкент давлат ўзбек тили
ва адабиёти университети доценти**

Ўзбек шеърятини жарангдор оҳанг, мусиқий нафосат билан бойитган Ҳамид Олимжон табиатан ҳаракатчан, интилувчан, ташаббускор бўлгани боис аксарият одамлар каби кўпчиликнинг бири бўлиб яшамаган. У ижодда ҳам, ижтимоий ҳаётда ҳам ҳаммадан олдинда бўлишга интилган ва бунга эришган. Ҳамид Олимжоннинг шеър ва дostonлари маъно жихатдан салмоқдор, бадиий хусусиятларига кўра ўзига хос, катта эмоционал таъсир кучига эга экани, у туғма ташкилотчи, кенг кўламда иш юрита оладиган ноёб қобилиятли раҳбар бўлганини ундан ёши улуг ижодкорлар ҳам, талабчан тенгқурлари ҳам бирдай тан олишган, унга ишонишган, эргашишган, у билан маслаҳатлашишган, сўзига қулоқ солишган. Ойбек, Ғафур Ғулом, Мақсуд Шайхзода, Миртемир сингари у мансуб авлод вакиллари ҳам, Асқад Мухтор, Ҳамид Ғулом, Мирмуҳсин сингари кейинги авлод шоирлари ҳам, 60–йиллардан кейин ўзбек шеърятини юксакликка кўтарган Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов, Рауф Парфи сингари ёрқин истеъдодлар ҳам Ҳамид Олимжонни халқ дostonлари руҳидаги шеърый услубни ҳадди аълосига етказган жўшқин лирик дея эътироф қилишган ва бунга унинг: “Майли, дейман ва қилмайман ғаш, // Хаёлимни гулга ўрайман. // Ҳар баҳорга чиққанда яккаш // Бахтим борми, дея сўрайман. // Юзларимни силаб–сийпалаб // Бахтинг бор, деб эсади еллар. // Этган каби гўё бир талаб // Бахтинг бор, деб қушлар чийиллар” ёки “Дунё гўзал, начукким унда // Сенинг билан биз бормиз доим. // Унда одам қолмаган кунда // Бошланажак қиёмат–қойим... // Гўзал этмиш дунёни одам, // Одам билан гўзалдир ул ҳам” ёки “Мана, сенга олам–олам гул, // Этагингга сикқанича ол. // Бунда толе ҳар нарсадан мўл, // То ўлгунча шу ўлкада қол. // Умрида ҳеч гул кўрмай йиғлаб // Ўтганларнинг ҳақи ҳам сенда. // Ҳар баҳорни йиғлаб қаршилаб, // Кетганларнинг ҳақи ҳам сенда...” (Олимжон Ҳ. Танланган асарлар. – Тошкент: “Ўздавнашр”, 1951. – 528 б. Кўчирмалар ушбу манбадан олинади. – А.У.) сингари жўшқин ва жарангдор мисраларини асос қилиб кўрсатишган. Ҳамид Олимжон тенгдошлари ва ўзидан аввалги ҳамда кейинги авлод ижодкорлари учун замон билан ҳамнафас яшаши, давр ижтимоий ўзгаришларига мос қадам ташлаши, юртдошлари турмуши, интилишидаги янгиланишларга умид билан қараши, халқимизнинг бунёдкорлик меҳнатидан беҳад завқланиши, мамлакатимизда амалга оширилган қурилиш ишларидан ниҳоятда қувониши ва бундан туғилган жўшқин туйғу, эҳтиросга тўла кечинмаларини жарангдор, нафис ифодалаши билан ибрат намунасига айланган. Бу хусусда Ҳамид Ғулом “Йиллар, йўллар, устозлар” ҳужжатли қиссасида: “У ёшлигидаёқ ўз тенгдошларидан фарқ қиларок, такрорланмас бир салобат ва виқор касб этди. Мен ундаги бу фазилатни ўз олдига бутун бир мақсад қўя билишида ва шу мақсадга эришиш учун зарур ишларни ташкил эта олишида, деб биламан... Ўттиз еттинчи йилларнинг ўрталарига келиб, айниқса, Ҳамид Олимжон адабий ҳаракатчиликнинг ташкилотчиси бўлиб майдонга чиқди... Ҳамид Олимжоннинг оташин нутқи ҳамон қулоқларимда жаранглаб туради. У мендан ўн ёш катта, ўша йил йигирма саккиз ёшга тўлган баркамол шоир ва

арбоб эди... 1936 йил. Тошкент. Мен бу йилни шеърятимизнинг жасоратли парвозлари йили деб ҳисоблайман. Ўша йили Ўзбекистон шоирларининг коллектив шеърий меҳнати А.С.Пушкин вафотининг юз йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш шиори остида авж олиб кетди. Бу катта тарихий ишни Ҳамид Олимжон бошқарди. Йигирма етти ёшли оташин шоир ва моҳир ташкилотчи Ҳамид Олимжон қаерда бўлмасин, дарҳол атрофида шоирлар давраси ташкил топади, қизғин баҳслар бошланади, янги таклифлар ўртага ташланади, қалбларга сўнмас ўт ёқа билади, бу тенгсиз нотик!.. Мана, энди орадан шунча вақтлар ўтгач, ўттизинчи йиллардаги адабий муҳитни, ўйлаб қарасам, биз ўзбек ёзувчилари ва шоирлари унутилмас дўстимиз ва дарғамиз Ҳамид Олимжон раҳбарлигида жуда катта ижодий мактаблардан ўтибмиз. Бу мактаблардан асосий учтасини алоҳида кўрсатиб ўтиш керак. Биринчиси, халқ ижодининг битмас–туганмас хазина манбаидир. Ҳамид Олимжон фольклорга жуда катта эътибор берди. Ҳоди Зариф бошлиқ бир гуруҳ ўзбек олимларини ўзбек оғзаки ижоди асарларини тўплашга, бахшилардан ёзиб олишга сафарбар қилди. Эргаш Жуманбулбул ўғли, Фозил Йўлдош ўғли, Исломошоир Назар ўғли, Пўлканшоир ва бошқалар Тошкентга таклиф қилинди. Улардан миллионлаб мисра дostonлар ёзиб олинди. Ўша йиллари биз халқ бахшилари билан ҳамсухбат бўлдик, халқ шеърятининг соф булоқларидан тўйиб симирик. Иккинчи мактаб – мумтоз адабиётимиз мактабидирки, Алишер Навоий туғилган кунининг беш юз йиллигига тайёргарлик кўрилиши муносабати билан Ҳамид Олимжон мумтоз адабиётимиз пропагандасини кенг йўлга қўйди. Биз бу улуғ ишнинг натижаларини энди кўриб турибмиз. Ҳамид Олимжон башоратига такрор ва такрор офаринлар демокдамиз. Учинчи мактаб – рус мумтоз адабиёти мактабидир. Мен юқорида фақат А.С.Пушкин ва М.Ю.Лермонтов юбилейларини ўтказиш муносабати билан шеърий таржима сирларидан воқиф бўла бошлаганимизни эслатиб ўтдим. Мадомики, булардан ташқари, Ҳамид Олимжон ўзбек ёзувчиларини Лев Толстой, Шота Руставели, А.П.Чехов, Тарас Шевченко, Максим Горький, В.Маяковский асарларини таржима қилиш ишларига рағбатлантирди. Дарҳақиқат, қардош халқлар классик адабиётини ўқиб–ўрганишнинг энг самарали усули таржима қилиш орқали ўрганишдир. Айниқса, истеъдод эгалари, қалам аҳли учун бу усулнинг ижодий манфаати ўн чандон ортиқдир. Ҳамид Олимжон ўз ижодий тажрибаси давомида мана шу ҳақиқатни чуқур тушуниб етган ва улкан масъулиятли вазифани муваффақият билан бажара билган” деган (9: 80–86–бетлар).

Замонавий шеърятнинг мумтоз намуналари қаторидан жой олган талайгина асарлар битган Ҳамид Олимжон яшаган замон ўтюррак шоирнинг тақдирини белгилаб, ижодига йўналиш берган. Шоирнинг “Бахтлар водийси”, “Нима бизга Америка?”, “Қўлингга қурол ол!”, “Қамал қилинган шаҳар тепасидаги ой”, “Роксананинг кўз ёшлари”, “Зайнаб ва Омон” каби асарлари аслида у яшаган замон маҳсулидир. Чунки замона муаммолари айна асарлар учун мавзуга айланган ҳамда масалани шоир талкин қилганидек ёритишни тақозо этган. Ҳамид Олимжон ҳаёт муаммоларини замонаси талабларига мувофиқ ойдинлаштиришга, уларни мамлакатдаги ҳукмрон мафкура мезонларига мос ҳолда одамларга етказишга ҳаракат қилган. У ҳам бошқа замондошлари сингари кўнгул тубидаги истак–хоҳишлари, теварак–атрофида

кечаётган ҳодисаларга асл муносабатини пардалашга, яширишга мажбур бўлган. Чунки инсон ҳаёти шундай жумбоқки, у ҳамма вақт ҳам дилидагини тилига чиқаролмайди, ҳар доим ҳам ҳиссиётларини ошкор қилолмайди. Одамнинг қалби, кўпинча ана шу ҳолатдан кирланиб, хира тортади. Фикрини очик айтолмаслик, рози ёки норози эканини аниқ билдиролмаслик, виждонига хилоф иш тутишга мажбур бўлиб қолиш инсонни қаттиқ изтиробга солади. Таъқиб, тазйиқ ва унинг аянчли оқибатидан хавфсираб юриш, бировларнинг ёқимсиз сўзларига бардош бериш, кўпол ва тавфиксиз кимсаларнинг тубан қилмишларига чидаб, ўзини шундай ярамаслар қаторига кириб қолишдан эҳтиёт қилиш, шахсий манфаати йўлида ҳар қандай пасткашликдан тоймайдиганлар билан бир жойда туришга мажбур бўлиб, улардан чўчиб кун кечириш ҳар қандай кишини жисмонан толиқтириб, руҳан эзиб ташлайди. Бундай пайтда табиатан таъсирчан кишилар, айниқса, кўп азобланади. Шоирлар эса қалтис замонларда қалбидаги азобли кечинмаларни ҳазил ёки жиддий тарзда, ғам–қайғу ёки шодлик–қувонч изҳори шаклида ифодалайди. Очарчилик, турли касалликлар, таъқиб, тазйиқ, сургун, оммавий қирғин ҳукм сурган бир замонда Ҳамид Олимжон бахт ва шодлик тўғрисида эҳтирос билан шеър битиши заминидан ҳам аслида унинг қалбидаги азобли кечинмалар туради. Шоирнинг шеър ва дostonларидан у замонасида кечаётган барча ҳодисаларни бор ҳолича қабул қилгани, улар хусусида танқидий мулоҳаза юритишдан чўчигани, мустабид давлат сиёсати исканжасидан ҳамиша хавфсираб яшагани, шунинг учун ҳукмрон доира кирдикорларини муҳокама қилишга журъат қилолмагани, унга ўз муносабатини очик билдиришга ботинолмагани яққол сезилади. Шоирнинг ана шу ички дарди “Шодликни куйлаганимнинг сабаби” шеърисида: “Шоирларни кўп ўқиб чиқдим, // Билмаганим қолди жуда кам. // Ўқиб чиқдим, чувалди фикрим // Кўравериб ҳаммасида ғам. // Фузулийни олдим кўлимга, // Мажнун бўлиб йиғлаб қичқирди. // Ва Навоий тушиб йўлимга // Фарёд билан ўрнидан турди. // Лермонтовни ташламадим ҳеч, // Охир кўйиб олдим Ҳофизни. // Пушкин менга кўрсатди ҳар кеч // Йиғлаб турган бир черкас қизни. // Шекспирдан сўрадим савол // Жавобини келтирди Хайём: // “Чунки ғамга ошинодир ҳол, // Қайғу билан тўлиқдир айём”. // Ўйладиму узоқ қолдим жим, // Сўнгра савол қилдим ўзимдан, // Дарё каби тошиб севинчим, // Ёш тирқираб келди кўзимдан” тарзида ифодаланган. Бу шеърда оддий қаламкаш – шоир эмас, ҳаёт ҳодисалари тўғрисида теран мушоҳада юритадиган, ўтмиш ва замонасини таққослаб, хулоса чиқара биладиган Катта Шахнинг дардкаш қалби акс этади. Ундаги: “... чувалди фикрим, // Кўравериб ҳаммасида ғам...// Ўйладиму узоқ қолдим жим, // Сўнгра савол қилдим ўзимдан” деган ўринлар бунга аниқ исбот бўла олади. Ойбекнинг 1944 йилда Ҳамид Олимжон вафоти муносабати билан ёзган салмоқли мақоласини “Оташин ватанпарвар ва талантли шоир” деб номлаши ва унда: “Ҳамид Олимжон фикрловчи шоир эди. У шоир учун катта ва жиддий маърифатнинг зарурлигини жуда яхши англади. У кўп ўқиди, кўп ўрганди. Ўзбек совет поэзиясининг энг олдинги мастерларидан бўлиб қолди. Давримизга сазовор бадий юксак асарлар яратиш унинг кўнгил орзуси эди. Ҳамма вақт шу гўзал ниятга интилди... У ёш ўзбек адабиёти курсисига тетик фикр, янги жўшқин ҳис билан кириб келди. Унинг илҳоми революция нури билан суғорилган эди. Ёш шоир Октябрнинг ёрқин кунини куйлади. Ҳамид

Шарқнинг зулмат бўғовларини синдирган янги совет даврини чуқур самимият ва катта ҳаяжон билан мақтади. Шоир ўз Ватани Ўзбекистонда янги, бахтиёр, эркин ҳаётнинг ҳар ниҳолини, ҳар учкунини чуқур нашта билан кутлади. Қишлоқда деҳқон уйида илк порлаган Ильич чироғи, паранжини отиб, ўқишга интилган қиз, тонгда гудок билан уйғонган ишчи, озод меҳнат билан йил сайин яшнаган ўзбек боғлари ва далалари – буларнинг ҳаммаси юрагини тўлқинлантирди. У даврнинг илғор ва улуғ ғоялари билан яшади. Ҳамид Олимжон бутун ёлқинли юраги билан улуғ қурилишларни, ижтимоий ҳаётда инсонлар онгида рўй бераётган чуқур ўзгаришларни куйлашга интилди... Ҳамид Олимжон халқ ижодига муҳаббат кўйди. Бой ўзбек фольклорининг энг гўзал, энг йирик асарлари устида чуқур севги билан ишлади... “Бахт”даги шеърлар чуқур, самимий оптимизм руҳи билан балқиди. Озод меҳнат тантана қилган Ватанда кўркам гуллаган ажойиб моддий ва маънавий бойликларни куйлади. Эрк, яратиш, бахт, шодлик – халқларнинг азалдан буёнги барча юксак орзуларининг чамани – бизнинг Ватанда. Ҳамиднинг ҳар бир кўшиғи ватан муҳаббати билан нафас олади...” каби фикрларни илгари суриши ҳам шундан далолат беради (3: 196–206–бетлар).

Ҳамид Олимжон табиатан лирик, романтик бўлгани боис ижтимоий ҳаётдаги ўзгаришларга умид билан қараган, мустабид шўро сиёсатининг алдовларига ишонган. Шўро ҳокимияти эса: “Мамлакатда бойларни қолдирмаймиз, уларнинг мол–мулкани камбағалларга олиб бериб, барчани тенглаштирамиз. Давлатни оддий ишчи ёки деҳқон ҳам бошқараверади. Барча бизга хавас билан қарайди, бутун дунё биздан ибрат олади” дея тинимсиз тарғибот олиб борган. Мол–мулкани шўро ҳукуматида топширмаган, большевикларга қаршилик кўрсатганларни “халқ душмани” деб эълон қилган. Одамларни “бой” ва “камбағал” сифатида ижтимоий табақага ажратиб, уларни бир–бирига қарши қилиб кўйган. Шўронинг маккорона сиёсати туфайли бола отасига, ука акасига душман бўлиб қолган. Натижада, мамлакатда фуқаролар уруши юзага келган. Ҳамид Олимжон ва унинг авлоди ана шундай ижтимоий зилзилалар, маънавий ўпирилишлар даврида яшаган. Бу авлод ўтмишдаги аянчли турмуш уқубатларини бошидан кечирган, қашшоқлик, очарчиликни кўравериб, юрак олдирган. Ғафур Ғулом машҳур “Сен етим эмассан” шеърида ўзининг айна аҳволи ҳақида: “Ўнинчи йилларнинг // Саргардонлиги // Иситма аралаш // Қўрқинч туш каби // Хаёл кўзгусидан // Ўчмайди сира. // Мен етим ўтганман, // Ох, у етимлик... // Вой бечора жоним, // Десам арзийди. // Бошимни силашга // Бир меҳрибон қўл, // Бир оғиз ширин сўз // Нондек арзанда. // Мен одам эдим–ку, // Инсон фарзанди” деган (8: 96–97–бетлар).

Тақдир Ҳамид Олимжон ва унинг авлодига уқубатга тўла замонда туғилиб ўсиш ва кескин ўзгаришлар даврини бошидан кечиришни насиб қилган. Зулмат замон ўзининг турли машаққатлари, кутилмаган синовлари билан уларни тоблаб, шахс сифатида улғайтирган. Шу боис улар шеър, дoston, ҳикоя, қисса, роман, драмалар битган шоир, адибгина эмас, Катта шахс сифатида ҳам халқ эътиборини қозонган, ўзбек маданияти тарихида ўчмас из қолдирган. Ҳамид Олимжоннинг Ойбек, Ғафур Ғулом, Абдулла Қаҳҳор, Мақсуд Шайхзода, Зулфия ва бошқа қурдошлари баракали ижод қилиб, ўзбек адабиётида Фитрат, Чўлпон, Абдулла Қодирий, Ҳамза бошлаб берган янгиланиш жараёнини такомилига етказиб, унга чинакам замонавий

тус беришган. Уларнинг турли жанрда, ҳар хил услубда битилган ранг-баранг асарлари туфайли ўзбек адабиёти халқ ҳаётига янада яқинлашиб, миллий манзара касб этган. Ўзбек адабиёти айнан шу авлоднинг самарали ижоди, фидокорлиги боис арузнинг узок асрлар ҳукм сурган анъанавий қолипидан батамом қутулиб чиққан. Ҳамид Олимжон мансуб авлоднинг ижодий изланишлари натижасида шеърятимиз, насримиз ифода ва услуб жиҳатидан европача андоза олиб, ҳаётнинг бағрига теранроқ кирган, унинг мавзу доираси кенгайиб, асарларда ижтимоий аҳволи, феъл-атвори турлича одамлар образи акс этган. Ҳамид Олимжоннинг шеър ва дostonларида шўро тузумини, большевиклар сиёсатини мадҳ этиши, Ленин, Сталин ва бошқаларни баландпарвоз оҳангларда шарафлаши унинг ўтмишдаги қашшоқ турмушдан, ўлкада ҳукм сурган қоқоқлик, адолатсизлик, тартибсизликлардан беҳад безгани, шўролар амалга ошираётган ислоҳотларга чин дилидан ишонганидан келиб чиққан. Ана шу ишонч ҳисси Ҳамид Олимжонни ҳам, Ғафур Ғулom, Ойбек, Мақсуд Шайхoдани ҳам шўро сиёсатини муболағадор сифатлашлар орқали идеаллаштириб таърифлашга ундаган. Ҳамид Олимжон Ойбек таърифлаганидек “оташин ватанпарвар ва талантли шоир” бўлгани ва ҳаётга ҳамиша катта умид билан қарагани боис исталган мавзуга ҳаётбахш ижтимоий маъно бера билган ва уни содда ва таъсирчан ифодалай олган. Айни хусусият унинг “Кўлингга курол ол!” ёки “Бахтлар водийси” каби ижтимоий мавзудаги шеърларида ҳам ёки “Ўрик гуллаганда”, “Ҳаёлимда бўлдинг узун кун...” каби бахт, севги тўғрисидаги шеърларида ҳам қабариб, ярқираб туради. Шунинг учун Абдулла Орипов: “Ҳамид Олимжон истеъдоди барқ уриб турган шоир эди. Қайси мавзуга қўл урмасин, уни санъаткорона куйлай билди. Шеърларида ҳар жиҳатдан мукамалликка эришди. Маъно ва мазмун жиҳатдан ҳар қанча танқид остига олмайлик, барибир, бу ижод гулшанида тенгсиз маҳорат бўй таратиб туради” деган (5: 323–бет).

Албатта, шоирнинг “Чирчиқ бўйларида” шеъридаги: “Кўшиқ одамларни Ленинга элтган, // Кўшиқ Сталинни ахтарган йиллар” сатрлари, Сталинни “башар куёши” деб таърифлаши ва уни : “Сен элимнинг кўздаги нури, // Сен элимнинг топган сурури, // Сен суянган буюк тоғимиз, // Сен бизларнинг жаннат боғимиз, // Паноҳимиз, ишончимиз сен, // Омолимиз, қувончимиз сен. // Бахтимизнинг номи сен ўзинг // Саодатга бошлар ҳар сўзинг... // Ғўза янги чиқарганда бош, // Сенсан уни асраган куёш!.. // Бутун олам сенинг қўлингда, // Бутун олам сенинг йўлингда... // Номинг билан чайқалур қўллар, // Номинг билан гул бўлур чўллар. // Номинг билан йўқолур зулм, // Номинг билан йўқолур ўлим. // Сен тарихнинг томирида қон, // Сен оламнинг танидаги жон” деб шарафлаши замондошларимизга жуда ғалати туюлади. Шеър, дostonларидаги худди шундай ўринлар учун Ҳамид Олимжон, Ғафур Ғулom мансуб авлод шоирлари XXI аср ёшларига маддох бўлиб кўринади. Аслида эса бировни мақташ ёки айблаш кишилар учун азалдан одат, мароқли “машғулот” бўлиб келган. Одамларнинг ўзарo муносабати ўтмишда ҳам, ҳозирги пайтда ҳам шунга асосланади. Одамларнинг фазилатини таъкидлашдан кўра, улардан айб, нуқсон, камчилик қидирадиган, ҳеч кимни – бойни ҳам, камбағални ҳам, амалдорни ҳам, кўпчиликнинг бири бўлиб, оддийгина умргузаронлик қиладиганни ҳам хуш кўрмайдиган ҳасадгўйлар эса барча замонда топилади. Улар бировнинг ютуғи, муваффақиятини кўрса, ичи куйиб, тутаб кетади. Тошюрак, бахил бу кимсалар бошқаларнинг ўсиб

униши, обрў орттириб, шон–шарафга эришишини асло истамайди. Ўтган аср 20 – 30– йилларидаги, ундан аввалги ва кейинги даврлардаги катагон, таъқиб, қирғин, сургуллар ҳам аслида бераҳм, бахил, ҳасадгўй, атрофидаги одамларга душманлик қилишдан лаззатланадиган кимсаларнинг истак–хоҳиши ва уларнинг одамгарчилик мезонларига тўғри келмайдиган золимона хатти–ҳаракати туфайли рўй берган. Бадбин, ахлоқсиз кимсалар Ҳамид Олимжон яшаган замонда мустабид ҳокимият тегирмонига сув қуйиб турган, шоир, ёзувчилар ўшаларнинг тухмат, иғво, маломатларидан чўчиб, ҳадиксираганидан ҳукмрон сиёсат раҳнамоларини мақтаб, шарафлаш орқали катагон қаҳридан сақланиб қолмоқчи бўлишган. Улар шу тарзда ўзига паноҳ излашган. Чунки ҳар қандай мамлакатдаги аҳвол кўп жиҳатдан шу манзил–макондаги одамларнинг ўзаро муомала–муносабатига боғлиқ бўлади. Аждодларимиз узоқ замонлар иштиёқ билан мутолаа қилиб, мутаассир бўлиб келган, ўзида турли халқларнинг кўп асрлик турмуш тажрибасини мужассамлаштирган “Минг бир кеча”да бу хусусда: “Фуқаронинг бир–бирига қилган бир йиллик жабридан султоннинг юз йиллик жабри яхшироқ”, деган мақол бор. Агар фуқаро бир–бирига жабр қила берса, Худо уларнинг устига жабр қилувчи султонни, қаҳр қилувчи подшоҳни юборади. Бизгача етиб келган нақлларда баён қилинишича, кунларнинг бирида Ал–Ҳажжож ибн Юсуф бир лавҳа келтирдилар. Унда: “Оллоҳдан кўрқ, бандаларини ҳар хил жабрлар билан азоблай берма”, деб ёзилган экан. Ал–Ҳажжож бу лавҳани ўқиб, минбарга чиқибди. У сўзга уста киши экан. Атрофида турганларга қараб: “Эй инсонлар, Оллоҳ таоло мени сизларнинг устингизга қилмишларинг туфайли юборди...” дебди (1: 7–бет) дейилган.

Ҳамид Олимжон мустабид шўро ҳукумати раҳнамоларини завқ–шавкка тўлиб, мадҳ этган, шарафлаган ёки “Русия, Русия, менинг ватаним, // Мен сенинг ўғлингман, эмасман меҳмон. // Сенинг тупроғингда улғайди таним, // Ҳозирман сен учун бўлмоққа қурбон” деган бўлса–да, унинг ҳаяжон–ла жўшиб битган айни шеърлари чинакам бадиият намунаси эканини инкор қилиб бўлмайди. Бу хусусда Абдулла Орипов: “Истеъдод шундоқ мўъжизакор кучки, у, ҳатто, энг сифатсиз матодан ҳам гўзал буюм ярата олади. Ҳамид Олимжоннинг “Россия” шеърини эсланг. Шеърнинг моҳияти ўзбек халқининг тарихий мақомига асло тўғри келмайди. Бироқ у нақадар гўзал!” деган (5: 323–бет). Шеърдаги: “Русия, Русия, азамат ўлка! // Тўлдирган чоғда ҳам жаҳонни нурга // Қуёш куча олмас сени дафъатан... // Қаҳратон кишингда, баланд осмонда // Учиб бораётган куш ҳам музлайди. // Жасур ўғилларинг қор ва бўронда // Жаҳон тақдирига нажот излайди. // Сенинг кўз илғамас майдонларингда // Жаҳаннам қўрқажак жанглари кўрдим. // Бир қарра ёв ўтган ўрмонларингда // Кўмирдан ҳам қаро тонглари кўрдим. // Меҳринг қаршисида муздир офтоб, // Лекин офтобингда қорлар эрийди. // Муқаддас қаҳрингга беролмасдан тоб, // Тупроғинг остида фашист чирийди” сингари бири биридан жарангдор, жўшқин, ҳароратли мисралар, содда ва қуйма ўхшатиш, сифатлашлар “Россия” чиндан–да бадиий баркамол ва беҳад таъсирчан асар эканига аниқ исбот бўла олади. Нафақат Ҳамид Олимжон, балки у билан замондош Ойбек, Ғафур Ғулум, Мақсуд Шайхзода, Миртемир ва бошқаларнинг ижодида ҳам шўрони, унинг раҳнамоларини, коммунистик партияни баландпарвоз оҳангларда шарафлаш муайян ўрин эгаллайди. Чунки ҳар бир кишининг дунёқараши, қизиқиши, теварак–

атрофидаги воқеа–ҳодисаларга муносабати у яшаган муҳит билан бевосита боғлиқ ҳолда кечади. Айни асарда – “Россия”да ҳам шоирнинг бошқа шеърларидаги сингари барчага бирдай, тушунарли содда сўзлар одатдаги мақомидан юксакликка кўтарилиб, жаранглаб эшитилади, ярқираб товланади. Унинг оҳанглари руҳга хуш ёқиб, қалбда шижоат уйғотади. Абдулла Орипов “у нақадар гўзал!” деганда шеърнинг шу хусусиятини назарда туттади.

Ҳамид Олимжон – табиатан лирик шоир. У ўзининг нозик ҳиссиёт ва теран кечинмаларини моҳир мусаввир каби чизиб берган. Шоирнинг шеърларида сўзлар худди турфа бўёқлар каби товланиб жилоланади. У шеър ва дostonларида, таржима ва мақолаларида ҳаётдаги ижтимоий ўзгаришларга ишонч билан қарагани, большевиклар сиёсатидан жуда кўп ижобий натижалар кутгани ва замондошларининг инқилобий кайфиятини жўшқин эҳтиросга тўлиб ифодалаган. Ундаги жўшқинлик, инқилобий кайфият, ҳаётсеварлик ҳисси шеър ва тўпламларининг номланишида ҳам ўз аксини топган. Ҳамид Олимжон илк шеърлар тўпламини “Кўклам”, дастлабки ҳикоялар тўпламини эса “Тонг шабадаси” деб атаган. Бу тўпламлар 1929 йилда босилиб чиққан. Дастлабки китоби йигирма яшарлигида чоп этилгани эътиборга олинса, у бор–йўғи ўн беш йил фаол ижод билан шуғулланган. Ҳамид Олимжон ана шу жуда қисқа муддат ичида бири биридан баркамол асарлар битишга эришган. Унинг ҳаётлигида кетма–кет босилиб чиққан “Олов сочлар” (1931), “Пойга”, “Ўлим ёвга” (1932), “Дарё кечаси” (1936), “Шеърлар” (1937), “Ўлка”, “Ойгул билан Бахтиёр” (1939) ва “Бахт” (1940) шеърӣ тўпламлари, дostonлари, таржима ва мақолалари ўзбек адабиёти асл асарлари қаторидан мустаҳкам ўрин олган. Ҳамид Олимжоннинг шеър ва дostonлари аввало гўзал ва жозибадор тили, сатрларининг мусиқий жарангдорлиги, фикр ва туйғуларни тиниқ ва аниқ, тушунарли тарзда ифодалагани билан диққатни тортади. Унинг бахт ва муҳаббат, Ватан ва хуррият тўғрисидаги шеърларида чинакам шоирга хос самимият, ҳаётсеварлик, келажакка чексиз умид ва ишонч билан қараш ҳисси балқиб туради. Ҳамид Олимжон шеър ва дostonларида, таржима ва мақолаларида ўзининг ҳис–туйғу, ўй–кечинмаларини жарангдор сўзлар топиб жўшиб ифодалаган. Бу сўзларда оташқалб шоирнинг дилидаги ҳарорат, инсонпарварлик ва бутун борликка меҳр билан қараш каби эзгу ҳислар тантанавор жаранглайди.

Ҳамид Олимжон мансуб авлод ўтмиш фожиаларини кўрган ва унинг азоб–уқубатларини ўз бошидан кечирган. Шоир бу хусусда: “Мен бир қаро кунда туғилдим. // Туғилдим шу он бўғилдим” деган. Чунки Ҳамид Олимжон 1916 йилдаги Жиззах қўзғолони шафқатсиз бостирилганини ўз кўзи билан кўрган ва жазирамада даштга ҳайдалган юртдошлари қаторида ташналик, очлик, иссиқ, чанг–тўзондан кўп азият чеккан. Ўшанда у етти яшар бола бўлган. Ғафур Ғулом, Ойбек, Ҳамид Олимжон, Абдулла Қаҳҳор, Мақсуд Шайхзода, улардан олдинги авлод вакиллари ижтимоий–сиёсий бўҳронлар, очарчилик, вабо, ўлат, чечак, ришта каби касалликлар кенг тарқалган, қурғоқчилик, қаҳратон совуқ, жазирама иссиқ одатдаги ҳолга айланган, одамзод бошига турли фалокатлар ёғилган зулмат замонда яшаган. Одамзодга ёв бўлган турли офатлар дунёнинг барча манзил–мақонларини бирдай қамраб олган. Таназул ва офат ҳукм сурган ўша замонда Осиё мамлакатларида ҳам, Европа давлатларида ҳам, Ер шарининг бошқа

минтақаларида ҳам одамлар беҳад азият чеккан: ҳамма очарчилик, юқумли касалликлардан хавотирланиб кун кечирган. Шу билан боғлиқ ҳолдами ёки бошқа сабабданми, кишилар бир–биридан шубҳаланиб яшаган, халқлар, миллатлар бир–бирига душман деб қараган. Мамлакатларда фуқаролар уруши рўй берган, кишиларни таъқиб қилиш, қамаш, қатл қилиш, мол–мулкани мусодара қилиш, сургун этиш одатдаги ҳолга айланган. Инсоният жуда қисқа вақт оралиғида бир эмас, иккита жаҳон урушини бошидан кечирган. Дунёнинг ўзига хос маркази саналган Европа 1914–1920 йиллар ҳамда 1939–1945 йилларда уруш майдонига айланган. Худди шу даврда Осиё минтақасидаги Хитой, Япония, Корея ва бошқа давлатлар ўртасида ўзаро урушлар авжига чиққан. Америка қитъасида ҳам турли хунрезликлар тўхтовсиз давом этган. Ўз–ўзидан аёнки, замондаги бу нотинчлик одамларнинг онг–тафаккури, турмуш тарзи, дунёқарашига ўзининг салбий таъсирини ўтказган. Қисматига таназзул ва офат замонида туғилиб яшаш битилган кишиларнинг фаолияти ва ижодига баҳо берганда даврнинг мана шу аянчли ҳолатини унутмаслик, одамлар орасида ўзаро низо, адоватнинг кенг ёйилгани, миллатлар, халқлар бир–бирига қарши уруш очгани кишиларнинг онги хиралашгани, қалби қорайиши аломати экани эслаш керак. Чунки одамларнинг фаолияти, дунёқарашида замон акс этади. Бир кишининг феъл–атворидаги бузукликлар унинг замондошлари хошиш–интилишлари билан бевосита боғланади. Шундай экан, Ҳамид Олимжон, Ғафур Ғулом мансуб авлоднинг фаолияти, ижодидаги барча кемтиклик, ҳозирги давр кишилари назарида айб, гуноҳ бўлиб кўринадиган ҳамма жиҳат аслида улар яшаган таназзул ва офат замон бузукликлари туфайли келиб чиққан. Ҳамид Олимжон “Ҳар кимга бир нону насиба // Паррандалар ўз ҳақин тилар, // Кўпни кўрган қари дунёда // Бахт ахтариб кўплар ўтдилар. // Кўплар ўтди, кўпгина одам // Таний олди дўзахни, ўтни, // Дунё деди, кўзни очди–ю, // Лекин кўрди фақат тобутни. // Шодлик истар эди барчаси, // Лекин келиб қучарди мотам, // Хурсандликка зор дийдаларда, // “Шодлик мен” деб кулар эди ғам” (Бахт тўғрисида) ёки “Куй кўпдир – аламлар бутун бир олам, // Уни ташувчилар яшар саҳрода, // Куйларда қакшайди фақирлик ва ғам, // Куйнинг тингловчиси ҳайдади пода” (“Куйчининг хаёли”) деганда замонасидаги таназзул ва офатларни, одамларнинг орзу–ҳаваси ва интилишига тўсқинлик қилган турмушни, атрофидаги кишиларнинг қашшоқ ва ночор аҳволини, мустамлакачилар зулми ва маҳаллий амалдорларнинг нодонлиги, элдошларини шафқатсиз эзаётганини назарда тутган. У бошқа шеърларида ҳам замонаси аҳволини тўғри ва аниқ таърифлайдиган жуда таъсирчан сўзлар топа олган. Ҳамид Олимжон замонасининг фожиаларини тавсифлашда ҳам, унда кечаётган ўзгаришларга катта умид билан қарашини ифодалашда ҳам бирдай маҳорат кўрсатган. Унинг шеърларидаги сатрларда тизилган сўзларда лириканинг нафис сеҳри мужассамлашган. Ўзи мансуб авлод, ўзидан олдинги ва кейинги авлод шоирлари шеър, дostonлари билан таққослаганда Ҳамид Олимжон фикр ва туйғуларини тиниқ ифодалагани аён бўлади. Унинг шеърларида сўзлар кишига кўтаринки кайфият уйғотадиган тарзда тизилиб келади ва кўнгилга хуш ёқадиган мусиқий оҳанг таратади. Сатрларда занжир ҳалқалари каби силсила ҳосил қилган тўлиқ қофиялар жаранги шеър аввалида бошланиб, муттасил авжланиб боради. Бу ҳолат Ҳамид Олимжон лирикасида хос умумий хусусият экани унинг ҳар бир шеърида яққол билиниб туради.

Сўзлаганда ва ёзганда фикр, кечинма, ҳис–туйғуларни тиниқ ва таъсирчан ифодалаш эса қалбдаги самимиятдан келиб чиқади. Чунки қалбдаги самимият фикрга таъсирчан маъно бағишлайди. Қалбдан чиққан самимий сўз кишиларни, у қандай мазмунда бўлишидан қатъи назар, бефарқ қолдирмайди. Ҳамид Олимжон ўзининг кўнгил кечинмаларини ҳам, ижтимоий воқеликка муносабатини ҳам жўшиб–тошиб қаламга олади. Бунда уни қалбдаги самимият ҳисси қувватлантиргани яққол сезилади. Қалби самимиятга тўла кишигина фикрини аниқ ва таъсирчан баён қилади. Чунки у воқеликка асл муносабатини пардалаб яширишга уринмайди ва дилидагини аниқ ошқор қилади. Ҳамид Олимжоннинг шеърларида унинг табиати, феъл–атворида самимийлик устун бўлгани аниқ билинади. Шоир ижтимоий ларзалардан, таъқиб, камоқ, сургунлардан азобланган, қурғоқчилик, очарчилик, касалликлардан жисман ва руҳан эзилган замондошлари қалбига ёруғ ҳислар, ёрқин умид, эртанги кунга ишонч ҳисси олиб киришни, уларда ҳаётсеварлик, ватанпарварлик, курашчанлик туйғусини уйғотишни мақсад қилган ҳамда бутун борлиғи билан шунга интилган. У замондошларига: “Бахт топилмас ҳеч бир замонда // Эл кул бўлса, бўлса яланғоч, // Жаннатларни яратган одам // Натижада ўзи қолса оч ” деб мурожаат қилар экан, ўзи ҳақида: “Қувонч шулким, толеъ ёр бўлиб, // Бахтни топган элни кўролдим. // Асрларнинг қайғусин қарғаб, // Шодлик ва бахт куйини чалдим” деган. Айримлар айна сатрлари учун Ҳамид Олимжонни “шўро мафқурасига хизмат қилган, замонасоз бўлган, мустабид тузумни ёқлаган, шўролар ўтказган қирғинлар, оммавий қатағонларни кўриб кўрмасликка олган” деб айблайди. Лекин ким замонасининг умумий оқимидан четга чиқиб тура олади? Таъқиб, қама–қама авж олган бир пайтда ким ҳукмрон сиёсатга қарши чиқади? Норозилик билдирганида бунинг оқибати қандай бўлади? Қисматига оммавий қирғинлар ҳукм сурган, одамларнинг имон ва эътиқоди заифлашган, табиат ҳам қурғоқчилиги, қаҳатчилиги, турли касалликлари билан ҳужумга ўтган, халқлар халқларга ишончсизлик билан қараган, миллатлар миллатларга душман бўлиб қолган, давлатлар давлатларга қарши уруш очган қаттол замонда яшаш битилган кишиларни айблашдан аввал шу каби саволларга жавоб берилса, айна муаммо қанчалик мураккаб эканлиги аёнлашади.

Мустабид замоннинг қаттол сиёсатидан беҳабар кишиларга маддох, замонасоз бўлиб кўринадиган Ҳамид Олимжон қалби қайғу, алам ва изтиробга тўла бўлгани учун: “Асрларнинг қайғусин қарғаб, // Шодлик ва бахт куйини чалдим”; “Шоир бўлиб шодлик ва бахтни // Куйламоқлик зўр саодатим” деган. Аммо унинг ижоди шу доирада қолиб кетмаган. Ҳамид Олимжон ижоди инсон интиладиган, орзу қиладиган бахт ва шодликни ҳам, у билан ёнма–ён юрадиган алам, азоб, изтироб, фожеликни ҳам бирдай қамраб олган. Шоир ижодига зеб бериб турадиган “Ўрик гуллаганда”, “Хаёлимда бўлдинг узун кун...”, “Куйчининг хаёли”, “Ҳар юракнинг бир баҳори бор...”, “Офелиянинг ўлими”, “Жануб кечасида”, “Савол”, “Пушкин”, “Бахт тўғрисида”, “Ниҳол”, “Қамал қилинган шаҳар тепасидаги ой”, “Зайнаб ва Омон”, “Ойгул билан Бахтиёр”, “Семурғ ёки Паризод ва Бунёд”, “Роксананинг кўз ёшлари”, “Икки қизнинг ҳикояси” кабилар бунга исбот бўла олади. Лекин негадир Ҳамид Олимжон ижоди тўғрисида сўз кетганда унга нисбатан биринчи галда “бахт ва шодлик куйчиси” деган сифатлаш қўлланади. Аммо у шундай таърифлашга сабаб бўлган шеърларида ҳам

инсониятни азалдан азоблаб келган, энди ҳам давом этаётган инсоннинг инсон томонидан таҳқирланиши, хўрланиши мислсиз жиноят эканига алоҳида урғу берган. Ойбек, Мақсуд Шайхзода, Сарвар Азимов ва бошқалар Ҳамид Олимжон шахси ва ижодига нисбатан ижобий маънода ишлатган “шодлик ва бахт куйчиси” деган шоирона таъриф замона зайли билан XX аср сўнгги чорагидан салбий маъно касб эта бошлагани кишини ўйлантиради. Абдулла Орипов шу хусусида фикр билдириб: “Биз Ҳамид Олимжонни шодликни кўпроқ куйлаган деяпмиз. Лекин у фақат ўйин–кулгини куйлаган давра шоири эмас эди–ку! Улкан тарихий ҳақиқатлар, ўша замоннинг дардлари, уруш, тинчлик, виждон, севги, вафо, садоқат сингари ўлмас ҳислар шоир ижодида қатлам–қатлам бўлиб турибди–ку! Шодликни куйлаётган шоир бирдан Муқанна бўлиб фарёд уради. Севгидан бахтлиман деб турган ошиқ шоир Офелияга кўшилиб, нола чекади: “Шундайин латофат, шу оқ кўкракка// Наҳот муносибдир шу ғамгин либос?// Онанг шунинг учун суюнганмиди, // Наҳотки, шу сифат гўзалликка хос?// Жавоб бериб кўр–чи, номард табиат, // Бунчалик гўзални нечук яратдинг?// Ўзинг гуноҳкорсан, осийсан беҳад, // Нечун яратдинг–у, ўтларга отдинг?// Ҳали севишмоқдан шумиди маъно?// Фақат азоб бордир қисматда, наҳот?// Наҳотки, севгига шудир таманно?// Наҳот гўзал учун фақат, фақат дод!...” ... Умуман, Ҳамид Олимжон мансуб авлод вакиллариининг истеъдод даражаси ғоят юксак экани ҳайратланарлидир. Бу, албатта, жадидлар замонидан бошланган улкан руҳий тўлқиннинг давоми бўлиши мумкин. Кейинги авлод адибларининг парвози у қадар баланд бўлмагани эса ҳаммамизга аён. Шу сабабли, биз “катта” деб атайдиган авлод адибларининг мақоми кейинги даврларда ҳам баралла кўзга ташланиб турди... Тенгдошларини сира камситмаган ҳолда, айтиш керакки, Ҳамид Олимжоннинг ижоди ва фаолияти ҳамманинг эътироф этишига арзигуликдир... Жузъий бир хулоса шуки, Ҳамид Олимжоннинг ижодий истеъдоди юксаклигини ҳеч ким инкор этолмайди” деб таъкидлаган (5: 323 – 326–бетлар).

Ҳамид Олимжоннинг фаолияти билан боғлиқ факт, далиллар, у қолдирган ижодий мерос – шеър, дoston, таржима ва мақолалар у ҳаётдаги ижтимоий ўзгаришларни зийраклик билан идрок этган ва замона зайлига қараб, иш тутган катта шахс бўлганига аниқ исбот бўла олади. Шоир, адиблар уни ташкилотчи раҳбар сифатида эътироф қилгани, ҳукумат бошлиқлари, амалдорлар унинг фикрини эътиборга олгани ҳам шундан далолат беради. Кўпчиликнинг бири бўлиб, умргузаронлик қиладиганлар эса турмуш қийинчиликларидан нолиш, арз–дод қилишга мойил бўлишади. Улар ўзаро билан гаплашганда ҳам кўпроқ замона носозлигидан бир–бирига шикоят қилишади. Катта шахслар бундай нолишлардан ҳеч қандай натижа чиқмаслигини яхши билишади ва замонанинг талабларига мос ҳаракат қилишади. Чунки замонанинг умумий оқимиға қарши бориш, ҳукмрон сиёсатга эътироз билдириш ҳар қандай кишини ҳалокатга элтади. XX асрда ва ундан аввалги замонларда жаҳон тарихида кечган воқеа–ҳодисалар кишини шундай хунук, мудҳиш хулоса чиқаришга мажбур қилади. Ўтган асрнинг 20 – 30–йилларида Европада ҳам, Осиёда ҳам, Ер шарининг бошқа қитъаларидаги мамлакатларда ҳам кескин ижтимоий ўзгаришлар рўй бериб, бундан барча миллат зиёлилари энг кўп жабр кўрган. Собиқ шўро мамлакатаида эмас, Эрон, Туркия, Ҳиндистон ва бошқа давлатларда ҳам

хокимият зиёлиларни исканжага олиб, уларни қаттиқ таъқиб қилган. Стефан Цвейг (1881 – 1942), Нозим Ҳикмат (1902 – 1963) сингари машҳур ижодкорларгина эмас, Альберт Эйнштейн (1879 – 1955), Маҳатма Ганди (1869 – 1948)дек XX асрнинг энг машҳур кишилари ҳам мустабид ҳукумат тазйиқидан бошқа мамлакатларга кочиб, жон сақлаган. Жаҳон тарихи шундан гувоҳлик берадики, ўтган юз йилликда инсон кадрини топташ, ҳақ–ҳуқуқини талаб қилганларни таъқиб этиш, мавжуд тузумга қарши чиққанларни аёвсиз жазолаш, оммавий қатағон, қирғинлар ўтказиш деярли барча давлатларда бир–бирига ўхшаш тарзда кечган. Шунинг учун Ҳамид Олимжон, Ғафур Ғулом ҳам, турк шоири Нозим Ҳикмат ҳам зулмат замон фожиасини шу замонда яшаганларнинг тақдири, халқларнинг аччиқ қисмати, кўргилиги сифатида талқин этган. Инсонга ижтимоий ҳодиса сифатида қараш устувор замонда шоир, адиблар ижтимоий–сиёсий воқеалардан ўзини четга ололмаган. Улар мавжуд воқеликка ҳукмрон мафкура мезонларига мувофиқ муносабат билдиришган. Айтиш мумкинки, билдиришга мажбур бўлишган. Ҳамид Олимжон ижтимоий мавзудаги шеърларида нафақат ўзининг, балки ўша давр ижодкорларининг қалб нидоси, армон, афсус, надоматларини, келажакка умид билан қарашини ифодалаган. Айни ҳолат Ғафур Ғулом, Ойбек, Миртемир, Мақсуд Шайхзода ижодида ҳам, Рабиндранат Тагор, Нозим Ҳикмат сингари жаҳон адабиёти намояндалари асарларида ҳам яққол кузатилади. Уларнинг муҳаббат мавзусидаги шеърларида ҳам, табиат манзараси тавсифланган асарларида ҳам инсон ижтимоий ҳодиса бўлиши баробарида, ҳар бир одам ўзига хос жумбоқ экани диққат марказига кўйилади.

Ҳамид Олимжоннинг шеър, дostonларидан киши руҳига хуш ёқадиган жарангдор мусиқий оҳанг эшитилади. Айни хусусият унинг муҳаббат мавзусидаги шеърларида янада бўртиб туради. Аёнки, ҳар бир шоирнинг ижодида хилма–хил хусусиятлар жамулжам бўлса–да, лекин улар орасида айримлари бўртиб, қабариб, алоҳида ажралиб туради. Ҳамид Олимжон асарларида эса жўшқинлик, ҳаяжон, эҳтирос ҳисси ярқираб кўринади. “Бахтлар водийси”, “Нима бизга Америка?” ёки “Шодликни куйлаганимнинг сабаби”да акс этган жўшқинлик, ҳаяжон, эҳтирос шоирнинг қалбидаги изтироб, рухий оғриқлардан ўсиб чиқиб, ижтимоий дард ифодасига айланганини ҳар бир ўқувчи, албатта, пайқайди. Айни пайтда у мавжуд воқелик, ҳукмрон мафкура шоир кечинмаларига йўналиш бериб, унинг туйғу ва эҳтиросларини оловлантирганини ҳам сезади. Ҳамид Олимжон мумтоз адабиёт вакилларида фарқли ҳолда, муҳаббат ҳақидаги ўйларини ҳам ўзининг шодлик ҳисларига йўғириб ифодалайди. Шоирнинг бу хусусидаги изтиробли ўйлари ҳам, қувонч ҳислари ҳам унинг қалбидан чуқур ўрин олган инсонни шарафлаш истаги, унинг қадри учун кўйиниш ҳиссидан қувват олади. Шоирнинг ўтмишдаги севишганлар фожиасидан изтироб чекиши, ижтимоий адолатсизлик ҳукм сурган замонда норасоликларидан нолиши шуни билдиради. Ҳамид Олимжон муҳаббат мавзусидаги шеърларида оташин севги билан боғлиқ эҳтиросли кечинмаларини қаламга олади ва бу туйғу севишганларни ҳақиқат учун курашга, инсонпарварликка ундашини ва шу боис муҳаббат ҳисси барча замонда муҳим ижтимоий аҳамиятга эгаллигини таъкидлайди. Айни ҳолат ҳозирги янги давр – шўро замонида яққол намоён эканини “Зайнаб ва Омон” дostonида исботлайди. Ҳамид Олимжон мазкур

достонида ҳам, ушбу мавзудаги бошқа шеърларида ҳам севган киши адолат қарор топиши, ҳақиқат тантанаси учун курашиши, ўз манфаатидан кўпчилик манфаатини устун қўйиши, айна чоғда у ўзининг ҳақ–ҳуқуқлари топталишига йўл қўймаслиги ғоясини илгари суради. Бунга шоирнинг: “Ҳар юракнинг бир баҳори бор, // Ҳар бир қалбга ишқ бўлар меҳмон // Ҳар юракда гуллар муҳаббат, // Бўстон этар уни бегумон. // Лекин Лайли бошига келган // Қора кунлар бизга ёт бугун. // Бизга ётдир Ширин бахтини // Поймол этган у қоп–қора тун” шеъри мисол бўла олади. Ҳамид Олимжон айна шеърига татар шори Ҳоди Тоқтошнинг: “Муҳаббат // Ул ўзи эски нарса, // Лакин ҳар бир юрак // Они ёнгорта...” сатрларини пешсўз сифатида келтирган. “Зайнаб ва Омон” муаллифи бу мавзудаги бошқа шеърларида ҳам ҳар бир кишининг кўнглидан кечадиган энг мураккаб туйғу ва ҳиссиёт – муҳаббатни эҳтиросга тўлиб, содда ва таъсирчан ифодалаган. Унинг айна мавзудаги шеърларининг муаяйн мисраси эмас, ҳар бир сўзи ёқимли эшитилади. Шунинг учун уларни кўпчилик дарҳол ёдлаб олади, ўспиринлар давра, йиғинларда завқ билан айтиб юради. Шоирнинг “Жануб кечасида” шеърида самимий севги инсонни фаолликка, эзгу ишларга, бунёдкорликка ундовчи куч экани таъкидланади. Чунки унда: “Сен бўлмасанг шу оч тўлқинлар // Кўринмасди сира кўзимга, // Сен бўлмасанг ўзимнинг кўнглим // Кирмас эди айтган сўзимга. // Сен бўлмасанг этмасди хурсанд // Сув устида сузиб юрган ой, // Ҳамиша шўх, доимо баланд // Юлдуздаги жон ёқар чирой. // Қарашларинг тинчимни олиб, // Чертиб кетди қалбим торини, // Шундан кейин сездим юракда // Шунча кучлик ўтнинг борини. // Айтиб бер–чи, шунча севганлар // Бўлганмикан менча бахтиёр? // Айтиб бер–чи, қайси қиз бурун // Севиб бўлган умид билан ёр?” дейилади. Ҳамид Олимжон севги ҳисси ҳар бир киши ҳаётида жиддий бурилиш ясаши, унинг нафақат вужудида, балки онгу тафаккурида – ҳаётга қарашларида ҳам ўзгариш ясаши, ана шу туйғу таъсирида одам унга берилган умр моҳияти, унинг маъно–мазмуни ҳақида ўйлай бошлашига шу тарзда ишора қилган. Ҳамид Олимжоннинг лирик қаҳрамони ўзининг оташин севгиси, ёниқ эҳтироси билан ўзига нисбатан ҳурмат, эҳтиром ҳиссини уйғотади. Ёниқ эҳтирос, жўшқинлик шоирнинг муҳаббат мавзусидаги шеърлари ичидан “қизил ип” каби ўтиб, уларнинг ҳар бир мисрасига авжи баланд жарангдорлик бағишлайди. “Ҳаёлимда бўлдинг узун кун...”да олий ниятдан, самимий тилакдан туғилган муҳаббат ҳисси: “Ҳаёлимда бўлдинг узун кун, // Сени излаб қирғоққа бордим. // Оч тўлқинлар пишқирган тунда, // Топиб бер, деб ойга ёлвордим. // Ишон, бунда сени доимо, // Эсга солур чиройли тунлар, // Шўх юлдузлар, салқин сахарлар, // Эсга солур бахтиёр кунлар. // Толеимнинг ошиноси сан, // Сен севгимнинг кўқарган боғи. // Сенинг билан бирга иқболим, // Ишончимнинг сен вафо тоғи. // Мени қуршар салқин бир ҳаво, // Сув устидан тун куйилади. // Шунда қанча–қанча гапларни // Эсга солиб ой ҳам тўлади. // Кеча жимжит, ёлғиз тўлқинлар // Пишқиради билмай тинимни. // Ҳийлагар ой, сеҳргар дилбар, // Солиб қўйдинг ёдимга кимни?” деб тараннум этилади. Ушбу шеър “Сен бўлмасанг шу оч тўлқинлар”нинг мантикий давомидай кўринади. Чунки иккала шеър марказида ҳам севгисидан сурур туйган лирик қаҳрамон образи туради. Бу образ тасаввуримизда табиатнинг кўркама манзараси фонида маъшуқасига интизор, қалби қувончга тўлган ёр сиймоси сифатида гавдаланади. Айна шеърларнинг лирик қаҳрамони мумтоз шеърият мазмун–мундарижасини

белгилайдиган ишқ–мухаббат кўйига тушиб, сарсон–саргардон юрган, қалби ҳасрат, изтиробга тўлган, бу дунёдан умидини узган, одамлардан кўнгли қолган дардманд, бечора, ғариб эмас. “Хаёлимда бўлдинг узун кун...” қахрамони – мақсадига эришишига қатъий ишонган, эрки ўз қўлида бўлган, ишқ–мухаббати йўлидаги тўсиқларни енгиб ўта оладиган, севгисидан мамнун ошиқ. У севгисининг сеҳри билан маҳбубаси қалбини забт этишига ишонади, мухаббатини бошқалар барбод қилишидан хавфсирамайди, ёниқ ички кечинмаларини, эҳтиросга тўла кайфияти, қувончини замонасида ижтимоий адолат барқарорлиги билан боғлайди. “Сен бўлмасанг...”, “Хаёлимда бўлдинг...”нинг лирик қахрамони севги унга куч–қувват бағишлаётгани, шу боис у эзгу ишларга, бунёдкорликка чоғланаётгани, севгининг бу ажойиб кудратидан миннатдорлиги, шунинг учун севгилисини самимий ихлос билан севиши, у билан боғлиқ умид ва хаёлларини жўшиб баён қилади. Ҳамманинг ҳаёти муттасил хавотирда кечган, айниқса, шоирлар, адиблар, журналистлар – зиёлилар сўзлаётган чоғида ҳам, ёзаётган пайтида ҳам ич–ичидан қўрқиб турган, кўпчилик ниманидир ўқиётганида ҳам ҳадиксираб, хавотирга тушган зулмат замонда ҳаётга бунчалик умид билан қарагани, севги–мухаббат тўғрисида оташин шеърлар битгани Ҳамид Олимжон ҳассос қалб инсон, замон ўзгаришларини теран идрок этган, иродаси мустаҳкам шахс, жўшқин шижоатли шоир бўлганидан дарак беради. Шоирнинг “Хаёлимда бўлдинг...”, “Офелиянинг ўлими”да севги–мухаббат мавзудаги энг яхши шеърларга хос хусусиятлар мужассамлиги, улар айна мавзудаги лириканинг энг ёрқин намуналари қаторидан муносиб ўрин олиб келаётгани ҳам буни тасдиқлайди. Оташқалб шоир шеърларининг бундай мақоми улар адабиётнинг асл асари эканига ёрқин исбот бўла олади. “Хаёлимда бўлдинг...”, “Жануб кечасида”, “Офелиянинг ўлими”да ҳам, бошқа мавзудаги шеърларида ҳам шоир мумтоз адабиётнинг мазмун–мундарижасини белгилаб келган “олий услуб”ни, унга хос жимжимадорлик ва сўзбозликни инкор этиб, шеърятни жонли ҳаётга яқинлаштирган. Шу боис ўқувчи айна шеърларнинг мазмунидан таъсирланиб, жарангдор оҳангидан гўзаллик туяди. “Хаёлимда бўлдинг узун кун” муаллифининг шеърлари айна шу жиҳатига кўра ҳам ўзбек адабиётининг порлоқ асарлари сирасига киради.

Аввалги асарларига қиёслаганда “Офелиянинг ўлими”, “Ўрик гуллаганда” шеърларида шоирнинг фикрни аниқ, равшан ифодалаш, эътибор қаратилган ҳолатга алоҳида урғу бериш, сўзнинг жарангини кучайтириш борасидаги маҳорати ошгани яққол кўринади. Ушбу шеърлар лирик қахрамонининг кечинмалари, замон ва макони, ирқи ва дини, дунёқараши ва дидидан қатъи назар, барча севишганлар қалбидаги қувонч, шодлик ҳисларининг тараннуми бўлиб туюлади. Шунинг учун Ойбек ҳассос қалб шоирнинг юксак шахси, сўз санъаткори сифатидаги маҳорати ҳақида сўз юритиб, унинг “Ўрик гуллаганда”сини “ҳар мисрада шеърят юлдузи чакнаган шеър”, “бадий соддалик, самимийликнинг жонли ўрнаги” деб таърифлаган ва : “Унда на фикрчилик бор, на безак бор, на санъатпардозлик бор. Бу сўзлар ҳар ким айта оладиган содда ва табиий. Лекин унда шоирнинг юраги уриб туради” деб таъкидлаган (3: 202–бет).

Ойбек, Мақсуд Шайхзода, Асқад Мухтор, Ҳамид Фулом, Абдулла Орипов ўзининг ҳаёт тажрибаси, бадий ижодни идрок этиш даражасидан келиб чиқиб, Ҳамид Олимжон ижодига баҳо берган. Уларнинг бу хусусдаги

мулоҳазалари “Хаёлимда бўлдинг узун кун” муаллифи асарларини тўғри тушуниш, моҳиятини англаш, шоирнинг бадиий маҳоратини илғашда асқотади. Албатта, шоир, адиблар эмас, ўқувчилар ҳам бадиий асарларни ўз дунёқараши, ҳаёт тажрибаси, дидига мувофиқ идрок этади. Ўқувчиларнинг бадиий асарга ёндашиши, муносабатини белгилашда улар яшаган замон мезонлари ҳам муҳим аҳамият касб этади. Айни чоғда улар ўша асар қайси даврда, қандай шароитда битилганини ҳам билиши ва буни эътибордан четда қолдирмаслиги жоиз. Ойбек ҳам, Мақсуд Шайхзода ҳам, Абдулла Орипов ҳам Ҳамид Олимжон асарлари чуқур ҳаётий асосга эга эканини таъкидлашади. Бу эса “Шодликни куйлаганимнинг сабаби” ва бошқа асарлардаги ҳозирги замон мафкурасига, халқимизнинг мақомига, ҳаёт ҳақиқатига тўғри келмайдиган ўринлар: “Москвада суянган тоғи, // Гуржистонда севган ўртоғи”/ (“Ўзбекистон”), “Қўшиқ одамларни Ленинга элтган, // Қўшиқ Сталинни ахтарган йиллар” (“Чирчиқ бўйларида”), “Сталиннинг номини айт, // Болам мард бўл, жангга кир” (“Йигитларни фронтга жўнатиш”), “Русия, Русия, менинг ватаним, // Мен сенинг ўғлингман, эмасман меҳмон” (“Русия”)га ўша давр мураккабликларини эътиборга олган ҳолда, баҳо беришни тақозо қилади.

Ҳамид Олимжоннинг ижтимоий мавзудаги шеърларида шўро тузумига чин дилдан ишонган, унга садоқат билан хизмат қилишни дилига туккан ватанпарвар қиёфаси акс этса, севги–муҳаббат мавзуидаги асарларида қалбида самимий севги ҳисси жўш урган, бутун борлиққа қараб завқланадиган ўтюррак ошиқнинг ҳис–ҳаяжонга тўла туйғу, кечинмалари ифодаланади. Унинг жўшқин ҳиссиёти самимийлиги боис замондошларимиз ва келгуси авлодлар қалбига ҳам ўз таъсирини ўтказди. “Сен бўлмасанг...”, “Хаёлимда бўлдинг...”нинг лирик қахрамони туйғулари рост, самимий экани, у ҳеч кимни алдамаётгани, севгиси ҳирс ва таъмадан батамом холи экани, у севгилисига садоқатли бўлишига ҳамма дил–дилидан ишонади. Бу лирик қахрамоннинг истак, интилишларига қаршилиқ қилишга, унинг сўзларини рад этиш, инкор қилишга ҳеч ким ботинолмайди, бунга унинг виждоними, бошқа, аллақандай кучми йўл қўймайди. Бунга шунинг учун ҳам урғу беряпмизки, севгиси тўғрисида тўлиб–тошиб гапирадиганларнинг барчасига ҳам ишониб бўлмайди. Чунки айримларда бу ҳиссиёт мавсумий, вақтинчалик бўлса, баъзилар бой–бадавлат кишининг қизига уйланиб олиш ҳисобидан ўз аҳволини ўнглашни, мансаб–мартабага эришишни режалаштириб ҳаракат қилади. Улар ўзларининг бу худбинона мақсадига эришиш учун ҳар қандай актёрни ортда қолдирадиган даражада ролга кириб, ўзини чин ошиқ қилиб кўрсатади, атрофдагиларни бунга ишонттиради. Бундайлар ҳалол йўл билан киши бой–бадавлат бўлолмайди, деган дунёқараш билан яшашади ва ўзларининг худбинона, чиркин ақидаларини оқлаш учун мисоллар келтириб, асослар кўрсатишади. “Хаёлимда бўлдинг узун кун...”, “Офелиянинг ўлими” лирик қахрамони эса бундай “севги”ни қабиҳлик санайди. “Фарҳод ва Ширин” достонидаги Хусрав, “Ўткан кунлар” романидаги Ҳомиднинг Кумушга муносабати заминидан севги эмас, қабиҳлик яшириниб туради. Хусрав, Ҳомидга ўхшаганлар севги–муҳаббат борасида ҳам зўравонлик ёки бойлик воситасида мақсадга эришиш мумкин, деб ўйлашади. Масалан, Хусрав Ширинга уйланиш орқали арман мамлакатига ҳам ўз ҳукмини ўтказишни истаса, Ҳомид Мирзакарим кутидорга куёв бўлиб, унинг мол–

давлатини эгаллаб олишни мақсад қилади. Хусравнинг Ширин билан бирор марта учрашиб, гаплашмагани ҳолда, уни севишини даъво қилиши шундан далолат беради. Ҳомиднинг ҳам аҳволи шундай. У Кумушни бирор марта кўрмаган, Мирзакарим кутидор билан ҳам унинг кўзининг оку қораси, ягона фарзанди – Кумушга кўнгли борлиги, унга уйланиш ниятида эканлигини билдирмаган. Бундан ташқари, Хусравнинг бир неча хотини, ҳарамида ўнлаб канизаги бор. Ҳомидни ҳам уйда бир эмас, икки хотини кутиб туради. Бунинг устига, бу сохта ошиқларнинг ёши Ширин ва Кумушникидан анча катта – орадаги фарқ ўн–ўн беш ёшдан кам эмас. Хусравнинг тахтга даъвогар ўғли Парвез ҳукмдор бўлиш ҳамда Ширинга уйланиш мақсадида отасини ўлдиргани ҳам шундай хулоса чиқариш учун етарли асос бўла олади. Ҳомиднинг икки марта уйлангани, хотинларига золимона муносабати ҳам у бадфеъл кимса эканлигидан далолат беради. Ҳомид табиатан тузук одам эмаслиги романда: “Унинг Қўқондан қайтиши иккала хотини учун ҳам улуғ бир фалокат бўлди. Чунки арзимаган бир сабаб билан иккаласи ҳам яхшигина таёқ еб олди. Шунинг учун икки кундош унинг олдига киришдан қўрқиб, яна тўғриси, унинг совуқ афтини кўришдан жирканиб, ҳовлининг чет–четида юрарлар, икки кундош билиттифоқ унга ўлим сўрарлар: “Қўқонда ўлса, ўлигини итлар еса, биз ачинарми эдик!” деярлар эди. У ўтирган кўйи нима тўғрисида бўлса ҳам жуда бош оғритиб ўйлар эди. Шу чоғда унинг тусидан йирткичлик, бир гуноҳсизнинг устига ҳужумга ҳозирланган ваҳшийлик белгилари кўрилури эди” (7: 64–бет) тарзида қаламга олинади. Отабекнинг Кумушга интилиши беғубор, самимий инсоний ҳисларга асосланса, совуқ афтини кўришдан хотинлари жирканадиган Ҳомиднинг Мирзакарим кутидор кизини қўлга киритиш йўлидаги уринишлари, қабих қилмишлари заминида гўзалликни беғараз севиш, қадрлаш эмас, балки Кумушни хотин қилиб олиш орқали давлатманд қайнотасининг мол–мулкини эгаллаб олиш истаги туради. Ҳамид Олимжоннинг “Ҳаёлимда бўлдинг узун кун...”, “Жануб кечасида”, “Офелиянинг ўлими”даги лирик қахрамон севгиси Отабекнинг севгисига ўхшайди. Чунки унинг севги ҳисси худди Отабекнинг Кумушга ишқи каби моддий манфаатдор бўлишни мўлжал қилмайди. Отабекнинг Кумушга муҳаббати беғараз, самимий экани, у гўзаллик ошиғи эканига атрофдагилар ишонади. Ҳасанали Отабекнинг айна ҳолати ҳақида унга: “Айби йўқ, ўғлим, муҳаббат жуда оз йигитларга муяссар бўладиган юрак жавҳаридир” (7: 28–бет) деса, Зиё Шоҳичи Мирзакарим кутидорга: “Муҳаббат деган нарса жуда оз кишиларга насиб этадиган дурри бебаҳодир. Қадрдонингиз Юсуфбек ҳожининг ўғли Отабек бир неча кунлардан буён бениҳоя бир дард билан оғрир эди” (7: 43–бет) дейди.

Севги ҳисси кишига борлиқни унинг одатдаги кўринишидан бўлакча – чиройли, кўркам, мафтункор кўрсатади. Балоғат ёшига етган, йигит ва кизнинг юз–кўзи, қиёфасида аллақандай нур, таъсирчан куч пайдо бўлади. Унинг юз–кўзи, қиёфасидаги ана шу нур, таъсирчан куч кимнидир беҳосдан ўзига оҳанрабо каби тортиб, уни беҳаловат, безовта қилади, оромини олиб, унинг кўзига теварак–атрофдаги нарса–ҳодисаларни аввалгидан кўра бошқача – жозибадор кўрсатади ва ҳаётида кутилмаган жиддий ўзгаришлар ҳосил қилади. Айна ҳолатни Ҳамид Олимжон: “Сен бўлмасанг этмасди хурсанд // Сув устида сузиб юрган ой”, “Ишон, бунда сени доимо // Эсга солур чиройли тунлар, // Шўх юлдузлар, салқин сахарлар, // Эсга солур

бахтиёр кунлар” деб ифодалайди. Бу шеърнинг майин, силлиқ, равон мисраларидаги маъно–мазмун жиҳатидан ўзаро боғланган сўзлардан тараладиган жарангдор оҳанг кишининг руҳига хуш лаззат бағишлайди. Нафақат одам ёки бошқа жонзотлар, балки ўсимликлар, ҳатто, сув ҳам оҳанглардан таъсирланади. Ҳамид Олимжон шеърлари оҳангида ажиб латифлик барқ уради. Бу ўзига хослик бошқа шоирлар шеърлари билан қиёслаганда янада яққол билинади. Инсоннинг руҳи латифлиги боис ҳар бир кишига “Ўрик гуллаганда...”, “Хаёлимда бўлдинг узун кун...”, “Жануб кечасида”, “Ҳар юракнинг бир баҳори бор...” шеърларидаги жарангдор оҳанг жуда хуш ёқади. Ундаги мусиқийлик ҳар қандай одамнинг ички ҳиссиётларини жунбушга келтиради. Ундан завқланмаслик, таъсирланмаслик мумкин эмас. Бу шеърлардаги оҳанг товланишлари қалбда аллақандай ғулув ва ғалаён пайдо қилади. Шу сабабдан бу шеърларнинг маъно, мазмуни хусусида киши кўп–да ўйлаб ўтирмайди. Чунки ҳар қандай оҳанг товланиши одамларнинг ҳиссиётини алдаб аллалайди. Аслида кишилар ҳиссиётига берилиши натижасида фаол ҳаракатга киришиб, муваффақиятга эришади ёки янглишиб, хатога йўл қўяди. Ҳамид Олимжон, Ғафур Ғулом, Ойбек, Максуд Шайхзода, Миртемир, Зулфиянинг оташин ватанпарварлик руҳидаги шеърлари замондошлари ва кейинги авлодлар қалбида шўро сиёсатига ишонч туғдириб, уларни мустабид давлат мафкурасига маҳлиё қилиб келгани шундан далолат беради. Хусусан, Ҳамид Олимжоннинг “Ўзбекистон”, “Россия”, “Шодликни куйлаганимнинг сабаби”, “Зайнаб ва Омон” каби асарлари шоирнинг замондошлари ва кейинги авлодлар маънавий ҳаётида чуқур из қолдирган. Чунки айна асарлар Асқад Мухтор таъкидлаганидек, “лириканинг нафис сеҳри билан суғорилган” (2: 186–бет). Уларда фаол ҳаёт тарзи билан яшаган ватанпарвар шоирнинг жўшқин ҳиссиётлари, бой ички дунёси, даврнинг энг мураккаб ижтимоий жараёнларига муносабати ўз ифодасини топган.

Албатта, ҳозир бу асарлар шўро давридагидан бошқача талқин этилади. Чунки ижтимоий ҳаётдаги кескин бурилишлар таъсирида уларда илгари сурилган ғоялар чиппака чикқан. Лекин Ҳамид Олимжоннинг аксарият шеър, дostonлари маъно–мазмуни, ғоясидан қатъи назар, бадий асар сифатида эскирмаган. Чунки уларда оташқалб шоирнинг юрагидаги дард, ҳаяжон алангаланиб туради. Бу шеър, дostonларни ўқиганда киши шоирнинг қалбидаги жўшқинликни, ундаги фидойи ватанпарварликни, одамларга самимий меҳрибонликни ҳис қилади ҳамда ўзидаги ана шу ҳислар қувватланганини, албатта, пайқайди. Айна ҳолат эса Ҳамид Олимжон ижоди юракда илиқ ҳислар, жўшқин туйғулар уйғотадиган инсонпарвар шеърят эканлиги аён этади. Шоирнинг шеър, дostonларида теран фикрлар жўшқин туйғулар билан ажиб тарзда уйғунлашиб, қалбда ҳаётга ишонч билан қараш, катта максadлар сари интилиш ҳиссини уйғотади. Шунда одам ўзини ич–ичидан аллақандай нурлангандай сезади.

Ҳамид Олимжон ижодида ижтимоий мавзу салмоқли ўрин тутади ва шоир тарихий фожиалар, давр жароҳатлари, замоннинг ижтимоий муаммолари, инсон қадри тўғрисида жўшиб, эҳтиросга тўлиб сўз юритади. “Ўрик гуллаганда” муаллифи фаолияти ва ижодига хос айна жиҳат хусусида Асқад Мухтор шундай деган: “Ҳамид Олимжон Шарқнинг энг йирик лирикларидан. У лириканинг кучига чуқур ишонч билан қаради, ўзининг

барча жанрдаги асарларини лириканинг нафис сеҳри билан суғорди. Лирика инсоннинг бой ички дунёсини, даврнинг энг мураккаб жараёнлари моҳиятини очиб беришга қодир деб ҳисоблади... У ўзбек ва рус тилларида мукаммал сўзлар, ўзининг оташин ватанпарварлик руҳидаги шеърларини катта аудиторияларда мислсиз маҳорат билан ўқир эди. Ўрта Осиё вакилларининг митингида сўзлаган нутқи қулоғимда ҳамон янграйди: “Менинг халқим, – деган эди у ўшанда, – ўз тақдирини Шарқдаги барча халқларнинг, иттифокдаги барча халқларнинг тарихий тақдири билан боғлаган. Қуёшни парчалаб бўлмаганидай бу буюк иттифокни ҳам парчалаб бўлмайди!”. Ўша кунлари “Правда”да худди шу руҳдаги машҳур “Россия” шеъри ҳам эълон қилинди. Бу ишонч, бу қатъият, изчиллик бизнинг маънавий ҳаётимизда чуқур излар қолдирди, албатта” (Ўша манба. 186–бет). Чунки Фитрат, Чўлпон, Абдулла Қодирий, уларни устоз санаган Ойбек, Ғафур Ғулом, Ҳамид Олимжон, Мақсуд Шайхзода, Абдулла Қаҳҳор, уларга таассуб қилган, эргашган Асқад Мухтор, Ҳамид Ғулом, Шукрулло, улардан кейинги авлод вакиллари: Одил Ёқубов, Пиримкул Қодиров, Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов, Рауф Парфи сингари шоир, адиблар одамлар чин инсон бўлиб яшаши, маънавий камолотга эришиш учун интилиши, қалбини турмуш ғубор, чангларида ҳамоя қилиши, руҳини покиза асраши учун адабиёт зарур, уни бошқа бир нарса билан алмаштириб бўлмайди, деб қарашган. Ҳамид Олимжон ҳам ҳар бир одам ватанпарвар, инсонпарвар бўлиб улғайиши, курашиши учун адабиёт жуда керак, деб билган. Чунки Ҳамид Олимжоннинг жўшқин ҳисларга йўғрилган жарангдор сатрлари, Абдулла Қаҳҳорнинг “Даҳшат”, “Анор”, “Ўғри” ҳикояларида ифодаланган дард шу пайтгача ҳаётга лоқайд, бепарво қараган кишилар қалбидаги тўнғиб қолган туйғу, ҳиссиётларини уйғотади. “Дўстимга” шеъридаги: “Кўз тутади далада баҳор, // Булоқлар қайнасин қўйнингда, // Кутмакдадир эл туриб наҳор, // Қарзи бордир сенинг бўйнингда. // Тонг отади ўлкада ҳар кун // Ҳар кун чиқар ярқираб офтоб, // Ҳар соф сахар, ҳар бир тиниқ тун // Шараф бер, деб этади хитоб. // Тонг бошланар далада, тоғда, // Ўлка солур юрагинга нур, // Ҳар ҳодиса, ҳар бир оддий кун // Шараф бер, деб этадир мажбур...” ёки “Ўлка” шеъридаги: “Мен дунёга келган кунданок // Ватаним деб сени уйғондим, // Одам бахти биргина сенда // Бўлурига мукаммал қондим. // Қулоғимга номинг кирганда // Қумлик каби ташна боқурман, // Сенинг жаннат водийларингдан // Наҳрлардай тўлиб оқурман” каби сатрларни табиатан ташаббускор, серғайрат, чарчаш нималигини билмайдиган, бошқаларни ҳам тиндирмайдиган, янгиликка интилишдан тўхтамайдиган ижодкоргина бита олади. Ҳамид Олимжоннинг шеър, дoston, балладаларига кўчган унинг бу жўшқин табиати, ғайрат–шижоатга тўла феъл–атвори ҳақида Асқад Мухтор шундай деган: “Мен у киши билан умрнинг энг оғир палласида, умуман, халқ ҳаётининг шиддатли йилларида танишган эдим. У сеvimли шоиргина эмас, шахс сифатида ҳам ажойиб, жозибали, жўшқин ва қатъий киши эдики, ҳайратомуз қобилиятлари, ўткир ақли ва туганмас ғайрати ўша йилларидаги умумиттифок адабий ҳаёти учун катта омад, балки тарихий зарурат бўлгандир. Унинг, бир қарашда, оддийгина кўринган ҳаёти фавқулодда талантнинг ички ёлқини билан чарақлаб турарди. Бундай шахс эса одатда, даврнинг долғали воқеаларидан четда туролмайди. Давр уни инсон маънавияти зилзилаларида имтиҳон қилди, уларни идрок этишга чақирди” (2: 184–бет).

Ҳақиқатан, қисқа бир муддат – 1914 йил ва 1939 йилда бошланган, бири тўрт, иккинчиси беш йил давом этган иккита жаҳон урушини кўрган, унда бевосита иштирок этган, миллион – миллион одамларнинг ёстиғини қуритган бу хунрезликнинг барча азоб–уқубатларини бошидан кечирган, очарчилик, қаҳатчилик кийноқларини умрини охиригача унутолмаган Ҳамид Олимжон мансуб авлод инсоният ҳар жиҳатдан зилзила ичида қолган даврда яшаган. Чунки бу даврда дунёнинг барча давлатларида ҳокимият билан фуқаролар ўртасида келишмовчилик, зиддият кучайиб кетган, одамлар айниқса, зиёлилар қаттиқ таъқиб остига олинган, уларни қамаш, сургун қилиш, отиб ташлаш авжига чиққан, жуда кўп ўлкаларда анча вақт қурғоқчилик содир бўлиб, ғалла, озиқ–овқат танқислиги юзага келган, очарчилик, касалликдан минг–минглаб одамлар ўлиб кетган. Ҳамид Олимжон мансуб авлод ижодкорлари асарлари ана шундай аянчли замонда битилган. Шунинг учун бу авлоднинг онг–тафаккури, дунёқарашига даврнинг жароҳат, оғриқлари ўз таъсирини кўрсатган. Шу боис шеър, достон, балладаларида Ҳамид Олимжон қалби қувончу қайғуларга лиммо–лим, шижоатли, серғайрат, куйинчак шоирга айланган. У замондошларини, келгуси авлодларни ўз изтироблари, эзгу ҳис–туйғуларига ошно этишни истаган. Шу боис бизга эриш туюладиган “Йигитларни фронтга жўнатиш” шеъридаги: “Сталиннинг номини айт, // Болам, мард бўл, жангга кир. // Душманни қув элимиздан, // Кетидан елдай югур” мисралари ёки “1924 йил 21 январиди Самарқанд” шеъридаги: “Кўп эскидир олам ва унда // Кўп буюклар ўтгандир, бироқ // Бироқ Ленин тарих сўнгида // Буюклардан чиқди буюкроқ. // Кўз илғамас қоп–қора тунда // Ўқиб чиқди олам китобин, // Ва тинглади, қамоқ, сургунда // Ҳар бир очнинг қилган хитобин. // Марксдайн зўр бошни топди, // Сталиндай йўлдошни топди. // Бир жанговар элни топди ул” сатрлар учун Ҳамид Олимжон ва у мансуб авлодни маъзур тутиш керак. Чунки кишилар бир–биридан хавфсираб қолган мустабид замонда яшаган бу ижодкорлар кўнглини очадиган дардқаш, дарди ҳол қиладиган ишончли суҳбатдош тополмаган. Улар ўз ватанида якка ва ёлғиз мусофир бўлиб қолган. Шунинг учун зулмат замоннинг эрки, инсоний ҳақ–ҳуқуқи топталган, иложсиз қолган бу бечора фуқароларига таъна қилиш, айбдор этиш эмас, балки уларнинг аҳволини тушуниш лозим. Иложсиз қолганнинг ҳолатини ҳис қилган киши эса унга, албатта, ачинади. Чунки бечораларга маломат тошларини отиш мардлик саналмайди. Бундай қилиш барча замонда одамгарчиликка номуносиб иш ҳисобланади. Чунки бировга таъна қилиш, айбини юзига солиб, унга маломат тошларини ёғдириш маънавий баркамол кишиларнинг шаънига мос келмайди. Кишини камситиш, масхаралаш, таҳқирлашни қоралайдиган, инсонпарварлик, демократияни байроқ қилиб олган XXI асрда айни ҳолат жуда хунук кўринади. Инсоният Ер шари унинг ягона уйи эканини англашга интилаётган ҳозирги замонда ўзгаларга бундай муносабатда бўлиш кишининг маънавий мажруҳлигини билдиради. Негаки вазият, шароитни эътиборга олмаслик, кишининг ҳоли, аҳволини тушунмаслик одамгарчилик мезонларига тўғри келмайди.

Ҳамид Олимжон мансуб авлоднинг дили пок, мақсади эзгу бўлган. Улар шўро ҳукуматининг ислоҳотлари натижасида ўлкадаги аянчли аҳвол, қолоқлик, қашшоқлик барҳам топади, одамларнинг турмуши ўнгланиб, барча фаровонликка эришади, деб сидқидилдан ишонишган. Айб, гуноҳ дейиш мумкин бўлса, бу авлоднинг, умуман, шўро замонида яшаганларнинг бирдан–

бир айби, гуноҳи – шу. Шўро ҳукумати ўзининг хаёлий ғоялари, баландпарвоз шиорлари, бир–биридан ширин ваъдалари, масалан, таълим олиш, даволаниб саломатлигини тиклашни бепул қилиб қўйиши каби барчага бирдай ёқадиган илтифотлари билан одамларнинг кўнглини хушнуд қилган. Қаҳатчилик, очарчиликни кўравериб, ғамга ботган одамлар чеҳрасида эса табиийки, шўронинг бундай илтифотлари туфайли табассум пайдо бўлган. Уларда шўронинг ислохотлари, барча нарсаси бошқа мамлакатлардагидан афзал, файзли; капиталистлар, мулкдорлар худбин, манфаатпараст, фақат ўз фойдасини ўйлайди, бошқаларга “қул” деб қарайди, бойлар ўзи меҳнат қилмасдан, бошқаларни эзиб ишлатиш ҳисобига яшайди, ишчилар, деҳқонлар эса очиқ кўнгил, яхши одамлардир, деган ишонч туғилган. Чунки барча замонда одамлар табиатан орзу–хавасга берилишга мойил бўлади. Улар ҳеч қачон борига шукр этиб, қаноат қилиб, яшай олмайди. Мавжуд турмуш кишиларни ҳеч қачон қаноатлантормайди. Ҳар қандай тўкин турмуш ҳам одамларни тезда зериктиради. Шу туфайли улар доим ўз турмуш тарзини ўзгартиришга интилади. Ҳамид Олимжон мансуб авлоднинг бизга хато, айб, гуноҳ бўлиб кўринадиган ишонувчанлигини қоралашдан аввал қадимгиларнинг “Эҳтиёт кўрғонига кириш билан тақдир ҳужумидан қутулиб бўлмас” деган ҳикматини эслаш ўринли бўлади. Қолаверса, “Ўрик гуллаганда...”, “Хаёлимда бўлдинг узун кун...”, “Ҳар юракнинг бир баҳори бор”, “Ҳолбуки тун...”, “Офелиянинг ўлими”, “Зайнаб ва Омон”, “Роксанинг кўз ёшлари”, “Муқанна” сингари ўзбек адабиётига зеб бериб турган бири биридан бебаҳо асарлари боис ҳам Ҳамид Олимжонга таъна қилиб, уни айблаб бўлмайди. Даҳшатли уруш кетаётган, доимий хавотир ҳукм сурган, эртанги кунга умид сўнган, ҳисобсиз кийинчиликлари билан кишиларни кийноққа солган бир замонда бундай беназир асарлар битиш илоҳий тақдир эгаларига насиб этади. Шўро замонида кечган номақбул ишлар учун Ҳамид Олимжон мансуб авлод шаънига хўп таъналар қилиниб, уларга кўп маломатлар ёғдирилди. Таъна, маломатдан сўнг эса, одатда, қалбдаги ғазаб, нафрат ҳисси босилиб, уларнинг ўрнини айбдорга ачиниш, уни тушунишга интилиш, меҳр билан қараш ҳисси эгаллайди.

Болалигидаги ёрқин хотиралар, ўша пайтларда уни қамраб олган ҳаяжон ҳассос қалб шоирнинг “Куйчининг хаёли”, “Ойгул билан Бахтиёр”, “Семурғ ёки Паризод ва Бунёд” каби асарларига кўчган. Ҳамид Олимжоннинг болалиги, мактабларда таҳсил олиши, ижодкор сифатида шаклланиши эса ўша вақтдаги ўзбек ёшлари таржимаи ҳоли билан деярли бир хил кечган. Унинг ҳам дунёқараши Жиззахда очилган Нариманов номидаги тўлиқсиз ўрта мактабда ўқиганида, Самарқанддаги ўзбек билим юртида, Ўзбекистон Олий педагогика институти иқтисод факультетида таҳсил олганида совет педагогикаси таъсирида шаклланиган. Шунинг учун Ҳамид Олимжон ижодида кундалик воқеаларга муносабат билдириш, ҳаётга шўро мафқураси асосида қараш, унинг ғояларини ёқлаш, тарғиб–ташвиқ этиш асосий ўрин эгаллаган. Ҳамид Олимжон мансуб авлод инқилобнинг аҳамиятини англаш, унинг ютуқларини кўра билиш, тан олиш, ҳис қилиш учун ўтмишнинг мудҳиш фожиали саҳифаларини очиб ташлаш керак, деб тушунган. Чунки бу авлод вакиллари одамларнинг ўтмишдаги ночор турмушини, юртдошларининг аянчли аҳволини, ижтимоий муносабатлар мураккаблигини кўриб, бениҳоя азоб чеккани туфайли турмуш воқелигига шўро мафқураси талаблари асосида

ёндашишган. Ҳамид Олимжон ҳам шу боис ижтимоий ҳодисаларга баҳо беришда юзакиликка, бир томонламаликка берилган. Аммо мавжуд ўзгаришларга муносабатини эҳтирос билан ифодалашда унинг ёрқин истеъдоди порлаб кўринган. Шоир кўллаган бадий тасвир воситалари, қофиялар у битган шеър, дostonларнинг таркибий қисмига айланиб, улардаги маъно–мазмунни ёрқинлаштиришга, ғояни бўрттириб ифодалашга хизмат қилган. Айрим ижодкорларнинг ёзганларида эса ўхшатиш, сифатлаш кабилар шунчаки фон ёки шоҳи сўзанадаги чипта ямоқдай ғалати кўринади. “Ўзбекистон”, “Ўрик гуллаганда”, “Ҳаёлимда бўлдинг узун кун...”, “Куйчининг хаёли”, “Ойгул билан Бахтиёр”, “Зайнаб ва Омон”да, шоирнинг бошқа асарларида эса ўхшатиш, сифатлаш, муболаға занжир ҳалқалари каби бир–бири билан боғланиб, маънони ёрқинлаштиришга, унга таъсирчан тус беришга хизмат қилади, тўқ қофиялар бири биридан кучлироқ жаранглаб, кишига кўтаринки кайфият бағишлайди. Шеър аввалида бошланган қофиялар жаранги бир текисда авжланиб, яхлит симфония ҳосил қилади. Бу симфониянинг кўнгилга хушнудлик бағишлайдиган жарангдор садолари шоирнинг жўшқин қалби билан ўқувчи, тингловчи дилини бир–бирига яқинлаштириб, уларни яқдил, ҳамжихат қилади. Шу боис китобхон Ҳамид Олимжон шеърларининг мусиқаси оҳангига берилиб, уларнинг ғояси, мазмунига маҳлиё бўлиб қолади. Бундан эса Ҳамид Олимжон шеърятининг энг қимматли жиҳати ҳалқчиллик экани аёнлашади. Унинг шеър, дoston, поэмалари, таржималари, “Муқанна”си, публицистик мақолалари кишилар қалбини ўтмишдаги жаҳолат, қолоқлик, ёвузлик, бугунги ҳаётдаги турли чиркинликларга нисбатан нафрат, эзгуликка интилиш, гўзалликни кадрлаш ҳисси билан тўлдиради.

Ҳамид Олимжон мансуб авлод ижодида замонавий ўзбек шеърятини шакл ва мазмун жиҳатидан камолотга эришди. Улар шеърят мавзусини кенгайтириб, жонли, содда, ҳалқ тилининг рангдор жилоларини намоиш этишди. Бу хусусда Ойбек “Ўзбек адабиёти” мақоласида: “Ғафур Ғулом, Ҳамид Олимжон, Уйғун, Шайхзода каби шоирлар ўзбек совет поэзиясини мастерларча ишланган мукамал шеърлар ва дostonлар билан бойитмоқдалар. Бу шоирларнинг ҳар бири поэзияда ўз хусусий овозларига эгадир. Буларнинг ҳар бири маълум тараққиёт этапларидан ўтиб, бу кун бадий сўз мастерлигининг юқори даражасига кўтарилдилар. Ўзбек адабиётининг бу илғор намояндalари ёлғиз поэзия соҳаси билан чегараланмай, бошқа жанрларда, масалан, драматургияда ҳам гўзал, қимматдор асарлар яратмоқдалар” деган (3:185–бет). Ҳамид Олимжон мансуб авлод ижоди туфайли Махмудхўжа Бехбудий, Фитрат, Абдулла Қодирий, Ҳамза, Чўлпон асарларида юз кўрсатган ижтимоий мотивлар замонавий ўзбек адабиётида мустаҳкам ўрин эгаллаган. Бу, ўз–ўзидан аёнки, узоқ замонлар панд–насихат руҳидаги дидактик асарлар, диний–тасаввуфий ғоялар доирасида қолиб келган ўзбек адабиёти учун жиддий ўзгариш эди. Чунки Ҳамид Олимжон мансуб авлод шеърятини Навоий, Бобурдан аввалги ва кейинги авлод шоирлари ижоди билан қиёсланса, ўзбек мумтоз адабиётида мавзулар доираси узоқ замонлар давомида тор, чекланган ҳолда қолгани, сўз ўйини ва санъатпардозлик бадий маҳорат мезони бўлиб келгани аёнлашади. Ҳамид Олимжон ва у мансуб авлод вакиллари мумтоз шеърятимиз намояндаларидан фарқли ҳолда, фикрини турли рамзларга ўраб

мавхумлаштирмасдан содда, очиқ айтади. Ҳамид Олимжон, Ғафур Ғулом, Мақсуд Шайхзода ижодида шўро турмушини шарафлашга, душманларга қарши курашга, тинчликни сақлашга, эл–юрт равнақи учун бунёдкорлик меҳнати билан шуғулланишга, халқлар ўртасидаги дўстлик, ҳамжихатлик, ҳамкорликни кучайтиришга чақирувчи эҳтиросли шеърлар салмоқли ўрин тутади. Аини мавзудаги шеърлар умумлаштирувчи хусусиятга эга экани, аҳолининг барча табақасига қаратилгани, мурожаат, таъкидга асосланиши, яъни ижтимоий салмоққа эга эканлиги билан эътиборни тортади. Ҳамид Олимжон бу йўналишдаги асарларида элдошларининг ўтмишдаги аянчли турмушини кўриб эзилгани, мустамлака асоратида қолиб эзилаётган мазлум Шарқ халқларининг аянчли турмушидан хабардорлиги, шу боис шўро инкилобига ишонч билан қараши, унинг ислохотларидан умиди катта эканини изҳор этади. Энг муҳими, аини асарлар курук ташвиқот, ваъзгўйлик доирасида қолиб кетмайди. Уларда оташин ватанпарварлар ва ўтюррак шоирнинг жўшқин қалби, нозик туйғулари, самимияти, шўро мафкурасига маҳлиё замондошларининг умид ва ишончи акс этади. Жумладан, “Розимасман бир ёш томса кўзимдан, // Розимасман сал ранг кетса юзимдан, // Йўл ошсам–у, сал яшашдан адашсам // Розимасман унда тамом ўзимдан” сатрларида ҳиссиётга берилувчан, жўшқин эҳтиросли шоирнинг шижоатли қалби кўринади. Куч–ғайрати танасига сиғмайдиган, ташаббускор, серҳаракат кишиларгина ўзига шундай талабчанлик билан қарайди. Чунки тиниб–тинчимайдиган, изланувчан, фаол ҳаёт тарзи билан яшайдиган одамлар ўзининг хатти–ҳаракатидан, эришган натижаларидан ҳеч қачон қаноатланмайди. Улар доим олдинга интилади, ҳар хил ғовлар, турли тўсиқлар қаршисида тўхтаб қолмайди. Машаққатлар, мушкулликлар уларни янада фаолроқ бўлишга, ҳаракат қилишга ундайди. Улар бошқаларга ўхшаб қийинчиликлардан чўчимайди. Аксинча қаршиликка дуч келганда улардаги шижоат, интилиш янада кучаяди. “Розимасман бир ёш томса кўзимдан” деганда Ҳамид Олимжоннинг табиатидаги зўр шижоат, ҳаракатчанлик кўринади. “Розимасман унда тамом ўзимдан” сатридан эса ноҳақликларни кўравериб толикқан, замон зулмидан азобланган, лекин унга қарши чиқишга ботинолмаганидан изтиробга тушган шоирнинг аламли охи, ўтли нидоси эшитилади. “Зайнаб ва Омон” муаллифининг аксарият шеърлари, эътибор берилса, зулмат замонда яшаган шижоатли шоирнинг ўша пайтдаги кайфияти, ҳолатига тамоман мувофиқ экани ойдинлашади.

Очарчилик азоби, қашшоқлик алами, зўравонлар зулми, амалдорларнинг таъқиб, дағдағаси, қариндошлари, яқинларининг қамалиши, уйида, ишхонасида тинтув ўтказилиши, ҳасадгўйларнинг зимдан берган зарбаси, тухматчиларнинг тўсатдан қиладиган таҳдиди, бошлиқларнинг доимий тазйиқи машаққатларидан беҳабар кишилар шўро даври одамларининг аянчли аҳволини англамайди. Шунинг учун мустақиллик даври одамларидан айримлари Ҳамид Олимжон, Ғафур Ғуломлардан норози бўлади, уларни “шўро ҳокимияти маддоҳи” деб айблайди. Улар Ғафур Ғуломга машҳур “Соғиниш” шеъри дастлабки нашрлари: “Боғда товус каби хиромон бўлиб, // Умид данагини бирга экингиз. // Ғолиб келажакни сайр қилайлик, // Мўйсафид Сталин билан иккимиз” (8: 112–бет), “Кузатиш” шеъри: “Сафлар олдида бўл, мард бўл, ботир бўл // Дўстларга ҳамоҳанг жўра бўл, жўр бўл. // Сталин хурмати, Ватан хурмати, // Халқимнинг хурмати, ғолиб

бўл, зўр бўл!” (8: 102–бет) тарзида тугаллангани учун таъна қилишади. Улар “Сен етим эмассан” шеъри ҳам ўша пайтда: “Домовой книга// бош саҳифаси// Сталин номила бошланур бизда// Оила бошлиғи// ота Сталин// Бахтли манглайингга// Бўса кўндирмиш// Сенда тезда улғайиб// Олам кезасан// Манглайди порлаган// Бу бўса – қуёш// Бутун ер юзини// Қилур мунаввар” (8: 99–бет) тарзида босилиб чиққанидан ранжишади. Ҳамид Олимжон мансуб авлод ўз ҳаётини сақлаш учун “Кўп яшасин, кўкларга қадар// Кўтарилсин бу элнинг боши// Олатовнинг бошида порлар// Сталиннинг бахт қуёши// Бу бахт билан насллар яшар// Бу бахт билан ҳаёт фаровон// Йиллар турсин, йилларча турсин// Бошимизда Сталин омон”(Ҳамид Олимжон. “Қозоғистон”) деганини эътиборга олмайди. Ваҳоланки, дилларга ўрнашган “Ўзбекистон – Ватаним маним” деган тушунчанинг заминиди Ҳамид Олимжоннинг Ўзбекистон ҳақида 30 – 40–йилларда битган шеърлари туради. Ушбу тушунча айнан шу шоир шеърларининг шарофати билан юртдошларимиз онгидан мустаҳкам жой олган. Ҳамид Олимжон шеъридаги: “Ўхшаши йўқ бу гўзал бўстон// Достонларда битган гулистон // Ўзбекистон дея аталур// Уни севиб эл тилга олур// Чиройлидир – гўё ёш келин// Икки дарё ювар кокилин// Қорли тоғлар турар бошида// Гул водийлар яшнар қошида” сатрларини ўқиётгани, тинглаётганида ҳар бир юртдошимиз қалбида беихтиёр шодлик ҳисси жўш уради. “Шўро сиёсати душмани”, “миллатчи” деган бўҳтонлар хавф солиб турган бир пайтда ажодлари яшаб ўтган маконни “ўхшаши йўқ бу гўзал бўстон” деб таърифлаш, “Бир ўлкаки ҳуснга бойдир, // Унинг энг зўр кўзгуси ойдир” деб шарафлаш шоирнинг “оташин ватанпарвар” (Ойбек)лигидан, у зўр шижоат ва жасорат соҳиби бўлганидан дарак беради. Ҳамид Олимжонни шўро замонидаги доимий таъқиб, тазйиқлар толиқтирмагани, ундаги кўтаринки руҳни сўндиролмагани, ўшандай бир ғурбат замонда ҳам шоирнинг тушкунликка тушмасдан туғилган диёрини таърифлаш учун теша тегмаган, ҳеч ким қўлламаган, тоза, оҳорли ташбехлар топа олгани кишини ҳайратга солади. Чунки таҳликага тўла замоннинг таъқиб, тазйиқлари, меҳнатининг кадрланмаслиги, атрофдагиларнинг қашшоқ турмуши, қавм–қариндошлар хонадонидаги аянчли аҳвол ҳар қандай кишини жисмонан толиқтириб, руҳан азоблаб, унинг эртанги кунга ишончи, ҳаётга интилишини сўндириб қўяди. Бундай шароитда одам ҳамма нарсага бефарқ қарайдиган лоқайд, ночор кимсага айланиб қолади. Ҳамид Олимжон эса Ўзбекистонни юксак эҳтирос ва жуда чуқур эҳтиром билан таъриф этганки, унинг шеърларидаги таъсирчан, оҳорли ташбехлар таъсирида яшаб турган манзилимиз, жойимиз бизга янада хушманзара, жозибадор кўрина бошлайди. Ҳамид Олимжоннинг “Водийларни яёв кезганда...” деб бошланадиган шеъри Ватан мавзусидаги шеърларининг бири бўлиб қолмади. Унинг “Ўзбекистон”и ушбу мавзуга бағишланган кўпдан–кўп шеърлар орасида бамисоли қуёш бўлиб порлади. Ҳамид Олимжоннинг ушбу шеъри ватандошларимиз қалбига Ўзбекистон билан фахрланиш ҳиссини жойлади, шоирларнинг бир неча авлодини Ўзбекистон тўғрисида шеър битишга илҳомлантирди. Абдулла Орипов бу ҳақиқатни: “Ўзбекистон ҳақида анча шеърлар ёзилган эди. Хусусан, менинг кўз ўнгимда Ҳамид Олимжоннинг қасида шаклидаги “Ўзбекистон” шеъри турарди: “Водийларни яёв кезганда, // Бир ажиб ҳис бор эди менда. // Чаппар уриб гуллаган боғин, // Ўпар эдим Ватан тупроғин”. Ниҳоятда гўзал шеър. Лекин ўша даврнинг мафкураси Ҳамид Олимжонни

чеклаганлиги шундоқкина кўриниб турибди. Ҳамид Олимжон бу шеърда Ўзбекистонни, қандайдир мусиқавий, гўёки майин шаббода эсгандай тасвирлайди” деб эътироф қилган (5: 233 бет).

“Зайнаб ва Омон” муаллифи ҳам худди устозлари: Фитрат, Абдулла Қодирий, Чўлпон, Ҳамза, ўзи мансуб авлод вакиллари: Ойбек, Фафур Гулом, Абдулла Қаҳҳор, Мақсуд Шайхзода, Миртемир сингари ноёб истеъдод эгаси бўлгани боис ва ижодкор ҳамда шахс сифатида жуда тез улғайган, шоир, ташкилотчи раҳбар, арбоб сифатида тенгдошларидан анча ўзиб, олдинда юрган. Дастлабки тўпламлари билан кейинги китобларидаги шеър, дoston ва балладалар қиёсланса, “бахт ва шодлик куйчиси” сифатида ном қозонган шоир ижод сирларини эгаллашда бошқалар бир неча ўн йилда эришолмайдиган натижага жуда қисқа муддат ичида эришгани яққол кўринади. Ҳамид Олимжоннинг бошқа шоир, адиблар каби фақат ижод қилиш билан чекланмасдан жуда катта миқёсдаги ташкилий ишлар билан шуғуллангани – ўз идеалларини амалга ошириш, халқ манфаати, ватан равнақи йўлида фидокорона фаолият олиб боргани, бунинг самарасидан бир неча авлод баҳраманд бўлиб келаётгани у юксак ҳурмат ва эҳтиромга муносиб катта шахс эканини аён этади.

Албатта, Ҳамид Олимжон адабий меросида ижтимоий мавзудаги шеърлар салмоқли ўрин эгаллайди. Ундан аввалги ва кейинги авлодга мансуб шоирлар ижодида ҳам шу ҳолат кузатилади. “Бахтлар водийси” муаллифи ушбу мавзудаги шеърларида ўзи туғилиб ўсган ўлканинг ўтмиши ва ундаги кейинги ўзгаришларни қиёсланган, юртдошларининг аср аввалидаги ночор, аянчли турмушини кўриб, чеккан изтироб, аламларини, ижтимоий адолатсизлик ва зулмдан эзилган халқларга ачинишини, шўролар сиёсатидан умиди катталигини, шаҳар ва қишлоқлардаги ўзгаришлар уни бениҳоя севинтираётганини ҳаяжонга тўлиб ифодалаган. “Водийларни яёв кезганда./ Бир ажиб ҳис бор эди менда” деб қувонган шоирнинг ижтимоий мавзудаги шеърларида ёниқ эҳтирос, шўро сиёсатига ишонч асосий оҳангни ташкил этади. Айни шеърларда Ҳамид Олимжон ватанпарварлик ва халқпарварликни, эл–юрт манфаати йўлида ёниб яшаш, фидойи бўлишни эзгу инсоний қадрият санагани аён кўринади. Уларда акс этган шоир қалбидан отилиб чиққан эҳтиросли хитоблар шеърхонлар ва тингловчилар қалбида акс садо бериб, уларни эзгу амалларга, инсонпарварликка ундайди. “Бахтлар водийси”, “Ўзбекистон” каби шеърларида ўз ўлкасини жон–дилидан севган Ҳамид Олимжоннинг эҳтиросга тўла жўшқин қалбидаги ватанпарварлик туйғулари, юртдошларига чексиз меҳри, муҳаббати, шижоати, мағрурлиги ва қатъияти акс этган. Шоир ушбу шеърларида эскича яшашни, муте бўлиб қолишни рад этиб, янгиликка интилишни, замон ўзгаришларига пешвоз чиқишни ёқлаган. Ҳамид Олимжон шеърлятида публицистик руҳ кучлилиги, хитоб, мурожаат, даъват, таъкид шакли кўп қўлланиши, ўтмишдаги ночор, аянчли аҳволга алоҳида урғу берилиши, шўро ҳукуматининг ваъдаларига умид кўзи билан қаралиши, амалга оширилаётган ўзгаришларга катта ишонч билдирилиши ватанпарвар шоир ижодида даврнинг ижтимоий муаммоларига кенг ўрин берилгани билан белгиланади. “Бахтлар водийси”, “Нима бизга Америка?” сингари ижтимоий мавзудаги шеърларда нафақат Ҳамид Олимжоннинг, балки унинг замондошларининг ҳам ҳис–ҳаяжони, руҳий ҳолати, кўтаринки кайфияти, шўро тузумига ишончи акс этади. Ҳамид

Олимжоннинг “Бахтлар водийси”, “Нима бизга Америка?”, “Ўлка сафарбар”, “Биз энгдик”, “Темир қонун”, “Кадр”, “Ўлим ёвга”, “Тарих кўрганми?”, “Тайёр трактор”, “Сергак”, “Мудофаа кунларида” сингари шеърларида акс этган шижоат, жўшқинлик, ўзбек шоирининг Владимир Маяковский, Нозим Ҳикмат услубига тақлид этиши ўша пайтда ижтимоий ҳаёт ўлчовсиз даражада ўзгариб кетгани, кишиларнинг маънавий дунёси, ҳаётга қараши тамоман бошқа тус олгани, кескин янгиланишлар кўпчиликни кутилмаган ҳолатга солиб қўйгани, одамлар ҳаётга, меҳнатга, дўстликка ва бошқа кадриятларга тамоман бўлакча қарай бошлаганидан дарак беради.

“Муқанна” муаллифининг ижтимоий мавзудаги шеърларидаги жўшқин эҳтирос унинг муҳаббат мавзусидаги шеърларида ҳам авж пардаларда давом этади. Лекин уларда хитоб, даъват эмас, инсоний меҳрга тўла илтижо ҳисси устуворлик қилади. Ҳамид Олимжон муҳаббат мавзусидаги шеърларида Шарқ мумтоз адабиётидаги анъаналарга замонавий тус бериб, қалбидаги жўшқин ҳиссиётларни ифодалайди. Унинг муҳаббат билан боғлиқ ҳис-туйғулари мумтоз шоирлар ғазал, мустазод, рубоий, туюқларидаги сингари ясама, сунъий, мавҳум эмас, балки ҳаётининг эканлиги билан диққатни жалб қилади. Ҳамид Олимжоннинг бу мавзудаги шеърлари ҳам унинг бошқа мавзуларга бағишланган шеърлари каби ўзининг жарангдор мусиқий оҳанги билан қалбга таъсир этади. Шоирнинг айнаи шеърлари шу мавзуга бағишланган мумтоз асарлар сингари кишилар қалбига инсоний муҳаббатга эҳтиром ва садоқат ҳисларини олиб киради. Санъат ва адабиётнинг асл асарлари қадри эса одамлар қалбига эзгуликка интилиш ва ёвузлик, қабоҳатдан нафратланиш ҳиссини сингдириши, ёшларни шу руҳда тарбиялаши билан белгиланади. Ойбек шеърларида нозик туйғулар, нафис кечинмалар тасвирланса, Ҳамид Олимжон шеърлари жўшқин туйғулар, эҳтиросли кечинмаларга асосланади. Айнаи ҳолат эса бу иккала шоирнинг табиати, шахсиятидаги ўзига хосликдан келиб чиқади. “Ўрик гуллаганда”, “Хаёлимда бўлдинг узун кун...” сингари ишқий интим шеърларда эса Ҳамид Олимжоннинг нафақат шоир сифатидаги маҳорати, балки унинг маънавий дунёси ҳам намоён бўлади. Ушбу мавзудаги шеърларида унинг табиатига хос жўшқинлик, шижоаткорлик, гўзалликка мафтунлик янада ёрқинроқ кўринади. Шоирнинг муҳаббат ҳақидаги шеърлари кишини завқлантиради ва қувонтиради. Ҳамид Олимжон шеърларидаги бу ўзига хос жарангдор мусиқий оҳанг унинг қалбидан шалолалардек қуйилиб келган жўшқин ҳиссиёт, тоза туйғудан келиб чиқади. “Ўрик гуллаганда”, “Офелиянинг ўлими”, “Соғинганда”, “Бутун олам бир оппоқ сийна”, “Хаёлимда бўлдинг узун кун...”, “Ҳар юракнинг бир баҳори бор...”, “Жануб кечасида”да асл шеърларда шоирнинг шодлик, қувонч ҳислари, алам, изтироблари ифодаланиши бунга мисол бўла олади. Бу шеърлар жўшқин оҳанглардан иборат куйга ўхшайди. Уларнинг сатрларидаги фикр ва ҳиссиётлар эҳтиросга тўла шижоатли қалбдан отилиб чиққани билиниб туради.

Ўз-ўзидан аён, шу пайтгача бирор йигит айнан шу қизни ёки қиз айнан шу йигитни севиб қолганини аниқ изоҳлаб беролмаган. Аммо ҳамма ўзининг шу ажиб ҳолатини англашга ва уни бошқаларга тушунтиришга уринган. Бунинг учун ўша севганининг қиёфаси, кўринишини ҳис-ҳаяжон билан таърифлаб, унинг бошқалардан кўра ақлли, кучли, кўркем, гўзал, меҳрибон, ёқимли эканига ишонтиришга ҳаракат қилган. Чунки севганининг кўзига

севгилиси ҳаммадан устун, ҳаммадан афзал кўринган. Ҳамид Олимжон муҳаббат мавзусидаги шеърларида севишганларнинг ана шу мафтунлигини: “Сен бўлмасанг шу оч тўлқинлар // Кўринмасди сира кўзимга” (“Жануб кечасида”), “Борлиғимни исмингни айтиб // Чулғаб олар бир гўзал хаёл, // Ўша жилва ва ўша оташ, // Ўша кўзки, сузгун, хаёлкаш, // Ўша имо, ўша ишора // Эта бошлар юракни пора” (“Соғинганда”) деб ифодалаган. Шоир ушбу шеърларида: “Қарашларинг тинчимни олиб, // Чертиб кетди қалбим торини, // Шундан кейин сездим юракда // Шунча кучлик ўтнинг борини” (“Жануб кечасида”), “Ўша кўзки, сузгун, хаёлкаш...” (“Соғинганда”) тарзида кўз деталига алоҳида урғу берган. Бунда кишилар ўртасидаги муносабат, айниқса, севишганлар ўртасидаги яқинлик бир–бирини кўришдан, нигоҳ ташлашдан бошланиши, инсондаги севги ҳисси кўздан ўтиб, қалбга етиб бориши ва шундан кейин бутун вужудда аввал ҳис қилинмаган ғалаён бошланиб, кишининг ҳаётида кутилмаган бурилиш юз беришини назарда тутган. Чунки кишининг юз–кўзида унинг ички олами, сўз билан ифодалаб бўлмайдиган ҳақиқий ҳолати акс этади. Юзи ва кўзи кишининг асл ахволини, қалбида кечаётган ўй–фикрлар, ҳиссиётларни аён қилиб туради. Кишининг ошкор қилмаган истак–хоҳишлари, меҳри, қаҳри, ғазоби, нафрати, ачиниши ичидан кўзига сизиб чиқади ва унга қараган одамга дарҳол ўз таъсирини ўтказди. Кўздан ўтган бу таъсир қуввати дарҳол қалбда ғулу, ғалаён бошлаб, кишининг ўй–фикрини алғов–далғов қилиб юборади ва ўша лаҳзадаги қараш хаёлда ўчмас бўлиб муҳрланиб қолади. Одамнинг оёғи, қўли, елкаси, тирсаги, тиззаси эмас, кўзи кўп маъно англатади. Чунки кўз энг олий материя ҳисобланган мияга одамнинг бошқа аъзоларидан кўра яқинроқ туради ва ундан кўп қувват олади. Айни чоғда кўз мияни муттасил ахборот билан озиқлантиради. Яъни мия кўз орқали оламни кўради ва унинг сир–синоатларини идрок этади. Севганлар бир–бирига, ҳаммага қарагандек эмас, тамоман бўлакча нигоҳ билан қарашади. Уларни бўй–басти, устидаги либоси эмас, балки кўзи бир–бирига мафтун қилиб қўяди. Севишганлар бир–бири ҳақида ўйлаганида ҳаёлида аввало бир–бирининг кўзи – майин, мулойим, меҳрли, беозор, илтижоли қарашлари гавдаланади. Чунки инсоннинг кўзида унинг ўз ҳолати ҳақида маълум қилганидан кўра кўп маъно жойланади. Кимгадир мафтун бўлиб қолган киши дафъатан ўзини аллақандай бошқача бўлиб қолгандай – бахтлидай ҳис этади. Унинг кўзида сеҳрловчи ифода сезилади. Севги ҳисси ҳар бир одамнинг ҳис туйғуларини кучайтириб, уни меҳрибон, майин, мулойим қилиб қўяди. Ҳассос қалб шоир “Хаёлимда бўлдинг узун кун”, “Соғинганда”, “Офелиянинг ўлими”даги лирик қаҳрамонга ўз табиатидаги жўшқинлик, шижоатни, гўзалликка мафтунликни кўчиргани яққол билинади.

Ҳамид Олимжон шеърларида замонавий жаҳон шеърлятига хос жўшқинлик, даъват, чақириқ, таъкид каби энг яхши хусусиятлар мужассамлашади. Шоирнинг ижоди нафақат ўзбек фольклори, Шарқ мумтоз шеърляти, балки ўша пайтда машҳур бўлган Владимир Маяковский, Сергей Есенин каби рус шоирлари, Нозим Ҳикмат, Товфиқ Фикрат сингари турк шоирлари ижодидан озиқлангани яққол билинади. “Ўрик гуллаганда” муаллифининг Александр Пушкин, Константин Симонов шеърларини, Николай Островскийнинг “Пўлат қандай тобланади?” романини иштиёқ ва меҳр билан ўзбекчага ўгиргани шундан далолат беради. “Тикиламан

кўрганда...” (А.Пушкин), “Видо” (Байрон), “Мени кутгил...” (К.Симонов) шеърлари таржимасида унинг шоир сифатидаги юксак маҳорати намоён бўлади. “Мени кутгил...”нинг бир неча ўзбекча ўгирмаси орасида Ҳамид Олимжон таржимаси сўзларининг нафислиги, оҳангдорлиги, қофияларининг мусиқий жарангдорлиги билан алоҳида ажралиб туради. Таржималар таққосланганида Ҳамид Олимжон талантли шоир ва катта шахс бўлгани, у бу ажойиб шеърларни ўзбекчалаштиришда ҳар қандай шоир ҳавас қиладиган даражада юксакликка кўтарилгани яққол билинади. Бу таржималар билан танишаётганда Ойбекнинг Ҳамид Олимжонни “талантли шоир” дейиши ҳар жиҳатдан асосли экани, “Навоий” романи муаллифи бу фикрини чин дилдан, самимий айтгани, у “Зайнаб ва Омон”нинг муаллифи ижодига юксак эҳтиром билан қарагани янада аниқ аён бўлади. Ҳамид Олимжоннинг шеър, дoston, балладалари, таржималари мумтоз адабиёт намуналари билан қиёсланса, ўтган замон шоирлари ижоди чуқур умидсизлик кайфияти билан суғорилгани, улар ошиқларнинг чеккан азоб, изтироблари, уларнинг ғамгин хаёлларини қаламга олиш учун куч сарфлагани, шу билан боғлиқ ҳолда, узок замонлар давомида ўзбек шеърятининг мавзу доираси тор бўлиб қолгани, унинг мундарижасини ишқ ва ошиқлар тўғрисида куйлаш, дунёга сўфиёна қараш белгилаб келгани, ҳукмдорларга бағишлаб қасида битиш таомилга айлангани равшанлашади. Ҳамид Олимжон “Хаёлимда бўлдинг узун кун...”, “Ўрик гуллаганда” каби анъанавий шаклдаги шеърларида ҳам, “Нима бизга Америка?”, “Бахтлар водийси” каби ўзбек адабиёти учун ноанъанавий кўринишдаги битикларида ҳам чинакам шеър устаси бўлиб кўринади. Унинг бу шеърлари оҳорли ўхшатиш, сифатлашларга, ҳаётий деталларга бой бўлиб, ўзининг жарангдор оҳанги билан худди кучли оҳанрабо каби дабдурустдан диққатни ўзига тортиб олади. Шоирнинг содда, халқона тилда битилган айни шеърлари барчага бирдай хуш ёқади. “Бахтлар водийси”, “Нима бизга Америка?”да ҳам, бошқа шеърларида ҳам шоирнинг дунёқараши, унинг курашчан табиати, маънавий–ахлоқий олами очилади. Шоир шеър, дoston, баллада, мақола, таржималарида шўро ҳокимиятига ишончи чексизлигини, унинг мафқурасини ўз орзу–истакларининг мужассам ифодаси деб билишини зўр иштиёқ билан баён қилгани яққол билиниб туради. Чунки Ҳамид Олимжон ва у мансуб авлод ўзининг ижодий ва ижтимоий фаолияти билан тарихий вазиятга мослашишга интилган.

Ижодий салоҳияти бениҳоя баланд, фавқулодда шижоатли шоирнинг шеърлари мусиқий жарангдорлиги билан ўзи мансуб ва ўзидан аввалги авлод шоирлариникидан ажралиб туради. Кейинги авлод шоирлари ҳам Ҳамид Олимжон шеърятини учун хос хусусият бўлиб кўринадиган айни жозибадорликни чуқур мамнуният ва чин ҳавас билан эътироф этади. Хусусан, Абдулла Орипов 2009 йилда “Тафаккур” журналининг 4–сонида босилган “Қайғусини қувончга айлантирган эди...” сарлавҳали суҳбатида шоир “Ўзбекистон” шеърида Ватанимизни “қандайдир мусиқавий, гўёки майин шаббода эсгандай тасвирлайди” (5: 233–бет) деб таъкидлаган. Максуд Шайхзода эса ундан олтамиш йил олдин 1948 йил 3 июлда “Қизил Ўзбекистон” газетасида “Ҳамиднинг сози” мақоласида: “Ҳамид ижодиётининг энг бақувват бир хусусияти доимо олға қараш, шеърнинг савтларини авж пардаларига кўтара билиш, ёзганидан кўра яна яхшироқ ёзишга интилиш эди... Унинг қаламини янги давронларнинг қудратли ва

жонбахш ҳавоси парвариш қилди. Тарихнинг олға қараб юришини ўз шоирона юраги билан сезган Ҳамид гўё юртни ҳам, оламни ва табиатни ҳам янги авлоднинг ўткир кўзи билан янгича кўра бошлади. Олтин кундузлар, ойдин кечалар, она диёрнинг вазндор нағмаси ва хаёлчан боғларнинг бахмал соялари бу ҳассос шоирнинг юрагига кўйилиб сингиган лавҳалар эди” (6: 99 – 100–бетлар) деб эътироф қилган. “Ҳолбуки, тун”, “Кеча. Сахро. Уйку ва...”, “Мизимта дарёси”, “Қора денгиз бўйида”, “Чимён эсдаликлари, ”“Тунни излаш” каби шеърларда табиат манзаралари жўшқин эҳтирос, самимий ҳис-ҳаяжон билан тасвирланган. Улардаги оҳорли топилмалар, жарангдор қофиялар оташин ватанпарвар шоирнинг ҳассос қалбидан жарангдор мусиқий оҳангларга йўғрилиб, нурланиб чиққан. Шунинг учун Ҳамид Олимжоннинг шеърлятидаги содда ва сеҳрли сатрлар барчани бирдек ҳаяжонлантиради. Ҳассос қалбли шоирнинг шеър, дoston, балладаларида кўп асрлик ўзбек халқ оғзаки ижоди, мумтоз Шарқ шеърляти ҳамда замонавий жаҳон шеърлятининг саховатли таъсири яққол сезилиб туради. Ҳамид Олимжон ва у мансуб авлод шоирлари аввалги асрлар шоирларига қиёсланганда ҳаётга ҳавас билан завқланиб қарайди. XX аср ўзбек шеърлятининг бу забардаст вакиллари ижодида ҳаёт воқелигига даврнинг энг юксак идеалларидан туриб қаралади. Уларнинг шеър, дostonларида ижтимоий воқеликнинг мураккаб зиддиятлари, одамларнинг орзу–истаклари, армон ва интилишлари, золимларнинг зулми, мазлумларнинг дард тўла дунёси, ғурбатга тўла оламдан норозилиги акс этади. Бу шеър, дostonлардаги ташбех, сифатлаш, муболаға каби ҳар бир образли ифода, чақириқ, даъват қатида салмоқли ижтимоий фикр ётади. Шу билан боғлиқ ҳолда, шоирнинг шахсий–интим ҳис–туйғу, кечинмалари ҳам даврнинг долзарб ижтимоий муаммолари билан уйғунлашиб кетади. Ҳамид Олимжон мансуб авлод ўз асарларида шиддатли ўзгаришларга бой давр руҳини, қарама–қаршиликларга тўла ҳаёт манзараларини миллий рангларда ифода қилади. Тараққиётга тўсқинлик қилаётган эскилик қолдиқларига қарши муросасиз кураш, ижтимоий ҳаётда рўй бераётган янгилашларга хайрихоҳлик билан қараш, унда кечаётган инқилобий ўзгаришларни қўллаб–қувватлаш бу авлод ижодининг энг муҳим хусусияти бўлиб кўринади. Жонли халқ тилининг жозибадор жилолари, ундаги оҳангларнинг ранг–баранг товланишларини шеърлятнинг сеҳрли сахнасига олиб чиққан Ҳамид Олимжон мансуб авлод вакиллари – Ғафур Ғулом, Миртемир, Мақсуд Шайхзода, Зулфия шеърлари одамлар қалбини тиниқ туйғулар билан тўлдириб, уларни эзгу интилишларга ундайди. XX асрнинг “ахборот бўрони” ичида қолган кишилари ҳам “Ўзбекистон”, “Бахтлар водийси”, “Хаёлимда бўлдинг узун кун...”, “Ўрик гуллаганда” (Ҳамид Олимжон), “Сен етим эмассан”, “Вақт”, “Соғиниш” (Ғафур Ғулом), “Онагинам”, “Сурат” (Миртемир), “Тошкентнома” (М.Шайхзода), “Ўғлим, сира бўлмайдими уруш”, “Хотирам синиқлари”, “Мушоара” (Зулфия)ни ўқиганида, тинглаганида дилига аллақандай туганмас куч, ғайрат сизиб кираётганини, кайфияти кўтарилиб, руҳи қувватланиб бораётганини, қалбида ғайрат, шижоат, олижаноб ҳислар пайдо бўлаётганини пайқайди. Бу Ҳамид Олимжон, Ғафур Ғулом, Ойбек, Мақсуд Шайхзода, Миртемир ва Зулфиянинг ҳароратли сўзи таъсири экани, албатта, сезади. Замонавий ўзбек адабиётининг жанговарлик руҳини намоён этган бу шоирларнинг асарларида меҳнатқаш, меҳмондўст халқимизнинг ватанпарварлиги, инсонпарварлиги ва бошқа шарафли

фазилатлари эхтирос билан улуғланади. Бу уларнинг шахсий ҳаёти, қайнок фаолияти, ижоди мамлакатда кечган ижтимоий ўзгаришлар билан чамбарчас боғланиб кетганини билдиради. “Шодликни куйлаганим сабаби”, “Хаёлимда бўлдинг узун кун”, “Роксананинг кўз ёшлари”, “Куйчининг хаёли”, “Қамал қилинган шаҳар тепасидаги ой”, “Зайнаб ва Омон”да Ҳамид Олимжоннинг шижоатга тўла шахси, курашчан руҳи, қалбларда илиқ ҳислар уйғотадиган ўтли сўзи, унинг шеърлятига туганмас таъсирчанлик бағишлайдиган самимияти, инсонпарвар маънавий қиёфаси акс этади. Шу боис ҳассос шоирнинг шеър, дoston, таржималари билан танишган ҳар бир киши ўз ҳисларини янгилаб, туйғуларини қувватлантириб олади.

Ҳамид Олимжоннинг ҳаёти ва ижоди бир-бири билан чамбарчас боғлиқ яхлит ҳодиса бўлиб, унинг ҳаёти мазмуни, мақсад ва интилишлари моҳияти “Ўзбекистон”, “Шодликни куйлаганимнинг сабаби”, “Бахтлар водийси”, “Нима бизга Америка?”, “Русия”, “Хаёлимда бўлдинг узун кун”, “Қамал қилинган шаҳар тепасидаги ой”, “Йигитларни фронтга жўнатиш”, “Қўлингга қурол ол” каби шеърлари, “Зайнаб ва Омон”, “Ойгул билан Бахтиёр”, “Шоҳимардон”, “Икки қизнинг ҳикояси”, “Семурғ ёки Паризод ва Бунёд” сингари дostonлари, “Жангчи Турсун”, “Сосо”, “Башар қуёшига”, “Роксананинг кўз ёшлари” ва бошқа балладалари, А.Пушкин, К. Симонов каби шоирлар ижодидан қилган таржималари, “Салом, Пушкин”, “Фитратнинг адабий ижоди ҳақида”, “Социалистик реализмни эгаллаш йўлида”, “Мардлик, муҳаббат ва дўстлик дostonи” сингари мақолаларида ўз ифодасини топган. Улар ўз ҳаётини мамлакатимизда кечган ижтимоий ўзгаришлар билан боғлаган ва уларга умидвор бўлиб қараган ватанпарвар инсон, ҳассос қалб шоирнинг шахси ва ижоди, у яшаган давр мураккабликлари тўғрисида тасаввур ҳосил қилишга етарли имкон беради.

“Ғоят интизомли ва меҳнатқаш, болапарвар, боғида гул ўстиришга ишқибоз, очиқ кўнгил, ҳазил–ҳузулни яхши кўрган, топиб айтилган зукко бир гапдан хандон отиб, яйраб кулган, ҳаётсевар, оиласида ўғил фарзанд туғилишини кўп орзу қилган, ҳатто, туғилмаган ўғлига бағишлаб шеър ёзган фавқулodда шахс” (А. Орипов) Ҳамид Олимжонни кўрган–билганларнинг, жумладан, Ойбек, Мақсуд Шайхoда, Асқад Мухтор, Ҳамид Ғулoмнинг мулоҳазаларидан аён бўлишича, у минбарга чиқиб гапирганида, шеърларини ўқиганида йиғилганларнинг этини жимирлатиб, ўзига тамoман маҳлиё қилиб қўйган. Ўзбек ва рус тилларида бирдай равон сўзлай олган бу оташқалб шоирнинг жарангдор овози ва сўзларни талаффуз қилишида ҳамма ҳавас қиладиган аллақандай жoзиба, барчага ҳам насиб этавермайдиган алоҳида бир улуғворлик, салобат, ўзига ишонч ҳисси ва бошқаларни ишонтира олиш қобилияти барқ уриб турган. Унинг табиати, ички оламига хос ана шу оташин ҳаётсеварлик, шижоат ва жўшқинлик ҳисси шеър ва дostonлари, мақола ва таржималарига ҳам тўлиқ кўчиб ўтган. Ҳамид Олимжонни ёдга олганимизда юртимизнинг баҳор чоғидаги чаппар уриб гуллаган боғлари, кўм–кўк дала ва қирлари, чўққиларида қор ялтираб турадиган тоғлари, Аму, Сир ва Зарафшон дарёлари, бепоён пахта майдонлари, меҳнатқаш, меҳмондўст одамлари кўз олдимизда намоён бўлади. XX асрнинг энг яхши шоирлари қаторидан абадул–абад жой олган Ҳамид Олимжоннинг “Сен бўлмасанг шу оч тўлқинлар”, “Офелиянинг ўлими”, “Ҳар юракнинг бир баҳори бор” каби ҳар сатридан жарангдор оҳанг таралиб турадиган шеърлари лирика муҳаббатнинг

кувонч ва қайғуларини бекиёс юксакликка кўтаришининг ёрқин мисоли бўлиб кўринади. Шоирнинг шеърлари, дostonлари барчанинг қалбида бахтга интилиш туйғусини, ҳаётсеварлик ҳиссини уйғотади. Ўз асри, ўз замони талаб қилганидек шижоатга тўлиб яшаб ижод қилган Ҳамид Олимжоннинг “Ўзбекистон”, “Ҳаёлимда бўлдинг узун кун”, “Зайнаб ва Омон” каби асарларидаги ҳаёл–тасаввурни тиниқлаштирадиган мажозлар, кулоққа хуш ёқиб, руҳни озиклантирадиган оҳангларга йўғрилган, ҳар бир сўзида туганмас хаяжон, жўшқин қалбнинг шижоати баралла сезилиб турган сатрлар, бадий баркамоллик, инсониятнинг бахтли келажагига ишонч ҳисси барқ урган бандлар худди аввалгидаги каби ҳозир ҳам, бундан кейин ҳам кишилар учун эзгуликни улуғлаш, гўзалликни қадрлаш, бир–бирини ҳурмат қилишга даъват қилувчи туганмас маънавий манба бўлиб қолаверади. Шеър, дostonлари бошқа шоирларнинг асарларига қараганда тезда ёдда қоладиган, замонасининг барча ўзгаришларига зийраклик билан муносабат билдирган, ёзганларида ўзининг оташқалб шахсини, идеал шоир сиймосини намоён этган Ҳамид Олимжон асарларисиз асло ўзбек адабиётини тасаввур этиб бўлмайди. Бу эса ижодкор учун энг катта мақтовдир.

АДАБИЁТЛАР:

1. Минг бир кеча: араб эртаклари. 8 жилдлик. Ж.5. –Т.: О‘zbekiston, 2015. – 448 б.
2. Мухтор А. Шеър–шоир виждони: мақолалар, кундалиқлар, қайдлар, жанрини топмаган сатрлар, библиография.– Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011.– 444 б.
3. Ойбек Мусо Тошмуҳаммад ўғли. Мукамал асарлар тўплами: Ўн тўққиз томлик. Т.14. – Т.: Фан, 1979. – 440 б.
4. Олимжон Ҳ. Танланган асарлар. – Т.: Ўздавнашр, 1951. – 528 б.
5. Орипов А. Куёш бекати. Шеърлар, мақолалар, суҳбатлар, таржималар. – Т.: Sharq, 2010. – 384 б.
6. Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. 5–том: Адабий–танқидий мақолалар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 328 б.
7. Қодирий А. Ўтган кунлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 400 б.
8. Фулом Ф. Танланган асарлар. – Т.: Ўз ССР Давлат нашриёти, 1953. – 464 б.
9. Фулом Ҳ. Танланган асарлар. – Т.: Sharq, 2019. – 608 б.

БЕТАКРОР ИСТЕЪДОД ВА РАНГ– БАРАНГ ИЖОД

Усмонжон Қосимов, Юлдуз Каримова

Жиззах ДПИ доцентлари

Қадим ва бой тарихга эга бўлган адабиётимиз силсиласида муҳим бир босқич бўлган XX аср ўзбек адабиёти тарихини Ҳамид Олимжон ижодисиз тўлиқ тасаввур этиб бўлмайди. У тенгқурлари – Ғафур Фулом, Ойбек, Абдулла Қаҳҳор, Миртемир ва Шайхзода каби кўп қиррали ижод соҳиби эди. Ҳамид Олимжон ижодиёти ва шеърятининг ҳаётий манбалари нималардан иборат? Унинг етук ижодкор ва ёрқин шахс бўлиб улғайишида қандай ижтимоий–эстетик омиллар асосий рол ўйнайди? Ҳамид Олимжоннинг истеъдодли адабиётшунос ва жамоат арбоби сифатидаги фаолияти ва унинг

адабиётимиз, маънавиятимиз ривождаги ўрни, аҳамияти нималарда намоён бўлади? Ҳамид Олимжоннинг ранг–баранг ижодини ўрганиш бизнинг ўзлгимизни англашда, Ватанга садоқат руҳимизни юксалтиришда, шубҳасиз, беқиёс аҳамиятга эга.

Ҳар бир ижодкор шахс маълум бир давр фарзанди, муҳит ҳодисаси бўлганлиги учун ҳам, у яшаган даврнинг асосий тамойиллари, руҳи унинг ижодига ўз таъсирини ўтказиши табиий. Ҳамид Олимжон мустабид шўро тузумининг мафкуравий ҳукмронлик ва зўравонлик сиёсати авж олган бир пайтда тенгқурлари– Ойбек, Ғафур Ғулум, Қаҳҳор, Усмон Носир, Уйғун ва Миртемир сингари жўшқин овози ва истеъдоди билан адабиёт майдонига кириб келди. Таъкидлаш керакки, Ҳамид Олимжон авлоди ижод оламига кириб келган 20 йиллар бутун халқимиз ва маданиятимиз тарихида энг мураккаб ва зиддиятли бир давр бўлганлиги эндиликда рўйи рост кўрсатилмоқда. Бу мураккаб даврнинг ҳаққоний манзаралари – халқимиз ва миллатимиз бошига тушган фожеалар, энг аввало, Фитрат, Қодирий ва Чўлпонлар асарларида ҳам ўзининг ёрқин ифодасини топган эди. Баъзи адабиётшунослар давр ва адабиёт, жумладан, Ҳамид Олимжон ҳақида фикр юритиб, “Афсуски, бу истеъдод кўпроқ нокерак нарсаларга сарф бўлди. Начора, аслида бу ҳам шоирнинг қисмати: мурғак ёшиданок шўро таъсирида шаклланган, ўзига сингдиргани ёлғон ҳақиқатларга чин ҳақиқат дея, юракдан ишонган ва ўсмирларга хос ўжар фидойилик билан даврнинг зиддиятли ғоявий курашлар майдонига кирган фаол шахс”¹, деб ёзишади. Дарҳақиқат, Ҳамид Олимжон фаол, айни пайтда, ўзига хос ва кучли шахс бўлмаганда, сталинча катағоннинг ажал тегирмони уни ҳам жуда кўп зиёлилар қаторида ютиб кетиши ҳеч гап эмас эди. .

1937–йилни Ойбекнинг аёли Зарифахоним “бойқуш келган йил”, деб атайди. Зиёлиларга қирон келтирган бу йил Ҳамид Олимжонни ҳам четлаб ўтмади. Катағонга учраган ўзбек зиёлилари ҳақидаги адолатни тиклашда хайрли ишларни амалга оширган академик Наим Каримовнинг ёзишича², жумҳурият Ёзувчилар уюшмасининг биринчи раиси Раҳмат Мажидий ҳибсга олинганда, Ҳамид Олимжон сиёсий идорага қўнғироқ қилиб, унинг партия ишига садоқатли инсон эканлигини, унга нисбатан адолатсизлик рўй бераётганини айтади. Аммо сиёсий идорадагилар уни эшитишни ҳам хоҳламайдилар.

Ана шунда Ҳамид Олимжон: “Ундай бўлса, мени ҳам қаманг. Мен кўп масалаларда Раҳмат Мажидий билан маслакдош бўлганман”, дейди. Ҳамид Олимжоннинг йирик шахс ва шижоатли ижодкор эканлигидан ёрқин далолат берувчи бундай кескин эътирофларсиз ҳам шўро жаллодлари унинг боши учун ҳам дор тикмоқда эдилар. 1937–йил 14–декабрда бўлиб ўтган Ёзувчилар уюшмаси мажлисида Ҳамид Олимжоннинг шахсий масаласи кўрилади. “Халқ душманлари Акмал Икромов, Файзулла Хўжаевнинг чет элдаги шериклари Мустафо Чўқаев, Закий Валидийлар билан мунтазам алоқада бўлиб турган, халқ душмани Миртемирга моддий ёрдам берган. “Қизил қалам” ташкилотида Акмал Икромовнинг установа ларини

¹ Д.Қуроноф. “Адабиёт надур” ёки Чўлпоннинг мангу саволи. Т. 2006, 58-б.

² Н.Каримов. Ҳамид Олимжон. Шарҳ. Т.2013. 163-б.

амалга оширган, 1925–йили Олтой, Боту каби халқ душманлари билан алоқада бўлган. “Қизил қалам” жамиятида масъул котиб бўлиб ишлаб юрганда, номига фашистик журналлар келган. “Сиёб”, “Бухорони соғинганда”, “Ишим бордир ўша оҳуда”, “Зарафшон” каби шеърларида қора ўтмишни қўмсайди” каби айбловлар билан Ҳамид Олимжонга тухмат тоши ёғдирилади. Ҳамид Олимжонга нисбатан қўйилаётган сиёсий айблар кун сайин ортиб борди. Ўша пайтдаги энг нуфузли матбуот нашрларида (“Қизил Ўзбекистон”, “Маданий инкилоб” газеталари) Ҳамид Олимжон номига қора бўёқ чапланади. Ниҳоят, бу ишлар пироварди Ҳамид Олимжонни миллатчи шоир сифатида Ёзувчилар уюшмасидан ўчириш билан яқунланади. Бутун вужуди билан ўзининг ҳақлигига ишонган шоир қўмитанинг қарорига қарамасдан, Ёзувчилар уюшмаси йиғилишларида қатнашаверади.

Бу тўполоннинг охири, албатта, Ҳамид Олимжонни қамоққа олиш билан яқунланиши керак эди. Аммо шоир “Башар куёшига” шеърини ёзиб, уни ўша куни Ҳамза театрида қўйилиши керак бўлган спектаклдан олдин сахнага чиқиб, ҳукумат раҳбарлари олдида ўқиб беради. Шоир ана шундай тадбир билан 1937–йил қатағонидан ўз жонини сақлаб қолади. Агар Ҳамид Олимжонда ички бир қатъият, ўзига ишонч, матонат бўлмаганда эди, бекордан бекор нобуд бўлиб кетиши ҳеч гап эмасди. 1938–йил 18–апрелида Ёзувчилар уюшмаси қўмитасида шоирни Ўзбекистон Ёзувчилар союзида ҳақиқий аъзо қилиб қолдиришга қарор қилинади.

Ҳамид Олимжон ижодининг дастлабки онлариданоқ давр билан қанчалар ҳамнафас, ҳозиржавоб ва сермахсул қалам соҳиби бўлиб етишганлигини 30–йиллар бошида бирин–кетин нашр этилган асарларидан ҳам тасаввур этиш мумкин. Шоирнинг жўшқин ижодий фаолиятининг “Кўклам”и бўлиб, 1929–йилда майдонга келган илк тўпламидан сўнг қисқа вақт ичида “Тонг шабадаси” (1931) ҳикоялар тўплами, “Олов сочлар”(1931), “Пойга”, “Ўлим ёвга” (1932) шеърини тўпламлари китобхонлар қўлига етиб борди. Энг муҳими, бу тўпламларда Ҳамид Олимжонга хос бўлган кўтаринки руҳ, шоирона кенг мушоҳада ва тафаккур, янги ҳаётни поэтик идрок этиш, тасвирлаш қобилияти кучайиб борди.

Ҳамид Олимжоннинг аксарият шеърларида бахт ва шодлик мотивлари доимий етакчилик қилди. Бу ҳолат ҳам шоирнинг табиатидан, руҳиятидан келиб чиқади. Ҳамид Олимжон руҳан жўшқин, кўзи билан ҳам, қалби билан ҳам бирдек гўзалликка интилган, атрофни тўқис кўришга интилган ҳаётсевар ижодкор эди. Шунинг учун ҳам адабиётшунос Иброҳим Ғафуров:“Ҳамид Олимжоннинг руҳий дунёсида фожиали йўналиш йўқ. Шеър ва илҳомни шукуҳ, соф шукуҳ деб билади”³, – деб ёзганда ҳақ эди. Ҳақиқатан ҳам, Ҳамид Олимжон олий неъмат – латиф илҳомий ҳолатда сўзнинг илоҳий қудратини кўпроқ мунаввар туйғуларнинг ифодасига хизмат эттиради. Унинг “Энг гуллаган ёшлик чоғимда”, “Ишим бордир ўша оҳуда”, “Хаёлинг–ла ўтади тунлар...”, “Хайрлашув” каби дурдона шеърларининг ўқувчини оҳанграбодек ўзига тортувчи жозиба кучи ҳам шунда. Шоир соф лирикасининг энг гўзал намуналаридан “Ўрик гуллаганда”ни Ҳамид Олимжон ижодининг музайян поэтик чўққиси деб

³ И.Ғафуров. Мангу латофат. Т.Шарк. 2008. 77-б.

аташ мумкин. XX аср ўзбек миллий насрида “Ўткан кунлар” қанчалик мангуликка даъвогар бўлса, шеърятда “Ўрик гуллаганда” ана шундай боқийлик сари юз тутган асар. Зеро, Ҳамид Олимжон ижод этган давр ва ундан кейин ҳам адабиётимизда бахт, баҳор, ўрик гуллари ҳақида юзлаб шеърлар битилди, қўшиқлар ёзилди. Аммо ҳар йили ҳам ўзбек хонадонига баҳор Ҳамид Олимжоннинг “Ўрик гуллаганда”си билан кириб келади десак, барча юртдошларимизнинг фикрини ифодалаган бўламиз.

Деразамнинг олдида бир туп

Ўрик оппоқ бўлиб гуллади.

Новдаларни безаб ғунчалар

Тонгда айтди ҳаёт отини.

Ва шаббода курғур илк саҳар

Олиб кетди гулнинг тотини...⁴

“Ўрик гуллаганда” Ҳамид Олимжоннинг бетакрор илхомий ҳолатини ўзида намоён этган, унинг эстетик дунёсини, истеъдод даражасини кўрсатадиган шеър. Шоирнинг алдоқчи, йилларга қарата “Ҳар баҳорга чиққанда яккаш, Бахтим борми, дея сўрайман” саволида мамлакатда кечаётган 1937–йиллар сиёсатидан, муҳитидан зада қалбнинг умид, армон, ҳавотир ва изтирбга тўла ҳолати ҳам ўз аксини топган.

1938–йилда республикамизда Алишер Навоийнинг 500 йиллик юбилейига тайёргарлик бошланади. Ҳамид Олимжон Ҳукумат юбилей комитетининг илмий котиби, кейинчалик эса (1940–йил) Комитет раиси ўринбосари вазифасини бажаради. Ана шу йиллари Ҳамид Олимжон Навоий ижодининг улуғворлиги ва адабий меросининг аҳамияти ҳақида йигирмадан ортиқ мақолалар ёзади, маърузалар қилади. Ўзбек адабиётини юксалтиришда, чин маънода халқчил қилишда фольклорнинг аҳамияти буюклигини чуқур англаган Ҳамид Олимжоннинг “Алпомиш” достони устидаги бир олим ҳам муҳаррир сифатидаги фаолияти” (Миртемир) асрий олқишга сазовор меҳнатдир.

Ҳамид Олимжон Ўзбекистонимиз ва халқимизнинг бой маданияти ва тарихи билан ҳақли равишда ғурурланганидек, ўзбек китобхонларини рус адабиётининг етук намуналари билан таништиришдек масъулиятли ишга ўзининг ижодий бир бурчи деб қаради. А.С.Пушкин, Л.Толстой, Лермонтов, М.Горький, В.Маяковский, Н.Островский каби машҳур адибларнинг мумтоз асарларини ўзбек тилига ўгиришда ҳам жонбозлик кўрсатди. Бу борадаги ибратли хизматлари учун ҳукуматнинг Фаҳрий ёрлиғи билан тақдирланди.

1939–йил Ҳамид Олимжон Ўзбекистон совет ёзувчилар уюшмасининг раиси қилиб сайланади ва умрининг охиригача шу вазифада ишлайди. 1943–йили Ўзбекистон Фанлар академиясининг муҳбир аъзоси этиб сайланади.

Ҳамид Олимжон Ёзувчилар уюшмасига раҳбарлик қилган йиллар иккинчи жаҳон уруши даврининг энг қийин паллари эди. Уруш тақозоси билан собиқ иттифоқнинг турли шаҳарларидан келган ёзувчи, олимлар орасида украиналик ижодкор А.Дейч хотиралари Ҳамид Олимжоннинг бу давр фаолиятига ёрқин таъриф беради: “Ўзбекистон Ёзувчилар

⁴ Ҳамид Олимжон. Ўрик гуллаганда. Шеърлар ва драма. Т.1990. 103-б.

уюшмасининг раиси Ҳамид Олимжон жуда ёш бўлишига қарамай, моҳир ташкилотчи эди...

У бизларнинг ҳар биримиз билан моҳирона тил топиб гаплашар, илиқ муносабатда бўларди. Ҳамид Олимжондаги ҳар бир санъаткорнинг қалбига йўл топиш истеъдоди улкан давлат арбобига хос билимдонлик билан уйғунлашиб кетганди. Бизларни кутиб олган Ҳамид Олимжон бундай деган эди: “Мен Тошкент сизлар учун уруш тугадини кутиб ўтирадиган кутиш даргоҳимас, балки бутун умр эсда қоладиган кадрдон уйингиз бўлиб қолишини истайман. Вақт келиб Москвага қайтганингизда ҳам ҳар бирингиз ўзбек адабиёти ва маданиятини унутмасдан, унинг тараққиёти учун хизмат қилишингизни истайман”⁵.

Шу тариқа Ҳамид Олимжон бир неча миллат ёзувчи–шоирларини эзгу бир мақсадга бирлаштира олган эди. Шоир кўплаб ташкилий ва жамоат ишлари ичида ҳам ижод учун вақт топган. Зулфия шундай гувоҳлик беради: “Ҳамид Олимжон “Ижодкорлар учун ёзган нарсасидан бўлак ҳеч қандай имтиёз бўлмаслиги шарт”, деган ақидага риоя қилар, бирор сатр шеър ёзмаган кунда ўзидан жуда норози бўлар, ўша кунни умри ҳисобига қўшмай, ўчириб ташлагиси келарди”⁶. Зеро, шоир ҳаёти ва шахсини яқиндан ўрганган истеъдодли адиб ва адабиётшунос Сарвар Азимов таъкидлаганидек, доимий изланиш, тинимсиз ижодий меҳнат ва асар яратиш Ҳамид Олимжон учун муқаддас ҳолат эди.⁷

Муқанна кўзғолони тарихига қизиқиш, шу ҳақда асар ёзиш иштиёқи Ҳамид Олимжонда Садриддин Айний таъсирида Самарқандда Педакадемия талабаси эканлигида, “Зайнаб ва Омон” поэмаси ва “Жиноят” драмасини ёзиш нияти эса 1933–йили Фарғона водийси бўйлаб сафарда туғилади. Аммо бу ижодий ниятларини Ҳамид Олимжон 10–12 йилдан сўнг, поэтик маҳорати етилган бир пайтда, амалга оширди. 1942–йили ёзиб тугалланган ва 1943–йил 21–августда илк марта сахнага қўйилган “Муқанна” драмаси нафақат Ҳамид Олимжон ижодида, балки бутун ўзбек адабиёти ва маданий ҳаётида ҳам муҳим бир воқеа бўлди. Иккинчи жаҳон урушининг оғир йилларида яратилган “Муқанна” драмаси ўзининг чуқур ватанпарварлик ғояси ва юксак бадиийлиги билан ажралиб туради. Ҳамид Олимжоннинг бошқа кўплаб шеърий ва публицистик асарлари каби бу драма ҳам халқимиз қалбидаги туйғуларни, айниқса, ёвуз душманга бўлган қаҳр–ғазаби ва эрк–озодлик учун кураш туйғуларини жўш урдиради, уларни матонат ва жасоратга ундайди.

Муқанна ўзининг чинакам халқпарварлиги, эрк ва озодлиги учун мардонавор кураши билан бир неча авлодларга ибрат бўлиб хизмат қилганлиги тарихий ҳақиқатдир. Халқ Муқаннанинг кимлиги ва орзу–аъмолини сўраганда, у ўзини ва юксак мақсадларини шундай изҳор этади:

Сизни босган жароҳатларга малҳам,
Озодликдир шiorим,
Ҳурриятдир топинажак оллоҳим!
Фақирларга узатаман қўлимни

⁵ А.Дейч. Ўзбекистон қалби. Т.1979, 24-б.

⁶ Зулфия. Асарлар. 3 жилдлик. 3-жилд, Камалак. Хотиралар. Т.1986. 16-б.

⁷ Сарвар Азимов. Абадият. Т.1988, 97-б.

Менга келсин барча жабр кўрганлар,
Уйи куйиб кўча–куйда юрганлар...⁸

Драма тарихий ўтмиш воқеаларини чуқур акс эттириши билан бирга, у олис ўтмишда мислсиз қахрамонлик кўрсатган Муқанна сингари буюк аждодларимиз Ватан ҳимояси учун курашаётган жангчиларимизга руҳий мададкор бўла олганлигини акс эттириши билан ҳам аҳамиятлидир. Ҳамид Олимжон ўзининг ижодий–ғоявий ниятини баён этиб, айтган куйидаги сўзлари диққатга моликдир: “Бир асар ёзайки, у театр сахнасидан туриб, душман билан курашсин. Халқнинг кучига куч, душманга бўлган ғазабига ғазаб кўшсин... Чингизхон Бухоро деворларига яқинлашиб қолганда, Торобий халқни ажнабий золимларга қарши курашга ундади. Чингизхонга қарши отланган кишиларнинг тили ва дилида Муқанна исми бўлди”. Бу асар, энг аввало, фашист газандаларга қарши аёвсиз жанглар олиб бораётган жангчиларга қарата ёзилган ва шу боисдан ҳам унинг ҳар бир сатри кўтаринки фалсафий рух, жанговар публицистик оҳанг, сафарбарлик ва ватанпарварлик ғоялари билан йўғрилган.

Ҳамид Олимжоннинг иккинчи жаҳон уруши йилларидаги фаолияти ғоят жўшқинлиги ва кўламининг кенглиги билан кишини ҳайратга солади. Бу даврда Ҳамид Олимжон ижоди янада чуқурроқ халқчиллик ва оташин жанговарлик касб этади. Чинакам ватанпарвар ва халқлар дўстлигининг оташин куйчиси бўлган шоир урушнинг дастлабки кунлариданоқ халқни фашизмга қарши оёққа турғазувчи ва унинг қалбида ёвуз душманга нисбатан нафрат оловини алангалатувчи ўлмас асарларини яратди. Урушнинг иккинчи куни эълон қилинган ва адабиётимизда ҳарбий–ватанпарварлик лирикасини бошлаб берган “Ғалаба кўшиғи” шеъри қанчалик ғалабага ишонч руҳи билан суғорилган бўлса, “Кўлингга қурол ол”, “Йигитларни фронтга жўнатиш” каби шеърларида ва “Жангчи Турсун”, “Роксананинг кўз ёшлари” балладаларида ҳам тинчликсевар халқ хоҳиш–иродаси ва руҳияти шу қадар теран ифодаланган.

Ҳамид Олимжон ва у мансуб бўлган авлод вакилларининг ижодига “янгича” ёндашишга ортиқча берилиб кетиб, баъзан мазкур адибларимиз ижодиёти ёхуд айрим етук асарлари ҳақида ҳам беписандлик билан мулоҳаза юритиш, уларга ноўрин таъна тошларини отишга майл қилишади. Ҳамид Олимжон ва бошқа устоз адибларимиз ижодига шу тахлитда бир ёқлама ёндашилса, “социалистик тузум” ва унинг мафқураси ҳақидаги кўплаб “қизил сўзлар” учун уларни осонгина айблаш мумкин. Қолбуки, бахтиёрмиз деб, “қонлари билан шеърлар битиш” ва “ўзи йўқ кўрғонга фидойи жонлари билан қалқон” (Абдулла Орипов) бўлиш бу авлоднинг энг катта фожиаси бўлганлиги эндиликда аён бўлмоқда; яқин ўтмишимизнинг бу даҳшатли ҳақиқати, биз, ёшлар учун аччиқ, лекин ҳаётий сабоқ ҳамдир. Шу билан бирга улуг адибларимизнинг юксак бадиий маҳорати ҳамда уларнинг ўз юрти ва халқига бўлган чексиз садоқат–этикоди бугун ҳам ибрат намунаси бўла олишидан кўз юммаслигимиз керак. Бу жиҳатдан Озод Шарафиддиновнинг Чўлпон ижодини ўрганиш борасидаги фикрлари асосли деб ўйлаймиз: “Муайян замон, муайян жамиятда яшаган шоир, табиийки, бу

⁸ Ҳамид Олимжон. Ўрик гуллаганда. Шеърлар ва драма. Т.1990. 203-б.

жамиятдан ташқарига чиқиб кета олган эмас. Чўлпонга объектив ёндошиш, унинг шахсиятини, ижодини холисона баҳолаш уни мутлақо камситмайди, балки бизнинг юракларга яқинроқ қилади. Чўлпоннинг бадиий ижодидаги ёхуд адабий–танкидий мақолаларидаги ҳукмрон мафкура ғояларига ён берилган ўринларни кўрганда, унинг номига маломат тошларини отишга шошилмаслик керак. Билъакс, уни тушунмоққа ҳаракат қилайлик. Бу мулоҳазалар фақат Чўлпонга эмас, балки Ойбек, Ғ.Ғулом, Ҳ.Олимжон, А.Қаҳҳор, Шайхзода, Миртемир каби кўп йиллар мобайнида адабиётимизнинг чинорлари ҳисобланиб келган, кейинги йилларда эса ўринли–ўринсиз таъна–дашномларга рўпара келаётган ижодкорларга ҳам тааллуқли.”⁹

Ҳамид Олимжон ҳам давр фарзанди эди ва бу даврда ижод қилиш осон бўлмаган.

“XX аср ўзбек шеърияти қалам аҳлининг кўплиги, аммо истеъдод даражасининг турли–туманлиги билан ўзига хослик касб этади. Бу шоирлар орасида абадиятга дахлдор, ўзларининг мустаҳкам маънавий кўрғонлари ва адабий мамлакатларини қуриб битирганлари бор”.¹⁰ Бор–йўғи 35 йил – йигит ёшини ҳам яшаб улгурмаган, шундан 15 йилини ижодга бағишлаган Ҳамид Олимжоннинг ўз истеъдоди ва етук асарлари билан Ватани ва халқига меҳри–садоқати билан тиклаган маънавий кўрғони, адабий мамлакатининг пойдевори ўзбек заминиди мустаҳкам, бардавом туражак. Мустақиллигимиз шарофати билан бир гуруҳ таниқли санъаткорлар қаторида Ҳамид Олимжонга “Буюк хизматлари учун” ордени берилиши юртдошларимиз қалбида мамнуният ва фахр ҳисларини уйғотди. Ҳамид Олимжоннинг дурдона асарлари, адабиётимиз ва маънавиятимиз равнақиға қўшган улкан ҳиссаси унинг ижоди ҳам, нури сиймоси ҳам унутилмас эканлигидан далолат бериб туради. Булар, шубҳасиз, адабиётимизнинг ёрқин саҳифалари бўлиб тарих саҳифаларида муҳрланиб қолди. Шоир ўзи башорат қилганидай, у элимизнинг юрагида, эрк деганларнинг энг эзгу орзу–тилақларида ҳамиша ардоқли бўлиб яшайди.

“СЕМУРҒ” ДОСТОНИДА МИФОПОЭТИК ОБРАЗ ТАЛҚИНИ

**Маматкул Жўраев, ф. ф., профессор
Гулмира Ҳамраева, ЖДПИ магистранти**

Атоқли шоир Ҳамид Олимжон қаламига мансуб “Ойгул билан Бахтиёр”, “Семурғ” дostonларида халқ ижоди хазинасидаги эртак ва дostonлар сюжетини поэтик стилизация қилиш анъанаси аниқ кўзга ташланади. “Семурғ”да халқ дostonларига хос эпик рух, қахрамонларнинг жангу жадалини муболағали тасвирлаш, муҳими, ўзбек фольклорининг юксак миллийлиги, тарихий–этник ўзига хосликлари тўла сақланган. Мифологик тасаввур ва ишонч–этиқодлар излари асардаги Семурғ, дев, тулпор образларида, Бунёднинг эртаксимон саргузаштларида, самовий тушунчалар ва мифопоэтик образларнинг бадиий талқинида яққол кўринади.

⁹ О.Шарафиддинов. Чўлпон. Адабиёт яшаса-миллат яшайди. Т.1994.27-б.

¹⁰ Баҳодир Каримов. XX аср ўзбек шеърияти антологияси. Т.2007, 3-б.

Маълумки, Семурғ – қадим аждодларимизнинг ибтидоий тушунчасига кўра, тотемистик ҳомийлик тимсоли, ботирларга мадакор бўлмиш улкан қуш. Бу гўзал лирик образ қачон пайдо бўлганлигини айтиш қийин, аммо Семурғ билан боғлиқ қадимий сюжетлар Шарқ халқлари фольклорида кенг тарқалган. У қаҳрамонни улкан қанотига миндириб, Ер ости дунёсига олиб тушиш ёки Заминга чиқариб қўйиш вазифасини уддалай олади. Бу мифологик образ ҳақидаги дастлабки маълумотни зардўштийликнинг муқаддас китоби “Авесто”да учратамиз. Асарнинг XIV яшгида тасвирланишича [2. 41–бет], “Саена меруға” деган баҳайбат қуш Ворукаша денгизининг ўртасидаги “хаёт дарахти”нинг тепасида уя қурган. Булутдек улуғвор қанотлари билан “хаёт дарахти”ни ёвузлик кучларидан химоя қилувчи “Саена меруға” (Семурғ) ҳақидаги илк мифлар, бизнингча, Ворукаша ёки “Қирғоксиз денгиз” деб аталувчи Орол денгизи бўйларида, яъни қадимги Хоразм воҳасида яратилган. Аждодларимиз абадий хаёт ҳақидаги идеалларни ўзида мужассамлаштирган бу қушнинг ҳақиқий ёрдамига ишонишган. Бизнингча, “Авесто”нинг яратилишида Ўрта Осиё халқлари мифологиясининг ҳам салмоқли ўрни бор.

VI асрда паҳлавий тилида (қадимги форс тилида) яратилган “Минокехрат” ёдгорлигининг 62–бобида бу самовий образ эволюциясини кенг қамраб олувчи мифик тушунчалар картинаси намоён бўлади: “Ўликларга жон ато қилувчи хаёт дарахти Хома Баркаша денгизининг ўртасида ўсади. Хаёт дарахтини макон қилган Семурв (Семурғ – М.Ж.) эзгулик ҳомийсидир. Ҳар гал уясида кўтарилганда дарахт шохларидан минглаб янги новдалар ўсиб чиқади ва ҳар сафар қўнганида минглаб шохлар синиб, жаъми ўсимликлар уруғлари турли томонга сочилади” [5. С.11–12].

Хаёт дарахти ҳақидаги турли–туман мифлар Скандинавия, Ҳинд–Европа, Сибирь, араб халқларида учрайди. Шу нарса диққатга сазоворки, мифлардаги хаёт дарахтининг учиди катта қуш тасвирланса (қадимий ҳинд–эрон мифларида – Сенмурғ, арабларда – Феникс), илдизларига илон ўралиб ётади (Скандинавияликлар мифларида Нидхегг номли илон). Мифик “хаёт дарах ти”, “Авесто”да тасвирланган Хома (ҳинд мифологиясида – Сома) ёки “Хварри: (“Серсув”) номли дарахтни эслатса, қуш ва илон билан Шарқ фольклоридаги Семурғ ва у уя қурган катта дарахтга чирмашаётган илон образлари орасида ҳайрон қоларли ўхшашлик бор.

X асрнинг буюк шоири Фирдавсий “Шоҳнома”сида тасвирланган Семурғ ҳам Эльбурс тоғининг осмонўпар чўққисида яшайди. Сом подшонинг оқ соч билан туғилгани учун Эльбурс тоғига ташланган ўғли Золни Семурғ боқиб катта қилади [1. 142–143].

Бу эпизод Ўрта Осиё халқлари мифологиясидагина эмас, балки, жаҳон фольклорида кенг тарқалган тотемистик сюжет – от ёки қуш култи билан боғланган. Хусусан, туркий халқлар фольклоридаги талқинлардан бирига кўра, она қабрида туғилган Гўрўғлини бир байтал эмизиб тарбиялаган бўлса, нартлар ҳақидаги абхаз эпосида черкесс қабиласининг бобоси Нарт Сауасни “Шоҳнома”даги Семурғ билан икки томчи сувдек ўхшаш афсонавий қуш вояга етказди [3. С.81].

Ҳамид Олимжоннинг “Семурғ” поэмасида дев, Семурғ, илон каби мифик образлар шоир қаламининг сеҳри билан янада баркамоллашди. Гўзаллиги билан юртга донғи кетган шоҳ қизи Паризод ўз хуснига маст,

шоир ёзганидай, “ғамлардан озод” бўлиб ўсди. Унинг тош қалби бекиёс латофатига шайдо бўлган не–не ошиқларнинг дардини тингламади. Отасининг қистови билан турмушга чиқишга розилик берган Паризод талабгорлар олдига қуйидаги шартни қўяди:

Шартим шуки, от билан,
Гўёки қанот билан,
Шу чинорга чикқанга,
Чиқиб уни йикқанга,
Сўзсиз хотин бўламан,
Гўзал отин бўламан [6. 199–бет].

“Семурғ” поэмасидаги Паризод шарти бўйича ўтказилган мусобақани халқимиз урф–одатларининг фольклорга сингиб кетган қадимий анъаналаридан бир кўриниш деб баҳоламоқ керак. Шоҳнинг ягона кизига уйланадиган йигит, фақатгина куёв эмас, айти замонда, тахт вориси ҳам бўлиши керак эди. Шартни бажарувчи чинорни кулатишга от миниб бориши лозим эди. Бу тасодифий бўлмаса керак. Ўз идеалларини рўёбга чиқариш йўлларини тинмай излаган халқ олис масофаларни кўз очиб–юмгунча босиб ўтиш учун отда куш қаноти бўлиши керак деб ўйлардилар. Шу тариқа қанотли от ёки тулпор образи пайдо бўлди. Миф қахрамонлари тулпорда парвоз қилиб, эзулик учун курашадилар. Тулпорнинг халқ идеалидаги хаёлий тасвири тайёр ҳолда эртақ ва эпосга, кейинчалик ёзма адабиётга кириб келди. Ҳамид Олимжон халқ дostonларида “сувдан чиққан” деб таърифланадиган мифик тулпор образини моҳирона тасвирлади.

Чинорни таг–томири билан кулатиб, шартни бажарганига қарамай, Паризод оддий чўпон Бунёдга хотин бўлишни истамайди. Бунёддан қутулиш мақсадида, уни ёвуз девни ўлдиришга йўллайди. Шундай қилиб, Паризод навбатдаги шартни қуйидагича баён қилади:

Кунботарда бир ёвуз,
Дев бор эмиш ялмоғиз,
Одамга душман эмиш,
Қийин эмиш уни енгиш [6. 207–бет].

Мазкур мисралар девнинг маконини, шунингдек, халқимизнинг олам ҳақидаги қадимий тушунчаларини аниқлаш имконини беради. Аждодларимизнинг мифик тасавурида олам учга бўлинади: осмон (руҳлар дунёси), замин (одамлар дунёси) ва ер ости (ёвуз кучлар, девлар дунёси).

Фикримизча, куёшнинг ботишини, у ер остига кириб кетди, энди Ер ости дунёсини ёритади, деб изоҳлашдан кунботар – ер ости олами, яъни девлар оламидир, деган тушунча келиб чиққан. Демак, ўз–ўзидан маълум бўладики, Бунёд ер ости оламига сафар қилган. Бу фикримизга қуйироқда яна қайтамыз.

Романтик руҳ билан суғорилган бу дostonнинг энг жозибали боби Бунёднинг афсонавий куш – улкан Семурғ билан учрашувидир. Бунёд ва Семурғ сюжети Шарқ фольклорида кенг тарқалган ва бир–бирини тўлдирувчи куш ҳомийлиги мотиви билан боғланади. Баъзи мисолларга мурожаат қилайлик. Фозил Йўлдош ўғли айтган “Зевархон” дostonида “Авесто”даги “хаёт дарахти ҳақидаги мифларга жуда яқин келадиган бир эпизодни учратамыз. Семурғ абадий умр бахш этувчи “оби ҳаёт” сувини олиб келади [4. 20–бет].

Маълумки, “Авесто”нинг учинчи китоби “Ясна”да тасвирланган “хаёт дарахти” Хоманинг “одил, ўлимни бартараф этувчи” шарбати “одамларни ҳам ўлмайдиган, сув ва ўсимликларни қуримайдиган қилади”. Абадий умр ато қилувчи “оби ҳаёт” ёки “хаёт дарахтининг шарбати” тўғрисидаги мифологик тушунчалар дostonда қайта жонланади. Кейинчалик Семурғ Зевархонни олис Шамшод элига олиб боради.

“Семурғ” достонида Бунёд чинорга ўралиб уяга қараб хезланаётган илонни ўлдиргач, дарахт тагида қаттиқ уйқуга кетади. Олис ва машаққатли йўл ўз кучини кўрсатади:

Етти тунни ухлади,
Етти кунни ухлади.
Уйғона бермагач у,
Босиб тобора уйку.
Семурғ дарёга кетди,
Ҳаял ўтмасдан етди,
Сувни шимирди чўллаб,
Қанотларини хўллаб.
Шу замон учиб келди,
Жаладай кўчиб келди [6. 212–бет].

Бу мисралар яна қадимги паҳлавий матнларидаги мўъжизакор мифологик образ – Семурғни эсга туширади: “Худудсиз уммон ўртасида барча турдаги ўсимликларнинг бобокалони бўлган ҳаёт дарахти яратилди. Семурғ шу дарахтни ўзига макон қилган, бу улкан қуш дарахтдан учиб чиққан чоғда етилган уруғларни сувга сочиб юборади, бу уруғлар ёмғир булутлари орқали ерга ҳам етиб келади” [2. С.12].

Семурғнинг дарёдан қанотларини хўллаб, қақраган сахро осмонидан «жала кўчгандай» бўлиб учиб ўтиши, аслида сувсиз чўлдаги жами йирик мавжудот ва ўсимликларга жон ато қилиш, уларга «оби ҳаёт» бағишлаш билан боғлиқ қадимий мифологик тушунчалар трансформациясидир.

Туркий халқлар фольклорининг пухта билимдони, ажойиб сўз устаси Ҳамид Олимжон Шарқ мифологияси арсеналидаги анъанавий сюжетлар ва ғаройиб образларга, асрлар мобайнида куйланиб келинган халқ идеалларига замонавий руҳ бағишлади. “Семурғ” достони халқ оғзаки бадий ижодиётдан ўринли фойдаланиш самарасини, сўз санъатининг қудратини, XX аср реалистик адабиётининг қадимги мифология билан узвий алоқасини намоён қила олган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Абулқосим Фирдавсий. Шохнома. 1–том. – Тошкент, 1977.
2. Авеста. Избранные гимны; Пер. с авест., предисл., примеч. и словарь И.М. Стеблин–Каменского. – М.: Дружба народов, 1993. – 208 с.
3. Дюмезил Ж. Осетинский эпос и мифология. – М.: Наука, 1976.

“MUQANNA” DRAMMASIDA ERK VA OZODLIK G‘OYALARI

**Nosirov A., Abdiyev M.,
SamDU professorlari**

О‘тган асрнинг 20– йилларидан бoshлаб о‘zbek адабиётida тарихий шахслар образини yaratish borasida bir qator asarlar yuzaga keldi. Bunda jarayonni

Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy singari taniqli o‘zbek adabiyoti vakillari ijodida yaqqol ko‘rish mumkin. Ularning ijodi asosan ramziylik asnosida bo‘lsa–da, tarixiy shaxslar protitipini yaratish va shular orqali badiiy asarlarda xalq nazariga tushgan insonlar qiyofasini jonlantirishga bo‘lgan harakatlarni kuzatish mumkin. Bular 30– yillardan boshlab yanada avj olib, o‘zbek adabiyotida urf bo‘la boshladi. Bunday jarayonni hali talabalik davridayoq o‘ziga xos ijod yo‘li bilan tanilgan Hamid Olimjon ijodini ham chetlab o‘tmadi. U ham salafлари qatori o‘tmish avlodlarimizning ulug‘ nomlari va xotiralarini ulug‘lashni o‘ziga maqsad qilib oldi va ular haqidagi ma‘lumotlar va manbalarni chuqur o‘rgandi. Shoirning ana shunday tarixiy shaxslardan biriga bag‘ishlagan asari “Muqanna” asari hisoblanadi.

Hamid Olimjonning “Muqanna” tarixiy asaridagi tasvirlar kitobxon ko‘z o‘ngida tarixiy davr voqealarini gavdalantiradi. Bunday bo‘lishi tabiiydir. Chunki tarixiy asar yozgan ijodkor, albatta, asar voqealari tasvirini o‘sha davr ruhi bilan bayon etadi. Chinakam ijodiy–ruhiy jarayon mahsuli bo‘lgan tarixiy mavzudagi asardagi obrazning metaforiklik xususiyati yuksak darajada namoyon bo‘lishi qonuniyati maqomidir. Zero, bu jarayon asar yozilishidan avval ijodkor tomonidan niyat qilingan bo‘lishi tabiiydir. Pirovardida, zamonaga xos chizma asosida shakllangan holatlarni kitobxon asarni o‘qish jarayonida yanada aniqroq ko‘radi yoki tasavvur qiladi. O‘quvchi ongi va tasavvurida “ o‘tmish–hozir” holatlar parallelligi muntazam ravishda namoyon bo‘ladi.

Demak, tarixiy asar voqeligi davr voqealarini kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantiruvchi qonuniyat maqomidagi jarayon hisoblanadi. Shu jihatdan arab fotihlarining yurtimizga kirib kelishining tasvirlanishiga e‘tibor qarataylik:

Bu yerlarga ular yangi kirib kelganda,
Zo‘r qarshilik ko‘rgan ekan Paykandda.
Bosqinchiga qarshi chiqib butun xalq,
Barchasini qilgan ekan qonga g‘arq.
Mingan oti tizza bo‘yi qon kechib,
So‘ng Qutoyba kelgan ekan qon ichibmi

Saroylarni olovlariga u tutgan,

Qilich tutgan har bir jonni quritgan ... –

deb kitobxon ko‘z oldida o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqealarning tasavvurini shakllantiradi. Bu bilan o‘quvchi tarixiy davr voqealari bilan tanishadi. Zero, bir bosqin orqali o‘tmishda yurtimizga juda ko‘plab bosqinlar bo‘lganligi ham bu ularning bir qismi ekanligiga ishora edi, xolos.

Bu haqda shoir Hamid Olimjon bolalik xotiralarini orqali Rossiya istilosi bilan boshlangan bosqin va uning davomi bo‘lgan “Jizzax qo‘zg‘oloni”, “Oktabr inqilobi”, “Jamoalashtirish bahosidagi quloqlashtirish”, “Qatag‘on qilish “ singari siyosiy voqealarning muhrlangan mudhish va dahshatli oqibatları o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish borligini mantiqan his etadi.

Tarixni mushohada qilib, unga xos jarayonlarni o‘zlashtirib, tasavvur qilgach qo‘rqitish va himaga asoslangan sho‘ro davlati tomonidan olib borilgan siyosatning mohiyatiga e‘tibor qilish orqali mustamlakachilik siyosatining zamirida qanday maqsad yotganligini anglash qiyin emas. Shu bois adib arablar bosqini orqali kitobxon ongida rus bosqini oqibatlarini tasavvur qildirish maqsadida davr siyosiy bosqinini tasvirlovchi sahnalar yaratgan. Nazarimizda, muallif bir

tomondan o‘z zamonasi haqida yuritilayotgan mushohadalarning metaforik ifodasini, ikkinchi tomondan esa zamonalardagi bosqinlarning o‘xshashligiga ishora berib, bu haqda mushohada yuritishga undaydi. Masalan, asarda xalifalikdan Paykandni yer bilan yakson qilish haqidagi maqsad–mohiyatini qizi Guloyimga tushuntirayotgan Otash shunday deydi:

Sen bilmaysan, bunda katta hikmat bor.
Xalq yangidan qo‘zg‘almoqda dushmanlar
Dushmanlar ko‘rsatmoqch bir hunar:
Odamlarning yuragini olmoqchi,
Bo‘gizlarga yana yurak solmoqchi...

Tabiiyki, zukko kitobxon yurtimizdagi istiqloqlolchilik harakati, Turkistonni yana qonga botirilgani, istiqloq kurashchilarining badnom etilganligi, o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillarida bitta–bitta “yulib tashlanganligi”dan Otash nutqidan faqat arab bosqinchilariga xos emasligini yaxshi biladi. Buning ustiga, sho‘ro “cho‘pchak”lariga ishonib yashayotgan yosh avlodning ham ko‘z oldida gavalangan o‘tmish ta‘sirida Guloyim misolida “ertak boshqa–hayot boshqa” qabilidagi xulosaga kelishi ehtimoli ham yiroq emas.

Yer yuzida bir shaharni yo‘qotmoq
Bilan ular xalqning ko‘zin qo‘rqitmoq

Fikridalar. Mudhish bir ish. Ham isyon

Qo‘zg‘almasmish shunday qilsa begumon...

degan satrlar qo‘rquv saltanati fuqarolariga arab fotihlari yuritgan siyosat bilan sho‘ro siyosati mohiyatan bir narsa ekanligini anglamasligi mumkinmi?! Bizningcha, yo‘q. Zero, asarni o‘qish davomida xoh ongli va xoh anglamagan tarzda shu xil fikr tug‘ilishi haqiqatga yaqinroqdir.

Albatta, anglanmagan tarzda deganimizdan, sho‘ro ta‘sirida shakllangan, uni bashariyat tarixidagi eng adolatli tuzum deya ishonib yashagan avlodga mansub o‘quvchilarga taalluqlidir. Ertami–kech uning hayotiy tajribasi ortib, voqelikni o‘zgacha mushohada qilgandagina davr tarixiy asarlaridagi matn ostidagi ma‘noni yana–da, teranroq anglaydi. Bu o‘rinda iste‘dodli adib va shoir Hamid Olimjonning “Muqanna” tarixiy asarining badiiy salmog‘i yana–da teranroq namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romaniga epigraf qilib olgan fikrlar misolida asoslash mumkin: Ma‘rifat chog‘ishtirib ko‘rish bilan hosil bo‘ladi, bizning yoshlar esa o‘z ko‘rganlarini hech nima bilan solishtira, chog‘ishtira olmaydilar, ular kechmishini bilmaydilar va shuning uchun hozirgi zamonning nimaligini yetarli darajada anglayolmaydilar”.

Qayd qilingan fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, “Muqanna” asarini yaratishga jazm qilgan Hamid Olimjon ijodiy niyati Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon qarashlariga hamohang edi, – degan xulosani chiqarish mumkin. O‘z tarixini, uning fojialarini teran anglagan ijodkor tarixiy shaxslar va talqinlar orqali o‘z zamonasining mohiyatini ham his eta olganligi sababli kitobxonga “chog‘ishtirish orqali ma‘rifat hosil qilish”, “hozirgi zamonning nimaligini” anglash imkonini yaratadi.

Davr nuqtayi nazaridan shu xalqning farzandi sifatida o‘zining qulligini anglagan inson vujudida milliy g‘urur junbushga kelishi, qalbida alamli iztirob qo‘zg‘ashi tabiiy hol edi.

Talqinlar jarayonida mustamlakachilarning mustamlakachi xalq vakillarining o‘z xalqiga, o‘ziga qanday munosabatda ekanini mushohada etishga

moyil bo‘ladi hayot voqeligidagi mulohazalari asosida iztiroblari kuchayib boradi. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Mahmudxoja Behbudiy, Abdulla Qodiriylar ijodida kuzatilgan bu xil kayfiyat “Muqanna” tarixiy dramasi ustida ishlayotgan, ijodiy rejalarini shakllantirayotgan Hamid Olimjonga ham yod emas edi. Tarixiy dramadagi Muqanna tilidan aytilgan quyidagi satrlarga diqqat qilaylik:

Dushmanlaring, ojiz bo‘lsa sen agar,
Mehmon bo‘lib kelib sening uyingga,
Ko‘kragingga tepib kiray to‘yingga.
Haqoratga ko‘mar seni u toza...

Misralardan anglashilyaptiki, bu so‘zlar yurtga endi bosib kelishi mumkin bo‘lganlar haqida bo‘lolmaydi, ular yurtga ko‘proq va asosiy hukmronlik qilib turganlar haqida edi. Bu millatning o‘zligiga tajovuz boshlangani, milliy qadriyatlarining toptalayotganiga amin bo‘lgan muallifning qalb isyoni, baralla aytilgan hayotiy xulosalaridir. Arab sarkardasi Battolning Guloyinga qarata aytgan “Sen asirsan, qaydan senga baxt bo‘lsin, Shodlikka ham kerak axir – uy, vatan” degan haqoratli ta‘nasi ham, avvalo, o‘z yurtida sig‘indi, vatanida bevatan bo‘lgan muallifning o‘ziga, yurtdosh–u vatandoshlariga qaratilgan hayqiriq edi. Qurol kuchi bilan o‘zga bir xalqni bo‘ysindirgan Battol “Qilich bilan kirdim men bu tuproqqa, Yana qilich chiqaradi qirg‘oqqa” deya ishonch bilan fikr yuritadi, bu ishonch uni havolantirgan, o‘zidan ketgazgan edi. Shuning natijasi o‘laroq, Battol o‘zini bu o‘lkada istagan narsasini bajarishga haqliman deb biladi. Yolg‘iz kuchga ishongan, unga topingan bu odam, tabiiyki, yurtning asl egalariga bepisand munosabatda bo‘ladi:

Shuni bilki, xalq misoli bir poda,
Xohi otda, xohi bo‘lsang piyoda
Hayday olish kelsa agar qo‘lingdan
Poda yurar sen boshlagan yo‘lingdan...

Albatta, shunga o‘xshash inson ruhiyatiga tegadigan qarashlarga ega bo‘lgan badiiy obraz jonlanadi. O‘quvchi yoki tomoshabinning qalbida esa “nahotki poda bo‘lsak?” qabilidagi fikrga kelishi tabiiydir. Asar muallifini xuddi shu mulohazalar qiynaganki, buning aksi sifatida “tiz cho‘kib yashagandan tik turib o‘lmoq”ni afzal bilgan qahramonlarni, shu xulosa bo‘rtib turgan sahnalarni yaratadi.

Xususan, Guloyin o‘larchog‘i “Bir necha kun havas bilan yashadim, hatto erkin nafas bilan yashadim” derkan, faqat shu erkinlikdagi “bir necha kun”gina yashash deb bildi. Zero, uning uchun qullikda kechgan umr – hayot emas. So‘zning, san‘atning sohir kuchi ta‘sirida hayot bilan vidolashayotgan qizning: “Armonim shu: ko‘rolmadim elni shod, ko‘rolmadim vatanni yovdan ozod” degan armonli qarashlari o‘quvchi yoki kitobxon qalbini larzaga soldi. O‘zligini anglashga, hayotga teranroq nazar solishga undaydi.

Yuqorida qayd qilinganidek, “Muqanna”da bevosita o‘zi yaratilgan payt – urush davrining ijtimoiy–siyosiy holatiga qaratilgan dolzarb mavzu qalqib turadi. Iste‘dodli ijodkor Hamid Olimjon yashagan davrda o‘sha paytdagi siyosat taqozosi keying yillar o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ham sezilarli ta‘sirini o‘tkazdi. Bu xususiyat mamlakatimiz tarixida alohida o‘rin tutgan buyuk tarixiy shaxslar siyosini yaratishga hissa qo‘shgan Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov ijodlari misolida ham kuzatish mumkin. Temuriylar sulolasi haqida eng murakkab va badiiy mukammal asarlar yaratgan har ikki so‘z san‘atkori, o‘zidan oldin o‘tgan

yoʻzuvchilar izidan borishga, ularning bu boradagi badiiy mahoratidan, tabiiyki, oziqlangan. Oʻtgan asr boshidagi bir qator ijodkorlar – yoniq qalb egalari-ning koʻnglida armon boʻlgan tuygʻularni, ular aytolmagan koʻplab fikrlarni qayd qilib oʻtgan ikki adibimiz tarixiy asarlari orqali namoyon qila oldi. Ularning bu boradagi izlanishlarida Choʻlpon, Abdurauf Fitrat, Hamid Olimjon kabi oʻnlab soʻz ustalarining ijodiy izlanishlari ijodiy maktab vazifasini oʻtadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Hamid Olimjon oʻzining “Muqanna” tarixiy dramasi bilan millatning asl farzandlari hayotini badiiy talqin etdi. Ularning kuylagan erk kuyiga joʻr boʻldi hamda erk kuyini baralla kuyladi. Shuning uchun ham shoir qayd qilganidek: “Men elimning yuragida yashayman, Erk deganning tilagida yashayman” deb yozganida tom maʼnoda haqli edi.

BOSHLANGʻICH SINFLARDA HAMID OLIMJONNING “LOLA” SHEʼRINI OʻRGANISH

**Muhabbat Jumaniyozova, f.f.n., UrDU dotsenti,
Goʻzal Jumaniyozova, UrDU magistranti**

Boshlangʻich taʼlim uzluksiz taʼlim tizimida ijodkor shaxsni tarbiyalashda mustahkam poydevor rolini oʻynaydi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga taʼlim–tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi oʻqish darslarida amalga oshiriladi. Oʻqish darslari oʻquvchilar fikrini va nutqini oʻstirish, vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish hamda oʻquvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan boshqa oʻquv predmetlari orasida alohida oʻrin tutadi [1.90].

Oʻqish darslari jarayonida oʻquvchilarning oʻqish malakalari takomillashib, toʻgʻri, ongli va ifodali oʻqish, badiiy asar gʻoyasini tushunish qobiliyatlari oʻsib boradi. Binobarin, “Oʻqish kitobi” dagi turli janrlarga xos boʻlgan badiiy asarlarni oʻqish va ular ustida ishlash orqali oʻquvchilarning borliq, voqelik haqidagi tasavvur–tushunchalari kengayadi. Chunki “Oʻqish va nutq oʻstirish” dasturi Davlat taʼlim standart talablariga javob beruvchi konsepsiya asosida tuzilgan. Unga gʻoyaviy tematik, estetik, qisman mavsumiy tizimlar hisobga olinadi. U oʻz navbatida bolaning tevarak–atrofdagi voqelikni idrok etishni koʻzda tutadi.

Boshlangʻich sinf “Oʻqish kitobi” darsliklaridan oʻzbek bolalar adabiyoti vakillari ijodidan namunalar oʻrin olgan. Xususan, boshlangʻich sinf oʻquvchilari xalqimizning sevimli shoiri, oʻzidan oʻlmas badiiy–maʼnaviy meros qoldirgan adib Hamidjon Olimjon qalamiga mansub asarlar bilan ham tanishadilar.

Hamid Olimjon bolalar adabiyotini oʻz asarlari bilan boyitgan adib hisoblanadi. Bu joriy yilda adib tavalludining 110 yilligi butun Respublikamizda keng nishonlanadi. Uning “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurgʻ” kabi ertak–dostonlari, “Bolalik”, “Hulkarning sheʼri”, “Samolyot”, “Lola”, “Vatan”, “Ona va oʻgʻil”, “Zafar dostoni”, “Jangchi Tursun” va boshqa asarlari oʻzbek bolalar adabiyoti xazinasidan alohida oʻrin olgan [2.113]

Boshlangʻich sinfdagi H.Olimjonning “Lola” sheʼri oʻqitiladi. Bu sheʼr 1–sinf “Oʻqish kitobi” darsligining “Koʻklam– yashnaydi olam” boʻlimida berilgan [4.37]. Maʼlumki, boshlangʻich sinflarda sheʼrlarni oʻqitish orqali bolalarda estetik did–havas tarbiyalanadi; ularning maʼnaviy dunyosi boyitiladi: ular tabiatdagi goʻzalliklarni koʻra bilishga, kishilardagi olijanob fazilatlarini seza olishga oʻrgatiladi. Sheʼrlarni oʻrganish poetik sezgirlikni oʻstiradi, oʻquvchilar lugʻatini

boyitadi. Bolalarda go‘zallikka muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik singari fazilatlarini tarbiyalaydi.

H.Olimjonning “Lola” she’ri kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan. Unda shoir Lola timsolida u kabi jajji qizlaloqlarning ona–Vatan quchog‘ida quvnoq hayot kechirishi haqidagi orzusini ifodalaydi. Shoir Lola yashayotgan vatanni gulga to‘la bir bo‘stonga qiyoslaydi:

Lola bog‘chaga chiqib
Kechga qadar gul terdi.
Etak–etak to‘pladi,
Har kungidan mo‘l terdi.
Sochiga gul bog‘ladi,
Chakkasiga taqdi gul.
Yelkalaridan tashlab
Gulga ko‘mildi butkul.
So‘ngra uyga keldi–yu,
Birpas yotib dam oldi.
Kiprigi yumildi–yu,
Gul kabi uxlab qoldi.

She’rda jajji bolalar gul–lolalarga o‘xshatiladi. She’rning “Lola” deb nomlanishi ham ramziylik kasb etadi. Zero, har bir bola o‘ziga xos gul kabidir, ularni gul kabi asrab–avaylash, ularga mehr ila munosabatda bo‘lish juda muhimligi she’rda yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan. H.Olimjon bu g‘oyani hayotiy epizod – Lolaning gulzorda gul–lolalarga o‘ralganini ixcham chizish orqali tasvirlaydi.

She’rni o‘qish darsida gul, lola tushunchalari ustida ishlanar ekan, bu bilan bog‘liq holda o‘quvchilarda bahor fasli haqidagi tushunchalar ham kengaytiriladi. Bahor fasli go‘zal ko‘rinishi bilan odamda yoqimli tuyg‘ular uyg‘otadi. Bahorda bolalar varrak uchirishdan olam–olam zavq oladilar. Bahordagi sof va toza havogina emas, yam–yashil rangga burkalib turgan daraxtlar, alvon gulli dala–bog‘lar kishida ajib bir kayfiyat uyg‘otadi.

She’rni o‘rganish jarayonida ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Ushbu she’rni o‘rganish darsi dastlab o‘quvchilarning gul, uning bahor faslida ochilishi haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. O‘quvchilarning bahor faslida tabiat uyg‘onishi tufayli o‘lkamizda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to‘ldiriladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi she’rni ifodali o‘qiydi.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘rgazmali ta’limning asosiy shakli she’rni ifodali o‘qish hisoblanadi. Lirik she’rni ham o‘quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she’r birinchi marta o‘qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She’r o‘quvchilarga qanday ta’sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O‘qituvchi she’rni shunday ifodali o‘qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so‘z kuchliroq ta’sir etsin. So‘ngra she’rni mustaqil o‘qish topshiriladi. O‘qish oddiy bo‘lishi kerak. O‘qiyotganda tabiiy zavq–shavq, shodlik, xursandlik, qahr–g‘azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo‘l qo‘ymaslik zarur. Bolalar she’rni o‘qiganda, she’riy satrga rioya qilishlari kerak, bu jarayonda ularning she’r ritmini buzmasliklariga erishish kerak [3].

She'r matni bilan tanishishdan oldin doskaga "etak-etak", "mo'l", "chakka", "butkul" so'zlari yozilib, ma'nosi izohlanadi. She'rni navbat bilan o'quvchilarga to'rt-besh marta o'qitilganidan keyin uning mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. She'rning to'la mazmuni uch-to'rt o'quvchilarga gapirtiriladi, ularning fikr-mulohazalari to'ldiriladi. She'r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. "Lola" she'ri uchun quyidagicha savollar berilishi mumkin: "Lola qayerga bordi?", "Siz ham gul terganmisiz?", "Lola uyga kelgach nima qildi?", "She'r sizga yoqdimi? Nima uchun?" kabi. O'qituvchi berilgan javoblarni to'ldirib, o'quvchilarning she'r mazmunini anglashlariga yordam beradi. Ta'kidlash joizki, she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya.

"Lola" she'rini tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi. She'r yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Chunki shoirning kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor bu she'rini bolalar tez va oson yodlab oladilar.

H.Olimjonning "Lola" she'rini o'qish darsida tabiatni sevish, asrash, uning gullab yashnashi uchun hissa qo'shishga yollash maqsadi ham amalga oshiriladi. Shuningdek, o'quvchilar she'r muallifi H.Olimjonning hayoti va ijodi haqida ham atroflicha ma'lumotga ega bo'ladilar. Bu ma'lumotlar keyingi sinflarda yanada kengaytirila boradi. Chunki H.Olimjon asarlari nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilarini, balki umuman yuqori sinf o'quvchilariningham ta'lim-tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).– Toshkent, 2017.
2. Jumaboyev M.O'zbek bolalar adabiyoti.–Toshkent: "O'zbekiston", 2002.
- 3.Qosimova K., Matchonov S. , G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent:"Nosir", 2009.
4. G'affarova T, Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili. 1–sinf uchun darslik. – Toshkent: "Sharq" nashriyot–matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2017.

“МУҚАННА” ДРАМАСИДА МАҚОЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ

**Абдували Мусаев, ЖДПИ доценти
Дилновоз Жуманова, ЖДПИ магистранти**

Ўзбек халқ мақоллари мавзу кўлами ҳақида гапирганда унинг ғоят сермавзу эканлигини таъкидлаш жоиз. Халқ мақоллари ўзининг ихчамлиги, тўла қофиялилиги, ҳаётийлиги билан кишилар нутқини безайди ва ўзининг донолик хазинаси билан инсон онгини, эстетик тушунчасини бойитади, уни ҳақиқий инсоний фазилатлар асосида тарбиялайди. Мақолларнинг бу хислатларини, айниқса, уларнинг тарбиявий аҳамиятини яхши тушунган шоирларимиз ўз ижодларида халқ мақолларидан кенг фойдаланганлар. Бундай бўлиши табиий, албатта. Чунки халқ турмушининг бирор жабҳаси йўқки, халқ унга мақоллар орқали муносабат билдирмаган бўлсин.

Бадиий асарда мақоллардан, ибратли гаплардан фойдаланиш, биринчидан, асарнинг ифода кучи ва реалистик қудратини оширса, иккинчидан, фикрнинг образли баён қилинишини таъминлайди. Шунинг учун ҳам буюк сўз санъаткорлари халқ мақоллари ва маталларига катта эътибор билан қарашдилар.

Маълумки, Ҳамид Олимжон адабиётнинг турли жанрларида қалам тебратди. Замондошлари ҳаётини ҳаққоний акс эттирган кўпгина маснавийлар, очерк ва ҳикоялар яратди, драма жанрига қўл уриб, “Муқанна”, “Жиноят” каби сахна асарларини ёзди, мумтоз адабиётимизни синчковлик билан ўрганиб, унинг тараққиёт қонунлари ҳақида теран ва кўламли фикр юритди. Шоир сифатида унинг асарларини варақлар эканмиз, поэтик мероси халқ оғзаки ижоди ва мумтоз адабиёт анъаналари билан бевосита боғлиқ эканини англаймиз.

Ҳамид Олимжон халқ оғзаки ижодиётининг бебаҳо намуналаридан саралаб олган бадиий жамғармалари ҳеч бир муболағасиз айтиш мумкинки драматик асарлари тўқимасига ҳам сингиб кетди. Шу ўринда, мақол ҳақида билдирилган фикрларга тўхтаб ўтиш жоиз.

Мақолга “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”да қуйидагича таъриф берилади: “Мақол – халқ оғзаки ижоди жанри; қисқа ва лўнда, образли, грамматик ва мантикий тугал манолар, ҳикматли ибора, чуқур мазмунли гап. Муайян ритмик шаклга эга”¹¹.

“Мақол – турмуш тажрибалари заминида туғилган ва халқ донолигини ифодалаган қисқа, кўпинча шеърий шаклдаги ҳикматли сўзлар, чуқур маъноли иборалар”¹², – деб таъкидланади яна бир манбада.

Яна бир китобда мақол жанрининг қуйидаги белгилари уқтирилади: “Қисқа, чуқур маъноли, нутқда кенг қўлланувчи барқарор шаклга эга фольклор жанрларидан бири бўлиб, улар халқнинг кўп асрлик тажрибалари асосида юзага келган. Мақол ўз табиатига кўра, нутқда кўчма ёки ўз маъносида қўлланилади, яъни айрим мақоллар фақат кўчма маънода (“Қарға қарғанинг кўзини чўқимайди”, “Қуруқ қошиқ оғиз йиртар”), баъзан ўз маъносида (“Она юртинг омон бўлса, ранги–рўйинг сомон бўлмас”) ишлатилади”¹³.

Таниқли фолклоршунос М.Афзалов: “Мақоллар ўзининг тузилиши жиҳатидан қисқа, лўнда, пухта, мантиқли ва фикран тугалланган ва сиқик ишланган бўлади. Мақолларда ҳаётини тажрибалар натижасида келиб чиққан қимматли фикрларнинг хулосаси ифодаланади. Мақоллар кўпинча поэтик формага эга бўлади. Улар ўзининг ихчам, пишиқ ва пухта ишланганлиги билан халқ оғзаки ижодининг бошқа турларидан фарқ қилади”¹⁴,– дея таъкидлайди.

¹¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 5-жилд, Ўз.МЕ нашриёти, Т., 2003, 543-бет

¹² Ҳомидий ва бошқалар. Адабиётшунослик терминлари луғати. Т.: Ўқитувчи, 1970, 106-бет

¹³ Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Т.: Ўқитувчи, 1983, 253- 254-бетлар

¹⁴ Афзалов М. Ўзбек халқ мақоллари ҳақида. // Ўзбек халқ мақоллари. Адабиёт ва санъат нашриёти, Т., 1978, 6-бет

Демак, юқоридаги таърифлардан кўриниб турибдики, мақоллар чуқур ва мукаммал мазмунга эга бўлиб, уларда халқнинг донолиги, миллий анъаналари, узоқ асрлик ҳаётий тажрибалари мужассамлашади. Фольклор асарларининг ҳамма жанрлари каби мақолларда ҳам халқнинг орзу – умидлари, ватанпарварлик, инсонпарварлик хислатлари, хулласи, барча ижобий фазилатлари акс этган бўлади. Шу сабабдан ҳам уларнинг ижтимоий–сиёсий ва ахлоқий–тарбиявий аҳамияти ғоят улқандир.

Ҳамид Олимжоннинг “Муқанна” драмасида Муқанна ҳақида ривоятлар ва “Қуръон”га кирган афсоналардан ташқари бир қатор мақоллар ҳам қўлланган. Уларнинг эстетик функцияси ҳам бевосита қаҳрамон нутқини индивидуаллаштиришда қаратилган. Бу мақоллар поэтик синтактик талаби билан стилистик жиҳатидан ўзгартирилган. Аммо унинг мантиқий, асоси, эмоционалекспрессив жиҳатлари тўлиқ сақланган. Масалан, Гулойим отаси билан суҳбатда ёшлигидан оташга сиғиниши ўргатганлигини таъкидлар экан, “Қанча баланд учса ҳамки чумчуқ, қуш Уясида ўрганганни ўқирмиш”, – дейди.

Баттол тилидан келтирилган куйидаги мақол эса унинг хотин–қизларга паст назар билан қаровчи ортодоксал исломнинг ашаддий ҳимоячиси сифатидаги асл қиёфасини очиб беради:

Хотинларнинг сочи узун бўлади,
Сочи узун ақли қисқа бўлади.

Шу тушунча ҳоким бизнинг томондан,
”Ноқусул ақл” деб ёзилган қуръонда.

Гулойиннинг Муқанна олдида тиз чўкиб, тавба қилган Баттолни ўлдирмай тирик қолдириш тўғрисидаги таклифи қўзғолончилар ўртасида шубҳа ва норозилик уйғотади. Буни муаллиф зарафшонлик деҳқон Ҳакимнинг тилидан лўнда қилиб ифодалайди: Ит вафо–ю, хотин жафо деганлар. Драма воқеалари кулминациясида маккор Баттол билан тўқнаш келган Гулойин унга қарата шундай дейди:

Қандай пайдо бўлдинг хоин кўзимга!

Кўр асони йўқотади бир марта,
Ўлдирмасам чиқмайман ҳеч аламдан.

Ёхуд асар финалида кул оташ қамалда қолган куёви Муқаннанинг руҳини кўтариш мақсадида шундай насиҳат қилади:

Эсдан чиқиб кетар оғир бу аҳвол,
Бир мақол бор: яхши ният ярим мол.
Ойнинг беши ёруғ, беши қоронғу,
Халқдан қолган жуда эски ҳикмат бу.
Номид бўлмоқ ўғлим сенга нолойиқ.

Муқанна: Ҳа номидни шайтон дейди халойиқ! Бундай мақолларнинг хилма–хил намуналарини Гирдак ва бошқа қўзғолончилар нутқида ҳам кузатиш мумкин. Уларнинг барчаси персонажлар тилини индивидуаллаштириш орқали асар тилининг таъсирчан чиқиши учун хизмат қилган.

Маълум бўладики, ”Муқанна” драмасида қўлланилган ривоя, афсона ва мақоллар Ҳамид Олимжон томонидан бадиийлик мезонида қайта–қайта

ўлчаниб, асар тўқимасининг исталган жойига тикиштирилавермасдан характерлар ва воқеалар мантиқи тақозо этган ўринлардагина киритилган.

ЎЗБЕК ТИЛИ РИВОЖИДА ҲАМИД ОЛИМЖОН ИЖОДИНИНГ ЎРНИ

**Сайёрахон Қурбонова,
ФарДУ ўқитувчиси. ф.ф.ф.д (PhD),
Махлиё Шарипова,
Фарғона шаҳар 5–ўрта мактаб ўқитувчиси**

Маълумки, бадиий асарлар адабий тил ривожининг ёрқин намунаси сифатида ўз даврига хос барча лингвистик таҳлиллар олиб бориш, муҳим ҳулосалар чиқариш учун асосий манба бўлиб хизмат қилади.

Тилшунослик фанининг қадим даврларидан бошлаб, ҳозирги кунгача ҳам бадиий асар тилини таҳлил этиш олимлар олдида муҳим ва қизиқарли масалалардан бири бўлиб келган. Бу йўналишда жаҳон тилшунослигида [2,4], ҳамда ўзбек тилшунослигида бир қатор ишлар амалга оширилган. Айниқса, кейинги йилларда ўзбек тилшунослигида олиб борилган изланишлар[3,5,6,8,9] бадиий асар тили тадқиқ этишда лингвопоэтик йўналишда иш олиб бориш мақсадга мувофиқ эканлигини кўрсатди.

Шу жиҳатдан олганда, ўзининг ўлмас, халқона асарлари билан ҳозирги ўзбек адабий тилининг ривожига ўзининг муносиб улушини қўшган адиб Ҳ.Олимжон асарларининг тил хусусиятларини ўрганиш ва ижодкорнинг поэтик нутқ яратишдаги бадиий маҳоратини очиб бериш ҳозирги ўзбек адабий тилининг ривожланиш тарихидаги айрим умумий қонуниятларни ойдинлаштиришга катта ёрдам беради.

Ҳ.Олимжон қолдирган мероси – поэтик ижоди ўзининг ижтимоий қимматига кўра кенг қамровли бўлиб, уни илмий таҳлил қилиш ҳозирги ўзбек миллий адабий тили, адабиёти, санъати, умуман олганда, ўзбек миллий маданияти тарихий тараққиётини ёритиб берувчи ҳозирги ўзбек адабий тилининг етакчи услуби ҳисобланган бадиий нутқ услубининг ўзига хос белгиларини ўзида мужассам этган муҳим манба бўлиб ҳисобланади.

Ҳ.Олимжон ижодининг тил хусусиятларини ўрганиш соҳасида ўзбек тилшунослигида маълум даражада илмий–тадқиқот ишлари мавжуд. Улардан энг эътиборли иш сифатида С.Бобоевнинг Ҳамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятларига бағишланган номзодлик диссертациясини айтиб ўтиш мумкин^[3]. Мазкур тадқиқотда, асосан, Ҳ.Олимжон асарларининг лексик–семантик жиҳатлари ўрганилган. Шоир асарларида лексик бирликларнинг қўлланиши, кўчим турларидан фойдаланиш атрофлича чуқур таҳлил этилган.

Шоир асарлари тилини ўрганишга бағишланган айрим мақолаларда Ҳ.Олимжон ижодининг баъзи бир томонлари умумий ҳолатда таҳлил этилган. Бу ўринда Х.Дониёров ва Б.Йўлдошевларнинг “Адабий тил ва бадиий стиль” [5] ҳамда Х. Дониёров ва С. Мирзаевлар ҳаммуаллифлигида нашр қилинган “Сўз санъати”[6] китобларидаги илмий–оммабоп мақолаларни кўрсатиб ўтиш мумкин.

Бу мақолаларда Ҳ.Олимжоннинг ўзбек адабий тилига қўшган ҳиссаси, шоир асарлари тилининг халққа яқинлиги, лексик–грамматик хусусиятлари,

нутқ услуби каби масалалар атрофида фикр юритилган. Булар орасида тилшунос олимлар Х. Дониёров, Қ. Самадов[7] ҳаммуаллифлигида нашр этилган манба ҳамда Б.Очилов^[10]ларнинг мақолалари илмийлиги, шу билан бирга, амалий аҳамияти билан ажралиб туради.

Ҳ. Олимжон асарларининг тил хусусиятларини ўрганишга бағишланган бундай ишлар, албатта, шоирнинг она тилимизда мавжуд бўлган ифода воситаларидан қандай фойдаланганлигини кўрсатиб беришда катта аҳамиятга эга.

Маълумки, Ҳ.Олимжон ижодининг энг маҳсулдор чоғи ХХ асрнинг 2–чорагига тўғри келади. Бу давр ўзбек адабий тили ривожланиш тарихида ўзбек миллий адабий тилининг шаклланиб эндигина ривожланиш босқичига кирган даври сифатида алоҳида ажралиб туради. Бу даврда ўзбек тили ўзининг фонетик, лексик–грамматик ҳамда стилистик хусусиятлари билан эски ўзбек адабий тилидан фарқланишга улгурган янги адабий тил сифатида шаклланиб бўлган эди. Шунинг учун тилшунос олимлар бутун халқ оmmasига тушунарли бўлган, эски ўзбек тили анъаналарининг энг яхши томонларини ўзига сингдирган ҳозирги ўзбек адабий тили шаклланганлигини таъкидлаб, адабий тил тарихида янги босқич (V босқич) сифатида таърифлайдилар [1;19–29].

Катта истеъдод эгаси ўзбек халқ шоири Ҳ. Олимжон ижодий фаолияти айнан ўзбек миллий адабий тилининг ана шундай ривожланиш босқичи жараёнига тўғри келди. Бу ўринда ўзбек адабий тили ривожланишининг дастлабки босқичида Ҳ.Олимжоннинг хизмати катта бўлганлигини алоҳида таъкидлаб ўтмоқчимиз. Шоир ўзининг халқона сермазмун ижод маҳсули бўлган бадий асарлари билан ўзбек миллий адабий тилининг етакчи услуби ҳисобланган бадий нутқнинг ривожланишига асос солган ижодкорлардан бири эди.

Бунда Ҳ.Олимжон асарлари тилида қўлланган бадий тасвир воситалари, кўчимлар, синтактик–стилистик фигуралар, услубий–семантик воситаларга эътибор қаратилади. Шоир ўз асарлари билан ўзбек адабий тилининг стилистик системасини бойитди, янада тараққий эттирди. Буни биз Ҳ.Олимжон асарларида унинг ўзигагина хос бўлган оддий халқ тилида кўп қўлланувчи нутқ бирикларидан санъаткорона, маҳорат билан фойдаланилганлигида кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Тошкент, 1973.
2. Балли Ш. Французская стилистика. М.: Наука, 1961. – 219 стр.
3. Бобоева С. Лексико–стилистические особенности поэзии Хаида Алимжана:Дисс. ...канд. филол. наук. –Тошкент, 1989.
4. Брандес М. П. Стилистика немецкого языка– М.: “Высшая школа”, 1983, стр.104
5. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стиль.–Тошкент, Фан. 1988. Б–208.
6. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (маҳорат ва тил ҳақида мулоҳазалар) – Тошкент: 1962.

7. Дониёров Х., Самадов Қ. Ҳамид Олимжоннинг тилдан фойдаланиш новаторлиги// Шарқ юлдузи, 1959.7–сон.

8. Ёўлдошев М. Бадий матннинг лисоний таҳлили. –Тошкент, 2008.

BIR VATANKIM, BUNDA ELNING BAXTI MANGU BARQAROR

**Shaxlo Botirova, f.f.f.d. (PhD), Toshkent viloyati
Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti,**

Hamid Olimjonni odatda yoshlik kuychisi, bahor kuychisi, sevgi kuychisi, shodlik va baxt kuychisi degan sifatlar bilan ta'riflashadi. Lekin u birinchi galda O'zbekiston kuychisi edi. U O'zbekiston haqida yozganda samimiy, chinakkam farzand tuyg'ularini she'rga soldi. U yurtini hech qanday g'arazsiz, sodda, halol bir o'g'il sifatida sevdi. Shoirning juda mashhur bo'lib ketgan "Baxtlar vodiysi" she'ri ana shunday muhabbatdan tug'ilgan:

Salqin saharlarda uyqudan turgan,
Buloq suvlariga yuzini yuvgan,
Marmar havolarning qo'yniga cho'mgan,
Zilol bo'shliqlarga keng quloch qo'yan,
Mustaqillik ishq'i bilan yongan dalalar

ko'm–ko'k.

She'r xuddi bugun yozilgandek! Dalalargina (Vatan ma'nosida deb tushunish kerak, albatta) emas, shoirning o'zi ham "Mustaqillik ishq'i" bilan yongandek! Tarixning alg'ov–dalg'ov, murakkab zamonida, birov–birovga ishonmaydigan davrda, dahshatli qatag'onning sovuq shamollari esib turganda, ona – yurtni sevish, unga bo'lgan mehru–muhabbatini izhor qilish qanchalar mushkul edi.

Biz go'zal va yuksak she'riyatimiz bilan hamisha faxrlanamiz. O'tgan yuz yillikda ham adabiyotimizda hech bir xalqnikidan qolishmaydigan ajoyib she'riyat namunalari yaratildi. Cho'lpon, Usmon Nosir, G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, Zulfiya kabi ijodkorlarning eng sara nazm namunalari fikrimizning dalili bo'la oladi. Darhaqiqat, uncha uzun bo'lmagan mana shu ro'yxatda, hech shubhasiz, betakror shoir Hamid Olimjonning o'z o'rni bor. O'tgan asrda xalqimiz yaratgan moddiy boyliklar qanchalik mo'l–ko'l va salobatli bo'lmasin, uning o'zi boshqalarga mute edi, boyligi talon edi.

Sobiq tuzumning asossiz va muvaqqat g'oyalarini bayroq qilaverish qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini xalqimiz o'z ko'zi bilan ko'rdi. Ne–ne porloq iste'dod egalarining o'sha zamonni ulug'lab yozgan asarlari endilikda hech kimga kerak bo'lmay qoldi.

Urush davri bo'lgani sababli "Muqanna" kabi asarlarda ozodlik tuyg'usi kuylangani uchun o'sha paytlarda muallifga teginishmadi. Lekin keyinchalik shu ruhdagi "Jaloliddin Manguberdi" asarini yozgani uchun Maqsud SHayxzoda qatag'onga uchradi. Balki Hamid Olimjon erta ko'z yumganida uning boshiga ham Maqsud Shayxzodaning kuni tushardi. U davrlarda o'z ona xalqiga "Xalqim" deb murojaat etish ham millatchilik deb baholanardi. Bunday misollarni afsuski, yuzlab keltirish mumkin.

Xalqimiz mustaqillikka erishgach, nainki olis moziy, balki yaqin o'tmishdagi voqea va hodisalarga, jumladan, badiiy asarlarga munosabat masalasi ham daf'atan maydonga chiqdi. G'alvirni suvdan ko'targanda esa soxta g'oyalarga xizmat qilgan

asarlar o‘z–o‘zidan nazardan chetda qoldi. Xalqning o‘lmas ruhiyatini, qadriyatlarini, milliy o‘ziga xosligini va nihoyat, bebaho til boyligini mujassam eta olgan haqiqiy ijod namunalorigina yashasa xaqli ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Modomiki, asosiy mezon borliqni yuksak san’at darajasida kuylay olish ekan, Hamid Olimjonning otashin she’riyati ham o‘zining nozik va inja ruhi, toza va beg‘ubor til boyligi bilan muhtasham nazm koshonasini bugun ham bezab turibdi. Bu go‘zal she’riyat haqida o‘ylaganimizda ko‘z oldimizdan betakror tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan quyma satrlar o‘ta boshlaydi. Shoirning Vatan mavzusida yozgan misralari doimiy hamrohimiz bo‘lib qolgan:

Vodiylarni yayov kezganda,

Bir ajib his bor edi manda,—

deb yozgan edi shoir “O‘zbekiston” she’rida. Yoxud shoir yurtni kuylash uchun “Daryo kabi uyg‘oq o‘turman”, deydi. Go‘zallikni vasf etar ekan, yorning jamoli qoshida “oftob ham kuygan” deb qo‘yadi.

Hamid Olimjon, avvalam bor, lirik shoirdir. O‘zbek she’riyatida lirikaning eng go‘zal va nafis namunalari, albatta, bisyor. Lekin Hamid Olimjon lirikasi boshqa birorta shoirning lirikasiga o‘xshamaydi. Bu lirika marmar kabi tiniq, lekin sovuq emas. Unda tasvir ham, ohang ham bo‘lakchadir. “Shag‘irlaydi betinim daryo, Shag‘irlaydi vahm to‘lgan jar”, “Holbuki, tun bunda odatda, Butun borliq uxlardi sokin”, “Xayolimda bo‘lding uzun kun, Seni izlab qirg‘oqqa bordim. Och to‘lqinlar pishqirgan tunda, topib ber, deb oyga yolvordim”. “Hamid Olimjonning she’riy misralarni sayqallash ustida bahodirona ter to‘kish mahorati ham hali necha–necha avlod shoirlariga ibrat bo‘lib qolgusidir”(Abdulla Oripov).

Hamid Olimjon o‘tkir iste’dodi bilan ozodlik tuyg‘ularini kuylashga intildi. Shu maqsadda shoir “Muqanna” tarixiy asarini yaratdi. Chorasizlik iskanjasida qolgan Muqanna so‘nggi damda o‘zini olov qa‘riga tashlar ekan:

Xalqqa ayting, men aslo o‘lganim yo‘q,

Yov qo‘liga taslim ham bo‘lganim yo‘q.

Men elimning yuragida yashayman,

Erk deganning tilagida yashayman! – deya murojaat etadi.

Axir bu o‘tli satrlar jafokash va jabrdiyda xalqning asl maqsadi, orzusini ifoda etgan otashin nido emasmi? Hamid Olimjon tahdidlarga to‘la murakkab bir zamonda ijod qildi. U shoir va shaxs sifatida imkon qadar xalqimizning ma’naviy qadriyatlarini ulug‘lashga harakat qildi. 1939 yilda “Alpomish” dostonini nashrga tayyorladi va chop ettirdi. Bu esa, shubhasiz, jasorat edi. Afsuski, oradan ko‘p vaqt o‘tmasdan, 1952– yilning yanvarida tazyiqqa uchrab, ma’n etildi. Istiqlolimiz va yurtboshimiz sharofati bilangina “Alpomish”ga yorug‘ kunlar nasib etdi.

Har bir yozuvchi ijodi tadrijiy davrlardan iborat bo‘lganidek, Hamid Olimjon ijodining ham shakllanish va ravojlanish bosqichlari bor. Agar 1925–1932 yillarni Hamid Olimjonning mashq davri, adabiyot olamidagi murg‘ak davri desak, 1932–1944—yillar shoir ijodining shakllanish va rivojlanish davri sifatida ko‘zga tashlanadi. U ijodining 1932–1944— yillaridagi ikkinchi bosqichida she’riy mahorat “sir”larini tezkorlik bilan egallab, o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos shoir bo‘lib etishdi; voqelikni romantik ko‘tarinki pardalarda tasvirlash usulidan realistik tasvir san’atiga qadar bo‘lgan yo‘lni shaxdam qadamlar bilan bosib o‘tdi. Hamid Olimjon ana shu jarayonda xalqchillik, xalqona ruh chinakam shoir ijodining boshlang‘ich bosqichi emas, balki, so‘nggi, yuksak bosqichining belgilari ekanligini isbotlab berdi. Hamid Olimjon o‘zining barkamol she’rlari bilan o‘zbek

she'riyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shibgina qolmay, o'z maktabini ham yaratdi. Ko'plab yosh shoirlar Hamid Olimjon maktabidan saboq olib, keyinchalik o'ziga xos shoir bo'lib ulg'aydilar.

Hamid Olimjon maktabiga xos xususiyatlardan biri voqelikka emotsional–romantik nazar tashlash, voqelikdagi go'zallikni ko'rish, undan hayratlanish va uni kuylash, she'riyat muxlislarida hayotbaxsh tuyg'ularni uyg'otish, har bir so'z va har bir obrazning ichki imkoniyatlarini, noma'lum rang va ohanglarini yuzaga chiqarish, she'riy shaklning sehrli, tilning musiqiy ravon va dilbar bo'lishiga intilishdir. Bor–yo'g'i 35 yil umr ko'rgan shoirning adabiy ijodi o'n jildlik "To'la asarlar to'plami"da e'lon qilingan. Bu nashrdan joy olgan asarlar Hamid Olimjonning Alisher Navoiy ijodini o'rganish ishini boshlab bergan va shu muborak ishga rahbarlik qilgan olimlardan, o'zbek xalq og'zaki ijodining shoh namunasi – "Alpomish" dostonini o'rganib, uni nashrga tayyorlashi esa xalq og'zaki ijodining fidoiylaridan biri bo'lganini tasdiqlaydi. Uning bu har ikkala sohadagi ijodi kelajakda Alisher Navoiyning 500 yillik, "Alpomish" dostonining esa 1000 yillik yubileylarining o'tkazilishi va shu munosabat bilan o'zbek badiiy madaniyatining bu ikki buyuk ummonini o'rganishda mo'tabar poydevor bo'lib xizmat qildi. Ko'ramizki, Hamid Olimjonning adabiy va ilmiy ijodida bugun nafaqat o'z qimmatini yo'qotmagan, balki yanada katta ahamiyat kasb etgan masalalar oz emas. Agar bu masalalar jumlasiga shoirning o'zbek xalqi tarixiy o'tmishidagi eng muhim davrlaridan biri arab bosqinchilariga qarshi kurashi va va shu kurash rahnamosi Muqanna haqida she'riy drama yozganini, A.S.Pushkinning "Kavkaz asiri" va "Suv parisi" singari boshqa asarlarni tarjima qilib, zamonaviy o'zbek tarjima maktabi kamoliga munosib hissa qo'shganini ham kiritsak, uning XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyoti tarixidagi o'rni yanada ravshanlik kasb etadi.

Hamid Olimjon "Adabiyot va xalq" degan adabiy–tanqidiy maqolasini shunday so'zlar bilan boshlagan edi: "Adabiyot o'zining barcha ildizlari bilan xalqqa bog'langan. U xalq mulki. Xalqsiz adabiyotning yuzaga kelishi yoxud yashashi haqida o'ylash ham mumkin emas. Chunki, u xalqning o'z ichidan ko'karib chiqadi, gullaydi, yana xalqqa qarab boradi. U o'zining butun ma'nosi, mohiyati va ahamiyatini ham shu xalqqa yaqinlashganda topadi". Bu so'zlar XX asr o'zbek adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri – Hamid Olimjonning ijodiga ham bevosita taalluqli. Chunki, bu ijod o'zining barcha ildizlari bilan xalqqa bog'langan va bir umrga shu xalqning badiiy mulki bo'lib qolaveradi.

БЎҒИНЛАРНИНГ БАДИИЙ НУТҚ ЯРАТИШДАГИ ЎРНИ

**Сайёрахон Қурбонова,
ф.ф.ф.д (PhD), ФарДУ ўқитувчиси,
Ҳабибахон Назирова,
Фарғона шаҳар 5– мактаб ўқитувчиси**

Ўзбек тили фонетикаси ва фонологияси масалаларига доир ишлар 70–80– йилларда, айниқса, авж олди [6]. Кейинчалик бу масала бўйича атрофлича чуқур изланишлар олиб бориш кучайди^{1,2,4}.

Сўнги вақтларда тилшунослик фанининг тараққиёти бўғин структураси ва унинг асосий хусусиятларига бўлган қизиқишнинг ўсганлиги билан ҳам характерланади². Маълумки, нутқ фрази (жумла), такт, сўз, бўғин ва товушлардан ташкил топади^{1,2,6,7}. "Ҳозирги ўзбек адабий тили"

дарслигида бўғинларнинг бир унлидан иборат бўлган туридан то бир унли ва беш ундошдан иборат турлари мавжудлиги кўрсатилган [12,68].

Бадиий нутқда бўғин турларидан фойдаланиш нутқнинг оҳангини белгилаб беради. Ҳамид Олимжон шеърлари талаффуз осонлиги, ёд олишга қулайлиги ва енгил ритми билан ажралиб туради. Бунинг сабабларидан бири сифатида бу шеърлардаги бўғинлар ва улардан фойдаланиш ҳолатини кўрсатиш мумкин.

Бўғинларнинг ўзбек тилидаги асосий турларини шартли белгилаб олган ҳолда, уларнинг кўринишларини шоир шеърларида куйидагича таҳлил этиш мумкин:

“А” белгили бўғинлар бир унлидангина иборат бўғинлар; “В” белгили бўғинлар бир унли ва бир ундошдан иборат бўғинлар (унли+ундош тарзидаги бўғинларни В, ундош+унли тарзидаги бўғинларни В2 тарзида); “С” белгили бўғинлар бир унли ва икки ундошли бўғинлар (ундош+унли+ундош тарзидаги бўғинларни С1, унли+ундош+ундош тарзидаги бўғинлар С2, ундош+ундош+унли тузилишидаги бўғинлар С3 тарзида); “Д” белгили бўғинлар – бир унли ва уч ундошдан тузилган бўғинлар деб шартли белгилаб олайлик.

Ҳамид Олимжон қаламига мансуб шеърларда бўғин турларининг қўлланишини ушбу тартибда стилистик таҳлил этиш мақсадга мувофиқ деб топдик:

V2 C1 C1 V2 V2 C1 C1 C1 V2
Во – дий – лар – ни я – ёв кез – ган – да
C1 A C1 C1 C1 A V2 C1 V2
Бир а – жиб ҳис бор э – ди ман – да.
C1 C1 A C1 C1 V2 C1 V2 C1
Чап – нар у – риб гул – ла – ган бо – гин
A C1 A C1 V2 C1 C1 V2 C1
Ў – нар э – дим Ва – тан туп – ро – гин.

Бу парчада 36 та бўғин қўлланган бўлиб, бўғинлар ичида С1 яъни ундош + унли + ундош тарзидаги бўғинлар энг кўп 21 марта, В2 яъни ундош + унли тарзидаги бўғинлар 10 марта ва А белгили, яъни фақат бир унлидан иборат бўғинлар 5 марта қўлланган. Бу ҳисобни фоиз миқдорида ҳисоблаб кўрсак, С1 белгили бўғин тури 58.3 фоизни, В2 белгили бўғинлар 27.7 фоизни, А белгили бўғинлар 14 фоиз миқдорни ташкил қилади.

Мисраларда бўғинлар миқдорининг тенглиги ва ўзаро мос оҳангда жаранглаши шеърини нутқнинг равон ва муסיқий бўлишини таъминлайди. Бунда бўғин таркибидаги товушлар сони ва жойлашуви ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Ҳамид Олимжон шеърлари ўзининг бадиийлиги, енгил оҳанги ва тушунарлилиги билан бирга муסיқийлиги ва кўтаринки руҳда ёркин ифодаси билан ажралиб туради. Шоир ижодида бўғин турларидан фойдаланиш ҳақида маълумот берилганда, очиқ ва ёпиқ бўғинлар таҳлилга тортилди.

Очиқ бўғинлар кўп қўлланганда темпи юқори, кўтаринки руҳдаги нутқ типи ҳосил бўлади. айнан шу масала юзасидан таҳлил этиб кўрсак, Ҳамид Олимжон шеърларини ташкил этган бўғинлар орқали шеърларнинг кўтаринкилик, оҳангдорлик, муסיқийлик сабабини очиб бериш мумкин.

Буни Ҳамид Олимжоннинг “�ўзбекистон” номли шеъри мисолида таҳлил этиб кўрсак. Масалан:

*Во – дий – лар – ни я – ёв кез – ган – да
Бир а – жиб ҳис бор э – ди ман – да
Чап – нар у – риб гул – ла – ган бо – гин
Ў – нар э – дим, Ва – тан туп – ро – гин.
О – дам – лар – дан тинг – лаб ҳи – ко – я,
Ў – сар э – ди шо – ир – да го – я.
Дар – ё – лар – дан куй – лаб ў – тар – дим,
Эр – так – лар – га қу – лоқ ту – тар – дим.*

Келтирилган мисол асосида стилистик таҳлил қиладиган бўлсак, жами бўғинлар сони 72 та бўлиб, бунда унли товуш билан тугаган бўғинлар сони 31 та, сонор товушлар билан тугаган бўғинлар сони 29 та, жарангли ундошлар билан тугаган бўғинлар сони 7 та, жарангсиз ундошлар билан тугаган бўғинлар сони 5 та эканини кўрамиз. Кўринадики, мисраларда жарангсиз ундошлар билан тугаган бўғинлар сони ниҳоятда кам.

Унли товуш билан тугаган бўғинларда нутқ темпи баланд бўлади. сонор товушлар ўз хусусиятига кўра (овоз иштирокига кўра) унлиларга энг яқин турувчи товушлар ҳисобланади. Шу сабабли ҳам сонор товушлар билан тугаган бўғинлар ҳам юқори жарангланувчи нутқ шаклини ҳосил қилади. Жарангли ундош билан тугаган бўғинларда ҳам оҳанг юқори пардаларда жаранглайди, жарангсиз ундошларда нутқ темпи пасаяди. Айниқса, улар бўғин охирида келганда талаффуз оҳанги пасайгани яққол сезилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Кабилова З. Ўзбек тилининг фоносемантик воситалари. – НДА. Тошкент, 2008. – Б 25.
2. Ризаев С. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари.– Тошкент: Фан.2006. 296 б.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили.– Тошкент: Ўқитувчи, 1980. Б–448
4. Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар – Филол. фанлари номзоди ... дис. – Т. 1996. –132 б.
5. Фуломов А., Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. Ўзбек тили дарслиги: 9– синф учун дарслик.– Т.: Ўқитувчи, 1986. –259 б.

ҲАМИД ОЛИМЖОН ШЕЪРИЯТИДА ЭПИТЕТЛАР ЛИНГВОПОЭТИК ВОСИТА СИФАТИДА

Юсупова Орзибони,

СамДУ ўқитувчиси, ф.ф.номзоди

Шеърият инсон қалбини жунбушга келтира оладиган, ҳиссий кечинмаларни ўзида ташийдиган, уни китобхонга ҳам юқтира оладиган адабий тур ҳисобланади. Унда шоир ўз қалбида кечаётган кечинмани ифодалаш учун турли бадий тасвир воситаларидан фойдаланади. Бироқ ҳар бир тасвирий воситадан ўз ўрнида фойдалана олиш ижодкорнинг поэтик маҳоратидан келиб чиқади ва айна мана шу фойдалана олиш даражаси шоир асарларининг етуклиги, ўзига хослигини таъминлайди. Бадий тасвир

воситаларидан ниҳоятда унумли фойдаланган қалам эгаси, ўзбек халқининг сеvimли шоири Ҳамид Олимжондир. У ўз шеърларида бадий тасвир воситаларининг барча турларидан нафақат фойдаланган, балки қўллаган ифода усулларини изчил ривожлантириб, айти шу ифода усулида мукамалликка эришган шоирдир. Ҳ.Олимжон шеърларининг ўзига хослигини таъминлашда эпитет, индивидуал ўхшатишлар, антитеза, асиндетон (боғловчисизлик), полисендитон (кўпбоғловчилик), такрор ва унинг турлари, градация, риторик сўроқ, риторик мурожаат, жим қолиш каби кўплаб тасвирий воситалар фаол иштирок этган. Ушбу ифода усулларидан бири эпитет бўлиб, шоир доимий эпитетларни қўллашдан ташқари, индивидуал эпитетлар яратганлиги билан ажралиб туради. Мазкур эпитетлар шоир шеърларининг ўзига хослигини таъминлашдан ташқари, китобхон кўз олдига тасвирланаётган нарсани яққол гавдалантира олади, эмоционал–экспрессивлик ҳосил қилади. Зеро, Р.Кўнғуров таъкидлаганидек, эпитет поэтик аниқловчи бўлиб, у нарса ёки ҳодисанинг бирор томони, бирор хусусияти ёки белгисини алоҳида таърифлаб кўрсатиш учун предмет, воқеа номини билдирувчи сўз олдидан қўшимча равишда келтирилувчи сўзлардир[4.–Б.27]. Бизга маълумки, нарсалар номи олдидан келаётган ҳар қандай аниқловчи эмоционал–экспрессив қимматга эга бўлавермайди. Бироқ Ҳ.Олимжон қўллаган аниқловчилар ҳақида бундай деб бўлмайди. Масалан, шоирнинг “Ҳаёлимда бўлдинг узун кун” шеърида инсон қалбини тўлқинлантирадиган, унда тасвирланаётган нарсаларга нисбатан эстетик завқ уйғотаётган восита бу – эпитетдир. Шеърдаги *узун кун, салқин саҳар, салқин ҳаво* бирикмалари кўз олдимизга ўша пайтти келтирса, *оч тўлқин, чиройли тун, шўх юлдуз, бахтиёр кунлар, ёлғиз тўлқин, ҳийлагар ой, сеҳргар дилбар бирикмаларидаги эпитетлар* эмоцияни кўзғатишга хизмат қилмоқда: *Кеча жимжит, ёлғиз тўлқинлар Пишқиради билмай тинимни. Ҳийлагар ой, сеҳргар дилбар, Солиб қўйдинг ёдимга кимни?* Бу мисраларда риторик мурожаат, яъни ойга мурожаат этилаётгани ва риторик сўроқ ҳам банднинг эстетик таъсир кучини оширмоқда. Шоир ойни ҳийлагар, сеҳргар деб атаб, нафақат уни жонлантирмоқда, балки унга яна бир сифат қўшмоқда, ойни дилбарга ўхшатиш эса тасвирни кучайтириб, шоир мақсадини очишга хизмат қиляпти. Шу ўринда эпитет манбаларда таъкидланганидек [2. –Б.35–36], икки мақсадга: баённинг аниқ бўлишига, экспрессивликка хизмат қилмоқда. Шоирнинг “Чимён эсдаликлари” шеърида ҳам табиат тасвирини чизишда, бу тасвирнинг китобхон кўз ўнгида гавдалантиришда шоир ниҳоятда чиройли, ўзига хос эпитетлардан фойдаланганки, уни табиатни сўз билан тасвирлаган уста рассом деб аташ мумкин: *Бунда гулнинг энг асллари, Бахмал гилам, алвон поёндоз; Қояларда асрлик достон, Дараларда оппоқ, мангу қор, Чўққиларда оташ саратон, ёнбағирлар бинафша баҳор.* Шоир баҳорни бинафшага ўхшатиш ва бинафша сўзини аниқловчига айлантириш орқали бу фаслнинг бутун хусусиятларини аниқ кўрсатиб бермоқда. “Баҳорга етганда” шеърида қўлланилган қуйидаги эпитетлар баҳор фаслининг яна бошқа бир сифатларини ҳамидона руҳ билан акс эттирмоқда: *Эй баҳор, ҳар нафас зилол қўйнинг, Қўшчининг шеъри билан жонланадир. Уйғониб шунда пок, ипак кўнглинг Қип–қизил лолалар–ла қопланадир.* Банддаги зилол кўйин ердаги энди чиққан ёш майсаларни эслатса, баҳорга пок кўнгилик деб сифат берилиши бутун табиатнинг қайтадан туғилишини ва туғилган чақалоқнинг пок

бўлишига ишорадир. Дарахтларнинг оппоқ бўлиб гуллашини, ипакнинг ҳам оқ бўлишини, баҳорнинг майин, кўнгилларга ёқадиган ҳавосини, ипакнинг ҳам майинлигини инобатга олсак, баҳорга берилган яна бир сифат – ипак кўнгил жуда топиб ишлатилган метафорик эпитет эканлиги шоир маҳоратининг бир томчисидир. Банддаги қип–қизил сифати лоланинг рангинигина аниқлаш учун хизмат қиляпти десак, менимча, янглишган бўламиз. Ушбу сўз ўша даврнинг маълум бир томонларини ҳам очиб беришга хизмат қилмоқда ва айнан пок, ипак кўнгилнинг қип–қизил лолалар билан қопланиши, оқ ва қизил рангларнинг қаршилантирилиши, шоир мақсади фақат табиат, баҳор тасвирини чизишга қаратилмаганлигидан гувоҳлик беради. Шеърни охирги бандларида ҳам шоир баҳор табиатини яна бир қанча эпитетлар орқали кўрсатиб беради: *Тинглангиз ҳар нафасда жонланди Ёш табиат, яшил кўнгиллар–ла...Шунда ёш руҳим ахтариб қолди Яна ёшликни гунча – гуллар–ла.* Баҳорда майсаларнинг кўкариши ёш табиат дейилишига сабаб бўлаётган бўлса, унинг ранги яшил кўнгил деб изоҳланмоқда. Ҳ.Олимжон ниҳоятда мохирлик билан қўллаган ушбу эпитетлар бугунги кунда ҳам шоирлар томонидан қўлланилмоқда. Масалан, Усмон Азимнинг “Қишга хайр–хўш”ини ийманиб айтди” шеърда баҳорда дарахтларнинг барг ёзиши, баргнинг очилиш ҳолати куйидагича тасвирланган: *Куларди ям–яшил кўнглини очиб, Биров тушундими, барг ҳам бахтиёр.*

Юқоридаги таҳлиллардан кўриниб турибдики, шоир поэтик услубининг ўзига хослигини таъминлашда эпитетлар алоҳида ўрин эгаллайди ва шоир мақсадини, қалб кечинмаларини янада аниқ, янада гўзал, янада ёрқин тарзда очиб беришга хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд, 1994.
2. Карпова Л.С. Лингвопоэтика повествовательных типов и другие методы лингвопоэтического исследования// Язык. Культура. Коммуникация. Вестник ИГЛУ, 2009. –С.35–36.
3. Шукуров Н. Индивидуал услуб ва бадиий тил// Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. –№3. –Б.3–9.
4. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Тошкент: Фан, 1977.

ҲАМИД ОЛИМЖОН ШЕЪРИЯТИДА ФОНЕТИК ТАКРОРЛАР

Абдишукур Шофқоров,
филология фанлари номзоди,
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти

Тил ижтимоий–психологик ҳодиса сифатида доимо қисқалик ва осонликка интилади. Инсон учун қандай талаффуз қилиш тўғрилигидан кўра, кўпроқ қандай талаффуз қилиш қулай ва осонлиги муҳимроқ. Тилдаги фонетик такрорлар эса ўша осонликни ва раволикни таъминлайди. Бу осонликка эришиш зўрма–зўракилик, сунъийлик ва нотабийликдан холи бўлиши керак эканлигини инсон доимо англаб туради. Демак, бу ҳолатга ихтиёрий равишда эмас, балки беихтиёрий равишда эришилади.

Поэтик нутқнинг оҳангдорлиги ва таъсирчанлигига баъзи ҳолларда товушларни такрорий қўллаш натижасида ҳам эришилади. Чунки баъзи услубий воситалар, жумладан, такрорнинг кўпчилик шакллари бевосита нутқ товушларининг такрорланишига асосланган бўлади. “Аммо, шуни ҳам айтиш керакки, алоҳида нутқ товушлари ёки фонетик усуллар ўз ҳолича конкрет бир мазмунни ифодаламайди. Улар бадий нутқнинг бошқа унсурлари (ҳижо, турок, рукн, туркум, мисра, байт, поэтик фигуралар...) билан бир бутунликни ташкил этгандагина конкрет маъно касб этади, шеърга эмоционаллик бағишлайди” [1. 114].

Фонетик такрорлар нутқ товушларидан бирортасининг такрори ёки товушлар оҳангдошлиги асосида юзага келади. Ўринли товуш такрори ритмни беэаб, эмоционалликни оширади, ифодалиликни кучайтиради. Фонетик такрорлар сирасига *аллитерация, ассонанс, геминация* каби услубий воситаларни киритишимиз мумкин. Бундай услубий воситаларнинг ҳар бирида нутқ товушларининг ўзига хос такрори кузатиладики, бу маълум бир услубий вазифа бажаради ва шеърнинг бадииятини таъминлашга қаратилган бўлади.

Ҳамид Олимжон ўз шеъриятида фонетик такрорлардан унумли фойдаланиб, турли шаклларни юзага келтирган ва уларнинг ҳар бирига услубий вазифа юклай олган. Шоир шеърларида қўлланган такрорлар ўзига хос услубий вазифа бажариб келган.

Ҳар қандай бадий асарда сўзлар мақсадли қўлланади. Уларнинг такрор келиши маълум услубий вазифа бажаради. Акс ҳолда улар бадийликни пасайтиради. “Шоир ёки ёзувчи тасвирлаётган воқеа–ҳодисанинг назарда тутилган томонига ўқувчининг диққатини тортиш, уни бўрттириб кўрсатиш учун ёки маълум нарсаларни санаб кўрсатиш ниятида кўпроқ шеърий асарларда, баъзан насрий асарларда ҳам айрим товуш ёки товушлар бирикмаси, сўз ёки сўзлар бирикмаси, гапларга атайлаб алоҳида урғу беради, такрорлайди”[2. 127].

Ҳамид Олимжоннинг “Бахтлар водийси” шеърда **б** товуши билан боғлиқ аллитерация қуйидагича юзага келган:

*Ювиб, тараб, севиб, ўпиб, қучиб, опичлаб,
Эй бахтларни балогатга етказган она!
Ёзилиб, етилиб, тўлиб ётадир –
Ёнпасага янги кунга эришган Қува!* (3. 155)

Градация шаклида ёзилган ушбу мисраларда (биринчи, иккинчи ва учинчи мисрада) **б** товуши такрори мавжуд. Шеърдаги градацияни ҳосил қилган ҳар бир сўзнинг маъноси кучайиб борган. Аслида градация – маъно кучайишига асосланган восита. Зинапоядорлик ҳар бир керакли фикр ё тушунчани таъкидлаш учун хизмат қилади. Берилган банддаги градация ҳосил қилувчи ҳар бир сўз охирида такрорланган товуш маънони янада кучайтириб, сўзлардаги маъно уйғунлигини юзага келтирган.

Шеърда бир мисрада товуш такрори таъсирчанликни оширса, иккинчи мисрада оҳанг пасаяди, учинчи мисрада яна оҳангдошлик кўтарилиб, тўртинчи мисрада пасайиш кузатилади.

Шоирнинг “Шарофат” шеърда қуйидагича товуш такрорини кузатишимиз мумкин:

Шарофат шафтоли шохидан

*Сузилиб, мевалар узарди.
“Ичкари” титрарди оҳидан,
Қўлларин ҳар томон чўзарди (3. 38).*

Шеърнинг биринчи мисрасида **ш** товуши такрори натижасида ҳосил қилинган оҳангдошлик, аввало, китобхон диққатини шу мисрага жалб қилади, шунингдек, асосий ғоя *Шарофат* ва *шафтоли* сўзларининг шеър давомидаги такрор қўлланиши асосида намоён бўлиб боради.

Ҳамид Олимжон лирикасида фонетик–услубий усул сифатида аллитерациянинг турли кўринишлари учрайди. Ундош товушларнинг такрорланиши бадиий нутқда товушларнинг талаффузда яқин ва уйғунлигини юзага келтирган, бу эса тасвирланаётган нарсаларга ўқувчининг диққатини жалб қилиб, мисраларнинг бадиий–эстетик таъсир кучини оширган. Аллитерация тасвирий воситаси сифатида маълум тушунчаларни таъкидлаш, ажратиб кўрсатишга хизмат қилган ва фикрнинг мантиқий ҳамда услубий юқини оширган.

Шоир шеърлятида унлилар уйғунлиги ва такрори орқали маълум бир сўз ёки товушга, улар ташувчи мазмунга урғу берилган. Унлилар такрори маълум ритми юзага келтирган. Сўз бўғинларидаги чўзиқ ёки қисқаликни таъминловчи, мусиқийликни юзага келтирувчи асосий воситалардан бири бўлган унли товушлар шоир шеърларида оҳангдошлик ва мусиқийликни таъминлаган.

Умуман олганда, Ҳамид Олимжон шеърлятидаги фонетик такрорлар мисраларнинг оҳангдошлигини таъминлаш, ифодавий таъсирчанлик, соддалик ва раволикни оширишга хизмат қилган. Шоир шеърлятидаги товуш ва бўғинлар такрори шеър мисраларига мантиқан мос тарзда асосий маънони бўрттириб ифодалашга қаратилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар. – Т.: ТДПУ, 2001. – Б. 122.
2. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Т.: Фан, 1977. – Б. 127.
3. Ҳамид Олимжон. Мукамал асарлар тўплами: Ўн жилдли. – Т.: Фан, 1979. – 1–жилд. – Б. 404.

HAMID OLIMJON IJODIDA GO‘ZAL TUYG‘ULAR TARANNUMI

**Shohida Siddiqova.,
JDPI katta o‘qituvchisi, f. f. D.(PhD),
Burxonov Sh, JDPI talabasi**

Hamid Olimjon XX asr o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biridir. U adabiyot olamiga Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor kabi yirik ijodkorlar bilan bir qatorda kirib keldi. Shoir serqirra ijodkor bo‘lib, bir qancha adabiy tur va janrlarda ijod etishiga qaramasdan, kitobxon ko‘nglidan, asosan, jo‘shqin lirik shoir sifatida joy olgan. Uning she‘rlarining qamrovi keng, mavzulari rang–barang. Lekin she‘riyatda shunday mavzu borki, u barchasidan ustun, barchasidan ko‘ra hissiyotli, yuraklarni larzaga solguvchi, faxr tuyg‘usini

uygʻotguvchi bir mavzu–Vatan mavzusi, tugʻilib voyaga yetgan oʻlkaga nisbatan hurmat va muhabbat hishlari.

Jamiki xalqlarning shoirlari ona yurt haqida koʻplab baytlar bitganlar. Bulardan eng betakror satrlar qoldirganlarigina yurt kuychisi degan sifat olganlar. Ularning Vatan haqidagi sheʼrlari necha zamonlar oʻtsa–da, xalqining dilida va tilida yashaydi. Hamid Olimjon ham Vatan haqidagi oʻz sheʼrlari bilan shunday qismat topgan. Bu oʻrinda uning “Oʻzbekiston” sheʼri alohida ahamiyat kasb etadi.

Hamid Olimjon “Oʻzbekiston“ sheʼrida aniq va tipik detallar, rang–barang tasvir vositalari yordamida quyoshli diyorumizning yaxlit obrazini yaratib, asar gʻoyasini sheʼrning magʻzi–magʻziga singdirib yuboradi. Mavzuni yoritishda tabiat manzaralari tasviridan mohirona foydalanadi. Darhaqiqat, “Oʻzbekiston” sheʼri peyzaj lirikasining nodir namunasi boʻlib, unda manzara asar gʻoyasini badiiy yoʻl bilan ochishga toʻlaligicha xizmat qiladi:

Oʻxshashi yoʻq bu goʻzal boʻston,
Dostonlarda bitgan guliston.
Oʻzbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidur goʻyo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli togʻlar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofda yoyganda gilam,
Aslo yoʻqdir bundayin koʻklam...
Bu shundayin ajib diyordir[1.206].

Yuqoridagi misralarni oʻqiganimizda koʻz oʻngimizda chaman gulga burkangan, togʻlarga, undan osmonga tutashib ketgan hadsiz kenglik gavdalanadi. “Oʻzbekiston” sheʼri Hamid Olimjon sheʼriyatining mahorat, badiiyat bobidagi eng goʻzal namunasi hisoblanadi. Unda oʻxshatish, qiyoslash, jonlantirish, mubolagʻa kabi bir qancha badiiy tasvir vositalaridan foydalanib Oʻzbekistonning oʻziga xos betakror poetik timsolini yaratganki, garchi sheʼr 1939–yilda yozilgan boʻlsa ham hanuzgacha bugun yozilgandek ohorini yoʻqotmay, sevib oʻrganilmoqda.

Hamid Olimjonning “Baxtlar vodiysi”, “Chirchiq boʻylarida”, “Daryo tiniq, osmon begʻubor”, “Chimyon esdaliklari”, “Oʻrik gullaganda” kabi sheʼrlarida ham ona–Vatan obrazi oʻz xalqiga muhabbat tuygʻulari bilan uzviy birlikda namoyon boʻladi[2.207]:

Baxtim borki, har narsa goʻzal
Koʻrinadi mening koʻzimga...
 (“Daryo tiniq, osmon begʻubor” sheʼridan)

Baxt va shodlik motivlari ham Hamid Olimjon ijodining yetakchi mavzularidan biri hisoblanadi. Buyuk shoir Jizzax vohasida ayni qish faslida tavallud topgan boʻlsa–da, ijodi bilan qalblarga baxtni, shodlikni, bahorni jo qildi:

Mayli deyman va qilmayman gʻash,
Xayolimni gulga oʻrayman.
Har bahorda chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi, deya soʻrayman
 (“Oʻrik gullaganda” sheʼridan)

Hamid Olimjon oʻz sheʼrlari bilan oʻzbek lirikasiga goʻzal insoniy tuygʻu va betakror kechinmalar, Vatanni oʻzgacha madh etish, baxtni, shodlikni zavq–shavq

bilan tarannum etish, tabiat manzaralarini o‘zgacha tasvirlash usulini olib kirdi. Hamid Olimjon lirikasi o‘zbek shoirlarining keyingi avlodi uchun badiiy mahorat maktabi bo‘lib xizmat qildi. Zeroki, Mirtemir aytganidek, “Hamid Olimjon nodir iste’dod egasi. Qonida, ko‘z qorachig‘ida, to‘qson ikki tomirida tug‘ma zukkolik, shoirona sajiya, bilgichlik ayon...”[3.269]

Holbuki, Hamid Olimjon qaysi mavzuda qalam tebratmasin XX asr o‘zbek adabiyotida porlagan eng yorqin yulduzlardan biridir. Uning adabiy merosi yosh–uqari, katta–yu kichik–barchaning ko‘nglidan birday o‘chmas iz qoldirdi. Uning she’rlarini o‘qiganimizda hozirgina xuddi biz uchun yozilgandek bir hisshuurimizda aks etadi. Zero, shoir ijodi abadiy barhayotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.S.Mirzayev, S.Shermuhammedov. Hozirgi o‘zbek adabiyoti tarixi.–Toshkent., 1993.
- 2.S.Matchonov, Sh.Sariyev. Adabiyot.–Toshkent.,2012.

“ЗАЙНАБ ВА ОМОН” ДОСТОНИДА ЭПИТЕТЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

А. Шукуров , Б. Эшмирзаев

ТерДУ Денов филиали ўқитувчилари

Сўзловчи ёки ёзувчининг тингловчига ва ўқувчи белги–хусусиятларни аниқ ҳамда тушунарли қилиб етказишда кўчма маъно ифодаловчи воситаларнинг аҳамияти каттадир. Улар тилшуносликда тасвирий ифода воситалари дейилади. Булар иккига: троп (кўчим) ва фигураларга бўлинади. Хусусан, тропларнинг эпитет (сифатлаш), ўхшатиш, метафора, метонимия, муболаға, кичрайтириш, жонлантириш ва шу каби турлари маънони аниқлаштириш, ифода таъсирчанлигини ошириш, поэтик нутқ гўзаллигини ифодалашда ўзига хос аҳамият касб этади.

Бинобарин, эпитет–нутқда эксперессивлик ва субъектив баҳо ифодаловчи сўз ва сўз бирикмаларидан иборат бўлади. Шунингдек, киши, нарса ёки воқеа–ҳодисанинг бирор белгисини, хусусиятини, сифатини аниқ–равшан кўрсатиб берувчи бadiий тасвир воситасидир. Эпитет поэтик аниқловчи бўлиб, бошқа доимий аниқловчилардан турли кўчма маънода қўлланиши билан фарқланади.

Оддий, доимий, анъанавий эпитетлар кишида ҳаяжон, хиссий тўлқин уйғотмайди. Буларга “кўм–кўк осмон, қора кўз, олтин куз” бирикмалари таркибидаги аниқловчиларни мисол тарзида кўрсатиш мумкин (1).

Дарҳақиқат, эпитет (сифатлаш) нинг ҳар бир турига тилшунос ва адабиётшунос олимларимиз (филологларимиз) таъриф–тавсифлар, шарҳлар берганликлари илм аҳиллари учун маълумдир. Булардан А.Н.Веселовский “...Агар мен, эпитетнинг тарихи поэтик услуб тарихининг қисқарган шаклидир десам, бу муболаға бўлмайди” — деган таърифи барча филологлар учун маълум ва машҳурдир.

Севимли шоиримиз Ҳамид Олимжон ўзининг “Зайнаб ва Омон” поэмасида қўллаган эпитетлар жуда кўп, биз эса айримлари ҳақида баҳоли кудрат ўз фикр мулоҳазаларини ифодалашни лозим топдик. Достонда куйидаги эпитетларни таҳлилига эътибор қаратдик:

Лабларингда битган қора хол.
Ҳамма қора либос кийинган.
Ғазабида оламғолам ўт.
Тушунчаси қоп–қора булут.
Зайнаб турар, қора кўзидан.
Қони қочиб оппоқ юзидан.

Бир зўр оташ, бир зўир аланга
Бунда асло қора кун йўқдир.
Тўшаб қўйган алвон гиламни.
Бутун дала бахмал поёндоз
Водийларнинг мармар хавоси
Қорга чқмган ҳайбатли тоғлар.(2)

(“Зайнаб ва Омон” достонидан)

Бинобарин, “Лабларида битган қора хол” мисрасидаги “қора хол” бирикмасидаги “қора” сўзи, яъни доимий (мантикий) аниқловчи бўлиб, у муайян аъзода жойлашган холнинг рангини билдиради. Шунингдек, “Ҳамма қора либос кийинган” мисрасидаги “қора либос” бирикмасидаги “қора” сўзи бадий (поэтик) аниқловчи, яъни эпитет (сифатлаш) бўлиб келган ҳолда қандайдир алоҳида рангни билдирмайди, балки фикр дунёмизда қоп–қоронғу тун манзараси намоён бўлишига хизмат қилади.

Яна бир ўринда “Ғазабида олам–олам ўт”, “Тушунчаси қоп–қора булут” каби шеърини мисраларда “олам–олам”, “қоп–қора” сўзлари лирик (бадий) эпитетлар бўлиб, шоирнинг тасвирланаётган нарсаси–ҳодисаларга муносабатни алоҳида кучайтириб, таъкидлаб кўрсатишга хизмат қилган.

Бундан ташқари, “Зайнаб турар, қора кўзидан”, “Қони қочиб оппоқ юзидан” каби мисраларда “қора ва оқ” каби сифатлар анъанавий эпитетлар бўлиб, кўзнинг қоралигини, юзнинг оппоқлиги маъносини кучайтиради. Бу эса шоирнинг анъанавий эпитетлардан моҳирона фойдаланганлигидан далолат беради.

Шоир дostonларидаги эпитетларни кузатар эканмиз, бу восита кўпроқ асар қахрамони, жой, ходиса номларини кўриниши, ҳолати, манзарасини янада аниқроқ, чиройли тарзда ифодалашга хизмат қилган. Буни куйидаги мисраларда кўришимиз мумкин. Масалан, “Омон узоқ–узоқ қолди жим”, “Буғиқ–буғиқ нафас олди жим” каби қаторда муаллиф Омонни ҳаяжонли, ўйчан ҳолатини, аниқроғи, ноқулай аҳволдалигини “узоқ–узоқ, буғиқ–буғиқ” эпитетлар қўллаш билан китобхон эътиборини ўзига хос усулда жалб қила олган.

Шуни такидлаш жоизки, дostonдаги эпитетлар лингвистик жиҳатдан алоҳида хусусиятга эга бўлиб, поэтик нуқтаи назардан бетакрор имкониятга эга. Шоирнинг биргина эпитетлар яратиш санъатининг ўзи ҳам битмас–туганмас моҳирона изланишларнинг сабоғи, ибратомуз ижодиёт гултождир. Умуман олганда, Ҳ.Олимжон ижодиёти поэтик тасвирларга бойлиги билан ажралиб туради. Эпитетлар сўз тасвирини аниқлаштириш, ифодани бўртпириш, кучайтириши билан таъсирчанликни оширишга хизмат қилган. Биз мақолада эпитетларнинг уммондан бир томчи сифатида айримларига тўхталдик, холос.

Хуллас, бахт ва шодлик куйчиси, моҳир сўз устаси Ҳамид Олимжон поэтик тасвир воситаридан жумладан, эпитет (сифатлаш)лардан унумли ва ўринли фойдаланганлиги фикримиз далилидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё., Нутқ маданияти ва услубият асослари. Т.: “Ўқитувчи”, 1992. 98–б.

2. Ҳамид Олимжон (Асарлар мажмуаси) 5 томлик, 2–том.–Т.:” Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат 150–195–б.

ҲАМИД ОЛИМЖОН ИЖОДИДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАНИШ ХОДИСАСИ

Паризод Туропова,
ЖДПИ ўқитувчиси,
Гулзода Маматова,

Жиззах шаҳар 6– мактаб ўқитувчиси

Ҳамид Олимжон ижодиёти ҳозирги замон ўзбек шеърятининг шаклланиши, янгича тасвирлар, оҳанглар ва образлар тизими билан бойишида алоҳида аҳамият касб этади. Ҳамид Олимжон ўзбек халқ оғзаки ижоди ва мумтоз адабиёти, қардош халқлар адабиёти, замонавий Шарқ ва Ғарб шеърятидан озикланган, уларни яхши билган. Унинг шеърятини, шунингдек, ўз даври, яшаётган муҳит адабиётидан ҳам таъсирланган. Шоир асарларида қайд қилинган шеърят изларини турли шаклда кўришимиз мумкин. Уларда ошқора ва яширин фикрлар кўп учрайди. Шу боис Ҳамид Олимжон асарларида адабий–эстетик идеал деганда ана шу жиҳатларга эътибор қаратиш лозим бўлади.

Ана шу нуқтайи назардан қараганда ижодкор асарларида адабий–эстетик идеал категорияси трансформацияланиш ҳодисасининг ўзига хос кўринишларини идрок этамиз.

Ҳамид Олимжон ижоди ХХ асрнинг биринчи ярмида – ўзбек адабиётининг энг мураккаб тарихий жараёнларини бошидан кечираётган бир даврда ўсиб улғайди ва камолига етди. Шу боис қайд қилганимиздек, унинг мақола ва бадиий асарларида ана шу давр чизгиларни учратишимиз мумкин.

Шоирнинг ажодлари асрлар давомида қуйлаган севги–муҳаббат борасидаги идеалларини “Зайнаб ва Омон” поэмаси мисолида кўрамиз. “Зайнаб ва Омон” поэмаси янги совет даврининг “Фарҳод ва Ширин”и эди”, деб эътироф этади Н.Каримов¹⁵. Асар учун ўша даврда донгдор пахтакор сифатида танилган Зайнаб Омонованинг тақдири асос қилиб олинган. Ҳамид Олимжон поэма орқали севги борасидаги идеалларининг замонавий талқинини тақдим қилган:

Бу севгида йўл бошлар вафо,
Ҳам вафони емирмас жафо;
Бунда асло қаро кун йўқдир,
Бунда мотамсаро кун йўқдир.

Шоир бу мисралар Зайнаб ва Омон севгиси мисолида севгининг энг юксак кўриниши қандай бўлмоғи керак деган саволларга ўз идеалларини тақдим этиш орқали жавоб берган. Албатта, севгининг бу сингари завола билмас бўлишини барча замон қалам аҳли ҳам, ўқувчилари ҳам истайдилар. Севгининг идеал кўринишда бўлиши, бу борадаги ижодкорларнинг қарашлари ўқувчи идрокига тезроқ таъсир қилиши учун адабий қаҳрамоннинг ҳаётдаги прототипи бўлиши тажрибаси адабиётимиз тарихида

¹⁵ Каримов Н. Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. –Тошкент: Фан, 1964. – Б. 91.

кўплаб учрайди. Шарқ халқлари адабиётида машҳур “Лайли ва Мажнун”, “Юсуф ва Зулайхо” қиссаси бунга мисол бўла олади.

Ҳамид Олимжоннинг “Зайнаб ва Омон” поэмасини ҳам ана шундай қиссалар сирасига киритиш мумкин. Унинг салафлари асаридан фарқли жиҳати шундаки, ижодкор ўз замондоши ҳаёт йўлини поэмасининг асоси қилиб олган. Шу билан бирга унга замон руҳи ҳам сезилади:

Довонларни ошди амаллар,
Яшашдаги чурук тамаллар.
Асосидан бир–бир бузулди,
Водий бўйлаб колхоз тузулди,
Анор хола оиласи ҳам,
Колхоз сари қўйдилар қадам.

Гарчи ижодкор поэмада замон руҳини акс эттиришга интилган бўлса ҳам, унинг марказида инсон омили, унинг руҳияти, муаллифнинг севги–муҳаббат борасидаги идеаллари ўз аксини топган.

Унинг “Болалик” шеъри даврнинг идеал кишиси қандай бўлиши кераклиги борасидаги саволларга жавоб ахтаришга ҳаракат қилади:

...Бола эдик,
Тунлар – олов,
Қалб –қайноқ,
Кўзлар – ўтқир,
Диллар – соф,
Эркин–эркин ўйнардик...
Ҳаёт билан
Қайнар эди
Куй, қишлоқ...
Кенг кўчалар...
Узун йўллар...
Порлар эди
Шам–чирок...¹⁶

Юқоридаги мисралар орқали ҳаётнинг бошланиши қанчалар сокин бўлса, кейинчалик у ўзгариб боради дейди. Кейинги мисралар ҳаётнинг жўшқинлашиб бораётганлиги, ҳаёт янги манзилларга бошлаётганлигини ёзади. Бу, албатта, шунчаки лирик қаҳрамоннинг ички кечинмалари ифодаси эмас. Унда идеал инсоннинг, замон билан ҳамнафас бўлиши керак бўлган шахснинг бўйи–басти тасвирланган. Шоир шеърнинг сўнгида идеал шахс бўлиш учун ҳар қандай ҳолатни ҳам хурсандчилик билан енга билиш керак деган тезисни ўртага ташлайди:

Бир нафас жим қоламан,
Лекин, яна
Шовқинларга
Кулоч ёзиб бораман.
Тўлқинларда
Ўйнаб, қайнаб,
Чаппар уриб
Куламан¹⁷.

¹⁶ Ҳамид Олимжон. Куйчининг хаёли. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1979. –Б. 18.

“Сиёб” ва “Бахтлар водийси” шеърларида ҳам шоир ижодига босилган даврнинг тамгалари сезилади. Гарчи Ҳамид Олимжон юртининг обод бўлаётгани, бундан ҳам обод бўлишини орзу қилса ҳам, бу истак–идеалларни тузум ғояларига йўғириб беришга мажбур эди. “Сиёб” шеърининг бир бандида:

Биз шод, кувнок
Сиёб сари оқамиз,
Ҳар томонга
Севинч билан боқамиз
Бир ёнда:
Ёйилган
Қўйлар қўзилар,
Кезади,
деса, бошқа ўрнида:
Дов баландда,
Улуғ гўрда
Бир пайғамбар чўзилган,
Янги насл
Уни ортик
Нафрат билан кўради...¹⁸

“Бахтлар водийси” шеърида атрофнинг кўм–кўк эканлиги, гуллаб яшнаётганлиги тараннум этилади. Шеър ниҳоясида бу кўкликда яшаётган халққа “Эй, бахтли водийнинг болшевиклари!” дея хитоб қилади. Бахт билан боғлиқ идеали, энг олий даражадаги бахтли инсоннинг белгиси қандайлиги унинг “Бахт тўғрисида” шеърида ўзига хос тарзда тасвирланади:

Ҳар ким бир “нони насиба”–
Паррандалар ўз ҳақкин тилар.

Юқоридаги таҳлиллардан ҳам кўриниб турибдики, Ҳамид Олимжоннинг ватан, озодлик, адолат, бахт тушунчалари билан боғлиқ адабий–эстетик идеалларининг сарчашмалари ўзбек халқ оғзаки ва ёзма адабиёти сарчашмаларига бориб уланади.

ҲАМИД ОЛИМЖОН ИЖОДИДА СУБСТАНТИВАЦИЯ

**Исламова Динара
СамДУ ўқитувчиси**

Бадиий асар тилини ўрганиш жараёни ёзувчининг ўзига хос услубини, поэтик индивидуаллигини ва сўз қўллаш маҳоратини аниқлашнинг муҳим бир томони ҳисобланади. Агар тил – ёзувчи услубининг қалби эканини ҳисобга оладиган бўлсак, бадиий асарнинг тил хусусиятларини унинг мавзуси, ғояси ва образлари билан боғлиқ ҳолда текшириш ёзувчи услубининг энг муҳим қирраларини аниқлашга олиб келиши муқаррардир [1.92]. Транспозиция ходисаси ҳам ёзувчи услубининг муҳим хусусиятларини намоён қилувчи ва бадиий асар тилининг индивидуаллигини

¹⁷ Ҳамид Олимжон. Куйчининг хаёли. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1979. –Б. 20.

¹⁸ Ҳамид Олимжон. Куйчининг хаёли. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1979. –Б. 22–24.

таъминловчи асосий воситалардан бири ҳисобланади. Ж.Элтазаров таъкидлаганидек, сўз туркумлараро алоқанинг энг юқори шакли туркумлараро кўчиш бўлиб, у тилдаги универсал қонуниятлар билан боғлиқ. Тил трансформацияси ана шундай қонуниятлардан биридир [4.146].

Транспозиция ҳодисасида транспозитив сўзлар ўзининг категориал маъносини ҳамда синтактик вазифасини тубдан ўзгартириши кузатилади. Ана шундай ҳодисалардан бири субстантивация (лот. *homen substānīvum* – от) бўлиб, бирор туркумга оид сўзнинг бошқа туркумга оид сўзга айланиши: айнан отга кўчишидир. Бизнинг тадқиқот объектимишга серқирра ижодкор ва шоир Ҳамид Олимжоннинг “Ўзбекистон” шеърида қўлланилган субстантивацияга учраган сўзларни таҳлил қилиш киради. Ҳамид Олимжон ўзининг поэтик асарларида турли хил бадий усуллардан, тил воситаларидан, хусусан жонли халқ тили имкониятларидан кенг фойдаланган [1.148]. Шоир шеърларида қўлланилган транспозитив сўзлар эмоционал – экспрессив таъсирчанликни оширувчи, поэтик асарнинг тил имкониятларини юзага чиқарувчи ҳамда ёзувчи услубининг ўзига хослигини таъминловчи восита сифатида муҳим ўрин эгаллайди.

Куйида Ҳамид Олимжоннинг «Ўзбекистон» шеъри матнида қўлланилган транспозитив сўзларнинг туркумлараро кўчишини кўриб чиқамиз. Турли хил сўз туркумларининг отга кўчиши эмиграцион кўчиш(отлашиш)ни, отнинг бошқа сўз туркумларига кўчиши иммиграцион кўчиши ҳосил қилади. Масалан, *Пазандаси ёпади ширмон,*

Қарилари кутади меҳмон – [3. 213]

Бу ўлкада ҳар нарса бордир,

Кўрмаганлар доим хумордир. [3. 212]

Ўхшаши йўқ бу гўзал бўстон,

Достонларда битган гулистон [3. 211]

Ҳаммасининг бир истаги бор,

Ҳаммаси ҳам хурсанд, бахтиёр. [3.212]

Шеърдаги отлашиш яъни субстантивация ҳолларида феълнинг отга кўчишига эътиборимизни қаратсак. Феълнинг вазифавий шаклларида сифатдош ва ҳаракат номигина отга кўчган. Ҳаракат номи ва сифатдош ўзларининг семантикаси ҳамда синтактик вазифадорлиги жиҳатидан отга яқин бўлса, ҳар иккисининг ясалиш асоси феълдир. Ана шу хусусият уларнинг отга кўчишини таъминлаган. Яъни шеърда *At >N* бир ўринда, *V > N* уч ўринда ҳамда *Pro > N* уч ўринда кузатилади.

Отнинг бошқа туркумларга иммиграцион кўчиши:

Қорли тоғлар турар бошида,

Гул водийлар яшнар қошида. [3. 211]

Шеърдаги гул лексемаси морфологик жиҳатдан ном ўрнига белги, синтактик жиҳатдан эса, тўлдирувчи ўрнига аниқловчи вазифасини вақтинчалик бажариб келмоқда. Бу эса функционал транспозиция ҳисобланади.

Транспозицияда ясалиш объекти мавжуд бўлмайди. Улар грамматик алоқага киришганидан сўнггина функционал транспозиция жараёнини сезиш мумкин [5.13]. Таҳлил қилинган мисоллар функционал транспозициянинг намунаси ҳисобланади.

Кўринадики, шеърда қўлланилган транспозитив сўзларнинг отдаги эмиграцион кўчишлар салмоғи иммиграцион кўчишларга нисбатан катталиги сезилади – эмиграцион кўчиш ва иммиграцион кўчиш нисбати 3:1. Хулоса қиладиган бўлсак, Ҳамид Олимжоннинг «Ўзбекистон» шеърда жами 19 ўринда транспозиция ходисаси кузатилади. Шундан 7 таси субстантивация ходисасидир. Бу эса шеърдаги транспозитив сўзларнинг 37 % ни ташкил қилади. Шунини алоҳида таъкидлашимиз керакки, отга кўчувчанлик юқори бўлган сўзлар асосан, феълнинг вазифадош шаклларида ҳаракат номи ва сифатдошга мансубдир. Шеърда қўлланилган транспозитив сўзлар эмоционал – экспрессив таъсирчанликни ошириш билан биргаликда шоирнинг бадиий тил имкониятларидан унумли фойдаланишини ва юқори бадиий маҳоратга эга эканлигини кўрсатиб берувчи восита бўлиб хизмат қилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. Тошкент: Фан, 1988. – 206 Б.
2. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 164 Б.
3. Ҳамид Олимжон. Танланган асарлар. – Тошкент, 1951. – 528 Б.
4. Элтазаров Ж. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2006. – Б. 170.

“ЎЗБЕК ТИЛИ ЎХШАТИШЛАРИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ” КИТОБИДА ҲАМИД ОЛИМЖОН ИЖОДИДАН ОЛИНГАН МИСОЛЛАРИНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ

Санжар Амиркулов,

ТерДУ Денов филиали ўқитувчиси

Ўзбек халқининг зукко шоири Ҳамид Олимжон ҳаёти ва ижоди, бадиий маҳорати, халқ тилидан фойдаланишдаги маҳорати ҳақида қимматли маълумотлар берувчи тадқиқотлар мавжуд. Бу тадқиқотлар ва изланишлар ҳозир ҳам давом этмоқда. “Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати” (1) китобида шоир ижодидаги ўхшатишларнинг алоҳида ўрни бор. Ушбу луғатда Шоир ижодидаги ўхшатишларга ўн етти марта мурожаат қилинган ва мисол сифатида намуналар келтирилган.

Шоир қахрамонларни тасвирлашда уларнинг ўзига хос индивидуал хусусиятларини очишда, рухий ҳолатларни акс эттиришда, табиат манзараларини тасвирлашда бадиий тасвир воситаларидан бири бўлган ўхшатишдан маҳорат билан фойдаланган. Тилшунос олим Н. Маҳмудовнинг фикрича, бадиий–эстетик қиммат, лингвопозитив салмоқ нуқтаи назардан эркин ўхшатишлар ёзувчининг маҳоратини намоён этувчи воситалардан бири сифатида бадиий нутқда алоҳида ўрин тутаяди. Ёзувчи ўзининг бадиий тасвир максадига мувофиқ равишда хилма–хил оригинал ўхшатишлар яратаяди, бу ўхшатишлар кутилмагани, оҳорлилиги билан ўқувчини ром этади, муайян рухий ёки жисмоний ҳолат–хусусият–предметларни ўқувчи кўз ўнгидан яққол гавдалантиради.”(1) Ҳамид Олимжоннинг “На бўлғай бир нафас мен ҳам...”

ғазалидан олинган “Бутоғингга кўниб булбул каби *хониш қилиб* тунлар, Ўпиб ғунчангни очмоқликка тонг чоғи шамол бўлсам” мисраларидаги булбул янглиғ ўхшатиши *Сайрамоқ, хониш қилмоқ*, жон–дили билан *куйламоқ*, юксак даражада мадҳ этмоқ маъносида берилганлигини кўришимиз мумкин. Умуман олганда тирик жонзотларнинг айрим хусусиятларига бўлган ўхшатишларни шоир ижодида кўплаб учратишимиз мумкин, луғатда бу ўз аксини топган. “Зайнаб ва Омон” достонида “Ҳар водийни бир–бир изладим, Етим кўзи янглиғ *бўзладим*” мисрасидаги етим кўзи(чок) янглиғ ўхшатиши *Жавдирамоқ, бўзламоқ* маъносда қўлланилган ва қийин, ночор аҳволда қолган одамнинг ҳолатини англаган. Ёки “Муқанна” драмасида келтирилган “Ҳой, бурга деб, сен тўшакни куйдирма. Арабда ҳам мусичадай *беғуноҳ*, Сенга ўхшаш бечоралар жуда кўп” мусича, мусичадай ўхшатиши *беозор, ювош, беғуноҳ* одам маъносини билдирган.

Шунингдек, инсонларга хос хусусиятлар ўсимликларга ўхшатилиши орқали берилиши ҳам шоир ижодида қўлланилган, “Ойгул билан Бахтиёр” эртақ–достонидаги “Шунда чиройли Ойгул яшнаб мисоли бир гул, Ундан бир сўроқ қилди, Тарашадай қоқ қилди” парчасидаги гул (мисоли) гулдай ўхшатиши “гўзаллашмоқ” маъносида қўлланилганлиги қайд этилган. Кўпроқ эркак киши ҳақида чинордай (каби, сингари) ўхшатиши *баланд, бақувват; улкан*, салобатли, суянч бўладиган маъносида қўлланган, аммо шоир аёл кишига нисбатан (Ойгул ҳақида) кўллаб, алоҳида услуб ҳосил қилган:

“Сандикдан бир жонивор

Қоматини кўтарди,

Чинордайн бўйи бор,

Одамга ўхшар эди” (Ойгул билан Бахтиёр)

Шоир ижодида инсон тана аъзолари ҳолатини нарсаларга ўхшатилиши ҳам луғатда келтирилган. Ойгул билан Бахтиёр эртақ–достонида келтирилган “Танасини қуршаб ўт, *Қип–қизил*, мисли ёкут, Титрагувчи лаб колди” мисрасидаги мисли ёкут (дай, каби, сингари) ўхшатиши қизил ранг билан *товланмоқ маъносини билдирган*. “Камондек қошларингдан киприкларинг ўк отар доим” (Куйгай) камон, камондек *эгик, эгилмоқ маъносини билдирган*. Шунингдек, ранг маъносида қўлланилган, кумуш, кумушдай (каби, сингари) ўхшатиши “Кумушдай *оппоқ* соқол Кўкрагини босган чол, Ёш гўдақлар, жувонлар, Навқирон паҳлавонлар” (Ойгул билан Бахтиёр) мисрасида оппоқ маъносда соч ва соқолга нисбатан қўлланилган. “Муқанна” таърихий драммасида келтирилган “*лола* каби юзим *қизил*, ичим ғам” мисрасида лола каби ўхшатиши *қизил, қип–қизил, қирмизи* маъносини билдирган ҳолда ўхшатишган. Худди шундай рангнинг кучли ифодаси учун “Ўрик гуллаганда” шеърида “Қуёш ботса, қон сингари шафақлар...” мисрасида қон сингари, қондай ўхшатиши қўлланилган. “Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати” да Ҳамид Олимжон ижодидан намуналар қўлланилганлиги асар ўқувчиларига ушбу бадиий тасвир воситасининг хусусиятларини янада чуқурроқ англашига кўмак берган.

Фойдаланилган адабиёт:

1. Н. Маҳмудов, Д. Худойберганова. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. Т. Маънавият. 2013–йил, 13–бет.

ҲАМИД ОЛИМЖОННИНГ ПОЭТИК МАҲОРАТИ

Алимова Комила Декановна
Тошкент давлат стоматология институти
Педагогика ва психология кафедраси ўқитувчиси

Эл дардини айта оладиган мардлар юз йилда бир дунёга келади деган гап бор. Халқ дардига малҳам бўладиган, кўнгилдагини топиб ёзадиган истеъдоднинг туғилиши ҳам худди шундай ноёб ҳодисадир. Ғ.Ғулум, Ойбек, А.Қаҳҳор сингари ана шундай ноёб истеъдод соҳиблари қаторида шоир, ёзувчи, драматург, олим ва жамоат арбоби Ҳамид Олимжоннинг ҳам алоҳида ўрни бор. Ҳамид Олимжон ўз мақолаларининг бирида улкан ёзувчи, жонажон дўсти Ойбек ижодининг ўзига хослиги тўғрисида гапириб, уни “... прозада шоир, поезияда прозоикдир. У энг майда икир чикирларни шеърда куйлай биладиган талантили шоирдир. У кишилар портрети, кўз ва қош ҳаракатларини жуда аниқ тасвирлаб бера олади” деб таърифлаган эди. Айни мана шу таърифни Ҳамид Олимжоннинг ўзига нисбатан ҳам қўллаш мумкин. Ҳамид Олимжон шеърини асарларида, достонларида, ҳикояларида, драммаларида кишилар портрети, кўз ва қош ҳаракатларини қиёфа чизиқларини, рангларни, табиат манзараларини кўринарли даражада аниқ тасвирлаб бера олади. Ҳамид Олимжон замондоши Ойбек сингари поэтик асарларида ҳам насрга хос аниқликни, тасвирнинг тиниқлиги ва кўламдорлигини таъминлашга эришди. Шоир шеърларини ўқиганимизда уларда тасвирланаётган қаҳрамонларнинг ҳам ташқи, ҳам ички қиёфаси кўз олдимизда уйғун ҳолатда аниқ намоён бўлади. Масалан, илк шеърларидан бирида шоир янгича ҳаёт қуришга ошиққан ёш қизнинг ташқи қиёфасини “Порлаган юз, яшнаган кўз, ботир қиз” иборалари билан тасвирлайди. Бу сўзлар замирида ҳаётдан мамнун, турмушидан қониқиб яшаётган ёш авлод вақилининг маънавий–ахлоқий асослари ўз ифодасини топган. Қизча эртанги кунига ишонч билан боқадди, тақдири учун курашади. Бу ҳол шоир қўллаган “ботир қиз” жумласига сингдирилган.

Ҳамид Олимжон шеърларидаги пейзаж зиммасига ҳам катта ижтимоий вазибалар юклайди. У ўзи чизаётган табиат манзарасини долғали даврнинг зиддиятли турмушнинг муҳим масалалари билан боғлайди, у орқали контраст манзаралар яратади. Бу контрастлик лирик қаҳрамоннинг қиёфасини яратишда унинг жейсти ва мимикасига хос ибораларни қўллайди. Бинобарин, бу фазилят, яъни табиат манзараси билан қаҳрамон портретини уйғун ҳолда тасвирлаш қийинроқ. Шоир услубнинг асосий қирраларидан бирига айланиб қолганлигини алоҳида таъкидлаш ўринлидир.

Ҳамид Олимжон бундай маҳорат чўққисига осонлик билан эришгани йўқ. Маълумки, ўтган асрнинг 30–йилларида ижтимоий тузум ҳар бир қаламқошдан ўз сиёсатини улуғлашни ижтимоий масалаларни биринчи ўринга олиб чиқишни, кишилар қиёфасини бўрттириб тасвирлашни, уларни ҳар доим шод–хуррам ҳолда кўрсатишни талаб қилади. Бундай бир ёқламаликдан Ҳамид Олимжон ижоди ҳам ҳоли эмас эди. Буни юқорида тилга олинган мисоллар таҳлилида ҳам кўриш мумкин. Ҳамид Олимжон ижодининг илк босқичида, яъни XX асрнинг 30–йилларидаги асарларида яратилган портретлар ва пейзаж тасвири бирмунча умумийроқ, мавҳумроқ тарзда намоён бўлганлигини сезиш қийин эмас. Уларда шоир масаланинг

ижтимоий томонига кўпроқ эътибор беради. Натижада лирик қаҳрамон қиёфасини белгиловчи индивидиал чизиклар, объектнинг ярқ этиб кўзга ташланиб турадиган бетакроп бўёқлари кам учрайди. Мана шу даврда яратилган асарларидаги лирик қаҳрамон қиёфасини, табиат манзарасини тасвирлашда, ўзига хос оҳангни эгаллашда Ҳамид Олимжоннинг бошқа ижодкорлардан ажралиб турадиган алоҳида услубини кўраимиз.

Ўзбек халқининг оташнафас шоири Ҳ. Олимжон уруш йилларида фашизм балосига қарши курашда турли миллат вакилларининг метиндек мустаҳкам дўстлигига бағишланган бадиий жиҳатдан кучли асарлар, публицистик мақолалар яратди. Булар орасида “Мен ўзбек халқи номидан сўзлайман”, “Дўстларимиз ҳақида” сингари мақолалар “Роксананинг кўз ёшлари” номли балладаси характерлидир. Шоир ушбу балладасида уруш фашизм устидан қозонилган оламшумул ғалабанинг муҳим омилларидан бири ирқи, миллати, дини тилидан қатъий назар турли халқлар вакилларининг бир–бирини тушуниш, асраш, меҳр–оқибати эканлиги ҳақида тўлқинланиб ёзади.

Агар хассос шоир Ҳамид Олимжон ҳаёт бўлганида Украин қизи Роксананинг кўз ёшларини тасвирлаш билангина чекланиб қолмай, урушдан кейинги қувончини Соралар билан борди–келдисини, даҳшатли уруш йилларида тобланган дўстликнинг тинчлик даврида янада мустаҳкамланганлигини самарали давом этганлигини ҳам ёзган бўларди. Чунки уруш пайтида республикамизда яшаб ғалабадан сўнг ўз она юртларига қайтган қардошларимиз сахий ўзбек халқининг беминнат тақдим этган бир бурда нони ва бир чимдим тузи ҳаққи бори–келдини давом эттирдилар. Бундай алоқаларнинг ҳар дақиқаси бир дostonга арзийди. Шунинг учун ҳам дадил айтамикки, урушдан сўнг ўтган ярим асрлик даврда минглаб Роксана ва Сорахонлар ана шундай дўстлик ришталарини мустаҳкам боғлаганлиги ва хануз давом эттираётганлиги ҳеч кимга сир эмас.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов Н, Мамажонов С, Назаров Б ва б. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик Т.: “Ўқитувчи” 1999 й. 245 бет.
2. Каримов Н Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. Т. “Фан” 1984. 47 бет.
3. Мамажонов С. Шоир дунёси Т.: Ғ.Ғулом номидаги АСН 1974 й. 76 бет.
4. Тўйчиев У. Ўзбек шеър тузилишини ривожлантириш ва Ҳамид Олимжоннинг роли “Ўзбек тили ва адабиёти” 1989 й 6 – сон
5. Ҳ.Олимжон. Мукамал асарлар тўплами. X томлик I том–Т.: Фан, 1979 – 1982.

ШОИРНИНГ СИФАТЛАШЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ

**А.Шукуров, Қ. Атамуротова,
ТерДУ Денов филиали ўқитувчилари**

Ўзбек филологиясида бадиий тасвир воситаларидан троп (кўчим) турларидан бири бўлган сифатлашларнинг бадиий нутқ таъсирчанлигини оширишдаги аҳамиятига алоҳида эътибор бериб келинади. Шунини айтиш

керакки, адабий ижодни ўрганиш тарихи ҳам қадимийдир. Халқ тарихи билан боғлиқ равишда адабиёт тараққий этиб борар экан, уни ўрганиш ҳам доимо ривожланишда. Бу эса турли даврларда турли атамаларнинг шаклланишига ҳам олиб келди. Шу нуқтаи назардан қараганда, сифатлаш атамаси узоқ тарих давомида тилимизда фаол қўлланиб келган бўлса—да, XX асрда, аниқроғи, собиқ иттифоқ даврида бу атамага маънодош сифатида эпитет атамаси қўлланиб, кўпинча асосий атамага айланиб фаоллашди. Бугунги илмий тадқиқотларни кузатганимизда, сифатлаш атама сифатида фаоллашгани сезилади. Эпитет атамаси эса грекча илова, изоҳ маъносидаги сўздан олингандир. Эпитет (сифатлаш) поэтик аниқловчидир. Дарҳақиқат, сифатлашлар моҳияти жиҳатидан аниқловчиларга яқин бўлиб, аниқловчилардан эмоционал таъсирчанлиги, фавқуллода вужудга келганлиги билан фарқланади.

Бадиий матн тили ва поэтикасини ўрганувчи мутахассисларнинг таъкидларига кўра, бу бадиий тасвир воситаси бошқа доимий аниқловчилардан экспереисивлик ҳосил қилиши, кўчма маънода ишлатилиши билан фарқ қилади. Масалан, халқ тилида ёқимли юз, тиниқ юз ёки юзнинг ранг—тус кўринишини ифодаловчи сифатлар мавжуд. Булар фандаги тасвир ифодалардир. Сўзловчи бундай пайтда, нутқда таъсирчанлик ҳосил қилишни кўзламайди, балки белгини аниқлашга эътибор қаратади. “Иссиқ юз” иборасида поэтиклашув, таъсирчанлик, сўзни кўчма маънода қўллаш ҳолатлари бор. Бу маънони янада таъсирчан ифодалаш мумкинми?

Севимли шоиримиз Ҳамид Олимжон ёшлар мавзусидаги шеърларидан бирида “Олов юзлар” бирикмасини қўллайди. Бу ерда поэтик тасвирда таъсирчанлик янада кучайган. Сўзларнинг “иссиқ, олов” бу тарзда ўхшатиш йўли билан янги маънода қўлланишдан метафорик сифатлашлар юзага келади.

Шунинг учун ҳам илмий кузатишларда сифатлашлар оддий аниқловчилардан жиддий фарқланади. Чунки эпитет (сифатлаш) оддий аниқловчидан фарқли равишда, у айна пайтда тасвирланаётган нарсани сўзловчи (ёки ёзувчи) нутқида муҳим ҳисобланган томонини таъкидлаб, бўртириб кўрсатади. Айниқса, бу таъсирчанлик бадиий асарларда кўпроқ талаб қилинади.

Бу каби сифатлашларни эрк ва бахт куйчиси сифатида ўқувчиларнинг сеvimли шоирига айланиб қолган Ҳамид Олимжоннинг асарлари, жумладан, “Зайнаб ва Омон” достонида кўплаб кузатишимиз мумкин.

Юқоридан таъкидлаганимиздек, оддий, доимий, анъанавий сифатлаш кишида ҳаяжон, ҳиссий тўлқин уйғотмайди. Сифатлашларнинг услубий вазифаси эса бадиий ифодалиликни кучайтиришга хизмат қилади. Масалан, “Зайнаб ва Омон” поэмасида “Бунда асло қора кун йўқдир” деган тасвир бор. Шоир бу ерда “қора” сифатини кўчма маънода қўллаб, муҳим услубий таъсирчанликка эришган, бошқа бир ўринда қайғу—ғам, ситамдан йироқлик маъноси ҳаяжонли тасвир тусини олган.

Асарда Ўзбекистон баҳорининг ранг—баранг тасвирлари эмоционал ва экспрессив тарзида қўллаб тилга олинган. Бу тасвирларда сифатлашларни ўрни ва таъсирчан аҳамияти алоҳида сезилиб туради. Масалан, “Бутун дала бахмал поёндоз” мисрасида далаларнинг ям—яшил майсалар билан қопланганлиги маъносига урғу берилган. Бунда бахмал сифатлаши белгидаги

нафислик, нозиклик, хушёқимлилик, майинлик кўринишларни ўзига хос аниқлик ва таъсирчанликда ифода этган.

Шоирнинг матодаги табиатдаги ранг жозибасини табиат хуснидаги кўркамлик маъносига кўчириб ифодалаш, шу билан тасвири поэтиклаштиришни ва ифодани аниқлаштиришга эришиш маҳорати таҳсинга сазовордир. Поэманинг бошқа бир ўрнида, юқоридаги тасвирдагидек “бахмал” сифатлаши орқали топилган поэтик тасвир таъсирчанлигига “алвон” сифатлаши орқали эришилганлигини кўрамиз.

Масалан, “Тўшаб қўйган алвон гиламни” мисрасидаги тасвирда баҳор кўриниши, аниқроғи, майсалар уйғонишининг майин, нозик, ниш урган товланиши маъносининг нозиклиги назарда тутилган бўлса, энди “алвон” сифатлашида баҳордаги ранг–баранглик, оловланиш, ёниш ва ёндириш каби маъно нозикликлари бўртиб кўринади.

Ўзбекистон табиатидаги ҳавонинг тозаллиги, тиниқ, шаффоф нурларга чўлғаниши тасвири “Водийнинг мармар ҳавоси” мисрасида кучли аниқлик ва таъсирчанликда ўз ифодасини топган бўлиб, бу эса шоирнинг индивидуал маҳорат эгаси эканлигини кўрсатиб турибди.

Баъзан шоир баҳор тасвирида тур ва жинс тушунчаларини ўзаро сифатловчи ва сифатланмиш ҳолатига келтириб, поэтик нутқ ва тасвир аниқлиги ҳамда эмоционалликни юзага чиқаради. Масалан, “Шудир сабза бинафша кўклам” тасвирида тилга олинган “сабза”, “бинафша” аслида кўкламнинг неъматларидир. Аммо шоир худди шу кўкламни “сабза, бинафша” дея сифатлаб, ушбу сўзларни поэтикага хизмат қилдирган.

Шундай қилиб, эрк ва шодлик кўйчиси Ҳамид Олимжон ўз асарларида, жумладан, “Зайнаб ва Омон” поэмасида сифатлашлардан ўринли ва мақсадга мувофиқ фойдаланиб, поэтик нутқ аниқлиги ва таъсирчанлигини оширган, тасвирда гўзаллик ярата олган маҳоратли шоирдир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. –Т.: Фан, 1990.66–б.
2. Шомақсудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. –Т: Ўқитувчи. 1983. 239–б.

ҲАМИД ОЛИМЖОН ВА ФОЛЬКЛОР

Машхура Муҳиддинова,

ЖПИ академик лицей ўқитувчиси

Халқ оғзаки бадий ижодиётига хос мазмун ва шакл компонентларидан фойдаланиш ёзма адабиётни асосий омилларидан бири. Зотан, истеъдод халқ ҳаётидан, унинг маънавий–психологик ва миллий–маҳаллий руҳидан айри ҳолда баркамол бўлолмайди.

Шу ўринда, ҳеч иккиланмай айтиш мумкинки, халқ оғзаки ижоди Ҳамид Олимжонни шоир сифатида шакллантирган бош омиллардан биридир. Маълумки, Ҳамид Олимжоннинг ҳақиқий халқчил шоир сифатида шаклланишида, шоир ижодини нурлантириб, ҳатто жонлантириб турган бу ҳаётбахш манба унинг қонига аждодларидан ўтган. Чунки, отасидан жуда эрта етим қолган бўлажак шоирнинг болалик йиллари онаси Комила опадан эшитган эртак қаҳрамонлари билангина эмас, балки бобоси Мулла Азимни

Фозил Йўлдош ўғли билан шахсан таниш, ҳаётда қадрдон ва дўст бўлганлиги сабабли уни қўшиқларини тинглаб катта бўлганида, деб ўйлаймиз.

Демак, шоирнинг болалик чоғлариданоқ фольклорга алоҳида меҳр қўйишга, Жиззах адабий муҳити ва кейинчалик халқ бахшилари билан шахсан танишиши, улар билан кўп йиллар ижодий ҳамкорликда бўлишлари сабаб бўлиши билан бирга, кейинчалик уни фольклор материалларини тўплаш, нашр этиш ва илмий ўрганиш фаолиятини юзага келтирган. Бу уни республика ёзувчилар уюшмасининг раиси лавозимида ишлаганида, А.Навоийнинг 500 йиллик юбилеи муносабати билан юбилей қўмитасининг илмий котиби, кейинчалик, қўмита раисининг ўринбосари вазифасида эканлигида яна кучайганлигини кўришимиз мумкин.

Ҳамид Олимжон бу даврларда халқ бахшилари ўртасида мумтоз адабиётнинг энг сира асарларининг оммалаштириш ва тушунтириш ишлари билан фаол шуғулланган. Масалан, Навоийнинг 500 йиллиги ва грузин шоири Шота Руставелининг 750 йиллиги муносабати билан уларнинг айрим асарлари мазмунини тушунтириб беради. Натижада, бадиҳагўй халқ шоири Фозил Йўлдош ўғли Навоий асарлари асосида “Фарҳод ва Ширин”, “Лайли ва Мажнун”, “Баҳром ва Гуландом” дostonларини, Шота Руставелининг “Йўлбарс терисини ёпинган паҳлавон” асари асосида шу номдаги дostonнинг халқ вариантини яратди, ижод қилади.

Ҳ.Олимжон 1938 йилда халқ шоири Фозил Йўлдош ўғли билан бирга қозоқ адиби Жамбул Жабаевнинг 100 йиллик юбилеида қатнашади. Бундан илҳомланган Ҳ.Олимжон Ж.Жабаевга бағишланган бир қатор мақоласи ва “Қозоғистон” шеърини яратса, Фозил шоирнинг “Нишондор Жамбулга” номли термаси рўёбга чиқади. Адабий–бадиий ва тарихий ҳужжатларнинг тасдиқлашича, Ҳ.Олимжоннинг бевосита ташаббуси билан халқ шоирлари Фозил Йўлдош ўғли, Муҳаммадқул Жомрод ўғли Пўлкан, Ислом шоир Назар ўғли ва Бола бахши Абдуллаевлар республика ёзувчилар уюшмасига қабул қилинган. Ҳ.Олимжон уларга шахсий котиблар тайинлаган, асарларининг нашр қилинишида бош–қош бўлган, халқ шоирларининг ҳаёти ва ижодини мунтазам кузатиб, фикр–мулоҳазалар билдириб борган.

Ҳамид Олимжон том маънодаги халқчил шоир эди. Зотан, халқ дарди, туйғусини англай билиш бўлажак шоирнинг инсоний қиёфасини белгилайдиган фазилатлардан бири сифатида ёшлигидан мужассам топган эди. Шу боис, у ҳаётда ва ижодда халқ бахшиларига, умуман фольклорга алоҳида меҳр–муҳаббат ва самимий ҳурмат билан қаради. Буни биз Фозил шоирга бағишланган “Куйчининг ҳаёли”, Абдулла шоир Нурали ўғлига аталган “Дўмбиранинг мактови” шеърларида, “Ойгул билан Бахтиёр”, “Семурғ ёки Паризод ва Бунёд”, “Икки қизнинг ҳикояси” каби эртак дostonларида яққол кўришимиз мумкин.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, шоир фольклор билимдони сифатида ўз ижодида ўзбек халқ эртаклари ва дostonларига хос бўлган кўпгина халқона услубларни қўллайди. Натижада ҳар қандай китобхон бундай асарлар фольклорга хос бўлган оддий мотив ёки сюжет, кучли фантастика, эҳтирос ва лиризм руҳи билан суғорилган шоҳ асарларга айланганлигини сезади.

Булардан ташқари, шоирнинг “Шодиёна”, “Йигитларни фротга жўнатиш”, “Хат” ва “Бўл омон”, “Қишлоқ қизи” каби шеърлари ҳам фольклор руҳи билан чуқур суғорилган ажойиб асарлар сифатида адабиётимиз

саҳифаларидан муносиб жой олди. Уларни ўқиганда ҳар бир шеърят шайдоси, ягона умумий хусусият халқона ифода усули бирлашиб турганлигига гувоҳ бўлади.

Шоирнинг ”Йигитларни фронтга жўнатиш” шеъри ҳам фолклор руҳи билан суғорилган асар сифатида диққатимизни жалб қилади. Ҳ.Олимжон иккинчи жаҳон урушининг дастлабки кунлариданоқ халқ олдидаги фуқаролик ва ижодкорлик масъулияти чуқур ҳис этиб, Ватан чақириғига ҳамоҳанг жанговор шеърлар ярата бошлади. Чунончи, ”Йигитларни фронтга жўнатиш” шеърининг ғоявий мазмуни онанинг вокзалдан жангга жўнат кетаётган ўғлига қарата айтган сўзларини ўша давр оналари – ҳозирги момоларимизнинг, Ватаннинг даъватномасига айлантиришга қаратилган. Асарнинг таъсир кучи, ғоявий – эстетик қуввати ана шу даъватномасига сингдирилган.

Ҳамид Олимжон ёшлик йилларидаёқ халқ оғзаки ижодига, мумтоз адабиётга чин юракдан ихлос қўяди. Биз Ҳамид Олимжон асарларини varaқлар эканмиз, буниинг ёрқин гувоҳи бўламиз.

Хуллас, Ҳ.Олимжон болалик чоғлариданоқ фолклорга алоҳида меҳр билан қараган бўлса, умр бўйи халқ шоирлари билан ҳамнафас, ҳамдард, ҳамкор ва ижодий алоқада бўлди. Уларнинг дostonларидан ижодий равишда катта маҳорат билан фойдалана олди.

O‘ZBEK ADABIYOTIDA HAMID OLIMJON IJODINING O‘RNI

San’at Shomurodov, JDPI talabasi
Ilmiy rahbar: o‘qituvchi M.Jo‘rayev

XX asr o‘zbek adabiyoti, xususan, she’riyati va dramaturgiyasi tarixini, qolaversa, tanqid–adabiyoshunosligini Hamid Olimjon ijodiy faoliyatisiz to‘liq tasavvur etib bo‘lmaydi. Hamid Olimjon garchand, qisqa umr ko‘rgan bo‘lsada, o‘zining betakror iste’dodi va yorqin shaxsiyati bilan adabiyotimiz va madaniyatimiz tarixida unutilmas iz qoldirib ketdi. U yirik ijodkorlar kabi ko‘p qirrali iste’dod sohibi edi. Nafaqat hassos shoir va dramaturg, balki, ayni vaqtda, taniqii jamoat arbobi, mohir tarjimon, iste’dodli adabiyotshunos va folklorshunos sifatida ham ibratli faoliyat ko‘rsatdi.

Adabiyotimizning ulkan namoyandalari iste’dodini hech kamsitmagan holda, bir muhim haqiqatni e’tirof etish o‘rinli bo‘lardi. Ya’ni, Hamid Olimon ning shoirlik talanti ham, nodir shaxsiyati, qolaversa, rahbarlik salohiyati ham juda erta yetilganligi va ijodkorlik mas’uliyatini ham ko‘pgina tengqurlariga nisbatan juda chuqur his etish bilan e’tiborini jalb etadi. Binobarin, shoirning “Ko‘klam” nomli ilk she’riy to‘plami 1929–yili nashr etilib, adabiy jamoatchilikning e’tiborini qozongan paytda, Hamid Olimjon hali 20 yoshga ham kirmagan bir o‘spirin bo‘lgan. Yoxud O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilishdek mas’ul vazifani bajarishga kirishganda, u hali o‘ttiz yoshga to‘lmagan navqiron yigit edi. Beixtiyor yodimizga shoir zamondoshlarining yakdil e’tirofi keladi: “Hamid Olimjon ko‘p mahoratli she’rxon bo‘lishi bilan birga birinchi darajali notiq ham edi. Hamid Olimjon nutqning jozibasi va malohati nimada, deb o‘zimga savol berar edim. Keyin anglashimcha, bu “sir” Hamidning yoqimli, qalblarga singuvchi ovozi bilan birga uning katta original aqlida, chinakam olimday izchil mantiqiy

tafakkurida, yuksak shoirday soʻzni gʻoyat ixcham, qovushimli va boʻrttirib izhor qila bilishida ekan.

Mana shuning uchun boʻlsa kerak, Hamid Olimjon deyilganda, mening koʻzim oldida, keng xalq ommasi oldida baland minbardan turib oʻz qalbining sadosi va aqlining yorugʻi bilan soʻzlayotgan yoki sheʼr oʻqiyotgan ajib, nafis va jozibador shoirning qiyofasi turadi”, – deb xotirlaydi M.Shayxzoda.

Darhaqiqat, Hamid Olimjon, eng avvalo, ana shunday yorqin talanti bilan xalqimiz mehrini qozondi va oʻzining koʻplab yetuk asarlari bilan adabiyotimizning oltin xazinasini boyitishga munosib hissa qoʻshdi. Shoir ijodi, xususan, sheʼriyati mavzu yoʻnalishi va gʻoyaviy–badiiy mazmuni bilan boshqa koʻplab adiblarimizning asarlari bilan hamohanglik kasb etsa–da, uning sheʼrlari oʻzining tabiiy soddaligi, ravonligi va chuqur xalqona ruhi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, Hamid Olimjon sheʼrlari xalq dostonlari, qoʻshiq va termalari singari gʻoyat sodda, ravon unlarda oʻquvchining nafasini qaytaradigan, tushinishi ogʻir boʻlgan biror jumla yo nooʻrin qoʻllangan soʻz–ibora uchramaydi. Shundan boʻlsa kerak, uning sheʼrlari bir oʻqishdayoq kitobxon ong va qalbiga koʻchadi, xotirasida bir umr naqshlanib qoladi. Fikrimizning dalili sifatida bir–ikki misol keltiraylik:

Derazamning oldida bir tup
Oʻrik oppoq boʻlib gulladi.
Novdalarni bezab gʻunchalar
Tongda aytdi hayot otini.
Va shabboda qurgʻur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini...

Yoki:

Togʻlardagi qip–qizil lola,
Boʻlib goʻyo yoqut piyola.
Buloqlardan uzatadi suv,
El koʻzidan qochadi uyqu...

Bular badiiy ijodning eng yuksak mezoni boʻlgan goʻzal soddalikning yorqin namunalari boʻla oladiki, bunday misollarni shoirning deyarli barcha sheʼrlaridan, doston va balladalaridan hech qiynalmay keltirish mumkin. Albatta, bunday badiiy mukammallika erishish oʻz–oʻzidan yuzaga kelmaydi. Yosh shoirning tabiat inʼom etgan yorqin isteʼdodiga goʻyo bir qanot bagʻishlab, bamisoli “yer bagʻridagi kuch va haroratni uygʻotgan saxiy quyosh nurlari”dek (Belinskiy) uning butun salohiyati bilan barvaqt namoyon boʻlishiga imkon bergan qator maʼnaviy omillarni unutmaslik lozim. Hamid Olimjon adabiyot olamiga kirib kelgan ilk qadamlaridanoq oʻzbek mumtoz adabiyotidan hamda jahon adabiyotining buyuk namoyandalari ijodidan ibratli saboq oldi. Yosh shoirning oʻzi samimiy eʼtirof etganidek, “oʻqimagani, bilmagani kam qoldi”. Hamid Olimjon isteʼdodiga ruhiy madad va tuganmas ilhom bagʻishlagan yana bir qudratli manba – bu xalq ogʻzaki badiiy ijodi boʻldi. Yoshligidanoq jahon adabiyoti va mumtoz sheʼriyatning betakror goʻzalliklarini chuqur his eta olgan Hamid Olimjon bu adabiyotdagi falsafiy teranlik, umuminsoniy gʻoya va mazmun kabi oʻlmas anʼanalarni ijodiy davom ettirdi. Taʼkidlash kerakki, Hamid Olimjon chinakam novator sanʼatkor va mutafakkir sifatida ulugʻ ustozlarning boy adabiy merosi hamda xalq dostonlari va ertaklarini chuqur mehr bilan oʻrganib, ularning badiiy mahorat sirlarini ijodiy

o‘zlashtiribgina qolmasdan, balki bu bebaho merosni ko‘z qorachig‘idek asrash va uni to‘plab, nashr ettirish borasida ham beqiyos fidoiylilik, jonbozlik ko‘rsatdi. Bu jihatdan ayniqsa, Hamid Olimjonning buyuk Alisher Navoiy adabiy merosini targ‘ib etish borasidagi faoliyati tahsinga loyiqdir.

O‘zbek adabiyotshunoslik sohasida navoiyshunoslik va folklorshunosligimiz endilikda, xususan, Istiqlol sharofati bilan yuksak bir bosqichga ko‘tarildi. Lekin navoiyshunosligimizning tamal toshlarini qo‘yib, uning istiqbolli tamoyillarini ko‘rsatib berganlardan ham Hamid Olimjon ekanligini unutmazlik lozim.

30–yillarda sho‘ro mafkurasi hukmron bo‘lib, tariximizdan va milliy qadriyatlarimizdan g‘ururlanish u yoqda tursin, ular haqida jindek iliq so‘z aytish xatarli bo‘lgan qatag‘on yillarida Alisher Navoiyning tengsiz san‘atkor ekanligi, uning ijodi jahon adabiyoti va madaniyati taraqqiyotida yuksak bir cho‘qqi ekanligini asoslab berish uchun nechog‘lik zakovat va tafakkur zarur bo‘lishi o‘z–o‘zidan ayon. Yoxud “Alpomish”ning buyuk xalq dostoni ekanligini va uning g‘oyaviy–badiiy fazilatlarini baralla ulug‘lash uchun qanchalik chuqur tarixiy, mantiqiy dalil va ijodiy jasorat talab qilinar edi! Hamid Olimjon ana shunday yetuk, zukko donishmand va ijodiy shijoat sohibi ekanligini ko‘rsatdi.

Hamid Olimjonning ikkinchi jahon urushi yillaridagi faoliyati ham g‘oyat jo‘shqinligi va ko‘lamining kengligi bilan kishini hayratga soladi. Bu davrda Hamid Olimjon ijodi yanada chuqurroq xalqchilik va otashin jangovarlik kasb etadi. Chinakam vatanparvar va xalqlar do‘stligining otashin kuychisi bo‘lgan shoir urushning dastlabki kunlaridanoq xalqni fashizmga qarshi oyoqqa turg‘azuvchi va uning qalbida yovuz dushmanga nisbatan nafrat olovini alangalatuvchi o‘lmas asarlarini yaratdi. Urushning ikkinchi kuni e‘lon qilingan va adabiyotimizda harbiy–vatanparvarlik lirikasini boshlab bergan “G‘alaba qo‘shig‘i” she‘ri qanchalik g‘alabaga ishonch ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lsa, “Qo‘lingga qurol ol”, “Yigitlarni frontga jo‘natish” kabi she‘rlarida va “Jangchi Tursun”, “Roksananing ko‘z yoshlari” balladalarida ham tinchliksevar xalq xohish–irodasi va ruhiyati shu qadar teran ifodalangan.

VATAN BAHORINI KUYLAGAN SHOIR

Shohsanam Botirova, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n.dotsent N.Soatova

Vodiy larni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda.
Chappar urib gullagan bog‘in,
O‘par edim Vatan tuprog‘in.

Baxt va shodlik kuychisi Hamid Olimjon g‘oyat qisqa umr ko‘rgan bo‘lsada, atigi 35 yillik hayoti davomida o‘z nomini o‘zbek adabiyotida abadiyatga muhrlovchi asarlar yarata olgan ijodkordir. Hamid Olimjon qalamiga mansub asarlar ichida barkamol she‘rlar va xalq og‘zaki ijodi sarchashmalari ham bir talay.

Bunga misol qilib birgina "Oygul bilan Baxtiyor" ertak–dostonini keltirishimiz mumkin. Asarda ijodkor bolaligini quyidagicha eslaydi:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda.
Ko‘p ertak eshitardim,

So‘ylab berardi buvim.
Esimda o‘sha damlar,
O‘zi uchar gilamlar.
Tohir,Zuhra,Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh.

Hech kimga sir emaski, Hamid Olimjon otadan erta yetib qolib, bobosi Azimbobo qo‘lida tarbiyalandi. Azimbobo davrining savodli kishilaridan bo‘lib, zamonasining mashxur xalq shoiri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li bilan do‘st edi. Fozil shoirning Azimbobo xonadoniga kelib turishi ham yoshgina go‘dak qalbini xalq ijodiyotining jozibasi, badiiy adabiyotning sehrli ummonidan sug‘ora boshlagan. Bo‘lajak shoirning ayasi Komila aya ham xalq ijodiyotiga chechan bo‘lib, Hamid Olimjon uzun qish kechalarida "Oygul bilan Baxtiyor", "Tohir va Zuhra" va "Yoriltosh" haqida ertaklarni tinglab, bolalik kezlaridanoq xalq og‘zaki ijodiyotidan bahramand bo‘lib o‘sgan.

Badiiy adabiyot inson komolotida ulkan ahamiyat kasb etgani singari, har bir inson qalbidagi ona Vatanga muhabbat, sadoqat tuyg‘ularining jo‘sh urishida ham tutgan o‘rni beqiyosdir. Vatan obrazi Hamid Olimjonning ko‘pgina she‘riy asarlari markazida turadi. U har safar ushbu obrazning yangi qirralarini kashf etish ishtiyoqida unga turli poetik "nigoh"lar osha yondashadi.

Daryolardan kuylab o‘tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.
Hammsini tinglardim, ammo,
O‘xshashini topmadim asli.
O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,
Dostonlarda bitgan guliston,—
O‘zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.

Dunyoda 200 dan ortiq davlatlar bor. Ijodkor o‘zi tug‘ilib o‘sgan vatanini, O‘zbekistonni, "O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston" deya tariflab, yer yuzida unga tenglasha oladigan davlat yo‘qligini ta’kidlamoqda. Bundan tashqari shoir vatan tarifini betakror tashbehlar bilan yanada sayqallaydi:

Chiroylidir go‘yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog‘lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam.

Bahor...Kunlar ilib, butun tabiat qish uyqusidan uyg‘onadi. Daraxtlar kurtak yozib, qalin qor ostidan maysalar bo‘y cho‘za boshlaydi. Bir qarashda bu hodisalar barcha davlatlarda bo‘ladigan hayotiy voqealik bo‘lib ko‘rinsa—da, ijodkorning qalb ko‘zi bilan qaraganda esa barchasidan ham o‘z ona Vatanining ko‘klami, benihoya tengi yo‘q ko‘klam edi. Shu sababli ham shoir uni: "Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam",—deya kuylamoqda. Hamid Olimjonni yodga olishimiz bilan behtiyor xayolimizda ijodkorning "O‘rik gullaganda" she‘ri yarq etib namoyon bo‘ladi.

"Derazamning oldida bir tup o‘rik
Oppoq bo‘lib gulladi"...—

misralari bilan boshlanuvchi she'r uzoq yillardan beri o'zbek diyoriga keluvchi bahor nashidasi sifatida yangrab kelmoqda. "O'rik gullaganda" she'rida faqat tabiat tasviri, bahor tasvirigina chizilgan emas. Hamid Olimjon bu she'rida qiyosiy tasvir san'atidan foydalanib, o'rik gullari bilan lirik qahramonning baxti o'rtasida uyg'unlik ko'radi:

"Mayli deymen va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman.
Har bahorda chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so'rayman."

Chaman bo'lib ochilgan o'rik gullari baxt mavzusi bilan tutashib, katta falsafiy bir ma'no kashf etadi. Shoir sevgi mavzusiga murojaat qilganda ham, tabiat lavhalarini chizganda ham, lirik qahramonning vatanga sadoqat tuyg'ulari baxt yog'dulari bilan nurafshon bo'ladi. U go'zallik bilan uchrashar ekan, baxt bilan yuzma-yuz kelgandek bo'ladi. Shuning uchun ham shoirning sevgi va tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlarida nekbin ruh, go'zal vatan tuyg'ulari mavjlanib turadi. Hamid Olimjon ijodidan bahramand bo'lish chog'imda xayolimga quyidagi misralar quyilib kela boshladi va men ularni qog'ozga tushirdim:

Kurtakla uyg'onib, o'rik gulladi,
Oppoq libosiga burkandi daraxt.
Bunday mo'jizani ko'rganda ko'zlar,
Ko'ngillar shodlanib yasharar har vaqt.
Bahorda ochilar turfa xil gullar,
Chamanzorda sayrar shodon bulbullar.
Navro'zi olam ham shunda mujassam,
O'ynang sho'x yigitlar, o'ynang sunbullar.

Osmoni tinch va musaffo Vatan bahorini ko'rishni orzu qilib, kuylagan shoir Hamid Olimjon qalbimizda doim barhayotdir.

“OYGUL BILAN BAXTIYOR”DOSTONIDA BADIY G‘OYA

**Ro'ziboyeva Lobar,
Toshkent viloyati Angren shahar
5–maktab o'qituvchisi**

Iste'dodli va sevimli shoirimiz Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» ertagida ezgilik va jaholatning o'zaro to'qnash kelganligini ko'rish mumkin. Asarda qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy olamidagi o'zgarishlar nihoyatda jonli ifodasini topgan.

Hamid Olimjon ulkan iste'dod egasi, uning adabiy merosida katta badiy qimmatga ega asarlar oz emas. “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni esa shu siradagi asarlardan biridir.

Hamid Olimjonning ushbu dostonni yaratishi tasodifiy emas. Bir tomoni, shoirning onasi Komila aya xalq ertaklari, maqol va hikmatli so'zlarining jonli xazinalaridan biri bo'lib, farzandining bolalik paytlarida maqol, topishmoq, cho'pchak, ertak singari xalq og'zaki asarlarini ko'plab aytib bergan. Hamid Ohmjonning adabiyotga, xalq ijodiga qiziqishi ana shu tarzda boshlangan. Ikkinchi tomoni, atoqli baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li turli to'y–hashamlar munosabati bilan Jizzaxga tez–tez kelib turganida ular xonadoniga ham tushib, do'mbira jo'rligida xalq dostonlarini ijro

etgan. Shunday paytlarda yosh Hamid bobosi mulla Azimning pinjida o'tirib, bu dostonlarni sevib tinglagan.

Umuman, o'tgan asrning 30–yillarida xalq og'zaki ijodiga qiziqish kuchaygan va shoirlar xalq ertaklari ta'sirida ko'plab dostonlarni yoza boshlashgan. Hamid Olimjon ham davrning, adabiy taraqqiyotning talabi bilan “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg' yoki Parizod va Bunyod” dostonlarini yaratgan. Bu asarlar tabiyat bilan xalq o'rtasidagi aloqaning yanada yaqinlashishiga yordam bergan.

Odatda ertak–dostonlar biror xalq ertagi asosida yaratiladi. “Oygul bilan Baxtiyor” bu turdagi dostonlardan shu narsa bilan farqlanadiki, shoir unda xalq og'zaki ijodidagi biror ertakka asoslanmagan, balki o'zi ertakka xos sujet va qahramonlar obrazini yaratgan. Asarda tasvirlangan nafaqat Oygul bilan Baxtiyor obrazlari, ular yashagan joy ham – shoir ijodiy fantaziyasining mevalaridir.

“Bolalik kunlarimda Uyqusiz tunlarimda...” deb boshlanuvchi 1–fasl dostonning muqaddimasi bo'lib, shoir unda kitobxonni dostonning yaratilish tarixi bilan oshno etadi. Go'yo bu ertakni onasidan eshitganiga ishontirmoqchi bo'ladi. Ishontirish esa adabiy usullardan biri. Bundan maqsad kitobxonda Oygul bilan Baxtiyorning, asarda tasvirlangan voqeaning go'yo hayotda sodir bo'lganiga va hayotdan ertakka ko'chganiga nisbatan ishonch tuyg'usini uyg'otish. Dostonning 1–faslida Tohir va Zuhra, Yoriltosh haqidagi xalq ertaklarlar keltirilishi ham katta ahamiyatga ega.

Dostonning 2–qismida Oygulning navbatdagi, ikkinchi sarguzashti boshlanadi. Ertak «qonun»lari asosda tuzilgan bu sarguzashtlarda Oygulning qanchalik omadli qiz ekani sinovdan o'tadi. Oygulning saroyda paydo bo'lib qolishi va podsho «muhabbat»ini qozonishi voqeasiga to'xtalar ekan, uning – oddiy kambag'al qizning baland insoniy g'ururga ega ekanligiga alohida e'tibor berish lozim. Zero, o'z qadr–qimmatini bilgan, zeb–ziynatga uchmagan kishilardagina katta ideal – yuksak maqsad bo'ladi.

Oygul baliq ichida yashaganida tasodifan ikkita qimmatbaho halqali gavharni topgan edi. U ana shu gavharlarning birini xaloskori – Baxtiyorning otasiga bergan bo'lsa, ikkinchisi evaziga kelgan ikki sandiq oltinni xalqning rizq–ro'zining but bo'lishi va erkinlikka erishishi yo'lida sarflaydi. Oygul obrazining ana shu muhim qirrasiga to'xtalib, uning o'z oldiga katta maqsadni qo'yanligini aytadi. Uning podsholar zulmi to'g'risida so'zlab “Bu hol uzoqqa ketmas, Orzular beiz bitmas, Susambilda biz yangi Bir dunyo qurmoqchimiz. Har kambag'al ko'makchi Bo'lsin sodiq soqchimiz. Bunday bir yurtni faqat Ezilganlar qururlar. So'ng ular qavat–qavat Soz uylarda turarlar”, degan so'zlarini keltiradi. Shu so'zlar yordamida Oygulning maqsad–idealini ochib tashlaydi.

Oygulning bu orzu–niyati bizning bugungi kunimiz bilan ham hamohang. Binobarin, Oygulning shu so'zlarida ifodalangan orzu–maqsadni yanada konkretlashtirish, uning tasavvuridagi o'lkaning shakl–shamoyilini ko'rsatishga harakat qiladi. Oygulning jabr–zulm ostida yashayotgan vatandoshlariga najot berish maqsadida Jambilga qo'shin tortib borishida vatanparvarlik va xalqparvarlik an'analarning go'zal bir shaklda ifodalanganiga e'tiborni qaratish lozim.

Dostondagi zulmga qarshi erk uchun kurash g'oyalarining istiqloq davri bilan hamohangligiga urg'u berilib, shoirning ertak–doston yaratishdagi mahorati ochib berilgan.

Hamid Olimjon asar qahramoni Oygulning turmushdagi turli girdoblardan omon chiqib, o'z qadriga yeta biladigan kishilarni topibgina qolmay, uni o'limdan saqlab

qolgan Tarlonni ham, ona–Vatani Jambilni ham o‘ylashini, ular haqida qayg‘urishini tasvirlashga alohida e‘tibor beradi. Ona–Vatan va aziz kishilar oldidagi qarzdorlik hissi Oygulni ulug‘vor maqsad sari yo‘naltiradi. U vatandoshlarini zolim podshodan xalos etishga ahd qilib, sevgilisi Baxtiyor bilan birga Jambilga qo‘shin tortib keladi.

Shu o‘rinda yana Mirkarim Osimning "Shiroq" va "To‘maris" hikoyalarini eslash, bu hikoyalarda tasvirlangan Shiroq va To‘maris o‘z vatanini bosqinchilardan himoya qilgan tarixiy shaxslar bo‘lganini aytishi maqsadga muvofiq. To‘maris ham Oygul singari mard ayollardan biri. Ammo Oygul To‘marisdan farqli o‘laroq Jambil xalqini zolim podshodan ozod qilib, uning o‘rniga kambag‘al xalq vakili, aqlli tadbirkor, mard Tarlonni poshsho qilib ko‘taradi va sevgilisi Baxtiyor bilan birga uning vatani – Susambilga ketadi. Bunday farqning borligiga qaramay, u To‘maris singari qo‘rqmas, vatan va xalq manfaatini hamma narsadan yuqori qo‘yuvchi, mardlik va jasurlikda hatto erkaklarga ham o‘rnak bo‘la oladigan ayol obrazidir.

Odatda bunday qahramonlar xalq ertaklari yoki tarixiy o‘tmish mavzuida yozilgari hikoya va qissalarda uchraydi. Shuning uchun ham ular tasvirida xalq ertaklariga xos badiiy usul va vositalar yetakchilik qiladi.

Biz Hamid Olimjonning bolalik va yoshlik yillari bilan tanishganimizda uning onasi Komila aya va mashhur baxshi Fozil Fo‘ldosh o‘g‘li tufayli xalq og‘zaki ijodidan bahramand bo‘lganini aytib o‘tgan edik. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining Hamid Olimjonga ko‘rsatgan ta’siri, ayniqsa, "Oygul bilan Baxtiyor" dostonida "mana men" deb turadi. Ana shu ta’sirning quyidagi ayrim belgilariga o‘quvchilar e‘tiborini qaratishi lozim. Birinchidan, doston qahramonlari – Oygul ham, Baxtiyor ham xalq ertaklariga xos qahramonlardir. Ayniqsa, Oygulning Tarlon tomonidan sandiqqa solinib, daryoga tashlanishi faqat xalq ertaklariga xos xususiyatdir. Sandiqqa solinib, daryoga oqizilgan qizning omon–eson suvdan chiqishi, hatto uning podsho haramiga navbatdagi xotin bo‘lib tushishdan ko‘ra o‘zini daryoga tashlab, baliqlarga yem bo‘lmoqni afzal bilishi va yana daryodan, hatto Jayhun baliq ichidan tirik chiqishi – bularning barchasi ertak poetikasiga xos sujet chiziqlaridir– Binobarin, xalq ertaklariga xos sujet unsurlaridan foydalanish o‘zbek fol’klarining ushbu dostonida zuhur bo‘lgan ikkinchi ko‘rinishidir. Nihoyat, uchinchi xususiyat dostonning til va uslub nuqtai nazaridan xalqona tasvir bo‘yoqlariga boyligidir. Masalan, shoir Oygulning qo‘shin tortib borishini bunday tasvirlaydi:

*Go‘zal, chaman bog‘lardan
Qush bo‘lib uchib o‘tdi,
Osmon boyi tog‘lardan
Burgutday ko‘chib o‘tdi...*

Ushbu satrlardagi ohang, fe‘ldan yasalgan qofiyalarning ustuvorligi mubolag‘aviy tasvir izchilligi – bular hammasi xalq ijodi ta’sirining go‘zal mevalaridir.

Dostonning g‘oyaviy yo‘nalishiga xos muhim masalalardan biri shundaki, Oygul zolim podshoni taxtdan ag‘dargach, Jambilni o‘zi idora etmaydi, uni Susambilga ham qo‘shib olmaydi, balki Tarlonni Jambilga podsho etib ko‘taradi. Ya’ni mamlakat xalq vakilining, binobarin, xalqning dardini tushunadigan kishining qoliga o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda, ertak voqealarini tahlil qilish jarayonida insoniy fazilatlaridan: halollik, jasurlik, xalqparvarlik, vijdonlilik, burchni his qilish singari chin insoniy fazilatlarini ko‘rsatish mumkin. Chunki, shoirning ushbu asari orqali

ma'lum darajada insoniy fazilatlarini kamol toptirish, ertak matni ustida ishlash natijasida ijodkor mahoratini oydinlashtirishga harakat qildik.

“OYGUL BILAN BAXTIYOR” DOSTONI TAHLILI

**Mashxura Do'stova,
Samarqand viloyati Urgut tumani
38–maktab o'qituvchisi**

Hamid Olimjon qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, sermazmun asarlari bilan o'ziga abadiy haykal yaratib qoldirgan.

Hamid Olimjonning onasi Komila aya juda ko'p doston va ertaklarni yod bilardi, ularni eshitgan yosh Hamid Olimjon tasavvurida qadimgi asarlar qahramonlari qayta jonlanardi. Dostonlarning shirali tili, bir-biridan qiziq voqealari uning butun xayolini egallab olardi. Hamid Olimjon bu zavqli tunlarni bir umr yodda saqlab qoldi va o'zi yozgan dostonlardan biri «Oygul bilan Baxtiyor»da bu sehrli tunlarni shunday esga oldi:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda
So'zlab berardi buvim.
Tohir–Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh...
Buvimning har qissasi,
Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi.

Hamid Olimjondagi tug'ma iste'dodning ko'z ochishida, uning keyinchalik mashhur shoir bo'lib yetishuvida mana shu ezgu havas, albatta, katta ro'l o'ynagan.

Hamid Olimjon onasidan eshitgan dostonlari hamda xalq tarixini o'rganish jarayonida orttirgan hayotiy tajribalarini umumlashtirib, 1937–yilda «Oygul bilan Baxtiyor» nomli mashhur dostonini yaratadi.

Eramizdan avvalgi 329–328–yillarda qadimgi So'g'diyonada makedon bosqinchilariga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonining rahbari jasur bobomiz Spitamen to'g'risidagi ma'lumotga duch kelasiz. Demak, ozodlikka, hur va erkin yashashga bo'lgan intilish bizning xalqimiz ruhini hech qachon tark etgan emas.

Jambildagi qo'zg'alonga esa kekxa qul Darxon va uning mardona qizi Oygul boshchilik qilardi. Kuchlar teng bo'lmagani tufayli qo'zg'alonchilar mag'lubiyatga uchrab, Darxon, qizining ko'z o'ngida, zolim xon tomonidan qatl etiladi.

Saroyda xizmat qiladigan, xondan juda ko'p jabr–u jafo ko'rgan Tarlon ismli kekxa qul zindonda yotgan Oygulni qutqarishga jazm etadi. Qizni sandiqqa solib daryoga oqizib yuboradi. Sandiqqa Oygul uchun yetadigan non ham solib qo'ygan edi.

Ko'rinib turibdiki, bu doston orqali bolalar turli ertaklarning sehrli olamiga sayohat uyushtirgandek bo'ladi. Hamid Olimjon ham onasi aytib bergan ertaklar ichida «Tohir va Zuhro»ni eslaydi. Yodingizda bo'lsa, o'sha ertakda ham bosh qahramonlardan biri Tohir Amudaryoda sandiqda

oqib ketadi. Bundan ko‘rinadiki, ertaklar orasida o‘xshash manzaralar tez-tez uchrab turar ekan.

Daryoda uzoq oqqan sandiq nihoyat Jurjon degan yurt qirg‘oqlariga kelib qoladi. Daryo qirg‘og‘iga o‘tin terгани kelgan bir kambag‘al chol sandiqni tutib, suvdan olib chiqadi. O‘rog‘i yordamida sandiqning bir chetini zo‘rg‘a ochgach, uning ichidan odam tovushi kelayotganidan cho‘chib ketgan sodda chol, odamlar orasida ochay deb, sandiqni bozorga olib boradi va boshi baloga qoladi. Odamlar uni o‘g‘ri gumon qilib ushlashadi va podsho saroyiga olib kelishadi. Oddiy odamlar taqdiriga befarq, bag‘ritosh podsho esa sandiq ichidagi narsa nima ekanini oxirigacha surishtirmay, sho‘rlik cholning tanini boshidan judo qiladi. Oygul endi bir zolimdan qutulib, ikkinchisining qo‘liga tushadi...

Shu o‘rinda, bolalar, biz xuddi o‘tinchi cholga nisbatan ishlatganimizdek, Oygulga nisbatan ham “sho‘rlik”, “bechora” degan so‘zlarni ishlatsak bo‘lar edimi?

Bizningcha, bo‘lmas edi.

Gap shundaki, agar Oygul o‘z hurligi yo‘lida eng qaltis choralardan ham cho‘chimay, qiz bola boshi bilan maqsad sari dadil va ongli intilsa, o‘tinchi chol xarakterida boshqalarga mutelik, o‘z haq–huquqini himoya qila olmaslik qusurlari uchraydi. U o‘zining “peshonasi sho‘r”ligiga ko‘ngan, o‘z hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirish imkoniyati tug‘ilgan paytda ham undan foydalana olmaydigan kishilar sirasidandir.

Qari podshohning xotini bo‘lib, ko‘ngli yo‘q odam bilan bir umr zarga ko‘milib yashashdan o‘z ozodligini afzal bilgan bizning Oygul saroyning qirq kanizagi bilan cho‘milish bahona daryoga boradi va ko‘zini chirt yumib o‘zini suvga otadi. Daryodagi bahaybat Jayhun baliq esa Oygulni bir hamla bilan yutib yuboradi...Qiz oqa–oqa Susambil degan yurtga borib qoladi. U yerda bir podachi yigit qizni kattakon baliq qornidan yorib oladi. Bu voqealarni Hamid Olimjon shunday yozadi:

Go‘zal yurt Susambilda

Bir podachi bor edi.

U mashhur edi elda,

Nomi Baxtiyor edi.

Hamid Olimjon yigitni kitobxonga tanishtirgach, qanday qilib Oygulni baliq qornidan olganini ishonarli tarzda ifoda etadi.

Otasi pichoq soldi,

O‘g‘li oybolta soldi.

Baliq qornin yorganda,

Pichoq belga borganda,

Chol birdan cho‘chib qochdi,

Baxtiyor g‘azab sochdi.

Baliq qornida shu on

Tebranib u yon–bu yon,

Oygul ko‘zini ochdi

Ma‘lum bo‘ladiki, yolg‘iz otasi bilan kamtarona yashayotgan kambag‘al yigit Baxtiyor, mag‘rur, kelishgan, kuchli yigit sifatida ijodkor tomonidan ta‘riflanadi. Nafaqat Oygul zolim xonning zulmidan qutuladi yoki o‘zini bir hamlada yutgan baliq qornidan ozod bo‘ladi. Balki u o‘z

ozodligi bilan birga baxtini ham, muhabbatini ham topadi. Bir ko‘rishda bu o‘ktam va oqko‘ngil yigitni sevib qoladi. U o‘z sevgisini yashirmaydi. Aksincha, yigitning otasiga minnatdorchilik bildirish bilan birga sof muhabbatini izhor ham etadi. Baxtiyorning otasidan rozilik ham so‘raydi.

“Ota, qabul qilsangiz,
O‘g‘lingizga tegayin,
Siz har narsa desangiz,
Men bo‘ynimni egayin”.

Jasur va jur‘atli qiz Oygul aqlli va tadbirli ham edi. Shu sabab u nafaqat o‘z sevgisini himoya qildi balki, Baxtiyor hamda otasini ham tang ahvoldan chiqarishga harakat qildi. Bundan tashqari Oygul yolg‘iz o‘zi yoki oilasi bilan baxtli va to‘kin yashashni xohlamaydi. Uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari, intilishlari bor. U shu maqsad yo‘lida har narsaga qodir.

... Oygul daryoda baliq
Qornida yotganida,
Ikki katta halqalik
Gavhar topuvdi unda.
Qadrini bilgan edi,
Ehtiyot qilgan edi.

Yori Baxtiyor bilan Susambilni jannatmisol yurtga aylantirgan Oygulning yodidan o‘z eli Jambil, uning ezilib yotgan xalqi, nohaq o‘ldirilgan otasining xotirasi ketmas edi. Xalqini xon zulmidan xalos qilish niyatida u katta qo‘shin bilan Jambilga hujum qiladi va g‘alabaga erishadi. Qonxo‘r xondan qutulgan elga Tarlon otani rahbar etib tayinlaydi, o‘zi esa kelin bo‘lib borgani Susambilga – suygan yori Baxtiyor yurtiga qaytadi:

Shundan so‘ng bizning Oygul,
Yashnab misoli bir gul,
O‘z Baxtiyori sari,
O‘z sevgan yori sari
Susambilga yo‘l oldi.
El karnay–surnay chalib,
Zambaraklar bo‘shatib,
Uni uzatib qoldi.

Ko‘ryapsizki, aksariyat ertaklarda bo‘lgani singari bu asarda ham razolat ustidan ezgulik, zulm va nohaqlik ustidan esa adolat g‘alaba qildi. Biroq bu g‘alaba boshqa ertak–afsonalardagi singari osonlikcha, afsonaviy sehrgarning sirli tayoqchasi yordamida qo‘lga kiritilgani yo‘q. Balki tinimsiz qilingan harakat, qullik va xo‘rlikka bo‘y bermaslik kabi xalqimiz ruhiyatiga xos bo‘lgan mardona kurash oxir–oqibat Oygul va uning yurtdoshlarini ozodlikka olib chiqdi. E’tibor bersangiz, garchi asarning bosh qahramonlari Oygul bilan Baxtiyor hisoblansa–da, tadbirkor, erksevar Oygulning oqilona harakatlarigina voqealarning aynan shu tarzda xotimalanishiga zamin yaratadi. Biz manashunday ozodlik intiluvchisi bo‘lgan xotin–qizlarni bilamiz. Jumladan, jasur momomiz To‘maris haqidagi tarixiy afsonani o‘rgangan edik. Ko‘ryapsizki, To‘maris bilan Oygul tabiatida o‘zbek qiz–juvonlariga xos mardonalik, tantilik, tadbirkorlik fazilatlarini bo‘rtib ko‘rinadi. Ularning har ikkisidagi bu sifatlar

ba'zi erkaklarga ham ibrat bo'lishi mumkin. Shu ma'noda bu qahramonlar ruhiyati, yurt ozodligi yo'lida olib borgan kurashi ayollar jasoratidan hikoya qilishi bilan ahamiyatlidir.

“OYGUL BILAN BAXTIYOR” ERTAGINI O'RGATISH YO'LLARI

**Hulkar Boysinova,
Zafarobod tuman
17–maktab o'qituvchisi**

Umumta'lim maktablari beshinchi sinflarida Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak–dostoni o'rganish uchun tavsiya etilgan bo'lib, buning uchun dasturda uch soat ajratilgan.

Mazkur ertakning o'z o'qilish ohangi bor. Asarning o'qilish ohangi va ifodaliligi darsning yarim muvaffaqiyati sanaladi. O'qituvchi ifodali o'qishining o'zi bilan o'quvchilar ko'nglini bezovta qilib, ularning e'tiborini o'ziga qaratib olishi mumkin. Butun diqqat–e'tibori matnga qaratilgan o'quvchi boshqa narsalarga chalg'amaydi. U bor vujudi bilan yoqimli ohangda o'qilayotgan ertakni tinglaydi. O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda o'z darsliklaridan ertak matnini o'qib borsalar, yana ham yaxshi bo'ladi. Bunda ular quloqlari ko'magida asarning o'qilish ohangini, ko'zlari orqali esa tez o'qish mashqini oladilar.

Ayni zamonda, o'qish davomida ertak qahramonlarining ruhiyati, fe'l–atvori ifodalangan, ularning tabiati tasvirlangan lavhalarni, shoirning so'zni o'ynatib yuborgan o'rinlarini o'quvchilarga belgilatib borish mumkin. Bu bilan asar matni ustida ish boshlanganda, avvalo, e'tibor qaratilgan o'rinlarni matndan qidirishga sarflanadigan vaqtdan yutiladi, qolaversa, ajratib qo'yilgan so'z, insonlarga xos bo'lgan baland sifatlar, chinakam fazilatlar o'quvchining diqqat markazida turadi, ruhan munosabat bildirishga tayyorlana boradi. O'quvchilar tomonidan e'tibor qilingan, munosabat bildirilgan sifatlar ularning shaxsiyatida, albatta, iz qoldiradi.

Doston o'qib chiqilganidan so'ng matn ustidagi ish davom etadi: “Shoir ertakning birinchi bo'limini bolalik xotiralariga bag'ishlagani sababi nimada bo'lishi mumkin? Asardagi: **“Buvimning har qissasi, Har bir qilgan hissasi, Fikrimni tortar edi, Havasim ortar edi”**, misralarida ko'zda tutilgan mazmun haqida o'ylab ko'ring. Bo'lajak shoirga buvisining qaysi ishlari bu qadar kuchli ta'sir ko'rsatganini ayting. Ertakdagi:

Tinglar edim betinim

Uzun tunlar yotib jim.

Seza olardim kuchin,

Ko'pi – yolg'on, ko'pi – chin

satrlariga e'tibor bering. Gap nima haqda ketayotganligini anglating va shoirning shunday deytganligi sababini tushuntiring” kabi savol–topshiriqlarni o'rta tashlashdan boshlanadi. Mazkur savol–topshiriqlar ustida ishlanayotganda asarning birinchi bandini qayta o'qib berish ham mumkin.

“Oygul bilan Baxtiyor” – adabiy ertak. Uning birinchi bandidagi tasvirlar esa ertak haqidagi hikoya. Lekin ular, ayni vaqtda, asl haqiqat ifodalari ham. Unda tirik inson va uning bolalik tuyg'ulari, hayotidagi eng go'zal davr aks etgan. Shoirning dostonida ifodalangan holati ertakni tinglayotgan bolaning hozirgi kayfiyati bilan deyarli hamohang. Asarda aytilayotgan ertaklarning deyarli barchasi

o‘quvchilarga ham tanish. Shuning uchun ertakning bu bandi ko‘p o‘qilmasdanoq, o‘quvchilarning xotirasida mixlanib qolishi aniq.

Ba‘zi savollar mazmunini o‘quvchi to‘la anglamay qolishi mumkin. Shunda o‘qituvchi ularni soddalashtirgani ma‘qul.

O‘qituvchi ertakdan **“Bosh ko‘tardik, zulmdan Bo‘lmoqchi edik ozod. Lekin bu gal bo‘lmadi, Ammo tilak o‘lmadi”** misralarini o‘qib beradi va “Darxonning iqrori zamirida qanday ma‘noni angladingiz? Darxon o‘ldi–ku, tilakning o‘lmagani nimani anglatadi?” savolini o‘rtaga tashlaydi. Qul Darxonning xon bilan to‘qnashuvi sahnasi, uning xonga munosabati sabablarini o‘quvchilar matnga tayangan holda o‘zlari tahlil qilganlari ma‘qul. Shunda ular qo‘zg‘olonchilarning tilagi – zulmdan ozod bo‘lish ekanini, zulm, xorlik, qashshoqlik bir kun shunday yakunlanishi aniqligini o‘zlari anglab yetadilar.

“Xon qovog‘ini uydi, Bulutlar yomg‘ir quydi” tasviri zamiridagi badiiy ma‘noni topishga yo‘naltirilgan o‘quvchilar matnning shu o‘rniga murojaat qiladilar. Xonning qovog‘ini uyishi bilan osmonning yomg‘irli holati o‘rtasidagi o‘xshashlikni ularning biri bo‘lmasa biri topadi. O‘qituvchi bu holat shoirning mahorati ekanini bildirib qo‘ygani ma‘qul.

Ozodlik sari Darxondek mard, dovyurak odamlar yo‘l boshlaydilar. Shunday odamning farzandi bo‘lmish Oygulning taqdirga tan berib, xon saroyida yashab qolishi mumkinmidi? Dovyurak kishilarning do‘stlari ham ko‘p bo‘ladi. “Qora kun”da, g‘amda insonlar bir–birlariga juda tez yaqinlashadilar, g‘am kishilarni birlashtiradi. O‘quvchilar ertakdagi:

Qaldirg‘och qoshlaridan

To‘yib qarashlaridan

Hayot sochilar edi

Gullar ochilar edi.

tarzidagi misralarda kim tasvirlangani va nima uchun shunday ifodalanganligini o‘ylab ko‘ring topshirig‘ini bajarish uchun matndan shu o‘rinni topgan o‘quvchilar uning Oygul haqida ekanini darrov anglaydilar.

Susambilga ketmoqchi bo‘lgan jambilliklarga “Oygul nazar tashladi, Shunday bir so‘z boshladi”:

Zolim xon quchdi o‘lim,

Endi sizga yo‘q zulm.

El, osoyish yasharsiz

Va bekoyish yasharsiz

Susambilni qo‘yinglar

Va Jambilni suyinglar.

Siznikidir tuprog‘i,

Siznikidir toshu tog‘i.

Xon bo‘lmasa Jambilda,

Qayg‘u ham bo‘lmas dilda.

Mana bu ota Tarlon

Hammangizga bosh bo‘lar,

Sizlar uchun berur jon,

Har yerda yo‘ldosh bo‘lur,

Bu gaplari bilan Oygul vatandoshlariga yurt, uning tuprog‘i, toshigacha azizligi, o‘zgalarning. Susambilidan o‘zlarining Jambili yuqori turishini ta‘kidlaydi. Bu hayotiy haqiqatni o‘quvchilar ham anglashlari maqsadga muvofiq. Chunki asl farzand kambag‘al yurtni tashlab qochmaydi, balki qo‘lidan kelganicha uni farovon qilishga intiladi.

O‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan: “Siz o‘qigan “Susambil” ertagi bilan “Oygul bilan Baxtiyor” doston–ertakdagi susambil yurti orasida yaqinlik bormi?” savoli o‘quvchilarning o‘tgan darslarda olgan bilimlarini faollashtirishga

xizmat qiladi. Bu o‘z navbatida ularni ta’limning taqqoslash, qiyoslash metodlarida ishlashga o‘rgatadi.

Asarlar matni, mazmuni yuzasidan tuzilgan savol–topshiriqlarning har birida o‘quvchi diqqatini tortishi, uning ko‘ngliga o‘rnashib qolishi kerak bo‘lgan lavhalar, fikrlar bo‘lishi zarur. Asarning badiiy jihatidan go‘zal chiqqan o‘rinlari haqidagi savol–topshiriqlarning har biri o‘quvchini asar matnini shunchaki takrorlashga emas, balki u haqda o‘ylash, mulohaza yuritish va tasavvur qilishga yo‘naltiradigan tarzda bo‘lishi zarur.

O‘qituvchi ertak matni ustida ishni davom ettirib o‘quvchilariga quyidagi savol–topshiriqlar bilan murojaat qilishi mumkin: “O‘ylab ko‘ringlarchi, ertakdagi: “U yo‘q edi o‘zida, Bir sandiq suv yuzida Lopillab kelar edi, To‘lqinda yelar edi. Olmayin ikki ko‘zin Yechina solib darhol, Sandiq ketidan o‘zin Daryoga tashladi chol” tasviriga tayanib cholning qanday odam ekanligi haqida fikr ayting”; “Oxirida qiz turib, Yerga qadar bukilib, Ularga ta’zim qildi, Cholga qarab egildi” misralarida xonlarga bo‘yin egmagan qizning podachilarga ehtirom ko‘rsatishini qanday tushundingiz?”; “Oygulning tabiatini anglashga yordam beradigan quyidagi satrlar: “Ikki katta xalqalik Gavhar topuvdi unda. Qadrini bilgan edi, Ehtiyot qilgan edi” misralarida nima haqida gap ketayotir deb o‘ylaysiz? Oygul ulardan qanday foydalanadi? Bu, sizningcha nimadan dalolat beradi?”; “Eslashga urinib ko‘ringchi, Susambil mamlakati, uning o‘ta obodligi haqida yana qaysi ertakda o‘qigansiz? Susambil degan mamlakat borligiga ishonasizmi yoki har qanday ozod va obod yurtni Susambil deb atasharmikin?”; “Oygul bilan Baxtiyorning tabiatiga xos xususiyatlarni sanang va o‘xshash tomonlarini ko‘rsating”. Bu kabi savollar o‘quvchilarga ertak mazmunini chuqurroq anglash imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, badiiy asarlar mohiyatiga shu tariqa kirib borgan o‘quvchilar keyinchalik badiiy asarlarni shunchaki o‘qimaydigan, undan tagma’no izlaydigan bo‘lishadi.

Umuman olganda, darslarni zamonaviy usullarda tashkil eta bilish bugungi kun o‘quvchisini mustaqil mushohadaga undash, o‘rganilgan asarga nisbatan xolisona yondashuv va natijada o‘rganganlaridan oqilona xulosa chiqarishiga asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Naim Karimov. Hamid Olimjon lirikasi. Maqola “Ma’rifat” gazetasi. 1993. 4–son.
2. Husanboyeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. – T.: Uzinkomsentr, 2003. 103 b
3. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent, “Sharq”, 2010–yil.

“OYGUL BILAN BAXTIYOR” ADABIY ERTAGI VA FOLKLOR

To‘laganova Laylo, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Yulduz Karimova

Shoir Hamid Olimjon haqida so‘z ketganda ko‘z o‘ngimizda bahor fasli, o‘rik gullari namoyon bo‘ladi. Shoirning abadiyatni da’vo qilib, qalamidan tomgan olov satrlarini yodga olmasdan bahor faslini qarshilaydigan inson bo‘lmasa kerak, oramizda. Uning vatanni, baxtni, hayotni madh etgan misralari bolalikdanoq ongimizga, qalbimizga o‘rnashgan.

Hamid Olimjon ijodiga mansub juda ko‘plab asarlar o‘quvchiga o‘zining tushunarligi, tilining soddaligi bilan qalban yaqin. Shu boisdan ham suvdek tiniq xayolida chizib, pokiza qog‘ozga bitgan o‘tli misralari shoir muxlislari tomonidan sevib o‘qiladi. Xuddi shunday ustozning sara asarlaridan biri “Oygul bilan Baxtiyor” ertak–dostoni ham o‘zbek xalqining milliy ruhiyatini, milliy xarakterini ko‘rsatib bergan yetuk asardir. Ushbu asarda Hamid Olimjonning o‘tmish xotiralari, bilim–tafakkur qirralari, ijod mahorati hamda ajdodlarning ma’naviy merosi uyg‘unlashgan. Ustozning bolaligida o‘zi guvoh bo‘lgan "Jizzax qo‘zg‘oloni" va uning oqibatida nochor xalqning boshiga tushgan azob–uqubatlar – o‘tmish xotiralaridir. Bu haqda shoir tarjimai holida shunday eslaydi:

“Men bir qaro kunda tug‘ildim,
Tug‘ildim–u shu on bo‘g‘ildim...”

Bilimli va oqila Komila ayaning bo‘lajak adibga so‘zlab bergan rang–barang ertaklari esa uning badiiy tafakkurining sarchashmalaridir. Ijodkor ijod jarayonida ko‘z oldida yuz bergan voqea–hodisalarni beixtiyor ravishda xayolidan o‘tkazadi. Bu asarda yaqqol aks etmasa–da, kundalik sahifalarining ta’siri sezilib turadi. Dostonning boshlanish qismidayoq bunga guvoh bo‘lamiz:

Bolalik kunlarimda
Uyqusiz tunlarimda
Ko‘p ertak eshitgandim
So‘ylab berardi buvim...

Dostonning e’tiborli tomoni – bu xalq og‘zaki ijodiyoti, ya’ni ajdodlarning ma’naviy merosidan to‘yinganligidir. Ushbu sanalgan jihatlar asarning syujet tizimini ta’minlagan bo‘lsa, uning badiiy ruhiyatini, mazmunan boyligini, musiqiy ta’sirchanligini ifodalashda Hamid Olimjonning ijodiy mahorati yetakchilik qilgan. "Oygul bilan Baxtiyor" ertagi folklor – xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan "Malikai Husnobod" ertagining syujeti va obrazlar tizimi bilan hamohang.

Qahramonlar xarakteri va harakati ikki asar tafovutlarini ochib bergan. Bosh qahramon Oygul "Malikai Husnobod" ertagidagi malikadan butkul farq qiladi. Malika xonning qizi, Oygul esa xonning adolatsizligiga qarshi bosh ko‘targan xalqning qizidir. Malika Husnobodda Oyguldagi ozodlikka intilish, isyonkorlik g‘oyalari ko‘rinmaydi. Dostonda Oygulning zolim xonga qaratilgan so‘zlari fikrimizni tasdiqlaydi:

"Sen otamdan ayirding,
Qanotimni qayirding
Qo‘zg‘olon qilib o‘lgan
Shuncha qullar nomidan
Nafratim bordir senga...."

Oygul – ozodlik, erk kurashchisi. Shu sababdan ham u dostonda qahramon darajasiga ko‘tariladi, badiiy asar qiymatini oshiradi. Baxtiyor ham Oygulga mos o‘ktam va botir xalq o‘g‘loni sifatida tasvirlangan. Undagi soddalik, halollik kabi insoniy fazilatlar haqiqiy o‘zbek yigitining timsolini namoyon etgan. Dostonda Baxtiyor Oygulni qiynayotgan dardga befarq qaramaydi. Oygulning yuragida yashayotgan isyon uchqunlarinining alanga olishiga qarshilik qilmaydi, aksincha, ko‘mak beradi.

“.....Oygul, Baxtiyor,
Qildilar shunday qaror
Jambilga o‘t ochamiz

Xonning qonin sochamiz”

Bu haqida adabiyotshunos Sarvar Azimov ham alohida to‘xtalib o‘tgan.”..... o‘quvchi dostonning asosiy qahramoni Oygul bilan ana shunday situatsiyada tanishadi. Zolim xon qarshisida yakka o‘zi.Lekin Oygul o‘zini yo‘qotmaydi. Axir u xalqning irodasi va kuchini,xalqning nafrat va g‘azabini o‘zida mujassamlashtirgan obraz.....”

Hamid Olimjon, avvalo, tug‘ma iste’dod sohibi, tabiatan qalami o‘tkir shoir bo‘lgan. Rus adabiy tanqidchisi Belinskiy shunday degan edi: “Tabiatan shoir bo‘lmagan odamning fikri naqadar chuqur, haqqoniy, hattoki muqaddas bo‘lsa ham uning asari soxta, bachkana, xunik, o‘lik tug‘iladi”. Darhaqiqat, tug‘ma shoir bo‘lgan ijodkorning har qanday janrda yozilgan asari yurak tomirlariga qon yugurgani kabi hayot bag‘ishlaydi. “Oygul bilan Baxtiyor” ertak–dostoni qahramonlariga joylagan mazmun mohiyatda ustozning hech bir shoirda takrorlanmaydigan o‘ziga xos talant belgilarini payqash mumkin.

Hamid Olimjon ertakdagi bosh qahramondan tortib har bir epizodik obrazlarga asar g‘oyasini singdirib yuborgan. Jumladan, asardagi qul Tarlon obrazi ustoz qalamining o‘ziga xos yaratig‘idir. "Malikai Husnobod" ertagida zindonga solingan malikani saroy vaziri qutqaradi.Hamid Olimjon vazir obrazini kiritishni ma’qul ko‘rmaydi. Oygulni zindondan qutqarish vazifasini xonning yugurdagi, manfaatparast vazirga emas, Oygul va uning xalqiga darddosh bo‘lgan qul Tarlonga yuklaydi. Qul Tarlon asarda epizodik obraz hisoblansada, yozuvchining badiiy niyatini yuzaga chiqarishda muhim rol o‘ynagan. Bu quyidagi misralarda ko‘rinadi:

"Qora kunda qul Tarlon
Qizga qayg‘udosh keldi
G‘amiga yo‘ldosh keldi...."

Umuman olganda folklor manbalari asosida yozilgan "Oygul bilan Baxtiyor" ertagi o‘zbek adabiyotining bebaho xazinasidir. Folklorshunos olim Hodi Zarif ijodkorni bu sohadagi mahorati, xizmatlarini ta’kidlab, shunday degan edi: “Hamid Olimjon o‘zbek adabiyotining, shu jumladan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan, uni kamsituvchi unsurlarga qaqshatqich zarba bergan otashin shoir, yirik jamoat arbobi,ko‘zga ko‘ringan jonkuyar olim edi. Uning xotirasi hech vaqt unutilmaydi, adabiyotimizdagi jo‘shqin faoliyati o‘zidan keyingi adabiyot ahllariga hamma vaqt ibrat bo‘lib qoladi”. Daraqiqat, Hamid Olimjon insoniy va ijodiy dahosi mangulikka dahldor ibrat yo‘lidir.

“HOLBUKI TUN...” SHE’RIDA SO‘ZLARNING G‘OYAVIY–ESTETIK TA’SIR KUCHI

**Amanova Mukarram,
Samarqand viloyati, Bulung‘ur XTB qarashi
34–maktab o‘qituvchisi**

Ma’lumki, yuksak san’at namunasi bo‘lgan har qanday she’rni o‘qiganda yoki tinglaganda kishi bir nafas butun borliqni unutib, shu she’r ta’sirida bo‘ladi. Masalan, M.Gorkiy talantli shoir S.Yeseninning she’r o‘qishidan olgan taassurotni

shunday ifodalagan edi: «...hayajonlanganimdan tomog'im quruqshab, bir narsa xippa tiqilgandek bo'ldi. Ho'ngrab yig'lagim keldi»[1.220].

Bizningcha, butun bir she'rning yoki she'riy matn parchasining ta'sir kuchini quyidagi uch omil belgilaydi. Avvalo, so'zlar tashqi olamdagi muayyan hodisani qayta tiklashi natijasida kitobxon his-tuyg'ularini junbushga keltiradi. Bunday matn parchalarini tekshirganda asosiy e'tibor faqat obrazli so'zlarga qaratiladi. Ikkinchidan, so'zlar semantik jihatdan o'zaro birikib, matnda voqeiy holat yoki manzara yaratadi, bunda asosiy vazifa – poetik his uyg'otish bevosita so'zlarga emas, manzaraning yorqinligi yoxud holatning kuchiga yuklanadi. To'g'ri, she'riy matnlardagi manzara, holat so'zlar vositasida bunyodga keladi, lekin bunda so'z yordamchi, qo'shimcha vazifani bajaradi. Uchinchidan, ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan mavhum tushunchalar va aniq narsalarni emas, u haqdagi tushunchani anglatuvchi so'zlarning o'zaro munosabatga kirishuvi natijasida poetik tuyg'u yuzaga keladi.

She'riyatda obrazli tasavvurning ishtiroki katta, zotan, bu o'rinda tovush chiqarayotgan jism, hodisa ko'z oldimizda yaqqol gavdalanadi. Bunday so'zlar muayyan she'riy matn tarkibida kelganda esa, ertaklarda sehrgarning sirli tayoqchasi bir tegishi bilan oddiy narsalarni qimmatbaho buyumlarga aylantirib qo'ygani singari, yondosh so'zlarni o'zining obrazli tasavvur doirasiga kiritib oladi. Shoir ham bunday so'zlarning kuchiga ishonadi, so'zlar ham, o'z navbatida, shoirni hayajonlantirgan tuyg'uni, fikriy manzarani to'la-to'kis yaratib beradi:

Shag'irlyaydi betinim daryo,
Shag'irlyaydi vahm to'lgan jar,
Shag'irlyaydi qorong'i dunyo,
Shag'irlyaydi vodiy, daralar

Hamid Olimjonning «Holbuki, tun...» she'ridan olingan ushbu parchada shoir tuyg'ulariga dastavval turtki bergan narsa – bu tog' daryosining toshchalarni yirik xarsanglar orasidan olib o'tib, tinimsiz pastga tashish jarayoni natijasida hosil bo'lgan ovoz. Bu bevosita birinchi satrda ifodalanadi. Daryoning ovozi asta-sekin shoir shuurini egallay boradi va pirovardida, vahm to'lgan jar ham qorong'i, dunyo ham, vodiy, daralar ham shag'irlyay boshlaydi. Dastlab, “*shag'irlyaydi*” so'zining obrazli tasavvuri shoir qalbida qo'rqinchga o'xshash bir tuyg'u uyg'otadi, vahm to'lgan jar, qorong'i dunyo so'zlari shunday tuyg'uga tirgak bo'ladi. Bu birinchi bandning poetik ma'nosi. Lekin she'r satrma-satr, bandma-band ana shu qo'rqinch tuyg'usini bartaraf etishning badiiy siri sifatida rivojlanadi.

She'riy matndagi poetik ma'noning bu muhim qirrasini so'nggi bandda, ayniqsa, birinchi va oxirgi bandni solishtirganda, konkret asosga ega bo'ladi. Bu she'rning oxirgi bandi quyidagicha jaranglaydi:

Shag'irlardi osmon va havo,
Shag'irlardi butun koinot.
Shag'irlardi betinim daryo
Shag'irlardi daryoda hayot...
Holbuki, tun...

Konseptual ma'no jihatdan birinchi va oxirgi band orasida aytarli farq yo'qday ko'rinadi. Haqiqatda esa bunday emas. Agar diqqat qilinsa, tadqiqotchi qarshisida butunlay boshqa-boshqa she'riy bandlar ko'zga tashlanadi. She'rdagi badiiy ma'no siljishi shunday keskin o'zgarishga olib keladiki, bu o'zgarish

bandlarning soʻz tarkibidan tortib, ularni tashkil etgan tovushlargacha oʻz muhrini bosadi.

Ikkinchi bandda birinchisiga zid oʻlaroq garmoniya hukmronlik qiladi. Chunki endi stixiyali, tartibsiz taassurot oʻrnini muayyan goʻzallik qonunlariga monand poetik sezgi egallaydi. Shuni inobatga olish lozimki, insonning materiyani shakllantirishi faqat uning aktiv amaliy faoliyatiga tegishli boʻlmay, tabiat hodisalarini estetik jihatdan idrok qilishi hamda ularga goʻzallik qonunlariga mos holda shakl va mazmun baxsh eta olishi, yaʼni maʼnaviy faoliyatiga ham taalluqlidir.

Boshlangʻich bandning birinchi satridagi *betinim daryo* oʻrnini *osmon va havo* egalladi, *betinim daryo* esa uchinchi satrga surildi, chunki shoir shuurini dastlab band etgan *daryo shovqini* endi ortga chekindi, lirik qahramon ongini esa kenglik va erkinlik kayfiyati chulgʻab oldi. Vahm toʻlgan jar – bu jumla maʼnosi bilangina emas, balki tovush tomoni bilan ham sheʼrxonda vahima uygʻotadi. Ohang va intonatsiya soʻzning predmetlik maʼnosiga qoʻshimcha noziklik jilo berib, uni, yaʼni vahmni yanada quyuqlashtiradi. Shuning uchun vahm toʻlgan jarning oʻrnini butun koinot egallashi osmon va havodan paydo boʻlgan kenglik va ozodlik tuygʻusini behad kengaytirib, butun koinot miqyosiga olib chiqadi.

Sheʼrning bu bandida endi qorongʻi dunyoga oʻrin qolmaydi, lekin banddagi dastlabki turtki *betinim daryo* hali ham shagʻirlamoqda, ammo bu shagʻirlash endi daryoda, tinimsiz abadiy hayot kuyi boʻlib jaranglaydi.

Ana endigina boshlangʻich banddan soʻng aytish mumkin boʻlmagan sheʼrning sarlavhasidagi soʻzlarni aytish imkoni tugʻildi. *Holbuki, tun...* Sheʼrni oʻqiganda ham, ichki talaffuz qilganda ham bu soʻzlarni pasayuvchi intonatsiya bilan past ovozda oʻqiysiz, chunki sheʼrning butun ruhi sizni sheʼrni shunday talaffuz qilishga goʻyo majbur qiladi. Binobarin, pasayuvchi intonatsiya bilan aytilgan bu soʻzlar zulmat va yovuzlik kuchlarining yorugʻlik va yaxshilik kuchlari qarshisida soʻnggi talvasasidek oʻtkinchi bir hissiyotni tugʻdiradi.[2.58] Bu jihat ham sheʼrning umumiy poetik gʻoyasini yana bir bor tasdiqlaydi va kuchaytirishga xizmat qiladi.

Umuman aytganda, «*Holbuki, tun...*» sheʼri shoir bilan cheksiz sir–asrorga toʻliq dunyo, yanada keng maʼnoda, inson va uni oʻrab turgan koinot orasidagi murakkab munosabatning sheʼriyatdagi teran ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Горький М. Асарлар. 10 томлик. 10–том. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 220.
2. Йўлдошев Б. “Тилининг ижтимоий моҳияти (бадий ва публицистик матнларда тил бирликларининг ижтимоий хосланиши)” ихтисослик фанидан услубий кўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2012. – 164 б.
3. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.
4. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт–матбаа ижодий уйи, 2012. – 152 б.
5. Ҳамид Олимжон. Танланган асарлар.–Тошкент, 1951. – 528 Б.

HAMID OLIMJON IJODIDA FOLKLOR NAMUNALARI

**Sadoqat Hakimjonova,
Alisher Navoiy nomidagi**

Toshkent davlat universiteti talabasi

XX asr haqida gap ketganda, avvalo, ana shu davr muhitida yashab ijod qilgan siymolar ko‘z oldimizga keladi. Ular o‘z ijod namunalari orqali davr tuzumi va muhitini, oddiy xalq qiyinchiliklari va iztiroblari bilan birgalikda vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalarini ham olib chiqa olishgan ijodkorlar bo‘lgan. Shunday ijodkorlardan biri, o‘zbek xalqining atoqli farzandi– yirik olim va tanqidchi Hamid Olimjondir.

Tarixiy voqeikka romantik ruh bera olgan va o‘zbek she‘riyatiga jo‘shqinlik olib kirgan ijodkor edi. Bundan tashqari, xalq og‘zaki ijodi namunalarini badiiy adabiyotga ko‘chirgan, tragedik asarlarga ham ko‘tarinkilik ruhini kirita olgan ijodkor sifatida tarixga muxrlangan adibdir. O‘zining 44 yillik umri davomida ortidan yaxshigina ilmiy meros qoldira olgan adibning folklor namunalari badiiy asarga ko‘chib o‘lmas merosga aylandi. Hamid Olimjon hayotida va ijodida ham xalq baxshilariga, asosan, folklor namunalariga alohida samimiyat bilan qaraganligiga va undagi qiziqish bolalikdan paydo bo‘lganligi uning asarlari orqali ayonlashib boradi. Yaqin do‘sti bo‘lgan Fozil Yo‘ldoshga atab yozgan: “Kuychining xayoli”, Abdulla shoir Nurali o‘g‘liga atalgan “Do‘mbiraning maqtovi” she‘rlarida, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” va boshqa ertak–dostonlari fikrimning isbotidir. Shoir Fozil Yo‘ldosh “Alpomish” dostonining 1000 yillik yubileyida Hamid Olimjon haqida shunday deydi: “Shoir Hamid Olimjon dostonni nashrga tayyorlashda uni qariyb yarmiga qisqartirgan. Ammo bu qisqartirish shu darajada bilim va san’atkorlik bilan amalga oshirilganki, bu holat dostonning yaxlitligiga putur yetkazmagan. Shoir doston matniga biror bir so‘z qo‘shmagan, doston tilini tahrir qilmagan.. Nashrga tayyorlovchi 6 ming misraga yaqin matni qisqartirgan bo‘lsa–da, dostonni o‘qish davomida bu narsa sezilmaydi”.

Har bir yozuvchining o‘z yo‘nalishi va uslubi mavjud. Hamid Olimjon haqida gap ketganda, avvalo, ko‘z oldimizga uning o‘z ijodiga folklor namunasini olib kirgani gavdalanadi. Ijodkor “Alpomish” dostonini o‘rganish jarayonida undagi so‘zlarning jozibasidan ilhomlanganini va o‘zining ijodida ham unumli foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun:

“Alpomish“ dostonidagi quyidagi:

Kokillaring eshilgandir tol–tol

Har toliga bersa yetmas dunyo mol,

kabi misralarni adibning “Zaynab va Omon” she‘riy dostonidagi quyidagi misralar orqali ham solishtirib ko‘rishimiz mumkin.

Kokillari uning tol–tol

Lablarida bitgan qora xol..

“Yusuf va Ahmad” dostonidagi ushbu misralarda ham Shoir Hamid Olimjonning “O‘zbekiston” she‘ridagi ohangini va so‘zlarning mutanosibligini ham ko‘rishimiz mumkin.

“Yusuf va Ahmad”:

Qarilari uyda yotar

Yigitlari sayg‘oq otar

Qiz–juvoni chiqib turar
Zavqi safodir ishlari
“O‘zbekiston” she’ri:
Kuychilari o‘qiydi yalla
Juvonlari aytadi alla
Pazandasi yopadi shirmon
Qarilari kutadi mehmon..kabi

Ushbu fikrimni davom ettirgan holda, Belinskiyning quyidagi fikrlarini alohida qayd etib o‘tishni o‘rinli deb hisoblayman. “shoir bo‘lib tug‘ilish kerak bo‘lsa, u xalqchil bo‘lib tug‘ilishi kerak”. Shoirda esa ushbu xislatni uning yozgan har bir she’ri–yu, dostonlarida uchratamiz. Naim Karimov uning ijodiga to‘xtalar ekan “Bolalik kunlarimda,

Uyqusiz tunlarimda
Ko‘p ertak eshitgandim

So‘zlab berardi buvim..misrasini quyidagicha izohlab, shoirning o‘z ijodida folklor namunasiga murojaat qilishini izohlab beradi. “Xalqchil ijodiy fantaziyasidan sehrlangan Hamidjon onasidan “Yoriltosh”, “Tohir va Zuhra”, “Oygul bilan Baxtiyor” haqidagi ertaklarni takror–takror eshitdi. Ertaklar olami, xalq ijodi durdonalari bilan to‘la muhit Hamidda badiiy so‘zga nisbatan havas va so‘nmas muhabbat uyg‘otdi”.

Hamid Olimjon xalq og‘zaki ijodidan nafaqat she’r va dostonlari, balki dramalarida ham unumli foydalangan. “Muqanna” dramasini o‘qish davomida shoirning turli manbalar bilan tanishganini, Muqanna haqidagi afsona va rivoyatlardan ham yaxshigina xabardor bo‘lganini bilish mumkin. Bundan tashqari “Jangchi Tursun” dostonining ohangi va qofiyasi ham xalq og‘zaki ijodi namunalariga yaqin turadi. Misol uchun:

Ont ichaman yer yuzida
Qolsa fashist degan nom
Ona o‘zim iqromanki
Bergan sutlaring harom

Shu o‘rinda alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ijodkor folklor namunalarining chop etilishi va o‘rganilishiga ham o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan ijodkorlardan biri.

Har bir davrning o‘z ijodkori, xalqchil shoiri boladi. Hamid Olimjon ham shunday shaxslardan biri edi. U o‘z ijodiga xalq dardini, mumtoz merosini ko‘chirib abadiyatga muhrlay oldi. Xalqining azaliy turmush tarzi, boy tarixini baralla kuyladi va she’rlari–yu, dostonlariga, ballada va dramalariga marvarid kabi terib chiqa olgan ijodkor sifatida tarixda qola olgan ijodkor edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov. N.Hamid Olimjon.Shoir hayoti va ijodidan lavhalar, T.:1985
- 2.Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n tomlik. T.: 1990
3. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. T.: “Yangi asr avlodi” 2005
- 4.Hamid Olimjon. Tanlangan asarlari, T.: 1951
- 5.www.istedod.uz
6. www.[edu.uz](http://www.edu.uz)

HAMID OLIMJONNING TARJIMONLIK FAOLIYAT

**Mahfuza Yashinova, Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat universiteti talabasi**

Ulkan iste'dod sohibi, XX asr o'zbek she'riyatining yorqin namoyondalaridan biri Hamid Olimjon, eng avvalo, lirik shoir hisoblansada, tarjimonlik faoliyati bilan ham o'zbek adabiyotining taraqqiyotiga nihoyatda katta hissa qo'shgan. U 30–yillarning o'rtalarida adabiy bilimi va lug'at fondini tinimsiz boyitgani va she'riyat "sir" larini mukammal egallaganidan jahon shoirlarining mumtoz asarlarini tarjima qilishga kirishdi va badiiy tarjima sohasida ham katta yutuqlarga erishdi. Pushkinning ustози V.A.Jukovskiy tarjimonlik haqida Pushkinga va o'z zamonasining yirik tarjimonlariga qarata aytgan: "Mahoratli tarjimon asarlari tarjima qilinayotgan shoirlarning "qul" i emas, balki munosib "raqib" i bo'lishga intiladi" kabi ta'rifi aynan Hamid Olimjonning tarjimonlik faoliyatiga ham to'g'ri keluvchi munosib ta'rif desak adashmaymiz. H.Olimjon o'zining tarjimonlik faoliyatini 1929–yilda Turk shoiri Nozim Hikmatning "Quyosh ichganlar qo'shig'i" she'riy to'plamini tarjima qilishdan boshlaydi. Keyinchalik, 1930–yilda M.Svetlovning "Grenada" asarini, 1931–yilga kelib M.Gorkiyning "Chelkash" hikoyasini, 1932–yilda "Zavodlar tarixi" maqolasini va V.V.Mayakovskiyning "So'l marshi" kabi ijod namunalari tarjima qiladi. Bundan tashqari V.Inberning "O'zbekiston xotirasi", A.Korneychukning "Platon Krechet" pyesasini, Pavlo Tichina va A.Tolstoyning bir qancha asarlarini tarjima qilgan. Ammo H.Olimjonning tarjimalari orasida asosiy o'rinni Pushkin va T.G.Shevchenkoning asarlari egallaydi.

T.G.Shevchenkoning "Ro'molcha", "Kichkina Maryanaga", "Vasiyat", "Tong chog'i yosh askar", "Uchta katta yo'lning boshi", "Katerinaning uyi", "Tush", "Gar bo'lmasa kulbayi xonang", "Bir zamonlar o'ynashib o'sgan" kabi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qiladi.

Hamid Olimjon lirikasida ro'y bergan bir qator ijobiy o'zgarishlar uning Pushkin bilan bo'lgan ijodiy "muloqot" i tufayli edi. Bunda shoir ijodidan qilingan tarjimalar nihoyatda katta ahamiyatga ega. H.Olimjon Pushkinning "Chaadayevga"(1936), "Sibirga maktub"(1936), "Sizni sevgan edim: qalbdagi olov"(1937) she'rlari, "Suv parisi" pyesasi(1937) va "Kavkaz asiri" dostonini mahorat bilan tarjima qiladi.

1937–yilda A.S.Pushkin vafotiga 100 yil to'lishi munosabati bilan O'zbekistonda shoir asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishga kirishish boshlanadi. Bunda Pushkinning "Kavkaz asiri" dostoni va "Suv parisi" pyesasini tarjima qilish H.Olimjonning zimmasiga tushadi."Suv parisi" pyesasining tarjimasini kuzatar ekanmiz, unda H.Olimjon o'zbek xalqiga xos or–nomus, sha'n kabi tushunchalarni yuksak badiiy mahorat bilan tarjimaga singdirganini ko'ramiz. Tarjima, albatta, shoirning o'z ichki kechinmalari va millatning qadriyatlarini ham aks ettirgan holda bir tildan boshqa tilga o'giriladi. Sababi she'r yoki asar qanday bo'lsa uni xuddi shundayligicha tarjima qilish mumkin emas. Tarjima jarayonida tarjimonning shaxsiy va umuminsoniy sifatlari ham, albatta, ma'lum darajada namoyon bo'ladi. Hamid Olimjon Pushkinning "Suv parisi" pyesasini tarjima qilish jarayonida Pushkin ifodalamoqchi bo'lgan insoniyat uchun eng muhim hisoblanmish rostgo'ylik, or–nomus, andisha kabi fazilatlarining ustunligini yaqqol ko'rsatib bergan. Tegirmonchi cholning so'zlarida o'zbek otasining qarashlari,

o'gitlarini his qilish mumkin. Pyesa tegirmonchi cholning qiziga bergan maslahatlari, so'zlari bilan boshlanadi.

Dnepr qirg'og'i. Tegirmon.

Tegirmonchi va uning qizi.

Tegirmonchi:

Shunday, shunday sizlar, navjuvon qizlar,
Hamangiz–hamangiz tentaksiz. Axir,
Modomiki, tuzuk, badavlat odam
Ko'ngil qo'yar ekan, siz etagidan
Mahkam tuting! Qaysi yo'llar bilanmi?
Aql bilan, nomus bilan albatta.
Ba'zan qattiq turib, ba'zan erkalab,
Uni yo'lga solmoq darkor. Va ba'zan
To'ydan ham gap ochib qo'ymoqlik lozim.
Lekin eng muhimi–nomusingizni,
Bebaho gavharni saqlang beg'ubor.

Ushbu satrlardan ko'rinib turibdiki, tegirmonchi chol qizi misolida butun dunyo qizlariga xitob qilayotgandek tuyuladi. U yigitlarning turli xil aldovlariga, shirin so'zlariga uchmaslik, faqat qarori qat'iy, uylanish niyati bor yigitga ishonish kerakligi, hech qachon o'z or–nomusini paymol qilmasliklari haqida maslahat beradi. Pyesa syujet jihatidan ko'p takrorlanuvchi, muhabbat qissalarida uchrab turuvchi ayriliq bilan tugasada, ammo juda ta'sirli holatlarga boy. Chol va qizining ichki kechinmalari nihoyatda ishonarli qilib ochib berilgan. Knyaz timsolida esa mol dunyoga o'ch, boylikka ruju qo'yan, insonlarning hissiyotlari bilan osonlikcha o'ynashadigan badfe'l inson gavdalan tirilgan. U qizni umidvor qilib qo'yan bo'lsa–da osonlikcha, turli bahonalar bilan undan voz kechadi. Hatto qizning vujudidagi zurriyodini ham o'ylab o'tirmaydi. Ushbu xiyonatdan so'ng qiz o'zini Dnepr daryosiga tashlab, cho'kib ketadi. Asarning asosiy jihatlari ayni shundan so'ng ochiladi. Knyaz cholning holatidan xabar oladi, uning qashshoq holatga tushganini ko'rib achinadi. Pesa so'ngida Suv parisiga aylangan qiz Knyazdan dunyoga kelgan qiziga murojaat qiladi. U: "Hali ham otangni sevaman" – , buni otangga yetkaz,– deydi. Pesa kichkina suv parisi va knyazning uchrashuvi bilan yakunlanadi. Pesa bilan tanishgan har qanday inson qahramonlar holatiga achinish bilan birgalikda, albatta, o'ziga kerakli xulosalarni yetarlicha chiqaradi. Bunda tarjimonning muallif aytmoqchi bo'lgan fikrlarni o'quvchiga to'g'ri tarjima qilib yetkazib berish mahorati katta ahamiyat kasb etadi. H.Olimjonning yana bir tarjimalaridan biri A.Korneychukning qalamiga mansub bo'lmish "Platon Krechet" dramasi edi. Ushbu Pesa tarjimasini to'liq saqlanmagan. Ammo "Mukammal asarlar to'plam" ining yakunlovchi 3–tomida Ikkinchi ko'rinish: "Krechetning uyi" dagi holat tasviri tarjimasidan ham Pesada ilgari surilgan g'oyani payqash mumkin. H.Olimjon tarjimasini bilan tanishar ekanmiz A.Korneychuk har qanday zamonda ham eskirmaydigan bir g'oyani ilgari surganini ko'ramiz. Ammo asarning to'liq tarjimasini yetib kelmaganligi, albatta kitobxonning dilini xira qiladi. Sababi tarjima shunchalik mukammal chiqqanki, uni o'qigan inson o'zbek tilida yozilgan asar deb o'ylaydi. Qahramonlarning ismlari va ba'zi nomlar boshqacha ekanligini hisobga olmaganda, tarjima o'quvchi yuragiga yetib boradi va o'qigan inson oxiri nima bo'lishi bilan qiziqadi. Afsuski, ushbu tarjima

butunligicha saqlanmagan. Shunday bo‘lsada biz Korneychuk ijodi bilan qisman bo‘lsada tanishishga muyassar bo‘lamiz. Bunda Hamid Olimjonning hissasi katta.

Umuman olganda, H.Olimjon qisqa umr ko‘rganiga qaramasdan o‘zidan talaygina ijod namunalarini meros qilib qoldira oldi. Bunda uning qalamiga masub lirik she‘rlar asosiy o‘rinni egallasada, tarjimonlik faoliyati ham diqqatga sazovor.

SHOIRNING IJTIMOY ASARLARIDA AYOL OBRAZI

**Nodira Xudoynazarova,
Alisher Navoiy nomidagi**

Toshkent davlat universiteti talabasi

O‘zbek she‘riyati XX asrga kelib an‘anaviy aruz vaznidan chekinib, zamonaviy barmoq, sarbast va boshqa vazn turlariga o‘ta boshlagan bir davrda Cho‘lpon o‘zining she‘rlari bilan butun o‘zbek adabiyotiga yangicha to‘lqin olib kirdi. Undan so‘ng esa uning izidan bir qancha avlod ergashishni boshladi. Shundaylar orasida aynan Hamid Olimjonning o‘ziga xos ovozi alohida jaranglab turdi. Hamid Olimjon nafaqat o‘zbek she‘riyatini go‘zal she‘rlari, balki bir qator dostonlari bilan ham boyitdi. Bu she‘rlarda insonning nozik tuyg‘ulari tarannumi bilan birga, zamon talabi, zamon nafasi bilan sug‘orilgan she‘r va asarlari ham yetakchi o‘rinlarni tashkil etadi.

Hamid Olimjon ijodi 30–yillardanoq tanqidchilar va adabiyotshunoslar e‘tiborini jalb etib kelmoqda. Uning hayot yo‘li va ijodiy faoliyati haqida ko‘pgina monografiya va kitoblar, gazeta va jurnal maqolalari mavjud. Ular orasida N.Karimov, S.Azimov va S.Mallajonov tadqiqotlari e‘tiborga sazovor.¹

Hamid Olimjon asarlarida qalamga olingan mavzular o‘zining rang–barangligi bilan birga insonga davr chizgilarini ham yorqin bo‘yoqlarda aks ettira olishi bilan ahamiyatga egadir. Shoirning ijtimoiy mavzudagi she‘rlari orasida xotin–qizlar hayotini, ularning qahramonliklarini va davr rivojiga ayollarning bevosita javoblari aks etgan she‘r va dostonlar alohida zalvorga ega. Biz shoirning she‘rlarini o‘qir ekanmiz, Turon ayollarining qadimdan har sohada yetakchi, To‘marisdek mard va Nodirabegimlardek davlat boshqaruvida asosiy rol o‘ynaganlarini yana bir bor yodimizga olamiz.

Shoirning “O‘zbekiston” she‘rida quyidagi satrlar uchraydi:

*Tindi oyning nurlari,
Xo‘rozlar ovoz soldi.
Adolatoy uyg‘onib,
Barg kesgali yo‘l oldi.*

She‘rda bevosita xalq turmush hayoti bilan bog‘liq pilla boqish ishlari tasvirlanayapti. Aynan shu jarayonda ayollarning jamiyat hayotida qay darajada faollashganini his etamiz. Uning “polvon kabi dam tortmay” kelishi satrlarining ham berilishi esa ayollarning erkaklardan kam emasligini, ularning ham mehnatda qadamidan olov chaqnashi mumkinligini anglaymiz. Shoirning “Hoy, yaxshi qiz!” she‘rida esa bevosita zamonaning ayollarga yaratayotgan imkoniyatlariga kitobxon e‘tiborini teranlashtiradi. She‘rni o‘qib, ayollarga jamiyat hayotida yaratilayotgan e‘tibor bilan birga aynan qizning yaqinlari tomonidan unga cheklovlarning haddan ortiq qo‘yilayotganligini ham o‘tkir satrlarda his etamiz. “Qiz” she‘rida esa shoir jamiyatning ayollarga munosabatini baland pardalarda borligicha chizadi:

O‘tar edi tor uyda kuni,

*Shu bo‘larmi qiz uchun odat?
Bir nomardning sodiq cho‘risi–
Bo‘lmoq emish unga saodat....
Eskilikni yengib chiqqan qiz
Ko‘kda qilar baxtli bir xanda,
Afsonalar, dinlar, odatlar,
Yerda yotar bo‘lib sharmanda.*

Shoirning “Bahri” sarlavhali she‘rida esa bevosita erkaklar bilan yelkama–yelka turib, paxta dalasida javlon urgan Bahri ismli qizning fahr va sevinch tuyg‘ularining tarannumiga bag‘ishlanadi:

*Bahri anglar mehnatning sirin,
Baxt qidirar halol mehnatdan.
Oppoq paxta, kollektiv hayot,
Qutultirar azob, g‘urbatdan.*

Yuqoridagi satrlarda esa aynan she‘r yozilgan davrdagi ayollarga har tomonlama munosabatni ochiqdan–ochiq anglaymiz.

Shoirning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak–dostonida esa Oygul bevosita ko‘p o‘rinlarda asosiy ko‘rinishlarda aks etadi:

*Oygul yangi turmushga
Boshlab, osh–u non berdi,
Jonsizlarga jon berdi.*

Oygulning bevosita Jambilga qo‘shin tortishi, Jambil xalqini zulmdan ozod etishi ham alohida zo‘r mahorat bilan tasvirlanadi. Uning bir qilich solishidan darvoza qulflarining parchalanib ketishi ham, yovni mahv etib, Jambilda adolat o‘rnatganligi ham alohida e‘tibor kasb etadi. Voqealar ertaknamo bir afsona tarzida kuylanayotgan bo‘lsa ham uning zamirida ayollarning qalbidagi shijoat, jasorat va o‘z o‘rnida ayollarga xos mehr va nazokat tuyg‘ularining chizgilari jilo sochadi. Doston so‘ngida bir yurtga malika bo‘lish imkoniyati tursa ham, bunga haqli bo‘lsa ham o‘z uyi tomon qaytgan Oygul aynan yori Baxtiyorga sadoqati va sevgisini isbot etadi.

Yozuvchi “Zaynab va Omon” dostonida esa Rusning ulug‘ yozuvchisi Pushkindan ta’sirlanadi va qahramoni Zaynab tilidan Omonga maktub bitadi. Ammo sharq ayollariga xos uyat va andisha hissi bilan bu maktubni jo‘nata olmaydi. Uning Sobir bilan unashtirib qo‘yilishi sahnasida esa an‘analarga qurbon bo‘lgan, udumlar sababli baxtsiz oilalarga beka bo‘lgan ayollar qismati chiziladi:

*“To‘g‘ri opa, butun baxtsizlik,
Xo‘rliklarning boisi shudir,
Xotin–qizga xos bo‘lgan qullik
Shu odatda etmishdir zuhur...”*

O‘z muhabbatiga dadil boqa olgan Zaynabning doston so‘ngida baxtli bo‘lishi ham aynan uning kurashuvchanligidadir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Hamid Olimjon she‘rlarida ayollar faqat bir ojiza, hamisha boshqalar istaklari uchun o‘zini qurbon qiluvchi zaifa emas, balki o‘z maqsadlari tomon intiluvchi, yangicha qarashdagi kuchli, his–tuyg‘ularga ega INSON sifatida ulug‘langan. She‘rlar nafaqat davri uchun balki, necha zamonlar o‘tsa ham, AYOL degan nomning asl ohanglarini yaratuvchi kuy bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamid Olimjon. – <https://kh-davron.uz>.
2. Xayolimda bo‘lding uzun kun. –T.: Yangi asr avlodi, 2019.

HAMID OLIMJON IJODIDA BOLALAR ADABIYOTI

**Asilbekov Islom,
O‘zbekiston jurnalistika va**

Ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi

O‘zbek adabiyotida shodlik va baxt kuychisi deb nom olgan buyuk iste’dod sohibi, shoir, olim, dramaturg va jamoat arbobi Hamid Olimjon o‘zbek bolalar adabiyotining rivojiga ham barakali hissa qo‘shgan. Shoir bolalar uchun bir talay asarlar yaratdi. “Oygul bilan Baxtiyor” (1937), “Semurg” (1939) ertak dostonlari, “Bolalik”, “Samolyot”, “Ona va o‘g‘il”, “Jangchi Tursun” kabi asarlari shular jumlasidandir. Shoir bolalarga asarlarini manzur bo‘lishi uchun ularga mos va oddiy uslub izladi. O‘sha davrdagi shablon uslubdan, ya’ni quruq didaktikadan voz kechdi. Asarlariga uzoq o‘tmish haqidagi ertaklarga, goh o‘zining yoshlik yillariga, goh real hayot faktlariga murojaat qilib ulardan mantiqiy xulosa chiqardi. 1928 yilda yozgan “Bolalik” she’rida jo‘shqin yoshlikni, o‘zining bolalik chog‘larini xotirlaydi:

Bola edik,
Tanlar – olov,
Qalb – qaynoq,
Ko‘zlar – o‘tkir,
Dillar – sof,

Erkin – erkin o‘ynardik...

Har bir satrdan bolalikning samimiy ko‘rinishi, musaffo onlari ko‘z oldimizda gavdalanadi:

Ko‘krak kerib,
Baliq kabi
Sho‘ng‘ib yotardik...
Qizlar o‘tsa,
Orqasidan
Olma otardik.

She’rning qudrati va katta muvaffaqiyati shundaki, shoirning yoshligi, uning ko‘z oldida bolalikning umumlashgan tipik ifodasini topa olgan. She’r juda o‘ynoqi, yosh kitobxonlar qalbini maftun etadi. Shu to‘plamdan joy olgan “Lola” nomli she’ri maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan. Bugungi kunda minglab Lolaga o‘xshagan jajji qizaloqlarni Ona – Vatan quchog‘ida unib o‘sayotganliklarini Lola timsolida ifodalaydi:

Lola bog‘chaga chiqib,
Kechga yaqin gul terdi.
Etak–etak to‘pladi,
Har kungidan mo‘l terdi.
Sochiga gul bog‘ladi,
Chakkasiga taqdi gul.
Yelkalaridan tashlab
Gulga ko‘mildi butkul.

Bolalarni gul – lolalarga o‘xshatamiz. Ularga ehtiyotkorlik va mehribonlik bilan muomalada bo‘lamiz. She’rni “Lola” deb nomlanishi bejiz emas. Bunda o‘ziga xos ramziylik bor. Har bir bola o‘ziga xos guldur. Shoir ifoda etayotgan ushbu g‘oyani hayotiy epizod – lolaning gulzorda gul – lolalarga o‘ralgani manzarasini chizadi. Dunyoda Ona Vatandan aziz va muqaddasroq tuyg‘uning o‘zi yo‘q. Vatanning kuch – qudratini madh etgan shoir shu aziz vatanning farzandi ekanligidan faxrlanadi:

Shodligim ko‘kka sig‘mas,
Bitmas baxtim bor manim,
Meni baxtiyor qilgan
Shu yengilmas vatanim.

She’rni o‘qigan bola ko‘z oldida osmonni larzaga keltiradigan samolyotning aks sadosini his etadi. She’r bolalarbop, tez va osonlik bilan yod olinadi. H.Olimjon bolalar uchun yozgan asarlarida tasviriy vositalar, o‘xshatishlar, sifatlash va istioralarni mohirlik bilan qo‘llaydiki, asar mukammal bo‘lishi bilan bir qatorda yosh kitobxonni so‘z boyligini, nutqini boyitadi. Ertaklar olamidan sehrlangan shoir buvisidan minnatdor ekanligini xotirlaydi.

Xalq og‘zaki ijodining go‘zal namunasi bo‘lgan “Malikai Husnobod” ertagi asosida “Oygul bilan Baxtiyor” dostonini yaratdi. Doston orqali Vatanni sevish, uni qadrlash, uning kelajagi uchun kurashish lozimligi asardan bo‘rtib ko‘rinadi. Asarda shoir o‘z maqsadini amalga oshirish uchun yaxshilik bilan yomonlikni, adolat bilan xudbinlikni qarama–qarshi qo‘yadi. Xalq ertagidan farqli ravishda dostonda mehnatkashlarning ozodlik uchun qahramonlarcha olib borgan kurashlari o‘z ifodasini topgan. Asarda xalq kurashi va qo‘zg‘oloni Darxon va uning qizi Oygul boshchiligida namayon bo‘ladi. Oygul faqat go‘zalligi bilan emas, jasur, aqlli, xalqparvar ayol timsoli sifatida ham o‘quvchida unga nisbatan chuqur muhabbat uyg‘onadi. Oygul podsholarning mol–dunyosidan ozodlikni afzal ko‘radi.

Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodida yengilmas, suvga chukmas, o‘tda yonmas, o‘q teshmas kabi iboralar ishlatiladi. Shoir bunday iboralarni Oygulni Jayxun baliq yutganda tirik qolish voqeasida qo‘llaydi. Oygul jasorati va shijoati bilan xalq qahramoni To‘marisni eslatadi. Shoir uning go‘zal va yoqimli tasvirini mahorat bilan tasvirlaydi:

Oygul turishi bilan
Saroy charaqlab ketdi.
Hammayoq bo‘lib ravshan
Uylar charaqlab ketdi
Oy deganda yuzi bor
Kun deganda ko‘zi bor,
Go‘zal, dono Oygulni
Bu barno bahor gulni
El sevar edi jondan.

Dostonda keksa Darxon obrazi jabr – zulmga qarshi ozodlik uchun kurash olib borgan isyonchilarning boshlig‘idir. U zulmga va nohaq qon to‘kilishiga qarshi kurashuvchi isyonkor. Isyonkorlik sabablari shunday tasvirlanadi:

Darxon so‘z boshlab dedi:

“Men va qizimdan boshqa
O‘lmagan qul qolmadi

Kirib shunchalik yoshga
Koʻrmovdim shuncha qonni
Shuncha zoru–figʻonni.
El xonumonin butkul
Sen oʻt yoqib etding kul.
Senday qonxoʻr zolimdan
Qolmasin deb biror zot
Bosh koʻtardik, zulmdan,
Boʻlmoqchi edik ozod”.

Isyon sabablari xonning zolimligini fosh etib tashlaydi, xonga nisbatan kitobxonlarning nafratini oshiradi. Jambilning zolim xoni Darxonni oʻldirgach, Oygulga : “menga xotin boʻlursan “ deganda Oygul :

Taqdirim yor boʻlsa–yu
Fursat qulay kelsa–yu,
Seni agar oʻldirsam,
Tanangga xanjar ursam,
Dunyoda eng baxtiyor,
Odam boʻlardim, nomdor.

deb gʻazab bilan zolim shohga javob beradi.

1942 yilda H.Olimjon “Jangchi Tursun” balladasini yaratdi. Vatanning har bir tuprogʻi muqaddas. Uni asrash, himoya qilish, kerak boʻlsa fido qilish gʻoyasi balladada oʻz ifodasini topgan. Shoir balladani yozishdan bir oy oldin “Onaning nomusi” ocherkini yozib, harbiy xizmatdan qochgan Ortiqning onasi Iqlimaxonning “qochib tirik qolgandan oʻlganing yaxshi ” degan oʻzbek ayolining vatanparvarligi hikoya qilingan edi. Bu voqea balladaning yaratilishi uchun turtki boʻldi. “Jangchi Tursun” balladasi shoirning mahorat bilan yaratilgan asaridir.

Balladada lirik qahramon shoirning oʻzi, hikoyachi sifatida gavdalanadi. Shuningdek, Tursun va Ona obrazi mavjud. Voqea front va mamlakat ichkarisida sodir boʻladi. Tursun oddiy jangchi. Biroq u Vatan oldidagi burchini unutadi, oʻz hayotini saqlab qolishga, qochishga harakat qiladi. Shu payt onasidan xat keladi. Shu xat bilan asarning tuguni tugiladi, ona oʻgʻliga murojaat qiladi:

Qayoqqa chekinasan
Bormi keraksiz yering
Ne uchun odam boʻlding,
Kelmasang dushmanga teng.

Ona oʻgʻliga insoniylik burchini eslatadi, or–nomusli, Vatanni himoya qilishga daʻvat etadi:

Xalqing uchun toʻkkali
Yoʻqmi bir qoshiq qoning
Vatanning tuprogʻidan
Shirin ekanmi joning.

Ona soʻzlari jangchiga buyruqdek tuyuladi, qoʻrquvni unutadi. Ona mardlik va vatanparvarlik timsolidir:

Oʻgʻlim, bu ogʻir kunlar
Bir kun oʻtib ketadi.
Lekin qoʻrqoqning shaʼni
Ming yillarga oʻtadi.
Shuning uchun jangda mard

Bo'lganing yaxshi menga,
Qochib tirik qolgandan,
O'lganing yaxshi menga.

Garchand u bugun oramizda bo'lmasa ham uning ijodiy asarlari, yaratib ketgan boy ma'naviy merosi hamon muxlislari qalbida. Sevimli shoirini also unutmaydi. Xalq baxtini kuylagan shoir shunday degan edi:

Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q,
Yov qo'lida taslim ham bo'lganim yo'q.
Men elimning yuragida yashayman,
Erk deganning tilagida yashayman.

HAMID OLIMJON IJODINI O'RGANISH ORQALI KO'MAKCHI MAVZUSINI MUSTAHKAMLASH

Maftuna Isroilova, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(FhD) F.Jumayeva

Bu darsning asosiy maqsadi – ko'makchilar, ko'makchi vazifasidagi so'zlar, ularning turlari, qo'llanilishi va imlosi yuzasidan egallangan bilimlarni mustahkamlash; o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ularning qalbiga istiqlol, vatan, vatanparvarlik tushunchalarini singdirish. Dars musobaqa–o'yin usulida o'tkaziladi. O'qituvchi dars “Zakovat”, “Labirint”, “Mashqlar”, “O'yla izla top” va testlar sahifasidan iborat bo'lishini e'lon qilib o'quvchilarni uch guruhga ajratadi.

O'qituvchi birinchi guruhni “Do'stlik” deb nomlab, bu guruh a'zolari Hamid Olimjonning hayot yo'li haqida, gapirib berishlari va nutqida ko'makchilardan qanchalik to'g'ri va unumli foydalanishiga e'tibor berilishini uqtiradi. Ikkinchi guruh “Mehr” deb nomlanadi. Bu guruh a'zolari “Mehr” daraxtidagi savollarga javob berishlari kerak. Uchinchi guruh “ERK” deb nomlanadi. Bu guruh “Labirint” dan foydalanib, ko'makchilarga qaysi kelishikdagi so'z bilan bog'lanib kelishini topishi va ushbu ko'makchilarga misollar keltirishini tushuntiradi. Savol va topshiriqlar yuzasidan har bir to'g'ri javob uchun yorug'lik ramzi bo'lgan quyosh surati tushirilgan belgi, qoniqarli javob uchun baxt ramzi–Humo qushi surati tushirilgan belgi, qoniqarsiz javob uchun gul surati tushirilgan belgi berilishi tushuntiriladi.

“ZAKOVAT” sahifasini “DO'STLIK” guruhi a'zolari Hamid Olimjon hayot yo'li haqida o'z nutqlarini boshlab beradi. 1–o'quvchi:

Istedodli shoir, dramaturg, tarjimon, adabiyotshunos, folklorshunos olim shu bilan birga davlat va jamoat arbobi bo'lgan Hamid Olimjon 1909–yil 12–dekabrda Jizzax shahrida tug'ilgan. Ko'makchilar quydagilar: bilan, birga.

2–o'quvchi:

Narimonov nomidagi boshlang'ich maktabni tugatgandan so'ng, avval Samarqand pedagogika bilim yurtida, keyin O'zbek Pedagogika akademiyasida tahsil oldi. Ko'makchilar quydagilar: song.

3–o'quvchi:

U iste'dodli va qobiliyatli bo'lganligi uchun qisqa vaqt ichida O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasining rahbari bo'ldi va o'ttiz uch yoshida akademik unvonini oldi. Ko'makchilar quydagilar: uchun, ichida.

4–o'quvchi:

Uning onasi Komila aya yosh Hamidga ertak–dostonlar haqida soʻzlab berar va bu orqali uning tasavvurida qadimgi asar qahramonlari qayta jonlanardi. Koʻmakchilar quydagilar:haqida, orqali. Xuddi shu yoʻsinda guruhdagi barcha oʻquvchilar ishtirok etadi.

Oʻqituvchi: “Ofarin, guruhning har bir oʻquvchisi oʻz nutqida koʻmakchilardan unumli va oʻrinli foydalandi, shuning uchun bu guruh aʼzolariga “Quyoshcha” taqdim etiladi”– deydi.

Shundan soʻng “Mehr” daraxti bargidan tanlab olgan savollariga javob hozirlab turgan “Mehr” guruhi aʼzolari oʻyinni boshqaradi. Ular ham oʻz nutqlarida koʻmakchilardan foydalanib ularning turini koʻrsatishlari kerak boʻladi. Bargdagi savol va topshiriqlar va ularga javoblar quyidagicha boʻladi: 1–savol:

Tanlarida bir umr, Oʻt lovullab turardi. Qilichday oʻtkir edi, Rustam kabi zoʻr edi.

Javob: kabi koʻmakchi sifatida qoʻllangan, sof koʻmakchi.

2–savol:

Oltinlarning barini, Toʻplab yosh–u qarini. Chaqirib goʻzal Oygul, Yashnab misoli bir gul. Baxtiyori yonida, Otash yonib qonida.

Javob: misoli – vazifadosh koʻmakchi.

3–savol:


Shundan soʻng bizning Oygul, Yashnab misoli bir gul. Oʻz Baxtiyori sari Oʻz sevgan yori sari Susambilga yoʻl oldi. Javob: soʻng, misoli –vazifadosh koʻmakchi, sari sof –koʻmakchi.

4–savol:

“Oygul va Baxtiyor” dostonida sandiqni kim tutib oladi va qanday yoʻl tutadi?

Javob: Oʻtinchi chol koʻrib qolib sandiqni oʻroq bilan ochmoqchi boʻladi, odam ovozini eshitib, uni bozorga olib boradi. Koʻmakchi–bilan

Oʻqituvchi savollarga aniq javob uchun bu guruhga ham “Quyoshcha” taqdim etib navbatni “Labirint” shartiga beradi. Bu sahifada shakllar orqali oʻquvchilarning diqqati, eʼtibori va koʻmakchilar mavzusi yuzasidan egallagan bilim, koʻnikma va malakalari sinovdan oʻtadi.



“Labirint” sahifasidagi shartni bajarish va tuzgan misollarini o‘qib berishni “Do‘stlik” guruhi a‘zolari boshlab beradi.

1–guruh o‘quvchisi: To‘ydan keyin nog‘ora chalmoq–nodonlar ishi (Maqol). Bu gapda “keyin” so‘zi ko‘makchi vazifasida qo‘llangan.

2–guruh o‘quvchisi: Qalam bilan chizdim. Bunda “bilan” ko‘makchisi qo‘llanilgan.

3–guruh o‘quvchisi: Yil sayin o‘zgardi. Bu gapda “sayin” sof ko‘makchisi qo‘llanilgan.

O‘quvchilar tomonidan keltirilgan eng sara misollar yozuv taxtasiga yoziladi va imlosiga, husnixatiga e‘tibor berildi.

Navbat “Mashqlar” sharti. Bunda tushirib qoldirilgan ko‘makchilarni o‘z o‘rniga qo‘yish lozimligi o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga tushuntirildi.

“Do‘stlik” guruhi

Hamid Olimjon ... yozadi:“Bilmadim,jahon adabiyoti tarixida Hamid Olimjon bilan Zulfiyaga ... ikki shoirning_sevgi va muhabbatiga asoslangan boshqa oila bo‘lganmikan? Agar bo‘lmagan bo‘lsa, shunday ananani bizning ikki mashhur vatandoshimiz Hamid Olimjon bilan Zulfiya boshlab berganlar “ – deb fikr bildirgan Naim Karimov. Ko‘makchilar:haqida,qadar.

“Mehr” guruhi a‘zolari

“Men, –deb yozadi Zulfiya, – Hamid Olimjonni ilk dafa o‘sha yilda ko‘rganman. Biz, yigirma chog‘li adabiyot ixlosmandlari, seminar mashg‘ulotlariga yig‘ildik. Mashg‘ulotlarni Hamid Olimjon bilan Uyg‘un boshqarardi. Ularning o‘sha paytdagi faqat o‘ziga ishonadigan kishidagina bo‘ladigan bosiq, mag‘rur, kuchli qiyofalari meni hozirgacha hayratga soladi. Ular o‘zlarini nihoyatda erkin tutardi...

Yashirib o‘tirmayman. Hamid Olimjon ilk ko‘rishuvlardan o‘q ko‘zim ... ko‘nglimga o‘tdi. Men juda yosh hissiyotim ... uning keng qalbi, ulkan iqtidorini tuydim”. Ko‘makchilar: orqali,bilan

“Erk” guruhi azolari

“Hamid Olimjon tug‘ma va nodir talant edi , deb yozgan edi Mirtemir. Uning qonida, o‘zligida, ko‘z qorachig‘ida, to‘qson ikki tomirida tug‘ma bir zukkolik ... bilgichlik, burrolilik va shoirona bir sajiya, nurbaxshlik, yorqin qalb, odob ayon, peshonasida va yirik ko‘zlarida ulug‘lik ochiq–oydin edi. Uning bilmagani oz, o‘qimagani kam edi. Hammadan , har narsadan xabardor, qisqaroq aytganda, chin ma‘nosi ... o‘qimishli qalamkash edi”. Ko‘makchilar: singari, bilan

Guruhlarning topshiriqni qay xilda bajarganliklari nazorat qilinib,”Quyosh”, “Humo qushi” taqdim etiladi.O‘quvchi mashqni bajargunlariga qadar o‘qituvchi ularning daftarlarining tozaligi, husnixati, imlosini ko‘zdan kechiradi. Shundan so‘ng navbat “O‘yla izla top” sahifasiga berildi.Bu sahifa shartiga ko‘ra “Sehrli sandiqcha”dan har bir guruhdan bir a‘zo topshiriqlar bitilgan o‘yinchoqlarni tanlaydi.

“Erk”guruhi a‘zosi tanlagan topshiriq:Qopchadagi ko‘makchi mavzusiga oid 10 ta savolni komyuterga kiriting (“Erk” guruhi a‘zosi zudlik bilan topshiriqni bajarishga kirishdi). “Do‘stlik”guruhi a‘zosi tanlagan topshiriq komyuterga kiritilgan savollarga javob berishdan iborat edi. “Mehr” guruhi a‘zosi ham o‘zi tanlagan topshiriqqa binoan komyuterda berilgan savollarga raqobatdosh guruhning javoblarini tekshirishi kerak edi.

Shundan so‘ng guruhlar quyidagi test topshiriqlarini bajarishdi.

1. Sababli, tufayli, uchun ko‘makchilari qanday ma‘noni anglatadi?

A) fikr mavzusi ma‘nosini B) maqsad ma‘nosini S) o‘xshatish, qiyoslash ma‘nosini

2. Ost, yon, ust, ko‘ra, qarab, oldin, avval ko‘makchilari vazifasiga ko‘ra qanday ko‘makchilar?

A) sof ko‘makchilar B) vazifadosh ko‘makchilar S) ko‘makchilar qatori berilmagan

3. Faqat sof ko‘makchilar ishtirok etgan qatorni toping?

A) ko‘ra, sayin, uzra, ustida B) haqida, tufayli, qadar, sari

S) uchun, bilan, avval, so‘ng

4. Nuqtalar o‘rniga kerakli ko‘makchilarni qo‘ying?

Alam ... eding yor, Taqdir seni ezarkan. Dudoqlardan uchib zor, Dillardan qon sizarkan.

A) singari B) uchun S) bilan

5. Nuqtalar o'rniga kerakli ko'makchilarni qo'ying?

Sirli sen, chayqal, ey go'zal dilbar, Sho'x va o'ynoq qiz albomi Ko'kragingda hayot degan oshiq. Ko'p asr sayragan va to'kkan zar.

A) yanglig' B) orqali S) muvofiq

6. Ko'ra, qaramay, yarasha, asosan, doir, muvofiq ko'makchilari qaysi kelishik shaklidagi ismlarga qo'shiladi?

A) jo'nalish kelishigi shaklidagi ismlarga B) chiqish kelishigi shaklidagi ismlarga S) qaratqichi kelishigi shaklidagi ismlarga

7. Atalganlik, yo'nalganlik, sabab ma'nosini ifodalovchi ko'makchi berilgan qatorni toping? A) uchun B) bilan S) qadar

8. Shundan beri inson tinmayin, Shu yer uzra ter to'kar hamon. Yerni go'zal qilgani sayin, Go'zal bo'lar o'zi ham inson. Ko'makchilar qatorini toping?

A) yer uzra, qilgani sayin B) shundan beri, shu yer S) inson tinmayin, to'kar hamon;

(Testdagi noto'g'ri javoblar yoniga o'quvchilar qizil rangda belgi qo'yib bordilar.)

Dars so'ngida guruhlar a'zolari Hamid Olimjon she'riyatida ko'makchilar ko'p ishtirok etgan she'riy misralardan namunalar keltirdi.

1-o'quvchi:

Sen bo'lmasang, shu och to'lqinlar

Ko'rinmasdi sira ko'zimga,

Sen bo'lmasang o'zimning ko'nglim

Kirmas edi aytgan so'zimga.

2-o'quvchi:

Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam,

Labing yaprog'idan tomganki go'yo qatra bol bo'lsam.

Butog'ingga qo'nib bulbul kabi xonish qilib tunlar,

O'pib g'unchangni ochmoqliqqa tong chog'i shamol bo'lsam.

3-o'quvchi:

Alam bilan eding yor,

Taqdir seni ezarkan.

Dudoqlardan uchib zor,

Dillardan qon sizarkan.

Shundan so'ng hammaning e'tibori kompyuter topshiriqlarining ijrosiga qaratiladi."Erk" guruhi savollarni kompyuter xotirasiga xatosiz kiritganligi uchun "Do'stlik" guruhi savollarga to'g'ri javob berganligi uchun,"Mehr" guruhi javoblarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlayotganligi uchun taqdirlanadi.

Dars so'ngida o'qituvchi tomonidan har bir o'quvchi bergan javobiga yarasha baholanadi. Dars uyga vazifa berish bilan yakunlanadi.

HAMID OLIMJON IJODIDA VATAN MADHI

**O'g'iloy Safarova,
JDPI talabasi**

Har bir asrning o'zining zabardast, unitilmas shoirlari bo'lganidek. XX asrning takrorlanmas, baxt va shodlik kuychisi Hamid Olimjon iste'dodli shoir,

dramaturg, olim va jamoat arbobidir. Barcha zamonlarda kuylangan vatan, ozodlik, mustaqillik mavzulari bu davrda yanada dolzarb ko‘rinish oldi. E’tiborlisi shundaki XX asr she’riyatida har bir davrga xos xususiy jihatlar aniq ko‘rinsada, Vatan mavzusidagi asarlar she’rlarning mazmun va mohiyatida ichki bir umumiylik, yaxlitlik sezilib turadi.

Bu mohiyat–Vatanni mustamlakachilik zanjiridan qutqarish millatni hur, ozod ko‘rish istagining goh ochiq–oshkor, gohida esa yashirin ifoda topganligida bilinadi. Har bir kishining qalbini larzaga sola oladigan yuksak his bu–Vatan tuyg‘usi. Vatanga bo‘lgan muhabbat bu har bir davr shoirlari qalbida mardonavorlik tuyg‘ularini yuksaltiradi. Shuni aytib o‘tishimiz kerakki, xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniy merosi, urf–odat va an’analarini asrab–avaylash va rivojlantirish, mustabid tuzum davrida taqiqlab qo‘yilgan, Navro‘z bayrami, Ramazon va Qurbon hayitlarini nishonlash, dinga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni qaror toptirish–bularning barchasi taqiqlangan. Bizning xalqimiz sabr–bardosh, yaxshilik, osoyishtalik, boshqa xalqlarga nisbatan xayri–xohlik ruhida tarbiyalangan. Xalq qalbining tub–tubida yillar davomida armon bo‘lib yotgan dard va iztiroblar, orzu–intilishlar o‘z ifodasini topdi. Mana biz – mustaqillik yoshlari tinchligimizning qadriga yetishimiz lozim, qo‘lni qo‘lga berib yurtimiz ravnaqiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz darkor. O‘sha davr qanday tahlikali zamon bo‘lishiga qaramasdan shoirlarimiz, yozuvchilarimiz yurt ozodligi, unga bo‘lgan muhabbatlari haqida yozishdan bir lahza to‘xtashmadi. Shoir yo‘qki, bunday yuksak mavzuda ijod etmagan, “o‘z yurtining go‘zalligi”ni tarannum etmagan.

Ana shu davrda (1939 yili) Hamid Olimjonning “O‘zbekiston” she’ri yozildi. She’rni ona yurtga qasida deb nomlash mumkin.

...O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,
Dostonlarda bitgan guluston,–
O‘zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur
Chiroylidir go‘yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin,
Qorli tog‘lar turar boshida
Gul vodiylar turar qoshida...

Ushbu misralarni o‘qishimiz bilan ko‘z o‘ngimizda sehrgar tabiatning yana bir mo‘jizasi ... Quyoshli o‘lka, yashillikka burkangan keng yaylov, uning bag‘rida esa sharqirab oqayotgan daryolar, yuqoriroqda esa qordan qalpoq kiygandek viqorli tog‘lar huddi musaffo osmonga tutashib ketgandek gavdalanadi. Bu O‘zbekistonimizning hech bir qiyosi takrorlanmas ekanligini, aslo bunday yurt topa olmasligingizni o‘z misralari orqali H. Olimjon bizga yoritib beradi. Shuni aytib o‘tish kerak, “O‘zbekiston” she’rida Hamid Olimjon o‘xshatish, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalaridan ustamonlik bilan foydalangan. “O‘zbekiston” she’ri peyzaj lirikasida yaratilgan nodir asar hisoblanadi. Bu she’rni kekxa–yu yosh birdek sevib o‘qiydi. Hamid Olimjon qay bir mavzuda qalam tebratmasin, barcha asarlarida ko‘tarinki ruh balqib turadi. Jumladan, “Baxtlar vodiysi”, “O‘rik gullaganda”, “Daryo tiniq osmon beg‘ubor” kabi she’rlarida ham yurtga bo‘lgan muhabbat o‘z aksini topadi. Oradan o‘ttiz yil o‘tib, 1969–yili A.Oripovning “O‘zbekiston” she’ri e’lon qilindi. Ushbu asarlar nomlanishi va umumiy ruhi bilan

bir–biriga yaqin. Ushbu she’rda A. Oripov o‘tmish, ajdodlar va shonli tarix bilan faxrlanish tuyg‘ularini ochiq ifodalagan.

... Ko‘klamingdan olib sururni
Dovrug‘ soldi ustoz Olimjon,
G‘afur G‘ulom tuygan g‘ururni
Qilmoq mumkin dunyoga doston.
Olis tarix qadamim manim,
O‘zbekiston Vatanim manim.

Ushbu parchalarni o‘qishimiz bilan shuurimizda Hamid Olimjonni Abdulla Oripov o‘ziga ustoz deb bilishi, qolaversa, H. Olimjon ko‘klam kabi o‘zining nodir asarlari bilan o‘z nafasini barchaga his etdirib ketdi degan fikr o‘z o‘rnini topishi barchamizga ayon. Zero, Hamid Olimjon o‘zbek adabiyotiga o‘zgacha surur olib kirdi. Hamid Olimjonning har bir yaratgan asari takrorlanmas, nodir boylikdir. Hamid Olimjon serqirra ijodkor bo‘lganlar she’rlari XX asrda yozilgan bo‘lsada bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan barchaga birdek yoquvchi she’rlar sirasiga kiradi. Biz bo‘lajak pedagoglar kelajakda vatanimiz yutuqlarini jahon minbarlariga olib chiqadigan farzandlarni tarbiyalashni oldimizga buyuk maqsad qilib olmog‘imiz lozim. Buning uchun biz mana shunday bir-biridan ma’nodor va beqiyos asarlarni o‘quvchilar shuuriga to‘g‘ri yetkazib bera olishimiz kerak.

Darhaqiqat, har qaysi shoir ijodi abadiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”– Toshkent: “O‘zbekiston” 2011–yil, 14,15–b.
2. Internet sayti Ziyo. Net

EDUCATIONAL HUMAN CREATIVITY AND THE IMPORTANCE OF EDUCATION OF YOUNG PEOPLE IN XX LITERATURE

Nodira Eshkuvvatova, Rano Qulmurodova

Students of Samarkand Institute of Economics and Service

Lyric is a popular type of popular literature in every national literature. When we say Uzbek literature, we first see the ghazels of Navoi and the poems of Pushkin in Russian poetry, and these poems and poems start to sound in our ears.

In the twentieth century, when Uzbek poetry changed from traditional Aruz to weight to folk art, Cholpon started new Uzbek lyrics with poems like «Beautiful». His lyrical poems have shown the great potential of the Uzbek literary language and the richness of forms and means of Uzbek poetry. After Chulpon the best examples of the Uzbek lyric were created by his followers. Among the poets who have made a significant contribution to the development of the Uzbek lyric is the work of Hamid Olimjan.

Hamid Olimjan is not only a lyricist, he is also known for his poems “Aigul and Bakhtiar”, “Semurg”, “Zainab and Omon”, “Tears of Roxana” and “Mukanna” poetic tragedy. He was also a translator and literary critic.

The poet's way of life and creation. Hamid Olimjan was born on December 12, 1909, in Jizzakh. When his father died at the age of four, his grandfather was brought up. The great–grandfather was a well–educated man, and the famous bake Fozil Yuldashev came to visit his friends in Jizzakh. The whole song listened to the whole story and the poems he spoke with. The mother of a future poet, Kamila

Ayya, is the “mine” of folk tales, and Abdulhamid's enthusiasm for literature has grown under the influence of these two sources¹⁹.

There is another important factor in the formation of a future poet. This is the 1916 Jizzakh uprising. The capture of Jizzakh, the destruction of a rampart by Abdulhamid, and the disappearance of their families in the desert have left a lasting impression on him. As a child, he saw and felt that there was more violence and violence in the sky than in the glistening sky.

Abdulhamid graduated from a full-time secondary school opened in Jizzakh in 1918–1923. He published his first work poems in 1925. began writing while in high school. His first poem «Someone» was published in the Zarafshan newspaper in 1926. Soon he published a large collection of poems “Spring” (1929), signed by Hamid Olimjan. His next collection of short stories (1930), Fire Hair (1931), Race (1932), Poems, River Night (1936), Happiness (1940) books of poetry were published. Hamid Olimjan gained fame as a gifted poet during the pre-war period²⁰.

In 1931, Hamid Olimjan graduated from the Pedagogical Academy and moved to Tashkent. Served as a responsible secretary in “Young Lenin” newspaper, “Construction” and “Uzbek Soviet Literature”. From 1932 to 1937, before being fired as a “nationalist”, he worked at the Scientific Research Institute of Cultural Construction. After a few sluggish waves, in early 1938, Hamid Olimjan was recruited for the Teaching and Publishing Publishing House. In November of the same year, he was appointed secretary of the Navoi Committee, which was formed. In April 1937 he was appointed secretary of the Board of the Writers' Union of Uzbekistan²¹.

The poetry of Hamid Olimjan originated in the early 30's and absorbed the spirit of the period. His poems like The Iron Throne, What Happens Us to America, and The Valley of Happiness, and the Death Enemy epitomize the era of class struggle and socialist construction. But in the mid-thirties, with the appearance of Hamid Olimjan's «lyrical» samples, his lyrical talent began to be revealed with chameleon flowers. Hamid Olimjan with the best poems of his time introduced the Uzbek lyric with beautiful human feelings and experiences, natural landscapes, enriched the artistic potential of Uzbek poetry and gave him a charming musical charm and charm. The Hamid Olimjan's Lyric has served as a school of art for the next generation of Uzbek poets. At this point, we were allowed to quote the poet's poem “When the pain is in the throat”.

A bush in front of my window
The throat was white.
Decoration of the branches
In the morning he said the name of life
And the first breeze in the breeze
The taste of the blossomed flower ...²²

¹⁹ “Uzbek writers” (by S. Mirvaliyev, R. Shokirova, Tashkent, Gafur Gulom Publishing House 2016). 36 b.

²⁰ <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/hamid-olimjon-1909-1944/?imlo=1>

²¹ <https://arboblar.uz/uz/people/khamid-alimdzha>

²² <http://hozir.org/hamid-olimjon-1909-1944.html>

At present, the youth of our country with their knowledge, talents and innovative achievements in all spheres increase the glory of our Motherland. However, it is worth noting that many of our young people have a place in the literature and information technology instead of their interest in fiction. This prevents them from having an impression of the life and work of many famous and well-known poets and writers in the history of our country and has a negative impact on their educational environment and world outlook. This can be a great loss for the future of our country because our youth is the future of our country: the more they become perfect people, the more successful our lives will be.

In order to prevent such problems and to enhance the love of reading for our youth and the interest in the work of Hamid Olimjan, we propose the following:

Creating doll theaters for children in preschools from the works of Hamid Olimjan;

✓ Performance of poet and poet's works in secondary schools, poetry parties, movie sessions;

✓ Conducting student conferences, art evenings and competitions in higher education institutions;

✓ 3D Demonstrate movie theater and theater performances in 3D in order to appeal to the audience;

✓ Organization of tours in foreign countries with the participation of our actors to promote Hamid Olimjan's works around the world;

✓ Translating the works of the writer and poet into foreign languages and selling them abroad.

In short, the more a person becomes involved with fiction, the more genuine human qualities will be formed, and the greater will be love for the country, a broad outlook, and intellectual potential.

HAMID OLIMJON IJODIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI AN‘ANALARI

**Sulaymonova Tanzila,
JDPI talabasi**

Xalq og‘zaki ijodining har bir janri har bir xalqning dunyoda borligini eslatib turuvchi, xalq vakillarining asriy orzularini o‘zida jamlagan hamda xalq farzandlarini ajdodlarga munosib avlod sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiluvchi asarlardir. Aytish joizki, vatan, ona haqida qo‘shiq kuylagan ko‘pgina qo‘shiqchilarimiz, ularning tasvirini rangli bo‘yoqlarda tasvirlagan rassomlarimiz bo‘lmaganidek, o‘z ijodida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalangan, ularning sodda, tushunarli va xalqchilligidan ta’sirlanib, undan andoza olgan holda ijod qilgan shoir va yozuvchilarimiz ham talaygina. Xuddi shu ma’noda, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini eshitib, ulardan ilhomlanib o‘sgan, xalqimiz sevgan shoirlarimizdan biri Hamid Olimjondir.

U 1909–yil 12–dekabrda Jizzax shahrida dunyoga kelgan. Unda yoshligidan bobosi va momosi aytib bergan xalq og‘zaki ijodi namunalariga tegishli she’rlar va qo‘shiqlarning sirli sadolarini tinglab, undagi inja ma’nolarning tovlanishlaridan huzur topib adabiyotga mehr uyg‘ongan. Shoirning onasi Komila aya juda ko‘p doston va ertaklarni yod bilar edi. Ularni eshitib ulg‘aygan bo‘lg‘usi shoir xayolida qadimgi asarlar qahramonlari xayolan qayta jonlanardi. Dostonlarning shirali tili,

bir – biridan qiziq voqealari uning butun vujudini qamrab olardi. Hamid Olimjon bu zavqli tunlarni umr bo‘yi xotirasida saqlab qoldi va o‘zi yozgan dostonlardan biri – “Oygul bilan Baxtiyor”da esga oladi:

*Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko‘p ertak eshitardim
So‘ylab beraradi buvim.
Esimda o‘sha damlar:
O‘zi uchar gilamlar,*

*Tohir–Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh.
Buvimning har qissasi,
Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi.*

Shoirning bolalik chog‘laridanoq folklorga alohida mehr qo‘yishga, xalq shoirlari bilan ko‘p yillar davomida hamnafas, hamdard va ijodiy aloqada bo‘lishida bobosi Mulla Azimning o‘rni beqiyos. Chunki u Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li bilan shaxsan tanish, hayotda qadrdon va do‘st bo‘lgan. Xalq shoirining aytishicha, vaqti–vaqti bilan Jizzaxga borib, do‘stining ya‘ni Azim boboning uyida, bir hafta, ikki hafta turib, qadrdonlariga qo‘shiq aytib qaytgan. O‘z davrining dongdor kuychisi Fozil shoir bilan yoshlikdan shaxsan tanishgan bo‘lajak shoir qalbida she‘riyatga, folklorga bo‘lgan havas g‘unchalari uning qalbida adabiyotga, og‘zaki ijodga mehr uyg‘otib, keyinchalik shu sohaning jonkuyari va tadqiqotchilaridan biriga aylanishiga sabab bo‘lgan.

Anglash mumkinki, xalqona ohangda so‘zlash shoirning tabiatida azal–azaldan mavjud bo‘lsa, muhit uni xalq orzu – umidlarining kuychisiga aylantirdi. Hamid Olimjon hayotda va ijodda xalq baxshilariga, umuman, folklorga alohida mehr–muhabbat va samimiy hurmat bilan qaragan. Buni biz Fozil shoirga bag‘ishlangan “Kuychining xayoli”, Abdulla shoir Nurali o‘g‘liga atalgan “Do‘mbiraning maqtovi” she‘rlarida, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg yoki Parizod va Bunyod”, “Ikki qizning hikoyasi” kabi ertak dostonlarida yaqqol ko‘ramiz. Hamid Olimjon “Alpomish” dostonini o‘rganish va nashrga tayyorlash jarayonida uning til go‘zalligiga qoyil qoladi, ulardan o‘zining asarlarida juda o‘rinli va ijodiy foydalana oladi. Masalan, “Alpomish”dagi:

*“Yana bahor bo‘lsa, ochilar gullar,
Gulni ko‘rsa mast bo‘p sayrar bulbullar”*

singari misralar “Zaynab va Omon” poemasiida quyidagicha beriladi:

*Gul ochilar bahor chog‘ida
Va to‘lishar ona bog‘ida...*

Hamid Olimjon “Zaynab va Omon”dagi

*Kokillari uning tol–tol
Lablarida bitgan qora xol,
Bu dunyoga arziguday bor...*

kabi liriknafas misralarni ”Alpomish”dagi

*Kokillaring eshilgandir tol–tol,
Har toliga bersa yetmas dunyo mol,*

singari epik tasvirdan ijodiy foydalanganligini alohida ta‘kidlash lozim. Bunday misollarni shoir ijodidan juda ham ko‘plab keltirish mumkin.

Dono xalqimiz “Tabib tabib emas, boshidan o‘tgan tabib” deganidek, Hamid Olimjon xalq orasida yurib uning dardini tushungan, qalban his qilgan shoirdir. Binobarin, “shoir bo‘lib tug‘ilish kerak bo‘lsa, u taqdirda xalqchil ham bo‘lib tug‘ilish kerak” – degan edi V.G. Belinskiy. Hamid Olimjon V.G. Belinskiy orzu

qilgan shoirlardan edi. Uning shavq va sururga to‘la she‘riyati teran xalqchil hamdir. Hamid Olimjonning asarlarini xalqimiz vakillari sevib o‘qishiga sabab, avvalo, ularning xalqchilligi, xalq dardini aks ettirishi, sodda usulda berilishidir.

O‘z davrining peshqadam vakili, O‘zbekiston Qahramoni, xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov Hamid Olimjon haqida shunday deydi: “Men uni ustoz deyman. Meni ilk bor she‘riyatning sehrli gulbog‘iga g‘oyibona yetaklagan, xanda urib oqqan misralari yosh qalbimga shaloladay quyilgan, menga baxt va shodlikni kuylash san‘atini o‘rgatgan shoir she‘riy jo‘shqinlikning, shavq va ehtirosning timsoli bo‘lib qoladi. Hali ko‘p avlodlar uning satrlaridan zamonaning o‘tli nafasini tuyib, xalqning hur, baxtiyor ovozi eshitadi. Men uni ustoz deyman”. Hamid Olimjon aziz umrini, nodir iste‘dodini, bitmas–tuganmas kuch–g‘ayratini o‘z xalqiga baxshida etgan ulkan qalb egasi sifatida O‘ttiz besh yillik qisqa, ammo yorqin, sermazmun hayoti davomida yaratgan asarlari, amalga oshirgan ishlari, uning olib borgan jo‘shqin jamoatchilik faoliyati kishini hayratga soladi.

Hamid Olimjon adabiyotning turli janrlarida qalam tebratdi. Zamondoshlari hayotini haqqoniy aks ettirgan ko‘pgina masnaviylar, ocherk va hikoyalar yaratdi, drama janriga qo‘l urib, “Muqanna”, “Jinoyat” kabi sahna asarlarini yozdi, mumtoz adabiyotimizni sinchkovlik bilan o‘rganib, uning taraqqiyot qonunlari haqida teran va ko‘lamli fikr yuritdi. Uning o‘zbek adabiyoti tarixi, folkloristikasi, XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga oid ko‘plab tadqiqotlari hanuz o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Shoir sifatida uning asarlarini varaqlarkanmiz, poetik merosi xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot an‘analari bilan bevosita bog‘liq ekanini anglaymiz. Shoir xalq og‘zaki ijodi zaminida voyaga yetdi. Shu sabab xalq ijodining ta‘siri shoir asarlarining faqat vazniga, ohangigagina emas, balki uning barcha asarlari ruhiga ham singib ketgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, so‘zni oydin maqsad sari yetaklagan, ularning o‘zaro til topishishlari, bir–birlarini o‘zaro anglashlari uchun yo‘l ko‘rsatgan, so‘zlar ittifoqiga puxta zamin hozirlagan, qisqa qilib aytganda, og‘zaki ijod namunalari ta‘sirida ma‘nan va mantiqan “ko‘zi ochilgan” so‘zlar, g‘aroyib mo‘jizalar yaratib, og‘zaki ijod namunalari qolipidagi asarlari bilan kishini yoshlik davriga bir lahzaga bo‘lsa-da qaytara bilgan xalqimiz sevgan shoir, yozuvchi Hamid Olimjon o‘z asarlarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ta‘sir lanib, o‘quvchiga tushunarli, har tomonlama tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan shoh asarlar yaratgan bo‘lsa, uning baxti shundaki, shoirning o‘zi ko‘rmagan asrni, asrlarni uning asarlari ko‘rmoqda. Ha, chindan ham shoir asarlari bilan mangu tirik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. XX asr o‘zbek adabiyotida Hamid Olimjon ijodining o‘rni. Shoir tavalludi 100 yilligiga bag‘ishlangan respublika konferensiya materiallari. Qarshi 2009. 242 b.
2. Karimov N. Hamid Olimjon. Shoir hayoti va ijodidan lavhalar, T.: 1985. 248
3. www.literature.uz

ХУРШИД ДЎСТМУҲАММАД ТАЛҚИНИДА ҲАЁТ РАМЗИ ВА ФАЛСАФАСИ

Шоира Дониярова,
ЖДПИ профессори в.б,ф.ф.доктори в.б.,

Истиқлол даври адабиётининг янгиланиш тамойиллари бугунги кун насрида ҳам ўзига хос тасвирлар, талқинлар, бадиий ифода, бадиий шакл ҳамда қаҳрамонлар образида кўринади.

Жумладан, Омон Мухтор, Шукур Холмирзаев, Хуршид Дўстмуҳаммад, У.Ҳамдам, Л.Бўрихон каби ёзувчиларнинг яратган асарлари хажман кичик бўлса–да, фалсафий мушоҳадаларга бойлиги ва теран миллий руҳ билан суғорилганлиги боис бугунги кун ўқувчисининг диққат эътиборини тортмоқда. Ҳозирги адабий жараённинг ўзига хослигини белгиловчи ана шундай поэтик янгиланиш эпкинининг бугунги насримиздаги кўринишлари адабиётшуносликда ҳам анча баҳсу мунозарааларнинг туғилишига асос бўлди. Хусусан, филология фанлари доктори, профессор С. Содиқов ўзининг "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетасида (2000 йил 8 декабрь сонисида) эълон қилинган мақоласида истеъдотли адиб Х. Дўстмуҳаммадовнинг "Бозор" номли романи ҳақида анча қизиқарли фикрларни ўртага ташлади. Адабиётшунос олим "Бозор" романида бозор тимсоли инсон ҳаётининг рамзи сифатида намоён бўлади" деган ҳақ гапни айтган. Дарҳақиқат, ёзувчи ўзига хос маҳорат билан ҳаёт ҳақидаги фалсафий қарашларини бадиий тимсоллар пардасига ўраган ҳолда тасвирлаб беришга эришган. У ҳаётнинг турли – туман зиддиятлари, инсоннинг чалкаш тақдирларини Фозилбек тимсоли орқали зимдан кузатади. Асар шундай бошланади: "Қани, кеп қолинг, асалидан оп қолинг! Асал бўлса сотармидинг, анойи?! Бешик борми, бешик?! Сумаги қолди, опоқи, сумаги!... Тери борми, тери? Тўйга қалампир ола кетинг!" Бизга маълумки, инсон дунёга келиши биланок ҳаётдан, нимадир олишга интилади, умр бўйи нималарнидир излаш билан машғул бўлиб ҳаёт кечиради. Бу ёруғ дунё ўзининг азалий ҳикматлари билан бамисоли бозорни эслатади .

Асарда бугунги кун муаммолари, ташвишлари, замондошларимизнинг дунёқараши ва руҳий оламида кечаётган ўзгаришлар, ўзликни англаш ва шахснинг ҳаётдаги ўз ўрнини ҳис этиши каби жиҳатларнинг ҳаққоний тасвирини кўрамыз. Романнинг асосий қаҳрамони Фозилбек идеал шахс. У ичмайди, чекмайди, фахш ишларга қўл урмайди. Ҳаётни ва одамларни зимдан кузатади. Атрофида содир бўлаётган воқеаларга муносабат билдиришга, ўз фикрини баён қилиш ва бирор ишга қўл уришга шошилмайди. У гарчи ҳамиша одамлар ичида бўлса–да, одамлардан, жамиятдан узилгандек кун кечиради. Кундалик юмуши эса бозор кезишдан иборат. Китобхон бу романни ўқиб тугатади ҳамки, Фозилбек нима касб билан машғул бўлганлигини билолмайди. Асарда тасвирланган воқеалар Фозилбекнинг ҳаёлида кечади ёки бевосита унинг гувоҳлигида берган воқеалар талқинидан иборатдир. Фозилбек ўзининг туғилишини эслаб қийналади. Ўзи туғилганида вафот этган онасининг ўлимига ўзини гуноҳкор деб билади. Шу сабаб қалбида дунёга келишидан норозилик ва гуноҳкорлик ҳисси жўш уриб, уни бетиним тақъиб қилиб юради. У туғилишини фожеа деб ўйлайди. Лекин ҳаётдаги фожеаларни кузатиб, кўнгли бироз таскин

топгандай бўлади. Очиғи, бу дарддан чалғийди. Ёзувчи идрокича, инсоннинг бу дунёга келишини ўзи бир фожеа бўлса, таваллуд дақиқаси ўлим сари қўйилган илк қадам эканлигини англашнинг ўзи ҳам нақадар оғирдир. Инсон боқий дунёдан фоний дунёга юзлангунига қадар йўл қўйган хатоларию нотўғри амаллари бу фожеалар занжиридаги учинчи халқа эканлигини рамзий бадий бўёқларда ишонарли тарзда тасвирлаган. Шундай экан инсон ҳар дақиқада огоҳ бўлмоғи лозим. Ташланган биргина нотўғри қадам ёки бир оғиз ёлғон гап инсонни фожеалар гирдоби сари етаклайди деган фикр асарнинг ўқ чизиғини ташкил этади. Х. Дўстмуҳаммад ўз асарида кўпгина фожеаларнинг заминини кўрсатишга ҳаракат қилган. Романда ўзига бир умрлик ҳамроҳ танлашда асосий эътиборни руҳий яқинликка эмас, балки тўй қилиш учун таклифнома тарқатишга қаратган кишиларнинг аччиқ қисматию бозор муаммолари ҳақида бош қотиришнинг мушкуллиги; тижорат аҳлининг характеридаги ўзига хос тубанлашиш; йиқилган от билан аравага нисбатан лоқайдлик; қисматига қамокда ўтириш ёзиғи битилган кишига ишончсизлик; хиёнат ва ёлғонга рўбарў бўлган киши тақдирига томошабинлик; вафот этган кишининг сўнги қисматига эътиборсизлик ва беписандлик каби иллатларга инсон аталмиш имкониятлари чекланмаган онгли мавжудоднинг турфа муносабатларини адиб ранг–баранг тасвирларда маҳорат билан чизиб беришга эришган. Бу тасвирлардан ташқари коса тагида нимкоса деганларидек, адиб рамзий бўёқларда туйғулар фожеасининг кўринишлари ҳақида ҳам ўзига хос шаклдаги маълумот беради. Асар бошидан охиригача Фозилбекнинг уйланиши билан боғлиқ муаммоларга алоқадор воқеалар тасвирдан иборат. Ёзувчининг мақсади эса икки ёшни қовуштириш эмас, балки икки киши жисмидаги руҳни бирлаштиришга қаратилган. Фозилбек ва Қадриянинг бирлашишдан мақсади ва адибнинг бу асарни ёзишда кўзлаган бадий ниятини Фозилбекни фозиллик, донолик ва зукколикнинг тимсоли қилиб яратиш бўлса, унинг жуфтиҳалолини маърифат ва қадриятнинг, инсон кадр–қимматининг бадий тимсоли сифатида гавдалантиради. Бу қадимий ва барқарор туйғуларни бамисоли инсонлар сувратига киргизиб, ҳаёт дея аталмиш бозорга, яъни одамлар орасига киритади. Қизнинг исми Қадрия эканлиги, унинг ўтмишида қандайдир бир сир борлигига ишора қилинишида ҳам катта маъно бор. Бизнингча, адиб бу ўринда халқимизнинг яқин тарихидаги кечмишлари, яъни шўро давридаги мафкуравий куллик кўланкаси бизнинг асрий қадриятларимиз ва миллий тарихимизга соя солиб турганлиги, маданиятимиз ва маънавиятимизга нисбатан ноодилона муносабатда бўлинганлигига ишора қилган. Ёзувчи буни миллат қалбидаги оғриқли нуқта сифатида тасвирлаган. Романда Фозилбек ва Қадриянинг оила қуришига хайрихоҳ бўлган бозорбоши Қосимбек образининг яратилиши ҳам адиб бадий ниятининг янада тўлақонли чиқишига хизмат қилади. Қосимбек аслида бозорни бошқариши, ҳар куни одамлар орасида бўлиши керак эди. Бироқ у уйига қамалиб олади–да, ҳеч ким билан суҳбатлашмайди. Ўз хаёллари ва ўз дарду дунёси билан банд бўлган бу одам аслида ҳеч ким билан гаплашишни истамайди. Чунки у бозордаги одамлардан безган. Одамларнинг маънавий бузилишидан, ўзаро кадр–қиммат, инсоф ва диёнат йўқолганлигидан қайғуга ботган бозорбоши ўз ҳасратлари оғушида гўшанишин бўлиб қолган эди. Қадрия билан Фозилбекнинг топишиши эса рамзий маънода ҳаётдаги адолат, инсоф, ҳалоллик, маърифатнинг

давомийлигига, эзгу туйғуларнинг умри боқийлигига ишора эди. Шу боисдан ҳам буларнинг топишишидан бозорбошининг кўнгли бироз таскин топади. Х.Дўстмуҳаммад бу асарда яна бир персонажни тасвирлар экан, исм замирига жо этилган рамзий маънони маҳорат билан ўз ўрнида ифодалай олган. Бу Фозилбекнинг жияни, Диёрбекнинг ўғли Аёнбек образидир. Аёнбек асарда фақат бир вазифани бажаради. Яъни ҳар куни бобосини сўраб келувчи кишини кўради. Бобосини сўраб келувчи бу киши Аёнбекдан бошқа ҳеч кимга кўринмайди. Бу ҳолатдан оила аъзолари ҳам сирли равишда қайғуга ботиб, саросимага тушишади. Асар охирида эса эндигина оёққа туриб, йўлакка чиққан Қосимбек ўша кишига дуч келади ва бозорбоши рўпарасида турган кишининг сўзсиз нигоҳидан умри поёнига етганлигини англайди. Бу тасвир бозорбошининг фоний дунёдан боқий оламга сафар қилишига бир ишора эканлиги ана шундан кейингина ўқувчига аён бўлади. Энди асардаги бир–икки жумла орқали берилган рамзий чизгилар ва тимсолий талқинларга эътибор берайлик. Сичқоннинг кўпайиши исрофгарчилик ва нопоклик ифодаси, бозор тимидаги сирли махлуқ эса инсон нафсининг тимсолий кўринишларидир. Бозор майдонининг чўкиши ҳаётнинг издан чиқиши ва инсониятнинг маънавий тубанлашувига ишора, ямоқчи ва терифуришларнинг кўпайиши (уларнинг "қўй териси бор, ямаб берайми?" деб қичқириб юриши) юзсизлик, бозор майдонлари ва расталаридаги беҳаёликлар, ўз манфаати йўлида виждонини сотишдан ҳам қайтмайдиган қаллобларнинг кўпайишининг аломати бўлса, Одам ўғирлаш инсон ҳаётининг кадрсизланишига ишорадир. Ёзувчи яратган "Вон Суу" образи эса неча–неча асрлардан буён авлоддан авлодга ўтиб келаётган эзгулик ва меҳр–муҳаббатнинг давомийлигини тامينлашга ҳаракат қилувчи аёл образидир.

Роман бошидан охиригача бозор, яъни ҳаёт ва инсон тақдирини кузатиш асносидаги тасвирлар билан йўғрилган бўлиб, унда руҳий таҳлил ва туйғулар тасвири бир меъёردа чизилган ва адиб бадиий нияти ўз ечимини топган. Х.Дўстмуҳаммаднинг "Бозор" номли бу романи нафақат истиқлол даври ўзбек адабиёти, балки замонавий жаҳон насри бадиий мезонларига ҳам жавоб бера оладиган асар сифатида дунёга келган. Бу, албатта ёзувчининг ўзига хос бадиий услуби ва маҳоратининг янги қиррасидир.

HIKOYA O‘QISH DARSLARIDA NUTQNI O‘STIRISH VA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Jumaniyozova Muhabbat,
UrDU dotsenti, f.f.n.
Mullayeva Madina–
UrDU talabasi**

Bugungi kunda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh vazifasi yosh avlodga ilm–fan asoslaridan chuqur bilim berish va ularning dunyoqarashini shakllantirish, ma’naviy–axloqiy kamolotga yetkazish yo‘llarini samarador qilish hisoblanadi. Shu bois hozirgi davrda boshlang‘ich ta’limda sinfda o‘qish darslarida quyidagi masalalarga e’tibor beriladi:

1. O‘quvchilarning o‘qish malakalarini o‘stirish. 2. O‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish. 3. O‘quvchilarda aqliy yetuklik, ma’naviy go‘zallik, jismoniy kamolotni tarbiyalash. 4. O‘quvchilarning odobli, axloqli, estetik didli

bo'lishga yordam berish. 5. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirish. 6. Ona tili va adabiyot bilan tanishtirish hamda ularga nisbatan muhabbat tuyg'ularini uyg'otish. (1)

Bulardan tashqari boshlang'ich sinf o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilar nutqini rivojlantirish va ularda nutq madaniyatini shakllantirish ham hisoblanadi. Ma'lumki, yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. (3.6) O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Bolalarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda "tilni sezish" shakllanadi.

Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular: 1. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab bolalarni adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi. 2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan bola yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki-so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi. 3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. (2.300)

Til kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir. O'quvchilar nutqini o'stirish va ularda nutq madaniyatini shakllantirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Nutq o'stirish va nutq madaniyatini shakllantirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini o'stirish va ularda nutq madaniyatini shakllantirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Bu vazifa boshlang'ich sinflarda badiiy adabiyot namunalaridan bo'lmish hikoya o'qish darslarining ham vazifasidir. Badiiy adabiyot, xususan, hikoyalar bolalarni axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalab, ularda madaniy xulq, insonga xos bo'lgan his-tuyg'u, narsa va voqealarga etiborli bo'lish, asar qahramonlarining olijanob fazilatlarini egallash kabi zarur malakalarni hosil etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tanlanadigan hikoyalar mazmunga boy, qiziqarli bo'lishi bilan

birga bolalarning ichki dunyosini boyitadigan, tabiyat va jamiyatga munosabatini tarbiyalaydigan bo'lishi zarur.

Hikoya o'qish darslarida undan olingan ozuqa bolaning kundalik hayotiga: o'qishga, o'yinga, mehnatiga, atrofdagilar bilan munosabatiga singdirila borishi lozim. Shuningdek o'qiliyotgan asardan faqat bolalarda o'qish ko'nikmasini takomillashtirish vositasi sifatidagina emas, balki ularning bilimlarini shakllantrish hamda tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish ta'limda juda muhimdir. Hikoya – bola nutqini o'stirish manbalaridan biridir. Uning serjilo, bola e'tiborini tortuvchi badiiy tasviriy vositalari uni nafasat olamiga yetaklaydi, tabiyat manzarasidan tortib, kichik bir epizodning shakli bolada qiziqish uyg'otibgina qolmay zero uning butun borlig'ini o'ziga rom etadi. O'ylashga, fikrlashga eng zaruri mushohada qilib, sabab va natijasini bilib olishga undaydi.

Hikoya tili bola nutqini o'stirishda hamda ularda nutq madaniyatini shakllantirishda bosh omillardan biridir. O'qituvchi hikoyaning tili ustida ham mustaqil ish olib borishi lozim. Bu bolalar nutqi va lug'atini boyitishda muhimdir. Bolalarda badiiy adabiyotga mehr–muhabbat hissini uyg'otish o'z navbatida, ularni badiiy adabiyotlarni mustaqil ravishda o'qishga undaydi. Chunki darsda vaqt va imkoniyat nuqtai nazaridan o'qituvchi barcha ishlarni to'la–to'kis bajarishga imkon topilmaydi. Shuning uchun bolaning savodi chiqishi bilan uni ko'proq mustaqil o'qishga, o'qiganlarini esa uqishga o'rgatish kerak.

Ma'lumki, og'zaki nutqning ichki mazmuni uning eshitalishida ifodalanadi. Bolaning o'qishda yoki namuna uchun o'qituvchining o'qib berishida shunday bir his–tuyg'u hosil etuvchi ohang, mayinlik, ifodalilik bo'lsinki bola eshitishdan charchamasin, ularda nutq madaniyatini egallashga ishtiyoq tug'ilsin. Bunga quyidagilar orqali erishiladi:

- nutq dinamikasini belgilovchi urg'uning o'rni to'g'ri belgilash;
- nutq ohangini to'ldiruvchi turli mimika, imo–ishoralarni o'rinli qo'llash;
- nutq sur'ati va ritmini belgilovchi pauza va urg'ularni to'g'ri qo'llash;
- ko'rgazma hamda texnik vositalardan mohirona foydalanish;
- bolalarda asar qahramonlarining ishlariga ishonch, mehr, sadoqat kabi hislarni paydo qilish bilan erishiladi.

Nutqning his–tuyg'u bilan sug'orilishi uning jozibador va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa nutq madaniyatini egallash shartlaridan biri hisoblanadi.

Hikoya o'qish darslarida o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlarning hammasi o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Hikoya o'qish darsidagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, hikoya yuzasidan suhbat va boshqalar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutq madaniyatini shakllantirishning vazifalari: 1) bolalar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash; 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish; 3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish; 4) bir qancha gaplardan iborta kichik “hikoyacha” (bog'lanishli nutq)ni og'zaki turli tuzish ko'nikmasini o'stirishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda bolalarning fikrlashi, og'zaki nutq tempi tez bo'lib yozma nutqi o'Ichovli bo'ladi. Og'zaki nutqda bolaga gap uchun so'zlar tanlash va ularni joy–joyiga qo'ya bilish bilangina ravon nutqqa ega bo'lish mumkin emasligini, fikrni nimadan boshlab, qanday davom ettirish va nima bilan tugatish,

ya'ni izchillikga rioya qilishni, so'zlagan vaqtda jumalarning o'zaro uzviy bog'liqligiga, munosibligiga e'tibor berishni o'rgatish zarur. Shu tarzda hikoya o'qish darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatiga e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi// Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent, “Nosir”, 2009.
3. Qo'ng'urov R., Begmatov E. va b. Nutq madaniyati asoslari.– Toshkent, “O'zbekiston”, 1992.

“BOBURNOMA”DA O‘ZLASHMA SIFATLARNING QO‘LLANISHI

**Sunatulla Soyipov,
JDPI dotsenti, f.f.n.**

O'zbek adabiy tili va fors tili sifat so'z turkumiga oid so'zlar ma'no va tuzilishiga ko'ra bir biriga aynan, monand bo'lib, mushtarak hisoblanadi. Ko'pgina forscha sifatlari o'zbek adabiy tiliga o'zlashib, hozirgi kunda ham o'z leksik ma'nosida qo'llanib kelinmoqda.

Shu sababli ham biz ushbu maqolamizni Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari tilida qo'llanilgan forscha sifatlarning leksik – semantik va gramatik tahlilini amalga oshirishga bag'ishladik.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qomusiy asari bo'lmish “Boburnoma”ni yozar ekan uning tilini ta'sirchan, sodda chiroyli va rang – barang bo'lishi ta'minlash maqsadida forscha asliy sifatlardan tashqari nisbiy sifatlardan ham o'z o'rnida unumli foydalangan. Shunday ekan, “Boburnoma” tilida arab tilidan fors tiliga o'zlashgan – i (iy) qo'shimchasi vositasida yasalgan nisbiy sifatlari juda ko'pchilikni tashkil etadi. Chunki asarda Bobur ko'plab tarixiy shaxslarga xarakteristika berishda uning tug'ilgan joyi nomiga – lik o'zbekcha nisbiy sifat yasovchi qoshimcha bilan bir qatorda – iy forscha nisbiy sifat yasovchi qo'shimchani qo'shgan holda qo'llaydi.

Masalan: “ Yana bir jins o'rik bo'lurkim, donasini olib ichiga mag'z solib kuruturlar, “subhoniyy” derlar, bisyor lazizdur”.(B.N.:36) “ Jangarilik rasmi Movarounnahrda shudur, Samarqand va Buxorada nomdor jangarilar aksar marg'inoniyydir”. (B.N.:38)⁶.

Birinchi gapida forscha “subhoniyy” nisbiy sifati qo'llanilgan. Ushbu so'z tarkibidagi “Subh” so'zi asli arabcha bo'lib, “tong, ertalab” kabi ma'nolarni anglatadi. “Subhoniyy” so'zi to'liqligicha “ertalabki, tongi” kabi ma'nolarni ifodalaydi. Shunday ekan ushbu gapdagi “subhoniyy” so'zi o'rikning bir turi nomini ifodalab kelmoqda. Hozirgi kunda ham ushbu meva “subhoniyy o'rik” deb ataladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, subhoniyy so'ziga, qanaqa? so'rog'ini berishimiz mumkin. Mazkur gapdagi “subhoniyy” so'zi bilan “o'rik” so'zi aniqlovchili so'z birikmasini tashkil etgan. Ushbu so'z birikmasidagi “subhoniyy” so'zi sifat bo'lib, o'rikning bir turi nomini anglatib kelmoqda.

Navbatdagi gapda “marg'inoniyy” so'zi qo'llanilgan. Mazkur so'z asosan shaxslarning kelib chiqish joyiga nisbatan ishlatilgan. Bunday holatni gapning mazmunidan ham bilib olishimiz mumkin. Mazmuni: “Jangarilik rasmi bularga

⁶ “Boburnoma”. Nashrga tayyorlovchi. Porso Shamsiyev. Toshkent., “Yulduzcha”, -B., 36, 38.

Movarounnahrda urfdir, Samarqand va Buxoradagi nomi chiqqan jangarilarning aksariyati margʻilonliklardir”.

Bundan tashqari fors tilida “pur” soʻzi mavjud boʻlib, u tilimizdagi “koʻp” soʻzi maʼnosiga mos keladi. Lekin mazkur soʻzni forslar koʻpincha ot soʻz turkumiga qoʻshib ham ishlatadilar. Otga qoʻshib qoʻllanganda bu soʻz oʻz leksik maʼnosini butunlay yoʻqotib – li nisbiy sifat yasovchi qoʻshimcha maʼnosini ifodalaydi. “pur” qoʻshimchali oʻzlashma soʻzlar hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham ayrim oʻrinlarda qoʻllaniladi. Masalan : “pur – maʼno “ kabi. Bunday forscha soʻzlardan Bobur “Boburnoma” tilida koʻplab foydalangan:

“Togʻ tarafidan bir ulugʻ shaxjuy oqar. Ushbu masjidning tashqari sahni nishebroq, serbargalik , pursoya, safolik, maydon voqe boʻlibtur”. “ Yaxshi qasaba voqe boʻlibtur, purneʼmat ; anori va urugʻi asru koʻp xoʻb boʻlur” (B.N.:164). “Necha yilkim, Astrobod hukumati Badiuzzamon mirzoda edi, havoli va havohisi va yigit yalangi bisyor purzavq va muharram oyining oʻni edikim, mundoq xushzavq va purfazilat va hasab va nasab bila orasta podshohzodani shahid qildi”(B.N.:264). ”Hindiston mamoliki purmardum va purhosil viloyat voqe bulubtur”. “Murabbose yomon emas xeyli purfoyd mevadur” (B.N.:129)⁷.

Forscha “pur” qoʻshimchali soʻzlar mazkur asar tilida 50 dan ortiq oʻrinda har xil soʻzlar (otlar) ga qoʻshib ishlatilgan. Biz ayrimlarini namuna sifatida keltirdik. Misol tariqasida keltirilgan gaplarning birinchisida “serbargalik, pursoya, safolik, maydon voqe boʻlibtur” kabi jumlar qoʻllanilgan. Ushbu jumlar hozirgi oʻzbek tilida ‘qalin bargli, soyali, toza havoli maydon joylashgan” kabi mazmuni anglatadi. Mazkur jumladagi “pursoya” soʻzi “soyali yoki sersoya” kabi maʼnolarni ifodalaydi. Asli “soya” soʻzi ham forschadir. Lekin hozirgi kunda ushbu soʻz har ikkala tilda bir leksik maʼnoda qoʻllanib kelinmoqda.

Ikkinchi gapda “purneʼmat” forscha nisbiy sifati qoʻllanilgan. Bu soʻz tarkibidagi “neʼmat” asli arabcha boʻlib, “foyd”, “sovgʻa” kabi maʼnolarni anglatadi. “Neʼmat” soʻzi oldidan “pur” qoʻshilib, “purneʼmat” shaklida oʻzbek tilidagi foydali soʻzi maʼnosida qoʻllanilgan. Ushbu gapning mazmunidan ”foydali”, yani ”purneʼmat” soʻzi gapda morfologik nuqtayi nazaridan nisbiy sifat, sentaktik jihatidan aniqlovchi boʻlib, bir necha xil mevalarning sifatini aniqlab kelgan.

Uchinchi gapda esa “purzavq va purzeb” soʻzlari qoʻllanilgan. Bobur oʻz asari tilida mazkur soʻzlarni xuddi hozirgi oʻzbek adbiy tilida anglatadigan maʼnosida qoʻllagan. Shunday ekan, forscha “purzavq” nisbiy sifati, ‘zavqli” “purzeb” esa “zebli, chiroyli “kabi maʼnoni anglatadi. “ Zavq” soʻzi asli arabcha boʻlib, “qiziq” kabi leksik maʼnoni ifodalaydi. Ushbu gapda “zavq” soʻzi koʻchma maʼnoda qoʻllanilgan. “Zeb” soʻzi esa asl forscha soʻz boʻlib, “zebo–chiroyli “ soʻzining “o” tovushi tushirib qoldirilgan shaklidir. Keyingi gapda forscha nisbiy sifatlardan “purfazilat” soʻzi qoʻllanilgan. Bu “soʻz asli arabcha boʻlib, “fazl”, yaʼni “bilim” soʻzidan yasalgan. Fazil soʻzidan yasalgan “Fazilat” soʻzi esa arabcha otlardan koʻplik soni yasovchi qoʻshimcha “ot” ning qoʻshilgan shaklidir. ”Fazilat” soʻzi toʻliqligicha leksik jihatdan “bilimlar” soʻzi maʼnosida oʻzbek tiliga tarjima qilinadi.

⁷ “Boburnoma”. Nashrga tayyorlovchi. Porso Shamsiyev. Toshkent. “Yulduzcha”, -B., 164, 264, 129.

Lekin ushbu soʻz asar tilida hozirgi oʻzbek tilidagi ”fazilat”li soʻzi maʼnosida qoʻllangan.

Navbatdagi gap Hindiston mamlakati xususida boʻlib, unda “purmardum” va “purhosil” kabi nisbiy sifatlar qoʻllanilgan. “Purmardum” soʻzi tarkibidagi forscha”mardum” leksemasi asli ot soʻz turkumiga mansub soʻz boʻlib u xalq, omma, odamlar kabi maʼnolarni ifodalaydi. “Purhosil” soʻzidagi “hosil” ham asli arabcha soʻz boʻlib “paydo qilingan narsa” kabi maʼnolarni anglatadi. Mazkur ikkala soʻzga forscha “pur” soʻzining qoʻshilishi natijasida undan nisbiy sifat yasalgan. Bu soʻzlar yuqorida keltirilgan “pur” soʻzi vositasida yasalgan yasama sifatlardan farqli ravishda sifatlar oldidan “koʻp” soʻzini keltirish orqali tarjima qilinadi. Natijada “purmardum” “kop’ xalqli” , “ purhosil” esa “koʻp hosilli” kabi oʻzbek adabiy tilidagi tuzilishiga koʻra murakkab sifatlar shaklida tarjima qilinadi. Mazkur soʻzlar qoʻllangan ushbu gapning mazmunini quyidagicha tushinish mumkin: “Hindiston mamlakati poyonsiz boʻlib, koʻp xalqli va serhosil viloyatlarda joylashgan”.

Keyingi iqtibos Hindiston mevalari murabbosining xususiyatlari haqida boʻlib, ushbu gapda forscha “pur” soʻzi vositasida yasalgan nisbiy sifatlardan “pur foyda” soʻzi qoʻllanilgan. “Foyda”soʻzi asl forscha boʻlib, hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham fors tilidagi maʼnosida qoʻllaniladi. Shunday ekan, “purfoyda’ forscha yasama sifati oʻzbek tilida “ foydali “ kabi maʼnoni anglatadi va xuddi shunday maʼnoda qoʻllaniladi.

Asar tilida shunga oʻxshash koʻplab forscha nisbiy sifatlar qoʻllanilganki, bu esa Boburning oʻzlashma soʻzlarni qoʻllash mahoratini namoyon etadi. U oʻz asari tilida forscha sifatlarni oʻz oʻrnida va kerakli joylarda oʻrinli qoʻllab, ular hisobiga asar tilining chiroyli, sodda, rang–barang va xalq tiliga yaqin boʻlishini taʼminlagan.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Bobur oʻzining barcha asarlari tilida forscha va arabcha soʻzlarni qoʻllash bilan birgalikda mazkur soʻzlarni oʻzbek adabiy tili leksik qatlamiga olib kirdi va bular hisobiga oʻzbek adabiy tilini boyitadi.

ФУРҚАТНИНГ ҲАЁТ ВА ИЖОД ЙЎЛИГА НАЗАР

**Нодира Соатова,
ЖДПИ доценти, ф.ф.н.
Шоҳиста Махамотова,
Жиззах шаҳар 6– мактаб ўқитувчиси**

Зокиржон Холмуҳаммад ўғли Фуркат қиска умри давомида кўп жиҳатдан ибратли, мукамал ва мароқли ҳаёт йўлини босиб ўтди. У ўзбекларнинг илғор маърифатпарвар шоири ва биринчи журналисти бўлди, юқори савиядаги ижтимоий–сиёсий, маданий–маърифий мақолалари билан жамият ҳаётига фаол аралашди. Бир сўз билан айтганда, Фуркат лирик шоир ва журналист, улкан сайёҳ ва тарихчи сифатида бой маънавий мерос қолдирган йирик сиймо сифатида донг таратган.

Мумтоз шеърятнинг деярли барча жанрларига мансуб қарийиб ўн икки минг мисралик назмий мероси, “Ахволот”, “Қавоиди Чин ва умуроти сиёсий” сингари салмоқли насрий асарлари, “Тўй хусусида”, “Аза хусусида”, “Гап хусусида” каби этнографик, арузга оид “Илми шеърнинг қоидаи авзонини

баёни” асарлари, ижтимоий–сиёсий мавзудаги публицистик мақолалари бунинг далилидир. Бундан ташқари, Ўзбекистон Марказий давлат архивида сақланаётган дастхатлари Фурқатнинг моҳир хаттот бўлганини кўрсатса, “Зубдату–л–ҳукамо” (“Ҳакимларнинг сараси”) дея шуҳрат қозонгани унинг фаолияти нечоғлик серқирра эканлигини, табобатда ҳам камолга эришганини тасдиқлайди.

Фурқат бундай даражага қандай эришди? Шоир бу ҳақда “Ахволот”да шундай ёзади: “Нухустин ўн беш–йигирма адад майда сурани сабақ олиб ҳифз қилиб, андин тахтага туштум..тахта ҳижосидин чиқиб, “Ҳафтияки шариф” сурасига туштум. Олти ой муддати ичида “Ҳафтияк”ни тамом қилдим. Баъдаз Қуръони шариф ўқумоққа мутарассил ўлдум”.

Дарҳақиқат, у саккиз ёшида “Мантикут–тайр”ни ўқийди. Ўз таъбири билан айтганда “..олти ой болутар уруб, қушлар ҳикоятини хотима ошёнасига кўндурди”. Шунингдек, Ҳофиз ва Бедил девонлари мутолаасидан кўп баҳра топади.

Шоир Қуръони карим хатмидан сўнг “Чор китоб” мутолааси билан машғул бўлганлиги, “..эртадин қиёмғача китоб ўқуб, андин намози асрга тегру машини хат” қилганлигини ёзади. Фурқат тўққиз ёшида Навоий “Чор девон”ини ўқишга киришади. “Чун умрим шоҳиди тўққуз парда орқасидин чехра кўргузди. Амир Алишернинг туркий девонлариким, Навоий лақабдур, забоним қуши ул хирмандин доначин ўлди”–деб ёзади у. Худди шу пайтда, бўлажак шоир Навоийни туш кўради. Ундан шеър машини оқ фотиҳа олади, яъниким Навоийга Увайсий шогирд тушади.

Кўп ўтмай, мазкур туш таъбири ҳақиқатга айланади. У шеър ёза бошлайди. Бу пайтда тўққиз ёшда бўлади: “Бир кун ул дабистонда танҳо қолиб китобат қилур эрдим. Нохосдин кўнглум сижжилига бир мазмун жилвагуслар ўлуб, фикрим бикридин бир байт зода ўлунди. Филфавр таҳрир низомига чектим, бу эрдиким, байт :

Менинг мактаб аро бултур муродим,

Хатимдек чиқса имло–ю саводим.

Чун бу фардбайтни устодим назариға еткурдим, кўб истихсонлар айлаб, ҳаққимда дуо хайрлар қилди”.

Ёш шоир болалигиданок Шарқ шеърини дарғаларининг шоҳ асарларини аслиятда мутолаа қилди. Дунёқароши ва эътиқоди шу асосда шаклланди. Жумладан, у ўн ёшида Фузулий ғазалиёти ва Сўфи Оллоёрнинг “Маслакул –муттақийн”и мутолаасидан баҳраманд бўлди.

Мулла Қамбарали исмли хушнавис кишидан дин хаттотлик сирларини ўрганади. Ашурмуҳаммад қоридан қироат илми бўйича таълим олади. “Каломуллоҳ”ни “хат юзидин” қироат айлаб, хатм қилади. Ўн икки ёшида Пошшоҳхўжа исмли мударрисга шогирд тушиб, “Аввали ҳол–аввали илм” рисоласини ўқийди. Араб тили сарф ва наҳвига оид “Бидон”, “Авомил”, “Ҳаракот”, “Қофия” китобларида таҳсил олади. “Мавъизи Вазанжоний” рисоласини ўқийди. Ўн тўрт ёшида “Шарҳи Муллои Жомий” ва “Рисолаи шамсия” асарлари бўйича илмини янада мустаҳкамлайди.

Лекин замон носозликлари боис шоир тирикчилик билан шуғулланишига мажбур бўлади, у 1878 йил тоғасининг даъвати билан Марғилонга кўчиб боради ва бир неча муддат савдо ишлари билан банд бўлади, шунингдек мадраса таҳсилини давом эттиради, ижод билан шуғулланади. Олимлар

шаҳри бўлган Марғилонда Фурқат Ҳожи домла, Қарший домла каби маърифатпарварлар билан танишади, илмий суҳбатларда, шеърят анжуманларида қатнашади. Бу ерда рус маданияти “Туркистон вилоятининг газети” билан танишади.

Фурқат 1880 йилларнинг бошларида Қўқонга қайтади ва бутунлай ижодий иш билан машғул бўлади. Бу ерда у Муқимий атрофида ташкил топган адабий ҳаракатга қўшилади.

Фурқат 80–йилларнинг ўрталарида ўзининг илк девонини тузади. 80–йиллардан бошлаб Тошкент 1889 йилларгача бўлган давр Фурқат ҳаётида катта роль ўйнади. У Муқимий, Завқий, Нисбат, Муҳаййир сингари илғор фикрли шоирлар билан шахсий алоқада бўлиши туфайли дунёқараши шаклланди, ижоди камол топди.

Фурқат фақат ўзбек тилинигина эмас, балки форс–тожик, араб тили грамматикасини, мантиқ илмини яхши билгани учун таржимонлик ҳам қилган. Шу йилларда “Ҳаммоми хаёл” асарини шеърӣ йўлда, “Чор дарвеш”ни форсчадан насрий шаклда, “Нух манзар” номли асарни эркин таржима қилган.

1889 йилда Фурқат саёҳат қилиш мақсадида Марғилондан чиқиб Қўқон орқали (ҳозирги Ленинободга) келади. (Хўжанд). Бир қанча вақт Хўжандда тургач, 1889 йилнинг июнь ойида Тошкентга келди ва бу ерда қарийб 2 йил туриб қолди.

Фурқатнинг “Туркистон вилояти газети” муҳаррири, Тошкент Эрлар гимназиясининг директори Н.П. Остроумов билан танишуви уни шу газет билан доимий боғлади. Маълум муддат рус тилини яхши билгани учун мазкур газетанинг таржимони бўлиб ҳам ишлади.

Фурқат Тошкентнинг маданий ҳаёти билан доимо қизиқиб яшади. Театрларга борди, виставкаларни тамошо қилди, гимназия дарсхоналарини кўздан кечирди. Бу ерда босмахоналарнинг фаолияти билан матбаачилик ишлари билан яқиндан танишди. Тошкентда маҳаллий маданият арбоблари билан, илғор рус маданияти арбоблари билан танишди, дўстлашди ва ҳамкорлик қилди.

Тошкентнинг илғор зиёлилари – Сатторхон Абдуғаффоров, Саидрасул Саидазимов, Шарифхўжа Пошшоҳўжа ўғли, Муҳиддинхўжа Ҳакимхўжа ўғли кабилар билан танишади. Фурқат турмушда, ижтимоий ҳаётда рўй бераётган ҳар бир янгилик тараққиётнинг ҳар бир элементи–электр, телеграф, матбаа, клуб, рояль, фотография ва бошқа шунинг каби янгиликлар билан жуда қизиқар ва уни ўз халқининг ҳаётига татбиқ қилишни ҳам хоҳлар эди. Бизнингча, шоирнинг рус илми ва маданияти ҳақидаги шеърлари рус давлатининг обрўсини ошириш мақсадида эмас, балки Европа ва рус маданиятини ўз фойдамизга хизмат қилдириш зарур, деган хулосани тарғиб қилиш ниятида ёзилган асарлар эди. Хусусан, шоирни ўзи “Аҳволоти”да ёзади: “Ўз нафимиз учун Русия халқи умрига мулоҳаза қилмоқ лозимдир”.

Манбаларда Апрелов деган мустамлакачи генерални ҳажв қилганлиги учун қувғин қилинган дейилади. “Тарихда шуниси аниқдирки, Фурқат отилмоғи ёки қамалмоғи турган гап эди. Ўз мудҳиш тақдирини англаган шоир қочишга мажбур бўлди” (Ғафур Ғулом).

Табийки, Н. Остроумов Фурқатнинг дониш ва юқори савияли шахс эканлигини жуда яхши билган, шунинг учун ҳам шоирни Туркистонда яшашлиги унга “хавф” бўлиб туюлган.

Адабиётшунос олим Ш. Юсупов “Фурқат йўлларида” монографиясида Фурқат йирик шахс эканлиги, уни юртда яшаб, ижод қилишлиги рус давлатининг “кудратини” узоқ сақланишлигига ғов бўлиши мумкин, деган ҳадикда қолган Н.П. Остроумовнинг тазъиқи ва таъқибига кўра Ватандан чиқиб кетишга мажбур бўлганлигини архив хужжатлари ҳамда ишончли манбалар асосида эътиборли, илмий мулоҳазасини баён қилган.

Остроумов архивдан топилган Фурқат мактубига Остроумов 3 тилда виза қўйган экан: “Бундай шоирдан саҳрода дайдиб юрган ит яхшидур”.

Шоир 1891 йилнинг майида Тошкентдан чиқиб, Самарқандга борди. Бу ерда хат орқали танишган ғойибона дўсти Мирзо Бухорий билан учрашди. Бир неча кун шу ерда яшади, июлнинг ўрталарида Бухорога йўл олади, ойнинг охирларида Бухоронинг Когон темир-йўл вокзалидан поездга ўтириб, Марв, Ашхобод, Боку, Ботум орқали икки ойча йўл босиб, сентябрнинг охирларида Истанбулга етиб келади. Куз ва кишни шу шаҳарда ўтказди. Бу ерда шоир тошкентлик кадрдонларини соғиниб, уларга мактуб тарзида 280 мисрали “Сабоға хитоб” маснавийсини битади. Шеърда шоирнинг Ватанидан чиқиб кетганига ҳали бир йил бўлмасдан, юртини, дўстларини, маъшуқасини соғингани, уларни қўмсаётгани, ўзини жуда ғариб ва мусофир ҳис қилаётгани акс этган. Унинг соғинчлари самимий, у Истанбул “мардум” (киши)ларининг сайру саёҳат қилиб юрганини кўрар экан, ўзининг ёру дўстлари ёдига тушади ва уларни энтиқиб соғинади.

Фурқат Истанбулдан Юнонистон (Греция)га ўтди, Булғория (Болгария)да бўлди. 1892 йилнинг май–июнь ойларида Арабистонга бориб ҳаж зиёратини ўтайди. Шу йилнинг 25 августида Ҳиндистонда бўлди, 10 сентябрда Бомбейга етиб келди. Бу ерда 6 ой чамаси яшайди. 1893 йилнинг 20 мартада Кашмирга келади, ундан Тибет ва Хўтан орқали Ёркентга ўтади ва шу ерда умрининг охиригача яшаб қолади. Шоирнинг икки ярим йиллик сафари Ёркентда яқунланади.

Шоир Қашқардаги Русия Муслмон идорасида котиб бўлиб ишлайди, илми нўжум (астрономия) ва табобат билан шуғулланади. Ёркентда қарийб 16 йил умр кечиради ва 1909 йилда Ёркентда муҳожирликда вафот этди.

Фурқатнинг ижодий мероси, адибнинг ҳаёт йўли ёшларимизни миллий руҳда тарбиялашда, уларга ватанпарварлик туйғуларини сингдиришда дастуриламал бўлиб хизмат қилади.

ЎЗБЕК ТИЛИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИДАН АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИ ЎҚИТИШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ҲУҚУҚИЙ ВА МЕЪЁРИЙ ҲУЖЖАТЛАР: “ДАВЛАТ ТИЛИ ҲАҚИДА”ГИ ҚОНУН

**Турсунқул Алмаматов, ЖДПИ доценти
Мафтуна Абдуллаева ЖДП талабаси**

Талабаларга мулоҳаза юритиш учун Юсуф Хос Ҳожибнинг қуйидаги гапи ўртага ташланади. Инсон икки нарса туфайли қарилик нималигини билмайди, уларнинг бири хуш қилиқ, бошқаси эзгу сўздир”. Ушбу ҳикматни

мулоҳаза қилинг ва фикрингизни айтинг. Талабаларнинг фикр–мулоҳазалари эшитилгач, ўқитувчи томонидан умумлаштирилади.

Буюк аллома инсондаги икки фазилатни таъкидлайди: хуш қилиқ – одоблилик, тавозе ҳамда эзгу сўздор. Сўзга бўлган муносабат “эзгу сўз” – эзгуликка, яхшиликка, яхши ниятга йўналтирилган сўз – нутқ, ҳатто, қаратмаслиги, сўз орқали руҳиятнинг кўтарилиши, кўнгил хушлик жисмоний тетикликка, бардамликка олиб келади. Демак бундай фазилат ҳаммада бўлиши керак. Бу фазилат, ўқитувчида бўлса, уни ўз ўқувчиларига ўтказди.

Ўзбекистон конституциясининг 41–моддасида ҳар бир фуқаронинг бепул ўрта маълумотни олишлари таъкидланган. Демак, таълим тизимида она тилини ўрганиш қатор ҳуқуқий асосларга эга. Шулардан бири 1989 йилда “Давлат тили ҳақида”ги Қонуннинг қабул қилинишидир. Ушбу Қонун тилимизга давлат тили мақомини берди. Бу тилимиз, халқимиз тарихида жаҳоншумул воқеа бўлди.

Жаҳон тилшунослигида тилларнинг қўлланиш, иш кўриш даражасига кўра турлича тавсиф бериб келинади: “Расмий тил”, “худудий (регионал) тил”, “диний асарларда қўлланадиган муқаддас тил” кабилар қаторига “давлат тили” атамаси ҳам қўшилди. Бу атамани биринчи қўллаганлар қаторида Ўзбекистон давлати ҳам бор. Бу чет элларда нашр қилинган асар ва мақолаларда эътироф этилди.

“Давлат тили ҳақида”ги Қонун қабул қилинган пайтда СССРнинг ҳукмронлиги кучли эди. Шунинг учун ҳам бизнинг менталитетимизга тўғри келмайдиган баъзи ҳолатлар ҳам Қонунга киритилган эди: Йиғилишларни рус тилида олиб бориш, расмий ҳужжатларни русча расмийлаштириш каби. Шунинг учун ҳам “Давлат тили ҳақида”ги Қонуннинг кўпгина моддаларига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритишни тақозо қилди. Натижада 1995 йил 22 декабрда Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни янги таҳрирда қабул қилинди.

Савол туғилади олдин ҳам, Қонун қабул қилингунча, тилимиз (ўзбек тили) конституциявий ҳуқуққа эга эдику. Масалан, “Совет Иттифоқида мажбурий давлат тили йўқ. СССР Олий Совети томонидан қабул қилинган қонунлар ҳамма иттифоқдош республика халқлари тилида нашр қилинади. Мактабларда дарслар, суд ишлари она тилида олиб борилади” (Ўзбек совет энциклопедияси, 3–том, 1972, 524–бет). Энциклопедиядан олинган бу кўчирмага изоҳ берилади.

“Давлат тили ҳақида”ги Қонунда: Ўзбекистон Республикасида давлат тилини ўрганиш учун барча фуқароларга шарт–шароит яратилади ҳамда миллатлар ва элатларнинг тилларига иззат–хурмат билан муносабатда бўлиш, уларнинг ривожланиши таъминланади, дейилган. Шунингдек, давлат тилини ўқитиш бепул амалга оширилади (4–модда), давлат тили ёки бошқа тилларга менсимай ёки хусумат билан қараш тақиқланади. Фуқароларнинг ўзаро муомала, тарбия ва таълим олиш тилини эркин танлаш ҳуқуқини амалга оширишга тўсқинлик қилувчи шахслар қонун ҳужжатларига мувофиқ жавобгар бўладилар (24–модда). Мамлакатимизда таълим тарбия ишлари етти тилда (ўзбек, рус, тожик, қозоқ, корей, туркман, қирғиз) олиб берилади. Миллий марказларнинг фаолияти учун етарли шароит яратилган.

Қонунда ўзбек тилининг иш кўриш соҳалари белгилаб берилган, бунга тўлиқ амал қилинмоқда. Шунингдек, мамлакатимиз худудида иш кўраётган

бошқа тиллар қонун йўли билан ҳимоя қилинади. Шунини ҳам айтиш керакки, чет тилларни ўрганиш она тилимизга нописандалик билан қараш тенденциясини келтириб чиқармаслиги керак.

Бир вақтлар тилимизга нописандлик билан қараш авжига чиққан эди. Булардан энг ашаддийларидан бири ўзбек миллатига мансуб вакилларимиз бу тилда фан ва техникага оид асарлар яратиш “мушкул” деб жар солишди. Ҳатто, техника олий ўқув юртларида маърузалар она тилида жуда кам олиб борилган вақтлар ҳам бўлди. Бу жафокаш тилимиз кўплаб қийинчилик ва азоб–уқубатларни бошидан кечириб, кўплаб бўрону тўфонларни ўтказиб соғ–омон ҳолатда бизга–ўзбек халқига хизмат қилмоқда.

Бу айтилганлар қоғозда эркин, ўз ҳақ–ҳуқуқига эга бўлган тилимизнинг ҳақиқий ҳолати ҳақида қисқача маълумот беради. Булар ҳақида талабалар тасаввурга эга бўлишади. Шундан сўнг талабаларни мунозарага тортиш учун қуйидаги саволлар билан мурожаат қилиш мумкин:

1. Адабий тил қайси тил базасида ташкил топади.
2. Адабий тилнинг келажаги.
3. Адабий тилнинг яратувчиси ва “Давлат тили ҳақида”ги Қонун.
4. Адабий нормани эгаллаш.
5. Бошқа тилларни ўрганиш ва она тили.

Талабалар мунозаралари яқунлангач, мунозарани қуйидагича давом эттириш мумкин: Нима учун тил 32 та посбон ичига олинган? Муаммони ечинг ва мунозара қилинг.

Амалий машғулотларни мунозара шаклида ташкил қилиш талабаларнинг тафаккур ва нутқий кўникма ҳамда малакаларини такомиллаштиради.

Адабиётлар:

1. Абдумажидов А.Ғ. Давлат тили ҳақида (қонунга шарҳ). –Т.: 1998.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.–Т.: 2002, 3–том.
3. Ўзбек Совет энциклопедияси. –Т.: 1972, 3–том.

ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИ ТИЛИДА ЙИЛҚИЧИЛИК АТАМАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЛЕКСИК–СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

**Баҳодир Файзуллаев ЖДПИ доценти,
Ш.Бозорбоева 6–мактаб ўқитувчиси**

Йилқичилик ҳам чорвачиликнинг бир тармоғи сифатида ўзбек халқининг узоқ даврлардан буён шуғулланиб келаётган касбларидан ҳисобланади. Тарихий тараққиёт жараёнида йилқичилик билан шуғулланиб келган ўзбек халқи тилида бу соҳага оид юзлаб атамалар пайдо бўлган. Албатта, йилқичилик атамалари бўйича ўзбек тилида бир қанча тадқиқотлар қилинган. Лекин халқ достонларида қўлланилган йилқичилик атамалари алоҳида ўрганилмаган. Халқ оғзаки ижоди асарлари тили бўйича қилинган айрим ишларда баъзи атамаларга тўхталиб ўтилган.

Биз ушбу ишда Фозил Йўлдош ўғли томонидан қуйланган “Рустамхон”, “Алпомиш” ва Эргаш шоир томонидан қуйланган “Холдорхон” достонларида қўлланилган йилқичилик атамаларини таҳлил қилишни мақсад қилдик. Чунки уларда мингдан ортиқ чорвачиликка оид атамалар

қўлланилган бўлиб, йилқичиликка оид лексик бирликлар салмоқли ўрин эгаллайди. Ушбу дostonлар тилида қўлланилган йилқичилик атамалари отларнинг ёшига, зотига, ташқи қиёфасига, рангига, ҳаракатлари ва жисмоний камчиликларига кўра номланганлигини кўрамыз.

1. *Отларнинг ёшига қараб бериладиган номлар.*

Кулун–бир ёшга тўлмаган тойча: –Рустам пайдо бўлган куни бу бия ҳам эркак кулун тукқан эди (“Рустамхон”, 356–бет).

Эгам осон қилгай бунда мушкулни, Билсанг отам қўйворган кулунни (“Алпомиш”, 46–бет). Кишнатиб минган ботирлар. Хоназот тулпор кулунди (“Холдорхон”, 53–бет).

Дўнон–уч ёшга тўлиб, тўрт ёшга ўтган от:

Алп Кўкалдош шундай бурилиб қаради,

Чу дейди, дўнанга қамчи уради,

Яшиндай бўп учиб кетиб боради (“Алпомиш”, 142–бет).

2. *Отларнинг жинсига қараб бериладиган номлар.*

Бия// байтал–урғочи от: –Алпомишнинг бир торлан бияси бор эди (“Алпомиш”, 67–бет).

3. ***Отларнинг зотига қараб бериладиган номлар.*** Дostonлар тилида бу турдаги йилқичилик атамалари анча салмоқли ўрин тутган. Жумладан, араби (й) от (арабларга мансуб), бедов от (учқур, югирик от), тулпор (наслдор, чопқир, учқур от), арғумок (зотли чопқир от) ва бошқалар.

Масалан:–Бедов минган сағрисини тошириб,

Манзилга етказар кирдан ошириб (“Рустамхон”, 374–бет).

–Остига миндирай араби отти,

Энам десанг, сўнгра қилғил ғазотти (“Рустамхон”, 377–бет).

–Ана энди Аҳмад Сардор димоғи чоғ бўлиб, соқоли оқ бўлиб, мингани арғумок бўлиб ... (“Холдорхон”, 47–бет).

4. *Отларнинг рангига қараб бериладиган номлар.*

Маълумки, ҳозирги ўзбек тилида от ранглари­нинг энг нозик турлари аниқ атамаларга эга бўлиб, уларнинг асосий қисмини қадимги замонлардаёқ вужудга келган умумий фондга мансуб бўлган атамалар ташкил этади. Қадимги туркий номларининг бир қисми ҳозирги ўзбек тилида қўлланилмайди (тўриғ, саман, жийрон, хачино ва ҳакозалар). Уларнинг айримларини баъзи шеваларда учратиш мумкин. Лекин хилма–хил ёзма ёдгорликлар ва халқ дostonлари тилида қайд этилган номларнинг кўпчилиги деярли ўзгаришсиз қўлланилганлигини кўрамыз:

Жийрон–Қизғиш малла от:

–Улантознинг жийрон оти,

Улоқди олиб жўнаб берди (“Алпомиш”, 335–бет)

Тўриқ от–қора кизил, тўқ жийрон от:

–Қолмади–ку у Қалмоқнинг тоқати,

Бораётган Қалмоқ шоҳнинг тўриқ оти.

Шундай бўлар тўриқ отнинг тоқати (“Алпомиш”, 376–бет)

Чавқар от – кўк от, ола була от, қора холли от:

–Ўзи шундай келган экан чавқар от (“Алпомиш”, 47–бет).

Кўк ёки кўу от:

–Остингда ўйнайди Ғиркўкдай тулпор, Қалқонинг карк белингда ханжар (“Холдорхон”, 10–бет).

Саман–оч малла сомон рангли от:

Ушбу атама ҳозирги кунда ҳам кўпчилик томонидан нутқда қўлланилади. Достон тилида ҳам худди шу кўриниш ва маънода ишлатилган:

–Саман отдан ўзди энди Бойчибор,

Самандан ўтдида тоқат колмади (“Алпомиш”, 142–бет).

Юқоридаги қайд этилган жийрон, тўриқ, чавқар, кўк атамалари умумтуркий атамалар қаторига киради. Халқ достонларининг яратилиши тарихи қадим замонларга бориб тақалишини инобатга олсак, уларнинг тилида ушбу лексемаларнинг қўлланиши жуда ўринлидир.

5.Отларнинг ташқи сифатларига қараб бериладиган номлар.

Достон тилида отларнинг ташқи сифати, ҳаракатлари ва баъзи жисмоний камчиликларга қараб номланган атамалар ҳам мавжуд. Масалан, шапоқ от (куёшга қарши юра олмайдиган от, чунки унинг киприклари калта бўлади) атамаси Фозил шоир томонидан жуда яхши изоҳлаб берилди:

–Шапоқнинг олдини Чибор ўради,

От бошини кунга тўғри қилади,

Кўзлари чоғилиб кейин қолади

Шапоқ отдан *Чибор* ўтиб жўнади.

Шапоқнинг одати шундай бўлади,

Дубур эшитмаса, кейин қолади (“Алпомиш”, 138–бет).

Оқтўёқ–тўғри, бўш, мўрт от:

–Қалмоқ шоҳнинг оти саман балодир,

Бораётир йўл таллашиб баробар,

Оқтўёқ келганда бундай саманлар,

Оҳ уриб тўқади кўздан ёшини (“Алпомиш”, 140–бет).

Келтирилган мисолларда жанговар отларнинг ўзларига хос яхши сифатлари, жисмоний камчиликлари кўрсатилган.

6. **Отларнинг ҳаракат ва тезлигига қараб бериладиган номлар.**

Қадимдан одамлар отларнинг чопқирлиги, сакраши каби сифатларини қадрлаганлар. Пойгада, кўпқарида чавондозлар отларни югуриш ва сакраш қобилиятларига қараб танлаганлар. Халқ достонларида берилишича тулпорсиз, яхши отсиз ҳеч қайси паҳлавон енгиб чиқмайди. Шу сабабли ҳам достонлар тилида чопқир отларни тулпор, жўйрук, югрик, учқур атамалари билан, ўртача югурувчи отларни чопқир, чопоғон атамалари билан, ёмон югурувчи отларни–йўрға, йўртоқи атамалари билан номланганини кўрамиз:

–Учқур эдинг қанотингдан қайрилдинг,

Югрук (жўйрук) бўлсанг туёғингдан тойрилдинг (“Алпомиш”, 84–бет).

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, халқ оғзаки ижодиёти, шу жумладан халқ достонлари турли соҳаларга оид атамаларнинг туганмас манбаидир. Улуғ фолклоршунос аллома Х.Зарифов таъкидлаганидек: “Фолклор асарларининг лексикаси умуман ҳозирги шеваларда истеъмолда бўлган луғатлар бўлиши билан бирга, улар орасида архаик бўлганлари, маъносини ўша шева вакилларининг ўзлари ҳам билмаганлари учраб туради”. Ҳақиқатан ҳам, халқ достонлари тилини, хусусан, уларнинг тилида қўлланилган лексемаларни лексик–семантик ва лингвопоэтик томондан ўрганиш ҳозирги ўзбек тили, шунингдек, атамашунослик соҳасини бойитиш учун хизмат қилиши мумкин.

“ALPOMISH” DOSTONINING TO‘LIQ NASHRI

**Abbos Tursunqulov,
JDPI katta o‘qituvchisi, f.f.n.**

“Alpomish” dostonining badiiy jihatdan eng go‘zal, kompozitsion jihatdan eng mukammal variant Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan. Uning birinchi nashri 1939–yilda anchagina qisqartirilgan holda Hamid Olimjon tomonidan nashr etilgan. Shundan keyin nashr etilgan bu va undan parchalar variant turli darslik va xrestomatiyalarda qayta–qayta nashr etildi. Hamid Olimjon nashri yozib olingan dostonning taxminan yarmiga qadar qisqartirilgan edi. Akademik To‘ra Mirzayevning yozishicha: “Bu qisqartirish shu darajada bilim va san‘atkorlik bilan amalga oshirilganki, bu holat dostonning yaxlitligiga putur yetkazmagan. Shoir doston matniga biron–bir so‘z qo‘shmagan, doston tilini tahrir qilmagan, balki undagi mavjud imkoniyatlardan mirishkorlik bilan foydalangan, ya‘ni uzundan uzoq monolog va dialoglardan iborat she‘riy matndagi zaif misralarni qisqartirish bilan doston sujeti voqealarini to‘la saqlagan.”²³

Bu nashr 1979–yilgacha bir necha marta qisman o‘zgartirishlar bilan qayta–qayta nashr etildi. Atoqli folklorshunos Hodi Zarif rahbarligida bu dostonning to‘liq variant To‘ra Mirzayev tomonidan nashrga tayyorlanib, 1979, 1985–yillarda chop etildi. “Alpomish” dostonining mukammal akademik nashri zaruriy izohlar bilan dostonning 1000 yillik yubileyi munosabati bilan 1999–yilda amalga oshirildi.

So‘ngi mukammal nashr esa 2015–yil “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari”ning birinchi jildidan o‘rin oldi. Dostonga so‘zboshi, ilmiy izohlar va lug‘at tuzuvchi akademik To‘ra Mirzayev. Doston an‘anaviy uslubga ko‘ra she‘riy va nasriy qismlar bir–biri bilan o‘zaro almashilib keladi. Bu ulkan badiiy eposning hajman ulug‘vorligini his etmoq uchun birgina she‘riy qismining o‘zi 13715 misrani tashkil etishni eslatishning o‘ziyoq kifoya qiladi. “Alpomish” dostoni ulkan xalq shoiri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining shoirlilik beshigi bo‘lgan” (Hamid Olimjon). Chindan ham “Alpomish” dostoni Fozil shoirdan yozib olingan nusxada qahramonlik eposi xususiyatlarini to‘la saqlaganligi, epik mazmunning mukammalligi, har bir tafsilotning hayotiy qiyoslarda san‘atkorona ishlanganligi, badiiy mahoratning yuksak darajasi jihatidan o‘zbek xalq dostonchiligida alohida o‘rin tutadi²⁴.

Doston yuzasidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar yaratilgan bo‘lsada, uning mukammal nashri folklorshunos olimlarni yangidan–yangi tadqiqotlarga undaydi. Shu o‘rinda dostonning yuksak badiiyligidan darak beruvchi, lekin olimlar nazaridan chetda qolayotgan g‘oyatda go‘zal bir baytni tahlil qilish orqali yuqoridagi fikrimizni asoslamoqchimiz.

Dostonning ikki o‘rnida bir–biriga mazmunan va kompozitsion jihatdan yaqin bo‘lgan misralar takrorlanib keladi. Birinchisi, Oybachining Alpomishni kutayotgan paytida Qorajonning Boychibarni minib, Alpomish nomidan kelishida aytiladi.

Bu o‘rinda Barchinoy Qorajon zo‘rluk bilan Boychibarni o‘lja qilib olibdi, endi meni ham o‘z diniga kiritib, zo‘rluk bilan oladi, deb o‘ylab shunday deydi:

²³ Mirzayev T. Dostonlar gultoji. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik, 1–jild, T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2015–yil, 24–bet.

²⁴ Yuqoridagi manba, 29–bet.

Mung‘ayib yig‘laydi mendayin sanam,
O‘yilmayin kuydi bu kulbaxonam
Qalmoqlarda qoldi guldayin tanam.²⁵

Ikkinchi bir o‘rinda Ko‘kaldoshning tulpori Ko‘kdo‘nandan poygada o‘zolmayotgan Boychiborga qarab “Qurruyo qur hayta”, deb iltijo bilan yolvorib qilgan murojaatida ham qaytaradi:

O‘yilmay kuymasin kulbai xonam
Oh urib yig‘laydi mendayin sanam
Qalmoqda qolmasin guldayin tanam²⁶.

Har ikkala uchlikda birinchi va uchinchi misralar o‘rni almashgan. Uchinchi misrada birinchisida o‘kinch, umidsizlik, afsuslanish ufurib tursa, ikkinchisida Boychiborga iltijo, yolvorish, umidvorlik aks etgan. Haqiqatdan ham birinchi uchlikdagi umidsizlikning sababi keying misralarda Suqsur kaniz tilidan o‘z tasdig‘ini topadi:

Qo‘ng‘irot eldan bobong o‘g‘li kelibdi,
To‘qson alp zo‘riga duchor bo‘libdi.
Armon bilan bobong o‘g‘li o‘libdi
Mingan oti o‘lja bo‘lib qolibdi.²⁷

Ikkinchi uchlikdagi “Oh urib yig‘laydi meningdek sanam, Qalmoqda qolmasin guldayin tanam”,– deb Boychibarga umid bilan qarashida unda asos bor edi. Chunki Boychibor Alpomish va Barchinoyning umidi, orzusini amalga oshiradigan nazarkarda tulpor:

O‘n ikki oy seni Boybo‘ri boqdi,
Gardanigga Qaldirg‘och qo‘tos taqdi.
Yig‘latmagin Barchin gulday bebaxtni,
Qurruyo qur hayta begimning oti.²⁸

Shu o‘rinda har ikki uchlikda unchalik o‘zgarishsiz kelgan. “O‘yilmay kuymasin kulbai xonam” misrasiga e‘tibor bering. G‘oyatda go‘zal badiiylikka burkangan bu misraning poetik mohiyatini anglash uchun qadimiy chorvador ajdodlarimizning urf–odatini ham bilmoq lozim. Qadimda qizlar bo‘y yetgandan keyin unga atab o‘tov tikilgan.

O‘tov tikish uchun uning atrofi o‘yiladi. Shu sababli Barchinoy bu so‘zlari bilan “Men uchun o‘yiladigan o‘tov qurilmasdan kunpayakun bo‘ldi”, – demoqchi. Bu fikrimizni Boysarining qalmoq alplariga aytgan gaplari bilan isbotlashimiz mumkin: “qiz o‘n to‘rtga chiqqan ekan, bizning o‘zbekning rasmi shunday bo‘ladi, qizning ixtiyori o‘zida bo‘ladi, tepaning boshiga o‘tov tikib o‘tiribdi, o‘ziga boringlar”.

Xullas “Alpomish” dostonining to‘liq nashri uning poetik yuksakligini butun bo‘y–basti bilan ulug‘vor ko‘rsatuvchi badiiy obida ekanligi bilan ahamiyatlidir.

²⁵ Alpomish. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik, 1-jild, T.: 2015. 148-bet.

²⁶ Alpomish. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik, 1-jild, T.: 2015. 190-bet.

²⁷ Alpomish. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik, 1-jild, T.: 2015. 149-bet.

²⁸ Alpomish. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik, 1-jild, T.: 2015. 190-bet.

АБДУЛЛА ОРИПОВ АСАРЛАРИДА ҲИКМАТЛИ СЎЗЛАР (АФОРИЗМЛАР)

Абдували Мусаев,
ЖДПИ доценти

Ўзбек адабий тилининг шаклланишини, ривожланишини аниқ далиллар ва фактлар асосида тўғри ҳал қилиш лозим бўлади. Бунинг учун тил қурилиши соҳасидаги анъана ва новаторлик, ворислик ва давомийлик муаммоларини далиллар асосида кўриб чиқиш зарур. XX аср ўзбек адабий тили билан ҳозирги ўзбек адабий тили ўртасидаги боғланиш ва ўзига хос анъанавий давомийликни Ўзбекистон қахрамони Абдулла Орипов асарлари асосида кўриб чиқмоқчимиз. Абдулла Орипов ўз асарларида XX асрнинг тараккийпарвар шоири сифатида илғор ғояларни илгари суриб, тилак ва орзуларини юксак маҳорат билан ифодалаган. Сўз санъатининг мохир устаси ва халқ шоири халқимизга қолдирган бебаҳо ва ибратли меросларидан бири унинг асарларида учрайдиган ихчам, теран мазмунли халқчил мақолсимон ҳикматли сўзларидир. Шунинг учун ҳам биз бу мақоламизда Абдулла Ориповнинг турли даврларда яратган шеърлари ва дostonлари тилининг поэтик лексикологиясини текшириш учун тўрт жилдлик, танланган асарлар тўпламидан фойдаландик.

Абдулла Орипов хилма–хил жанрларда яратган асарлари ўзбек халқининг турли даврлардаги турмушини акс эттириб, тил ва адабиётимиз ривожига катта аҳамият касб этган. Абдулла Орипов дунё қарашида асосий ғоялар шу ҳикматли сўзларда ўз бадиий ифодасини топган. Шеърый асарларидаги афоризмларда халқининг асосий ғоялари мавжуд:

Мен нечун севаман Ўзбекистонни

Тупроғин кўзимга айлаб тўтиё.

Нечун Ватан дея еру осмонни,

Муқаддас атайман, атайман танҳо.

Ушбу мисраларда ифодаланган ҳикматли сўзлар асосий мавзу халқнинг туйғуларни қўллаб қувватлаётган экан бу ватан масаласи, Ватан туйғусидир.

Абдулла Ориповнинг шеърый асарларида қўлланилган ҳикматли сўзларни мавзу жиҳатдан бир неча гуруҳларга ажратиш мумкин:

1.Эл–юрт, ватанни қадрлаш, Она–Ватанга содик фарзанд бўлишга даъват қилади:

Дейдилар:–Чахнаган қайси юрт эрур,

Буюк соҳибқирон сочган зиёдан.

Жавоб бердиларки, –ҳеч сўнмас бу нур,

Таралган энг аввал Қашқадарёдан.

Диёрим Ўзбекистондур, ки андим ифтихорим бор,

Демакким, хур адолатлиғ, давлати барқарорим бор,

Онамдек меҳрибон, мунис Ватан бор, ғамгузорим бор,

Ватандан айри кўнгилни билингки, яйратиб бўлмас.

Баайни банди булбулни чамансиз сайратиб бўлмас.

Дунёда ажиб бир ҳикмат мавжуддир:

Агар бўлмай десанг бахтингдан жудо,
Агар яшай десанг рози бир умр,
Ватанинг тинч бўлсин, Ватан аввало.

Дунёда ажиб бир ҳикмат мавжуддир:
Агар бўлмай десанг Ватандан жудо,
Муносиб бўла бил унга бир умр,
Ватанга жонингни қилолғин фидо.

2. Ота–онани ва дўстни ҳурмат қилишга даъват:

Ўғлим сўрамасман сендан мол–дунё,
Уй ҳам қуриб берма, майли, аломат.
Майли, кўзларимга бўлмагил зиё,
Ёнимда юрсанг бас соғу саломат.

Оталар шаънига лойиқ сўз демоқ
Табаррук бир китоб ёзиш билан тенг.
Уларнинг меҳри–ку, бамисли чароқ,
Бағри ҳам юлдузли осмон каби кенг.

Муштипар ҳам ўзинг, буюк ҳам ўзинг,
Куюнган ҳам ўзинг, куюк ҳам ўзинг,
Оламга татирлик суюк ҳам ўзинг,
Пайти келди айтмоққа, гапнинг хонаси,
Эй, ўзбек онаси, ўзбек онаси.

Каъба қонқасида турган, эй поспон,
Аввал оналарнинг очгин йўлларин.
Оналар пойига тиз чўк ушал он,
Тавоф қил, кўзга сурт, ўпгин қўлларин.

Минглаб йил ўтса ҳам осмон қаърида
Тўқнашмас фалакнинг икки тўзони.
Не бахтким, ўзбекнинг мунис бағрида
Менга дўст бўлгандинг, уйғур ўғлони.

3. Устоз ва мураббийларни қадрлашга даъват:

Менинг устозларим–
Аҳли шуаро,
Руҳимнинг оҳанги–суруридасиз.
Бирингиз китоблар бағридасиз жо,
Бирингиз Чиғатой худудидасиз.

Шуурга нур сочиб, машъал кўтарган
Сиздек устозларимга олам маҳлиё.
Дейман хуш айёмда Сизни қутларкан:
Қалбингизда сира сўнмасин зиё!

Юзлаб талабалар мамнун, сарофроз,
Улуғ Навоийга чиқдилар пешвоз.

4.Вафо ва вафодорликка, чин муҳаббатга даъват:

Мана, бугун наврӯзи олам,
Дўстларимга гуллар тутарман.
Қайлардасан, севгили эркама...
Қўлимда гул, сени кутарман,
Умрим бўйи чорлаб ўтарман,
–Сен баҳорни соғинмадингми?

Йўлин йўқотса одам – муҳаббатга суянгай,
Ғуссага ботса одам – муҳаббатга суянгай.
Чорасиз қотса одам – муҳаббатга суянгай,
Мен кимга суянгайман, биринчи муҳаббатим.
Фақат эслаб ёнгайман, биринчи муҳаббатим.

5. Тил ва нутқ одобига даъват:

Она тилим, сен борсан, шаксиз
Булбул куйин шеърга соламан.
Сен йўқолган кунинг, шубҳасиз,
Мен ҳам тўти бўлиб қоламан...

Бадиий услубнинг энг кичик шоири ҳисобланган ҳикматли сўзлар (Афоризмлар) шеърят мулкининг гавҳарларидир. Абдулла Орипов шеъряти ва дostonлари билан ўлкамиз китобхонларига танилди. Шоирнинг фазилати, кадр–қиймати, донолиги, зийраклиги ва ижтимоий ҳаётга бўлган муносабати шеърларида ўз аксини топган. Маълумки, ҳар қандай тил ўз ривожланиш тарихида турли босқичларини босиб ўтади. Тил ривожининг мана шу босқичларида унинг луғат таркиби ва грамматик қурилишида маълум ўзгаришлар содир бўлади. Маълум бир даврга оид, маълум бир услубга хос асарларнинг тил хусусиятлари тадқиқ қилинар экан даврий ва услубий меъёрлар Абдулла Орипов услубига хос муҳим сўзлар асарларида ўз аксини топган. Абдулла Ориповнинг инсон ва унинг табиатини кузатиш ва ўрганиш натижасида яратган ҳикматли сўзлари (афоризмлари)ни халққа етказиш ва ёш авлод тарбиясига хизмат қилдириш бизнинг муқаддас вазифамиздир.

НОДИРА ИЖОДИДА СУЛАЙМОН ОБРАЗИ ТАСВИРИ

**Сурайё Эшонқулова,
ЖДПИ доценти, ф.ф.н.,
Мавлюда Хамдамова,**

Самарқанд вилояти, Булунғур

туман ХТВ қарашли 10 – мактаб ўқитувчиси

Ўзбек мумтоз адабиёти ва халқ оғзаки ижодини ўрганишда тарихий образ ва миф муносабати масаласи алоҳида мавқега эга. Бу ўринда эътибор қаратиш зарур бўлган бир жиҳат бор: мифик сюжетларга асосланган антик адабиёт билан исломий манбаларга таянган шарқ адабиёти муайян ўзига хосликларга эга. Шу боис, бизнингча, мифик образ тушунчасини шарқ, жумладан, ўзбек адабиётига нисбатан қўллашда ана шу ўзига хосликни эътиборга олиш керак.

Адабиётшунослигимизда, хусусан фольклоршуносликда мифик образлар масаласи анча чуқур ишланган. Масалан, М.Жўраев ва М.Нарзикулованинг таъкидлашича: “Ёзма адабиёт мифология билан чамбарчас боғланган бўлиб, мифнинг халқ оғзаки ижоди асарларидаги эпик сюжет, мотив ва поэтик деталлар кўринишидаги талкинлари бадиий идрок этилган воқеликни тасвирлашда самарали қўлланилиб келинган. Бадиий адабиётда қайд қилинган мифологик образ ва мотивлар фольклордан ижодий бахраманд бўлишнинг ўзига хос қирраларидан бири ҳисобланади”²⁹.

Бу фикрлар етарли даражада илмий далилланган. Уларнинг назарий асосга эга эканини эътироф этган ҳолда, таъкидлаш керакки, ўзбек мумтоз адабиёти мисолида мифик образ масаласи юзасидан олиб борилган изланишлар бу илмий муаммони бир неча йўналишларда тадқиқ қилиш мумкинлигини кўрсатади. Бу йўналишлар қуйидагилардан иборат:

1. Пайғамбарлар ҳаёти билан боғлиқ воқеалар ва миф талқини.
2. Тарихий шахслар ёки адабий қаҳрамонлар образи ва миф.
3. Жаннат, дўзах, фаришта сингари тушунчалар ва миф.

Бизнингча, адабиётшуносликдаги пайғамбарлар ҳаёти билан боғлиқ воқеалар талқинида бу адабиётнинг ислом маданияти ва эътиқоди билан боғлиқлигини эътиборда тутиш зарур. Жумладан, Сулаймон пайғамбар образи мумтоз адабиёт ва фольклор асарларида энг кўп бадиий талқин этилгани билан алоҳида ажралиб туради. Рабғузийнинг “Қисаси Рабғузий”сидаги “Сулаймон қаринча билан сўзлашгани”, “Сулаймон курсисининг сифати” сингари ҳикоятлар, Алишер Навоийнинг “Тарихи анбиё ва ҳукамо” асаридаги Сулаймон пайғамбар ва унинг сифатларига оид қарашлар ҳам бу фикрни тасдиқлайди. Жумладан, “Қисаси Рабғузий”да:

Довуд ўгли Сулаймон Тенгримизнинг совчиси,

Ел улоглиг шоҳ эдию ҳам учар қуш элчиси.

Одамий, учқан, югурган, дев, пари ҳам ел, булут

Оғулуг бўлсун озиглиг барча анинг ишчиси.

Қузи тўрт юз қангли эрди кунда қушлуг ошига,

Борғусида қур арслон, бўри, қоплон қўйчиси.

Тунучоқ отнинг уруги қолди андин дунёда,

Тилда ҳужжат, танда хидмат, қўлда мулкат қамчиси.

Ўзи “ниъмал абду” атанди ҳам ялавоч ҳам малик,

*Йўлдин озганларга эрди ўзи унжмоҳ йўлчиси*³⁰.

Кўринадики, Рабғузий Сулаймон алайҳиссаломни “ҳам ялавоч, ҳам малик” дея улуғлайди. Унинг ҳадсиз ҳокимият, куч–қудратни мужассам этгани, мавжудотлар унинг измида экани, шамол, инсу жин, деу алвастилар унинг ҳукмида бўлганлиги диний–илмий манбаларда ҳам зикр этилади. Рабғузийнинг хизмати, ана шу фикрни назмда поэтик шаклда ифодалаганидир.

²⁹ Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т.: Ўзбекистон Милий кутубхонаси, 2006. – Б. 92.

³⁰ Рабғузий. Қисаси Рабғузий. II китоб. – Т.: Ёзувчи, 1991. – Б. 32.

Бу анъана Нодира ижодида ўзига хос шакл ва мазмунда давом эттирилгани кузатилади. Жумладан, мана бу байт мазмуни ушбу фикрни қувватлайди:

*Бул мўри хастадин дегил, эй худҳуди сабо,
Тахти адолат узра Сулаймонга бандали*³¹

Яна бир ғазалида:

*Бу барча ажз ила исботи нотавонлигдур,
Ки мўр қилди Сулаймонга тухфа пои малах (111)*

Нодира лирикасида Сулаймон билан боғлиқ воқеа–ҳодисаларга ишора қилиш орқали, шоиранинг ғоявий–эстетик дунёқараши очиб берилган. Шоира ёрни Сулаймонга ўхшатган, у билан муқояса қилган. Манбаларда келтирилишича, Сулаймон пайғамбар сулоласини ниҳоятда қадрлаган. Бир куни Сулаймонга бутун жониворлар тухфа келтиради. Ундан кимнинг совғаси қимматлироқ деб сўрашганда, ўзидан кўра оғирроқ чигиртка оёғини кўтариб келган чумолини кўрсатади.

Дарҳақиқат, чумоли – захматкашлик тимсоли. Бунда Сулаймон ва чумоли образлари биргаликда кўлланилиши тасодифий эмас. Шоира ана шу воқеага ишора қилиш орқали ошиқнинг дилида туғён ураётган ички туйғуларни очиб беради. Унинг назмий асарларида Сулаймон пайғамбарга хос муайян сифатлар маъшукга кўчирилади. Бундай байтларда ёр улуғланади, ижодкорнинг бадиий–эстетик идеалини ўзида мужассам этади. Илмий изланишлар шуни кўрсатадики, мифик сюжетларга асосланган антик адабиёт билан исломий манбаларга таянган шарқ адабиёти муайян ўзига хосликларга эга. Уларни тадқиқ қилишда ана шу ўзига хосликни эътиборда тутиш тўғри илмий хулосаларга келиш имконини беради.

Тарихий ва мифик образлар талқини масаласини миллий адабиётимиз тарихи мисолида ўрганиш Носириддин Рабғузий, Алишер Навоий сингари мутафаккирлар бу масалага ҳаққоний ёндашганини кўрсатади. Ана шундай қарашда бўлган Нодира шеърларида Сулаймон сингари пайғамбар образи ўзига хос бадиий талқин этилган.

SO‘Z BIRIKMASI VA SO‘ZNI O‘TISH ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQ BOYLIGINI OSHIRISH

**Shahnoza Almamatova,
JDPI katta o‘qit., f.f.n.
S Turobova,
JDPI magistranti**

O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini nimanidir og‘zaki va yozma bayon etish xohishini hamda zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat talab etiladi.³²

³¹ Нодира-Комила. Девон. Нашрга тайёрловчи М.Қодирова. -Т.: Халқ мероси, 2001. -Б.207. (Бундан кейинги иқтибослар шу нашрдан олинади ва бети қавс ичида кўрсатилади).

³² К.Қосимова, С.Матхоннов ва бoshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent.2009.300-bet.

Bu vaziyat nutqda o‘z aksini topadi. Nutqda fikr ifodalash uchun gaplar tuziladi. Gaplarni tuzishda so‘z va so‘z birikmalaridan foydalaniladi. Nutq ifodalash uchun gaplardan, gaplarni tuzish uchun so‘z va so‘z birikmalaridan o‘rinli foydalana olish o‘quvchilar nutqining mazmundor bo‘lishini ta‘minlaydi.

Gapda ma‘lum bir fikr ifodalash so‘z va so‘z birikmalaridan birdek foydalanilaveradi, ammo bu birliklarning o‘ziga xos differensial tomonlarini ko‘rsatib berish o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahoratni talab qiladi.

Umumta‘lim darsligida so‘z va so‘z birikmasi qiyoslab, nazariy ma‘lumot keltirilgan. Bu nazariy ma‘lumotdan oldin o‘quvchilarda mavzu yuzasidan ko‘nikmani shakllantirish kerak.

Buning uchun so‘z va so‘z birikmasining integral va differensial tomonlarini qiyosan tushuntirish maqsadida darsning motivatsiya qismida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan hikmatli so‘z keltiriladi. Hikmatli so‘z darslikdan tashqari bo‘lsa, mavzuning ta‘limiy ahamiyati yanada ortadi.

Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dodga, ilmga, mashqqa.

(Arastu)

Ushbu hikmatli so‘z alohida kartochkalarga yoziladi. O‘quvchilarning har biriga bu kartochkalar tarqatiladi va quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Gap tarkibidagi so‘zlar ma‘nosini izohlang.
2. Gap tarkibidagi so‘z birikmalarini toping.
3. So‘zlar va so‘z birikmalarining o‘xshash hamda farqli jihatlarini izohlang. Qanday xulosaga kelganingizni ayting.

O‘quvchilar mashqni individual holatda o‘z bilganlaricha bajaradilar. Shundan so‘ng mashqning birinchi shartining ijrosi ko‘rib chiqiladi.

Namuna:

Tarbiya– pedagogik jarayon;

Uch –sanoq son;

Narsa – har qanday moddiy mavjudot;

Ehtiyoj sezmoq – biror narsaga talab bo‘lmoq;

Iste’dod – nihoyatda zo‘r ijodiy qobiliyat;

Ilm – o‘qish –o‘rganish va tadqiqot, tahlil qilish bilan erishiladigan bilim;

Mashq – tayyorgarlik mashg‘uloti.

So‘zlarning ma‘nosini izohlashda ularning sinonimlari va so‘z birikmalari tarkibidagi holati qiyoslanadi. Masalan, tarbiya so‘zining ma‘nosi juda keng qamrovli bo‘lib, uning asosiy ifodalanishi “ pedagogik jarayon ” bilan bog‘liqdir. Qolgan so‘zlarda ham xuddi shu holatni ko‘rish mumkin.

Topshiriqning birinchi shartining ijrosi shu tarzda ko‘rib chiqilgach, ikkinchi sharti muhokama qilinadi.

Gapda quyidagi so‘z birikmalari bor: uch narsa, narsaga ehtiyoj chiqmoq, iste’dodga ehtiyoj sezmoq, ilmga ehtiyoj sezmoq, mashqqa ehtiyoj sezmoq.

O‘quvchilarning aniqlagan so‘z birikmalari o‘qituvchi tomonidan aniqlashtirilib xulosa chiqariladi.

O‘quvchilar topshiriqning birinchi shartida so‘zlarning alohida atash ma‘nolariga, izohlariga diqqatlarini yo‘naltirgan bo‘lsalar, bu shartini bajarishda so‘zlarning o‘zaro tobe –hokim munosabatiga e‘tibor qaratadilar. Gapdagi aniqlovchi – aniqlanmish, to‘ldiruvchi – to‘ldirilmish munosabatlari so‘z

birikmalarini aniqlashda hisobga olinishi shartning to‘g‘ri va to‘liq bajarilishini ta‘minlab beradi.

Ikkinchi shart xulosasidan so‘ng uchinchi shart muhokama qilinadi. Ushbu shartga ko‘ra o‘quvchilar so‘z va so‘z birikmasini bir –biriga qiyoslab ulardagi farq haqida o‘z fikrlarini bayon etishlari kerak bo‘ladi.

Namuna: **ilm– ilmga ehtiyoj sezmoq.**

Uchinchi shartni birinchi va ikkinchi shartning umumiy xulosasi deyish mumkin. Bu shartga ko‘ra tahlil qilingan birinchi va ikkinchi shart o‘zaro qiyoslanib, ulardagi farq hamda umumiy jihatlar aytiladi.

1. Ilm(arabcha)– 1) o‘qish, o‘rganish hamda tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmui; 2) fan.³³

2. Ilm– 1. O‘qish–o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko‘nikma, ma‘lumot.

3. Ish– faoliyatning ilm bilan bog‘liq sohasi tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi; fan.³⁴

Ikki lug‘atdan keltirilgan bu izohlar ilm so‘zi umumiy va keng ma‘no ifodalashi, u bir necha yo‘nalishlarga bo‘linishidan darak berayotganini ko‘rsatib beradi.

Ilmga ehtiyoj sezmoq so‘z birikmasi grammatik jihatdan –ga jo‘nalish kelishigi vositasida bog‘langan. Ushbu birikmaning ma‘nosiga ahamiyat berilsa, birikmada umumiy ilm emas, matn talabi bilan ilmning ma‘lum bir yo‘nalishi nazarda tutilgan. To‘g‘rirog‘i birikmada ilmning pedagogik jarayonga taalluqli bo‘lgan faoliyati aks ettirilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, umumiy ma‘no ifodalash so‘zga, xususiy ma‘no ifodalash so‘z birikmasiga xos ekan.

O‘quvchilar so‘z va so‘z birikmasini qiyosan o‘rganib ularning ifodalaydigan ma‘nosini farqlash bilan birga nutqda ularning o‘rni va ahamiyati haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

ЎХШАТИШДА СЎЗЛАР ТЎҒРИ ВА КЎЧМА МАЪНОДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ

**Абдували Мусаев,
ЖДПИ доценти, ф.ф.н
Мафтуна Абдухолиқова,
ЖДПИ магистранти**

Ўзбек адабий тили ўзбек халқининг ўзаро алоқа ва фикр олиш қуроли, шу халқнинг ҳамма вакиллари учун умум бўлган тилдир. Ўзбек миллий тилининг шаклланиши, ўзбек миллатининг шаклланиш жараёни билан боғлиқдир. Ўзбек тили ўзбек миллати шакллангунга қадар у уруғ тили, қабила тили ва элат тили ҳолатида ривожланиб келган.

Аждодларимиз яратган халқ оғзаки намуналари дoston, эртак, мақол кабилар тил муаммоларини ўрганишда бизга таянч вазифа ўтайди. Ҳозирги кунда халқ оғзаки ижоди намуналарининг тил хусусиятларини ўрганиш,

³³ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. IV jild. Toshkent. 117-bet. 2005.

³⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent. 195-bet. II jild.

ҳозирги тил бирликлари билан текшириш ўзбек тили ва тилшунослик фанида муҳим масалалардан биридир.

Ҳозирги ўзбек тилида кўпгина сўзлар ўз маъносидан бошқа маънони, ўз маъносига қарама-қарши бўлган маъноларни ифодалаш учун хизмат қилади. Предметлар белгиси бошқа бир предметга кўчирилади ёки ўхшатилади.

Достонларда, шу жумладан, “Равшан” достонида тасвирий воситалардан белгисини иккинчисига кўчириш ёки сўзларнинг умуман кўчма маънода ишлатилиши, яъни троплардан унумли фойдаланган.

Барча тропларда икки нарса бир-бирига ўхшатилади ва чоғиштирилади.

Ўхшатиш–икки нарса ёки воқеа–ҳодисалар ўртасидаги ўхшашликларда асосланиб, уларнинг бири орқали иккинчисининг белгисини, моҳиятини тўлароқ, аниқроқ бўрттириб кўрсатиб беришдир. Ўхшатиш энг қадимги воситалардан бўлиши билан бирга, энг содда ва кўп ишлатиладиган тез–тез қўлланадиган синтактик ҳодиса ҳисобланади.

Ўхшатиш ҳақида фикрлардан келиб чиқиб, асар тилидаги ўхшатишларни таҳлил қиламиз:

1. “Равшан” достонида Зулхуморнинг портрети шундай ўхшатиш орқали берилганки, бу ўхшатишда Зулхуморга берилган хусн ўз ўрнида, ўринли равишда ўхшатилади: Равшанбек қараса, Зулхуморнинг ё ўн уч, ё ўн тўртта камоли, ойдай жамоли, янги тўлган ойдай, икки қоши ҳилоли Равшанбек зехни қўйиб қараса, ясангай хурдай, тишлари дурдай, кўзлари юлдуздай, қошлари қундуздай, лаблари қирмиздай, оғизлари оймоқдай, лаблари қаймоқдай, икки юзи ойдай, тарлан қарчиғай–учадиган қушдай...

2. Достонда эпик қаҳрамонларнинг ҳолатини билдирадиган ўхшатишлар кўп бўлиб, улар китобхонга ботирнинг ёки эпизодларнинг руҳий ҳолатини гавдалантиради: Қизлар ўйнашиб, қизғалдоқдай яшнашиб, чойжўшдай қайнашиб, йилқи бўлиб кишнашиб борибди.

3. Зулхумор ва кампир тасвири ўхшатишнинг яхши намунасидир: Зулхумор тишлари дурдай, кўзлари юлдуздай, оғизлари ўймоқдай, қошлари қундуздай, лаблари қирмиздай, икки юзи ойдай... – Кўзлари отдай манглайи чўтдай, калласи гов саватдай, қопадиган итдай, баҳайбат бойтебатдай кампир, чақадиган илондай, қари қилондай, бўйин сузиб булондай сувга келаётибди”.

Бу ўхшатишларнинг бири қаҳрамоннинг чиройини тасвирлаган бўлса, иккинчисида эса салбий қаҳрамоннинг қиёфаси акс эттирилган.

4. Достонда эпик қаҳрамонларнинг оти чопишида кийик ва қушга чоғиштирилган экан бу ўхшатишларда ботир отининг чопиш тезлиги ўша чоғиштирилган нарсанинг ҳаракат тезлигига тенглаштирилади:

Бораётир ғиркўк от.

Қаноти бор қушдай бўп.

Сувсиз чўлда бедов от

Кийикдай бўп хезлади.

Жонивор ғиркўк шириллаб

Қушдай учиб боради.

Ушбу ўхшатишлар икки предмет ва воқеани, ҳодисалар ўртасидаги ўхшашликка асосланиб, улар бири орқали иккинчисининг белгисини, моҳиятини тўлароқ, аниқроқ, бўрттириброк кўрсатади.

Хулоса, ўхшатишнинг бошқа троплардан фарқи шундаки ўхшатиш предмет, ўхшатиладиган предмет, асос ва ўхшатиш воситаси мавжуд бўлади.

БАДИЙ АСАР ТИЛИ ВА УСЛУБ МАСАЛАЛАРИ

Муродулла Жўраев
ЖДПИ катта ўқитувчи,
Шоира Олимова,

Жиззах шаҳар 6 –мактаб ўқитувчиси

Бадиий асарнинг сифати ва қиммати, ёзувчининг индивидуал услуби, биринчи навбатда, унинг мақсад ва ниятини кенг китобхон оммасига етказиб берадиган жозибатор тили билан белгиланади. Шунга мувофиқ, бадиий асар тили ва ёзувчининг ўзига хос услуби масалалари билан, бадиий нутқ стилистикаси билан шуғулланиш илмий жамоатчиликнинг диққатини жалб этиб келаётган энг муҳим масалалардан бири бўлиб келмоқда.

Бадиий адабиётда тил жуда муҳим ва ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бадиий асарда тилнинг ҳал қилувчи аҳамиятга эгалиги ҳамда асар тилининг гўзал ва сермазмун бўлиши лозимлиги тўғрисида Алишер Навоий ва Лев Толстой, А.Авлоний, Фитрат, Ойбек, А.Қахҳор ва бошқа йирик сўз усталари ҳам ўз вақтларида қимматли фикрларини билдириб ўтишган.

Масалан, Абдулла Қодирий бадиий асар тилига ва сўзига, унинг бадиий–эстетик ҳамда ижтимоий ролига катта аҳамият берар ва ёш қаламкашлардан ҳам шуни талаб қилар эди: “Ўйсинсиз равишда хотирага келган ҳар бир сўздан жумлалар тўқимок фазилат саналмайдир. Сўз–қолип, фикр унинг ичига қўйилган ғишт бўлсин, кўпчилик хумдонидан пишиб чикқач, янги ҳаёт айвонига асос бўлиб ётсин.....”³⁵ Ойбек ҳам ўзининг адабий–танқидий мақолаларида санъаткорнинг бадиий асар тилидаги маҳорати масалаларига алоҳида эътибор билан қарайди. Шуниси муҳимки, Ойбек ўзбек танқидчилигида биринчи бўлиб 30–йиллардаёқ, бадиий асар, жумладан, шеърят тили масаласига оид махсус мақола ёзди. Бу мақолада у кўпчилик шоир ва ёзувчиларни тил–бадиий асарнинг узвий тўқимаси, уни юзага келтирувчи бош ҳужайралар мажмуаси эканлигини тушуниб етмасликда айблайди, ўз қаламкаш дўстларини “сўз танлашда жиддий ўйлашга”, “ҳар бир сўзни чертиб” ишлатишга чақиради.³⁶

Дарҳақиқат, “тирик жонларнинг униб–ўсиши учун тоза ҳавонинг аҳамияти қанчалик катта бўлса, адабиётимизнинг равнақи учун чинакам бадиий тилнинг аҳамияти ҳам шунчалик зўр”.³⁷ Чунки бадиий адабиёт сўзнинг беқиёс товланишлари орқали инсоннинг барча хусусиятларини санъатнинг рассомлик, ҳайкалтарошлик, мусиқа сингари бошқа турларнинг тасвирлаганидек ҳам образли, ҳам жонли, худди кўл билан ушлаб кўриш мумкин бўлганидек қилиб акс эттиради. Ёзувчи учун сўз ҳам қурол, ҳам бўёқ, ҳам соз, ҳам товуш, ҳам мўйқалам вазифасини бажаради, яъни сўз моҳир ёзувчилар кўлида образли фикрлаш, гўзал поэтик манзаралар чизиш учун ажиб восита бўлиб хизмат қилади. Шу ўринда машҳур адибимиз

³⁵ Қодирий Абдулла. Кичик асарлар. –Тошкент:1969.–Б. 186–187.

³⁶ Ойбек. Ўзбек поэзиясида тил. Асарлар. Ўн томлик. IX том. –Тошкент: 1974. –Б. 238–244.

³⁷ Қодиров П. Бадиий тил муаммолари//Мақолалар тўплами. –Тошкент: 1977. –Б. 140.

А.Қаҳҳорнинг тил ҳақидаги қарашларини анча кенг ўрганган адабиётшунос олим Усмонжон Қосимовнинг куйидаги фикрларини ҳам келтириб ўтмоқчимиз: “Адибларимиз орасида бадиий асар тили масаласига Абдулла Қаҳҳор каби катта ва жиддий эътибор берган бошқа ёзувчи топилмаса керак”.³⁸ Дарҳақиқат, Абдулла Қаҳҳорнинг бадиий асар тили ҳақидаги қарашлари кўпгина ижодкорларнинг фикрлари билан муштараклик касб этса-да, айна пайтда, улардан фарқ ҳам қилади.

Абдулла Қаҳҳор тилни – адабиётнинг “асосий қуроли” деб таърифлайди. Тил дарҳақиқат, ёзувчининг асосий қуроли ва асар мазмунининг муносиб бир шаклда намоён бўлишидир. Бу ҳақда ёзувчи шундай дейди: “Адабиёт–бу тил. Мен шу вақтга қадар бирор ёзувчининг тилсиз, имо–ишоралар билан бадиий асар яратганини эшитганим йўқ... Агар ҳозир мендан “Сиз учун тил бадиий ижоднинг бошқа муаммолари ўртасида қандай ўрин тутади?” деб сўрашса, мен жавоб беришга қийналаман. “Асосий ўринни”, – дейишдан бошқа сўзим йўқ”.³⁹

Адибнинг бу сўзларидан “яхши тили йўқ асарда чуқур мазмун ҳам йўқ”, – деб хулоса чиқариш мумкин. Негаки, тил шундай бир кўзгуки, унда бадиий адабиётнинг барча фазилат ва нуқсонлари акс этади. Дарҳақиқат, мумтоз адабиёт вакиллариининг мукамал мазмун яратиш мақсадида асар тилидаги ҳар бир жумла, ҳар бир сўз ва ҳатто айрим товушларга ҳам жиддий эътибор бериши – бадиий ижоднинг “олтин қонун”ларидан бирига айланган. Асар тилининг соддалиги ва тиниқлиги шу билан белгиланадики, у ёзувчи фикрини китобхонга тўлиқ англатиши ва асарда тасвирланаётган инсон киёфасини, предмет ёки муайян ҳолатни ўқувчи кўз олдида яққол гавдалантира олсин.

Ёзувчи ва шоирларимиз ўз асарларида маълум бир даврни, маълум бир муҳитни ва хилма–хил инсоний характерларни ўзига хос тил ва миллий руҳ воситаси билан тасвирлаш жараёнида адабий тилимизга жуда катта сўз бойликлари олиб кириш баробарида унинг ифода кучини бекиёс даражада ошириб борадилар.

Ёзувчининг ижодий мушоҳадакорлиги, ўзига хос фикр ва фантазияси, ҳис ва туйғулари унинг нималарни ёзганидагина эмас, қандай услуб билан ёзганида ҳам кўринади. Йирик бадиий асарларда кўплаб ҳар хил характерлар тасвирланади, турли воқеалар кўз олдимиздан ўтади. Буларнинг ҳаммасини ичдан бирлаштириб, яхлит бир асар қилиб турган нарса ягона ғоя, сюжет, композиция, конфликт ва ҳоказоларгина эмас. Ғоя ҳам, сюжет, композиция ва конфликт ҳам фақат ёзувчининг ички дунёсида бир–бирига пайванд бўлиб, яхлитланади. Шу сабабли адабиёт нималигини яхши биладиган кишилар янги асарларни кўлга олганларида ундан фақат ҳаёт тасвирларинигина эмас, балки муаллифнинг ўзига хос услубини ҳам англаб етишга ҳаракат қиладилар. Бадиий адабиётда реализм ҳамма вақт ижодий метод бирлигига путур етказмаган ҳолда шахсий услубларнинг ҳам хилма– хил бўлишига имкон беради. Шахсий услуб ҳақида француз ёзувчиси Бюффон “Услуб демак – одам демакдир”, деган эди. Бюффон бу ерда одам деб, ёзувчининг ўз шахсини назарда тутаётганлигини англаш қийин эмас.

³⁸ Қосимов У. Ёзувчининг сирлари. –Тошкент: 1995. –Б. 25.

³⁹ Вопросы литературы. 1967. №6 с. 114–116.

Шахснинг характери нима иш қилганлиги билангина эмас, балки бу ишни қандай қилиб, қайси йўллар билан амалга оширганлиги билан ҳам белгиланади. Дарҳақиқат, шундай экан, ҳар бир ижодкорнинг ўзига хос услуби бир воқеани қандай сўзлар воситасида, қайси образларда акс эттириши билан кўз ўнгимизда намоён бўлади.

ЛИРИКАДА НАВОИЙГА БАХШИЁНА

**Паризод Туропова, ЖДПИ ўқитувчиси
Муқаддас Пўлатова, Жиззах шаҳар
6– мактаб ўқитувчиси**

Адабий–бадий ва тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, шеърият мулкининг султони Мир Алишер Навоий ижодидан таъсирланмаган, илҳомланмаган шоир ёки шоиранинг ўзи йўқ. Бу ҳолат бугунда ҳам давом этиб келмоқда ва яна асрлар оша давом этади, деб ўйлаймиз. Фикримиз исботи сифатида:

Навоий дилимга навое айламиш,

Сатрлар сеҳрида садое айламиш.

Май куйиб берибон синган сафолга,

Харобот кўнглимни биное айламиш[1,14], –

деб куйлаган, жаззахлик шоира Зуҳра Мамадалиева ижодига назар ташлар эканмиз, уни қалбини Мир Алишер Навоий ғазалиётидаги диний–тасаввуфий, фалсафий–ижтимоий масалаларнинг бадий тасвирлари таъсирлантирганлиги ва бунинг натижасида унинг туйғулари юракдан чиққан оҳорли сатрларда жаранглаганини шоҳиди бўламиз.

Дарҳақиқат, “Харобот ичра кирдум ошуфтаҳол, Май истарға илгимда синган сафол” деб куйлаган Алишер Навоийга жавобан шоира бу шеърида кўнгил майли ила Навоий хароботига, яъниким шеърият бўстонига, Баҳром Дилоромни истагандай интилгани, лекин Лайли дийдорига етолмаган Мажнундай ҳолга тушиб қолганини сатрларга сингдирганини кўришимиз мумкин.

Сўнгра майл этди дил харобат сорига,

Баҳром майл этгандай Дилором ёрига.

Интилди, излади, истади, етмади

Мажнуни бенаво Лайли дийдорига[1,14] –

Шоира дунёқараш, ҳиссиёти, кечинмалари ва ҳаётий хулосаларини, талмех санъатидан санъаткорона фойдаланиб, мазкур бадий образлар воситасида ифодалаган. Шеърда Баҳром, Дилором, Лайли, Мажнун поэтик восита ва уларни қўллаш билан моҳиятан, шоиранинг дарду изтироблари, ҳасратга йўғрилган кечинмлари оҳорли бадий ифодасини топган. Шеърда ортикча бадий бўёқлар учрамайди. Шоира Навоий шеърият бўстонига боғлиқ туйғуларини Лайли ва Мажнун тақдирига қиёсан тасвирлайди.

Ҳеч кимга сир эмаски, ўзбек адабиёти, хусусан шеърияти, дунё адабиётининг ажралмас таркибий қисми сифатида, ворисийлик ва адабий анъаналар намоён этган бадий – эстетик тамойилларга суяниб ривожланди. Лекин шоирликнинг биринчи ўзига хос белгиси сўз шоир талқинида янги маъно улашиш. Ворисийлик ва ижодий анъаналарга суяниб изчил қалам тебратаётган, шоира Зуҳра Мамадалиева шеърларидаги мисралар, вазн, ғоя,

бадиият жиҳатидан Навоий сатрларига ҳамоҳанг ёзилган. Шоира шеърларида мавзуга боғлаб, Навоий асарлари қаҳрамонларини тилга олади. Навоийга атаб шеърлар яратади, шеърларида Навоий сатрларини айнан келтиради. Унинг “Навоийга бахшида” шеърида шу фикримизнинг исботини кўрамиз:

Атиргулнинг япроғида қоним қолмиш,
Булбул забонида хаста жоним қолмиш.
Айтилмаган битта сўз–армоним қолмиш,
“Мен ёмон бордим, вале сен яхши қол” [1,10].

Хўш, ҳассос шоира, Зухра Мамадалиева ижодда нима сабабдан, Навоий ижодига эргашиш, ундан таъсирланиш ҳисларини олган? Тўғри, ижодда таъсирларсиз ҳеч бир ижодкор кўз очиши мумкин эмас, ҳақиқий шеър шундай улуғ маънавият чашмаларидан ташналигини қондирмасдан, камолотга етиши душвор. Айниқса, шеърият мулкининг султони Мир Алишер Навоийдан.

Лекин шуни алоҳида эътироф этиш керакки, етук ижодкорнинг шеъри шакл ва маънода шоирнинг ўзини ҳам, ўзга ижодкорларни ҳам такрорламаслиги лозим. Назаримизда, Зухра Мамадалиева шундай шоирлардан. У Навоийдан таъсирланиб, унинг буюк даҳосига таъзим этса–да, ўз шеъриятига Навоийёна қараш ва туйғуларни ўзига хос оҳангда сингдира олган. Унинг Навоий анъаналарига муносабатининг бир кўриниши шоир қўллаган сўз, сўз бирикмасини маҳорат билан ўз шеърига қўллаганида кўришимиз мумкин:

Ойданам оппоқ тилакли ойдин оқшомим била,
Кетди у кўкка учиб, мен қолдим армоним била.
Ишқида дунёси не, ўзимданам кечдим, вале,
“Бир қадах май ичмадим сарви гуландомим била”[1,11].

Назаримизда, шоира Мир Алишер Навоий шеъриятига бўлган муҳаббати ила шоир билан соф самимий кўнгили била суҳбат кура олмагани учун армонда, бедор, ойдин кечада ўз кўнгили ҳам унга бегона эканлигидан зорланмоқда. Шоира шеърларидаги дард китобхон қалби тубидаги ана шу туйғуларни кўзғайди, шеърнинг таъсир кучини оширади. Шоиранинг ушбу Навоийёна услубга эргашиши шеърларининг, қайси мавзуда бўлишидан қатъи назар, аксариятида яққол намоён бўлади.

Юрагида ишқ алангаси ловуллаб турган шоирани, ишқ мулкининг шоҳи Навоийнинг ҳақиқий ва мажозий ишқни тараннум этувчи ғазалларидаги инсонпарварлик туйғулари, комил инсон ҳақидаги умумбашарий ғояларидан таъсирланиб, уларни нафақат маъқуллаб, балки уларни бойитиб, давом эттирганлигини “Дарвеш Навоий” шеърида ҳам кўришимиз мумкин:

Буюк шоир демоқ осон,
Пир демоқ осон...
Шеър мулкида,
Сўз мулкида,
Ғазал мулкида
Соҳиқирон бўлса ҳамки
Дарвеш Навоий[1,13].

Шеър таҳлили шуни кўрсатадики, ижодкор мисраларда ғоявий яхлитликка интилади, ўзи айтмоқчи бўлган ғояни, байтма–байт очиб, далиллаб боришга ва оҳорли умумлашма билан яқунлашга ҳаракат қилади.

Топмадим, деб, дунёдан
Бир меҳрибоне.
Зоҳид мақомидан аъло
Майхона жоми[1,13].

Шеър давомини ўқир эканмиз, унда шакл, сўзларнинг қўлланиши ҳам лирик қаҳрамон кечинмаси ифодасида ўзига хос услубда берилганини кўрамиз. Шунингдек, шоиранинг Навоий ижодидан илҳомланиш даражаси, уни шеърда бадиий образлар табиатидаги мутаносибликда ҳам акс этади:

Ё “Харобат аро кирдим
Ошуфтаҳол”, деб,
“Май истарга илгимда
Синган сафол” деб,
Ҳақ йўлида,
Ишқ йўлида,
Ирфон йўлида
Пири калон бўлса ҳамки
Дарвеш Навоий...
Комил инсон бўлса ҳамки,
Дарвеш Навоий [1,13].

Шунингдек, шоира шеърда бошлама мисрада айтилган ғояни байтма–байт очиб, далиллаб боради ва поэтик умумлашма чиқаради. Бу шоира шеъриятининг ўзига хос хусусияти.

Маълумки, реаллик идеални ўйлашга туртки берар экан, шоира шеърдаги такрорланаётган сўз, такрорсиз ташбеҳни ортидан эргаштирган ва ана шу ташбеҳ ҳаракатида янги фикр кўз очган ва ташқи манзарадан ботиний чизгига етаклаган.

Шоира шеърларини ўрганар эканмиз, унинг шеърий оҳанглари таъсирли, халқона ташбеҳлари эса оҳорли, ифодаси нафис эканлиги яққол кўзга ташланади. “Навоийдан байтлар ўқинг” шеъри бунга яққол исбот бўла олади:

Тўлин ой–ла зийнатланган оқшом чоғи,
Гул атрига тўлган лаҳза ишқинг боғи,
Агар Лайли бўлолмаса, дил тош қотсин,
Навоийдан байтлар ўқинг, тонглар отсин [2,11].

Зухра Мамадалиева шеърларини ўқир эканмиз, у ҳақида, Ўзбекистон Халқ шоири Жамол Камол бежизга куйидагича фикр билдирмаганлигига амин бўламиз. “Жиззах–буюк шоиримиз Ҳамид Олимжоннинг Ватани. Ана шу табаррук тупроқдан яна бир юлдуз балқиб чиқиши – қувончли ҳодиса...Илло, истеъдод ҳар куни туғилмайди, миллиондан биттаси бўлиб дунёга келади”[3, 3–4].

Демак, Зухра Мамадалиева ўз шеърларининг туб моҳияти билан Алишер Навоий аънаналаридан таъсирланган. Алишер Навоий ғазалларидаги зўр фикрлар, образли ифодалар шоира шеърларида ўзгача олам, ранг орқали ифодаланган. Шоира ишлатилган поэтик тасвир усуллари асос эътибори билан лирик қаҳрамоннинг ички туйғулари, руҳий ҳолати, кечираётган дарду ҳасратлари, ишқ онларини орзу қилиб кечираётган дамларининг нечоғли азобли, гўёки туганмайдигандек қилиб тасвирлашга, умуман олганда,

инсоннинг субъектив ҳаётининг характерли манзараларини очишга хизмат эттирилган.

VAZIFADOSH BOG‘LOVCHILARNING FUNKSIONAL–STILISTIK XUSUSIYATLARI

Aslam Usmonov,
Jizzax DPI o‘qituvchisi,
Sh. Mutalov,

Baxmal tumanidagi 51–maktab o‘qituvchisi,

Adabiyotlarda “yordamchi so‘zlar” nomi ostiga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama birlashtiriladi. Bulardan ko‘makchini leksema shakl tarkibiga kiradigan morfema deb, noparadigmatik morfemalar majmui deb baholadik. Demak, grammatik birlik turkumlari deganda avvalo bog‘lovchi va yuklama nazarda tutiladi.[1;122]

Bog‘lovchi – gap bo‘laklari va sodda gaplarni bir–biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘z turkumining biri. Bog‘lovchi so‘zlar orasidagi, gaplar orasidagi sintaktik munosabatni ta‘minlaydi va ma‘lum bir grammatik ma‘noni ifodalaydi.

Bog‘lovchilar sintaktik aloqaning qanday turini ifodalashiga ko‘ra teng bog‘lovchilar va ergash bog‘lovchilar deb ikkiga guruhlanadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga oid barcha darsliklarda bog‘lovchilar gapdagi vazifasiga ko‘ra ikki turga ajralib tasnif qilinadi: 1) teng bog‘lovchilar, 2) ergashtiruvchi bog‘lovchilar.[4,5,6,7]

Teng bog‘lovchilar sodda gaplar tarkibidagi (shuningdek qo‘shma gaplar tarkibidagi) qismlarni o‘zaro bog‘laydi va quyidagi ma‘no turlariga ajratiladi:

1. Biriktiruv bog‘lovchilari: *va, hamda.*
2. Zidlov bog‘lovchilari: *ammo, lekin, biroq.*
3. Ayiruv bog‘lovchilari: *yo, yoki; goh ..., goh ...; dam..., dam.. kabi.*

Ergashtiruvchi bog‘lovchi asosan qo‘shma gap tarkibidagi ergash gapni bosh gapga bog‘laydi: *Endi qattiq o‘qimasak bo‘lmaydi, negaki test sinovlariga yaqin qolmoqda.*

Ma‘nosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) aniqlov: *ya‘ni, -ki//-kim;*
- 2) sabab: *chunki, negaki, sababki, zeroki;*
- 3) shart: *agar//gar//agarda, basharti, mabodo, garchi// garchand, modomiki.*

Bog‘lovchining adabiyotlarda tabiatiga quyidagi guruhlarga ajratilgan: 1) sof bog‘lovchi; 2) vazifadosh bog‘lovchi.[8:36]

Faqat bog‘lovchiga xos vazifa bajaruvchi yordamchi so‘z sof bog‘lovchi: *va, lekin, agar.*

Bir o‘rinda bog‘lovchi, boshqa o‘rinda ko‘makchi, yuklama, modal so‘z yoki biror mustaqil so‘z bo‘lib keladigan yordamchi vazifadosh bog‘lovchi hisoblanadi:

- bilan ko‘makchisi: *olma bilan anor;*
- na...na yuklamasi: *na otam bor, na onam bor;*
- balki modal so‘zi: *bu gaplar qulog‘imga kirmas, balki battar g‘ashimga tegar edi.*
- bir soni: *bir kulasan, bir yig‘laysan.*

Ta‘kid yuklamasi (*–ku, –da, –u, –yu*) gapda ifodalangan biror voqeani ta‘kidlash uchun qo‘llaniladi: *Sobir–ku keldi.* Ta‘kid yuklamasi hisoblangan *–u, –*

yu qo‘shimcha shaklidagi yuklama faqat ta‘kid ma‘nosini ifodalashdan tashqari bog‘lovchi vazifasida ham keladi.

Shuningdek, –u (yu), –da, ham, –a yuklamasi, ba‘zan ravishi ham bog‘lovchi vazifasida kelishi mumkin. Ayrim so‘zning bog‘lovchilik tabiatidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bog‘lovchining miqdori, ularning mohiyati, turi hanuzgacha aniq belgilanganicha yo‘q.[2.205] Bog‘lovchi–yuklama, ko‘makchi–bog‘lovchi, ko‘makchi–yuklama kabilar – til tizimida yordamchi so‘z turkumiga xos bo‘lgan «oraliq uchinchi». [2.206] –u, –yu bog‘lovchi–yuklama Odil Yoqubovning “Muqaddas” qissasida qo‘llanilishiga doir ba‘zi mulohazalarni keltiramiz.

Odil Yoqubovning “Muqaddas” qissasida jami 41 ta –yu bog‘lovchi– yuklamasi qo‘llangan bo‘lib, shundan faqat 19 tasi so‘zlarga kuchaytiruv–ta‘kid ma‘nosini yuklashga xizmat qilgan.

Masalan:

Men xuddi o‘sha paytga yetib borishni ko‘zlagan edim, lekin nima ham bo‘lib avtobus kela qolmadi–yu, mo‘ljallagan vaqtinga yetib borolmadim.

Jimjit, faqat qo‘shni hovlida chaqaloqning yig‘isi–yu, karavotning tagidan o‘tayotgan suvning mayin shildirashi eshitiladi.

Qissada –yu faqat kuchaytiruv–takid ma‘nosini ifodalab qolmasdan, qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasidagi biriktiruv, zidlov munosabatlarni ifodalaydi va qanday ma‘no–munosabatni bildirsa shu nomdagi bog‘lovchi vazifasini bajarib kelgan.

Qissada –yu bog‘lovchi–yuklamasi 20 ta qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lab kelgan bo‘lib, shu qo‘shma gaplarning 17 tasi biriktiruv mazmun–munosabatni ifodalagan bo‘lsa (Biriktiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplarning qismlari biriktiruv bog‘lovchilar hamda ba‘zi yuklamalar yordamida bog‘lanishi mumkin. Bunday gaplarda –u,–yu biriktiruv bog‘lovchisi bo‘lib keladi.), faqat 3 ta qo‘shma gapda zidlov munosabatni ifodalab kelgan.

Xulosa qilib aytganda, qo‘shimcha shaklidagi –yu yuklamasi turli xil ma‘noda qo‘llana olishi va bog‘lovchisi vazifasida qo‘llanishi uning o‘ziga xos funksional–stilistik xususiyatga ega ekanligini belgilaydi. Odil Yoqubov mahoratli so‘z ustasi sifatida –yu bog‘lovchisini turli xil ma‘nolarda qo‘llay olgan. Qissada qo‘llangan –yu bog‘lovchisini o‘rganish davomida adibning o‘ziga xos til va uslubga ega ekanlini, til birliklaridan mohirona foydalana olganligini ko‘ramiz.

Adabiyotlat ro‘yxati:

1. Sh. Rahmatullayev, Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent "Universitet" 2006–yil
2. R. Sayfullayeva va boshqalar, Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent. 2010–yil
3. F.Абдурахмонов, Ш. Шоабдурахмонов, А. Ҳожев. Ўзбек тили грамматикаси. Тошкент 1976 йил, 337 б.
4. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, II tomlik, I tom.–T.: 1966.360–bet; O‘zbek tili grammatikasi, I ton 567–b.;
5. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili.–T.: O‘qituvchi, 1978, 148–b.
6. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Xojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1–qism. –T.: O‘qituvchi, 1980, 425–b.;

7. Tursunov U. Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.– T.: O‘zbekishton, 1992, 382–b.

8. Mengliyev B.R va boshqalar... Ona tili. Qomus.–Toshkent. 2009–yil, 111–bet.

БЕЛГИ БИЛДИРУВЧИ СЎЗЛАР ЛЕКСЕМАЛАШУВИ

Холмухамедов Бахтиёр,
СамДУ ўқитувчиси

Лексемалашув ходисасининг юз беришини сўз туркумлари бўлинишида ўрганганимизда ҳосила маънонинг қайси сўз туркумига тегишлилигини назарда тутамиз. Чунки лексемалашаётган бирлик таркибидаги компонентлар турли сўз туркумларига оид бўлиши, бу, ўз навбатида, уларнинг қайсинисини биринчи ўринга қўйиш ва ўша туркумга киритиш мақсадга мувофиқлиги борасида мураккаблик туғдириши мумкин. Шу билан бирга, лексемалашув жараёнида тил материалининг қайси сўз туркумига тегишли эканлигидан ҳам кўз юмиб бўлмайди.

Аслида лексемалашув натижасида пайдо бўлган лексемаларга сўз туркумлари бўлинишида қарашнинг ўзи ҳам шартлидир, аммо бундай ёндашув тадқиқот материалларини тартибга солиш, лексемалашув жараёни юзасидан аниқ хулосалар чиқариш, ҳар бир сўз туркумига доир бирликларнинг лексемалашув механизмлари ҳақида муайян хулосаларга келиш имконини беради.

Сифат сўзлар лексемалашувини тўлиқ ёритиш ва бу борадаги тасаввурларни бойитиш учун, аввало, уларга диахроник аспектда ёндашишга эҳтиёж сезилади. Дарҳақиқат, ўзбек тилида сифатлар, асосан, тарихан лексемалашувга учраган. Э.Фозилов қадимги обидалар тилида *йабыз йаблақ «ёмон», чоғлуг йалынлыг «оташи, оловли», аруқ туруқ «озгин», ач туруқ «оч», иринч йарлыг «камбагал, қашиоқ», йоқ чыгай «қашиоқ», асан тўкэл «соғ», эдгу огли «доншманд», адасыз тудасыз «хавфсиз»* сингари сифатлар лексемалашганлиги ҳақида маълумот беради [2. 55]. Уларнинг бирортаси ҳам шу ҳолатда ҳозиргача етиб келган эмас. Аммо шу моделда ясалган от туркумидаги *бўйинтуруқ* сўзи «1. Омочнинг иш ҳайвони бўйнига тақиладиган қисми. 2.кўчма. Жабр–зулм, асорат» [4.403] маъноларида ҳозирги ўзбек тилида мавжуд. Бу сўзнинг ўзи ифода этаётган тушунчага боғлиқ равишда дастлаб асосий, кейинчалик кўчма маънолари ҳам маълум вақтдан кейин йўқолиб кетиши, ҳеч бўлмаганда пассивлашиб қолиши мумкин.

Ж.Ҳамдамов сифатларнинг ясалиши хусусида сўз юритар экан, уларнинг синтактик усул билан ясалиши масаласига ҳам тўхталиб ўтади. Олимнинг кўрсатишича, сифатларнинг *сифат+сифат, сон+сифат, сифат+от, сон+сифатдош, от+сифат, от+от, равиш+сифат, олмош+сифат* қолипидаги турлари бор [3. 69]. Ясалиш кўламнинг бу қадар кенг бўлишига қарамасдан, лексемалашув уларнинг барчасида ҳам рўй бермайди. Бу ўринда фақат *сифат+от* қолипида ясалган сифатларнинг лексемалашуви ҳақида гапириш мумкин: *ул қара қаиш* (Лутфий), *чақыр қанат* [қуш] (Навоий), *раҳмы йоқ қаттыг конул* (Хўжаназар Ҳувайдо) каби. Аммо гап шундаки, уларни *қора қош қиз, чақир қанот қуш, қаттиқ кўнгил одам*

бирикмали ҳолатида лексемалашув ҳодисаси юз берган деб бўлмайди. Улар шунчаки *қиз, қуш, одам* сўзларининг сифати, аниқловчиси, холос. Агар улар метафоризация ҳодисасига учраб, матнда *қора қош, чақир қанот, қаттиқ кўнгил* шаклида алоҳида қўлланса ва *қиз, қуш, одам* маъноларини ифода этсагина, уларнинг лексемалашув ҳодисасига учраганлигини эътироф этиш мумкин.

Худди шундай *оммабон, хомхаёл, соддадил, софдил, баландпарвоз, қизил кўк, жигар ранг, саккиз тепки, мош ранг, қиммат баҳо, оқкўнгил, қиррабурун, оёқ яланг, яланг оёқ, шалпанг қулоқ, тош юрак, қилтомоқ, кул ранг, ҳаво ранг, энгил табиат, эрксевар, меҳнатсевар, эртапишар, тезюрар, ёқавайрон, хонавайрон* сўзларининг ҳаммаси ҳам бир хилда лексемалашмаган. Улар орасидаги *хомхаёл, саккиз тепки, қилтомоқ, ишёқмас, ёқавайрон, хонавайрон* сингари сўзлар тўлиқ лексикализациялашиб бўлган.

А.Ҳожиев *оромбахш, роҳатбахш, ҳузурбахш, жонбахш, ҳаётбахш* сўзларининг **бахш**; *хушмуомала, хушмуомала, хуштабиат, хушфеъл* сўзларининг **хуш** қисми ҳозирги ўзбек тилида мустақил қўлланилмаслигини, *ҳозиржавоб, ёлғизоёқ, камҳосил, камқувват, ишёқмас, хушёқмас, ўзибилармон, ўзбошимча* бирикмалари таркибидаги сўзлар ўз мустақиллигини йўқота бориб, кўшма сифатларга яқинлашиши ва охири бутунлай кўшма сифатга айланиши мумкинлигини айтади [6. 28]. Бу эса сифатлар лексикализациялашуви нафақат диахроник, балки синхроник, шу билан бирга, узлуксиз жараён эканлигидан далолат беради.

Ўзбек тили мустақил сўзлар тизими, хусусан, белги билдирувчи сўзлар сирасида равиш сўзлар ўзига хос хусусиятлари билан бошқа белги билдирувчи сўзлардан ажралиб туради. Равиш туркумига кирувчи бир қатор сўзларнинг равишлик мақоми тўла аниқланмаган ҳолатлар ҳам борки, бу айни туркумга киритилган ёки киритлмаган сўзларнинг лисоний табиати юзасидан тадқиқотларни давом эттириш зарурлигини кўрсатади. Мустақиллик йилларида бу сўз туркумининг туркона табиатини ўрганган ишларда, хусусан, Т.Асадовнинг номзодлик диссертациясида ҳам айрим сўзларнинг равишлик мақоми тўлиқ ва аниқ очиб берилмаган [1]. Шу маънода равишлар лексемалашуви ҳақида мулоҳаза юритиш ҳам лексемалашув ҳодисаси ҳақидаги тасаввуримизни янги маълумотлар билан кенгайтиради. Биз шу пайтга қадар, асосан, тилдаги мустақил лексик бирликларнинг ўзаро қўшиливидаги синтактик алоқанинг йўқолиб, яхлит ҳолича бир лексик бирликка айланишини кўриб ўтган бўлсак, равишлар таҳлили лексемалашув ҳодисаси қўламининг кенглигидан, унда нафақат мустақил лексик маъноларни ифодаловчи лексик бирликлар, балки грамматик воситаларнинг ҳам компонент сифатида иштирок этишидан далолат беради.

Буни биз, айниқса, адвербиализация – бошқа сўз туркумларига оид тил бирликларининг равишлашуви жараёнида кузатамиз. Бу ўринда биз учун конверсия йўли билан адвербиализация юз бериши – *яхши, ёмон, чиройли, катта, бўш, мулойим, дадил, ўтқир, маҳкам, табиий, текин, қиммат, арзон* ва бошқа сифатларнинг нутқда равиш вазифасида келиши аҳамиятли эмас. Улар бир матнда бу вазифани бажариши, иккинчи бир матнда асл ҳолига қайтиши мумкин. Биз учун муҳими бошқа сўз туркумларига оид лексик ёки

грамматик бирликларнинг лексемалашув орқали равиш вазифасида қўлланишга ўтиб, шу вазифада қўлланишга ўтиб, «қотиб» қолиши муҳим.

Конверсия йўли билан бошқа сўз туркумларига оид бирликларнинг равишга ўтиши ҳақида А.Ғуломов қуйидагиларни ёзган: «*Чиндан* (у *чиндан сени севади*), *бирдан* (у *бирдан қулиб юборди*) каби сўзларнинг келишик формасини олган ва олмаган ҳолатлари сўз туркуми жиҳатидан бир хил эмас: *чин* – сифат, *от*, *бир* – сон. Бу сўзлар *чиндан*, *бирдан* формасида эса равишдир: маълум бир келишик формаси билан «қотиб», турланишнинг умумий парадигмасидан ажралиб, равиш бўлган (лекин улар формасини ўзгартирмаган ҳолда ҳам равиш каби қўллана олади: у *чин гапирди*: рост гапирди, ёлғон гапирмади; *бир айтди*, *икки айтди*, бунда равишнинг ҳосил бўлиши – сўз туркумининг ўзгариши айрим хусусиятга ҳам эга. Қиёсланг: *бирдан ёмғир уриб берди* (*бирдан* формаси парадигмадан ажралиб чиққан: изоляция) – *бола ҳисоблай бошлади*: *бирдан ярмини олсак*, *ярим қолади*; *бирга учни қўшсак...улар иккаласи бирга кетди* (ажралиш йўқ, тўла парадигма). Кўринадики, биз бунда грамматик форманинг лексемалашувини кўрамыз» [3. 50]. Демак, *чин*, *бир*, *икки* сўзлари фақат шу матндагина конверсияга учраб, равишга айланган. Бошқача айтганда, умумий парадигмасидан тўлиқ ажралиб кетмаган. Лекин *чиндан*, *бирдан*, *бирга* сўзлари таркибидаги *чин*, *бир* сўзлари, –дан, –га келишик кўшимчалари ўз парадигмасидан ажралиб чиққан ва лексемалашув жараёнида *чин* ва *бир* сўзлари билан ажралмас ҳолига келиб, бир парадигмани ҳосил қилган. Ўзбек тилидаги *ҳар вақт*, *ҳар қачон*, *ҳар доим*; *ҳеч вақт*, *ҳеч қачон*; *ҳамма вақт*; *бир вақт*, *бир қанча*, *бир талай*, *бир оз*, *бирйўла*, *биратўла*, *бирваракай*, *у ерда*, *у ерга*, *у ердан*, *ҳар ерда*, *ҳар ерга*, *ҳар ердан*; *ҳамма ёқда*, *ҳамма ёққа*, *ҳамма ёқдан*, *бошдан*, *бошда*, *олдин* сингари равишлар ҳақида ҳам шу гапни айтиш мумкин.

Демак, лексемалашув ўзбек тилида равишлар ҳосил қилинишида бошқа сўз туркумларининг ясалишига нисбатан муҳим ўрин тутди.

Шу ўринда айрим лексемалашган равишларнинг диахронияси ҳақида ҳам гапириш мумкин. Ҳозирда *бугун* шаклида қўлланиладиган *букун* тарихан лексемалашган, яъни *бу* ва *кун* сўзларининг бирикувидан ҳосил бўлган ҳамда шу пайтгача ибтидоий шакли ва мазмунини сақлаб келмоқда. Э.Фозиловнинг «Ўзбек тилининг тарихий морфологияси» китобида келтирилган «*тез орада*, *тезда*» маъносини берадиган *эрту кич*, «*ҳар кун*, *кунда*» маъносини берадиган *кунтэмэк* сўзлари дастлабки шаклини сақлаб қолмаган. Лексемалашган *толу тукэл*, *тэсу тукэл* кўшма сўзлари эса форсча+арабча *батамом* ва арабча+арабча *тамоман* лексемаларига ўз ўрнини бўшатиб берган [2. 132].

Адабиётлар:

1. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш: Филол.фан.ном...дисс. – Тошкент, 2009.
2. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент, 1965. – 144 б.
3. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – 612 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1–жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.

5. Хамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи. Иккинчи қисм. Тарихий морфология. Биринчи бўлим. – Самарқанд, 2003. – 180 б.
6. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида кўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1963. – 145 б.

SHOH VA SHOIR

Ihom Parmonov, JDPI o‘qituvchisi
H.I.Majidov JDPI talabasi

Sharq uyg‘onish davrining yetuk vakillaridan bo‘lgan Husayn Boyqaro o‘zining betakror g‘azallari hamda “Risola” asari bilan o‘zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan ulug‘ siymolardan hisoblanadi.

Husayn Boyqaroning “Risola” asari “Munojot” ruhida yozilgan: unda shox va bu olam saodati cheksiz ne‘matlarga yetkazgani, Aburahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi allomalar bilan zamondosh va hamnafas qilgani uchun Alloh taolaga shukronalar aytadi.

Risola 1945 yilda turk olimi Ismoil Hikmat Ertoylon tomonidan Omosiya kutubxonasidan topilib, 1945 yilda uning fotofaksimilesi nashr ettirilgan. 1954 yilda Rimda shu faksimile italyancha tarjimasi bilan turkolog olim Turxon Ganjaviy tomonidan chop etilgan. 1966 yili bu risola tekstini kichik kirish so‘zi bilan Hamid Orasli “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 3–sonida e‘lon qildi.

Afg‘onistonlik olim Muhammad Yakub Vohidiy Juzjoniy 1968 yilda Qobulda Husayn Boyqaroning to‘la devoni oxirida risolaning ba‘zi xatolaridan holi bo‘lgan tekstini chiqardi. Xamid Oraoli Husayn Boyqaro risolasini 1485–1492–yillar orasida yozilgan, deya taxmin qiladi.

Husayn Boyqaro o‘z risolasini “Podshohlar podshohi” –xudoga hamdu sano aytishdek traditsion kirish bilan boshlaydi. O‘zining podshohligidan shukurlar qiladi. Izhori Fazl tarzida o‘ziga himmat nasib bo‘lganligi, g‘urur va qusurlarda yo‘l bermay, ba‘zi taxtga musharraf qilingan ajdodlarining zulmpeshalik, tajovuzkorlik, vaqf qoidalarini buzganliklarini bartaraf qilib, ulardan o‘zgacha siyosat tutganligini bayon etadi. Bunda birinchi tadbirlar qatorida madrasalaridagi tartib, ularda o‘tiladigan fanlar, qator mamlakatlardan talabalar kelib, bu madrasalarda tahsil olishi, mudarris hamda talabalar uchun yaratilgan sharoitlar, tojir va muxojirlar yo‘llaridagi xavf–xatarni yo‘qotish, manzillarda rabot, karvonsaroylar bino qilish ishlari yo‘lga qo‘yilganligi hususida so‘z ketadi.

Risolaning so‘ngida Husayn Boyqaro shunday ulug‘ san‘atkor va ulug‘ inson–Navoiy bilan bir davr, bir davlatda yashash baxtiga musharrafligidan, ayniqsa u bilan do‘st bo‘lganligidan ollohga ko‘p shukrona o‘qiydi.

Asardagi muallif obrazi haqida shuni aytish mumkinki, u hayotning oddiy kuzatuvchisi yoki mushohidi, shohlik masnasida o‘tirgan loqayd hukmron emasdek tuyuladi. U taxtni egallagan paytlarida tanazzulga yuz tutgan sohalarni to‘g‘ri idrok eta olgan va ularni tiklashga intilgan, murakkab adabiy jarayonni yaxshi va undagi hodisalarni o‘z sinfi nuqtai–nazaridan baholay olgan.

Husayn Boyqaro risolasining til va uslubi sodda, ravon hamda go‘zal. Unda Husayn Boyqaro bu asari bilan adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ijodkor sifatida ana shu adabiyotimiz tarixida muhim o‘rin egallaydi. Zero, asarda Husayn Boyqaroning adabiyot va ilm ahlini yuksak qadrlaganligi ko‘rinib turibdi. Shuningdek, Hirot hukumdorining fozilu olimlarni, ijodkorlarni hurmat qilishi

rivoyatlarda ham bir necha marta ta’kidlanadi. Jumladan, “Mir Alisher va Sulton Husayn Boyqaro”, “Olib keling” kabi rivoyatlarda Sulton Husayn Boyqaro vazirlar ig’vosiga uchib, Navoiy dilini og’ritgan bo’lsada, oradan ma’lum vaqt o’tgach, qilgan ishiga pushoymon bo’lib, do’stining diydoriga mushtoq bo’lishi tasvirlansa, “Shoir jilovdori” rivoyatida podshoning ijod ahliga munosabati o’z badiiy ifodasini topgan. Bu rivoyatda hikoya qilinishicha, Hazrat Alisher Navoiy “Xamsa” asarini yozib tugallagandan keyin uni do’sti Husayn Boyqaroga taqdim qilmoq niyatida saroyga boribdi. Buni ko’rgan Sulton Husayn Boyqaro behad xursand bo’lib, Hirotdagi barcha hukamo–yu, ulamo, shoiru fuzalo, sozandayu xonondalarni dunyoda tengi yo’q Bog’i–Husayinga yig’ilishga amir etibdi. Sulton Husayn Boyqaroning yulduzni ko’zlar zo’r oti bo’lib, xalq uni “Sulton ot” der ekan. Sulton Husayn Boyqaro do’sti Navoiyni Sulton otga mindirib, o’zi unga jilovdor bo’lib piyoda yurib butun shahri Hirotni aylantirib chiqibdi. U bu hodisani ko’rib hayron bo’lib turgan ulusga:

–Ahli fuqaro, shoirimiz Alisher Navoiyni Sulton otga mindirib unga jilovdorlik qilganimni sababini bilib qo’yinglar, toki sultonimizga nima bo’ldi, deb hayron bo’lmanglar. Do’stim Alisher o’z “Xamsa” larini yozib tugatibdirilar. Men hozir sizning sultoningiz, shu elu–yurt podshosiman. Ammo qarshingizda turgan do’stim Alisher, elimizning kelgusi avlodlari ham tazimda bo’ladigan sultondir. Shunday ulug’ zotga jilovdor bo’lganimdan behad shodmon – deydiki, shuning o’zi Sulton Husayn Boyqaro adabiyot va ilm ahlini g’oyat qadrlaganligini ko’rsatadigan dalildir.

Shuni ham alohida qayd etishimiz lozimki, she’riyat mulkining sohibqironi Alisher Navoiy ham Sulton Husayn Boyqaroni adabiyotshunos sifatida, she’riyatga bo’lgan iqtidori borasida “Majolisun–nafois” oxirida ikki naql keltiradiki, ularning birida Xusrav Dehlaviyning noyob ma’noli bir mat’lasi yuzasidan Husaiynning bildirgan zo’r mantiqli e’tirozi hikoya qilinadi:

“...Mir Xisrav ... hinducha ashorida ajib–g’arib ma’ni aytibdur va ul budirkim: mahbub bahor ayyomida bir yon boradurmish bo’lgay va yog’in jihatidan yer balchiq bo’lmish bo’lgay va aning ayog’i balchig’din toyib yiqilur chog’ida g’oyat nozukligidin yogin rishtasin madadi bila tutub ko’pmish bo’lgay...”

Bu ma’no Navoiyga juda ma’qul bo’ladi. Bu haqda u adabiyot muxlislariga gapirib beradi. Ular ham Xusrav she’riga tahsin o’qiydilar. Alisher Navoiy bu she’rni bir kuni Sulton Husayn Boyqaroga ko’rsatadi. Lekin, Sulton Husayn Boyqaro bu she’rga Alisher Navoiy kutgandek tahsin emas, balki e’tiroz bildiradi. Yani “Ul yong’in kartasi yuqoridin quyi inib keladur, muqarrardurkim, rishtasidagi xamul holdur. Rishtaikim, mayli kuyi bo’lgay, aning madadi bila yiqiladurgon o’zin asramog’i maholdur ...”. Buni eshitgan Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaroning she’r fahimligidagi zakovatiga qoyil qoladi.

ШАРЛОТТА БРОНТЕ БАДИЙ ОЛАМИ

Гулчехра Дарвишова,
Ўзбекистон Республикаси

Миллий Гвардияси Ҳарбий– техника институти

Ҳозирги кун адабиётшунослигида ёзувчиларнинг ижод кўлами турли – туманлиги боис, уларнинг ҳар бирига алоҳида ёндашишни тақозо этади. Бу

ўринда ҳар бир ёзувчининг ижодий фаолияти, бадиий оламини ўрганиш муҳим. Шунингдек, Шарлотта Бронтенинг бадиий олами ҳам ўзига хослиги билан бошқалардан ажралиб туради.

Бадиий олам ёзувчининг маълум адабиёт қонуниятларига бўйсуниб бадиий воситалар орқали тасаввуридаги воқеликни реаллашувидир.

Адабиётшуносликда бадиий олам тўғрисида сўз борар экан, авваламбор бадиий сўзининг қай маънода қўлланилиши ва қайси соҳаларда ўрганилиб тадқиқ этилишига эътиборимизни қаратсак. Луғатлардан изоҳлар: Бадиий – бадииятга, нафис санъатга оид, гўзал, ажойиб. 1. Воқеликни нафис санъат воситалари, усуллари, образлари орқали ифода этувчи, тасвирловчи. 2. Бадиийликка тегишли, мансуб: бадиий маҳорат, бадиий тасвир, бадиий тафаккур.

Бадиий олам ҳақиқий дунё – макон, вақт, психологик ва ахлоқий муҳит каби параметр ва тоифаларга эга. Аммо шу билан бирга, асарнинг бадиий олами алоҳида тизим эмас, балки муаллифнинг ички дунёси ва воқелик ўртасидаги муносабатлар натижасидир.

Умуман олганда, бадиий олам ўзига хос яхлит ахборот тизими ва бадиий маданият феномени сифатида бир қатор коммуникатив объектларга қаратилган. Улар орасида муаллиф асар матни, воқелик, контекст ва китобхоннинг фикри инobatга олинади. Ушбу таркибий қисмларнинг барчаси ўзига хос тизимни ва алоҳида мавжуд тизимларни англатади, улар турли мезонларга кўра – мантикий, ирсий, интуитив, рамзий, семиотик, ахборот ва бошқалар – бадиий оламнинг ахборот тизими билан ўзаро боғлиқдир.

Ёзувчи ўқувчига асарнинг бадиий оламига кириб боришига ёрдам беради. Онгига эмас, балки унинг ҳис– туйғуларига таъсир қиладиган, тасаввурини бойитадиган бадиий образларни яратади, шунинг билан бирга, ёзувчи томонидан ўқувчи ўзини воқеаларнинг иштирокчиси деб ҳис қилиши учун, ўқувчини бўлаётган нарсаларга шахсий муносабатини уйғотадиган бадиий ва стилистик воситалар қўлланилади.

Маҳорат – моҳирлик, усталик, эпчиллик. Ижодий маҳорат. Ёзувчилик маҳорати.

Луғатларда келтирилган изоҳларни умумлаштириб, шундай хулоса қилиш мумкин. Ёзувчининг тасаввуридаги воқеликни ёрқин ифодалаш унинг бадиий маҳоратига боғлиқ. Бадиий маҳорат санъатини мукамал эгаллаган ёзувчигина ўз тасаввурларини воқелантира олади.

Беназир инглиз адабиётида ҳам ўзининг ана шундай бетакрор ижоди билан тарих солномасидан ўрин олган гўзал қобилият соҳибалари – опа–сингил Бронте хонимлар шеърияти ҳамда улар яратиб қолдирган асарлари ҳам то бугунги кунгача энг севиб ўқиладиган бебаҳо мерослардир. Ўзлари қисқа умр кечирган бўлсалар–да, бу бекиёс опа–сингил ижодкорлар табиат ато этган мислсиз қобилиятлари билан бир–биридан гўзал асарлар яратиб қолдиришга улгуришди ҳамда қадим инглиз адабиёти хазинасини яна–да бойитдилар.

Шарлотта Бронте (1816–1855) атоқли инглиз ёзувчиси ҳамда шоираси, ўсмирлик чоғиданоқ адабиётга дадил қадамлар билан кириб келиб, инглиз адабиётида яратган дурдона романлари туфайли доврўқ қозонган машҳур опа–сингил Бронтеларнинг энг тўнғичидир. Ш.Бронтенинг Куррер Белл

тахаллуси остида яратган “Жейн Эйр” номли романи ёзувчи номини бутун дунёга танитган энг шоҳ асари ҳисобланади.

Ёзувчининг "Jane Eyre" романи –инглиз адабиётининг нафақат XIX асрдаги, балки ҳозирги замонда ҳам машҳур ва муҳим асарларидан биридир..

Асарнинг бадиий дунёси алоҳида тизим эмас, балки муаллифнинг ички дунёси ва ҳақиқати ўртасидаги муносабатларнинг натижасидир.

Ёзувчи ўқувчига асарнинг бадиий оламига кириб боришига, ақлга эмас, балки ўқувчининг ҳис – туйғуларига таъсир қиладиган бадиий тасвирларни яратишга ёрдам беради ва унинг тасаввурини фаоллаштиради.

Асарда ёзувчи аёлларнинг тенглиги, сиёсий эмас, балки аёл ва эркак ўртасидаги тенг ҳуқуқлилиқ, оиладаги ва ишдаги фаолиятида оташин ҳимоячи эканлигига урғу беради. Шарлотта Бронте асарининг таъсири ҳиссиётларнинг ҳақиқийлиги ва романтик содда етим қизнинг ажойиб тарихида, кейинчалик бу буюк ва садоқатли севги қобилиятига эга бўлган, ахлоқий тамойилларини асраб–авайлаган, таълим олган, мустақилликка интилган, ўз бахтини топа оладиган аёл образини ифодалайди.

Шундай қилиб, бу адабий асар жуда чуқур ижтимоий маънога эга ва катта таълим салоҳиятига эга. У асосий қахрамоннинг образи – етим қиз образи, жасур ва соф қалби тасвирини ўзига тортади ва ҳайратда қолдиради, у ўзини беқиёс мустақил ҳаёт, ҳалоллик, ахлоқ ва инсон кадр–қиммати учун кураш олиб боради.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Шарлотта Бронтенинг асарларида гавдалантирилган воқеликлар, образлар ва уларнинг руҳияти, унинг бадиий оламининг ниҳоятда ранг–баранглигидан далолат беради.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Э. Бегматова, А. Мадвалиев. Ўзбек тилининг изоҳли луғати – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Ж. 1/2 – 135 б.
2. “Ўзбек Миллий Энциклопедияси” – Т.: Давлат илмий нашриёти 2005. – М – 575 б.
3. The Brontës. Tales of Glass Town, Angria and Gondal. Selected Early Writings. Oxford, 2010, p. 3–4.
4. <http://www.xudojestvenniymir.com>
5. <http://www.lib.ru/inooldbronte>

ИНГЛИЗ ТИЛИГА ХОС ФРАЗЕМАЛАРНИ ЎҚИТИШГА ПСИХОЛИНГВИСТИК ЁНДАШУВ

Барно Жумаева, ЖДПИ ўқитувчиси

Ибора тилнинг образли ифода воситаси сифатида ахборот узатиш жараёнида таъсирчанликни ошириш, маъно кучайтириш вазибаларига эга. Шу жиҳатдан, фикр ва тушунчани образли белгилар воситасида англаш, фаҳмлаш, ҳис этишининг психолнгвистик омилларидан бири саналади. Ибораларнинг психолнгвистик хусусиятларидан яна бири эмоционал–экспрессив хусусиятга бойлигидир. Кўпол маъноли иборалар асабга таъсир кўрсатса, чиройли маънога эга бўлганлари эса туйғуга таъсир этади. Айрим иборалар кишиларни йиғлатса, айримлари кулдиради.

Иборада ифодаланадиган умумлашма маъно унинг таркибини ташкил этувчи лексемаларга хос полисемия орқали юзага чиқади. Шунингдек, фраземалар яхлит ҳолда моносемантик ёки полисемантик бўлади. Кўп маъноли иборалардан нутқда ўринли фойдаланиш сўзловчидан маҳорат талаб қилса, уни тушуниш тингловчидан лингвистик билимларни талаб этади.

Ибораларнинг маъносини ўрганиш, одатда, семантик таҳлил методига таянади. Ф.Жумаева иборанинг маъноси, асосан, бир сема билан ифодаланишини таъкидлайди⁴⁰. Биз ҳам шу фикрга қўшилган ҳолда фраземаларнинг семантик хусусиятига эътибор қаратамиз. Инглиз ва ўзбек тилларига хос иборалар қиёсан ўрганиш жараёнида интеграл семаларга кўра бир семантик майдонга бирлашса–да, қуйидаги дифференциал белгиларига кўра фарқланади:

1. Лингвокулторологик хусусиятига кўра
2. Лингвистик birlikларнинг қўлланилишига кўра

Лингвокултурологик жиҳатдан фарқланишни қуйидаги фраземаларда кузатиш мумкин. М., “ҳеч қачон” семасини ифодаловчи *in a pig's eye* (чўчканинг кўзида) ибораси ўзбек тилида қўлланувчи *туянинг думи ерга тегганда* иборасига мазмунан тенг келади. Ушбу ибораларга хос лингвокултурологик белгиларни фарқлаш, унинг семантик қурилишини тушунтириш ўқувчида ёркин тасаввурни ҳосил қилади ва фраземани ёдда сақлашга ёрдам беради.

И.Н.Кавинкина психолингвистиканинг методлари сифатида ассоциатив экспремент методи, семантик дифференциал методларни келтириб ўтади⁴¹. Фраземаларни ўқитишда ҳам юқоридаги методлардан фойдаланиш зарур. Инглиз ва ўзбек тилига хос ибораларни қиёсан ўқитишда уларнинг фарқли белгилари сифатида ассоциатив хусусиятларига эътибор қаратиш лозим. Бунда ўқувчининг ибораларни ёдда сақлаши ва нутқда ўринли фойдаланиши учун кенг имконият яратилади. М., инглиз тилида *kill two birds with one stone* (бир тош билан икки қушни урмоқ) фраземаси қўлланилади. Ўзбек тилида эса *бир ўқ билан икки қуённи уради* ёки *бир ўқ билан икки қушни ўради* фраземалари мавжуд. Ибораларда келтирилган *тош* ва *ўқ* сўзларидаги ассоциатив моҳиятни тушунтириш икки фраземага хос семантик ва образли ифодани тўлиқ англашга ёрдам беради.

Инглиз ва ўзбек тилларида қўлланиладиган маънодош ибораларнинг шаклий ифодаси ва семантик қўрилишидаги оппозицияларни аниқлашда лингвистик таҳлилларнинг ўрни катта. Таҳлил жараёнида семантик дифференциал методдан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Ушбу метод орқали инглиз ва ўзбек тилларига хос ибораларнинг қиёсидаги ўхшаш ва фарқли жиҳатларни аниқлаш мумкин бўлади. Жумладан, фраземаларнинг шаклий ифодасида сўз қўллаш билан боғлиқ фарқ мавжуд бўлади. М., *in one ear and out the other* (бир қулоқдан кириб, бошқасидан чиқиб кетади) фраземаси ўзбек тилидаги *бу қулогидан кириб, бу қулогидан чиқиб кетади* иборасига семантик жиҳатдан тенг келади. Маълумки, ўзбек тилида ҳам кучайтириш маъносини ифодаловчи *бир* сони олмош ўрнида келиб кўрсатиш

⁴⁰ Ф.Жумаева. Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. Монография. Т.: Qaqpus Media. 2019. Б. 86.

⁴¹ И.Н.Кавинкина. Психолингвистика. Пособие/ Гродно. 2010. С. 38

олмошига хос вазифасини бажаради. Шу жиҳатдан *бир қулогидан кириб, бир қулогидан чиқиб кетади* ибораси ҳам қўлланилади. Айрим фраземалардаги оппозиция градуал белгиларга кўра фарқланади. М., “хурсанд” семасини ифодаловчи *grin from ear to ear* (қулоғидан қулоғигача тиржаймок) ибораси ўзбек тилидаги *оғзи қулогиди* иборасига мазмунан тенгдир. Инглиз тилидаги иборада *оғиз* сўзи қўлланилмайди ва даражаланиш бир нуктадан иккинчи нуктага қараб кенгайтирилади. Ўзбек тилида ишлатиладиган иборада эса бир нуктадан икки чеккага қараб чўзилиш ифодаланади.

Ўзбек тилига хос ибораларда кўчма маъноли сўзлардан кенг фойдаланилади. М., *eyes are bigger than one's stomach* (ошқозони тўйса ҳам кўзи тўймайди) ибораси ўзбек тилида қўлланивчи *ўзи тўйса ҳам кўзи тўймайди* иборасига мазмунан тенг. *Ўзи* сўзининг қўлланилиши *ошқозон* сўзига нисбатан эвфимизм бўла олади. *Ўзи* сўзининг *ошқозон* маъносини ифодалаши синекдоха асосида ҳосил бўлган. Шунингдек, метонимия ва метафорага оид фарқланишли фраземаларни кузатиш мумкин. М., *hard of hearing* (эшитиши қийин) ибораси ўзбек тилида *қулоғи оғир* иборасига тенг келади. *Қулоқ* сўзида метонимик, *оғир* сўзида метафорик маъно кўчирилиши мавжуд.

Демак, инглиз ва ўзбек тилларида қўлланивчи маънодош ибораларни ўрганишда қиёслаш методидан ўринли фойдаланиш талаб этилади. Шунингдек, ассоциатив экспремент методи, семантик дифференциал методлардан фойдалаш муҳим аҳамиятга эга. Фраземаларни қиёсан ўрганишда лингвокултурологик, психоллингвистик хусусиятларига эътибор қаратиш, улардан нутқда осон ва ўринли фойдаланишга ёрдам беради.

ОЛҚОР ДАМИННИНГ “СУВ” ШЕЪРИДА БАДИИЙ САНЪАТЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Турсунов Ғ,
СамИСИ ўқитувчиси

Адабиёт санъатнинг бир тури у сўз санъати. М.Горький айтганидек, бадиий адабиёт ҳаётни сўз орқали бадиий тасвирлайди. Адабиётда ҳаётнинг муҳим воқеа–ҳодисалари, кишиларнинг типик хислатлари акс этади, ҳаёт тараққиёти анъаналари кўрсатилади. Шу тариқа, адабиёт турмушни ўрганиш қуроли бўлади. Бадиий адабиёт ўқувчининг онги–шурига кучли таъсир этади. Болалар адабиёти йилдан йилга шаклланиб, кўзга ташлана бошлади. Айниқса, мустақиллик даври ўзбек болалар шеърлятида жанрларнинг ранг–баранглиги кенг кўламлилиги болалар шоирларининг ижодий руҳиятининг турли мавзуларда ижод қилиш шеърларида истиқлол шукуҳининг жўш уриши бугунги ўзбек болалар шеърлятида ҳам салмоқли бурилиш бўлди.

Болалар шоири Олқор Даминнинг ижоди ҳам гўзал табиат беғубор болалик, инсонийлик каби туйғуларни ўзида мужассамлаштирган шеърлят ҳисобланади. Олқор Дамин ўзбек болалар шеърлятида аллақачон ўз ўрнини топган ва унинг таниқли намояндаларидан бирига айланган шоир. Шоир шеърлари бадиий тасвир воситаларига бойлиги, ифода тарзининг аниқ ва равонлиги билан алоҳида ажралиб туради. Шоир ижодида лексик воситалар семантикаси ҳар бир шеърда маъновий кенгликларни янада жозибадор кўринишда намоён бўлишига кенг эътибор қаратилган. шеърларидаги

болаларга хос соддаликни ўз шеърларида ўта мохирлик билан чизаолган. Шоирнинг “Сув” шеърига эътиборимизни қаратайлик.

Сув

Шилдир–шилдир этади сув,
Кўплаб ерни ўпади сув.
Гуё олтин рубобини,
Тиним билмай чертади сув.

Олисларга оқиб кетар,
Юзида барг қалқиб кетар.
Чанқаб ётган ғўзаларга,
Оҳ–оҳ қандай ёқиб кетар.

Сувдай яхши бўлсин қани.
Чаман бўлиб кулсам қани,
Сувдай ширин жон Халқимга.
Тинмай хизмат қилсам қани.
Шилдир –шилдир этади сув.

Боғ оралаб ўтади сув,
Кўплаб ерни ўпади сув.

Шоир ушбу шеърида сувнинг ҳар бир ҳаракатини жонлантириш асосига қуради. Ўқувчининг кўз олдига шилдираб оқаётган сув гуё “Куйлаб ерни ўпади” ушбу биргина сатрга иккала жонлантиришни шундай усталик билан сингдирганки, улар бир–бирига жуда мутаносиб кўплаб ерни ўпади сув. Мана маҳорат, мана истеъдод. Бу жумлада сув ҳам кўплаб ҳам она заминни ерни ўпмокда. Ўқувчи кўз олдига гуё сув инсониятнинг бор ҳаракатини ўзида жам этади. Сувнинг ёқимлилиги шилдирашини эса шоир ўзига хос тасвир билан жонлантиради. Кейинги сатрларда сув олтин рубобини чалади. Унинг олтин рубобидан чиқаётган шилдирашини мунтазамлилиги, доимийлиги эса сувнинг тиним билмаслигига менгзайди.

Шилдир–шилдир этади сув
Куйлаб ерни ўпади сув
Гуё олтин рубобини
Тиним билмай чертади сув

Ўтиш ҳаракати, яъни ўтмоқ инсониятга хосдир. Шоир сувнинг оҳаракат билан жонлантиради. Халқи учун тиним билмай хизмат қилаётган сув чанқоқ ғўзаларнинг чанқоғини қондириш учун боғ оралаб ўтмокда сўзлари билан усталик билан фойдаланган.

СИНТАКТИК КОНСТРУКЦИЯДАГИ КОМПОНЕНТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖОЙЛАШУВИ БИЛАН ФАРҚЛАНУВЧИ СИНТАКТИК ФИГУРАЛАР

**Х.Эшмуродов, ЖДПИ магистри
Илмий раҳбар: доц.Б.Файзуллаев**

Синтактик фигураларнинг ушбу йўналиши ҳам бадиий матнда бажарувчи вазифалари нуқтаи назаридан бир неча турларга бўлинади. Бунда кўпроқ синтактик фигураларнинг нутқ таркибида жойлашиш ўринларига

боғлиқ ҳолда ўзгариши ҳисобга олинади. Шунга кўра ушбу мавзу бўйича инверсия параллелизм, такрор ҳодисалари синтактик фигуралар сифатида ўрганилади.

Жумладан, гап бўлақларининг ўрин алмашилиши ёки гап бўлақларининг жойлашиш тартибининг маълум бир мақсад билан ўзгариши ҳодисасига айтилади. Албатта, инверсия кўпроқ оғзаки нутққа хос. Аммо бадиий матндаги персонажлар турли табақа ва ҳудудларга тегишли бўлганлиги сабабли қаҳрамонлар нутқи жонли ва ҳудудий нутқларга асосланади. Чунки асар тилидаги воқеалар турли ҳудудларда бўлиб ўтади ва воқеа бўлиб ўтаётган ҳудуд аҳолиси турли тил бўлинишлари ва шеваларга тегишли бўлиши табиий. Инверсия ҳодисаси ҳам персонажлар нутқини шакллантиришда муҳим ўрин тутаяди. Чунки ёзувчи маълум ҳудуддаги воқеаларни акс эттирар экан, персонажлар, қаҳрамонлар нутқини шунга мослаштиришга ҳаракат қилади ва ўзига хос характерлар яратиш учун барча тил ҳодисаларидан фойдаланиш ҳуқуқига эга. Шундай ҳодисалардан бири диалектал ва сўзлашув нутқига хос тил ҳодисаси инверсия ҳисобланади. Адабий тилимизда гап бўлақларининг жойлашиш ўрни маълум даражада қонуний ўз ўрнига жойлаштирилган. Лекин воқеалар тасвирланаётган ҳудуд турли ижтимоий гуруҳга мансуб ва турли шева вакилларида иборат бўлиши мумкин. Шундай экан, ёзувчи ҳар бир персонажни ўз тилида ва ўз шеvasида гаптиришга ҳаракат қилади.

Инверсия ҳодисаси кўпроқ оғзаки нутққа хос хусусият бўлганли сабабли бадиий матнда кўпроқ персонажлар нутқида учраши, табиий чунки у гап бўлақларининг ўрни алмашилиши натижасида, гап бўлақларининг жойлашиш тартибининг ўзгариши натижасида вужудга келадиган синтактик ҳодисадир. Гап бўлақларининг ўрни алмашилиши натижасида сўзловчининг маълум бир мақсади яширинган бўлади. Сўзловчининг ана шу мақсади натижасида сўз ўзгариши ҳодисаси юзага келади. Инверсия ҳодисаси шу туфайли асосан оғзаки нутққа хос ҳодисадир. Чунки бадиий матнда қаҳрамонлар нутқини жонли нутққа айлантириш, уларнинг тилини ўзига хос хусусиятларини бериш мақсадида ёзувчи инверсия ҳодисасидан унумли фойдаланади.

Тилшуносликда маълумки гаплар бир сўздан ёки ўзаро синтактик боғланган бир ва ундан ортиқ сўзлардан ташкил топиши мумкин. Лекин гап бўлақларининг ўзаро боғланиши маълум грамматик қонун–қоидаларга асосланиши лозим. Чунки грамматик шаклланмаган сўзлар маълум мантиқий ҳулосалар чиқармайди. “Ҳозирги ўзбек адабий тили” дарслиги ҳулосаларига кўра эга олдин, кесим кейинги ўринда жойлашиши белгиланган. Лекин бадиий асар тилида жонли қаҳрамонлар образи берилиши натижасида сўзлар ўрнининг алмашилиши асар тилига эмотционаллик хусусиятларини киритади ва бир–бирига ўхшамаган характерларни яратишга хизмат қилади. Шунинг сабабида гап таркибидаги одатдаги тартибнинг ўзгариши вужудга келади. Бу ҳолат ўзбек тили грамматикасига мос ҳолат бўлмаса–да, бадиий асар учун мосдир. Ушбу ҳолат эса тил тараққиётининг кейинги босқичларига хос ҳодисадир.

Маълумки, гап таркибидаги инверсия ҳодисасини асосий белгиловчи омил эмотционаллик билан интонациядир. Чунки улар доимо ҳамкорликда

бўлишини грамматика белгилаб қўйган. Уларнинг ўрнини мақсадсиз алмаштириш кутилган фикрни бермасликка олиб келади.

“Одатда, инверсия ҳодисаси бир гап бўлаги доирасида юз беради. Лекин у ўз навбатида бошқа бўлакнинг ҳам ўрнидан силжитишга сабаб бўлади”.

Масалан: “У қўлида каттагина тугун билан лип этиб ичкари кирди.

–Тишш!–деди бармоғини лабига босиб. –Бир минутга кирдим. Эшикни беркитинг! Бу одамларини биласиз–ку, оғзи билан юради. Кавшандозда туриб тугунни узатди. Олсангиз–чи, қўлим узилиб кетди.

Ушбу гапни грамматик қонун–қоидалар асосида шакллантирадиган бўлсак, қуйидагича бўлади: “Қўлим узулиб кетди. Тугунни олсангизчи” тарзида бўлиши лозим. Инверсия қонунияти эса уни ўзгача тарзда шакллантирган. Бу эса вазият, ўша вақтдаги шароит натижасида вужудга келган. Бунда қаҳрамоннинг қўлидаги оғир юкдан халос бўлиш истаги инверсияга, яни кесимни олдин, бошқа бўлақларнинг кейин бўлишига сабаб бўлган. Бу ҳолат бадий асар тили учун меъёрий ҳолатдир. Бу ўринда инверсия ҳолати жуда ўринли ишлатилган. Бундай ҳодисалар бадий адабиётда қаҳрамонлар нутқида жуда кўп ишлатилади ва бу меъёрийдир.

Шу бобга оид синтактик фигуралардан бири параллелизм ҳодисасидир. Нутқимизда синтактик жиҳатдан бир хил шаклланган гаплар ҳам учрайди. Бу эса олдинги гапга нисбатан тенг келади ва тилшуносликда параллелизмни вужудга келтиради.

Бу ҳодиса содда қилиб айтганда, бир хил типда синтактик шаклланган гапларга нисбатан қўлланилади. Бу маълум бир гапларнинг бир хил синтактик қурилишга эга эканлигини кўрсатади, яъни синтагмалар бир хил синтактик кўринишга эга бўлади. Бундай гапларда таъкид кучли бўлади ва тингловчининг эътиборини айнан шунга қаратишга ҳаракат қилинади. Масалан: “Шанба оқшомида Бўстон қишлоғида ажиб бир жозиба кашф этди. Бу оқшом ой ҳам эрта чикди. Тўлиб, қип–қизариб, яшнаб–яшнаб чикди. Ушбу гапда бир хил ҳодисанинг тўрт хил параллелизми кўрсатилган: эрта чикди, тўлиб чикди, қип–қизариб чикди, яшнаб–яшнаб чикди каби.

Бадий матнда яна бир ҳодисалардан бири лингвистик такрорлардир. Ушбу ҳолат илмий адабиётларда аллитератсия, анафора, эпифора анафора, эпифора, рифма ёки қофия, плеоназм, рифма кабилар унинг маълум бир кўринишлари сифатида қаралади. Бадий матнда экспрессивлик, эмоционалликни ифодалашда такрорлар маълум бир бадий восита сифатида хизмат қилади, маълум бир ҳодисага китобхоннинг диққатини қаратади. Масалан: Бояги рус хотин темир симёғочга беҳол суянганча хиккиллаб йиғляпти.

–Саша, Сашенка!

–Сув! Сув опке

–Мунавварнинг қўлларини, кеча оёғимга ёпишиб, шимимнинг почасини силаган, эркалаб сочимни тараган, қўлларимни адёл тагидан тортиб чиқардим юзимга босганча мук тушдим:

–Обект, Мунаввар! Мениям опкет! Обке–е–ет!

–Ҳозирги ашулани айтинг.

–Яна қайтарайми?

–Қайтаринг! деди у аламли овоз билан. Юз марта қайтаринг! Минг марта қайтаринг.

Хулоса қилиб айтганда, бадий матнда синтактик фигураларнинг ўрин алмашиши, такрорланиши, ўрин алмашиши (инверсия) ҳам маълум бир лингвомаданий вазифаларни бажаришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ёлдошов М., Ядгаров Қ. Бадий матннинг лисоний таҳлили. Т., – 2007, 61–бет.

2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Т., Фан, 1983, 88–бет.

3. Шукуров Р. Синтактик параллелизмнинг услубий вазифалари. ЎТА, 2004, № 2.

4. Қўнғуров Р. ва бошқалар. Нутқ маданият ва услубияти асослари. – Т., Ўқитувчи, 1992.

5. Ёлдошов М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Т., Фан, 2007.

ТИЛШУНОСЛИҚДА МАЙДОН, ЯДРО ВА ПЕРИФЕРИЯ МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ МАСАЛАСИ

Шерзод Нормўминов
СамДУ ўқитувчиси

Сўз туркумларининг лисоний бирликларнинг муайян бирлаштирувчи маъно асосида маълум парадигмаларга бирлашуви унинг майдон назарияси билан алоқадорлигига ишора қилади. Бинобарин, маъно (мазмун) умумийлиги билан бирлашган ва белгиланаётган ҳодисаларнинг тушунчавий, предметлик ёки вазифавий (функционал) ўхшашлигини акс эттирувчи тил бирликлари (асосан, лексик бирликлар) йиғиндиси кўпчилик лисоний адабиётларда майдон сифатида белгиланди. Лисоний бирликларнинг маълум маъно асосида бирлашуви, маълум бир тилдаги луғавий бирликларни ана шундай мазмуний уяларга бирлаштириш сўз туркумларини ажратишнинг асосига қўйиладиган тамойилларидан бири бўлди.

Шуни таъкидлаш лозимки, лингвистикага майдон тушунчаси мазмуний майдон сифатида кириб келди. Тилшуносликда майдон тушунчасининг узил–кесил шаклланишига ёрдам берган ҳал қилувчи тадқиқотлардан бири Л. Вайсгербернинг ишлари бўлди. Вайсгербер фикрича, тилни руҳий мазмуннинг оддий воситаси сифатида эмас, балки дунёни интеллектуал шакли сифатида ўрганиш зарур, унингча семасиология маънолар хусусидаги фан бўлмай, тушунчалар ҳақидаги таълимот бўлиши керак¹.

Қайд этиш лозимки, тил тизимини майдон сифатида қараш ўз навбатида тил бирлигининг моҳиятини у ифодаладиган маъно, бажарадиган вазифаси ва бу икки вазифанинг айна пайтда бажариши нуктаи назаридан семантик, функционал ёки функциональ–семантик тамойиллар асосида очиқ бериш вазифасини қўяди.

¹ Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти, 1998. –13–19 Б.

Ушбу ёндашувга асосан тизим ичидаги тузилиш ва уни ташкил этган унсурларнинг ўзаро муносабатлари махсус шакл ва мазмунга эга эканлигини тақозо қилади. Бу эса майдонда ядро–периферия қисмлари ва улар ўртасида тегишли муносабатлар мавжудлигини кўрсатади. Майдоннинг асосий хусусиятларини ифодаловчи унсурлар марказда (ядрога), бу хусусиятларни оз ифодалайдиган унсурлар эса перифериядан (чекка қисмлардан) жой олади. Майдоннинг яна бир хусусияти унинг таркибий қисмлари ўртасидаги алоқаларнинг доимийлиги ва ядровий қисмларнинг периферияга ва аксинча перифериал унсурларнинг ядрога силжишидир. Бу жараёнлар аста–секинлик билан юз берилади ва перифериал қисмлар ҳаминша ядродан узоқ– яқинлигига қараб бир неча парчадан иборат бўлади. (Сўз туркумлари ҳам бундан мустасно эмас).

Юқоридагилардан келиб чиқиб, сўз туркумларини ўзида қамраган семантик майдоннинг асосий хусусиятларини қуйидагича таърифлаш мумкин:

1) Майдон ўзаро структур алоқаларга эга бўлган таркибий қисмлардан иборат;

2) Майдонни ҳосил қилувчи унсурлар семантик ва бажарадиган вазифалар жиҳатидан умумийликка эга бўлади;

3) Майдон бир хил ёки турли хил унсурлардан иборат бўлиши мумкин;

4) Майдоннинг структурасида бир неча майдончалар мавжуд бўлиши мумкин.

5) майдоннинг таркибида ядровий ва перифериал қисмлар мавжуд бўлади. Ядро доминант бирликлардан иборат бўлади, периферия эса бир неча пассив зонадан иборат бўлади.

6) ядровий қисмлар тил унсури бажарадиган асосий вазифани ўз устига олади, шу сабабли уларнинг қўлланиш частотаси юқори;

7) Ядро ва периферия ўртасида вазифавий тақсимот мавжуд, ядровий бирликлар ва периферияга уларнинг тилдаги мақомига мос вазифалар юкланади.

8) Ядро ва периферия ўртасидаги чегара ноаниқ ва ўзгарувчандир¹.

Демак, СТ ўртасидаги алоқани семантик майдонда намоён бўлувчи идеал макросистема ичидаги микросистема компонентларининг ўзаро алоқаси, деб тушуниш мумкин.[16 бет] Сўз туркумлари парадигмаси ва алоҳида олинган бир сўз туркуми таркибида доимий равишда ўзаро алоқа ва ўзаро таъсир мавжуд бўлади ва уларнинг энг муҳимларидан бири ядровий ва перифериал қисмларнинг ўзаро алоқасидир.

Маълумки, сўз (лексема) тилнинг тури ва типидан қатъий назар асосий лисоний бирлик бўлиб қолмоқда; у кўп тарафли, кўп аспектли ва мазмунан бойдир². Сўз туркумлари эса тил / нутқ дихотомиясининг асосий бирлиги ва оламнинг семиотик тизим бўлмиш тилдаги лисоний акси бўлган сўзларнинг асосий синфлари (гуруҳлари, разрядлари) бўлиб, улар: а) умумий абстракт,

¹ Иванова И.П. О полевой структуре частей речи в английском языке. Теория языка: методы его исследования и преподавания. – Л., 1981, 198 с.

² Бабайцева В.В. Явления переходности в грамматике русского языка. –М.: Дрофа, 2000, с.294–295.

категориал (лексик) маънонинг мавжудлиги; б) туркумга хос бўлган маълум грамматик категориялар тизимининг мавжудлиги; в) маълум синтактик вазифа(лар)га хосланганликнинг мавжудлиги; г) сўз ва сўзшакл яшашнинг махсус тур ва усулларининг мавжудлигига кўра туркумларга ажраладилар³. Сўзлардаги туркумларга ажралувчанлик хоссаси уларнинг парадигма шаклида хукм суришига тўсиқ бўлолмайди. Аксинча, СТ ўзаро яқин тафаккурий, тарихий–генеологик, иерархик алоқалар каби парадигматик алоқа турлари билан ўзаро боғланган бўлиб, СТ тилда парадигма шаклида мавжуддир.

Ана шу формал туркумлар (синфлар, гуруҳлар, разрядлар)га ажралувчанлик ҳамда туркумлараро мустаҳкам алоқалар каби ўзаро зидланган муносабатларда мавжуд эканлик сўз туркумларини таърифлаш ва тасниф этишни қийинлаштиради. Ўз вақтида О. Есперсен ўринли қайд этганидек, «сўз туркумларининг амалга оширилган ҳар қандай мантиқий таснифи – уларнинг миқдори, табиати ва чегараларини белгилаш лингвист учун ҳеч қандай қизиқиш уйғотмаслиги керак, чунки ҳар бир тил ўзининг СТ тизимига эга. Ҳамма нарса ушбу тил тан оладиган формал белгиларга боғлиқ»¹.

ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ЁШЛАР ВАТАНИМИЗ КЕЛАЖАГИ

**Б.Қораев,
СамИСИ ўқитувчиси**

Дунёда давлат ва жамият салоҳиятини, мамлакат кудратини белгиловчи омиллар кўпдир. Бирок, уларнинг ҳеч бири шу юртда камол топаётган, юксак маънавиятли, жисмонан соғлом, ҳар томонлама баркамол авлод билан тенглаша олмайди. Мамлакатимизда ёшлар ҳамиша ҳукуматимиз эътибори ва эъзозида. Зеро, улар келажагимиз, умидимиз, эртанги кунимизнинг муносиб ворислари. Уларнинг бугун комил ишонч ва эзгу орзулар билан фақат олға интилиб ташлаётган қадамлари, илм олишга бўлган кучли иштиёқи, улардан кутаётган орзу–умидларимиз ижобатидан нишонадир. Ҳа, ёшларимиз ҳар соҳада фаол. Зеро, улар доимо шу юрт, шу Ватан учун муносиб авлод бўлишга интиладилар. Шу боис мустақиллик йилларида Юртбошимиз томонидан ёшлар масаласига алоҳида эътибор қаратилди. Ватанимиз келажаги, халқимизнинг эртанги куни, мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятида муносиб обрў–эътиборга эга бўлиши фарзандларнинг таълим–тарбиясига, қандай инсон бўлиб ҳаётга кириб боришига боғлиқ экани инобатга олиниб, ушбу эзгу мақсадлар давлат сиёсатининг энг устувор йўналишлари этиб белгиланди. Давлатимиз аҳолисининг 30 фоизини 14 дан 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этади. Уларнинг таълим олиши, касб–ҳунар эгаллаши учун замонавий шароит ва имкониятлар яратилган. Шу билан бирга, ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказшни ташкил этиш долзарб масала ҳисобланади. Ёшлар қанчалик маънавий баркамол бўлса, турли ёт иллатларга қарши иммунитетини ҳам шунча кучли бўлади

³ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: Сов. энциклопедия, 1966, с. 511–512.

¹ Есперсен О. Философия грамматики. – М.: Иностранная литература, 1958, с.101.

Бундай саъй–ҳаракатлар самараси ўлароқ, айти пайтда мамлакатимизда кучли ёшлар сиёсати юритилаётир ва у ўзининг мустаҳкам ҳуқуқий асосларига эга. Мазкур сиёсат истиқлол йилларида ёшларнинг ҳар томонлама етук, баркамол вояга етиши учун мустаҳкам қонунчилик базаси яратилиши, хусусан, 22 та қонун, 26 та фармон ва қарор, Вазирлар Маҳкамасининг 41 та қарори, 30 дан ортиқ меъёрий–ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниб, ҳаётга изчил татбиқ етилишида ўз ифодасини топган. Яна бир жиҳат – Ўзбекистон халқининг бош мақсадига айланган ҳеч кимдан кам бўлмайдиган баркамол авлодни вояга етказиш орзусини рўёбга чиқариш мақсадида мустақилликнинг илк кунлариданоқ юртимизда таълим тизимини тубдан ислоҳ этишга устувор аҳамият қаратилди мамлакатимиз мустақилликка эришганидан сўнг қабул қилинган дастлабки қонун ҳужжатларидан бири 1991 йил 20 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги қонун экани катта рамзий маънога эга. Қолаверса, Президентимизнинг қатор фармон ва қарорлари ҳам ўсиб келаётган ёш авлодни миллий ва умуминсоний қадриятлар, миллий истиқлол ғояси, ўз Ватани ва халқига меҳр–муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялашга, уни ҳар томонлама – жисмонан, маънан ва руҳан баркамол этиб вояга етказиш учун зарур шарт–шароитларни яратишга йўналтирилган. Айти пайтда мазкур соҳага оид кўплаб мақсадли давлат дастурларининг ҳаётга изчил татбиқ этилаётгани ҳам муваффақиятларга калит бўлмоқда. Давлатимиз раҳбари томонидан ёшларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш бўйича кўйилган долзарб вазифаларни тўлиқ амалга ошириш учун ҳали кўп ишлар қилиниши керак. Бу, биринчи навбатда, йигит–қизларимизнинг олижаноб интилишларини рўёбга чиқариш, жамиятимизнинг ижтимоий, иқтисодий ва маънавий ривожланишида иштирок этишида барча ёрдамни кўрсатиш билан боғлиқдир. Шундай экан, ёшлар ва давлат ўртасидаги муносабатларни мувофиқлаштиришга хизмат қиладиган ёшларга оид давлат сиёсати ҳеч қачон яқунланган тизимни англамайди. У давр талаби ва мавжуд шарт–шароитлардан келиб чиқиб, такомиллаштириб ва тўлдириб бориладиган узлуксиз жараёндир. Таъкидлаш жоизки, Президентимизнинг 2014 йил 6 февралда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган кўшимча чора–тадбирлар тўғрисида”ги қарори ҳам айнан шиддат билан ўзгариб бораётган замон талабларидан келиб чиқилган ҳуқуқий эҳтиёждир. Ушбу қарорда белгиланган устувор вазифалар мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотларда ёшларнинг фаол иштирокини таъминлаш, юксак маънавиятли, мустақил ва эркин фикрлайдиган, замонавий илм–фан ютуқларини пухта ўзлаштирган ҳар томонлама соғлом ва баркамол авлодни вояга етказишга қаратилган давлат сиёсатини изчил ва янада тўлақонли давом эттиришни назарда тутди. Мамлакатимизнинг жаҳон майдонидаги нуфузини ошириш, эркин фуқаролик жамияти барпо этиш йўлидаги мақсад–муддаоларимизнинг тўлақонли амалга ошиши кўп жиҳатдан ёшларнинг интеллектуал ва ижодий салоҳиятини, сиёсий фаоллиги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришга боғлиқ. Шу сабабли ёш авлоднинг замонавий дунёқарашини, ижодий ва шахсий хусусиятларини миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида шакллантириш, юртимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар моҳиятини англаб етишлари учуш замин ҳозирлаш,

хукукий онгини ривожлантириш энг устувор вазифалар сирасидандир. Президентимизнинг мазкур қарори доирасида амалга ошириладиган чора–тадбирлар ёшларимизнинг улкан салоҳиятини ҳар томонлама рўёбга чиқариш учун уларнинг илм–фан, техника, ахборот технологиялари, маданият, санъат, спорт, тадбиркорлик каби соҳалардаги ташаббусларини қўллаб–қувватлаш ишларини янада кучайтиради. Юртимизда кучли ёшлар сиёсатини тўлақонли юритиш давлат ва жамоат тузилмаларининг ижтимоий шериклигини ҳам мустаҳкамлайди, мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси доирасидаги ислохотларни жадаллаштириб, юксак ёш авлод тўғрисида ғамхўрлик қилишдек устувор мақсадларга етказди.

Дунё билан бўйлашиш аввало жаҳон тилларини пухта эгаллашдан бошланади. Шуни ҳисобга олган ҳолда Президентимиз қарори билан 2013 йилда таълим –тарбия соҳасида хорижий тилларни янада чуқур ўргатиш тизими жорий этилди ва мамлакатимизда чет тилларни биринчи синфдан ўқитиш йўлга қўйилди. Мамлакатимизнинг барча ҳудудларида хорижий тилларни бир хил шароитда ўқитиш, қишлоқ жойларга юқори малакали чет тили ўқитувчиларини жалб этишга ҳам алоҳида эътибор қаратилди.

Ўзбекистонда юздан ортиқ ОТМ мавжуд эканлиги, уларнинг 7 таси хориж университетлари филиаллари эканлиги, юртимизда таълим соҳаси ҳар томонлама ривожланиб бораётгани ҳақидаги маълумотлар бунинг яққол далилидир. Юртбошимиз Шавкат Мирзиёевнинг илгари сурган 5 ташаббуси бугунги кун ёшларининг камолотида айна босқич бўлиб хизмат қилмоқда. Ҳозирги кунда мамлакатимиздаги 800дан ортиқ маданият маркази, 312 та мусиқа ва санъат мактабларига минглаб ўқувчи ёшлар жалб этилмоқда. Мамлакатимизда ёшлар ҳамиша ҳукуматимиз эътибори ва эъзозидида. Зеро, улар келажагимиз, умидимиз, эртанги кунимизнинг муносиб ворислари. Уларнинг бугун комил ишонч ва эзгу орзулар билан фақат олға интилиб ташлаётган қадамлари, илм олишга бўлган кучли иштиёқи, улардан кутаётган орзу–умидларимиз ижобатидан нишонадир. Ҳа, ёшларимиз ҳар соҳада фаол. Зеро, улар доимо шу юрт, шу Ватан учун муносиб авлод бўлишга интиладилар. Истиқлол туфайли Ватанимиз дунё ҳамжамияти орасида ўз ўрнига, ўз айтир сўзига эга бўлди.

Мамлакатимизнинг Биринчи Президенти шундай таъкидлаган эди: «Биз бугун ҳаётга кириб келаётган навқирон ўғил–қизларимизнинг очик чехрасига, ақл–заковатига, ҳаракат ва интилишларига боқиб, уларнинг юртимизда ҳеч кимдан кам бўлмайдиган янги ҳаёт, янги жамият куришга қодир эканига ишонч ҳосил қиламиз». Ҳа, Ватанимиз эртаси, келажаги ҳар томонлама билимдон, зукко, интилувчан ёшлар қўлида эканлиги ҳар бир юртдошимизни қувонтиради. Биз ёшларга ишонамиз, суянамиз. Мана шундай ёшлар бор экан, аминмизки, она диёримиз шухрати бундан–да юксалиб бораверади.

Фойдаланилган интернет сайтлар рўйхати

samarqand.adliya.uz
/samarqand/uz/
publikatsii/godzd...nka
mv–vatanparvar.uz

ADABIYOT DARSLARIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Muyassar Jumaniyozova ,
Xiva shahar, 5– maktab o‘qituvchisi**

O‘zbekiston Respublikasi o‘tgan yaqin yillar ichida juda katta o‘zgarishlar va islohotlar davriga qadam qo‘ydi. Ayniqsa, ta’lim–tarbiya sohasida ulkan burilishlar yuz bermoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talabalari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”. (1.22)

Mustaqil O‘zbekistonda har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash ta’lim–tarbiyaning ustuvor yo‘nalishlaridandir. Ayniqsa, bu borada xalq ta’limiga oid qabul qilinayotgan qaror va me‘yoriy hujjatlar ta’lim–tarbiya sifatini yuksak darajaga olib chiqishni taqozo etadi.

Ta’limning ustuvor soha deb belgilanishi, bu vazifani amalga oshirish jarayoni o‘quvchilarni o‘qitishga yangicha yondashishni taqozo etadi. Chunonchi, pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyalarini yangisiga almashtirish, ta’limga davr talablari asosida yondashish, darsga yangicha usullarning loyahasini tatbiq etish asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning afzalligi zamon sinovidan o‘tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o‘z isbotini topmoqda. Zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalardan kutilgan maqsad nima, uning afzalliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat?-degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

1. Interfaol usullar eng qulay va sodda usul.
2. Mustaqil fikrlashni o‘rgatadi.
3. Ko‘p tarmoqli.
4. Sodda, oson.
5. Esda qolishi kuchli.
6. Bilim boyligini oshiradi.
7. Vaqtdan yutiladi.
8. Qiziqarli o‘tadi.
9. Darsning samaradorligini oshiradi.
10. Dunyoqarashni kengaytiradi.
11. Tafakkurni rivojlantiradi.
12. O‘quvchilarning diqqat – e’tiborini tortadi.
13. Har bir o‘quvchi bilan individual munosabat paydo bo‘ladi.
14. Xotirani kuchaytiradi.
15. Izlanishga chorlaydi.
16. O‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga da’vat etadi. (2)

Umumiy o‘rta ta’limning adabiyot darslarida ta’limning interfaol usullaridan foydalanish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptiradi, yakka tartibda, juftlikda va guruhlarda ishlashga o‘rgatadi, ko‘pchilik oldida o‘z fikrini bayon etish, o‘z nuqtai nazarini asoslash malakalarini hosil qiladi.

Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyaning “Aqliy hujum”, “Tanqidiy fikrlash”, “Klaster”, “Sinkveyn”, muammoli vaziyat yaratish, sahna darslari, kichik guruhlarda ishlash va h.k interfaol usullaridan o‘rni bilan

foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan: “Aqliy hujum” o‘quvchilarda mustaqil fikrlash imkonini beruvchi ta’lim usulidir. “Aqliy hujum” usuli mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladi. O‘quvchilar muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritadi. Xususan, “G‘azal nima?” savoliga o‘quvchilar g‘azal haqidagi dastlabki fikrlarini shu paytgacha o‘rgangan bilimlari asosida bildira boshlaydilar. Bildirilgan fikrlar doskaga yozib boriladi. Noto‘g‘ri fikrlar uchun ham tanbeh berilmaydi. Chiroyli, asosli fikrlar rag‘batlantiriladi va umumlashtiriladi:



“Tanqidiy fikrlash” usuli o‘rtaga tashlangan masala yoki muammo yuzasidan fikr aytish, o‘zgalarning fikrlarini tanqidiy idrok etish, o‘z nuqtayi nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lishga asoslangandir. Bunday usuldan bahs – munozara xususiyatiga ega bo‘lgan masalalar muhokamasida foydalanish mumkin. Masalan: O‘zaro muloqotda siz yoki sen deb murojaat qilishning qaysi biri ma’qul? Darsliklarga yozib chizadigan o‘quvchilarga munosabatingiz? va h.k.

“Klaster” usulidan yangi mavzuni boshlashdan oldin o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish uchun yoki o‘tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida foydalanish mumkin. “Klaster usuli” – o‘quvchilarning e’tiborini va fikrlarini jamlashda yaxshi samara beradi.



Bu va bu kabi interfaol usullarning eng muhim jihati shundaki, ular o'quvchilarni faollashtiradi, sust o'zlashtiruvchilarni ham harakatlantiradi. Tahlil qilish, xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Shu bois har bir adabiyot darsida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Multimedialar, mavzularga oid video materiallar darsning yanada qiziqarli o'tishiga sabab bo'ladi.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri shakllanib kelayotgan davrda o'qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tatbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham adabiyot o'qituvchilarining faoliyatida pedagogik texnologiyalarni amaliyotga samarali tatbiq etishi muhim masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.– Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
2. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.– Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

IMLO QOIDALARI USTIDA ISHLASH ORQALI IMLOVIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

**Tangriyeva Umida Allaberganova,
UrDU akademik litseyi o‘qituvchisi**

Jamiyatimizdagi barcha sohalar kabi ta’lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” deya ta’kidlagan edilar. (1.)

Uzluksiz ta’limning asosiy bo‘g‘ini boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi. Undagi ona tili ta’limi standarti ko‘rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o‘z fikrini savodli, mantiqiy izchillikda bayon eta olishga o‘rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta’limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi va o‘quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo‘yicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi:

fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
mavzuning murakkablik darajasi (soda, murakkab, aniq va h.k);
tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo‘lishi;
tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
imloviy (yozma) savodxon bo‘lishi. (2)

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imloviy savodxonligini tarkib toptirish, ularda orfografik malakalarni hosil qilish ona tili o‘qitish darslarining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Ona tili sohasidagi ko‘nikma-malakalar (nutq, o‘qish va yozishga oid malakalar) o‘quvchilarning o‘quv mehnatining zamriy sharti va vositasidir.

O‘quvchilarga orfografiyani o‘rgatish, uni yozuvga tatbiq qilish juda murakkab masaladir. Buning uchun turli usulda mashq qilishning o‘zigina yetarli bo‘lmaydi. Xususan, tildagi barcha so‘zlarni qayta-qayta ko‘chirib yozdirish bilan imlo o‘rgatib bo‘lmaydi. Sababi: birinchidan, nutqimizda ishlatiladigan juda ko‘p va xilma-xildir. Ularning imlosini faqat ko‘rsatish yo‘li bilan bolalarga singdirib ulgurishning imkoni yo‘q; ikkinchidan, grammatik qoidalar ayrim grammatik shakllar imlosini o‘rgatish uchun juda qulay imkoniyat yaratib beradi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining orfografik malakalarini shakllantirish va takomillashtirishda ona tili darslarida o‘rganiladigan imlo qoidalar va ularni yozuvga tatbiqini chuqur o‘zlashtirish alohida o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ona tili dasturiga asosan ona tili darslarida ko‘pgina imlo qoidalar bilan tanishadilar, ularni amalda o‘zlashtirib orfografik malakaga ega bo‘la boradilar. Xususan, 1–sinfda ”Tovushlar” bo‘limidagi ”Unli tovush va harflar”, ”Undosh tovush va harflar” mavzularini o‘rganishda o‘quvchilarning nafaqat unli tovush va harf, undosh va harflar haqidagi bilimlari mustahkamlanadi, balki ularni to‘g‘ri talaffuzi va imlosi ham o‘rgatib boriladi. Bunda h va x undoshli so‘zlarni to‘g‘ri yozish, yonma-yon kelgan undoshlar, aytilishda tushib qoladigan undoshlar, harfiy birikmalar, tutuq belgisining

qo‘llanilishi, bo‘g‘in ko‘chirilishi qoidalariga doir imloviy ko‘nikmalarni hosil qiladilar.

O‘quvchilarda to‘g‘ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o‘zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so‘znigina emas, balki umumiylik mavjud bo‘lgan butun so‘zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat vozuvchini har bir so‘zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me‘yorga muvofiq butun so‘zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so‘zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta‘kidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so‘z yasalishiga oid materiallarni ma‘lum darajada bilmasdan turib o‘zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo‘ladigan grammatik nazariyaga bog‘liq holda o‘rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo‘shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar “Ot”, “Sifat”, “Son”, “Kishilik olmoshlari”, “Fe‘l” mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir–biriga bog‘liq holda o‘rganishni ta‘minlaydi.

Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan so‘ng o‘rganiladi. Masalan, otlarning kelishiklar bilan turlanishi o‘rganilgach, kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqidagi ko‘nikma shakllantiriladi. “Sifat” mavzusini o‘rganish –*roq* qo‘shimchasining va *qip–qizil*, *yum–yumaloq* kabi sifatlarning yozilishiga, “Fe‘l” mavzusini o‘rganish bo‘lishsizlik (*–ma*) va o‘tgan zamon (*–di*) qo‘shimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini o‘rgatishga bunday yondashish boshlang‘ich sinflarda barcha orfografik materiallarni o‘rganishda tipik hisoblanadi.

Imlo qoidalari ustida ishlash – murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o‘quvchilarning qoida ifodasini o‘rganib olishlari, qoidani yozuv tajribasiga tatbiq etishning asosiy komponentlari hisoblanadi.(3)

Qoida mohiyatini ochish qoida so‘zning qaysi qismini, qaysi so‘z turkumi yoki grammatik shaklni yozishni boshqarishini, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. O‘quvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda o‘qituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi.

Qoida ifodasi ustida darslik bo‘yicha ishlanadi. Bunda o‘quvchilarning qoida tarkibini anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga bo‘linadi. O‘quvchilar o‘rganilgan qoidaga misol aytish va xilma–xil mashqlarni bajarish yo‘li bilan uni yangi til materialiga, ya‘ni yozuv tajribasiga tatbiq etadilar.

Qoida ustida ishlash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab tanlanadi. Masalan, bo‘lishsizlik qo‘shimchasi (*–ma*) ning yozilishini deduktiv yo‘l bilan o‘rgatish mumkin. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi (*–ga*) ning oxiri *–k* bilan tugagan otlarga *–ka*, *–q* bilan tugagan otlarga *–qa* shaklida qo‘shilishi haqidagi qoidani indukativ yo‘l bilan tushuntirish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilar qoidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsalar, uni o‘zlashtirish xiyla qulay bo‘ladi. Chunki bolalar aniq material bilan ishlaydilar va uni tahlil qilish vaqtida qoidaning muhim

qismlarini ajratadilar, qoidani ongli o‘zlashtiradilar. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o‘qituvchining savollari yordam beradi. Bu savollar, o‘z navbatida, qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi.

Qoida ustida jamoa bo‘lib ishlash bilan birga, darslikdan foydalanib, mustaqil ishlash usulini qo‘llash ham mumkin. Qoidani bilib olish o‘quvchilarda u haqdagi aniq tasavvurning mavjudligiga bog‘liq. Qoida asosida hosil bo‘lgan aniq tasavvur so‘zlarda ifodalanadi. Shuning uchun o‘quvchilardan qoidani quruq yodlash talab etilmasligi, balki so‘zni to‘g‘ri yozishdagi xususiyatlar aniq material misolida qayta tushuntirilishi lozim.

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinfda orfografik (imloviy) malakani shakllantirish tizimli ishlar asosida olib boriladi. Zero, to‘g‘ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o‘quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. O‘quvchilarining imloviy savodxonligini shakllantirish va takomillashtirishda imlo qoidalari ustida ishlash ishlarini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” ma’ruzasi// Kuch adolatda gazetasi. №47. 2016– yil. 8– dekabr. 3–bet

2. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi (boshlang‘ich ta’lim). – Toshkent, 2017.

3. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Nosir”, 2009.

BOSHLANG‘ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH

Quryozova Matluba, Xorazm viloyati

Qo‘shko‘pir tumani, 34–son maktab o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasida keying yillarda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta’lim–tarbiya jabhalarida ham tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu islohotlar milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar yuksak umumiy va kasb–hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy–siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri o‘qitish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilganidir.

Yurtimizdagi ta’lim jarayoni jamiyat hayotining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, u yosh avlodni shakllantirish va muntazam rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator muhim vazifalarga qaratilganidir. Bugungi kunda ta’lim jarayoni oldiga qo‘yilgan talablardan biri zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali uning samaradorlikni oshirish hisoblanadi.

Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘z kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an‘analariga iftixor hissini kamol toptirishda ona tili darslarining o‘rni beqiyosdir. Ona tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodkorlik faoliyatini shakllantirish, ularning faolliklarini oshirish bevosita o‘qituvchining pedagogik mahoratiga, darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishiga ham bog‘liqdir. Binobarin, ona tili

ta'limi sohasiga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi – yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasini so'z turkumlarini o'rganish misolida ko'rib chiqaylik.

Ta'lim jarayonida ijodiy va mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan metodlardan biri "Aqliy hujum"dir. Boshlang'ich sinflarda "So'z turkumlari" bo'limini o'rganishda "Aqliy hujum" metodidan foydalanish o'quvchilarning keng va har tomonlama erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. Bunda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. O'quvchilarni o'rtaga tashlangan muammo doirasida fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarini bildirishga erishish.
2. Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlarni rag'batlantirib borish.
3. Har bir o'quvchining javobini doskaga yozib borish.
4. Aytilgan fikrlarga shu jarayonda tushuntirish berilmaydi.
5. Aytilgan fikrlarni muhokama qilishga va tanqid qilishga yo'l qo'yilmaydi.
6. Takliflar tugaguncha doskaga yozib borilaveradi.

"Aqliy hujum" uchun tanlangan muammo butun sinf jamoasiga yakka tartibda bajarishga yoki juftliklarga ajratilib bajarishga, kichik guruhlar o'rtasida bajarishga mo'ljallanadi. "Aqliy hujum"da har qanday savol o'rtaga tashlanavermaydi, u o'quvchilarni fikrlashga undaydigan, masalaga turlicha yondashishni taqozo etadigan, keng fikr yuritish mumkin bo'lgan savollar bo'lishi kerak. 3–4– sinfda "So'z turkumlari" bo'limi o'rganilayotganda quyidagi kabi savollardan foydalanish mumkin:

1. So'zlar nima uchun turkumlarga bo'linadi?
2. Ot qanday qo'shimchalar bilan qo'llanadi?
3. Sifat va ot turkumining o'zaro qanday bog'liqligi bor?
4. Ot bilan fe'lning o'zaro qanday bog'liqligi bor?
5. Fe'llardagi zamon qo'shimchalari qanday ma'nolarni bildiradi?

"So'z turkumlarini o'rganishda "Qora quti" metodidan ham foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar juft bo'lib ishlaydilar. Har bir juftlikka "ot, sifat, son, fe'l so'z turkumlarning mohiyatini yorituvchi tayanch so'zlar, raqamlar, belgilarni kartochkalarga qayd eting" topshirig'i beriladi. Ular turli grammatik belgilar, sxemalar, raqamlar yozilgan kartochkalar tayyorlaydilar.

1–kartochka.

Chiziqlar o'rniga mos so'zlar qo'yib, gap tuzing. Tuzgan gapingizdagi so'zlarning turkumini aniqlang. (Kartochkada chiziqlar beriladi.)

2- kartochka.

Berilgan tayanch so'zlar yordamida rasmdan foydalanib "Ikki do'st" mavzusida hikoya tuzing. (Rasm va tayanch so'zlar beriladi.)

3- kartochnka.

2, 2006, 4, 7, 8, 11– raqamlarini harfiy ifodalar bilan yozib, o‘zingizning hayotingiz bilan bog‘liq matn tuzing va yozing.

So‘z turkumlarini o‘rganishda “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi) ortiqcha” metodidan ham foydalanish mumkin. O‘quvchilarga bir turkumdagi so‘zlar ichiga boshqa turkumga doir so‘zlar aralashtirib beriladi. O‘quvchilar ular ichidan boshqa turkumdagi so‘zlarni ajratib olishdi va nima uchun ajratib olish sababini izohlab berishadi. Beriladigan topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

Otlar ichidan ortiqchasini ajrat.

Daraxt, suv, osmon, ko‘k, mard, kamalak, yomg‘ir, tiniq.

Sifatlar ichidan ortiqchasini ajrat.

Baland, keng, choynak, piyola, tor, katta, past, kapkir, kichik.

Fe‘llar ichidan ortiqchasini ajrat

Yuvindi, tebrandi, yugurdi, dutor, rubob, charchadi, yangradi.

Boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarini o‘rganishda “Omadli eshiklar” o‘yin metodini ham qo‘llash mumkin.

“Omadli eshiklar” o‘yini. Vatmanga uchta eshik chiziladi. Sinf o‘quvchilari guruhga bo‘linadi. 1–eshikka 2 ta savol, 2–eshikda 3 ta savol, 3–eshikda 4 ta savol bo‘ladi.

1–eshik uchun savollar: 1. Nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni toping. Qush, kuchuk, Nodira, daftar, bobo, kitob.

2. Ko‘plikdagi otlarni toping. Bizlar, chizg‘ich, televizor, gullar, boshqoq.

Savollarga to‘g‘ri javob bergan guruh 2–eshikka yuzlanadi.

2–eshik uchun savollar: 1. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni toping: Oshpaz, qalam, Xiva, guldon, o‘quvchi.

2. Bosh harf bilan yoziladigan so‘zlarni toping: shahar, xorazm, shifokor, akmal, duradgor.

3. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zni qo‘ying: o‘qiydi,davolaydi. (oshpaz, shifokor, o‘quvchi, chumchuq)

Shu tariqa 3–eshik uchun to‘rtta savol beriladi. Bu savollarga ham to‘g‘ri javob berilsa, uchinchi eshik ham ochiladi va g‘olib sovg‘a– rag‘bat oladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta‘lim tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi bunday metod va o‘yinlarni qo‘llab borish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan har doim izlanuvchan bo‘lishni taqozo etadi. Shunday ekan, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi zamon bilan hamohang ravishda o‘z ish faoliyatini tashkil etishi, dars jarayonida eng samarador zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llab borishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.– Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.

2. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat Ta‘lim Standarti va o‘quv dasturi (Boshlang‘ich ta‘lim).– Toshkent, 2017

BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARIDA O‘STIRISH

Jumaniyozova Muhayyo

Urganch tuman, 15– maktab o‘qituvchisi

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, xususan, milliy istiqloq g‘oyalarning hayotimizga tobora chuqur ildiz otib borishi ta‘lim tizimidagi islohotlarning ham mazmunini boyitmoqda. Ta‘lim jarayonida o‘qitishning tajribada sinovlardan o‘tgan shakl va usullari boyitilib, zarurat bo‘lganda, yangilanib amaliyotga tadbir qilinmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti ta‘kidlaganidek, inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini yaratish... respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Bu boradagi davlat siyosati ham uzluksiz ta‘lim vositasida ma‘naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalangan har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Uning nechog‘li to‘g‘ri amalga oshirilishi ko‘p jihatdan boshlang‘ich ta‘lim tizimining samaradorligiga bog‘liq.

Boshlang‘ich ta‘lim uzluksiz ta‘limning eng muhim bo‘g‘inidir. “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risida” gi Nizomda ta‘kidlanganidek: “Boshlang‘ich ta‘lim o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash, o‘zini–o‘zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq–atvor madaniyati, shaxsiy gigiena va sog‘lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishi ta‘minlashga da‘vat etilgan”. Shu asosga ko‘ra, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko‘nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z–o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf–odatlarini o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi. Bunda boshlang‘ich sinflardagi sinfdan tashqari darslarning ham alohida o‘rni bor. Boshlang‘ich ta‘limda sinfdan tashqari o‘qish ham sinfdan o‘qish kabi o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish va mustaqil mutolaaga rag‘bat uyg‘otishga ko‘ra alohida ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari o‘qish o‘quvchilarning mustaqil faoliyati asosida uyushtiriladi. Bu esa, bir tomondan, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, qiziqishlari doirasini, ikkinchi tomondan, o‘qishga tavsiya qilinadigan asarlarning dastur mavzusiga mosligi va badiiy barkamolligini alohida inobatga olishni taqozo etadi. Shuningdek, sinfdan tashqari o‘qish jarayonida nutq o‘stirish ishlariga alohida e‘tibor beriladi. Chunki unda qo‘llaniladigan turli usullar: matnni ifodali o‘qish, rollarga bo‘lib o‘qish, tanlab o‘qish, yod olish, asar mazmuni yuzasidan reja tuzish va shu asosda qayta hikoyalash, qisqartirib hikoyalash, shaxsini o‘zgartirib hikoyalash, asar mavzusini aniqlash, qahramonlarning fe‘l–avorini tavsiflash va hokazolar o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida xalq og‘zaki ijodi (ertak, maqol, topishmoq) ni o‘qib–o‘rganish, badiiy asarni tahlil qilish orqali og‘zaki nutqni o‘stirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Yuqoridagilarning barchasida o‘quvchilarning o‘qish malakalari shakllantiriladi, o‘qilgan asarni tushunishga o‘rgatadi, ularning so‘z boyligini

oshirib, lugʻatini boyitadi. Sinfdan tashqari oʻqish, oʻz navbatida, qiziqarli, oʻziga jalb etadigan faoliyat boʻlib, umuman, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Shuningdek, sinfdan tashqari oʻqish darslarida ayrim qiyin soʻzlar tushintiriladi, oʻquvchilar diqqati esda saqlab qolish lozim boʻlgan aniq, qulay nutq oborotlariga qaratiladi.

Barcha qiyin soʻzlarni tushuntirish imkoni boʻlmagani uchun bolalar tegishli bet tagida berilgan ayrim soʻzlar izohini oʻqishga oʻrgatiladi. Shu tariqa ularning lugʻat boyligi yangi soʻzlar bilan boyib boradi.

Respublikamizda joriy yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan yoshlarga eʼtiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, sanʼat, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan toʻgʻri foydalanish koʻnikmasini shakllantirish, yoshlar oʻrtasida kitobxonlikni targʻib qilish, xotin–qizlar bandligini taʼminlash yuzasidan 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Shu maʼnoda ana shu muhim tashabbuslardan biri – yoshlar oʻrtasida kitobxonlikni targʻib qilish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda sinfdan tashqari oʻqish darslari ham muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari oʻqish darslari yosh avlod qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat tuygʻularini uygʻotish, matn mazmunini qayta hikoyalash, maʼlum reja asosida qisqartirib yoki shaxsini oʻzgartirib hikoyalash, badiiy tasvir vositalarini aniqlash, asar qahramonlarining feʼl–atvorini, xatti–harakatini baholash orqali ularning bogʻlanishli nutqini oʻstirish, qisqa qilib aytganda, kitobxonlik madaniyatini kamol toptirishda katta imkoniyatlarga ega.

Oʻquvchilarga sinfdan tashqari oʻqish darslari boʻyicha kundalik daftar, lugʻat daftari tuttirish ularda oʻz ishiga masʼuliyat hissini tarbiyalash bilan birga, mustaqil mutolaa malakalarini shakllantiradi, ijodiy qobiliyatlarini charxlaydi, soʻz zaxirasini boyitadi, nutqini oʻstiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uzviylashtirilgan Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi (Boshlangʻich taʼlim) – Toshkent, 2017.

2. Qosimova K., Matchonov S., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009.

ШАРОФ РАШИДОВНИНГ “ҒОЛИБЛАР” РОМАНИ ХУСУСИДА

**Шербоева Нодира,
ЖДПИ ўқитувчиси**

Инсон ҳаётида юз берадиган моддий ва маънавий ўзгаришларнинг адабиётда акс этиши ҳам табиий ҳол. Чунки адабиётнинг асосини албатта инсон ва у яшаётган ҳаёт манзаралари ташкил этади. Зеро, инсон дунёқарашининг шаклланишида муҳитнинг аҳамияти катта. Инсон тафаккури муҳит ва давр таъсирида шаклланади, ўсади. Инсон онги, тафаккури ижтимоий ҳаётдаги ўзгаришлар туфайли ҳам ижобий, ҳам салбий жиҳатларини намоён этиши мумкин. Ваҳоланки, бадий адабиёт маънавиятдан туғилади ва ўз навбатида маънавиятни тарғиб этади. Бадий адабиёт ижтимоий ҳаёт ва унда яшаётган одамларнинг қалб кечинмаларини

акс эттирар экан, туб ўзгаришлар, аввало, бадиий адабиётда ўз ифодасини топади.

“Тинимсиз ижодий ёниш бўлмаса ижод ҳам йўқ” деган сўзларни ўз ҳаётига дастурамал қилиб олган, қалами чархланган, услуби шаклланган, тафаккур доираси кенг ижодкор Шароф Рашидовнинг “Ғолиблар”, “Бўрондан кучли”, “Қудратли тўлқин” романларида ижтимоий, маънавий–ахлоқий масалалар ҳамиша ёзувчи диққат марказида бўлган ва бу масалалар адиб асарларида ўзининг теран бадиий тажассумини топганки, биз буни “Ғолиблар” романи мисолида тадқиқ этамиз.

“Ғолиблар” дастлаб повест шаклида 1953 йилда чоп қилинган. Лекин асарнинг айрим камчиликлари, ривожлантирилиши, такомилга етказилиши лозим бўлган ўринлари ҳам бўлган. Шу боис муаллиф унинг қайта ишлашга қарор қилган.

Адиб 1965–1969 йилларда асар устида ишлаб, уни 1972 йилда ўқувчиларга тақдим қилди. Йигирма етти бобдан иборат повест варианты қирқ бир бобга етказилган. Унда воқеалар қамрови олдингисидан ошган. Конфликт, қаҳрамонларнинг руҳий ҳолатларининг тасвири, кўтарилган масалалар кўлами ҳам кенгайган.

Бизга яхши маълумки, “Ғолиблар” романида ижтимоий тарихий давр–Ватан уруши арафаси, бу урушнинг дахшатли кунлари, урушдан кейинги ҳаётни қайта тиклаш давларида мураккаб турмуш тарзини ёритиб берилган.

Роман ҳақида адабиётшунос олимлардан Наим Каримов “Шароф Рашидовнинг “Ғолиблар” повести (1953) ўзининг ҳаётий материаллари билан – у ҳам урушдан сўнгги қишлоқ кишилар ҳаётидан олинган – “Олтин водийлан шабадалар” романига яқин. “Ғолиблар” повестининг марказий қаҳрамони – ёш агроном, қишлоқ советининг раиси Ойқиз образи эса маълум даражада Ойбек қаламига мансуб бўлган Комила образининг ривожи сифатида намоён бўлади”⁴², деб ёзса, М.Қўшжонов “Ойқиз Ватан бахт–саодати йўлидаги меҳнатни ҳамма нарсадан юқори қўювчи ажойиб замондошимиз, самимий жозибали характер эгаси”⁴³, деган хулоса келади.

Демак, адабиётшунос олимлар қарашларидан ҳам кўриниб турибдики, адиб романда инсон тақдири, унинг жамиятдаги ўрни, маънавий қиёфаси ва зиммасидаги масъулиятли бурч каби қатор масалалар бадиий ечимини топишга интилган. Натижада, адиб яратган қаҳрамонлар ўзбек халқининг бир қатор хислатларини ўзида намоён этиши билан характерланади. Уларда энг аввало яратувчанлик, курашчанлик хислатлари мужассам. Шу ўринда алоҳида эътироф этиш мумкинки, Ойқиз табиатига хос бўлган курашчанлик, юксак ватанпарварлик, романда унинг ҳар бир хатти–ҳаракати, ўй–хаёли–ю бажараётган ҳар бир ишида яққол намоён бўлади. Буни биз тоғаси билан бўлган ҳолатда ҳам кўришимиз мумкин. Ойқиз адолат учун ҳатто ўз тоғасини ҳам аяб ўтирмайди, ҳеч қандай юз хотир қилиб ўтирмайди, оқибатидан кўрқмайди. Давлат мулкига хиёнат қилгани учун, жазосини

⁴² Каримов Н. Урушдан кейинги давр ўзбек адабиёти. –Тошкент: Фан, 1982. – Б. 36.

⁴³ Қўшжонов М. Ижод масъулияти. –Т.: 1981.-Б.258.

ўтаган тоғаси Ғафур эса Ойқиздан, ўз хатосини тушинмай ўринсиз хафа бўлади ва унга совуқ муомалада бўлади. Дарҳақиқат, “Ғолиблар” романидаги образлар зиддияти табиий тўсиқ ва офатларга қарши кураш ва коллективдаги консерватив кучлар тўқнашувида кўзга ташланади.

Кўриниб турибдики, роман образлар зиддияти асосига қурилган, лекин зиддиятлар тўқиб чиқарилмаган, балки реал воқеаларга асосланган. Чунки, адибнинг ўзи бу масалага жиддий қараган, хусусан “Замонавийлик – адабиёт ва санъатнинг қалби” мақоласида бу тўғрисида шундай дейди: “Ёзувчи воқеликнинг ҳар томонлама ва теран билганда, унда бораётган ўзгаришлар, ўсиш тенденциялари ва уларнинг ўзига хосликларини ўрганганда, эскиликни мағлубиятига ва янгиликни ғалабага олиб борадиган мураккаб ижтимоий жараёнларнинг қонуниятларини чуқур тушунгандагина конфликт масаласини тўғри ҳал қилиши мумкин....Зиддият санъатда фақат зиддиятлилик бўлиши учунгина яшамайди. Буни ҳеч қачон унутмаслик керак. Бу–ҳаётни унинг объектив коллизиялари, мураккаб инсон муносабатлари билан акс эттиришнинг воситаларидан биридир. У ўз олдида сюжет йўллариини ўткирлаштириш мақсадларинигина қўймайди. У катта ижтимоий мақсадлар, замонанинг муҳим масалаларини ечишга қаратилган бўлади, шунга хизмат қилади”⁴⁴.

Ойқиз образи адиб томонидан жуда таъсирчан, жонли тасвирларда берилган. Ойқиз руҳиятида кечаётган бундай тизгинсиз ўй–ҳаёллар тасвири фониди, адиб бир томондан қаҳрамон характер хусусиятларини очишга муваффақ бўлган бўлса, бошқа жиҳатдан асар воқеаларининг ривожини, унинг колхоз раиси Қодиров билан бўлган зиддиятлари моҳиятини очишга ҳам эришадик, бу ёзувчининг ўзига зос услуб йўлидан борганлигини кўрсатади.

ИЖТИМОЙ ҲИМОЯГА МУҲТОЖ АҲОЛИ ҚАТЛАМЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Хабибова Ш., СамИСИ ўқитувчиси

Давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистонни ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси”да ижтимоий соҳани ривожлантиришга йўналтирилган аҳоли бандлиги ва реал даромадларни изчил ошириб бориш, хотин қизларнинг ижтимоий –сиёсий фаоллигини ошириш ҳамда ёшларга оид давлат сиёсатини ошириш бўйича бир қанча қилиниши лозим бўлган ижтимоий ҳимоя ва соғлиқни сақлаш тизимини ишлар атрофича ўз самарасини бермоқда.

Юртимизда ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламларини янада такомиллаштириш бўйича Тошкент шаҳрида Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 15 –июндаги “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш давр талаби мавзусида ўтказилган анжуманда “Олижаноб анъаналар халқимиз ҳаётида ҳеч қачон тўхтаб қолмагани давлатимиз томонидан бугунги кунда кенг миқёсда давом эттириляётганини таъкидлаб,

⁴⁴ Рашидов Ш. Асарлар. 5 жилдлик, 4–жилд. –Тошкент.: Адабиёт ва санъати нашриёти, 1982, 150– бет

тадбиркорлик соҳасида яратилаётган қулай шароитлардан фойдаланиб, ёшларни ўз мустақил ишини очишга даъват қилиш бу ҳам динимиз буюрган яхши амаллардан бири эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтган.

Бу борада ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламини янада кучайтириш мақсадида қишлоқ жойларида барпо этилиши хусусан ҳамжиҳатликни янада барқарорлаштириш бўйича амалий ишлар қилинган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 12.09.2017 йил ПҚ 3268 сонли “Аҳолининг кам таъминланган қатламларини қўллаб–қувватлашга оид қўшимча чора–тадбирлар тўғрисида”ги Қарори Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 03.07.2017 й.455 сон “Мурувват” ва “Саховат ” интернат ўйларида яшайдиган ногиронлар ва кексаларни ижтимоий қўллаб–қувватлашни янада кучайтириш чора–тадбирлари тўғрисида”ги Қарор ва Фармонлари юртимизда ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламини янада ривожлантиришга қўл келмоқда.

Қолаверса, мамлакатимизда кучли аҳоли қатламларини янада ривожлантириш бўйича кексаларни ҳар томонлама эъзозлашга қаратилган ишлар қолаверса, “1941–1945 йиллардаги уруш ва меҳнат fronti фахрийларини ижтимоий қўллаб–қувватлашни янада кучайтириш чора–тадбирлари тўғрисида” ги Фармон, уларни янада ижтимоий ҳимоялаш ҳамда ўзлари учун мақбул муддатларда санаторий–соғломлаштириш муассасаларида даволаниш имкониятини яратди. Кам таъминланган оилаларни ишсизликни олдини олиш бўйича қатор дастурлар амалга оширилаётгани сир эмас.

Жамиятда ижтимоий таъминотга муҳтож аҳоли қатламларини ривожлантириш истиқболлари сифатида куйидагиларни киритиб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

1. Ўзгалар парваришига муҳтож кишиларни шарт–шароитларни яратиш бўйича янги тизимни жорий этиш

2. Ногирон, ёрдамга муҳтож аҳолини иш билан таъминлашда янгича инновацион ғояларни ишлаб чиқиш ҳамда жорий этиш

3. Ҳимояга муҳтож болаларни ижтимоий муҳофоза қилишни халқаро жаҳонга мос

4. Ногиронлар ва кексаларга шарт –шароитлар яратиб беришнинг сифатини таъминлаб бериш

5. Хотин –қизларнинг ижтимоий муҳофазасини кучайтириш, оналик ва болалик саломатлигини муҳофазасини кучайтириш

6. Ёш оилаларни қўллаб–қувватлаш

7. Ёлғиз кексаларни ва ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилишни кучайтириш

8. Ҳимояга муҳтож аҳоли учун ҳомийларни бириктириш усуллари янги тизимини жорий этиш

9. Аҳолини ҳимояга муҳтож аҳоли қатламини янада кучайтириш мақсадида тарғибот гуруҳини янада кучайтириш

Республика миқёсида аҳолини ижтимоий муҳтож қатламларини шакллантириш жараёнида айниқса, ҳимояга муҳтож болаларга ҳимоя кўрсатиш, уларнинг қалбида жамики эзгу фазилатларни уйғотиш, мавжуд имкониятлардан баҳраманд қилиш каби туйғуларни юқори даражада ривожлантириш. Оналик ва болалик саломатлигини кучайтириш каби

масалаларни янада шакллантириб, халқаро андозаларга мос равишда оптималлаштириш муҳим вазифалардан биридир.

ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLAR TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Shahlo Matchanova, Xorazm viloyati Xiva shahridagi 2– maktab o‘qituvchisi

Ma’lumki, bugungi kunda ta’lim jarayonini isloh qilish va uning samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’limga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’lim tushunchasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib, quyidagicha ta’rif bergan edi: “Ta’lim O‘zbekiston madaniyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O‘zib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb–kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o‘tadi”.

Respublikamizda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati, ma’naviy–madaniy saviyasining talab darajasida bo‘lishi ta’lim tizimini isloh qilishda muhim omil ekani o‘z aksini topgan.

Mamlakatimizda yangilangan ta’lim mazmunini joriy etishda o‘qituvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Ta’lim mazmuni qanchalik yangilanmasin, yangi dastur, standartlar, talablar yaratilmasin, ularni ta’lim jarayoniga qay darajada tatbiq etilishi asosan o‘qituvchiga bog‘liqdir. Sir emaski, o‘qituvchining kasbiy fazilatlarini (chuqur bilimga egaligi, ma’nan yetukligi va pedagogik faoliyatida unga asoslanganligi) ta’lim jarayonini rivojlantirishga, samarali faoliyatga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, bugunimiz o‘qituvchi pedagoglardan o‘z kasbini mohirlik bilan bajarishni talab etadi.

Shunday ekan, har bir o‘qituvchi o‘z faniga hamda barkamol avlod tarbiyasiga doir kundalik axborot va ma’lumotlarni, texnologiyalarni muntazam o‘rganib o‘z ish faoliyatida qo‘llay bilishi natijasidagina ta’lim–tarbiya jarayonining zamon talablari darajasida bo‘lishiga erishiladi.

Umumiy o‘rta ta’limda ona tili darslarining alohida o‘rni bor. Bu darslarni samarali tashkil qilish unda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashni taqozo etadi. Hozirgi ta’lim–tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri didaktik o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanish hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlar texnologiyasi dars jarayonida turli didaktik o‘yinlarni qo‘llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg‘otishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. O‘yinlar vositasida talabalarga yangi bilimlar berish, ko‘nikma hosil qilish, kichik guruh a’zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish mumkin. O‘yinlarni darsning kirish yoki yakunlovchi qismida o‘tkazish mumkin. O‘yinlarni maqsadiga ko‘ra 7 turga ajratish mumkin:

1. Guruh bo‘lib ishlash uchun sog‘lom muhit tashkil etishga qaratilgan o‘yinlar:

- guruh a’zolarining o‘zaro tanishishlariga yordam beradi;
- guruh bo‘lib ishlash ishtiyoqini tug‘diradi;
- guruh a’zolarining o‘zini erkin his etishlarini ta’minlaydi, charchoqni tarqatadi.

2. Umumiy qiziqishlarni aniqlashga yo‘naltirilgan o‘yinlar:

– guruh a’zolarining ichki munosabatlarini tezda tiklashga yordam beradi (umumiy qiziqishlar, orzularni aniqlash orqali);

– guruhga yangi qo’shilgan a’zolarining (talabalarning) yangi sharoitga moslashishlariga yordam beradi.

3. Guruhning birligini qo’llab–quvvatlovchi o’yinlar:

– o’zaro munosabat me’yorlarini o’rnatishga yordam beradi;

– guruhning birligini, jipsligini mustahkamlashga yo’naltirilgan bo’ladi.

4. O’zaro bog’lovchi o’yinlar:

– bir mavzudan ikkinchi mavzuga yengillik bilan, tabiiy o’tishni ta’minlaydi;

– turli tushunchalarni o’zaro bog’lash uchun xizmat qiladi;

– yangi mavzuni o’rganishni yakunlash bosqichini faollashtiradi.

5. Rag’batlantiruvchi o’yinlar:

– guruh bo’lib ishlashga rag’batlantiradi;

– murakkab mavzularni muhokama qilishga yordam beradi;

– dars davomida “nafasni rostlab”, ishni davom ettirishga yordam beradi.

6. Ijodkorlikni rag’batlantiruvchi o’yinlar:

– dunyoga boshqacha ko’z bilan qarash, ta’limda innovatsion metodlarni qo’llashga yordam beradi;

– o’yin qatnashchilari o’zlarining yangi qirralarini kashf etadilar, yangilikni qabul qilish ko’nikmasini hosil qiladilar.

7. Yakunlovchi o’yinlar:

– katta mavzularni o’rganishni yakunlash, egallangan bilim va ko’nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi;

– ta’limning innovatsion metodlarini baholash va unga munosabat bildirishga o’rgatadi.

Ta’lim jarayonida qo’llangan har bir o’yin yakunida o’qituvchining sharhiga vaqt ajratiladi. Bunda u yoki bu o’yin guruh a’zolari tomonidan qanday qabul qilingani, guruhda qanday g’oyalar tug’dirganini sharhlashga e’tibor beriladi.

Quyida ona tili darslarida qo’llaniladigan ayrim o’yinlardan namunalar keltiramiz:

O’z xotiralari bilan o’rtoqlashish

O’yinni o’tkazishdan maqsad: 1. Sinfda o’quvchilarning o’zaro hamkorligini, o’zaro ishonch muhitini ta’minlaydi. 2. Talabalarning fikrlash qobiliyatini o’stiradi. 3. Sinf talabalariga bir–birlarini yaxshi anglash uchun sharoit tug’diradi. Kichik guruhlardagi talabalar soni 10–12 tadan oshmasligi kerak. O’yinga 10 minut vaqt ajratiladi.

1–bosqich darslarida bu o’yin o’tkazilganda talabalardan 5 yil oldin maktabda ilk qadam qo’yan kunlarini xotirlash so’raladi. Xotirlash jarayoni dastlab noverbal bajariladi (ichki nutq). So’ngra xotiralar og’zaki bayon etiladi. Mazkur o’yin talabalar xotirasini mustahkamlaydi, mustaqil fikrlash va bog’lanishli og’zaki nutq ko’nikmalarini o’stiradi. Xotirlash jarayoniga turtki bo’ladigan manbalardan (rasm, “Alifbe” kitobi, qo’ng’iroq) foydalanish mumkin.

Tinglang va xulosa chiqaring

Bu o’yin bog’lovchi vazifasini bajaradigan o’yinlardan bo’lib, bir mavzudan ikkinchi mavzuga “yengil” o’tish imkoniyatini tug’diradi. Yangi

mavzuga muqaddima, turli tushunchalarni o‘zaro bog‘lovchi “ko‘prik” vazifasini o‘taydi.

O‘yinni o‘tkazishdan maqsadlar: 1. Sinf o‘quvchilarining diqqatini koordinatsiya qilish. 2. O‘quvchilarni guruh bo‘lib ishlashga jalb etish. 3. Yangi mavzu taqdimotida o‘zaro qanday muloqotga kirishish va bir–birini tinglash madaniyatini shakllantirish.

O‘yin uchun 15 minut vaqt ajratiladi. O‘yinni o‘tkazish uchun tavsiyalar:

1. Ona tili o‘qituvchisi sinf o‘quvchilariga quyidagi topshiriqni beradi: Boshqa ijodiy guruhlardan o‘zingizga ikki nafar sherik tanlang. 3 kishi bo‘lib, o‘zlaringizga ma‘qul rang tanlang. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining bayrog‘idagi ranglardan: zangor, qizil, oq, moviy.

2. Kichik ijodiy guruhlarning har biri boshqalarga nimalar to‘g‘risida so‘zlab berish mumkinligini maslahatlashadilar, Ona tili darslarida yaqin orada o‘rgatilgan mavzulardan birini tanlaydilar (“Til va nutq”, “So‘z turkumlari” kabi).

3. O‘ylash uchun 2 minut vaqt beriladi.

4. Taqdimotda har bir ijodiy guruh o‘zi tanlagan mavzu bo‘yicha boshqalarga ma‘lumot beradi. 3 ta qatnashchi bir–birini to‘ldiradi. Taqdimot uchun 2 minutdan vaqt ajratiladi. O‘qituvchi vaqtni kuzatib turadi.

5. Boshqa guruh a‘zolari eshitganlari haqida xulosa chiqarib beradilar. Bu o‘yindagi so‘nggi halqa bo‘lib, xulosalarga alohida ahamiyat beriladi.

Yuqoridagi o‘yin vositasida o‘tilgan mavzularni takrorlash yengillashadi. O‘quvchilarda oz vaqt ichida mavjud bilimlar yuzasidan mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasi shakllanadi. Bu esa tanqidiy fikrlashni o‘stirishdagi muhim omildir.

Ko‘rinadiki, ona tili darslarda didaktik o‘yinlardan o‘z o‘rnida foydalanish darsning qiziqarli bo‘lishinigina ta‘minlab qolmay, o‘quvchilarni o‘zaro fikr almashishga o‘rgatadi, ularda bog‘lanishli og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini o‘stiradi hamda ularning nutq madaniyati asoslarini egallashlariga yordam beradi.

ADABIY TA‘LIMDA ABDULLA QAHHOR IJODINING O‘RGANILISHI XUSUSIDA

Qo‘shoqova Feruza, JPI akademik litsey o‘qituvchisi

Adabiyotshunoslikda Abdulla Qahhor ijodi va u yaratgan hikoya, qissa va romanlarni o‘rganishga doimo jiddiy e‘tibor qaratilgan. Chunki, Abdulla Qahhorning asarlari yuksak badiiyligi, g‘oyaning aniqligi, chuqur ijtimoiyligi va xalqchilligi bilan xarakterlanadi. Shu bois, adib ijodining bunday fazilatlarini adabiy tanqidchilik va adabiyotshunosligimizda o‘z vaqtida atroflicha ochib berilgan hamda uning ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan. Shu o‘rinda, B.Borolinaning “Abdulla Qahhor” (1957), H. Abdusamatovning “Abdulla Qahhor” (1960), M. Sultonovning “Abdulla Qahhor uslubi” (1967), M. Qo‘shchonov va U. Normatovning “Mahorat sirlari” (1968) nomli monografiyalarini, shuningdek, I.Sultonov, X.Yoqubov, P.Qodirov, O. Sharafiddinov, Sh.Yusupov, X.Doniyorov kabi olimlarning Qahhorshunoslikka oid maqolalarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Adabiy ta'limda esa Abdulla Qahhorning ijodini o'rganish masalasiga bag'ishlangan uslubiy qo'llanmalardan biri – bu Sa'dulla Ismatovning “Maktabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o'rganish”⁴⁵ uslubiy qo'llanmasidir.

O'z davri adabiyot o'qituvchilari uchun namunalı sanalgan ushbu uslubiy qo'llanmada Abdulla Qahhor ijodini o'rganishning ko'p qirralari ochib berilgan. Muallif Abdulla Qahhor ijodini sakkiz yillik maktablarda o'rganish, 5–sinfda “O'g'ri” hikoyasini o'rganish, 7–sinfda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o'rganish, 10–sinfda Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o'rganish, Abdulla Qahhor hikoyalari o'rganish (1930 yillardagi ijodi), Abdulla Qahhorning Ulug' Vatan urushidan keyingi yillardagi ijodini o'rganish, “Sinchalak” qissasini o'rganish, A. Qahhor ijodi bo'yicha yakunlovchi suhbat, A. Qahhor ijodi bo'yicha o'tkaziladigan yozma ishlar, A. Qahhor ijodini sinfdan tashqari o'rganish yo'llari, bibliografiya ruknlari ostida o'rganishning samarador metodlari tizimini tavsiya etadi. Uslubiy qo'llanmaning yutuqlari qatorida adib asarlarini o'rganishga davr nuqtai nazaridan yondashilganini, tavsiya etilayotgan uslubiy tavsiyalar hukmron mafkura talablariga to'la bo'ysundirilgani kabi qusurlarni aytib o'tish joizdir. Shunday bo'lsa–da, bunday uslubiy qo'llanmalar Abdulla Qahhor va shu kabi ijodkorlar asarlarini adabiy ta'limda o'rganishning mazmunini boyititishga, metodik tajribalar tadqiq etilib, ommalashtirilishiga; dars o'tish metod va usullari ko'lamining kengayib, takomillashiga, albatta, o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazgan.

Subutoy Dolimov, Hamidulla Ubaydullaev, Quدرات Ahmedovlarning hammuallifligida yaratilgan Adabiyot o'qitish metodikasi⁴⁶ – universitet va institutlarning filologiya fakulteti o'qituvchi va talabalariga uslubiy qo'llanmasi–adabiy ta'lim mazmunini boyitishga, yangi metod va usullar tizimini ommalashtirishga, adabiy ta'lim maqsad va vazifalarining ro'yobini amalga oshirishda juda muhim qo'llanma sifatida maydonga kelgan. Unda Abdulla Qahhor ijodini, xususan, uning “Asror bobo”, “Sinchalak” hikoya va qissasini o'rganish yuzasidan uslubiy tavsiyalar qayd etilgan. O'z davrida bu metodik kitob adabiyot o'qituvchilarining yaqin maslahatgo'yi bo'lgan, ta'lim jarayonida o'quv qo'llanma sifatida amaliy keng foydalanilgan. Hozirda adabiy ta'lim taraqqiyotini tanqidiy tadqiq qilish, uning rivojlanish bosqichlarini o'rganish uchun ham ushbu qo'llanmaga murojaat qilinadi, tanqidiy o'rganiladi.

Ma'lumki, Abdulla Qahhorning juda ko'p ibratomuz so'zlari, aytgan “qayroqi” fikrlari, “tesha tegmagan” o'xshatishlari ilm ahli, kitobxonlar orasida, keng jamoatchilik nutqida iboralarga, hikmatli so'zlar darajasiga aylanib ulgurgan. Odatda, Abdulla Qahhor ijodi yuzasidan o'quvchilar badiiy tafakkuri o'stirilar ekan, adabiyot o'qituvchi dars davomida, hech bo'lmaganda, 2 yoki 3 marotaba Abdulla Qahhorning ana shunday hikmatlariga murojaat qiladi, o'quvchilarga kuchli hissiy ta'sir o'tkazishga intiladi. Masalan, adabiyot va uning inson hayotida tutgan o'rni haqida gap ketganda Abdulla Qahhorning “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak” degan hikmatini, adabiyot taqdiri, yozuvchi mehnati haqida gap ketganda uning: Adabiyotga o'g'ri mushukka

⁴⁵Исмагов С. Мақтаба Абдулла Қаҳҳорнинг ҳаёти ва иждодини ўрганиш // иккинчи нашри. Адабиёт ўқитувчилари учун қўлланма. – Т: “Ўқитувчи”. 1978.

⁴⁶ Долимов С, Убайдуллаев Х, Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: “Ўқитувчи”. 1967.400–403–б.

o‘xshab tuynukdan oshib tushadiganlar ham bor; Adabiyot ko‘ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi – meva tugmaydi. Ko‘ngil rozi bo‘lgan asargina kitobxonning ko‘ngliga yo‘l topadi, kitobxonlarning ko‘nglida meva tugadi; Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi; talant va mahorat haqida so‘z ketganda: Semiz kitobning yuragi yaxshi tepmaydi; Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g‘o‘ra ichiga qamab bera oladi; Palag‘da tuxumga murch sepib bergan bilan uni yeb bo‘lmaydi; tanqid va tanqidchilik to‘g‘risida bilim berilganda: Asar to‘g‘risida eng to‘g‘ri, xolis yozilgan taqriz kutubxonaning daftarida bo‘ladi; Birovning ashulasini aytgan tanqidchi o‘smaydi; uzoqdan otilgan tosh qattiq tegadi; Uy oladigan kishi uyni minorada turib ko‘rmaydi; Sukut – tanqidning bir turi kabi juda ko‘plab pandlari, qalb so‘zlari, yozuvchi ijodiy maktabining xulosalari har qanday kitobxonni, o‘quvchini o‘z ta’sir domiga tortadi, o‘ylantiradi. Kitobxonlarga, o‘quvchilarga, adabiyot muallimlariga adibning bunday hikmatlaridan ortiqcha izlanishsiz bahra olishlari uchun Asror Samad mehnati bilan chop etilgan “Abdulla Qahhor hikmatlari”⁴⁷ kitobi ham ma’naviy ozuqa, ham metodik qo‘llanma sifatiga egadir. Kitobning ixcham shakli, hikmatlarning ruknlar ostida ifodalanishi kitobxonga ham, adabiyot muallimi yoki o‘quvchilarga bir qancha qulayliklar tug‘diradi.

Amaliyotda adibning bu asarlarini o‘rganish yuzasidan boy tajribalar to‘plangan. O‘zbekiston respublikasi xalq ta’lim vazirligining ilmiy–metodik jurnali “Til va adabiyot ta’limi” jurnalida adib ijodini o‘rganish yuzasidan qator yillar davomida turkum maqolalar berilgan: S.Matjonov, X. Saidmurodovlarning “Ulug‘ adib ijodini o‘rganishda oshkora muloqot”⁴⁸, M.Nurmatovaning “Uch avlod Abdullasi” sinfdan tashqari mashg‘ulot ssenariysi⁴⁹, X.Hamraqulovning “Sarob” romanida shaxs fojiasi va uning tanqidchilikda o‘rganilishi”⁵⁰, M.Mirzarahimovaning “7–sinfda Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rganish”⁵¹, G.Nurmatovaning “6–sinfda Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasini o‘rganish”⁵², Sh.Mahkamovaning “Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish tajribasidan”⁵³, R.Umrzaqovning “Bemor” hikoyasining struktural tahlili”⁵⁴, S. Abdurahmonovaning “Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rganish

⁴⁷ Asror Samad. Abdulla Qahhor hikmatlari. – T: “Ўзбекистон”. 1990.

⁴⁸ Matjonov S., Saidmurodov X. Ulug‘ adib ijodini o‘rganishda oshkora muloqot. // “Til va adabiyot ta’limi” ilmiy–metod. jurnali, 1910, № 10, 16–17–betlar.

⁴⁹ Nurmatova M. “Uch avlod Abdullasi” // “Til va adabiyot ta’limi” ilmiy–metod. jurnali, 1993, № 2, 23–25–betlar.

⁵⁰ Hamraqulov X. “Sarob” romanida shaxs fojiasi va uning tanqidchilikda o‘rganilishi. // “Til va adabiyot ta’limi” ilmiy–metod. jurnali, 2002, № 4, 53–58–betlar.

⁵¹ Mirzarahimova M. 7–sinfda Abdulla Qahhorning “Ўg‘ri” hikoyasini o‘rganish. // “Til va adabiyot ta’limi” ilmiy–metod. jurnali, 2006, № 2, 9–19–betlar.

⁵² Nurmatova G. 6–sinfda Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasini o‘rganish. // “Til va adabiyot ta’limi” ilmiy–metod. jurnali, 2010, № 3, 15–20–betlar.

⁵³ Mahkamova Sh. Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish tajribasidan. // “Til va adabiyot ta’limi” ilmiy–metod. jurnali, 2011, № 4, 11–14–betlar.

⁵⁴ Umrzaqov R. “Bemor” hikoyasining struktural tahlili. // “Til va adabiyot ta’limi” ilmiy–metod. jurnali, 2012, № 2. 17–21–betlar.

usullari”⁵⁵ kabi metodik maqolalarda adib ijodini o‘rganishning samarador metod va usullari qayd etilgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan asarlardan adabiy ta’limda kerakli o‘rinlarda foydalanish orqali, adib ijodini o‘rganish, uning asarlari g‘oyasi, mazmuni bilan tanishish, o‘quvchilarning adib asarlari orqali badiiy idrokini o‘stirishda katta ahamiyat kasb etadi.

СЕМАНТИК ВА ГРАММАТИК АЛОҚАНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ БИЛАН ФАРҚЛАНУВЧИ СИНТАКТИК ФИГУРАЛАР

**Х.Эшмуродов , ЖДПИ магистри
Илмий раҳбар: доц.Б.Файзуллаев**

Бадий матнда сўз қўллашнинг санъат даражасида ёки санъат даражасида эмаслигини баҳолаш учун энг аввало сўз, унинг маъноси ва бу маънонинг тузилишини аниқ тасаввур этиш лозим. Чунки сўз қўллаш билан боғлиқ ҳолда юзага чиқадиган қўшимча маъно нозикликлари, турли тасвир усуллари ва воситалари орқали аниқ мазмунга эга бўлиши мумкин. Тилшуносликда бу ҳодисалар учун стилистик фигуралар, поэтик синтаксис, баъзан эса риторик фигуралар атамаларидан фойдаланилади. Чунки услубий фигуралар ҳақида гапирилганда китобхонга таъсир кўрсатувчи, таъсирни ошрувчи махсус синтактик қурилмалар назарда тутилади. Синтактик фигуралар ва троплар бир–бирини тўлдиради, бири иккинчисига аниқлик киритади. Чунки троплар нутқ таъсирчанлигини кучайтириш, тасвирийликни оширишга ёрдам берувчи махсус синтакматик нутқ бирликлардандир. Чунки нутқ таркибида фигуралар ўқувчига кўпроқ эмоционал таъсир кўрсатиши, гапдан англашилган умумий маънони кучайтириш ёки камайитиришда синтактик восита сифатида ишлатилади. Троплар сўз билан иш кўрса, фигуралар гап тузилиши ва гапдан англашилган умумий маънога асосланади.

Поэтик фигуралар бугунги филологик тадқиқотларда қуйидаги хусусиятларга кўра фарқланади ва тасниф қилинади.

1.Семантик конструкциялардаги семантик ва грамматик алоқанинг ўзига хослиги билан фарқланувчи фигуралар: антитеза, эллипсис, сукут, кесиш, улаб кетиш, аксюморон, ўхшатиш.

2. Синтактик конструкциядаги компонентларнинг ғайри–одатий жойлашуви билан фарқланувчи фигуралар: инверсия, параллелизм, такрор.

3. Синтактик конструкциянинг интонацион хусусияти билан фарқланувчи фигуралар: градация, эмоционал гап, риторик сўроқ гап ва санаш кабилар. Биз ушбу мақоламизда “Синтактик конструкциядаги синтактик ва грамматик алоқанинг ўзига хослиги билан фарқланувчи фигуралар” юзасидан тўхатлиб ўтмоқчимиз.

Биз ушбу мақоламизда “Синтактик конструкциядаги семантик ва грамматик алоқанинг ўзига хослиги билан фарқланувчи фигуралар” юзасидан Ўткир Хошимов асарлари мисолида ўз фикр–мулоҳазаларимизни билдирмоқчимиз. Юқорида таъкидлаганимиздан бундай синтактик

⁵⁵ Умрзақов Р. “Бемор” ҳикоясининг структурал таҳлили. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий–метод. журнали, 2012, № 2. 17–21–бетлар.

фигураларга эллипсис, антитеза, улаб кетиш, кесиш, аксюморон кабилар киради. Улуғ сўз устаси Ў.Ҳошимов асарларида ушбу фигураларнинг барчасини учратиш мумкин”.

Масалан эллипсис ҳодисаси нутқдаги айрим сўзларни тушириб қолдириш орқали бошқа сўзга урғу бериб сўзловчи эътиборини асосий нарсага қаратишига ҳаракат қилинади. Демак, айрим сўзларнинг тушуриб қолдирилиши эллипсис ҳодисасини келтириб чиқаради. Бу услуб билан ёзувчи айтмоқчи бўлган фикрини қисқа ва лўнда жумлаларда берилишига эришади.

Масалан: “Олимжонга ялиндим.

–Қаттиқроқ тақиллат. Момоқалдиروقда”.

Ушбу гапни барча синтактик қоидаларга асосан шакллантирадиган бўлсак, қуйидагича гап тури ҳосил бўлади: “Сен эшикни қаттиқроқ тақиллат. Улар момоқалдиروقда эшик тақиллашини эшитмаяптилар, шекилли”.

Юқоридаги мисол сўзлашув нутқи учун одатий ҳол. Чунки сўзлашув ва оғаки нутқда сўзловчининг ҳатти–ҳаракати, мавзунинг давомийлиги баъзи бўлақлар тушиб қолишига имкон беради, сўзловчи ва тингловчи вазиятдан, фикр давомидан келиб чиқиб ўзаро мулоқатни амалга ошира оладилар. Бу ҳолатда эллипсис ҳодисаси кўл келади юқоридаги ҳолатга эътибор қаратадиган бўлсангиз, эллипсиз ҳодисаси шошилиш пайтда, буйруқ гапларда кўпроқ учрайди.

Чунки буйруқ гаплар қисқа ва ниқ бўлиши, мақсадга эришиш зудликда амалга оширишига қаратилган бўлади. Шунинг натижасида эллипсис ҳодисаси вужудга келади. Зукко ва синчков ёзувчилар кишилар ҳаётидаги бундай нарсаларни эътибордан чиқармайдилар. Демак, эллипсис ҳодисаси кўпроқ буйруқ гапларга ҳосил. Шунингдек, улар сўз гап ва тўлиқсиз гапларда кўп учрайди.

Бадиий матнда синтактик фигуралардан яна бири “жим қолиш” ҳодисасидир, яъни ўзганинг гапига нисбатан жавобсиз туриш.

Ушбу ҳолат бадиий адабиётларда жим қолиш ҳодисаси ҳисобланиб, персонажлар бундан маълум мақсадларда фойдаланадилар. Лекин ўқувчи қаҳрамон жим қолишидан ажабланади ва эътиборини қаратади, унинг сабабини англашга қизиқади. Бу эса, ўз навбатида китобхоннинг эътиборини тортади ва ўқувчини фаолиятга чорлайди, китобхонни ўзаро фаолиятга ундайди. Бу ҳолатда сукут ҳам бадиий қиммат ҳосил қилади. Китобхон ва қаҳрамон муносабати шаклланади. Маълум мақсадга қаратилган сукут ҳосил бўлади.

Бундан қуйидаги мақсадларда фойдаланилади: Дадам унинг кўзига тикилиб, секин хўрсинди.

–Раҳмат... Тирик бўлсам, шу яхшилигингизни... Бунда қаҳрамоннинг миннаддор кайфияти очиб берилган. Демак қаҳрамондаги ҳаёжонли ҳолатнинг гувоҳи бўламиз. Бундай нутқ ҳодисалари жуда кўп бадиий асарларда ўз ифодасини топган.

Кесиш. Ушбу усул мумтоз адабиётда ҳам мавжуд. Бу ҳақда Абдурауф Фитратнинг қуйидаги фикрлари мавжуд: “Инсонда баъзи фикрлар, туйғулар бўлади–ки, уларни билдирмак учун сўзлаган сўзлар ҳалигиларнинг таъсирини йўқотдан бошқа бир фойда бера олмайди. Одатда ҳам “мен бу фикримни англата олмайман, буни англатмоқ учун сўз етишмайдур”, деганида шундай

фикрлар ва туйғулардан хабар берамиз. Чунки бундай ўринларда бошқа сўзлар айтиш ўринсиздир.

Улаб кетиш. Маълумки, суҳбат жараёнида қаҳрамонлар нутқида у ёки бу тарздаги узилишлар, бўлинишлар содир бўлади. Бу ҳолат айниқса, сўзлашув нутқи ва бадиий адабиётда қаҳрамонлар нутқида кўплаб учрайди. Суҳбат жараёнида сўзловчи гапни тингловчи охиригача эшитмай, бўлиб қўйиши ва ўзи давом этириб кетиши ҳолатларини кўп кузатамиз. Бунда шунга эътибор қаратиш керакки узилган ва давом эттирилган қисмда бир мавзу ёритилган бўлиб, яхлитлик ҳосил қилсагина муайян бутунлик ҳақида гапириш мумкин.

Агар суҳбатдаги бошқа мавзуга ўтиб кетса, у ҳолда улаб кетиш содир бўлмайди. Лекин бир қаҳрамон нутқидаги узилишнинг иккинчи бир қаҳрамон нутқи орқали тўлдирилиши ёзувчининг алоҳида эстетик маҳорати ва услубига ҳам боғлиқ.

Антитеза–грекча қарама–қарши сўздан олинган. Демак бир–бирига зид маънони, тушунчаларни ифодалайди. Мумтоз адабиётимизда тазод номи билан юритилади. Шундай экан бундай гаплари зид маъноли сўзлар, иборалар, бир–бирини инкор этувчи сўзлар, воқеаларни ифодаловчи сўз ва иборалардан фойдаланилади. Масалан: Ҳаёт шунақа экан. Гоҳо кимнингдир мотами кимгадир байрам бўларкан. Бу гапда мотам ва байрам сўзлари антитезани ҳосил қилмоқда. Бу типдаги мисолларни ўрганилаётган адабиётларда кўплаб учратиш мумкин.

Ўхшатиш. Шу бобга хос атамалардан бири ўхшатишдир. “Ўхшатиш деб” икки нарса ёки воқеа–ҳодиса ўртасидаги ўхшатишликка асосланиб, уларнинг бири орқали иккинчисининг белгисини, моҳиятини тўлароқ, аниқроқ, бўртириброқ ифодалашга айтилади. Ўхшатишлар энг қадимий тасвирий воситалар сифатида нутқимиз, айниқса, бадиий адабиёт тилини бойитишда, образлиликни таъминлашда муҳим восита сифатида фойдаланиб келинган. Бадиий адабиётда ҳар қандай ўхшатиш тилда акс этар экан, албатта, унда тўрт нарсага асосланади: 1) ўхшатиш субъекти; 2) ўхшатиш эталони; 3) ўхшатиш асоси; 4) ўхшатишнинг шахсий кўрсаткичлари. Демак, шу ҳолатлар йиғиндиси яхлит ўхшатишни шакллантира олади. масалан: “Аъзойи бадани япроқдай қалтирай бошлаганини ҳис этиб, Алимардоннинг ёқасига ёпишди”.

Келтирилган мисолда бадани – ўхшатиш субъекти, япроқ–ўхшатиш эталони, қалтирамоқ–ўхшатиш асоси, –дай ўхшатишнинг шаклий кўрсаткичи.

Чунки Анварнинг қалтираши оддий, ўтиб кетадиган ҳолат эмаслиги, гапда Анварнинг таъсири кучли эканлигини ёзувчи юқоридаги фарқ орқали ифодалаб берган.

Биз ушбу мақолада бадиий матнда синтактик фигуралар, уларнинг семантик ва грамматик алоқанинг ўзига ҳослиги билан фарқланувчи томонларини Ўткир Ҳошимов асарларидан олинган мисоллар орқали таҳлилга тортдик.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Арасту.Поэтика. Ахлоқи кабир.–Т., 1978.
2. Телия В.Н.Коннатативный аспект семантик коминативных единиц. – М., 1986.

ERTAKLAR – EZGULIK JARCHISI

**Marg‘uba Tursunqulova, Sirdaryo viloyati,
Sardoba tumani 14– maktab o‘qituvchisi**

Ertaklar bolalarni olam bilan tanishtiruvchi birinchi badiiy tafakkur vositasidir. Ertaklar badiiy olamiga sho‘ng‘igan bola tashqi atrof–muhit, tabiat sir–sinoati, hayvonot olami, kattalar va tengdoshlari dunyosi bilan yaqindan tanisha boshlaydi. Shu bilan bir qatorda ularning qalbiga mehr–muhabbat, ezgulik, insoniylik, olijanoblik, mehnatsevarlik urug‘larini sochadi. Xalqimiz bejizga “Ertaklar–yaxshilikka yetaklar” deyishmaydi. Shu sababli ta‘lim tizimida bashlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni ertaklar olami bilan tanishtirish katta tarbiyaviy, ma‘rifiy ahamiyat kasb etadi.

O‘rta ta‘lim tizimining ikkinchi sinf uchun tuzilgan “O‘qish kitobi” darsligida o‘ndan ortiq ertaklar keltirilgan bo‘lib, ularning asosiy qismi o‘zbek xalq ertaklari va adabiy ertaklardir. Shu o‘rinda o‘qituvchining o‘zi xalq ertaklari va adabiy ertaklarni farqlay olishi, ularning janr xususiyatlarini yaxshi bilishi lozim. Xalq ertaklari xalq tomonidan yaratiladi, og‘zaki ijro etiladi, ajdodlardan avlodlarga og‘zaki barqaror an‘analarda og‘izdan og‘izga o‘tib keladi. Adabiy ertaklar esa xalq ertaklari yo‘lida ma‘lum bir ijodkor tomonidan yaratilgan yoki qayta ishlangan ijod namunasidir. O‘quvchilarga ertaklarning mohiyatini, o‘zlariga xos xususiyatlarini, bola tarbiyasida tutgan o‘rnini tushuntirishda ana shu jihatlarga e‘tibor bermog‘i lozim.

Xalq ertaklari chinakam xalq donishmandligining mevasidir. Shu sababli ularga kattalarga, o‘smirlarga, bolalarga mo‘ljallab yaratiladi. Bolalar uchun yaratilgan ertaklarda ularning yoshiga xos xususiyatlari, tevarak–atrofga, tabiat olamiga hayvonot olamiga bo‘lgan qarashlari, qiziqishlari hisobga olinadi. Aytish lozimki, ikkinchi sinf uchun yaratilgan “O‘qish kitobi”ga kiritilgan xalq ertaklari ayni yoshdagi o‘quvchilarning tafakkur olamiga mos keladi. Har bir ertak o‘quvchiga yetarlicha tushuntirilsa, uqitirilsa kerakli tarbiyaviy natijalarni berishi, shubhasiz.

Bolalar uchun yaratilgan ertaklar, asosan, hayvonlar haqidagi va hayotiy–maishiy turdagi ertaklardan iborat bo‘ladi. Sehrli–fantastik turdagi ertaklar ko‘proq o‘smir yoshdagilar hamda kattalarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Ikkinchi sinf o‘quvchilarining badiiy olami ham sehrli–fantastik sarguzashtlarni qabul qilishga tayyor emas. Hayvonot olami esa dunyo sir–sinoati bilan endigina tanishayotgan bola uchun qiziqarli. Shu jihatdan darslikdagi “Tulki bilan xo‘roz”, “Tuya, fil va olmaxon”, “Qarg‘a bilan tulki”, “Hakka bilan tulki”, “Mushuk bilan sichqon”, “Qaldirg‘och bilan beshiktervatar”, “Tabiatning ne‘mati ko‘p” kabi ertaklar bolalarni o‘zlari yashab turgan olamdagi hayvonot dunyosi bilan tanishishda kuchli adabiy vosita bo‘ladi. Qiziqarli tomoni shundaki, bolalar bu hayvonot olamining ba‘zilari bilan tanish bo‘lsa, ayrimlari haqida tasavvurga ham ega emaslar. O‘qituvchining pedagogik mahorati aynan shu o‘rinda yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi har bir ertak yuzasidan dars o‘tar ekan, o‘quvchilarning bu ertakdagi qaysi jonivorlarni yoki qushlarni bilish yoki bilmasliklarini aniqlab olmoqlari lozim. Xo‘roz, tulki, mushuk, sichqon, qarg‘a, eshak, qaldirg‘ochlarni o‘quvchi ko‘rgan va o‘zicha biladi. Lekin ularning har birining o‘ziga xos xususiyatlarini, hayotda qanday rol o‘ynashini yaxshi anglamasligi mumkin. O‘qituvchi nima uchun tulkinging ayyorlik, eshakning

nodonlik, tanballik, qaldirg‘ochning ezgulik, xo‘rozning jarchilik timsoli ekanligi haqida hayotiy misollar orqali tushuncha berishi o‘quvchining bu hayvonlar haqidagi xayolot dunyosini yanada boyitishga olib keladi. O‘quvchilar fil, tuya, beshiktervatarni ko‘rmagan bo‘lishlari mumkin. Shu sababli o‘qituvchi bu hayvon va jonzotlarning rasmini ko‘rsatib, ularning har biri haqida batafsil ma‘lumotlar bersa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Ayni o‘rinda yangi pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan foydalanib imkon bo‘lsa kompyuterda ular haqidagi multfilmlarni qo‘yib bersa, darsning samaradorligi yanada oshadi. O‘quv yili davomida o‘quvchilarni hayvonot bog‘iga va tabiat quchog‘iga olib chiqib ekspeditsiya uyushtirish bolaning olam va tabiat mo‘jizalari haqidagi dunyosini kengaytirishni unutmazlik lozim.

“O‘qish kitobi” ga kiritilgan “Uch o‘g‘il”, “Tansihatlik–tuman boylik”, “Kenja o‘g‘il”, “Aqlli bola” kabi hayotiy–maishiy ertaklar didaktik xarakterda bo‘lib, o‘quvchi qalbida ezgulik, yaxshilik, insoniyli, mehnatsevarlik, oqillik tuyg‘ularining nish urib, ko‘karishiga qaratilgan. Ayniqsa, uch aka–uka o‘rtasida kenja o‘g‘ilning akalariga nisbatan aqlli, mehnatsevar va mehribon bo‘lishining sabablari, undagi fazilatlarining o‘quvchiga ham, “yuqishi” yo‘llari o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Yaxshi farzand, namunali o‘quvchi bo‘lish har bir bolaning o‘z qo‘lida ekanligi ana shu ertaklar misolida singdirish o‘qituvchidan turli yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishni talab qiladi. Ayniqsa, kompyuterdan foydalanib mavzuga oid multfilmlarni namoyish qilish dars samaradorligini oshiradi. Chunki tajribali pedagoglarning ta‘kidlashlaricha, bola eshitganlariga nisbatan ko‘rganlarini uzoq vaqt xotiralarida saqlab qoladi.

Xullas, o‘zbek xalq ertaklari yosh avlodni ma‘naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalashda, bola qalbini ezgulik nuri bilan to‘yintirishda, uning tabiatga, butun borliqqa muhabbat tuyg‘usini uyg‘otishda katta tarbiyaviy, ma‘rifiy ahamiyat kasb etadi.

“QISASI RABG‘UZIY”NING MAVZU KO‘LAMI

Zavqiddin Burxonov, JDPI magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent N. Soatova

XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yaratilgan nasrning yirik namunalaridan biri “Qisasi Rabg‘uziy” asaridan o‘rin olgan hikoyatlar, rivoyat, naqlarga

Qur‘on va boshqa diniy kitoblardan, tarix asarlari va turli xalqlardan kirib kelgan afsona va rivoyatlar ham zamin bo‘lib, ular turkiy epik traditsiya ta‘sirida yangi mohiyat va xususiyat kasb etdi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining muqaddimasi Alloh taologa hamd va payg‘ambarimiz Muhammad payg‘ambarga salovat aytish bilan boshlanadi. So‘ngra “Val–qavlu fissanavati val–arzi”⁵⁶. deb dunyoning yaratilish mavzusi yoritiladi.

Dunyoning yaratilish mavzusi doimo dolzarb mavzulardan bo‘lib kelgan. Qadimda insonlar dunyo va undagi narsalarning qanday yaratilganligi haqida fikr yuritganlar. Ayrim kishilar dunyo o‘z–o‘zidan yaralgan deyishsa, ayrim kishilar

⁵⁶ Рабғузий, Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. –9 б.

dunyo yaratuvchi tomonidan yaralgan deydi. Dunyoning yaratilishi to'g'risidagi fikrlar doimo insonlarning dunyo qarashini belgilaydi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining muallifi ham asar boshida o‘z dunyo qarashidan kelib chiqib, dunyoning yaralish mavzusi haqida fikr yuritadi. U dunyo Alloh taolo tomonidan yaratilganligini bayon qiladi. Alloh taolo dastlab bir gavhar yaratganligi va undan suv bo‘lganligini undan osmon va yerlarni yaratganligi aytiladi.

Dunyoni yaratilishi qissasida barcha narsa odam va uning manfaati uchun yaratilganligi uqtirilib, so‘ngra odamning yaratilish mavzusi bayon qilinadi. “Qisasi Rabg‘uziy” asarining Odam payg‘ambar bobida insonni boshqa maxluqotlardan mukarram qilib yuborganlik mavzusi bayon qilinadi.

Dunyoning avvalidan insoniyat oldida nohaq qon to‘kilishini oldini olish mavzusi hamisha dolzarb masalalardan bo‘lib keladi. Qirg‘in–barot urushlarda, insonlarning o‘zaro janjallarida insonning qoni to‘kilishi kechirib bo‘lmaydigan ishlardandir. Shu jihatdan dunyoviy qonunlarda ham, barcha dinlarda ham nohaq qon to‘kish qoralanadi. Ayniqsa, hozirgi kundagi terrorizm va ekstremizm kabi illatlar nohaq qon to‘kish, alohida siyosiy arboblarni o‘ldirish yoki ularga qasd qilish, jamiyatda notinchlik yuzaga keltirish uchun qilinadi. Mazkur asardagi Qobil va Hobil qissasida nohaq qon to‘kish og‘ir jinoyat ekanligi mavzusi yoritiladi.

Rabg‘uziy Yunus payg‘ambar qissasini bayon qilish bilan asarni o‘quvchida inson o‘zini qutqarib, insonlarni kulfatda qoldirib boshqa joylarga ketish halokat ekanligi uqtiradi. Aslida, inson faqat o‘zi uchun emas, balki boshqa atrofidagi kishilar bilan birga yashashi lozim.

“Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi Dovud payg‘ambar qissasida har bir kishi kasb–hunar bilan tirikchilik qilishi lozimligi mavzusi bayon qilinadi. Asarda aytilishicha, Dovud payg‘ambar kechalari qo‘l ostilaridagi shaharni aylanib, o‘zlarini tanitmasdan odamlar bilan suhbatlashar ekanlar.

Darhaqiqat, “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi Dovud payg‘ambar qissasida har bir inson kasb o‘rganib, shu kasbi bilan o‘z tirikchiligini o‘tkazishi lozimligi uqtiriladi. Inson o‘z qo‘li kuchi, kasbi, mehnati bilan ajoyib narsalarni yaratadi. U inson kasbi bilan xalqning hojatini chiqaradi va uning olqishiga sazovor bo‘ladi. Kasb–hunarli kishi har doim xalq uchun kerakli insondir.

Qadimdan insonlar doimo poklikda yashashga harakat qilib kelishadi. Shu sababli insonlar o‘zi yashagan joylarni toza, saranjom sarishta, liboslari ozoda, luqmalarini ham pok bo‘lishiga ahamiyat berib kelishgan. “Qisasi Rabg‘uziy”da ham poklik mavzusi asosiy mavzulardan biri hisoblanadi.

Xalqimizda qadimda zino buzuqlik sifatida qoralanmanganda edi, sevgi va do‘stlik, mehr va shafqat kabi ijtimoiy va insoniy tuyg‘ular asosiga qurilgan oila hayoti barham topgan bo‘lar edi. Zino oilalarning buzilishi jamiyatning yemirilishidir. Jamiyatning yemirilishi esa insoniyatning halokat tomon yuz tutishidir. Zino inson iffat–nafsini poymol qiladi. Shaxs, oila, jamiyat buziladi. Insoniyat tarixiga nazar solinsa, bu nopoklik insoniyatga va u yashayotgan jamiyatga yaxshiliklar olib kelmagani ma‘lum bo‘ladi. Horut va Morut ham o‘z nafslari yo‘lida iffatli ayollarni yo‘ldan urishgacha boradilar. Lekin oqila, o‘z e‘tiqodiga mustahkam, eriga sadoqati zo‘r bo‘lgan ayol ularni dog‘da qoldirib, Xudoning olqishiga sazovor bo‘lib, tong yulduziga aylanadi. Nopok ish bilan shug‘ullangan Horut va Morut jazolanadilar. Ular Bobilda oyoqlaridan osib

qo'yildilar. Bu haqda asarda shunday deyiladi: "Jabroil ularni Bobil quzug'inga eltdi. Qil birla tabondan osdi" (38 bet).

"Qisasi Rabg'uziy" asaridagi Sulaymon payg'ambar qissasida inson dunyoni boshqarishga qodirligi masalasi bayon qilinadi. Asardagi qissada Sulaymon payg'ambar Dovud payg'ambarning farzandlari ekanligi va u kishiga podshohlik meros qolganligi aytiladi.

"Muso payg'ambar haqidagi qissada Bani Isroil xalqini Misr Fir'avnlari zulmi va istibdodidan qanday qutilganliklari mavzusi hikoya qilinadi. Qorun qissasida ochko'zlik insoning tuban axloqiy ko'rinishi ekanligi va oxir oqibat halokatga borishi bayon qilinadi. Inson uchun eng xavfli odat bu ochko'zlikdir. Ochko'zlik insonni halokatga yetaklaydi. Shu sababli "Qisasi Rabg'uziy"ning "Qorun qissasi"da ochko'zlikning halokatli oqibati bayon qilinadi. "Yusuf payg'ambar qissasi"da "Sog'lom bola-sog'lom tarbiya mevasi" ekanligi bayon qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Qisasi Rabg'uziy" asari o'zbek adabiyotining mumtoz namunasi bo'lib, asar mavzu jihatdan serqirra asar hisoblanadi. Chunki, asarda bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan ruhan, jismonan sog'lom barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularning muayyan kasb-hunarini egallab, farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratish, insonparvarlik, vatanparvarlik, to'g'rilik, adolat, shaxs va jamiyat munosabatlari, g'ayriinsoniy va g'ayriaxlokiy fe'l-atvorlarga qarshi kurash kabi mavzular mustahkam joy olgani, uni abadiyatini ta'minlagan.

БИР ОБРАЗ ТАҲЛИЛИ

Мафтуна Юсупова, Жиззах ДПИ магистранти Илмий раҳбар: Ф.ф.н., доц. З.Мамадалиева

Бадий асарга зеб берадиган, уни ўқувчига янада таъсирчан қилиб кўрсатадиган, образли қилиб айтганда қизил юзнинг зеболигини ошириш учун қаро хол каби хизмат қиладиган воситалардан бири бадий деталдир. Деталь ҳақида "Адабиётшунослик луғати"да кўйидаги таърифни ўқиймиз: "Деталь – бадий деталь; бадий асарда муайян мазмун ифодаловчи, ғоявий–бадий юк ташувчи тафсилот"⁵⁷.

Абдулла Қодирий ижодида, хусусан унинг "Ўткан кунлар" романида мана шундай бадий деталлардан бири шам образидир. Қодирийнинг бу романи ҳақида адабиётшунослигимизда Жўржи Зайдоннинг "Фарғона келини" романидан ижодий таъсирланиш туфайли дунёга келди, деган қараш устунлик қилади. Бироқ ундаги кўпгина ўринлар, образлар ва ривоя тарзи, шунингдек деталлар ҳам мумтоз адабиётимиздан озуқа олиб яратилганлиги аён кўриниб турибди.

Шундай ўринлардан бири – романдаги *шам* деталь образи ҳисобланади. Маълумки, шам яқин–яқингача халқимиз турмушидаги энг зарур воситалардан бири ҳисобланган. Ундан ҳар куни ёш–қари, эркак–аёл, бой–камбағал бирдай фойдаланган. Балки шунинг учундир, шам мумтоз адабиётимизда кенг кўлланилган фаол образлар қаторида бўлган. Мумтоз шоирларимиз уни маъшуқага, пилигидаги оловни – ёрнинг юзига, қаддини

⁵⁷ Д.Қурононов ва б. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр, 2010. Б – 89.

адл қоматига қиёс қилиб гўзал сўз ўйинлари яратганлар. Шамни ёр ҳажрида ўртаниб, тинмай кўз ёш тўкувчи ошиққа қиёслаш ҳам анъана шаклига кирган. Унинг ёруғлик тарқатувчи воситалигини назарда тутган ҳолда – қалбларни ёриштирувчи илоҳий манба – маърифат воситасида ҳам қабул қилишган.

Навоийда ўқиймиз:

*Хусни ортар юзда зулфин анбар афшон айлагач,
Шамъ равшанроқ бўлур торин паришон айлагач.*⁵⁸

(Маъшуқа) юзига сочини тушириб, анбар ҳидларини таратиши натижасида гўзаллиги ортади, бу гўё шамнинг тори (пилиги)нинг ёйиб (паришон айлаб) қўйганда унинг равшанроқ шуъла таратишига ўхшайди. Кўрганимиздек, даҳо шоир шамнинг пилигини ёйиб қўйилиши воситасида гўзал санъат яратмоқда. Машрабда ҳам шам образи ўзига хос рашида қўлланилганини кўришимиз мумкин:

*Кеча васлингдан йироқ ишиқ аҳли чандон йиғлади,
Куйди ҳам парвонау шамъи шабистон йиғлади.*⁵⁹

Кеча(си) васлингдан йироқ бўлиб, ошиқлар чандон йиғлади, (уларни ёнидаги) қоронғуликни ётирувчи шам ҳам, парвона ҳам (уларга қўшилиб) кўз ёш тўқди.

Адабиётмизидаги илк роман “Ўткан кунлар”да шам детал образи мумтоз адабиётдан таъсирланган ҳолда фаол қўлланилганлигига дуч келамиз.

Романнинг бошланишадёқ бу образга дуч келамиз. Ёзувчи бизга Отабекни таништиришдан олдин Марғилондаги у тўхтаган карвонсарой хужрасини тасвирлар экан, “... утталарда бўз кўрпалар кўрилган бўлса, бунда ипак ва адрас кўрпалар, наригиларда қора чироғ сасиганда, бу хужрада шамъ ёнадир, ўзга хужраларда енгил табиатлиқ, серчакчақ кишилар бўлганида бу хужранинг эгаси ҳам бошқача яратилишда...”⁶⁰, деб маълумот беради.

Шундан кейин Қодирий китобхонни Отабек билан таништиради: унинг портретини тасвирлайди. бу ўринда ёзувчи шам ва қора чироқ образларини Отабек ва карвонсаройдаги бошқа кишилар билан муқояса қилишда образлиқ воситасида ишлатади. Бу восита билан ёзувчи бош қахрамонининг нафақат кўриниши, балки асар давомида тасвирланган характеридаги хусусиятлар унинг жамиятдаги кишилар орасида ажралиб туриши ишора қилмоқда.

Романда бу образга тез–тез дуч келишимиз унинг деталь образ эканлигини таъкидлайди. Лекин шам образи роман давомида бир эмас, балки бир қанча маъно ташиши билан мураккаблиқ касб этади. Жумладан, Отабек билан Кумушнинг тўйи тасвирида ёзувчи яна шам образига мурожаат этади: “Куяв келар эди: икки томони сириб олган хотин–қизлар ўртасидан Отабек келар эди. Унинг кетидан Офтоб оймнинг эгачиси исириқ тутатар эди. Хотинлар қўлида шамъ билан унга қарар ва узатиб қолур эдилар”⁶¹. Бу ўринда шам висол, хурсандчилик дамларини, Отабек қалбининг нурафшонлашувчини ифодалашда хизмат қилмоқда. Зеро, қўлида шам билан

⁵⁸ Навоий Алишер. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. Т-3. Тошкент, Фан: 1988. Б. 80-81.

⁵⁹ Машраб. Меҳрибоним қайдасан. Тошкент: Адабиёт ва санъат: 1990. Б – 46.

⁶⁰ Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. Б – 7.

⁶¹ Шу асар. Б – 60.

аёллар уни Кумуш хузурига кузатиб қўймоқда эдилар. Қодирий “Меҳробдан чаён” романида Анвар учун Раънони ҳам “ҳаёт шамъи” деб атайди.

Ростдан ҳам Отабек билан Кумуш орасида “ҳаёт шамъи” ёқилди. Уни бир неча бор ўчирмоқчи бўлган Ҳомиднинг қабих режалари ҳам, айёрона ҳаракатлари ҳам бу шамни ўчиролмади. Бирок “ота–она орзуси” орага тушиб, бу икки ёш орасига ҳижрон дамлари бошланаётганда ёзувчи яна шамга мурожаат этади: “Кумушнинг уйга кириб келгани унга сезилмай қолди. Ул қушлар каби латиф товуш чиқармаслиқ қилиб гилам устидан юриб келди–да, секингина шамъ ёнига – Отабек қаршисига ўлтурди. Унинг қўйнагининг чиқарган энгилгина шамоли билан ёниб турган шамъ ҳам кўришкандек, ўйнашкандек бўлди”.⁶² Бу ўринда висол муждачиси, икки ёшнинг орасида ҳаёт нишони бўлган шам уларнинг ажралишини хохламагандек. Ёшлар бир–бирларидан жудо бўлгилари келмаганлигига шам ҳам гувоҳ, ҳам ҳаммаслак: “Қутидор тарфидан эртага Тошканд жўнаш эълони берилди. Иккисининг ҳамма вақтлари шамъ ёнида сўзлашиб кечди...”⁶³ бу ерда шам нафақат висол, балки вафо ва садоқат рамзи сифатида икки ёшнинг сирдоши вазифасида қўлланилмоқда.

Отабек Зайнабга уйлангач, Марғилонга илк маротаба борганда Ҳомиднинг сохта талоқ хатига алданган Мирзакарим қутидор уни остонасидан ҳайдагач, тасодифан уни кўриб қолган таниши – кейинчалик қадрдон дўсти – уста Алимнинг уйида яна шам билан боғлиқ лавҳани кўрамыз.

–Ёнбошлангиз, бек, – деди, бошлаб ўзи ёнбошлади. Отабек ҳам унга эргашди. Иккисининг орасидаги шамъ ел билан ўйнашибгина нур сепар, иккиси ҳам сўз қўйишкандек шамъга кўз тикилиб қандай ўйғадири берилгандек эдилар”.⁶⁴ Бу ўринда шам ҳақиқий дўстлик рамзи бўлиб, янги танишларнинг унга термулиб сукут сақлаши, бу икки йигитнинг ҳаммаслак, ҳамқисмат бўлишлари, то сўнгги дам бирга юришларига ишора бўлиб хизмат қилмоқда. Дарвоқе, сўзлашув пайтида уста Алим ўзини “ёр қабри устида ёнган шамъда ўзини ҳалок қилғувчи бир парвона” деб атайди.

Романни ўқир эканмиз, ушбу образнинг янгидан–янги қирраларини илғаймиз. Отабек Ҳомид бошчилигидан рақибларини йўқ қилиб, Тошкентга қайтаркан, қайнотасига бу хабарни етказишни уста Алимга топширади. Уста Алим қутидорникига боргани лавҳасида биз яна шам деталига дуч келамиз.

“Шамъ чиқишини кутгандек уста Алим бошини қуйи солиб ўлтурар эди. Қутидор “нима юмишинг бор эди менда” дегандек қилиб унга савол назари билан кўз ташлар ва қуръон тингловчи кишидек бўлиб ўлтурғувчи мажҳул кишидан таажжубланар эди. Ниҳоят шамъ келиб токчага қўйилғач. Уста Алим муруқабадан бошини кўтариб, қутидорга қаради...”⁶⁵ Бу ўринда шам эзгулик, ёруғлик хабарчиси вазифасини бажармоқда. Дарҳақиқат, шам келганидан кейин уста Алим томонидан айтилган хушхабар бу оила бошидаги зулматларни ёритади.

⁶² Шу асар. Б –150.

⁶³ Шу асар. Б –152.

⁶⁴ Шу асар. Б –190.

⁶⁵ Шу асар. Б –258.

Кейинги ўринларда шамни Кумуш билан бирга, унинг ҳолатини очиб бериш воситачиси вазифасида кўрамиз. “Кумушбиби уялиб–нетиб турмади ва кимдан, деб ҳам сўраб ўлтурмади, дарров тоқчада ёниб турган шамъ ёнига бориб хатни оча бошлади”.⁶⁶ Бу ўринда эса шам висол хабарчиси ва соғинч рамзи вазифасида қўлланилмоқда. Ушбу вазифани янада кучайтириш учун Қодирий ундан яна бир ўринда фойдаланади. Отабекдан келган мактубни ўқиб чиққан Кумуш у билан талоқ хатининг ёзувини солиштиради. “Кумушбиби Отабекнинг хатини буклаб чўнтагига солди–да, сохита талоқ хатини шамъга тутиб ёндирди”.⁶⁷ Бў ўринда образнинг вазифаси янада мураккаблашдаги аён бўлмоқда. У ёмонликларни йўқ қилишга, айрилиқ ва хижронни даф этадиган бир восита ўлароқ қўлланилмоқда.

Эътибор берадиган бўлсак, Қодирий энг зарур пайтларда бу аҳамиятли образга мурожаат этади. Ва у, дарҳақиқат, воқеликка аниқлик киритиб, қаҳрамон характерини ва ҳодиса ҳолатни китобхон кўз олдида яққолроқ ва таъсирчанроқ ифода ва тасвир этилиша хизмат қилмоқда. Шу ўринда биз мумтоз адабиётимиздага анъанавий бу образни Қодирийнинг сирли қаламида ўзгача маъно товланишларига эга эканлигини ҳам кўрамиз.

SHE'RIYATDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Xoldorova Sh., JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.f. (PhF) D.Abduvaliyeva

Ma'lumki, XX asrning 60-70-yillarida o'zbek tilshunosligining yangi ilmiy yo'nalishlari qatorida o'zbek onomastikasi (nomshunosligi) ham vujudga kelgan va tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylangan. Shuningdek, o'zbek nomshunosligi bo'yicha olib borilgan keng ko'lamlı tadqiqotlar o'zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lug'atlar, ko'p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi⁶⁸.

Xo'sh, shu o'rinda onomastika tushunchasiga oydinlik kiritsak. Onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko'ra quyidagi guruh (bo'lim)larga ajratadi: *antroponimiya* – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponimiya* – geografik obyektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonimiya* – hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonimiya* – fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, *astronimiya* – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o'zida ifodalaydi. Bundan tashqari

⁶⁶ Шу асар. Б –264.

⁶⁷ Шу асар. Б –266.

⁶⁸ Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008, 168 -бет.

onomastikaning yana bir qancha bo‘lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo‘limi *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo‘lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo‘lgan *mifonimlar* xayoliy – to‘qima obyektlarning nomlarini bildiradi.

Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo‘lib, bu badiiy onomastika yoki onomapoetikaning asosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo‘llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o‘rganadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Sirojiddin Sayyid lirikasida onomastik birliklarning ifodalanishi va ularning matn ichida bajargan leksik-stilistik va uslubiy tomonlarini ko‘rsatishga harakat qildik.

Antroponim (yunoncha: *antropos* - *antropos* + *onoma-atoqli ot*) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biri⁶⁹. Ma‘lum bir tilda mavjud bo‘lgan barcha kishi atoqli otlari majmui, fondi *antroponimiya* deb yuritiladi. Antroponimika yoki ismshunoslik esa onomastika (nomshunoslik)ning kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo‘lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limidir.

O‘zbek antroponimikasining yana bir muammosi poetik yoki badiiy antroponimika masalalari bilan bog‘liq. Ya‘ni badiiy asarlarda qo‘llangan kishi ismlari, umuman, atoqli otlar faqat nominativ funksiyani emas, balki bir qancha funksional-uslubiy xususiyatlarni ifodalashga xizmat qilgan ekan, buni Sirojiddin Sayyidning “So‘roq” she‘rida ko‘rib chiqamiz.

She‘r ritorik so‘roqning go‘zal namunasi bo‘lish bilan birga, mazmun mohiyatni teran ifodalashda, shoirni onomaslik birliklardan unumli mohirona foydalanishi bilan ham ahamiyatlidir. She‘rni o‘qir ekanmiz, unda nomlanuvchi obe‘karning bir necha guruhlarni, xususan antroponim va toponimiyalar uchratishimiz mumkin:

Hurriyat ta‘mini hech totganmiding?
Shuncha yillar qand so‘rib yotganmiding?
Qodiriy, Cho‘lponu Fitrat ko‘zlarin
Dil aro bir bora uyg‘otganmiding?
Lolazor o‘ldi alarning qonlari
Sen bu yanglig‘ lolazor o‘tganmiding?
Yuzlaringda na alam bordir, na yosh,
Yoki sen ham qo‘shilib sotganmiding?
Shunchalar achchiq bu shirin hurriyat,
Sen aning ta‘mini hech totganmiding?

Mazkur she‘rning “*Qodiriy, Cho‘lponu Fitrat ko‘zlarin Dil aro bir bora uyg‘otganmiding?*”, “*Shunchalar achchiq bu hurriyat, Sen aning ta‘mini hech totganmiding?*” misralaridagi gaplarning mazmuniy tuzilishidan “Qodiriy,

⁶⁹ Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006, 13-бет

Cho'lponu Fitrat ko'zlarin dil aro bir bora uyg'otmagansan", "Shunchalar achchiq bu hurriyatning ta'mini hech totmagansan" axboroti anglashiladi.

Bu ob'ektiv mazmun presuppozitsiya orqali oldindan ma'lum bo'lgan haqiqatdir. Shuning uchun so'zlovchi o'zi va tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan haqiqatni qat'iy, kuchli tarzda bayon etish maqsadida so'roq darak gap shaklidan foydalangan. Demak, so'zlovchining maqsadi so'roqqa javob talab qilish emas, balki umumga voqelikni qat'iy, kuchli ifodalashdan iborat.

Ufqlar, qirlaru osmongacha qor,
Toshkentdan Termizu Surxongacha qor.
Ona, bul sog'inchni qandoq yozayin?
O'rtamizda cheksiz oppoq varaq bor.

Yoki:

Usmon Nosir qismatin o'qib ,
Armonlarin chorlashlarin bor.
Cholpon bilantonglar ko'ksida,
Cho'lpon bo'lib porlashlari bor (Mutola).

Yuqoridagi misralarda *Usmon Nosir*, *Cho'lpon* singari antroponimlar qo'llanilgan bo'lib, muallif *Cho'lpon* onomaslik birliging o'z apilaktiv asosini (*Cho'lpon*) birga qo'llash usulida foydalangan bunda bir xil shakldagi ikki so'z ikki xil tushunchani ifodalab kelgan: Uchinchi misradagi *Cho'lpon* so'zi adabiyotimizning zabardast vakillaridan biri bo'lgan shoir va yozuvchi Abdulhamid Sulaymon o'g'lining taxallusi bo'lsa to'rtinchi misradagi "*Cho'lpon*" so'zi yorug' tong yulduzi manosini ifodalagan. Muallifning bunday usuldan foydalanishi she'ning musiqiyiligini ta'minlash bilan bir qatorda uning ohangdorligiga ham xizmat qilgan. Fikrimizning davomini birinchi she'ning quyidagi baytlari orqali ifodalaymiz:

"*Boburnoma* " uzra kechalar ,
Yuraklaring sherday to'lg'onar.
Bobur bo'lib shoh shoir bo'lib,
O'smir qalbing qayta uyg'onar.
Morning o'tgan kunlarim o'tgan,
Jumlalardan kimdir xotiram.
Yosh idrokning darsxonasidan,
Quyosh bo'lib kirar *Qodiriy*
Avval o'qi bu *Gafur G'ulom*
Bilim bilkiy boqishlaridan
She'rlar kirar qalbingga endi
To'polon daryo toshqinlaridan.

Yuqorida bandlarda shoir *Bobur*, *Qodiriy* va *G'afur G'ulom* kabi atoqli otlarni keltirib, ularning ijod mahsuli bo'lgan badiiy asar nomlarini: "*Boburnoma*", "*O'tkan kunlar*", "*Gafur G'ulom*" kabilarni keltirib o'tadi.

Demak, tahlillardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, badiiy asar g'oyasini ochib berishda, uning nozik qirralarini namoyish etishda onomastik birliklarning ahamiyati katta.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA TAKRORLAR

Dilshodaxon Shukurova, JDPI magistri
Ilmiy rahbar f.f.f.d. F.Jumayeva

Adabiy tilning badiiy imkoniyatlari cheksiz. Til birliklari orqali ifodalanayotgan ma'no poetik vositalar asosida inson qalbiga, ruhiyatiga ta'sir etadi. Adabiyotshunos I.G'afurov: "Shunday donishmandona aytilgan so'zlar ham bo'ladiki, ular shaklan maqol va matalga o'xshamasligi mumkin. Lekin ular hayot va zamonaning teran va juda harakatchan, harakatga undovchi g'oyalari ifodalanganligi uchun ham xuddi aforizm kabi anglanadi va kishilarning faoliyat, tafakkur maydoniga kiradi" – deydi⁷⁰. Ayni fikrni asoslovchi misralarga Erkin Vohidov she'riyatidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Shoir she'rlarida poetik imkoniyatlardan keng foydalangan. Jumladan, takrorlarning qo'llanilishi shoirning o'ziga xos inividual uslubini yaratgan deyish mumkin. She'riy matnda qo'llaniladigan takroriy birliklarning uslubiy vazifasi, xususiyatlari va bo'yoqdorlikni ifodalashdagi rolini Erkin Vohidov she'riyati misolida tahlil etamiz. Shoir takrorlarning quyidagi turlaridan mahorat bilan foydalangan:

Anafora. She'riy misralarning boshida kelgan takroriy so'z yoki birikmalar **anafora** deb ataladi:

So'radim, daf'atan jim qoldi bog'lar,
So'radim, cho'kkanday tuyuldi tog'lar.
So'radim, chor atrof ma'yus, bemajol–
Ko'rindi behol...

Ushbu misralarda takrorning vazifasi harakatning izchilligini ta'minlagan bo'lib, anaforalar gapda bog'lovchi vazifasini ham bajargan. Ish harakatning takroriylik va davomiyligini ifodalash uchun anaforalardan foydalanilgan.

Epifora. Gap oxirida kelgan takrorlar **epifora** deb yuritiladi.

Visoldagi damlarim shirin,
Hijrondagi g'amlarim shirin,
Kulib boqar menga koinot...
O'n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog'ingdan gul termagan kim bor...

O'rni bilan takrorlangan so'zlar ko'pincha badiiy ta'sirchanlikning, g'oyaviy baquvvatlikning ham muhim sharti bo'la oladi. Epifora she'rdagi asosiy fikrni, emotsional tuyg'uni ifodalashga xizmat qilgan.

Alliteratsiya. Bonda bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi orqali takrorning **alliteratsiya** turi hosil qilinadi.

Qaro qoshing, qalam qoshing,
Qayiq qayrilma qoshing qiz,
Qilur qatlimga qasd, qayrab
Qilich qotil qaroshing, qiz.

Bu satrlarda alliteratsiya tovushlar uyg'unligini hosil qilgan bo'lib, o'quvchini aslo zeriktirmaydi. Musiqiylik, ritm va ohangdorlikka ega bo'lishi bilan birga mazmunni oson tushunishga va yodda tez saqlanishiga ko'mak beradi.

Tardi aks ham so'z takroriga bag'ishlangan lafziy san'atlardan hisoblanadi.

⁷⁰ Э.Вохидов. "Бахрдан бахралар" Тошкент. 2018.

Bu hayot ummon ekan,
Ummon abad gardon ekan,
Qatradek sarson ekan,
Sarson o'zing, gardon o'zing.

Bu xil qaytarish natijasida so'z yoki so'z birikmalari yana bir bora ta'kidlanibgina qolmay, ularning ma'nosi ham yangilanadi, misra mazmuni ham takomillashadi. Masalan, birinchi satrdagi *ummon* so'zi o'xshatish ma'nosini anglatish uchun xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi misrada esa *ummonning* o'ziga alohida ta'rif berilmoqda. Bundan tashqari uchinchi va to'rtinchi misralardagi takror so'z sarson baytlarni bir–biriga jips ulab, chiroyli zanjir hosil qilgan. Turkiy she'riyatda tardi aks 16–asrdan boshlab keng qo'llanilgan. Hozir ham she'riyatni mukammal bo'lishida buning o'rni katta.

“**Mukarrar**” baytning har ikki misrasida takror so'zlarni qo'llash nazarda tutiladi.

Hali seni yo'nib, tarashlab
Yuz martalab o'chirmog'im bor.
Qayta–qayta g'ijimlab tashlab,
Takror–takror ko'chirmog'im bor.

Takrorning bu turi baytda musiqiylikni kuchaytirish barobarida satrlar jozibadorligini oshirgan. Ijodkor yozgan ijod na'munalarini qayta–qayta tahrirdan o'tkazishini aytib, so'nggi misrada mukarrar lafz muqobalasida takror–takror so'zini qo'llagan. She'riy parchalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, shoir obrazli bayon etish, she'rxonga zavq bag'ishlash, mazmunning teranligi va shaklni jozibali bo'lishida takrorlardan mahorat bilan foydalangan. **Masalan,**

Mo'jaz hovli,
Pastgina devor
Pastakkina tandiri bilan:
Yashar edi kichkina bir chol
Kichkina bir kampiri bilan.

Demak, ushbu she'riy parcha foydalanilgan takrorlar ma'noni alohida ta'kidlash, ajratib va bo'rttirib ko'rsatish bilan birgalikda til birliklariga emotsional bo'yoq, alohida ohang joziba berish vazifasini ham bajargan.

ADABIY ERTAKLARNING JANR XUSUSIYATLARI

Ризвонгул Саидова, ЖДПИ магистранти

Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janrlaridan biri ertaklardir. Ertaklar xalqlarning tarixi, orzu–armoni, o'ziga xos turmush voqeligini ajoyib va g'aroyib tarzda kishilarda badiiy zavq uyg'otadigan holda aks ettiradi. Bolalar ertaklarni tez va oson o'zlashtiradilar, shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ertaklardan keng foydalaniladi.

“Hamimizga ma'lumki, bolada ertak tinglash istagi juda erta 2–3 yoshdan boshlanadi. Bola katta bo'lgan sari uning ertakka qiziqishi ortib boradi”.⁷¹

⁷¹ Kichkintoylar uchun xrestomatiya. Tuzuvchilar: G'oziyeva, L. Dolimova Toshkent “O'qituvchi” 1988-yil 5-bet

Ertaklar tilining boyligi, g'oyaviy badiiy xususiyatlari bilan yozma adabiyotning rivojlanishiga, xususan, adabiy ertaklarning yaratilishiga, bolalar adabiyotining yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu maqolada biz, adabiy ertaklarning janr xususiyatlar haqida bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev adabiy ertaklari misolida fikr yuritamiz.

“O'zbek xalq ertaklarining har biri real voqelikka nisbatan o'ziga xos munosabatda bo'lishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham fantastik uydurmalar, bo'lishi mumkin bo'lmagan voqea hodisalar tasviri hayotni aks ettirishning ertakka xos poetik yo'li sifatida namoyon bo'lgan”.⁷²

O'zbek adabiy ertaklarining yuzaga kelishida ikki parter omil mavjud. 1. An'anaviy xalq ertaklarining syujeti va motivlari asosida qayta ishlangan adabiy ertaklar; 2) ijodkorning o'zi va fantaziyasiga asoslangan holda yaratilgan adabiy ertaklar.

Rus yozuvchisi A. M. Gorkiy nazariy qarashlaridan ma'lumki, ertaklarning janr xususiyatlarini belgilashda ertak asosini tashkil etgan fantastika asosiy o'rinni egallaydi.

“Fantastika ertak mezoni, uning joni va qonidir. Ertaklar fantastikaning o'rni, me'yori va funksiyasiga qarab ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga fantastika elementlari ustun bo'lgan ertaklar, ikkinchisiga esa fantastika elementlari kuchsiz element shaklida keladigan yoki umuman bo'lmaydigan hayotiy uydurmalar asosida yaratilgan ertaklar kiradi. Hayvonlar haqidagi ertaklar bilan sehrli ertaklar syujeti ko'proq fantastik voqealar asosiga qurilgan. Maishiy va hajviy ertaklar syujeti asosida esa, hayotiy voqealar yotadi.”⁷³

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, X. To'xtaboyevning “Quvg'indagi hayvonlar”, “Tulki, sher, fil haqida ertak”, “Osmondan muzqaymoq yoqqan kun”, “Uch sayyohning safari” kabi adabiy ertaklarida fantastika elementlari kuchli bo'lib, “Quvg'indagi hayvonlar”, “Tulki, sher, fil haqida ertak” –hayvonlar haqidagi ertaklarga; “Osmondan muzqaymoq yoqqan kun”, “Uch sayyohning safari” kabi ertaklari –sehrli ertaklar janriga mansub.

Adibning “Rostgo'y bolalar bahsi”, “Sigir so'ygan qassobning qo'rqinchli tushi”, “Tuyakashning da'vosi” kabi ertaklarida fantastika elementlari kuchsiz bo'lib ijtimoiy mavzuni ifoda etadi. Shu sababli ham bu ertaklar hayotiy–maishiy ertaklar janriga oid.

Adabiy ertaklar yaratilishida ijodkorning badiiy tafakkuri va o'tmishdan sayqallanib kelgan an'anaviy ertaklarning juda ko'p xususiyatlari birlashib ketadi.

“...Ertak o'zining taraqqiyoti davomida ba'zi bir motiv, obrazlarni yo'qotishi, yangi–yangi belgilarni qabul qilishi mumkin, ba'zan esa an'anaviy elementlar yangicha talqin etilgan bo'ladi. Xullas, har bir ertakning syujeti, uning g'oyaviy mazmuni badiiy vositalarining o'ziga xos tomonlari u yoki bu davrni hamda u yoki bu turga xos xususiyatlarni ko'rsatib turadi”⁷⁴

An'anaviy ertaklarda makon va zamon xususiyatlariga ko'ra noma'lumlik chegarasi bo'lsa, adabiy ertaklar ko'proq real voqelikka yaqinlashadi. Bu holni adib X. To'xtaboyevning “Yovvoyi echkilar”, “Sigir so'ygan qassobning qo'rqinchli

⁷² O'zbek xalq og'zaki

⁷³ O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi X. Razzoqov, T. Mirzayev. O. Sobirov, K. Imomov Toshkent “O'qituvchi” 1980-yil 126-bet

⁷⁴ Yuqoridagi manba: 127-bet

tushi”, “Rostgo‘y bolalar bahsi ” kabi ertaklarida kuzatishimiz mumkin. Ushbu adabiy ertaklarda voqealar yuz bergan joy nomlari keltiriladi. Ayni paytda bu hol bolalarning ertakka bo‘lgan qiziqishini kuchaytirib tarbiyaviy ahamiyatini ham oshiradi. O‘zlari bilgan hududda shunday qiziqarli voqealarning yuz bergani bolalarni befarq qoldirmaydi, albatta.

“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda emas, shu o‘zimizning kunlarda Toshkent shahrida eng aqlli odamlarni shoshirib o‘ylantirib qo‘yadigan sirli bir voqea yuz beribdiki, butun shahar ahli hayratdan yoqasini ushlab qolibdi.”⁷⁵ (Yovvoyi echkilar)

“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, yaqin o‘tgan zamonda Eski shaharning Chorsu dahasida, dorixonaning naryog‘ida Tolibjon degan bir odam yashar ekan–u, hamma uni Tolib qassob deb atar ekan ”⁷⁶ (Sigir so‘ygan qassobning qo‘rqinchli tushi)

Xullas, adabiy ertaklar an‘anaviy ertaklarning janr xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ijodkorning badiiy tafakkuri bu ertaklarda asosiy va yetakchi mavqega ega bo‘ladi. Adabiy ertaklarning janr xususiyatlarida fantastika asosiy o‘ringa ega. An‘anaviy ertaklar singari adabiy eraklar ham syujeti, mazmuni, yaratilgan davri, badiiy vositalari hamda tili bilan ertakning ma‘lum janrini ko‘rsatib turadi.

O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISH (ERTAKLAR MISOLIDA)

Saburov E.G., UrDU magistri

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, xususan, innovatsion g‘oyalarning hayotimizga tobora chuqur ildiz otib borishi ta‘lim tizimidagi islohotlarning ham mazmunini boyitmoqda. Ta‘lim jarayonida o‘qitishning tajribada sinovlardan o‘tgan shakl va usullari boyitilib, zarurat bo‘lganda, yangilanib amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu boradagi davlat siyosati ham uzluksiz ta‘lim vositasida ma‘naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalangan har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Uning nechog‘li to‘g‘ri amalga oshirilishi ko‘p jihatdan boshlang‘ich ta‘lim tizimining samaradorligiga bog‘liq.

Boshlang‘ich ta‘lim uzluksiz ta‘limning eng muhim bo‘g‘inidir. Binobarin, “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risida“ gi Nizomda ta‘kidlanganidek: “Boshlang‘ich ta‘lim o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash, o‘zini–o‘zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq–atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishi ta‘minlashga da‘vat etilgan”. Shu asosga ko‘ra, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko‘nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim.

Boshlang‘ich sinflardagi ona tili ta‘limi sohasining asosiy maqsadi bolalarning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda og‘zaki va yozma nutqini hamda tafakkurini o‘stirish, ularni shaxs sifatida shakllantira borishni amalga

⁷⁵ Peshonasiga televizor yopishgan bolaning sarguzashtlari X. To‘xtaboyev Toshkent “Yangi asr avlodi”2019-yil 42-bet

⁷⁶ Yuqoridagi manba: 82-bet

oshirish, ularda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni o‘stirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatlarini o‘stirish hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsligida berilgan xalq og‘zaki ijodiga mansub materiallarni o‘qish jarayonida o‘quvchilar nafaqat o‘zbek xalqining o‘lmas ma’naviyat buloqlaridan bahramand bo‘ladilar, balki o‘zlari ham sevib o‘qigan ertak– dostonlardagi qahramonlar kabi vatanparvar, mard, jasur, to‘g‘riso‘z, mehnatsevar, kamtar va mehribon insonlar bo‘lib yetishishni orzu qiladilar.

Xalq og‘zaki ijodida ertak janri eng ommabopdir. Uning bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkirliigi, ma’nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir.

Ertakning o‘tkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so‘z va iboralarning qayta–qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta’sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir. Shu bois ertak o‘qish darslarida o‘quvchilarning nutqini o‘stirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar “She’r va sichqon”, “Maymun va duradgor”, “Rostgo‘y bola”, “Ochko‘z sichqon”, “Aqlli bog‘bon”, ”Kenja o‘g‘il”, ”Eng yaxshi sovg‘a”, ”Minora va laylak”, ”Ikki o‘rtoq”, “Botir mergan va chaqimchi”, “Halollik”, “Donishmand yigit”, “Davlat”, “Ilm afzal”, “Ko‘zacha bilan tulki”, “Ochko‘zboy”, “Hiylagarning jazosi”, “Hunarsiz kishi o‘linga yaqin”, “Ziyrak uch yigit” kabi juda ko‘plab ertaklar bilan tanishadilar.

Ertak o‘qish darslarida qo‘llaniladigan turli usullar: matnni ifodali o‘qish, rollarga bo‘lib o‘qish, tanlab o‘qish, yod olish, asar mazmuni yuzasidan reja tuzish va shu asosda qayta hikoyalash, qisqartirib hikoyalash, shaxsini o‘zgartirib hikoyalash, asar mavzusini aniqlash, qahramonlarning fe’l–avorini tavsiflash va hokazolar o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ertak o‘qish darslarida nafaqat o‘quvchilarning o‘qish malakalari shakllantiriladi, balki o‘qilgan asarni tushunishga o‘rgatiladi, ularning so‘z boyligini oshirilib, lug‘ati boyitiladi. Ertak o‘qish darslarida ertak matnidagi ayrim qiyin so‘zlar ma’nosi tushuntiriladi, o‘quvchilar diqqati esda saqlab qolish lozim bo‘lgan aniq, qulay nutq oborotlariga qaratiladi.

Ertaklarni o‘qishda bolalarda qahramonlarning xatti–harakatini muhokama qilib, baholash ko‘nikmasini shakllantirish nutq o‘stirishga yordam beradi. Xususan, 4–sinfda “Ilm afzal” ertagini o‘qish darsida o‘qituvchi ertak qahramonlarning “Ilm afzalmi?” degan savolga javoblarini tahlil qilish bilan ilmning nima uchun afzalligini biladilar, tushunadilar. Ertak mazmuniga mos keladigan xalq maqollarini keltiradilar. Shu o‘rinda “Kuchli birni yengar, bilimli mingni yengar” maqolini izohlab beradilar. Ilm egallashga yoshlikdan qunt qilish kerakligini, “Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshday” ekanligini, agar vaqt behuda o‘tkazilsa, “So‘nggi pushaymon, o‘zingga dushman” ekanligini tushunib oladilar. O‘qituvchi tomonidan hadislarida ham “Beshikdan qabrgacha ilm izla” deyilgani bejiz emasligini tushuntiriladi. Ertak mazmuni asosida o‘quvchilarning o‘zidan hayotlarida o‘zlari tanigan va bilgan ilmi odamlar haqida gapirib berishni so‘rash ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu kabi usullarning

qo‘llanishi o‘quvchilar qalbida bilimli bo‘lishga ishtiyoq uyg‘otadi hamda ularda o‘z fikrlarini maqollar asosida bayon etish ko‘nikmasini hosil qiladi. Chunki maqollar inson nutqining ko‘rki hisoblanadi.

“Rostgo‘y bola” ertagi (1–sinf) ni o‘qish orqali esa o‘quvchilar rostgo‘ylik, uning eng muhim insoniy fazilatlaridan biri ekanligini bilib oladilar. Ertak qahramoni kabi rostgo‘y bo‘lishga intiladilar. Yolg‘onchilik kishini xijolatga solib qo‘yishini hamda uning oqibatlari qanday bo‘lishini anglashga harakat qiladilar. Bu ertak matni ustida ishlashda tanlab o‘qish, savollarga javob berish, o‘quvchilarning o‘zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalanish ham o‘quvchilar nutqini o‘stirishga xizmat qiladi.

“Davlat”, “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” (4–sinf) kabi maishiy ertaklarda xalq o‘z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o‘quvchilar ertakni o‘qigach, o‘tmishdagi xalq hayotini, o‘y–fikrlari va orzu–istaklarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o‘qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq – atvori, ayrim xatti–harakatlarini baholaydilar, ularning bir–birlariga bo‘lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo‘lib o‘qiydilar.

Ertakni o‘qishga tayyorlash uchun ota–bobolarimiz atrofni, tabiatni, borliqni qanday tasavvur etishlari haqida suhbat o‘tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni, ularning o‘zaro munosabatlarini, xulq–atvorlari, xarakterlarini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Hamda o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda katta o‘rin tutadi.

Ertak o‘qish darslari uchun “Lug‘at daftari” tutish ham yaxshi samara beradi. Bu daftarga o‘quvchilar barcha qiyin so‘zlarning ma‘nosini izohlab yozib boradilar. Ertak matnini qayta hikoyalash esa o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘qish darslarida bolalarni ertaklar vositasida nutqini o‘stirib borish keng imkoniyatlar ega. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi metodik mahoratga ega bo‘lishi, nutq o‘stirishga doir ish usullaridan o‘z o‘rnida samarali foydalanishi taqozo etiladi. Chunki ertaklar o‘quvchilar ijodiy qobiliyatlarini charxlashda, so‘z zaxirasini boyitishda, nutqini o‘stirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

АЛИШЕР НАВОЙНИНГ ҒАЗАЛЛАРИДА ИСО МАСИХ ТИМСОЛИ

**Исомиддинов Суръат, ЖДПИ магистранти
Севинч Эшонқулова, ЖДПИ талабаси**

Ўзининг бебаҳо бадиият дурдоналари билан Шарқ халқлари тараққиётига кучли таъсир кўрсатган улуғ мутаффаккир, Алишер Навоий ижоди биз учун бетимсол мактаб. Ғазал мулкининг султони, шоир ўз асарлари билан мангу барҳаёт экан, биз уни ўрганишда ва янги – янги қирраларини кашф этишда давом этмоғимиз лозим.

Маълумки, ўзбек адабиётшунослигида Навоий ижоди бўйича қатор тадқиқотлар қилинган ва яна бу анъана давом этмоқда. Жумладан, унинг лирик мероси, ғазалиётининг образлар олами хусусида ҳам олимларимизнинг

илмий изланишларида бу образларнинг рамзий–мажозий хусусиятлари, уларни қўллашдаги улуғ шоирнинг адабий маҳорати каби масалалар ўрни билан ёритиб борилган. Хусусан, йирик навоийшунос олимларимиздан А.Ҳайитметов, А.Рустамов, Й.Исҳоқов, С.Ғаниева, Э.Воҳидов, Н.Комилов, А.Абдуғафуров, И.Ҳаққулов, Н.Жумаҳўжа, М.Абдулҳаким, Д.Салоҳий, Р.Воҳидов, Ҳ.Эшонқуловларни монография, рисола ва қўлланмалари бунга яққол мисол бўла олади.

Биз куйида, улуғ шоир ғазалиётида бадииятнинг юксак намуналари даражасида тасвирланган Исо Масих тимсолларининг поэтик хусусиятларига эътибор қаратамизки, чунки бу билан шоирнинг, бу образни қўллашдан кўзлаган адабий ниятини ўрганиш мумкин. Шунингдек, бу образ тасвири асосида, улуғ шоирнинг муҳим ижтимоий–сиёсий, илоҳий–ирфоний, ахлоқий–таълимий қарашларини билиш мумкин.

Шу ўринда айтиш мумкинки, Алишер Навоийнинг девонларидаги ҳамд ғазалларида ҳам Исо Масих тимсолларига мурожаат қилинган. Биз эса ошиқона ғазалларида, ошиқнинг руҳий ҳолати тасвирида бу тимсолни қўллаш тасвирига тўхталишга ҳаракат қиламиз.

Адабиётшунос Иброҳим Ҳаққуловнинг “Тасаввуф сабоқлари” китобларида ишқ калимаси ҳақида куйидаги фикрлар келтирилиб ўтилади: “Ишқ сўзини тасаввуфий истилоҳ ўлароқ биринчи бора Абу Ҳусайн Нурий қўллаган экан. Оллоҳ ишқи ва хусусида кенг тўхталган илк сўфий эса Робия Адавиядир. Тасаввуфий маслақда ишқ – севгининг энг охириги даражаси ва мукамал кўриниши. Ишқ мақомига кўтарилгунга қадар ошиқ яна етти даражада қалби ва руҳини камолга эриштириш керак”⁷⁷. Алишер Навоийнинг ошиқона ғазалларида, ишқ билан боғлиқ тасвирлари ранг – баранг ва бой бўлиб, биз унда инсон ҳаёти ва ҳолатининг чексиз кўп қирраларини – шодликни ҳам, хафачиликни ҳам, такрорланмайдиган лаҳзаларни ҳам, ҳар кун, ҳар соатда юз берувчи кўнгилсизликларни ҳам кўрамиз. Зотан, ўзбек шеърлятида инсон дарди ва ҳасратларини, ўз севгилисига талпинишларини Навойдан ўтказиб ифодалаган шоирни топиш қийин.

Алишер Навоий ғазалларида, ошиқнинг руҳий ҳолати акс эттиришда икки хил тасвир: хурсандчилик ва тушкун бир ҳолат кўзга ташланади. Дарҳақиқат, шоирнинг ошиқона ғазалларида, ишқ билан боғлиқ тасвирлари ранг–баранг ва бой бўлиб, биз унда инсон ҳаёти ва ҳолатининг чексиз кўп қирраларини–шодликни ҳам, хафачиликни ҳам, такрорланмайдиган лаҳзаларни ҳам, ҳар кун, ҳар соатда юз берувчи кўнгилсизликларни ҳам кўрамиз. Шунингдек, шоир шеърляти қахрамонлари ишқдан етган барча озор–у машаққатларга сабот ва матонат билан бардош беришга тайёрдирлар.

“Боғ аро не сарв этармен орзу, не гул ҳавас, ...” деб бошланувчи ғазалдан олинган мазкур байтда:

Ул кечаким ёр ила ёрутғамен шами висол,
Зинҳор, эй субҳ, агар бўлсанг **Масих**, урма нафас⁷⁸, –

⁷⁷ Ҳаққул И. Тасаввуф сабоқлари. – Бухоро, 2002. –Б.41

⁷⁸ Алишер Навоий. Наводир уш–шабоб. Мукамал асарлар тўплами. XX томлик, 4–том. Т.: Фан, 1989.–Б. 163

ошиқнинг ёрнинг висоли насиб қилгувчи кечани кутиши, руҳиятидаги кўтаринкилик билан ифодаланади. Ишончи мустаҳкам ошиқ субҳга, яъни ёруғ тонгга мурожаат қилиб, ўша кеча ёр билан висол шамини ёритган вақтда агар Масиҳ бўлсада, нафас ҳам олмаслигини айтади. Бу висолбахш туннинг тугамаслигини истаётган чин эътиқодли ошиқнинг кўнгил истаги. Байтда Масиҳ нафасининг тилга олиниши, ёруғ тонг отиши билан табиат, бутун жонзот ,умуман, жамики борлиқ уйғонишини образли ифодалашни таъминлаган.

“Буким, кўнгулнинг ул ойсиз не саъб ҳолати бор,...” деб бошланувчи ғазалда эса:

Сабо дебон хабар ул гулдин, элни тиргузди,
Масиҳча деса бўлғай анинг рисолати бор⁷⁹.

биринчи мисрада сабо , тонгги ёқимли, майин шамол, ул гулдан ,яъни ёрдан хабар бериб элни тирилтирди дейилса, иккинчи мисрада айнан мана шу сабо Масиҳдек пайғамбар даражасига кўтарилиб ошиқ томонидан мақталади. Имом Исмоил ал Бухорий ҳадисларида қайд этилишича, Исо алайҳиссалом яқин келажакда икки фариштанинг икки қанотига кафтини тутган ҳолда ерга тушиб, хочни ва тўнғизларни йўқ қилишни буюради жон солиғи, жияни бекор қилади. Ислом дини ақидаларига мувофиқ иш кўришни тарғиб қилади. Мана шу маълумотларга асосан байт мазмунини умумий хулосалаганда, Исо Масиҳнинг Аллоҳнинг элчиси сифатидаги ишлари билан тонгги шамолнинг ёрдан дарак беришини ошиқ мувофиқ кўрмоқда ва бундан кувончда экани яққол сезилиб турибди.

Ҳажр катлидин мени тиргузди лаъли , эй Масиҳ,

Ожиз эрдинг, сен нафас асра, гар ўргандинг илож (72–бет).

Ёр ҳажридан ўлар ҳолатга келган ошиқни ёрнинг қип–қизил лаби тирилтирди. Шундан руҳланган ошиқ Масиҳга сенинг нафасинг ожизлик қилганда иложини ўргандинг дея мурожаат қиляпти. Ёрнинг қип–қизил лаби ва Масиҳ нафаси биргаликда ўлганларни тирилтирувчи сифатида талқин қилинади ва бу ҳолатда ошиқнинг ишқдан муддаоси ушалганини ҳам билдиради.

Исо Масиҳ тирилтирувчи нафаси билан ўлганларни тирилтириши, шунингдек, ўлган қалбларга Аллоҳдан дарак бериб , уларни уйғотувчи пайғамбар эканлиги диний манбалардан маълум бўлгани ҳолда, ошиқ учун ёр унданда устун эканлиги мисраларда бадийий ифода этилган.

Ўйла руҳафзо лабинг анфосидин топтим ҳаёт

Ким, гар ўлсам, кўрмагаймен Исою Марям юзин (334–бет).

Бу байтда ёрнинг нафасидан руҳланган, ҳаёт топган беармон ошиқ агар ўлса Исо–ю Марямнинг юзини ҳам кўришни истамайди. Бу ўринда Исо билан бирга унинг онаси Марямнинг тилга олиниши Аллоҳнинг улар билан боғлиқ мўъжизаларига ишора қилади ва ошиқ учун ёрнинг нафасидан ўзга мўъжизанинг кераги йўқлигини эътироф этиб, қазоси етганда унга учраган Исо–ю Марямнинг юзига қарашни–да истамайди. Шу даражада ошиқ

⁷⁹ Алишер Навоий. Бадое ул–васат. Мукаммал асарлар тўплами. XX томлик, 5–том. Т.: Фан, 1990.–Б.103 (Бундан куйинги иқтибослар шу нашрдан олинади ва бети қавс ичида кўрсатилади)

хурсандки, унинг кўзига Аллоҳнинг ўзга илоҳий неъматлари кўринмайди. Мазмун Исо ва Марямни куйи ўринга туширишни эмас, улардек Аллоҳнинг назари тушган бандалардан—да маъшуқанинг устун қўйилиши ошиқнинг ишки кўламини, ботиний хурсандчилигини кўрсатиб турибди.

Келди тиргузгали заъфим кўруб ул Исо дам,

Келгани ҳам ўз ишин қилди, вале кетгани ҳам (294—бет).

Келтирилган ушбу байт ошиқ руҳий ҳолатидаги икки хил ҳолатни ҳам хурсандчиликни, ҳам тушкунликни акс эттиради. Ошиқ байтда маъшуқасини Исо нафас деб улуғлайди. Исо нафасли ёр ошиқнинг ҳолсизлигини, хасталигини кўриб уни тузатиш учун келди. Унинг келгани ҳам, кетгани ҳам ўз ишини қилди. Яъни ёрнинг келиши ошиқни қанчалар хурсанд қилган бўлса, кетиши шунчалар қайғуга ботирди. Маъшуқанинг Исо алайҳиссалом тимсолига қиёсланиши эса бу ўринда Аллоҳнинг илоҳий мўъжизаларини далилловчи пайғамбарнинг моховларни, кўрларни даволаганига ишора қилади. Кўриниб турибдики, байтда маъшуқа ва Исо алайҳис—салом тимсоллари мутаносибликда кўлланган.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Алишер Навоий ғазалларида, ошиқ руҳиятидаги хурсандчиликда ҳам, тушкун кайфиятларни ифодалашда ҳам талмеҳ санъатидан моҳирона фойдаланиб, Исо Масиҳ тимсолини кўллаб, ғазал таъсирчанлигини оширган.

ШЕЪРИЯТДА РУҲИЙ КЕЧИНМА ИФОДАСИ

Жуманов Акбар, ЖДПИ магистри

Илмий раҳбар: ф.ф.д.проф.в.б. Ш.Дониярова

Шоир қалби муҳаббат билан жўшса, руҳини инжа туйғулар банд этса гўзал шеър дунёга келади. Бу туйғу албатта Ватан туйғуси, юртга муҳаббат туйғусидир.

Маълумки, шеър туйғулар оламидаги ранг—баранг товланишларни ўзида мужассам этади. Шоир ижод қилар экан руҳияти уйғоқ таъсирга берилувчан бўлади. Унинг руҳий ҳодиса эканлиги ва шеър кўнгил розларининг қоғозга тўкилиши эканлиги муҳим бир ходисадир. Ваҳоланки ҳар қандай бадий ижод маҳсули нафақат ижтимоийлик эҳтиёжлардан туғилади. Зотан, шеър бошқача йўлда изҳор қилиб бўлмайдиган дардчил туйғу. Шу сабаб ижтимоий ҳою—ҳаваслар дахл қилмайдиган заминда шеър пайдо бўлади. Бироқ, адабиётни шеъриятни сиёсат ва ижтимоийётдан бутунлай холи деб бўлмайди. Ҳақиқий адабиёт дарддан яралган гўзалликка айланган оламдир. Дарднинг ижтимоий асоси табиий кечинмалардир. Ижодкорнинг воқеликка муносабати унинг асарида акс этади. Аммо у хал қилувчи мезон касб этади деб айтиб бўлмайди.

Шеъриятидаги ватан мавзусини қайноқ қалб билан дилидагини шоирона тил билан айтиш истаги Шавкат Раҳмон шеъриятида анча мукамал ва образли тасвирланади. Бироқ, Шавкат Раҳмон шеъриятини ўрганишда унга замондош бўлган шоирлар ижоди билан ёнма—ён ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Шавкат Раҳмонни ижодида замондош шоирларни ўйлантирган муаммолар, уларни қийнаган миллий оғриқлар изтиробга солгани шубҳасиз. Бироқ шоирнинг маҳорати ўзига хослиги билан сўз кудратини кашф этди.

Унинг шеърларидаги қалб оғриқлари, дардлари миллатни уйғотдими, у давр дардини ўз дардига айлантира олди деган саволларга берган жавоби – шеърларининг умрбоқийлиги билан ўлчанади. Шоир шеърлятидаги поэтик бетакрорлик, бемисл тафаккур, ҳис–туйғулар бокираллиги ҳам ана шу талабларга жавоб бўлмоғи тайин. Шу боис биз Ш.Раҳмон шеърлятини у билан елкадош ижод қилган шоирлар ижодига ҳам тўхталамиз. Зотан, ўзбек шеърлятида Шавкат Раҳмон чинакам ҳодиса бўлган бўлсада, бу ҳодиса ўз заминига эга. Унинг асослари мавжуд ва албатта бу асослар аввалида муаззам шарқ шеърляти туради. Сўнг уни давр кўзгусида даврдошлар орасида миллий маънавий дунёқараш ҳамда поэтик тафаккурнинг миллат қайғуси билан нафас олишига боғлаб ўрганмоқ лозим эди.

Ҳеч қандай йўсинда изоҳлаб бўлмайдиган истибод ва мутелик фалсафаси билан кишанлаб ташланган миллат шуурини уйғотиш давр шеърлятининг бош мақсадига айланганини Шавкат Раҳмон шеърлятида аниқ кўришимиз мумкин.

Рауф Субхоннинг қуйидаги шеърида 80 йиллар поэтик тафаккури образли тарзда қуйланиб, тошнинг поэтик образи характерли намуна сифатида келтириб ўтилган. Бу шеърда тарих –маънавий эҳтиёж, хотира – Ватан эканлиги тош образи орқали мувоффақиятли очилган:

Дўстлар
Қояларни,
Йиғлаётган беваларни
Қора тутунларни эслатар....
Булутлар марҳумларни эслатмас фақат,
Чунки улар тош бўлиб сочилган Ватанга.
Гулингни тупроққа отма бу нола,
Сен уни бирор бир тош устига қўй,

Мурожаат билан бошланган ушбу шеърда қоялардек бардошли бўлсада, йиғлаётган бевалар қора тутунларни эслатади. Қора ранг аёлнинг қалбидаги оғриқлар, айрилишлар, фиғонларга менгзалаяпти. Инсон руҳи кўкка учсада булутлар марҳумларни эслатмайди. Улар ёмғир шаклида ерга ватанга сочилиб, гулларни тупроққа сочишини эслатади. Рамзий бўёқларда тасвирланган ер табиат ҳодисасини эмас, балки инсон қалби ва тақдирини ифода этади.

Шунга ўхшаш сатрларни Рауф Парфининг “Битик тош” шеърини эсга солади. Илк бор битик тош Р.Парфига ватаннинг мангу тимсоли бўлиб кўринган эди.

Вақт қуюнида не давр–у даврон.
Бу тошга айланган эркдир бардошдир.
Бу ватан аталган муқаддас армон.
Унга қарайману бир ҳис туяман.
Бу юртим тимсоли мангулик тошдир...
Юрагим тошига шеърим ўяман.

Тасодифий эмаски иқтидорли шоир Эшқобил Шукуровнинг “Ўзувлар” туркумига кирган шеърларидаги чўкаётган тошларга муҳаббат замирида ҳам ватандошлик севгиси ётади. 80йиллар поэтик тажрибаси кўҳна ва маълум ҳақиқатни яна бир бор тасдиқлади, ҳар қандай авлоднинг

ватанпарварлик хислатининг моҳиятини улардаги ворислик туйғусининг даражаси белгилайди.

Бу давр шеърлятидаги шаклий ўзига хосликлар шоирларнинг руҳият иқлимларида содир бўлаётган ўзликни англаш уринишлари натижаси бўлиб қолмай шоирларни яна ҳам теранроқ, поэтик образлари тиниқ бир тарзда шерхон ҳукмига ҳавола қилиш истагининг натижаси ҳам эди. Агар бу давр шоирлари ижодига диққат қилинса шеърлардаги бузилган вазнини қофияланмаётган мисраларнинг гувоҳи бўламиз. Бироқ У Азим, Ш.Раҳмон, Х. Даврон каби шоирлар ижодида учрайдиган ва умуман 80–йиллар поэзиясига хос бўлган бу каби шаклий бузилиш ҳолатларидан кутилган мақсад аввало фикр залворига қаратилган ички поэтик оҳангдаги кучли эҳтиросни янада тўлароқ намоён бўлишига имкон беришдир.

Юқорида 80–йиллар шеърляти ҳақида фикр юрита туриб образлар ва ташбеҳлардаги ўзига хосликларни кузатамиз. Руҳий манзарани фавкулудда тасаввурни бузиб юборишга қодир образларда бериш бу давр шеърляти учун хос хусусиятлардан бири.

Ҳаёт ва табиат ҳақидаги кўникилган тасаввурларни оддий ва эски ҳақиқатларни поэтик мантиқнинг кучи билан инкор этиш орқали уларга янгича ғоявий–бадий маъно англаш тажрибаси ўзини оқлайди. Чунки, дунё ҳақидаги таассурот ва тасаввурларига тарихий–ижтимоий муайянлик беради. Унинг моҳиятидаги завқ гўзалликдан олинадиган эстетик қувонч мазмуни билан ҳамоҳангдир. Бу завқни туйиш ҳис этиш мумкину, уни қўл билан ушлаш кўз билан кўриш мумкин эмас. Шоир руҳиятида рўй берадиган ўзгаришлар шеърда акс етмай қолмайди. Чунки шеър руҳияти олам хосиласидир. Унинг қиёфаси яъни, шакли ана шу руҳоний олам кенгликларини, тасаввурларини ўзида мужассам этади. Шу сабаб ундаги образлар бироз ғайритабиий лекин асло шубҳасиз эмас. 80–йиллар шеърлятидаги шаклий ғайритабиийликнинг асослари эса фақатгина руҳоний оламнинг тасаввур салоҳиятигагина боғлиқ бўлмай шиддат билан оқиб келаётган ғарб фалсафаси таъсирига ҳам боғлиқ эди албатта. Умуман бу давр шеърлятини ўрганиш учун бевосита шарқ ва ғарб тафаккур тарзи мулоқотини ҳам ўрганиш лозим бўлади. Чурки 80–йиллар поэзиясида шарқоналик ғарб поэтик тафаккури билан омукта тарзда намоён бўла бошлади. Ғарб фалсафаси бу даврга келиб бутун диққатини инсон руҳий оламининг моҳиятига қаратган эди. Инсон борлиқ марказидаги ўзига хос бетакрор индивидуал ҳодиса сифатида талқин этилиб унинг фикри дунёқараши ватанга атрофдаги оламга муносабати ҳам ўзига хос ва бетакрор деб талқин этила бошланди.

Кўзларинг кўз эмас –палахмон

Тилинг тил эмасдир – оқ чаён.

Кўй мени кўп қийнама

Ёнингда ўлмасман ҳеч қачон

Кўлларинг итдаин акиллар

Таланган юрагим йиғлайди

Кўй мени кўп қийнама

Мени ғажийвериб тўймайсан

Фалак зил– замбил ғзабинг

Елкамни шилди–ю синдирди

Қўй мени амаллаб кетаман
Бағримда кўнглимнинг ўксиги... (А.Қутбиддин)

Албатта, бу каби шеърларда образлар тасвиридан кўра кўпроқ ғоя тасвири бор ёки тўғрироғи рухий олам ғоясининг тасвири берилади. Умуман бу давр шеърлятидаги нафақат рухий кечинмаларга боғлиқ шеърлар балки ижтимоий–сиёсий мазмундаги шеърларда ҳам шоир мени бевосита иштирок этади. У ўз иштироки билан ижтимоий адолатсизликлардан пайдо бўлаётган кемтикликка муносабат билдирмайди, аксинча ана шу кемтикликдан унинг қалбида оғриқ пайдо бўлганига шеърхонни ишонтиради.

Хазонлар чарх урар кўзи ўнгида
Боғлардан баҳорнинг кетгани қачон
Барглари йўқотган азим бир дарахт
Эркисиз эл фарзанди баҳодир янглиғ
Вужуди куч–қудрат юрак тўла шахт
Бироқ жанг қилмоққа муносиб ёв йўк.

(Ш.Қурбон. Куз тунда.)

Ш. Раҳмон шеърлятида инсоннинг оний кечинмалари чуқур таҳлил этилади. Шоир руҳият манзарасини шеърлятига сингдириб юбора олади. Унинг шеърляридаги поэтик фикр рухий англанишдан ҳосил бўлган хулосалар тарзида намоён бўлади. Аслида шеърлятнинг мағзи маъно эмас фикр–ақл эмас балки гўзалликка айлана билган туйғудир. Туйғу рухий ҳолат инъикоси сифатида рўёбга чиқади. Туйғу гўзалликдан, ёки руҳнинг гўзаллик интилишидан туғилади. Руҳият иқлимида туйғулар силсиласининг ўзи бир сирли олам. Шундай оламки кишини мудом ўзи томон чорлайди. Туйғуларни яшаб ўтиш мумкин. Бироқ, дил улардан ҳеч қачон безмайди. Улар ҳар сафар янгиланади. Рўёбга чиқаётган туйғу маълум бир шаклга киради оҳанги билан туғилади.

Шаббодалар олиб келади
Райҳонларнинг ўткир нафасин
Япроқларнинг ораларида
Икки қушнинг бахтиёр саси
Кеча узун, Ҳаёлдай узун
Ундан узун қоронғу сукун
Ҳадиксираб тураман фақат
Ногоҳ келиб қолмасайди кун.

(Ш.Раҳмон “Висол.”)

Шоир тасвирлаётган манзара биров ғайритабиийдек, тунда бир–бирини пинжига кириб бир–бирини суяб турган икки қушча висоли тасвирланади.

Қоронғуда ошиқлар висолга ошиқиши табиий. Бу висолни “Ҳайвонларнинг ўткир нафаси” безаб туриши табиий, “Ҳаёлдай узун” кечанинг дилтортар туюлиши висолий кечинмалар ҳаққоний, бироқ шоир қўллаётган тазод ғалати, яъни тунни бузиб келиб келиб қолишидан ҳадиксираш туйғуси биров ўқувчини ҳайратга солади. Алҳол, тун–қоронғу сукунатда этни жунжиктирадиган совуқлик нуқси қоралик мавжуд. Буни шоир ҳам инкор етмаяпти. Бироқ у қоронғуликдан эмас, ёруғ куннинг келиб қолишидан ҳадиғу ҳавотирда. Ш. Раҳмон бир–бирини суяб турган икки қушчага хайрихоҳликни, улар висолига ҳамоҳангликни тундан топгани

холда куннинг серташвиш, серзарда ҳаёти ҳаёлдай узун тун бағрини тилкалаб ташлашига, тўғрироғи ҳаёлни бузиб юборувчи қудратга эга ҳаёт ҳақиқатининг залвори бу икки кушчани чўчитиб юборишидан чўчиди гўё. Бу шеър шоирнинг илк шеърларида бири. Бунда табиатнинг сирли хилқати бўлган туйғу билан юзма-юз қолган шоир руҳияти намоён бўлади. У ўзгача фикрлайди, ўзгача кўради, ўзгача ҳис қилади. У тунда жозобага тўлиқ ширин ҳаёлни, кунда ана шу ҳаёлни бузиб ташлайдиган тирикчилик ташвишларига тўла ҳаётни кўради. Сўнграқ у яна ва яна қушлар образига мурожаат этди. Улар гўё унинг шеърлятидаги қайсидир бир нурли тилсим калити каби таассурот колдиради.

Хулоса қилиб айтганда, Ш.Раҳмон шеърлятида руҳиятнинг ҳақиқатга интилишидан туғилган катта изтироб ва дард етакчилик қилади.

CHET TILINI O‘ZLASHTIRISH BO‘YICHA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR

Dilobar Sulaymonova, JDPI magistranti

Bugungi davrni chet tillarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, insoniyatning hozirgi globalizatsiya asrida chet tilini bilish zamon talabiga, istalgan sohada malakali mutaxassis bo‘lish uchun esa biror jahon tilini, jumladan, ingliz tilini bilish oddiy talabga aylanib qolmoqda. Tilshunos olim va tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, til o‘rganishda yuzaga keladigan muammolarning sababi tilning grammatik murakkabligi yoki uni o‘qitish usulida emas, balki, aynan til o‘rganishga bo‘lgan yondashuvdadir. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib til o‘rganishda to‘g‘ri tanlangan metodika yordamida hamda o‘qituvchidan ko‘ra ko‘proq o‘quvchi (o‘rganuvchi)ning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan quyidagi tavsiyalar asosida biror chet tilini o‘zlashtirishda ijobiy natijaga erishish mumkin deb hisoblaymiz:

1. Grammatika (grammar resource). Til o‘rganishning eng murakkab qismi bo‘lib, aynan shuning uchun ham grammatikani o‘rganish juda muhimdir. Biroq bunda odatda yod olingan qoidalarni amalda qo‘llashda ayrim to‘siqlarga duch kelinadi. Qoidalar texnik yod olingani uchun ham o‘rganuvchi muloqotda ularni erkin va oson ishlata olmaydi. Shuning uchun ham mutaxassislar hatto o‘sha tilda so‘zlashuvchi millatlar ham foydalanmaydigan minglab qoidalarni emas, grammatikaning nutqda eng ko‘p ishlatiladigan elementlari va modellarini o‘rganishni tavsiya etishadi. Masalan, ingliz tilida sodda gaplarni o‘rganishdagi sodda yo‘llardan biri bu quyidagi ko‘p qo‘llaniladigan gap qurilish modelidir:

Ega+kesim+to‘ldiruvchi

The buyers chartered a steamer.

Kundalik so‘zlashuvdagi gaplarning katta qismini shu va shunga yaqin qolipdagi gaplar tashkil etgani uchun til o‘rganayotganda muloqot uchun kerakli grammatik mavzularni o‘rganish lozim. Chunki har qanday tilni o‘rganishdan maqsad shu tilda so‘zlay olish malakasini egallashdir.

2. Algoritmik (tizimli) mashg‘ulot (self-study). Til o‘rganish jarayonini sekinlashtiruvchi omillardan biri bu – o‘z ustida ishlash jarayonining tizimli bo‘lmashligidir. “Takrorlash–bilimlarning onasidir” deyilganidek, yangi bilimlarni egallash va mustahkamlash jarayonida o‘rganuvchining o‘ziga qo‘ygan har kunlik majburiyati tilni eslab qolish imkoniyatini keskin oshiradi.

3. *Lugʻat boyligi (lexical resource)*. Lugʻat boyligini oshirishning kam samara beradigan yoʻli soʻzlarni majburan yodlashdir. Chunki kundalik hayotda qoʻllanmaydigan bunday soʻzlar tezda unut boʻlib ketadi. Oʻrganuvchi leksikonini boyitishning samarador usuli bu– oʻsha tilda dastlab kichik hajmdagi qiziqarli matnlarni oʻqishdir. Yodlash jarayonida esa har bir soʻz ustida toʻxtalmasdan, faqat jumla mazmunini aniqlashtirishga yordam beradigan yangi soʻzlarnigina tarjima qilish va, albatta, qayd qilib ketish lozim. Inson miyasi shunday tuzilganki, shunchaki yodlangan soʻz emas, biror joyga qayd qilingan soʻz miya oʻsha narsaning muhimligiga eʼtibor qaratganligi uchun xotirada tezroq qola boshlaydi va bu soʻz turli matnlarda bir necha matnlarda takrorlangach, insonning lugʻat zaxirasidan mustahkam oʻrin oladi. Shuningdek, oʻrganuvchi soʻzning kontekstda grammatik tartibda qaysi oʻrinda kelishi va qanday maʼno ifodalayotgani bilan bogʻliq grammatik qoidalarni ham mustahkamlab boradi.

Lugʻat boyligini oshirishning ikkinchi foydali usulini amerikalik olim, “Toʻrt soatlik ish haftasi” asari muallifi Tim Ferris shunday asoslagan: “Istalgan bir tilni 90% tushunish uchun 3 oy yetarli, biroq 95% tushunish uchun 3 yil kerak”. Buni quyidagicha izohlash mumkin: Perato nazariyasi boʻyicha inson hayotdagi kerakli ishlarga oʻz vaqtining 20%ini sarflaydi. Ammo shu 20% erishilgan natijalarning 80%ini tashkil etadi. Demak, til oʻrganish uni mukammal bilishni xohlovchilar uchungina murakkab jarayon boʻlib, 20%lik mehnatning oʻzi ham oʻrganuvchini binoyidek soʻzlovchiga aylantirish uchun yetarli ekan.

4. *Talaffuz (pronunciation)*. Tilshunos olimlarning fikriga koʻra, dunyo xalqlari tillarida jami 150dan ortiq tovush boʻlib, har bir tildagi tovushlar miqdori oʻrtacha 30tani tashkil etadi. Bu esa tillar talaffuzi oʻrtasidagi katta farqni keltirib chiqaradi. Chet tilida toʻgʻri talaffuz qilishni oʻrganishning yaxshi usullaridan biri bu oʻsha tilda koʻproq tinglashdir. Albatta, bugungi zamonaviy fan–texnika asrida yashayotgan oʻrganuvchi uchun bu murakkab narsa emas. Multimediya vositalaridan foydalangan holda tilda kerakli audio, video materiallarni tinglash va dars jarayonida til oʻrgatuvchi (oʻqituvchi)ning artikulyatsion jihatlariga diqqat bilan eʼtibor berish oʻrganuvchini oʻzi oʻzlashtirayotgan til muhitiga olib kiradi.

Yuqoridagi tavsiyalar til oʻrganish boʻyicha davr talabidan kelib chiqqan holda jamlangan psixolingvistik yondashuvlar boʻlib, ular muayyan tilni egallash jarayonida sezilarli ahamiyatga ega boʻladi.

ZEBUNISO IJODIDA LIRIK QAHRAMON RUHIYATI TASVIRLARI

Sitora Oltmishova, JDPI talabasi,

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. S.Eshonqulova

Kishilik jamiyati taraqqiy etib, insonlar oʻzligini anglab, ilm–maʼrifatni egallay boshlaganidan buyon barcha sohalarda erkaklar bilan bir qatorda ayollarning nomlari ham zikr etib kelindi.

Ayollardan chiqqan buyuk davlat arboblari, mashhur olimlar bilan bir qatorda soʻz saʼnatining gʻurur–iftixori sanalgan shoirlar ham bor. Boburiylar avlodidan boʻlgan mashhur shoira Zebunniso shular jumlasidandir.

XIX asrda yashagan o‘zbek shoiri Nodir tamonidan Zebunniso ijodiga yuqori baho berilgan. Muallif “Xaft gulshan” asarida Nodira va uning atrofida to‘plangan shoiralarni Zebunnisodek oqila, sadoqatli, fazl–u kamol egasi sifatida ta’riflaydi⁸⁰.

Yig‘ildi dargohida har qaboyil,
Yig‘ibon har tarafdin necha xotun,
Barisi fazlu donish ichra otun,
Bari Zebunnisodek erdi shoir ...⁸¹

Bundan ko‘rinib turibdiki, Zebunniso o‘z davrining yetuk, ma’rifatparvar, oqila shoirlaridan bo‘lgan. Zebunniso o‘z ijodi davomida goh sokin, goh sertashvish hayot kechinmalarini tasvirlagan. G‘azallari orqali ishq–muhabbat, mehr va shafqat, vafo va sadoqat hayotning ilhom manbayi ekanligini hamda erk va hurriyat kabi ilg‘or g‘oyalarni tarannum etgan.

Shoira ayol zotining ma’naviy sarbalandligini vafo va sadoqat haqidagi orzularini o‘zining nozik qalami bilan ifodalay olgan. Shoira qator g‘azallarida yor mavzusini ilhom bilan tarannum etgan. Biz, maqolamizda shoira ijodida lirik qahramon ruhiyati tasviri tahlilini ko‘rib chiqishni maqsad qildik.

Shoira lirik qahramon ruhiyatini zo‘r mahorat bilan tasvirlagan. Uni goh ishq giriftori, goh tabiatning maftunkori sifatida gavdalantiradi. Lirik qahramon donishmand, sadoqatli oshiq. Uni eng yuksak sifatlar bilan ulug‘laydi.

Zebunnisoning ta’riflashicha, suyuqli “yor bilan birga bo‘lmagan dam dam emas, yor siz olam olam emas”dir. O‘z g‘azallarida oshiq va ma’shuqa kayfiyatlarini ifoda etar ekan, ajoyib manzaralar yaratishga erishadi. Buning isboti o‘laroq shoira dunyoviy poeziyasining nodir namoyondalaridan biri hisoblanadigan “Inchost” radifli g‘azali niyohatda o‘rinlidir:

1–bayt:

***Biyo, ki zulfi qachu chashmi surmaso inchost
Nigohi garmu adoxoi dilrabo inchost.***

Mazmuni:

***Zulfi xalqa–xalqau ko‘zi qaro bu yerdadir,
Boqishi shafqatli–yu, nozikado bu yerdadir***⁸².

G‘azalning dastlabki baytidanoq, lirik qahramon ma’shuqasini ta’riflash jarayonida yorining go‘zalligiga dunyo go‘zalliklarini ham singdirib yuborgan. O‘zi nozik bo‘lsada, shafqatli, hattoki butun olam unga mahliyo ekanligi zo‘r mahorat bilan kuylangan.

2– bayt:

***Qarashma–teg‘u, mija–xancharu, nigax–almos,
Shoxodat ar talabi, Dashti Karbalo inchost.***

Mazmuni:

***Kiprigi–xanjar, karashma–tig‘, ko‘z tashlash–yashin,
Gar shaxid bo‘lmoqchi ersang, Karbalo bu yerdadir.***

⁸⁰ Qodirova M. Zebunniso. -T.: Fan, 1982. -B.6.

⁸¹ Nodir. Xaft gulshan. O‘zFASHI inv.№1801.8-varaq.

⁸² Qodirova M. Zebunniso. -T.: Fan, 1982. -B.26. (G‘azalni o‘zbek tiliga M.Muinzoda tarjimasi).

Bu baytda qahramon yorga nisbatan “kiprigi–xanjar, karashma–tig‘, ko‘z tashlash–yashin” deya ta‘rif berib, birdaniga murojaat tarzda gar o‘lmoqlikni kasb etmoqchi bo‘lsang, Karbalo dashti (balo, qazolar) shu yerda paydo bo‘ladi deya, yorning noziga alohida urg‘u bermoqchi.

3–bayt:

***Agar bixisht dixandat firebi kas naxuri,
Qadam zi maykada berun manex, ki cho incho.***

Mazmuni:

***Bersa ham jannatni, aldanma kishilar so‘ziga,
Bir qadam mayxonadan jilmaki, jo bu yerdadir.***

Oshiqlikni kasb qilganingdan keyin odamlar jannatni beraman desalar ham aldanma, dunyo go‘zalliklarining hammasi shu hayotning o‘zida ekanligini nafaqat o‘ziga, balki atrofdagilarga ham uqtirmoqda. Bu bayt lirik qahramon tafakkur olamining kengligidan ham dalolat beradi.

4–bayt:

***Ba tavfi Ka‘ba kucho meravi, dile daryob,
Ki xalq behuda chon mekanad, cho incho.***

Mazmuni:

***Ka‘baga bormoq na hojatdur, agar dil ovlasang
Behuda yo‘llar kezar bu xalqu, jo bu yerdadir.***

Bu baytda shoira mumtoz adabiyot an‘analariga amal qilib, insonlarga yaxshilik qilishni, faqir yor ko‘nglini olishni Ka‘baga borishdan afzal deb biladi. Boshqalarni ham shunga da‘vat etadi.

5–bayt:

***Zi poy to sari u xar kucho, ki menigaram,
Karashma domani dil mekashad ki: cho incho.***

Mazmuni:

***Xusnig‘a boshdin–oyoq boqqanda har bir nuktadin,
Dilni tortib har karashma, derki: jo bu yerdadir.***

Bu misrada lirik qahramon yoriga boshdin oyoq boqqanda o‘z ko‘ngliga qancha qarshi borsa ham, dilni yayratadigan olam go‘zalligi aynan shu yerda ekanligini uqtiradi.

6–bayt:

***Kitobxonai olam varaq–varaq chustam,
Xati tu didamu guftam, ki muddao incho.***

Mazmuni:

***Izladim bir–bir johonda har necha bo‘lsa kitob,
Ko‘rdimu xattingni dedim: muddao bu yerdadir.***

Oshiq bu baytda dunyo kitoblarining ichidan ilohiy ilm izlaganini, oxiri xulosa topolmay barcha muddao Yaratgan tomonidan ma‘shuqa husni jamolida ekanligini tushunganligini ta‘rif etgan. Bu ham bir o‘ziga xos tasviriylikni keltirib chiqaradi.

7–bayt:

***Zakoti xusn agar medixi baroi xudo,
Biyo, ki Zebunniso xamchu man gado incho.***

Mazmuni:

**Istasang husnning zakotini berarga mustaxiq,
Kelki, bu Zebunniso yanglig' gado bu yerdadir.**

Shoira bu baytda yor jamolidan bahramand bo'lish joiz bo'lsa, o'zini husn zakovatini olishga tayyor turgan gadoga qiyoslaydi.

Shoira g'azallarida shu narsa aniq ko'rinib turadiki, u chindan ham shoirona ta'b egasi bo'lib, dard bilan kuylar, she'rlarida shoirona nazokat hukm suradi.

Xulosa qilib aytganda, Zebunniso she'riyati mazmun jihatdan ham, badiiylik jihatdan ham mukammaldir. Shoira g'azallarida lirik qahramon tasviri mahorat bilan yoritilgan. Uning lirik qahramoni tasavvufiy dunyoqarash bilan yo'g'rilgan, Islom aqidalari yo'lida tinimsiz jonfidolik ko'rsatadi. Ma'shuqa tasvirida o'ziga xos bo'lgan sharqona ibo-hayo an'alarining yorqin na'munalari uchraydi. Ishq-muhabbat hayotning ilhom manbayi ekanligi zo'r shavq bilan kuylangan. Shu sababli shoira asarlari bugungi kunimiz, ertangi kelajagimiz uchun ham ardoqli va suyuklidir.

ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ИЖОДИДАН БАХРА ОЛИБ

**Нигора Шухратжонова, ЖДПИ талабаси
Илмий рахбар: ф.ф.н., доцент Н.Соатова**

Неча асрлардан бери инсон шахси, унинг руҳияти ва жисмоний ҳолати ўрганилган ва ўрганилиб келинмоқда. Ана шулар ичида инсон руҳиятини ўрганиш психологларга юклатилган бўлса, унинг руҳиятини озиқлантириш ва инсонни комил инсон қилиб камол топтириш адабиётшуносларнинг вазифасига юклатилган.

Шундай экан, бу вазифани тўлақонли амалга ошириш учун уни қалб билан ҳис этиш ва англамоқ зарурдир. Шу ўринда савол туғилади: Бу вазифани амалга ошириш ва унинг маъсулиятини англамоқ нимадан бошланади? Бу саволга жавобни, авваламбор, ўзликни англашдан бошланади десак хато бўлмайди. Ўзликни англамаган ҳар қандай инсон бошқа бир инсоннинг руҳиятини озиқлантирувчи, уни комил инсон қилиб тарбияловчи, инсонларга ўзликни англаувчи бўла олмайди. Ўзгаларнинг дардларини, руҳиятини ва ундаги бўладиган ички кечинмаларини ҳис этолмайди. Улар хоҳ санъат соҳасидаги кишилар бўлсин, хоҳ адабиётшунослар, ёки мусикачилар ва ёки бошқа бир соҳа вакиллари бўлсин, улар яратган ҳар қандай асарлар инсонларнинг қалбига етиб бормайди, ўз таъсирини ўтказолмайди. Даврлар синовига бардош беролмай, ўз қимматини йўқотади. Лекин бизнинг буюк аждодларимиз ўзликни англаб етган, чин маънодаги ҳақиқий инсонпарвар шахслар бўлишганки, уларни ҳали ҳануз эсан чикариб бўлмайди. Улар яратган асарлар эса ҳар қайси даврда ҳам инсонлар маънавиятини озиқлантирувчи куч сифатида бардавом яшаб келган ва ўз қийматини сақлаган. Ана шундай буюк инсонпарвар сиймоларимиздан бири—Жалолиддин Румийдир.

Румийнинг шахсияти ва яратган асарларининг мазмун—моҳияти ҳақида кўплаб адабиётшунос олимларимиз изланишлар олиб боришган ва ҳозирда ҳам адабий изланувчилар томонидан ўрганилмоқда.

Жалолиддин Румий бутун дунё эътироф этган Шарқ халқининг буюк донишманди, тенгсиз истеъдод эгаси, шоири, мутафаккир алломаси ҳамда

авлиёсидир. Румий ҳақида сўз борганда Навоий ҳазратларининг Румийга берган қуйидаги таърифини ёдга олмоқ жоиздир: ”Румий илоҳий ишқ куйчиси, буюкликнинг кўз илғамас чўққисидир” –дея улуғлайди.

Дарҳақиқат, Мавлоно Румий Шарқ ва Ғарб файласуфларидан фарқли равишда ҳар бир соҳада: тасаввуфда ҳам, шеърятда ҳам, фалсафада ҳам, диний ҳамда дунёвий илмларда ҳам юксак чўққиларни забт этгани билан ажралиб турган. Чин маънода ҳақиқий инсонпарвар шахс бўлган. Румий ва у яратган асарларини қуёш ва унинг заррин нурларига қиёслашимиз мумкин. Румий илмга, чин инсоний фазилатларга, комилликка, ақлий ва ахлоқий билимларга эга бир қуёш бўлса, унинг асарлари эса қуёшнинг инсонларга таратадиган нури зиёсидир. Бу заррин нурлар орқали ҳар ким ўзига таалукли бўлган ўзлигини топади.

Мавлоно Румий яратган ҳар бир асарда, жумладан, ”Маснавий маънавий”, ”Девони кабир”, ”Мактубот”, ”Фихи мо фихи”(“Ичингдаги ичингдадир”) ва беҳисоб ҳикматларида инсонни тафтиш этиб, уларни кусурлардан ҳоли комиллик сари етаклайди. Улар орасидан “Ичингдаги ичингдадур” асарини Н.Комилов шундай таърифлайди: “Ичингдаги ичингдадир”– ботиний илмлар баённомаси, ўз–ўзини, ўзликни ва илоҳни таниш китобидир”⁸³.

Хўш, Румий баралла куйлаган ўз–ўзини, ўзликни англаш нима? Бу саволга жавобни унинг “Ичингдаги ичингдадир” асаридан оламиз: “Бу ерда бир нарсани унутибман”– деди. Мавлоно буюрдик: “Дунёда бир нарса бор– унутилмас. Агар ҳамма нарсани унутиб, уни унутмасанг, кўрқмасанг ҳам бўлади. Масалан, бир подшоҳ муайян иш учун сени қишлоққа жўнатди. Сен тайинланган ишни қилмай, бошқа юз турли ишларни адо этсанг ҳам, ҳеч нарса бажармаган бўласан. Шунинг учун инсон бу дунёга бир иш учун келган: ғоя удир, агар уни қилмаса, ҳеч иш қилмаган ҳисобланади”⁸⁴.

Бундан шундай хулоса чиқариш мумкинки, Аллоҳ инсонни бу дунёга ўз аслиятини англашга ва Ўзини танитишга юборган. Инсонлар дунёда қанча елиб–югуриб, мол–дунё тўплаб, обрў–эътибор қозонмасин, лекин ўзлигини англамаса бу дунёда ҳеч нарсага эришмаган ҳисобланади.

Румий дунёдаги инсонларнинг унутилмас вазифаси битта, муштарак эканлиги ҳақидаги фикрини давом эттириб, мақсад сари етакловчи йўллар кўп, аммо уларнинг борар жойи бир эканлигини фикрлари орқали таъкидлайди: “Йўллар турли–туман бўлса ҳам ғоя бирдир. Ахир кўрмаяпсанми, ким Румдан, ким Шомдан, ким Ажамдан, ким Чиндан ва яна кимдир Ҳинд–у Ямандан йўлга чиқади. Агар йўлларга боқадиган бўлсак, буюк фарқлар бор. Мақсадга, ғояга назар солсакчи, уларнинг ҳаммаси бир– Каъбага йўналгандир. Бу ердаги ишқ жуда улуғдир. Чунки бунда ҳеч қандай тушунмаслик, бошбошдоқлик йўқдир”(60–бет).

Дарҳақиқат, инсонлар қаерда, қачон, қай аҳволда дунёга келишмасин турлича шароит ва турлича қарашлар орқали вояга етишмасин, лекин уларни бирлаштириб турувчи бир муштараклик бор: бу ҳам бўлса ҳар бир инсонга

⁸³ Н. Комилов. Тафаккур хазинаси. –Т.: Янги аср авлоди, 2019. 5–бет.

⁸⁴ Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадур. –Т.: Янги аср авлоди, 2019. 22–бет

юклатилган вазифа– ўзлигини англашдир. Аммо бу вазифани бажаришга ҳар кимнинг ҳам иродаси етмайди. Бунунг учун инсон, аввало, қалбини ёмонликлардан, шайтоний ҳислатлардан тозалаш лозим. Қачонки инсоннинг қалби пок бўлса, атрофга яхши назар билан қарай бошлайди, ўзгалардан айб–у нуқсонлар изламай, балки ўзининг камчиликларига назар ташлайди, барча воқеа–ҳодисаларга қалб кўри билан боқайди, ўз–ўзини тафтиш этади, ўзи ва ўзгалар хусусида ҳолис баҳо чиқаради. Шу ўринда мавлоно Румийнинг бир ҳикматини келтириб ўтишимиз мумкин: “Кўзингни юмгил, кўзга айлансин кўнгил”⁸⁵

Бундан юқоридаги фикримизга исбот сифатида фойдалансак бўлади. Яъни, барча нарсаларни кўз билан кўрибгина эмас, балки қалб билан кўриб, ҳис қилмоғимиз лозим: “Сен қийматинг ва тушунчанг билан икки оламга бадалсан. Аммо нима қилайинки, сен ўз баҳойингни билмаётурсан””(28 – бет),– дея инсонларга мурожаат этади. Инсонлардан, ўзларини арзон баҳоламай, дунёнинг моддий неъматларига хирс қўймай яшашга, балки уларни Аллоҳ томонидан берилган ҳақиқий кадр–қимматини англашга, ҳис қилишга чорлайди.

Ҳаётда инсон учун икки мақсад бўлиши лозим. Булардан биринчиси– ўзликни англаш, иккинчиси– ўзликни англаш орқали Ҳақни таниш. Бу ўринда қуйидаги ҳадисни келтирсак мақсадга мувофиқ бўлади: “Ўзини билган, Худосини ҳам билади”⁸⁶. Ушбу ҳадисдан келиб чиқиб уни Румий шундай изоҳлайди: “Инсон Тангрининг устурлобидир.

Фақат бу устурлобни биладиган мунажжим лозим. Дехқон ёки баққолнинг устурлоби бўлгани билан уни ишлатолмагандан кейин нима фойдаси бор? Улар устурлобда кўринган фалаклар аҳволдан, ҳаракатларидан, буржларининг ўзгаришлари–ю таъсирларидан нимани ҳам тушунардилар? Кўринадики, устурлоб мунажжимлар учунгина фойдали. Шу нуқтаи назардан, устурлоб фалакнинг қандай кўзгуси бўлса, инсон вужуди ҳам Аллоҳнинг шундай устурлобидир. Чунки Қуръонда инсон тўғрисида: “Биз Одам ўғилларини азиз қилдик”– дея буюрилган””(23–бет).

Шу ўринда ўзликни англаш нимада кўринади деган савол юзага келади. Бу саволга Мавлоно Румий инсон ўзлигини англашни руҳий ва жисмоний ҳолатларнинг уйғунлигида, яъни руҳ ва жисм бирлигида, деб билган. Буни қуйидаги сўзлари орқали далиллаймиз: “Агар данакни чақиб, мағзини эксанг унмайди. Агар қобиғи билан бирга тупроққа қадасангчи, униш ҳодисаси юз беради””(38–бет).

Бундан шундай хулосага келишимиз мумкинки, инсоннинг руҳи мағзи бўлса, жисми эса данакнинг қобиғидир. данак мағзи ва қобиғининг уйғунлиги орқали ҳосилга эришилса, инсон эса руҳи ва жисмининг уйғунлиги билан ўзлигига эришади. Румий ҳар доим инсонларни ўзлигини англашга Оллоҳни танишга чорлайди. Бунга Румийнинг қуйидаги сатрларини мисол қилиб келтирамиз:

Ё Раббий! Менга мени билдир, мен уни билай,
Мени билган мен билан, ўзимга келай!

⁸⁵ Жалолитдин Румий. Хикматлар. –Т: Фан, 2007.

⁸⁶ Хадис

Менинг менсизлигим билан мен сени билай,
Сени билмаган менни мен нима қилай?⁸⁷

Бундан кўринадики, ҳазрат Румийнинг мақсади, инсонларни ғафлатдан уйғотиб, ўз аслиятини, ўз моҳиятини англашга ундаш, бунда инсонларни фақат жисм манфаатларининг асири бўлиб қолмасдан жисм ва руҳ бирлиги остида Оллоҳни танишга, унинг жамолига етишга чақиришдир. Бунинг учун эса инсонга ишқ, пок қалб, мустаҳкам имон ва гўзал инсоний сифатлар зарур. Ушбу фикримизни Румийнинг қуйидаги сўзлари билан жонлантирамыз: “Ҳаққа етмоқ истасанг кўнгилларни қозонмоқни маслак айлагил, бунинг учун саройларда мрамар бўлма, бир тупроқ бўлгинки, бағрингда гуллар етишсин”⁸⁸. Ёки: “Тупроқдан келдик тупроққа кетармиз. Мухими, дунёда кирланмасликдир, кўнгилни пок тутмоқ, дилга кир юқтирмасликдир”(132 –бет).

Мавлоно Румийнинг тасаввуфий қарашларида ишқ олий ўринни эгаллайди. Бунда ишқ дунёвий ишқ эмас, ҳақиқий ишқ– Аллоҳга бўлган ишқдир. “Покланишнинг ягона йўли–Ишқдир, Аллоҳ севгисига берилишдир”⁸⁹ “Тангрига олиб борадиган йўллар бисёр, мен эса ишқ йўлини танладим”⁹⁰.

Демак, инсон ўзлигини англаб етгандан сўнг, Аллоҳни танийди ва унга муҳаббат кўяди, ҳақиқий ишққа эришади. Ҳаётининг маъносини, ўзига юклатилган вазифани англайди ва комилликка эришади.

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки, Жалолиддин Румий яратган маънавий мерослар жамийки халқлар орасида юксак ўринда туради ҳамда ардоқланади. Унинг қарашлари марказида доим ИНСОН турган. Румийнинг мақсади инсонни юксалтириш, уни тўғри йўлга бошлаш, диний–ахлоқий комиллик даражасида тарбиялаш, инсон қалби ва руҳини қусурлардан, салбий иллатлардан тозалаб, унга олий сифатларни жо қилиш, инсонга ўз–ўзига ҳолисона назар солиб, ўзини тафтиш этишга ўргатиш, ёмонликлардан нафратланишга, поклик ва яхшиликка меҳр қўйишга ва энг муҳими, буларнинг барчаси орқали ўзликни англашга, ўзликни англаш орқали эса Аллоҳни таниб, унга етишишга ўргатишдир.

Ҳазрати Румий қарашларининг ўзига хослигини руҳ ва жисмнинг уйғунлигига эришиш орқали ўзлини топишга чорлагани деб билишимиз мумкин. Мавлоно Румий ўз асарларида Қуръон сураларидан, оятларидан, ҳадислардан ўринли фойдаланиб, ўқувчида диний билимларни шакллантириб, мустаҳкамлаб Аллоҳ билан яқинлаштиради.

Жалолиддин Румий яратган “Фихи мо фихи” (“Ичингдаги ичингдадир”) асарини улкан уммон деб билайлик. Ана шу уммонга шўнғиб, унинг ҳар бир мавжланган тўлқинларидан ўзимизга керакли бўлган олам–олам ибрат олишимиз мумкин. Бу асарни ўқиб, ўзига ибрат олган ўқувчи ёки китобхонни биз бемалол унинг комиллик сари қўйилган дастлабки қадами

⁸⁷ Жалолиддин Румий. Маснавийи манъавий. –Т.: Фан, 2004.

⁸⁸ Жалолиддин Румий. Хикматлар. –Т.: Фан, 2007.

⁸⁹ Жалолиддин Румий. Маънавий маснавий: Куллиёт –Т.: Шарқ, 1999.

⁹⁰ Жалолиддин Румий. Хикматлар. –Т.: Фан, 2007.

дейишимиз мумкин. Ҳаммамизга ўз аслиятимизни, ўзлигимизни англаб, Аллохни таниб, унга етишиш насиб этсин!!!

ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO’LLASHNING AHAMIYATI

**Maqsuda Zakirova, UrDU akademik
litseyi o‘qituvchisi**

Hozirgi davrda yosh avlodga davr talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim–tarbiya berish eng dolzarb vazifalardan biridir. Chunki hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini yosh avlodsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday deb ta’kidlagan edi: “Biz yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonunni yangi tahrirda qabul qildik. Shu asosda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda”. (1.72) Bu dolzarb vazifani amalga oshirishning birdan – bir yo‘li ta’lim standart tizimini tinmay takomillashtirish orqali yosh avlodni ilm – fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yo‘lidagi izlanish insonning e’tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma’naviy – axloqiy kamolot sari yetaklaydi.

Bugunga kelib, Respublikamizda ta’lim va tarbiyaning bosh maqsadi, mazmuni tubdan yangilandi. Shu sababli umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, akademik litseylar va kasb–hunar kollejlarida, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida pedagogik innovatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, o‘quvchi va talaba yoshlar aqliy salohiyatining o‘sib borishi, ularning ta’lim mazmuniga chuqurroq kirib borishga intilishlari, axborot texnologiyalaridan foydalanib dunyo yangiliklaridan xabardor bo‘lishga qiziqishlari, o‘qituvchilardan o‘z ustilarida tinimsiz izlanishlar olib borishni, bugungi kun nafasi bilan yashashi hamda ta’lim sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lib borishni talab etadi. Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida o‘z o‘quvchilarini ta’lim jarayoniga ijodiy yondashuv asosida qarashlarini tashkil qilishi, ularda mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishi barobarida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya asosida dars berayotgan o‘qituvchi didaktik o‘yinlar, topishmoqlar, boshqotirmalar, turli xil testlardan darsning istalgan vaqtida foydalanishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarni izlanuvchanlikka, topqirlikka undaydi, guruhda darsga bee’tibor o‘quvchi qolmaydi. Dars jarayonida o‘quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanadi, o‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi, maslahatchi vazifasiga o‘tadi. Bunda o‘qituvchi muammoli topshiriqlar berib, o‘quvchini ana shunday vaziyatlarni hal qilishga o‘rgatadi va buning natijasida o‘quvchiga yangi mavzu ma’lumotlarini berib boradi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o‘tkazish metodlariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak, chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari, xohishlari va istaklarini qo‘zg‘atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvi hisoblanadi.

Motivatsiya o'quvchining ichki imkoniyatlarini ishga solish, u yoki bu bilimni olishga undash va qiziqishlarni uyg'otish demakdir. Bunda asosan o'quvchining faolligi oshib boradi va uni quyidagi omillar ta'minlaydi:

- o'quv materiallarini ongli ravishda o'zlashtirib olishga tayyorligi;
- mustaqil faoliyat yuritishga tayyorligi;
- faoliyatini tushunib amalga oshirishi;
- o'z bilim darajasini oshirishga moyilligi;
- o'quv jarayonining samarali kechishida o'quvchining mustaqil faoliyat yuritishi dars samaradorligini oshiradi.

Quyidagi motivlar darsda o'quvchi faolligini oshiradi:

- o'z fikrini himoya eta olish;
- munozara va muhokamalarda faol ishtirok etish;
- sinfdosh o'rtoqlarining javoblariga tanqidiy qaray olish;
- sinfdagi past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga ko'maklashish;
- o'ziga ijodiy faoliyat nazoratidan topshiriqlarni tanlay olish;
- o'z qiziqishlari asosida mustaqil mashq va masalalar yechish.

O'qituvchining o'z ishiga bo'lgan fidoyiligi, o'quv materiallarida yangiliklarning mavjudligi, zamonaviy darslarni tashkil etishi, dars shakllarini yangilashi, ommalashtirib borishi, muammoli, kompyuterli darslarni tashkil etishi, darslarda multimedia tizimidan foydalanishi, o'zaro bir–birini o'qitishni yo'lga qo'yishi, olgan bilim va ko'nikmalari yuzasidan test sinovlarini tashkil etishi, didaktik o'yinlardan foydalanishi, musobaqalar tashkil etishi, o'qituvchining mahorati va o'z o'quv predmetiga bo'lgan munosabati, o'quvchiga do'stona munosabatda bo'lishi o'quvchilarning darsga qiziqishlarini yanada oshiruvchi asosiy motivlar hisoblanadi.

Yuqoridagi omillar o'quvchining o'quv mehnatiga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi va o'z navbatida dars samaradorligini oshirib, o'zlashtirish ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishini kafolatlaydi. Har bir darsda o'quvchining faol ishtiroki darsning samarali kechishiga yordam beradi.

“2017–2021–yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi” dagi yetakchi vazifalardan biri ta'lim–tarbiya sifatini ko'tarish, ta'lim mazmunini yangilash, yosh avlodning aqliy intellektual taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim–tarbiyaning yangi modelini ilmiy–pedagogik jihatdan ta'minlangan holda muntazam takomillashtirib borishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi (22–dekabr 2017–yil).– Toshkent:”O'zbekiston”, NMIU, 2018.

2.Safarova R., Musayev U., Musagev P., Yusupova P., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari, ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. –Toshkent, 2005.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA OT SO'Z TURKUMINI O'RGATISHDA MA'NODOSH SO'ZLAR USTIDA ISHLASH

Muhayyo Ochilova, Toshkent shahar
218–maktab o'qituvchisi

Ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) tilimizning lug'at boyligi, nutqimiz go'zalligi va ko'rkidir. Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) til imkoniyatlarini ko'rsatuvchi hodisalardan biri hamdir. Tilda ma'nodosh so'zlar qancha ko'p bo'lsa, ifoda imkoniyatlari ham shuncha keng bo'ladi. Bu belgi o'quvchilar lug'at boyligining ortishi hamda og'zaki va yozma nutqning o'sishi orqali namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarning amaldagi o'quv dasturida sinonimlar to'g'risida nazariy ma'lumot berish ko'zda tutilmagan. Ammo ma'nodosh so'zlar haqidagi tushuncha o'quvchilarga amaliy mashqlar orqali singdirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. So'nggi paytlarda sinonimlarga amaliy murojaat etish zaruriyati kuchaydi. Tabiiyki, bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiga ham o'z ta'sirini o'tkazishi muqarrar. Binobarin, boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlarini o'rgatishda sinonimlar ustida ishlash muhim hisoblanadi. Ammo kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarimiz so'z turkumlarini o'rgatishda bu masalaga kam e'tibor qaratadilar. Ular o'z nutqlarida sinonim qatoridagi so'zlardan faqat bosh so'z (dominanta) nigina qo'llashadi. Masalan, ot so'z turkumiga oid so'zlar: *yuz aft, bet, bashara, turq, chehra* sinonim qatoridan “yuz” so'zini; *sovg'a, hadya, tuhfa, tortiq, armug'on* sinonim qatoridan “sovg'a” so'zini qo'llash kabi. Bu esa o'quvchilar nutqining boshqa so'zlar bilan boyitilmasligiga, ularning o'z fikrlarini yanada chiroyli tarzda bayon qila olmasligiga olib keladi.

Shu bois boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumini o'rgatish jarayonida sinonimlardan foydalanishning bir qator samarali yo'llarini qo'llash darkor.

So'z turkumlari haqida amaliy bilim berish 2– sinfdan boshlangani uchun amaliy tushuncha berish ham shu sinfdan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, ot so'z turkumi mavzusini o'tishda ma'nodosh so'zlarni guruhlash kabi mashqlardan foydalanish mumkin. Misol uchun *quyosh, uzr, kecha, kechirim, oftob, tun, aft, oqshom, kun*. O'quvchilar bu so'zlarning ma'nosiga qarab guruhlashlari va sinonimik qator hosil qilishlari kerak.

3– sinfda berilgan so'z turkumidagi so'zga sinonim tanlash, tushirib qoldirilgan ma'nodosh so'zlarni o'z o'rniga qo'yish kabi mashq turlaridan foydalanish ham katta ahamiyatga ega.

Berilgan so'zga ma'nodosh tanlash har bir so'z turkumi o'rganilganda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan o'quvchi sinonimlarni so'z turkumlarga bog'lab o'rganadi, bu esa keyingi sinflarda shu mavzuni mustahkamlashda zamin bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari o'quvchilarga kichkina bog'lanishli matn berilib, tushirib qoldirilgan sinonim so'zlarni o'z o'rniga qo'yish topshirilsa ham bo'ladi. Masalan: Barno *onasiga bayramda nima qilishni bilmadi. Bu bir oz o'ylanib turib, so'ng onasiga chiroyli gullarni..... qildi. Onasi Barnoga..... uchun rahmat aytdi.*

Qo'yish uchun so'zlar: *sovg'a, hadya, tuhfa.*

4–sinfda ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish, sinonim so'zlar qatoridan foydalanib, didaktik material tuzish kabi mashq turlarini

qo‘llash mumkin. Yaqin ma‘nodosh so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chirish mashqida gaplar bilan birga sinonimik qator ham beriladi. O‘quvchilar ma‘nodosh so‘zlardan mosini qo‘yib mashq turlarida ko‘proq xalq maqollari tanlansa, o‘quvchilar uchun tarbiyaviy ahamiyati ham katta bo‘ladi.

Ot so‘z turkumini o‘rgatishda sinonimik qatordan foydalanib, didaktik material tuzish mashqida o‘quvchilar bilan “Kim tez topish?” o‘yinini o‘tkazish ham mumkin. Bu mashq o‘yinida o‘qituvchi bir so‘zni aytadi va o‘quvchilar bilan uning ma‘nodoshlarini topish yoki sinonimlar ishtirokida so‘z birikmalari, gaplar tuzish musobaqasini o‘tkazadi. Masalan: o‘qituvchi “el” so‘zini aytadi. O‘quvchilar: *xalq, olomon, xaloyiq* kabi ma‘nodoshlarini topishadi. So‘ng shu sinonim so‘zlar qatnashgan so‘z birikmalari tuzishadi: *mustaqil el, mehmondo‘st xalq, serg‘ayrat xaloyiq* kabi. Mashqni tez bajargan o‘quvchilarga shu so‘z birikmalari ishtirok etgan gaplar tuzish topshirig‘i beriladi.

O‘quvchilar: *Mustaqil elimiz* baxti uchun kurashamiz. O‘zbek millati *mehmondo‘st xalqdir*. Hasharda *serg‘ayrat xaloyiq* tezda ishni nihoyasiga yetkazdi.

Bundan tashqari o‘quvchilar bilan berilgan gapdagi so‘zni sinonimlari bilan almashtirish mashqlari o‘tkazilishi ham yaxshi samara beradi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga: “Shogird uzr so‘radi ” gapidagi “uzr” otini uning ma‘nodoshlari bilan almashtirish topshirig‘ini beradi. O‘quvchilar avval so‘zning ma‘nodoshlarini topishadi – *uzr, afv va kechirim* kabi. So‘ng ular “uzr” so‘zini mazkur sinonimlar bilan almashtirib gap tuzishadi.

Masalan: Shogird ustozdan uzr so‘radi. Shogird ustozdan afv so‘radi. Shogird ustozdan kechirim so‘radi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda quyidagilarni nazarda tutmoq kerak:

1. Ot mavzusini o‘rganiladigan har bir darsda o‘quvchilar diqqatini sinonimlarni topishga qaratishi lozim.
2. O‘quvchilarni izlanishga yo‘naltiradigan, ularning til boyligini oshiradigan so‘zlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.
3. Sinonim so‘zlar ustida turli boshqatirmalardan foydaalanish ham yaxshi natijalar beradi. Bunda o‘quvchilarning nafaqat so‘z boyligi oshiriladi, balki ularning mantiqiy fikrlashi ham rivojlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumini o‘rgatishda sinonim so‘zlar ustida ishlash orqali o‘quvchilarning lug‘atini boyitish, ularning fikr doirasini kengaytirish imkoniyatlari kengdir. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z ish faoliyatlarida bu masalaga alohida e‘tibor qaratishlari muhim sanaladi.

USING VIDEOS IN EFL LESSONS

**Laziz Fozilov, Jizzakh State
Pedagogical Institute**

This article provides teachers of English as Foreign Language (EFL) with insights on developing materials and teaching methods that can be incorporated and thus practically implemented in their classrooms. However, emphasis will be on approaching the identity and culture of the native speakers of English through diverse authentic teaching materials.

Video has been proved to be an effective method in teaching English as a foreign/second language for both young and adult learners. Video can be used in a variety of instructional settings—in classrooms, in distance learning sites where information is broadcast from a central point of learners who interact with the facilitator via video or computer, and in self-study and evaluation situations. It also can be used in teacher's self and professional development or with students as a way of presenting content, initiating conversations, and providing illustrations for various concepts. Teachers and students can always create their own videotapes as content for the class or as a means to assess learners' performance.

Using the aforementioned situations, we have devised a language teaching lesson with activities aiming at helping EFL learners get oriented both in language use and some cross-cultural interactions with native speakers of English. Besides, the lesson and the accompanying activities are intended to improve EFL learners' communicative language skills (i.e., listening, speaking, reading, and writing). Finally, by using the videotaped segments, we aim at focusing on developing the learners' fluency in the process of language acquisition in a natural ongoing day-to-day interaction with native speakers.

In order to create effective teaching materials to be implemented in the EFL classroom by using video equipment, we adopted the following method taking into account three factors including: language, content, and production.

As a basic step in the creation process of the teaching material, we have acquainted ourselves with the video equipment. For example, we studied the functions of the 'Hardware' then started practical shooting exercise for sometime until we got used to the equipment.

We have focused on the language, content, and production so as to meet the objectives of the project. For example, we have chosen situations whose medium is "transferable to real life situations, which students are likely to come across". In order to make it real, we have chosen a native-to-native interaction. Moreover, we have asked the actors involved to speak at a considerable speed and natural enough to be easily understood by students who are going to use this teaching material. Finally, we have also asked the characters to maintain pauses in the course of the dialogue. This gives students enough time to comprehend the language patterns that they are expected to use in classroom activities.

As for the content, we have tried to choose situations whose content is of great value and interest to students. Besides, the content has also been chosen to project some cultural aspects of the native speaker's life that are also of great concern for the EFL learner. Finally, we realize that we had very little experience with the cam-cord however; we have tried to produce clear, steady, and focused picture and sound in each of the segments.

Videotape authentic material representing non-EFL environments gives examples of particular language functions in operation. These are situations that EFL learners are likely to encounter through their day-to-day socio-cultural interaction with native speakers of English.

Teaching English in EFL classes by designing lessons and activities that students will implement as individuals or in groups with the aim to develop their language competence and performance and to use English, perhaps, in similar situations to those included in each videotaped segment. Once we implement the videotaped material with the above-mentioned objectives, we will provide students

with opportunities to practice using the language skills in authentic communicative setting.

The aim of the article and the activities held by us serve a two-fold purpose: (1) the pedagogic, and (2) the pragmatic. It also incorporates English language teaching with the teaching of cultural values that an EFL learner is likely to encounter once s/he is stationed in an English native speaking environment.

Using video material in a non-English Language Teaching (ELT) environment can motivate students. They will undergo a special experience of real feelings of accomplishment when they understand what is going on in a situation where native speakers use English. Thus, an EFL learner will realize that “with a bit of extra effort and practice, along with some help from the teacher, ‘real English’ is not beyond their comprehension”.

Videotaped material in a non-ELT environment presents real language. The language is real in the sense that the native speakers use it in real daily life interaction. Therefore, the EFL learner is exposed to language use in a communicative setting from which s/he can learn the real spoken discourse including sounds, and utterances, and their underlying messages, which are in most cases, hinted at through the non-verbal explanatory body language.

As we have noticed, video material can be a very useful source and asset for the language teaching-learning process because it combines both fun and pedagogic instructions in an authentic material that reflect real interaction. By employing videotaped material teachers can always create an indefinite number of language teaching activities. The devised activities above are mere examples based on one short segment and each focuses of a different language skill that EFL students need to acquire.

BIBLIOGRAPHY:

1. Hill, P., Pincas, A. Teaching English as a Foreign Language, Routledge, 1988, ISBN 0-415-05882-1.
2. Baloto, F. "How to Motivate Learners of English". In English Teaching, Forum. 2016.
3. <http://virtlab.ioso.ru/method.htm#>
4. <http://www.smartboard.ru/>

IMPROVING READING SKILLS

**Gulnaz Jarilkasimova , O‘zbekiston Respublikasi
Milliy Gvardiyasi Harbiy– texnik Instituti**

Reading comprehension is an essential part of the reading process. Students need to be taught a range of reading comprehension strategies to help them fully understand the text. The high-school teacher is a specialist in one or more subjects of study – for example, English, social studies, mathematics, science, business education, home economics, industrial arts, or fine arts. As a specialist, his main concern is to help students to teach his subject – to acquire the important skills, to comprehend the essential content, and to use such skills and knowledge in answering questions and solving problems.

A high-school instructor may think of himself not only as a teacher of subject matter but also as a teacher of reading. If so, he aids students to read better

in order to master the content of his subject. Or, this instructor may feel that his main if not sole responsibility is to teach students the subject matter of his course.

In many high-schools, English teachers assume the special responsibility of aiding students to read more effectively. Not only English teachers but also teachers of social studies, science, or any other subject are in strategic positions to assist their students to read better in particular fields. This is true because the teacher of any given subject obviously knows the methods the content of his courses. He also knows the methods to employ in presenting this content. And he knows what reading and study skills are essential to understanding his subject.

There are certain important reading skills, habits, and attitudes that are common to nearly all high-school subjects of study. To illustrate, in almost every course students use a textbook. Many of the reading abilities required to comprehend the textbook in one course are the same or similar to those required to understand the textbooks in other courses.

In helping students to read a textbook and other essential materials, the teacher may find that the following suggestions are helpful:

1. Introducing the textbook to the students. In the first or second class session of your course, have your students systematically examine the textbook. First, have students quickly read the title page; this page gives the book's title page; the name of the author, and the identification of his position. Then have them read the author's foreword (if any) and the table of contents. This table, of course, gives the titles of the book's chapters and sometimes the main headings within chapters. Second, have students skim the book, reading chapter titles and center and side headings, and looking at the illustrations. By doing so, students get an over-all idea of what the textbook contains. Third, have students look at the index. Ask them to look up items in the index and then to turn to the page or the pages referred to therein. In the foregoing ways students develop a number of reading skills – for instance, skimming to get the general idea and skimming to find a particular detail.

2. Train your students to read a textbook chapter. When you assign the reading of Chapter I in the textbook, point out to students that the chapter has study helps –center headings, side headings, and italicized sentences and words. The author, of course, used these devices to emphasize certain ideas. In addition, the chapter usually has questions for study and discussion, problems to solve, projects to conduct, references to read, and other individual and group learning activities.

Next, discuss with students why they are to read Chapter one and what they can expect to get from it. Present some of the chapter's main concepts: such concepts are usually specialized terms in the form of words or phrases. List some of these concepts on the blackboard. Ask students to tell in their own words what these concepts mean. Have students look up in the chapter the author's definitions or explanations of these concepts.

Next, make a blackboard list of some of the important generalizations that appear in the chapter. Have students explain these generalizations and then read the author's explanations of them. If you thus aid students to understand the key concepts and generalizations, they will be able to read the chapter with a greater degree of comprehension.

During the discussion, have students read silently a section of the chapter. Then have them compare what they have read with their own experiences. Such

comparisons help make the chapter as meaningful as possible to a student; they also aid him to become a more critical reader.

Next, have students make their own suggestions on how to study the chapter. These suggestions may include the following reading–study tips:

a) When reading a textbook chapter, concentrate on what you are reading. Read in a place that is quiet and free from distractions. Turn off the radio or TV set.

b) Read the chapter with a definite purpose in mind—for example, to get the important points made by the author or to answer certain specific questions of your own.

c) Skim or preview the entire chapter from beginning to end to get a general understanding of what the chapter contains.

d) Read the chapter, carefully this time, to make sure that you understand the important points. In your notebook, write down these points in outline form for later reference.

In conclusion, the foregoing suggestions, of course cover reading and study skills and habits that we want our students to develop. As the students acquire these abilities, they will enhance their understanding of the entire content of the textbook.

BIBLIOGRAPHY:

1. Churchill, K., Durdell, J., & Kenney, M. "Improving Early Reading Acquisition through a Multisensory Phonemic Awareness Approach", Saint Xavier University, 2008
2. Gardner, H. Multiple Intelligences: The Theory in Practice. New York, 2012
3. <http://www.readbetter.org>
4. <http://www.readingonline.org>

ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТНИНГ ЎРНИ

Хабибова Ш, СамИСИ ўқитувчиси

Юртимизда жамият ҳаётининг барча соҳаларини янада такомиллаштириш, ижтимоий муносабатларни жадал ривожлантириш энг биринчи одамларнинг турмуш даражасини яхшилаш, аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламлари манфаатларини таъминлаш, Ўзбекистонимизни янада ривожлантиришга қаратилган саъй ҳаракатлардир.

Ижтимоий таъминот кексайган, меҳнатга лаёқатсиз бўлган ва боқувчисини йўқотган фуқароларга моддий, тиббий ва ижтимоий ёрдам кўрсатиш бўйича давлат томонидан белгиланган ижтимоий – иқтисодий тадбирлар тизими. Ижтимоий ҳимоянинг муҳим тармоғи. Ижтимоий таъминотни республикада шакллантириб бориш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида» ги Қонунида пенсиялар ва ижтимоий нафақалар тушунчаларига аниқлик киритилиб, пенсия меҳнат стажига кўра қўлга киритилган ҳуқуқ ижтимоий нафақа эса муҳтожларга давлат томонидан кўрсатилган ёрдам деб белгилаб қўйилди. Бугунги давлатимизни равнақини юксак даражага кўтариш, ижтимоий кўмакка муҳтож оилаларни қўллаб–қувватлаш мақсадида маънавийатли, салоҳиятли ёшларни қўллаб–қувватлаш энг асосий бўғини

таълим тизимига, эркин ва фаровон яшаш каби жихатларни сингдиришдан иборатдир.

Жамиятимизда ижтимоий таъминотни шакллантириб боришда мафкуравий иммунитет каби жихатларни сингдириш аҳамиятли вазифадир.

Иммунитет (lot.immunitas, biror narsadan xalos, ozod bo'lish, qutulish) тирик мавжудотнинг ўз бутунлиги ва биологик ноёблигини бузувчи “ёт” омиллардан ҳимояланиши.

“Мафкура” тушунчаси арабчадаги “мутафаккир”, “мутафаккиратун” сўзларидан олинган бўлиб, чуқур маъноли, теран мазмунли фикр демакдир.

“Мафкуравий иммунитет” тушунчаси шахс, ижтимоий гуруҳ, миллат, жамиятни турли зарарли ғоявий таъсирлардан ҳимоялашга хизмат қилувчи тушунчадир.

Маънавият атамаси расмий ҳужжатларда, илмий адабиётларда, матбуотда кўп қўлланилишига қарамасдан, уни илмий тушунча сифатида алоҳида таҳлил ва таъриф этиш фойдадан ҳоли эмас. Маънавият руҳий ва ақлий оламни ифодаловчи тушунчадир. У кишиларнинг фалсафий, ҳуқуқий, илмий, бадий, ахлоқий, диний тасаввурларни ўз ичига олади. Маънавият атамасининг асосида сўз ётади. Тушунчаларини изоҳлар эканмиз, айниқса, талаба ёшларни, қолаверса, ўсиб келаётган ёш авлоднинг қалби ва онгида ватанпарварлик руҳини сингдириш учун қуйидагиларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир:

*ўқитувчи дарсни таълим ва тарбия билан боғлиқ ҳолда ўтиб бориши;

*таълим муассасаларида китобхонлик маданиятини оширишга доир кўплаб тадбирларни уюштириш;

*ўтилаётган маънавият соатларини юқори савияда ўтказилишини назорат қилиш, ўқитувчи тақдимот слайдлардан фойдаланишни таъминлаб бориши;

*ижтимоий–гуманитар фанларни ўқитишда янгича ёндашувларга таяниш;

* таълим сифатига эришишда талабалар билан ўқув машғулотларида янгича инновацион ғоялар асосида ўтилаётган дарснинг моҳиятини англаб бориш кўникмасини талабалар онгида шакллантириб бориш;

*буюк алломаларимиз маънавий мерослари ҳақида маълумотлар бериб ўтиш;

* ёшлар маънавиятини оширишда мутафаккир Алишер навоий асарларининг ғоявий қарашларини ўргатиш ва улардан ибрат олишга ёшларни дунёқарашини шакллантириб бориш.

Айтишимиз ўринлики, бугунги глобаллашув жараёнида “ёт ғоялар” таъсирига тушиб қолаётган ёшларимиз ҳам йўқ эмас. Бу борада юртимизда маънавий етукликни шакллантирувчи бир қанча омиллар сезиларли ўз ўрнига эга бўлиб турибди. Ёшларни жипсликда, уларнинг орзу мақсадларини руёбга чиқариш, ёт ғоялар таъсирига тушиб қолган ўғил–қизларимизни бирдамлик, ватанга муносиб бўлиб етишишларида бир қанча марказлар ўз фаолиятини юритаётгани айтиш мақсадли ишлардан биридир.

Ўзбек халқи маънавиятини шакллантиришда долзарб аҳамият касб этувчи маънавиятни шакллантиришда улуғ мутафаккирларимиз ижодий меросини шакллантиришда Алишер Навоий асарлари ва маънавий меросини

ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Бу борада Ўзбекистоннинг биринчи Президенти И.Каримовнинг “юксак маънавият–енгилмас куч” асарида “Алишер Навоийнинг мўътабар номи, ижодий меросининг бойлиги, бадиий даҳоси замон ва макон чегараларини билмаслиги ҳақида доимо фахрланиб сўз юритамиз” деб таъкидлаб ўтганлар⁹¹.

Маънавиятни шакллантириб бориш жараёнида ёшларни фаоллик даражасини ортиб боришида ҳар бир педагог, қолаверса, давлат раҳбарлари, мутассади ташкилотлар ўз ҳиссасини қўшмоғи лозим. Натижада ёшлар маънавиятининг ўрни шаклланиб боради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият Т., 1994 йил.
2. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. Т; 1998 йил.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият–енгилмас куч. Тошкент. Маънавият –2008 й.
3. Маънавият ва маърифат асослари (тузувчилар С.О.Отамуродов ва бошқалар) Т; 1998 йил.
4. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз, назариясига чизгилар. Т., 1998 йил.

MAQOL VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xayrulla Ibragimov., JDPI o‘qituvchisi

Holixon Soatova, Jizzax shahar, 6-maktab o‘qituvchisi

Inson nutqining jozibasini oshiruvchi vositalardan biri maqollar hisoblanadi. Qadimdan ota–bolalarimiz o‘z nutqlarida, o‘zaro suhbatlarida nutqning eng ixcham va shu bilan birgalikda juda chuqur ma’no ifodalovchi maqollarimizdan keng foydalanganlar. Maqol nutqning shunday bir formasiki, bunda, juda ixcham iboralarda keng ma’no ifoda etiladi.

Maqol bir necha avlodlarning aql–idroki, hayotiy tajribalari yakuni, xalq donishmandligi maxsulidir. Kishilar maqollardan o‘zlarining estetik didlariga va mahoratlariga, shuningdek, o‘zlarining saviyalariga yarasha foydalanganlar va bahramand bo‘lganlar. Davr o‘tishi bilan insoin nutqi o‘sib, taraqqiy topib, mukammallashdi. Insoniyatning fikr kaliti – nutq. Nutqimizning ta’sirchanligi, kishilarga estetik zavq berishi maqollarga bog‘liq. Ko‘rinib turibdiki, maqollar nutq go‘zalligining manbai hisoblanadi.

Maqollarda nutqning butun–butun ma’nolari jamlangan. Bu haqida yozuvchi M.SHoloxov shunday degan edi: “...ehtimol xalq og‘zaki ijodining har bir turida aql–idrok maqollardagidek shu qadar kuchli va rang–barang namoyon bo‘lmagan. Uning(hayot) milliy harakteri, ijtimoiy tuzumi, hayoti, dunyoqarashi shu qadar yorqin mujassam bo‘lmagan.” Buyuk yozuvchi L.N.Tolstoy esa: “ har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko‘raman” deb tasvirlaydi.

Haqiqatdan ham, maqollarni yaratgan har bir xalq o‘zining butun his–tuyg‘ularini, o‘z ruhini, siymosini ushbu maqollarga singdiradi. Masalan: “tugilmagan o‘g‘ilga tut beshik” maqolida biz hech qachon shu maqolni yaratgan

⁹¹Каримов И.А. Юксак маънавият–енгилмас куч. Тошкент. 2008 й. 47–бет.

xalq rus xalqi emas, shu maqolga o'zining ruhini singdirgan dono o'zbek xalqi ekanligiga shubxa qilmaymiz.

Nutqimizda maqolning ahamiyati shunchalik kattaki, maqollarni o'rgatishga, o'quvchilarning nutqini o'stirishda ona tili darslarida alohida dars soatlari ajratib o'rgatilishi lozim. Bunga keying yillarda juda katta ehtiyoj sezilmoqda. Chunki nutqimiz qashshoqlashib, siyqasi chiqqan iboralar bilan to'lib bormoqda.

Agarda nutqimizning go'zal bo'lishi uchun, so'zlash odobi va muomala madaniyatini yoshlarning tafakkuriga singdirishga ehtiyoj bor ekan, maqollarning o'zi nima ekanligini ham o'quvchilarga o'rgatib o'tishimiz lozim. Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: maqollar qanday yaratiladi? Va unga qanday ta'rif bersa bo'ladi?

“Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati” da “Maqol turmush tajribalari ta'sirida tug'ilgan va xalq donishmandligi asosida ifodalangan, qisqa, she'riy shakldagi hikmatli so'zlardir., chuqur ma'noli iboralardir” deb ta'rif beriladi. Insonlar turmushda bo'ladigan voqea–hodisalarni kuzatish natijasida hayotiy zaruriyat tufayli ana shu voqea–hodisalarga o'zlarining fikr– mulohazalarini bildirganlar, bu bildirilgan fikr–mulohazalar ibratli bo'lib qolgan. Lekin, “hikmatli so'zlar” iborasi lug'atdagi ta'rifga unchalik mos emasday ko'rinadi. Negaki hech qachon so'zning o'zi hikmatli, ibratli fikrni avloddan–avlodga tashiy olmaydi.

Bu fikr, ya'ni so'zlarning “hikmatliligi” tilshunoslik qonunlariga ko'ra unchalik to'g'ri emas. So'zlar o'zaro grammatik qonunlar asosida munosabatga kirishganda ma'lum fikrni ifoda etadi. chunki lug'at sostavining o'zi (so'zlarning o'zi) til emas, lug'at sostavi til uchun qurilish materialidir.

Tilning lug'at sostavi til grammatikasi ixtiyoriga o'tgandan keyin juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Endi so'zlarning hikmatliligi masalasini ularning birligidan, ibora shaklidan qidirish kerak. Bizning nazarimizda keltirilgan ta'rif tarkibidagi “hikmatli so'zlar” birikmasidagi “so'zlar” o'rniga “ibora” so'zini kiritib, “hikmatli ibora” deb tuzatilsa to'g'ri bo'ladi.

Maqol – dastlab biror voqea, hodisaga qarata aytilgan, keyinchalik ko'chma ma'no kasb etgan ibratli fikrga aylangan. Masalan: Navoiyning aytgan bir qancha gaplari maqolga aylangan, yani ko'chma ma'no kasb etgan, lekin maqollar ko'chma ma'no hosil qilganda uning butunlay o'zgarib ketmaydi. Balki dastlab biror voqea– hodisalarga nisbatan aytiladi. Oddiy gap tarzida aytilgan fikr vaqt o'tishi bilan “ibratli fikr” darajasiga yetadi. Masalan: “betga aytganning zahri yo'q”, “ho'kizning boshiga ursang , oyog'i zirqiraydi” kabi.

Bulardagi ko'chma ma'no oddiy taraqqiyotdan kelib chiqqan. Biz yuqorida qayd etganimizdek, maqol oldin oddiy gap tarzida aytiladi. Lekin shu maqollarni kim to'qib chiqargan, aynan bir shaxsmi yoki xalqmi? Turkman olimi professor B.M. Qariyev maqollarning kelib chiqishi to'g'risida o'zining “ Turkmaniskiy poslovisi pogovarki” degan kitobida quyidagilarni aytadi: “odatda maqolni dastlab o'tkir kuzatuvchanlik o'z fikrini bir nechagina so'z bilanoq ravshan ifodalab berish qobiliyatiga ega bir kishi to'qib chiqaradi... ,keyinchalik kollektiv tomonidan qabul qilinishi, qayta ifodalanishi, sayqallanishi mumkin. Bu esa maqolning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday maqol dastavval bir konkret voqea, ayrim yagona bir holga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday o'rinli aytilgan gap omma orasida qanday ishlatilishiga qarab asta–sekin kengayib umumlashma ma'noga ega bo'lib boradi”.

Alisher Navoiyning ham bir qancha hikmatli iboralari bugungi kunda maqollarga aylanib ketganini bilamiz. Masalan: “Oz–oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra–qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”, “kishiga zeb–ziynat hikmat va donishdir”, “Tilga ixtiyorsiz– elga e‘tiborsiz” kabi hikmatli iboralari maqolga aylanib ulgurgan. Albatta, Alisher Navoiy o‘z hayotida tilga ixtiyorsizlik orqasida elga e‘tiborsiz bo‘lib qolganlarni, oz– oz o‘rganib dono bo‘lganlarni, shuningdek insonga xos zeb–ziynat uning hikmatga , donishmandlikka egaligidan kelib chiqishini juda yaxshi tasavvur etganlar. Natijada takidlangan iboralar dunyoga kelgan. Ammo Alisher Navoiy o‘zi aytgan shu iboralarning maqolga aylanishini nazarda tutganmi? Albatta yo‘q, mazkur gaplarni maqol darajasiga ko‘targan xalqdir.

Demak, maqolni ayrim shaxslar tomonidan to‘qib chiqarilgan degan qarash maqolning paydo bo‘lishiga, uning taraqqiyotiga uncha yopishmagan fikr deb qaramoq kerak..

SAIDA ZUNNUNOVA HIKOYALARIDA OILA MA’NAVIYAI MASALASI

Dilrabo Abdumurodova, JDPI magistranti

Ilmiy rahbar: dots., f.f.n.Y.Karimova

Saida Zunnunova hikoyalarida adibaning xarakter va g‘oya birligiga yetarlicha e‘tibor qaratganini kuzatamiz. Yozuvchi hikoyalarida ko‘tarilgan masala, muallifning zarur gapi – g‘oya o‘quvchi qalbini, shuurini o‘ziga xos bir ezgu niyatlar bilan fayziyob qiladi, ko‘nglidagi dardni zamon va zamondoshlarimiz qiyofasida ochib berib, o‘quvchini yashash, mehnat qilish, o‘z maqsadlari yo‘lida kurashishga chorlaydi.

Saida Zunnunova hikoyalari voqealari ko‘proq oila bag‘rida, maishiy hayot fonida kechadi. Bu hikoyalarda ayol adibaning, o‘zbek ayolining yuragi urib turadi. Bu hikoyalar qahramonlari milliy zamindan oyoqlari uzilmagan, zamon bilan hamnafas, katta insoniy muammolarni ham boshlaridan o‘tkazayotgan, ayni paytda, tor maishiy, oilaviy muammolar girdobida ham birda ko‘rinib, birda ko‘rinmay suzib borayotgan insonlar obrazi.

Adabiyotshunos I.G‘afurov yozganidek, hozir ma‘naviyat, axloqqa qarashlar rang–barang bo‘lib boryaptiki, adiba yaratgan ko‘plab qahramonlardagi hayo, andisha, tortinchoqlik, uyatchanlik bugungi kun o‘quvchisiga erish, eskilik sarqiti bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Lekin shuni e‘tirof etish kerakki, ana shunday ko‘rish, ana shunday tuyush, ming yillik qadriyatlarimizga bepisandlik, milliy ruhiyatimizdan uzoqlashishi natijasida nimalarni topdik, yo nimalarni yo‘qotdik. Topganlarimiz yo‘qotganlarimizdan salmoqliroq, qadrliroqmikan. Adibamiz hayot bo‘lganida bu savollar qarshisida nima derdi?!

“O‘zbek ayollarining or–nomusi, uyat–andishasi siz uchun behad qadrlil va siz ushbu odob–axloq mezonlari, o‘zbek ayoli ma‘naviyatining jon tomirlarini himoya qilishga hamisha tayyor edingiz”⁹², – deb yozadi Ibrohim G‘afurov Saida Zunnunova asarlarining yetakchi tamoyillari haqida. Darhaqiqat, o‘z vaqtida katta shov–shuvlarga sabab bo‘lgan, qaysidir ma‘noda qoralangan adibaning “So‘qmoqlar” qissasida ko‘tarilgan deyarli barcha muammolar, barcha masalalar aslida o‘zining muammolik darajasini, dolzarbligini bugun ham yo‘qotgani yo‘q.

⁹² G‘afurov I. Jasur ayol. Saida Zunnunova. Tanlangan asarlar. So‘zboshi.- T.: Sharq, 2001-yil, 9-bet.

Saida Zunnunova yaratgan qahramonlar oila sha'ni, ayollik burchi, onalik mas'uliyatini teran angelaydigan insonlar obrazi. Ana shu mas'uliyatni unutgan insonlar hayotda "Yolg'izlik"ka duchor bo'ladilar, "O'kinch" bag'rida iztirob chekadilar, "Ikki o't orasida" qoladilar. Yozuvchi ilgari surgan g'oyalar xarakterlaridan ham oldin o'z ifodasini sarlavhalaridayoq namoyon qiladi.

Ajralishlar, oila va nikoh masalalariga bepisand qarash, o'rtada bir umr ko'ngli yarim, shodligi kemtik farzandlar armoni adibaning "Ikki o't orasida" hikoyasining qahramoni Vazira nigohida ta'sirchan ifodalangan.

Vazira oila qurish ostonasida turgan qiz. U o'zi ko'ngil qo'ygan, hammaning havasidagi yigitga turmushga chiqyapti. Umrida bir marotaba bo'ladigan qutlug' tantana. Ammo quvonolmaydi, yurakdan xursand bo'lolmaydi. Uzatish kuni uni yelkasiga urib, peshonasidan o'pib, chin dildan baxt tilab, kuyovining uyiga kuzatib qo'yadigan otasi onasi bilan ajrashishgan. Endi Vaziraning dadasi boshqa ayolning eri, boshqa oilaning sohibi, o'zining bola-chaqalari bor.

Vazira qalbini tinmay kemirayotgan armonlar, cheksiz savollar orqali adiba o'z qahramoni qalbida kechayotgan ruhiy g'alayonlarni juda ishonarli ochgan: "Taqdirlari shunaqa bo'lgandan keyin nima qilsin? Kim biladi, bu taqdirga qaysi biri aybdor. Ularning yuraklarida ham bir armon, bir afsus bormikan? Balki ular ham Vazira kabi dardlarini ichiga yutishgandir. U yigirma yoshga kirdi. Esini tanigandan beri yuragining bir cheti jizillab turadi. U yoqqa borsa, bu yerda onasi ma'yus termilib qoladi. Boradi-yu, onasining nigohi ko'zidan nari ketmaydi. Iziga qaytadi. Xuddi shunday ma'yus nigoh bilan unda dadasi termilib qoladi. Lekin onasiga nima desin, aytolmaydi...

U doim mana shunday yashadi. Ikki o't, ikki olovning o'rtasida yashadi. O'rtalikda joy bormikan... Yo'q, o'rtada joy yo'q".⁹³

Ajrashgan ota-onalar, his-tuyg'ulari talash bo'lgan farzandlar, ikki tarafga – ikki qutbga bo'lingan hislar. Qahramon aytganidek, o'rtaliqda joy bormikan? Yo'q, o'rtaliq degan joyning o'zi yo'q. Agar ajrashgan oilalarning farzandlari ruhiy orom topadigan o'rtaliq bo'lganda edi, bu insoniy muammo tarzida adabiyotda ham mavzu darajasiga ko'tarilmas edi. Hikoyada Vazira ruhini qiymalayotgan iztiroblar tasviri yana shunday davom etadi: "Ular qachon ajralishgan, nega ajralishgan, Vazira buni ham bilmaydi. Dadasi ham ro'zg'orlik bo'lib ketgan, onasi ham. Arosatda Vazira qolgan, xolos. Nega uni o'ylashmagan? Tili zaboni yo'q uchun odam sanashmagandir".⁹⁴ Ko'rib turganimizdek, hikoya qahramoni Vazira o'yidan kechayotgan barcha savollar asar g'oyasini, muallifning kitobxonga yetkazmoqchi bo'lgan zarur gapini ifoda etib turibdi. G'oya ichidagi g'oya ya'ni yana o'tkirroq yozuvchi to'xtami "Ular qachon ajralishgan, nega ajralishgan, Vazira buni ham bilmaydi", degan so'zlarda namoyon bo'layotgandek, nazarimizda. Chunki adiba nazarida ajralishiga sabab bo'lgan qandaydir bahonalar baribir uning oqibati darajasida xunuk va og'ir emas. Shuning uchun ham "Ikki o't orasida" hikoyasidagi oilaning ajralishi sabablari ko'rsatilmaydi, oqibati esa Vazira. Uning shikasta, doimo kemtik qalbi. Atrofdagilarday to'kis, tugal oilasi yo'qligi. Otasi nikoh to'yi bo'layotgan qiziga olgan sovg'asini ham keyingi oilasidan yashirib beradi Vaziraga. Yozuvchi Vazira qalbidagi armon-iztiroblarini teranroq ochish uchun yana uni o'z xayollari girdobida ko'rsatadi:

⁹³Zunnunova Saida. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2001.303-b.

⁹⁴Zunnunova Saida. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2001.303-b.

“ – Vazira, dadangga choy damlab bergin, – dedi... Vazira javob bermadi. Uning ikkita otasi bor. Lekin na unisini, na bunisini astoydil, bag‘ri–bag‘ridan, dada deb chaqira oladi. Na unisiga, na bunisiga erkalik qiloladi”⁹⁵

Ko‘rib turganimizdek, adiba Vaziraning ko‘proq ko‘ngil kentikligiga, otasizlik iztirobini, mehrsizligini ko‘tarib yashagan qalb kechinmalariga o‘quvchi diqqatini jalb qilyapti. Demak, adiba qahramoni moddiy qiyinchiliklarsiz onasi bag‘rida o‘sgan bo‘lishi mumkin. Ammo ota mehri, e‘tibori, o‘z dilbandiga ota tomonidan beriladigan muhabbatni ona baribir muhayyo qilolmagan. Hikoya shunday yakunlanadi:

“ – Kuyov–kelinning baxti uchun! – deb qichqirdi kimdir. Qadah jarangladi. Vazira entikdi. Ko‘zyoshlari yuziga tushdi. U ro‘molini to‘g‘rilagan bo‘lib yuzini pana qildi. Uning yuragi unsiz xitob qilardi:

- Bag‘ri butunligi uchun, denglar odamlar! Farzandga ota–ona bag‘ridek keng, tinch joy bo‘lmaydi. Agar uni kentik qilib qo‘ysalaring, ostonasini tillo qilib bersalaring ham tatimaydi. Bu kentikni to‘ldirolmaysizlar. Bolalaringizga bag‘ri butunlikni tilanglar, odamlar!

Vaziraning ahvolini sezdimi, kuyov unga engashdi”. [⁹⁶308–bet]

Hikoyaning ruhidagi avval boshdan Vaziraning holatidan kelib chiqadigan og‘ir bir bosim o‘quvchini ham yuragini og‘ritib turadi. Lekin asarning oxiridagi birgina ana shu gap: “Vaziraning ahvolini sezdimi...” Sezish, his etish, tushunish, kechirish, qo‘llash, e‘zozlash oilaviy hayotning ustuni bo‘lgan tushunchalar ekanligiga adiba asar xotimasida e‘tibor qaratyapti.

ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМ ФАЛСАФАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР

Дилноза Артикова, ЖДПИ магистри

Илмий раҳбар: ф.ф.д., проф.в.б. Ш.Дониярова

Экзистенциализм фалсафаси XX асрнинг бошларида Германияда юзага келди. Бу даврда ижтимоий–сиёсий шароитлар биринчи жаҳон урушидан сўнг анча мураккаб эди. Германия урушда қатнашган асосий давлатлардан бўлиб бу урушда енгилиши муносабати билан ички сиёсий–иқтисодий аҳволи ниҳоятда оғир эди. Мамлакатда ишсизлик иқтисодий танглик кенг миқёсида тарқалганди. Германиянинг зиёли табақалари вакиллари руҳий инкирозга юз тутган эдилар. Бундай шароитда янги фалсафий ғояларнинг шаклланиши ва уларнинг янги фалсафий оқимга айланиши муқаррар эди. Экзистенциализм фалсафаси айнан шу оқимлардан бири бўлди. Лекин бу фалсафа бўшлиқдан пайдо бўлгани йўқ. Унинг назарий ва ғоявий асослари С.Керкегор ва А.Шопенгауернинг тушкунлик фалсафаси, Н.Бердаевнинг романтик ва мистик қарашлари, Ф.Несшенинг ва В.Дилтеннинг “ҳаёт фалсафаси”дан иборатдир.

Бадий адабиётда экзистенциализмнинг шаклланишига Ф.Калка, Марк Аврелий, Ф.Достоевскийларнинг ижоди катта таъсир кўрсатди.

Экзистенциализм фалсафасида “экзистенция” тушунчаси асос тушунчадир. У– “мавжудлик” деган маънони англатади. Экзистенциализм –

⁹⁵ О‘sha kitob, 308-b.

⁹⁶Zunnunova Saida. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2001.308-b.

борлиқ ва инсон борлиги масаласини кўтаради. Бу борлиқ инсондан ташқарида бўлгани учун ҳам инсон уни тўла идрок эта олмайди.

Инсоннинг мавжудлигида ҳаётнинг моҳияти очилмайди. Биз инсон борлигининг моҳияти нимада деган саволни ўртага ташлай олмаймиз. Шунинг учун ҳам инсон ҳаётининг мавжудлиги моҳияти, мазмуни биз учун сиз бўлиб қолаверади. Чунки, инсон бегоналашув жараёнига қадам кўйди.

Дастлаб инсон табиат кўйнида яшар экан, уни ўзидан ажратмайди ва табиатнинг бир қисми сифатида мавжуд деб ўйлайди. Лекин кўҳна ўтмишнинг бу даври узокқа чўзилмайди. Бунга Антик давр адабиёти мисол бўлади. Инсон тафаккури тараққиёти натижасида сунъий табиат яратиб, ўзини табиатдан ажрата бошлади. Бу бегоналашиш жараёни хусусий мулкнинг шаклланиши, шаҳарларнинг катталаниши натижасида жуда кучайиб борди. Инсон ақли яратган фан ва унинг ютуғи бўлган техника бегоналашиш жараёнининг кучайишига олиб келди. Ekzistensialistларнинг фикрича бегоналашиш жараёнининг учинчи босқичи ҳозирги замонда давом этмоқда. Бу босқичда инсон ўзининг ички оламидан, ўзининг ҳаётидан, мазмунидан ҳам бегоналашиб қолмоқда. Инсон ўзининг ботиний табиатини йўқотиб, фақат зоҳирий табиатда яшаб, унга мослашиб бормоқда. Инсон тобора ўзининг ички ҳиссиётларини йўқотиб жамият машинасининг бир заррачасига айланиб қолмоқда.

Ижод қилиш, янгилик яратиш инсон табиатидаги энг катта мўжизадир. Инсон жамиятда ўз ўрнини топа олмаса, бу ижодкорлик кучини юзага чиқара олмайди. Инсон қалби яширин қолар экан ундаги нур ҳам хиралашади. Қалби яширин инсонлардан ташкил топган жамият эса ёпиқ жамиятда айланиб қолади. Бундай жамиятда инсон ижод қилишдан маҳрум бўлиб, фақат моддий манфаатларга интилиб яшайди. Унинг моддий манфаатларини чегараси эса чексизликка қадар давом этади. Бу манфаатлар кетидан шахс ҳеч қачон ўз мақсадига эриша олмайди.

Ўлим ва ҳаёт ўртасидаги чегара ниҳоятда мураккаб бўлиб, бу тушунчани ечиб бериш учун экзистенциаллар инсоннинг ички оламига, эркинлик масаласига диққатни қаратадилар.

Ж.Р.Сартр ва А.Камю асарларида инсоннинг эркинлиги, эркин танлаш ҳуқуқи асосий муаммолардан бири сифатида кўйилади. Уларнинг фикрича, ўлим муқаррар бўлган ҳолатда ҳам инсонда эркин танлаш ҳуқуқи бор. Агар инсон ўз эркинлигидан воз кечса, бу ўлимдан ҳам оғирроқдир деб ҳисоблайдилар. Қисқаси, ўлим ҳақиқатдир, ўлим арафасида – инсоннинг ички кечинмаларида кескин ўзгариш содир бўлади. Бу ўзгариш натижада инсон аввал англаб етмаган нарсалари бирданига равшанлашади. Бас шундай экан, ички сокинлик буюк бир уммондир. Унинг олдида ҳаёт бўронлари кучсиздир. Биз таҳлилга тортмоқчи бўлаётганимиз Камюнинг “Бегона” қиссасида ҳам Мерсонинг ўлими олдидаги ҳолати ана шундай ички сокинлик ҳолатидир. Бу ички сокинлик, хотиржамлик оламига эсанкиратиб қўядиган йўқотишлар, ажралишлар натижасида кириш мумкин. Бундай зарбаларга фақат қалбда яширинган чексиз хотиржамлик ва ички сокинлик дош бериши мумкин. Инсон йўқотиш орқали бутун борликка булган ички сокинликни бирданига ҳис қилади. Агар инсон қалби ёлғиз бўлган бўлса, эндиликда бу ички сокинлик орқали бутун борликка туташади. Экзистенциализм фалсафаси намоёндаларининг фикрича, кундалик ҳаётда инсон илоҳий кучни

хис қилиши мумкин эмас. Чунки унинг ҳаётий ташвишлар билан банд эди. Ғайритабиий ўлим ва ҳаёт ўртасидаги чегарадош вазиятда инсон илоҳий кучдан нажот истаб, унга интилади. Демак, қўрқув исқанжасида инсон онги илоҳий кучга яқинлашади. Инсоннинг ички эркинлиги унинг ҳаётий йули билан чегараланган бўлиб, у мавжудликнинг мақсадини очиб бера олмайди.

Инсон қалбида азалдан икки қарама–қарши куч курашади – бу эзгулик ва ёвузликдир. Бу кураш бор экан инсон инсонийлигича қолади. Лекин бу кураш натижасида инсон ички хотиржамликка эриша олмайди. У бахтсизликка, чексиз изтиробга маҳкумдир. Унга на яқинлари, на дўсту–биродарлари, на севган одамлари, на бойлик роҳат бера олади. Инсоннинг ички оламидаги зиддият бутун оламга хосдир. Бироқ бу зиддиятдан чиқиб кетиш йўллари инсон учун мавҳумдир. Мавҳумликни равшанлантириш учун инсон ички экзистенциал руҳий кўтаринликка эришиши ёки тубанлашиши лозим деб ҳисоблайди немис экзистенциалистлари.

Франсуз экзистенциализми эса булардан бирмунча фарқ қилади. Унинг йирик вакиллари Ж.Р.Сартр ва А.Камюдир. Иккинчи жаҳон уруши уларнинг дунёқарашида туб бурилишларни ясади. Уларнинг қарашлари ривожланиб янги фалсафий фикрлар ва ғоялар пайдо бўла бошлади. Масалан, Ж.Р.Сартр экзистенциализмнинг моҳиятини яратувчи асарларида илмий–академик услубдан воз кечиб адабий асарлар ёзишга ўтди. Унинг “Борлик ва йўқлик” қиссаси, “Озодлик йўли” каби асарларида инсоннинг ишчан фаолияти – эркинликдир. Яъни инсоннинг ички оламидаги эркинлик унинг ички моҳиятидан келиб чиқиб, айрим вазиятларда намоён бўлади.

Урушдан кейинги йилларда Сартрнинг ахлоқ мавзусига бағишланган асарлари Франция зиёлилари ўртасида норозилик ва танқидий қарашларга сабаб бўлди. Сартрнинг экзистенциалистик қарашлари динсизлик руҳига эга бўлган. Шунинг учун ҳам Сартр инсоннинг ички олами, борлигини ташқи оламдан ажратиб бир–бирига қарама–қарши қўяди. Уларни бирлаштирувчи илоҳий кучни рад этган. У инсон ва табиат, инсон ва жамият, инсон ва илоҳиёт масалаларини чуқур таҳлил этади ва инсоннинг мавжудлиги унинг феноменлигини тасдиқлайди. Зотан эса “феномен” тушунчаси ҳодисанинг пайдо бўлишига сабаб бўлган моҳиятни очиб беради ва моҳият тушунчасини ўз ичига қамраб олади. Ички борликни ўрганишда эса адабиётнинг олдига тушадиган соҳа йўқ. Адабиёт инсон ички оламини тасвирлаётгандек туюлади, бироқ бу ташқи таассурот холос, аслида у инсониятнинг ички оламини, қалбини тинглашга уринади. Бу айниқса шеърият мисолида теранроқ англашилади. Шу боис экзистенциалистлар шеъриятга алоҳида эътибор қаратдилар. Чунки шеъриятда инсон ички олами ниҳоятда яққол намоён бўла бошлаган ва “*мушоҳада йўли*”, “*тафаккур фалсафаси*” номини олган экзистенциализм оқими ХХ аср адабиётида инсон ва тараққиётнинг тўқнашувини таҳлил этишни, бу тўқнашувда ёлғизланиб қолаётган инсон қалбини ёритишни ўз олдига мақсад қилиб қўйди. Экзистенциалистлар ХХI асрдаги техника тараққиёти, яратилаётган кашфиётлар ва алоқа воситалари инсонни янада ёлғизланиб қолиши ва табиатни ҳис қилмаслигига, натижада эса ўз ички оламида ҳам йўқлик, бўшлиқнинг пайдо бўлишига олиб келади.

Хуллас, ёзувчининг фалсафий хофизаси кенг ва чуқур эканлигини билган ҳолда қахрамон руҳияти ички оламидаги ўзига хос бўшлиқ, ёлғизлик фалсафаси бугунги кун адабиётида устуворлик қилмоқда.

“ҲАҚҚУШ ҚИЧҚИРИҒИДА”ГИ ЙИГИРМА ЕТТИНЧИ АФСОНА

Алхиева Ситора ЖДПИ талабаси

Илмий раҳбар: ф.ф.н., доц. Юлдуз Каримова

Қадимдан башарият бахти, унинг тўла-тўқис ҳаёт кечирishi учун курашган қаҳрамонлар улуғланиб келинган. Бу ҳолат халқ оғзаки ижоди намуналарида: эртақ–у дostonларда, ривоят–у афсоналарда ўзининг ёркин намунасини топган. Улар енгилмас ўғлонлар, жасур хотин–қизлар, халқ орзусидаги паҳлавонлар–у қаҳрамонлар сиймосида гавдалантирилган.

Қадимги шарқ адабиётида **афсона**, қадимги антик адабиётда **миф** дея юритилган мадҳномалар минг–минг йиллардан буён ҳалигача инсониятни ўзига ром этади ва бу мангу меросдир. “Миф (юнонча *mythos* – ривоят, ҳикоя, масал) – халқ оғзаки ижодининг энг қадим даврларида пайдо бўлган, воқелик (олам) ҳақидаги тасаввурларни аниқ образлар воситасида акс эттирувчи ривоявий асарлардир”.⁹⁷ Мифология олам ва одам яратилиши, табиат ҳодисалари, куёш чиқиши ва ботиши, шамол эсиши ва момогулдурак сабаби, сув тошқини; ер юзида эзгуликнинг ёвузликка қарши, адолатнинг адоватга қарши каби азалий курашларини ўзида акс эттиради.

Қадимги юнон мифологиясини худолар ва маъбудларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Уларнинг одамлар ҳаётига саодат улашганликларини эътироф этишса, баъзида эса аксинча, маъбудларнинг одамларга қабохат истаганини ҳам инкор этишмайди. Маъбудлар айниқса, токи куч–қудрати етгунча одамлар ҳаётига фаровонлик ва рўшнолик олиб кирган қаҳрамонларга мислсиз машаққатлар юклашган. Буни биз Гомернинг “Иллиада” ва “Одиссея” дostonларида, Софоклнинг “Шоҳ Эдип” трагедиясида, қадимги шумер афсонаси “Гилгамиш”да кўришимиз мумкин.

Бунга яна мисол антик адабиётнинг юксак намуналаридан бири “Прометей” ҳақидаги афсона эътиборимизни ўзига тортади. Бу қаҳрамон кўплаб ижодкорлар тилида талқин қилинган бўлиб, уни “трагедиянинг отаси” дея улуғланган қадимги юнон фожеанависи Эсхилнинг “Занжирбанд Прометей” трагедиясида ва бошқа кўплаб ижодкорлар асарида учратамиз. Энг муҳими антик адабиётда ҳам, бугунги кун адабиётида ҳам Прометей улуғланади. У ҳақдаги афсонани севимли шоиримиз Омон Матчон ҳам қаламга олган бўлиб, ушбу улкан қаҳрамонлик шоирнинг “Ҳаққуш қичқириғи” асарининг йигирма еттинчи афсонасидан ўрин олган.

Хўш, минг йиллардан буён тилга олиниб келинаётган Прометей қаҳрамонлиги нимада эди? Гап шундаки қадимда одамлар совуқ қаҳратонда, қоронғу зулматда, ёруғликдан мосуво бўлиб кун кечирган даврда тангрилар салтанати бўлмиш Олимп тоғидаги меҳробдан бир учкун олмоққа журъат қилиб, одамларга олов тақдим этган титан (ярим маъбуд, ярим одам) Прометей ҳисобланади. Адабиётлардан маълумки, худолар(юнон маъбудлари)дан бемаслаҳат қилинган ҳар қандай иш “шаккоклик” саналган. Бу гуноҳ учун қаҳрамонлар аёвсиз уқубатларга дучор этилган. Ана ўша машаққатлар гирдобига ўзини беаёв отган, керак бўлса, жонини фидо қилишга тайёр қаҳрамонимиз Прометей Олимп худоси Зевс ҳукмига маҳкум

⁹⁷У.Ҳамдамов, А.Қосимов Жаҳон адабиёти. Тошкент – 2017, 28-бет

бўлади ва олис тоғ чўкқиларидан бирига занжирбанд қилинади. Бу унинг қисмати эди, аммо унинг инсониятга қилган хизмати мангуликка татигулик бўлгани учун муқаддас номини абадийлаштирди. Прометейнинг титан бўлганини айрим манбалар билан асослашимиз мумкин. Ҳатто, унинг олтин мўйнани қидириб йўлга чиққан “Ясон ва унинг аргонавтилари ” афсонаси билан боғлиқлиги бор экан. Жумладан, Ясон ўзининг “Арго” номли тезювар кемасида баҳодирларни олиб олтин мўйнали терини олиб келиш учун йўлга чиққанида улар орасида қудратли Геракл ҳам бор экан. Орада бу баҳодир сафдан айро бўлади ва олис ўрмон ортидаги денгиз четида қад кўтариб турган яланғоч қояга чиқади. Шунда у “Михлаб кўйилган Титанни кўради. Геракл ростгўйлик маъбудаси Фемиданинг ўғли Прометейни Титан Иопетни танийди”.⁹⁸ Шунинг билан бирга ер юзидаги одамзот ундан тарқалганлиги, қахрамонимиз сув ва тупроқдан дастлабки одамларни бунёд этганлиги, маъбуда Афина эса жонбахш нафаси билан уларга ҳаёт бағишлаганлиги каби кўплаб қизиқарли маълумотлар келтирилади.

Қадимда одамлар ўз ҳаётларини қуришга ожиз, табиатнинг даҳшатли кучи қаршисида ҳимоясиз эканлар. Прометейнинг одамларга раҳми келиб уларга ёрдам қилмоқчи бўлади. У ўз дўсти, Зевснинг ўғли темирчилик худоси ва устаси Гефестнинг олдига боради. Ёнартоғ остида Гефест ўз устахонасида жавлон ураркан, ёрдамчилари бўлмиш сиклоплар босқон билан кўрадаги ўтга дам берар устахонаси ичида ялт–юлт этиб учаётган муқаддас учқундан биттасини кўлидаги қамиш поя ичига беркитган Прометей уни одамларга келтириб беради. Шу учқундан ер юзини ёруғлик қоплайди. Одамлар ўзларини эркин ва қудратли ҳис қила бошлайдилар. Аммо бундан сўнг қахрамонни Зевснинг қаҳру ғазаби кутаётган эди. Прометейни унинг ҳукми билан улкан тоғ бағридаги тошга занжирбанд қилишади. Кўксига олмос тиғ уриб, қояга михлаб ташлашади. “То Геракл келиб озод этмагунча, занжирбанд Прометейга Зевснинг қанотли ити – жезтумшукли бургут мисли кўрилмаган азобларни беради, ҳар куни унинг жигарини чўқиб, қонини сўради...”⁹⁹

Атоқли шоиримиз Омон Матчон ҳам келтирилган мифлардан таъсир олиб ўзига хос шеърини афсона яратган. Шоир унинг титанлигига эмас, кўпроқ **одам боласи** эканлигига эътиборини қаратади. Бежиз уни: “Мажнун каби фидойи ошиқ”, “Насриддиндек хушдил бир сиймо”¹⁰⁰, дея таърифламайди. Прометей чўпон бўлиб тоғ–у тошларда кўй боқиб юрар экан, ажиб манзарага дуч келади. Ушбу манзара Олимп тоғи бўлиб, шоир у ердаги худолар кошонасини тасвирлаган бўлса не ажаб:

“...Хув феруза қоялар узра
Товланармиш турфа саройлар.
Фаришталар учиб юрармиш,
Гижинглармиш қанотли тойлар ”

Сўнг маъбудлар базм қилишади, уларни юқоридан ҳаяжон билан кўриб турган чўпонни сезишмайди. Чўпон мазкур ёруғ ва муҳташам тоғ ёнбағридаги маъбудлар кошонасига, уларнинг базму жамшид

⁹⁸ Ф.Бойназаров, Жаҳон адабиёти. Тошкент. “Зарқалам” нашриёти 2006. 11 бет

⁹⁹ У.Ҳамдамов, А.Қосимов Жаҳон адабиёти Тошкент 2017

¹⁰⁰ О.Матчон. “Ҳаққуш қичқирғи”. Тошкент 1979. 92 бет

кураётганлигига шохид бўлиб, ер юзида равшан жой ҳам бор эканда, фақат кундуз эмас, оқшом ҳам ёруғлик бўлиши, ҳарорат бўлиши мумкинлигига амин бўлади. Ҳайратдан донг қотган чўпон ўзини одамлар истиқомат қилувчи водийга томон отади. Мана шу ерда Омон Матчоннинг таҳайюл оламининг ўзига хослигига гувоҳ бўламиз. Омон Матчон юнон афсонасидан фарқли ўлароқ Прометейга ёнаётган оловдан учкун олдирмайди—**учкун унинг кўзларида ёнади**, гўёки ёруғлик қудрати унинг кўзларига ўрнашади, акс этади. Бу рўшноликдан эса бутун дунё ёришади. Оқибатда у одамларга етишга улгурмай маъбудлар томонидан қўлга олинади. Лекин энди худо Зевс ҳам ҳеч нарса қила олмайди. Унинг одамларни нобуд қилиш учун оловни яширишга урингани бекор кетади. Энди бор аламини Прометейни аёвсиз жазолашдан олмоқчи бўлади. Бу орада эса оқшом маҳали ер юзини ёруғлик ва ҳарорат қоплаганидан одамлар ҳайратга тушадилар: бу кимнинг иши ва қандай сир? Сўнг одамларда мулоҳаза бошланади. Шоир буни шундай таъриф этган:

“Ярим карахт, уйкутоб жонлар
Не бўлганин билмай турган пайт,
Сал сергакроқ биров дедику:
Кўзларининг ёнишини айт!
Ва ҳамманинг тушди эсига
Чўпон сирли қараб кетгани.
Кўзида ўт, бир муҳим гапни
Айта олмай, нолон кетгани.
Шушу элда тарқалибди тез
“меҳр кўзда” деган ибора
Ва туғибди ишқни, дўстликни
Кўзлардаги ўша шарора”¹⁰¹

Кўзидаги учкун орқали зулматни ёрган Прометей занг қояга михлаб ташланади. Зевснинг буйруғи билан жезтумшукли бургут қаҳрамон кўксини ҳар куни чўқийди. Бирок, зулмат кетидан ёруғлик келажак. Геракл Прометей боғланган занжирни узиб ташлаб, унинг кўкрагидан олмос тиғни суғуриб олади ва чароғон кўзлари билан ер юзига, унга озодлик олиб келган худолар билан яраштирган қаҳрамонга боқади. Зевс эса Гефестга Прометей боғланган занжирнинг бир халқасидан узук ясаб, унга титан михлаб кўйилган қоя парчасидан кўз солишни буюрибди. Маъбудлар хумдори Прометейга бу узукни асло кўлидан кўймай ҳаммавақт тақиб юришни сўрайди. Бу дунё занжирбанд қилинганлигига ишора экан. Бу ерда “занжирбанд” сўзини албатта, мажозий тушунмоғимиз керак. Зевс узук тимсолида Прометей қилган “гуноҳ”и учун олган азоб—укубатларини бир умр эслаб, ёдида сақлаши, тавба—тазарру қилиши кўзда тутилган бўлса, биз уни қилган савоби дунёни халқа каби (занжир эмас) ўраб олганлигига ишора деб тушунаимиз. Лекин юнон худолари камчиликлардан холи бўлмаганлиги боис (афсоналарда бу ҳақда кўп тўхталган) бу ерда Прометей эмас, Зевснинг ўзи катта гуноҳ қиладики, беайб титанни азобларга мубтало этади. Бу ҳам қайсидир маънода одамларга мерос бўлиб қолишидан далолат эди, гўё.

¹⁰¹Омон Матчон, “Ҳаққуш қичқирғи”, 94 бет

Мозийдан бугунга қадар калтафаҳм кишилар томонидан узокни кўра билгувчиларнинг хасратга гирифтор қилинганлиги озми?! Бир кўшиқда айтилганидек: “эзгуликнинг кўзлари нам яралгани”га тарихдан юзлаб, минглаб мисоллар келтириш мумкин—ку, ахир. Шоиримиз Омон Матчон айнан шу маънода афсонани яқунлайди:

Кўхна гап бу!
Лекин бугун ҳам
Минглаб асл ўғлонлар бандда.
Қалблар ёнар ва кузгунлар ҳам
Қилмайдилар ўз ишин канда!

ZULFIYA QUROLBOY QIZINING “O, HAYOT!” HIKOYASI XUSUSIDA

Zarpullayeva X, Bosimov S, JDPI talabalari

**O‘zim o‘lsam, ezgu otim qolsa bas,
Qolib mangu otim, tirik bo‘lsa bas.
Faqat yaxshilik qil, tila yaxshi nom,
Noming manguлик—la yashay olsa bas.**

(Yusuf Xos Hojib)

Insonlar hayotga keladi va ketadi. Umr bu azim yo‘l. Yo‘lda ketayotgan inson turfa voqea, hayot manzaralariga guvoh bo‘ladi. Bu voqealar kimgadir ibrat, kimgadir oddiy bir holat. Inson tug‘iladi va vafot etadi. Umrning uzun yoki qisqaligi ajalni daf etolmaydi. **“O, hayot!”** hikoyasining qahramoni Nazar chol esa dunyo quliga aylangan odam. U ko‘p yashash umidida. Inson hayotning asl mazmunini tushunsa edi, bu hayotning naqadar azob ekanligini his qilardi. Shunday bo‘lsada, umr o‘tadi, vaqt o‘tadi. Lekin inson harakatda bo‘ladi. O‘z farzandi, pushtikamaridan bo‘lmish yurak qo‘ri, ko‘zining oq–u qorasi uchun “ ortimdan chirog‘imni yoqsin “ deya erta–yu kech to‘xtamaydi, zahmat chekadi, tinimsiz mehnat qiladi. Inson oldiga maqsad qo‘yadi va shu tomon harakatlanadi. Lekin uning o‘zi bu uzoq umrni qanday yashash, qaysi yo‘llar bilan mazmunli o‘tkazish haqida o‘ylamaydi. Nazar cholning birinchi bor ko‘rpa–yostiq qilib yotib olganligini olaylik. Uni kasallik yiqitmadi, uni biror og‘riq yiqitmadi. Nazar cholning bu vaziyatga tushishiga kim aybdor? Albatta uning o‘zi. Ko‘p umr ko‘rish muammolarini, qalb og‘rig‘i, iztiroblarini, ruhiy tushkunlikni bartaraf eta olmaydi. Nazar ota Abdulla Qahhorning “ Mahalla” hikoyasi qahramoni Hikmat buvadan farqli o‘laroq, o‘zgacha fikr yuritar, hattoki kampiri va tengqurlari aytgan “ u dunyo” ga ishonmasdi. Uning oyog‘iga bolta urayotgan narsalar horg‘inlik va behollik. **Jaloliddin Rumi aytganidek: “Horg‘inlik bu– besamar o‘tgan umr keltirib chiqargan ruhiy tushkunlik. Behollik esa Alloh bergan ne‘matlarni avaylamaslik oqibatida kelib chiqadi. Insonning eng katta dushmani– uning o‘zidir”.**¹⁰²

U o‘zi boshida turmasa ishlamaydigan nevaralari ham binoyiday, balki ishlarni Nazar choldan ham a‘lo bajarib qo‘yganligini ko‘rib hayron bo‘ladi. Chunki oilaviy sharoitda ko‘p yumushlar menga bog‘liq deb o‘ylaydi. Hayot davom etadi. Bir inson o‘zini hayotdan uzib olishi mumkindir, lekin “hayot mexanizmi” hech qachon to‘xtamaydi. Umr bebaho ne‘mat. Uni keraksiz

¹⁰² Jaloliddin Rumi Ichingdagi ichingdadur.–T: Yangi asr avlodi, 2016. 39–bet.

hashamatlar: hovli– joy, mol–mulk, qo‘r–quti uchun sovurib yubormaslik kerak. Bu hayotda insonga hech narsa vafo qilmaydi. Nazar chol yoshligini o‘sha ikki ko‘zi charaqlab, shijoati o‘ziga sig‘may qolgan vaqtlarini, yigitlik davrini shu matohlar uchun sovurib yubordi. **Ahmad Yugnakiy** o‘zining **“Hibat ul–haqoyiq”** asarida bu boradagi mana bunday fikrlarini keltirib o‘tgan:

“Bu dunyo qo‘nib yana ketadigan rabotdir, bu rabotga tushib o‘tuvchilar qonib keta beradi. Oldingi karvon yo‘l bosib o‘zib ketdi, (shu) oldingi karvon necha manzilni (bosib) o‘tdi. Bu dunyo lazzati bebaqo, uning mazali kechgan payti yeldek o‘tib ketadi. Yangi eskiradi, yigit qariydi, (beli) quvvatli bo‘lsa bukiladi, kuchi ketadi”.¹⁰³

Insonda ikki xil nafs bor: biri moddiy bo‘lsa, ikkinchisi ma‘naviy. Faqat moddiy nafs bilan bog‘lanib qolish insonni hayvonga yaqinlashtirib qo‘yadi. Qalb bu Allohning nazargohidir. Allohning zikrisiz qalb huddi suvdan chiqib qolgan baliqqa o‘xshaydi. Vaqtida u suvga qaytarilmasa o‘lib qolishi mumkin. Nazar chol nima uchun oxiratni tan olmaydi. Sababi u “bu dunyoni” dedi. Shu dunyo uchun yelib yugurdi. Oxirida esa hammasini tushundi. Uning bu dunyoda yashashi uchun sabab “yashash” umidi, lekin hayotga bog‘lab turadigan rishtalari uzilgan. Xalqimizda bir maqol bor: **“Hayotga qanday qarasang u shunday ko‘rinadi”**. Inson bu hayot o‘tkinchi ekanligini bilsa, bu hayotda xuddi mehmon kabi yashaydi va yo‘l ozig‘i hozirlaydi. Bu besh kunlik dunyo o‘tkinchi ekanligini esa kech anglaydi. Alloh inson zotiga tafakkur ne‘matini berdi. Bu ham bir hikmat. Bu hayotni teran tushungan inson albatta yaratguvchisini taniydi. Nafsoniy istaklar insonni ne ko‘ylarga solmaydi, lekin nafs ham Allohning zikri oldida ojiz qoladi.

“Kema suzishi uchun suvga ehtiyoj sezadi. Ammo suv kemandi ichiga kirsam kemandi cho‘ktiradi. Kema uchun suv ne bo‘lsa, mo‘min uchun dunyo shudir”. Haqiqatdan, biz bu dunyoda yashash uchun dunyodagi narsalardan foydalanishimiz kerak. Lekin nafsoniy dunyo istaklari ichimizga kirsam albatta u insonni halok qiladi.

Psixodinamik nazariyada Amerika psixologi E.Erikson inson umrini 8 ta davrga ajratarkan, shundan sakkizinchisini kechki yetuklik 60 va undan yuqori yosh davri deb atagan. Bu yoshda inson fe‘l–atvorida o‘tgan umri haqida o‘ylash, o‘limga tik qarash va **undan qo‘rqmaslik**, salbiy tomondan hayot faoliyatidan noumidlik, ko‘ngil sovish tuyg‘ulari, umrni bekorga o‘tkazganidan qayg‘urish, vaqtni tez o‘tayotganidan, o‘zidan, boshqalardan qoniqmaslik, umrini boshqatdan yashashga xohish, o‘limga tik boqish ko‘proq namoyon bo‘ladi.¹⁰⁴

Xuddi shunday holatlar Nazar cholda ko‘rilsada, lekin u o‘limdan qattiq qo‘rqar edi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz joizki, inson dunyoda yashar ekan yaxshi amal qilishi, atrofdagilarga yordam berishi, og‘ir kunida yondosh bo‘lishi, qanchalik uzoq umr ko‘rmasin insoniy fazilatlarini yo‘qotmasligi lozim. Har bir inson Nazar otaga o‘xshab bu dunyoning asriy vakiliga aylanib qolishni xohlamasdan, balkim umrining so‘ngigacha yaxshilik, ezgulik qilishga intilib yashashi, xuddi **Huvaydo o‘zining “Rohati dil” asarida aytganidek: “Biz shunday yashaylikki, atrofdagilarga, yaqinlarimizga malolimiz tegmasin”**– degan maqsad bilan

¹⁰³ Ahmad Yugnakiy Hibat ul–haqoyiq. Ziyozon kutubxonasi. Bahrom G‘oyib tarjimai. 2002.9–bet

¹⁰⁴ E.G‘oziyev. Psixologiya. –T: O‘qituvchi 1994. 42–bet.

yashaylik. Yashashdan o‘zga maqsadi yo‘q Nazar chol qancha o‘limlarni ko‘rsada, eshitsada to‘g‘ri xulosa chiqara olmadi. Zero, hamma narsa Allohnikidir va unga qaytarilajak. Nazar chol umrini uzaytirish haqida o‘ylaydi. Shuning uchun “ko‘p asabiylashmasligim kerak, ko‘p yeyish inson uchun zarar” deb o‘ylashi ham uning hayotni naqadar sevganligidan dalildir.

Alloh insonni sinov uchun yuborgan, u dunyodagi darajasi esa bu dunyodagi qilib o‘tgan ishlarining natijasiga bog‘liqdir. Har birimiz dunyoga kelar ekanmiz, hayot qiyinchiliklariga uchraymiz. Bu qiyinchiliklarni qanday yengib o‘tish esa o‘zimizga bog‘liqdir. Hayot faqat yeb–ichishdan iborat emas. O‘z qobig‘iga o‘ralib olgan insonni esa bu sinovlardan o‘tishi qiyin. Nazar chol umrining so‘ngida o‘zi uloqtirgan idish ahvoliga tushib qoldi. “Qaynoq choyni ichayotganda kuyib qolmasin deyishsa kerak–da” ga fahm–farosati yetgan chol umrining mazmunini anglay olmaydi. Insonlar qilayotgan e‘tibor insonning darajasini belgilaydi. **“Hayot– tolesizlik emas, lekin qalblarimiz Allohdan uzoq bo‘lgani uchun tushkundir. Allohni eslanglar. U zot ham sizlarni eslaydi”– Anvar Ahmad.**

**Gunohingga tavba qilib yig‘lab yurgil,
Ketarman deb yo‘l boshiga borib turgil.
Ketganlarni ko‘rib sen ham ibrat olgil,
Ibrat olsang yotmish yering bo‘lur gulzor.**¹⁰⁵

НОДИРА ИЖОДИДА МАЪНАВИЙ ВА ЛАФЗИЙ САНЪАТЛАРНИНГ ЎРНИ

**ХадичаТўхтамишова, ЖДПИ талабаси,
Илмий раҳбар: ф.ф.н.,доц. С.Эшонкулова**

Минг йиллик тарихга эга бўлган мумтоз адабиётимизда бадиият масаласи ҳамиша шеър аҳлининг диққат марказида бўлиб келган. У ёки бу ижодкор салоҳияти ҳақида сўз борганда унинг нималарни тасвирлагани эмас, асосан қандай тасвирланганлигига эътибор қаратилган. “Ҳар бир давр ижодкорлари ўтмиш шеърини ва бадиий насрини ҳар томонлама ва чуқур ўрганиб, буюк маликул каломларимиз меросларига хос юксак ғоявийлик ва баркамол санъаткорликдан, услубий ранг–баранглик ва бадиий гўзалликдан баҳраманд бўлиб, кўплаб адабий муъжизалар, бетакрор ва сержозиба нафис дурдоналар яратганлар”¹⁰⁶.

Жумладан, адабий асарларда шеърини санъатлардан фойдаланиш маҳорати ҳамма даврларда бадиий санъаткорликнинг асосий қирраларидан бири сифатида баҳоланган.

Ўзбек халқининг атоқли шоираси Нодира ўзининг бой адабий мероси билан ўзбек адабиёти тарихида мумтоз ўринга эга бўлган ижодкордир. Унинг қалбидан қуйилиб чиққан ғазаллари беназир санъати ва теран тафаккурдан гувоҳлик беради. Унинг ғазаллари ҳали ҳамон руҳимизни ғалаёнга солиб, дилларга ҳаловат бағишлайди, ўқиган сари яна ўқигингиз, байтлар катидаги сеҳрли ва сирли маъноларни тўлароқ ва теранроқ англаб олгингиз келади.

¹⁰⁵ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. –Т: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1991. 188–bet.

¹⁰⁶ Ҳоҷиаҳмедов А. Ҳусни таълил. –Т.: Янги аср авлоди, 2008. –Б.5.

Шоира шеърятда кўлланилган маънавий ва лавзий санъатлар унинг ғазалиёти нақадар жозибадор ва гўзал эканлигидан далолат беради. Шу билан бирга Нодира лирикасининг ғоявий ва бадий қиммати, санъаткорлигининг ўзига хос қирралари, поэтик тасвир воситалари доираси, уларни кўллаш усуллари, янада аниқ номоён бўлади.

Биз, Нодиранинг девонидан ўрин олган “Тийрадур субҳо нашотим, соқий келтур шароб”¹⁰⁷ матласи билан бошланувчи ғазалини таҳлил қилар эканмиз, у анъанавий етти байтдан иборат, радифсиз ғазал ҳисобланади.

Ғазал матласида бошланган айрилиқ ҳислари унинг мақтасигача давом этган. Амир Умархоннинг ўлими туфайли Нодира назмидаги шодлик ва бахт туйғулари ўрнини алам ва айрилиқ истироблари тасвири эгаллаган. Ҳақиқий ишқ тасвири куйланган, тасаввуфий рамз–у тимсоллар чуқур ишланган, соғинч ва армон ноталари ривож топган.

Байт:

***Тийрадур субҳо нашотим, соқий келтур шароб
Шоми ҳижрон зулматида жоми майдир офтоб.***

Шоиранинг ёқимли тонглари энди қоронғу эканлиги учун май қуювчига шароб келтиришини буюради. Айрилиқ ҳижрон зулматидан қутилишига ҳатто май қадахи унга офтоб каби деб айтиб ўтади.

Матлада “тийра” ва “субҳ” сўзлари орқали тазот, “соқий”, “шароб”, “жоми май” сўзлари орқали таносуб, “зулмат” ва “офтоб” сўзлари орқали яна бир карра тазот санъати байт жозибасини оширган.

Байт:

***Моҳи тобон юзлим, ҳар лаҳза ёд этсам сени,
Дуд бағримдан чиқар, ўт ичра тушгандек кабоб.***

Ой юзлим сени ҳар лаҳза ёдимга олсам, худди кабоб ўтга тушгандек бағримдан дуд чиқар дейди. Шоира қисматига тушган ғам юки шу қадар оғирки юз мингдан бир улуши изҳор этилганда, фалак ҳам бардош беролмай, қадларини кўтаролмай букилган эмиш.

Байтда “моҳитобон юзлим” сўзи орқали ташбеҳ, “дуд ўт ичра” сўзлари орқали таносуб, “дуд бағримдан чиқар ўт ичра тушгандек кабоб” мисраси орқали яна бир карра ташбеҳ санъати моҳирона кўлланилган.

Байт:

***Банд этиб зулфинг аро, кўнглимни озод этганинг,
Қуш учиргандек эрур боғлаб аёгига таноб.***

Навбатдаги байтда сочинг аро кишан солиб, кўнглимни озод этганинг, худдики қушнинг оёғига арқон боғлаб учиргандек ишдир дейилган. Байтда шоира ёр васлидан ҳеч қачон кўнгили узиб бўлмаслиги, соч ўрими билан банди қилиниб, кўнглимни озод этганинг гўё қуш оёғига сиртмоқ солиб учиргандек иш дея чиройли ташбеҳлар орқали ўз кечинмаларини тасвирлаган.

Байтда “банд этмоқ” ва “озод этмоқ” сўзлари орқали тазот, “банд этиб”, “боғлаб” сўзлари орқали таносиб каби маънавий санъатлардан истехзо этган.

¹⁰⁷ Нодира-Комила. Девон. Нашрга тайёрловчи М.Қодирова. -Т.: Халқ мероси, 2001. -Б.55.

Байт:

***Кошки, оҳим насмидин тахаррук айласа,
Ёрким рухсориға гул баргидин солмиш ниқоб.***

Кошки, оҳим шамолидан тебранса, ёримнинг юзидаги гул баргидан қилинган ниқоб дейди. Байтда шоира ёрининг юзини кўришга муштокдир. Қанийди, оҳларимнинг елидан ёримнинг юзидаги гул баргидан қилинган ниқоб тебранса, қимирласа, ёримнинг юзини кўрармидим деган ҳасрат ила битган. Байтда оҳимнинг насмидин юзидаги ниқоби тебранса деб, муболаға санъатидан унумли фойдаланган.

Байт:

***Ҳажр ошиби балодирким, анинг ташвишидин
Қатраи сиймоб янглиғ кўнглим айлар истироб.***

Айрилиқ оҳи ёмондирким, ҳатто унинг ташвишидан кўнглим бир қатра симобдек изтироб чекар. Шоиранинг айрилиқ дардида умрининг сўнгигача ёлғиз ўтиши, оҳ–у фарёд чекиб, кўнгили изтиробларини гўё бир қатра симобдек кўргани ушбу байтда акс эттирилган.

Байтда “ошук”, “ташвиш”, “изтироб” сўзлари орқали таносиб, “қатраи сиймоб янглиғ” орқали ташбех санъати орқали қалб оғриқлари очиб берилган.

Байт:

***Шод эди ул шоҳи даврон васли бирла хотирим
Айш даврониға солди давру гардун инқилоб.***

Оламлар шоҳи (умр йўлдоши Умархон) васли билан шод эди хотирим, яхши турмушимга фалак инқилоб солди, яъниким айш давронида фалак бизга жабр қилди, инқилоб қилди дея Амир Умархоннинг ногаҳоний ўлими тасвирланган. Ушбу байтда мисралар ўртасида шартли тазот юзага келган.

Байт:

***Бевафолардек сени ҳаргиз фаромуш айламас,
Комила ёдингни айлар то дами явмул–ҳисоб.***

Мақтада шоира ўз ёрини бевафолардек ҳаргиз сени ёд айламас, аммо Комила то қиёмат кунигача сени унитмагай, ҳар он ёдида саклагай дея ёрига бўлган чин севгиси ва садоқатини намоён этган.

Мақтада “фарошуш” ва “ёдингни айлар” сўзлари орқали тазот санъати истифода этилган.

Хулоса қилиб айтганда, шеърий санъатлар Нодира ижодида ифодаланган ғояларнинг ҳаётийроқ, таъсирчанроқ ифодаланишига, лирик қахрамоннинг ёркинроқ гавдаланишига, мисралар, байтлар, бандларнинг лавзий назокати, мусиқийлиги, жозибаторлигини таъминлашга хизмат қилган.

“MASHAQQATLAR GIRDOBI” ASARIDA QAHRAMONLARINING XARAKTER XUSUSIYATLARI

Umriniso Radjabova, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. N.Soatova

XIX asr “globallashuv” asri, bozor iqtisodiyotiga o‘tish asri, ilm–fan asri va hakozolar bilan atash mumkin bo‘lgan XIX asrni “odam savdosi” asri kabi chirkin nom bilan ham atash mumkin. Aynan shu asrning aynan shu “xususiyati” ni

qalamga olish uchun yozuvchidan katta iqtidor (kuzatuvchanlik, emotsiya) va shu bilan birgalikda matonatni (negaki, yozuvchi asarni yozish davomida o'zini "odam savdosi"ning qulidek his etadi) talab etadi.

Odam savdosi yohud ona yurtidan judolik tuyg'ulari yog'irilgan asarlar juda ko'p, lekin e'tiborimni Iqbol Mirzoning "Bonu" hamda Zulfiya Qurolboy qizining "Mashaqqatlar girdobi" romani tortdi. Chop etilgan son sanoqsiz asarlar orasida aynan, shu ikki asar muhtaram birinchi Prezidentimiz aytganidek **"Ey, odamzod, ko'zingni och, sen nima uchun yashayapsan, inson degan nomga munosib bo'lish uchun nima qilyapsan?"**¹⁰⁸, degan savollarni qat'iy qilib qo'yadigan, ularni baholi qudrat javob izlaydigan insonlarni shukur qilishga, to'g'ri yo'ldan adashmaslikka o'rgatadigan asarlar sarasiga kiritsak yanglishmagan bo'lar edik. Shu o'rinda Zulfiya Qurolboy qizining "Mashaqqatlar girdobi" romaniga to'xtalsam. Yozuvchi asarni Davron obrazi orqali tilga kiritadi. Uning boshidan kechirgan sarguzashtlari asnosida bayon qiladi. Asarning bosh qahramonlaridan bo'lgan Davron obraziga kelsak uning xarakter xususiyati yozuvchi tomonidan juda yorqin darajada ochib berilgan uning o'z tilidan aytgan: **"Mana, qanoat qilmaslikning oqibati!–derdim qon bo'lguncha adadsiz o'y –hayollardan boshim g'ovlab,yo'lak bo'yab borib–kelarkanman.–Mana,nihoyasiga yetay deb qolgan ilmiy ishni tashlab, hovliqqancha yetib kelgan manzirim!Meni ilmning uvoli tutdi!..."**¹⁰⁹ kabi mulohazasidan yoki asarning boshqa o'rinlarida personajlarga bo'lgan munosabatida uni insoniylikka, odamiylikka hech qachon xiyonat qilmaydigan shaxs sifatida gavdalaniradi. Asarda uni yaqinlari uchun jon kuydirishi, ayniqsa Nargizaga qilgan shilqimligi uchun Asliddinni adabini beradi.Bu Mushtlashuvdan xabar topgan Hakim Nazarichga bergan javob esa diqqatga sazovordir.

–O'sha ayolni tanishingizmi?Bunchalik jon kuydirib himoya qilganingizga qaraganda.. –Ayol faqat tanish bo'lsagina himoya qilinadimi? (39–bet)

Qahramon xarakteridagi vazminlik,aql bilan ish tutish xususiyatlari ham mavjud bo'lib,Bunda uning ortiqcha ishlamasligida,ortiqcha isyon qilmasligida "Behuda chiranish belni chiqaradi" qabilida ish tutishida ko'ramiz.Asarning ba'zi bir o'rinlari ham mavjud bo'lib bu kitobxonni Davron obraziga salbiy jihatdan yondashishiga olib kelishi mumkin.Rost uning Saodat ismli rafiqasi bor ammo asar boshidayoq yozuvchi ko'p o'rinlarda er xotin munosabatlarinig yaxshi emasligiga ishoralar beradi.Saodat ham eriga ko'ngilsiz bo'lganini asar yakunida ko'rishimiz mumkin .Axir atiga 2 oy ichida erining nikohidan chiqmay boshqa bilan nikohdan o'tish hatto dinga ham zid emasmi? Ya'na bir jihat e'tiborliki Hakim Nazarich nima uchun Davronni tanladi?Chunki yozuvchi Davronning odamiylik jihatlarini ko'rsatib bergan o'rinlarini asos qilib berdi.U jondan sevgan ayoli Gulruh yaqin kelganda ham unga nisbatdan ehtiromini saqlaydi.Nihoyat birga bo'lishga imkon tug'ilganda esa "omonatga xiyonat"qilishdan vijdonan azob chekdi.

Asarning ya'na bir qahramoni Xusan obrazidir .Bu obraz o'zining og'ir o'tmishidan nadomat chekgan va bundan juda pushaymon shaxs sifatida

¹⁰⁸ Islom Karimov Adabiyotga e'tibor – ma'naviyotga, kelajakka e'tibor. Risola

¹⁰⁹ Qarang. Зулфия Қуролбой кизи. Машаққатлар гирдоби. [www.ziyouz.com.67–bet\(Bundan](http://www.ziyouz.com.67–bet(Bundan) keyingi iqtiboslar shu nasrdan olinadi va beti qavs ichida ko'rsatiladi)

tasvirlanadi. Inson dunyoga kelibdiki, uning hayoti hattolardan iborat undan xulosa chiqarish esa insonning o'ziga bog'liqdir.

“Tiriklayin qo'milgan tirik odamlar “ joylashgan sovuq kimsasiz o'rmonda nochorlikdan, tushkunlikdan kishilarning taqdirga isyon qilishga o'zligini yo'qotishi, botiniy dunyodagi eng oliy tuyg'ularni ham hech ikkilanmasdan halok etib yuborishga qodir. Kulfat ham o'ziga xos narsa. Tutqun hisoblanmayotgan hamda tushkunlikka berilmayotgan, boshqa ayollarga o'xshab oh-vohga berilmay, boshqalarni qismatiga ayblamayotgan birgina inson Gulruh edi. U “nur va yorug'lik “singari zulmatga kirib keldi. Uning parchalanmas zanjirlarini o'zining qat'iyati, irodasi bilan barbod qildi.

Gulruh obrazi o'ziga ishongan shu bilan birgalikda muloyim kamtar ayol sifatida gavdalantirilgan. Gulruhning “ignasi kabi tili “ham o'tkir edi, u kirgan joydan albatta qon chiqadi, shu xislati esa uni xafa qildirib qo'ymasligi boshqalar oldida bo'yin egib qolishdan asraydi. **O'zining jasurligi oqibatida Alisherning hayotini saqlab qoldi hamda razil Po'lat Damirovichning changalidan omon chiqdi. Erkaklar kamdan kam ayolni hurmat qiladi va sevadilar. (116–bet)** Bu esa ularni o'sha ayolga sajda qilishga olib boradi. Har ishga qodir Po'lat Damirovich ham shunday mag'rur ayol oldida bosh egadi. Gulruhning to'g'riligi, qalban pokligi hayot sinovlariga dosh berolganligi tufayli haqiqiy baxtga sazovor bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asar hayot mashaqqatlariga yengilmaslikka, shukur qilishga o'rgatadi. Gulruh tilidan aytganda: Hayotning qadriga yetmaydigan odam undan osonlikcha voz kechib qo'ya qoladi. Odam yashagisi kelib turganida emas, yashagisi kelmay qolganida yashashga harakat qilishi kerak. Yashaganda ham unaqa–bunaqa emas, hayotning jon yeridan mahkam tutib yashash kerak.

INSON PSIXOLOGIYASIDA STRESS HAMDA UNING YUZAGA KELISH XUSUSIYATLARI

Nodira Eshquvvatova, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Shaxs moddiy va ijtimoiy muhitning o'zaro aloqasi natijasida kamolotga erishib boradi. Ijtimoiy munosabat bo'lmagan joyda shaxsning qaror topishi va rivojlanishi ham bo'lmaydi. Bunda ijtimoiy aloqalar, jamiyat, guruh hamda turli jihatdagi jamoalar hayotiga faol kirishib ketish shaxsni shakllantirishning muhim omillari sifatida maydonga chiqadi. SHaxsni unib, o'sib kamol topishida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha bir xil bo'lavermaydi. Chunki odamning xulqiga, munosabatiga va aloqalariga yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, odatlari va nihoyat, vaziyat ham ta'sir etadi. Ushbu ta'sirlarni yengib o'tish jarayonida stress holatlariga duch kelishi mumkin. Stressni to'g'ri hal qilish uchun uni keltirib chiqaruvchi omillarni yaxshi bilmoq kerak.

“Stress” inglizcha so'z bo'lib tanglik, zo'riqish, bosim degan ma'nolarni anglatadi. Oddiy tilda tushkunlikka tushish, deyiladi. Bu ba'zida oz fursat, ba'zida uzoq vaqt kechishi mumkin. Ikkala holatda ham insonga zarar yetkazadi. Ya'ni, aqliy faoliyatning susayishi, yurak urishi tezlashishi, qon tomirlari kengayishi, ichki kasalliklar – oshqozonda yallig'lanishlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Stressning salbiy tomonlaridan yana biri miyani tormozlab, ma'nosiz fikrlaydigan darajaga tushirib qo'yishi mumkin. Agar odam tez-tez tushkunlikni boshidan kechirsa, atrofdegilar bilan gaplasha olmaydigan holatga tushadi. Stress natijasida inson o'ziga past baho bera boshlaydi. Oqibatda o'zini yolg'izdek, yaqinlariga keraksizdek his qiladi. Sekin-asta ruhiy tetiklik yo'qola boshlaydi¹¹⁰.

Stress – inson organizmining haddan tashqari zo'riqish, salbiy emotsiyalar yoki oddiygina zerikishga bo'lgan javob reaksiyasidir. Stress chog'ida inson organizmi yechim izlashga undaydigan adrenalin gormoni ishlab chiqaradi. Kichik miqdordagi stress hamma uchun kerak, chunki bu kishini fikrlashga, muammodan chiqish yo'lini topishga undaydi, stressiz hayot zerikarli bo'lar edi. Boshqa tomondan, agar stress juda ko'p bo'lsa, tana zaiflashadi, kuchsizlanadi va muammolarni hal qilish qobiliyatini yo'qotadi. Stress muammosiga bir qancha ilmiy tadqiqotlar bag'ishlangan. Stressning paydo bo'lish mexanizmlari batafsil o'rganilib chiqilgan. U juda murakkab jarayondir. U bizning gormonal, asab va qon tomir tizimlarimiz bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, og'ir stresslar sog'liqqa ta'sir qiladi. Stress immunitetni pasaytiradi va ko'plab kasalliklarga sabab bo'ladi (yurak-qon tomir, oshqozon-ichak va boshqalar). Shuning uchun stressli vaziyatga qarshi tura olish va hayotga ijobiy qaray olishni o'rganishga to'g'ri keladi. Amaliy nuqtai nazardan stressni tushunish uchun uning asosiy alomatlarini ko'rib chiqish zarur. Ular quyidagilardan iborat:

- Doimiy bezovtalik, tushkun holatda yurish, ba'zida bu holatlar hech qanday sabablarsiz yuzaga keladi.
- Yomon, notinch uyqu.
- Depressiya, jismoniy zaiflik, bosh og'rig'i, charchoq, biron faoliyatga kirishishga xohishning yo'qligi.
- Diqqatni kamayishi, bu o'qish yoki ishlashni qiyinlashtiradi. Xotiradagi muammolar va fikrlash jarayonining sekinlashishi.
- Dam olish, ish va muammolarni bir chetga chetga surib qo'ya olmaslik.
- Boshqalarga, hatto eng yaxshi do'stlarga, oila va yaqin kishilarga qiziqishning yo'qligi.
- Doimiy paydo bo'ladigan yig'lash, ko'z yosh to'kish, xafagarchilik, umidsizlik, o'z-o'ziga achinish hissi.
- Ishtahaning pasayishi – ba'zida esa aksincha: oziq-ovqatni ortiqcha yeb yuborish.
- Ko'pincha asabiy odatlar rivojlanadi: kishi labini tishlaydi, tirnoqlarini tishlaydi va hokazo.
- Kishida befarqlik, odamlarga ishonchsizlik paydo bo'ladi¹¹¹.

Stress psixologiya sohasida chuqur o'rganilgan bo'lib, quyidagi turdagi stresslar ajratiladi:

1. Eustresslar (“foydali” stresslar). Muvaffaqiyatli yashash uchun har bir inson stressning biroz miqdoriga muhtojlik sezadi. Bu shaxsning rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Bu holatni “uyg'onish reaksiyasi” deb atash mumkin. Bu uyqudan uyg'onish kabidir. Ertalab ishlashga borish uchun avvalo yotoqdan turish va uyg'onishingiz kerak. Ish faolligiga erishish uchun sizga turtki – kichik dozada adrenalin kerak. Eustress aynan shu vazifalarni bajaradi.

¹¹⁰ Gaffarov A.Z., Yugay A.X. Pedagogik amaliyot. Toshkent, 2002. 34 b.

¹¹¹ Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh.A., To'ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y. 87 b.

2. Distresslar (zararli stresslar) keskin zo'riqishlarda yuzaga keladi. Stressning aynan shu turi barcha tushunadigan stressni ifodalaydi. Stressning sababi aslida insonni ta'sirlaydigan, bezovta qiladigan har qanday narsa bo'lishi mumkin. Misol uchun, tashqi sabablarga biron nima tufayli paydo bo'lgan bezovtalikni kiritisa bo'ladi (ish joyini o'zgartirish, qarindoshning o'limi). Stressning ichki sabablari hayotiy qadriyatlar va e'tiqodlarni o'z ichiga oladi. Bunga shaxsiy baholashi ham kiradi. Stress va depressiya ayol va erkaklarda taxminan teng darajada uchrashi mumkin. Biroq, har bir organizm o'z xususiyatlariga ega. Agar siz o'zingizda stress haqida so'zlashi mumkin bo'lgan alomatlarni sezsangiz, birinchi navbatda holat sababchilarini aniqlash kerak. Stressning oqibatlaridan ko'ra sabablarini bartaraf etish ancha osonroq. "Barcha kasalliklar asabdan" degani yolg'on emas. Klinik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, kichik stresslar tanaga zararli emas, hatto foydali. Ular odamni hozirgi ahvoldan chiqish yo'lini topish uchun rag'batlantiradilar. Depressiya og'irroq, uzoq muddatli shaklga o'tmasligi uchun har bir shaxs o'zini tarbiyalashi, irodasini rivojlantirishi lozim. Ko'p odamlar stressga qarshi antidepressantlar, spirtli ichimliklar yordamida kurashishga odatlanishgan. Biroq bunday yo'lni tanlash ularga o'rganib qolish va mutaxassis yordamsiz ulardan voz kecha olmaslikka olib keladi. Barchaga ma'lumki, yaxshi uyqudan ko'ra yaxshiroq dori yo'q. Shunday ekan, siz qanday uxlashingiz haqida o'ylab ko'rishingiz kerak.

Xulosa qilish mumkinki, stressning yomon tomonlari bilan birga ijobiy tomonlari ham mavjud. Me'yorda bo'lsa muammolarga sabab bo'lmaydi. Aksincha qaysidir ma'noda insonni harakatga undab turadi. Turli vaziyatlardan chiqishda turtki bo'ladi. Faqat insondan stressli holatlarda juda tushkunlikka tushib qolmaslik, undan oqilona tarzda, aql bilan foydalanish talab etiladi. Zero, stress insonni emas, inson stressni boshqarishi, unga egalik qilishi darkor. Chunki inson stresslar ichida yashay olmaydi. Biroq stressdan butunlay holi bo'lishning ham iloji yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gaffarov A.Z., Yugay A.X. Pedagogik amaliyot. Toshkent, 2002. 34 b.
2. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh.A., To'ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y. 87 b.
3. <http://hozir.org/o-zbekiston-republikasi-xalq-talimi-vazirligi.html?page=9>
4. [http://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/psixologiya/Psixologiya%20\(B.Umarov\).pdf](http://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/psixologiya/Psixologiya%20(B.Umarov).pdf)
5. [http://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/psixologiya/Umumiy%20psixologiya%20\(F.Xaydarov,%20N.Xalilova\).pdf](http://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/psixologiya/Umumiy%20psixologiya%20(F.Xaydarov,%20N.Xalilova).pdf)

ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA ORIF KO'NGIL MUSHOHADASI

Guliston Sayfullayeva, JDPI talabasi

Inson dunyoga kelibdiki, nega?!, nima uchun?! Yashayapman degan savollarga javob qidirib, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishga intilib yashaydi. Ollah bergan umrni arziqli, "odamlarning naqshi" bo'lib, nafsga emas, sobit e'tiqodga suyanib o'tkazgan insonning ikki dunyosi ham obod bo'ladi. Bu borada Hazrat Alisher Navoiy g'azallarida "Kamil inson" g'oyasi va unga yetishmoq yo'llari mohirona ko'rsatib berilgan.

Qu'yg'il o'zluqni gar odam ersang, inak shayton,

Kibr ila nayladi ko‘r, oncha ibodat aylab.

(“Navodir ush–shabob”, 60–g‘azal, 5–bayt)

Inson o‘tkinchi dunyo mayllariga berilib, haqiqiy “o‘zligini” unutmazligi lozim. Shoh Mashrab aytganidek: “Dunyo tovusdek jilvalanib oldiga kelsa” ham “ketgil nariga deya ketiga ura olgan”, haq yo‘lda har narsaga qodir, imonli insongina mashaqqatlari mevasini tatiydi, ya‘ni Haqning muruvvatiga loyiq bo‘la oladi. So‘zlarimizning isbotini Hazrat Navoiyning yuqoridagi bayti misolida ko‘rishimiz mumkin: O‘z “men”ingga, nafsingga, jamiki bad illatlaringga erk berishni qo‘ygilki, mana har qancha taqvodor bo‘lmasin, kibrga berilib Ollohning bandasiga sajda qilishdan voz kechganligi uchun jannatdan quvilgan shayton nimaga erisholdi...

Anglag‘il ahbob qadrim, bular bo‘lmay ne naf,

Gar senga aflok avji uzra taxt–u johdir.

(“Navodir ush–shabob”, 155–g‘azal, 6–bayt)

Yaqinlaring, senga faqat yaxshiliklarni istovchi aziz birodarlaringdan yuz burmaginki, zero, ular yoningda bo‘lmas ekan mavjlangan to‘lqinlar ustiga o‘rnatgan taxting–u ummonday beqiyos mansabingdan ne naf?! Alisher Navoiyning ushbu baytlarini Mirzo Boburning “Ahbob yig‘ilmoqni g‘animat tutingiz” deya boshlanuvchi ruboyisi bilan muqoyasa qilish mumkin.

Misri izzat istabon, zindoni g‘amdin qochmakim,

Mohi Ka‘non taxtiga bois mazallat chohidir.

(“Navodir ush–shabob”, 158–g‘azal, 6–bayt)

Mumtoz adabiyotda Misr jamiki ne‘matlar, boyluk–u to‘kinlikning majmui bo‘lgan shahar sifatida e‘tirof etiladi. Navoiy bu o‘rinda Misrga baxil akalarining ig‘vosi bilan qul bo‘lib kelgan Yusuf payg‘ambarning chekkan g‘am– anduhlari, mazallat–haqorat chohida tortgan azoblariga bo‘lgan bardoshigina uni Ka‘non taxtiga muyassar etganini talmeh sa‘nati orqali mazmundor tasvirlagan. Ya‘niki, dunyoning g‘am–tashvishlaridan qo‘rqib harakatsiz qolmagin, zero ular irodangni metindek pishitib, o‘z yo‘lingni topishda ko‘makdosh bo‘ladi.

Ne Faridundin asar chun qoldi, ne Jamshiddin,

Hashmating Jamshid–u Afridung‘a hambar bo‘ldi tut.

(“Navodir ush–shabob”, 69–g‘azal, 5–bayt)

Muallif Navoiy bu baytda dunyoning afsonaviy, qudratli hukmdorlari Faridun va Jamshidlarni talmeh sifatida qo‘llab ibrat olmoqlikka undaydi. Nafsiga qul, moddiyat boylıklariga ruju qo‘ygan, va alaloqibat oltinlari bilan yer yutgan Faridun olamning tizgini uzugimning ko‘zida deya kibrga, mol–dunyo havasiga berilgan Jamshid kabi shuhratparastlarning taqdiri ne bo‘lganiga urg‘u beradi.

Dunyo charxpalagida yashashga navbating keldimi?! “O‘zlig”ingni topishga intilib yasha, foniyl dunyo tashvishlari oyog‘ingdan chalmasidan ilgariroq Baqoga erishish yo‘lini topgilki, Jamshid–u Faridunga vafo qilmagan dunyodan sen ham vafo kutma.

Ey Navoiy, chu o‘tar yaxshi– yomon g‘am yemadik,

Ulki davronda erur ishrati kam, mehnati ko‘p.

(“Navodir ush–shabob”, 67–g‘azal, 9–bayt)

Ey Navoiy, deya murojaat bilan boshlangan ushbu baytda shoir barcha zamondan qolgan “eski g‘am”ni deb tashvish tortmaginki, umr davronida ishrat–u xursandchilik kam, ammo mehnat–u azob undan ortiqligini aytib o‘tadi.

Hazrat Navoiy tomonidan g‘am, alam tushunchalariga alohida tasnif berilib, alam – boshdan kechirilgan jamiki shod va dardli kunlar, g‘am deganda esa, kelgusida ro‘y beradigan yaxshi– yomon holatlar nazarda tutilgan.

Darhaqiqat, birgina “Navodir ush–shabob”dan oligan yuqoridagi baytlari orqali insonning yashashdan maqsadini, umr mohiyatini Alisher Navoiy orifona va didaktik tashbehlar bilan o‘quvchiga go‘zal tarzda yetkazib bergan.

1. A. Navoiy. Tanlangan asarlari IV tom." Navodir ush– shabob".2000yil Toshkent.

ABDUQAYUM YO‘LDOSHEVNING “YOLG‘ON VA HAQIQAT” HIKOYASINING BADIY–G‘OYAVIY XUSUSIYATLARI

Allaberdiyeva Mo‘mina, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar : f.f.n., dotsent, N.Soatova

Epik asarlar orasida hajm jihatidan boshqalariga nisbatan kichik bo‘lgan hikoya janri qisqa bo‘lsada, o‘zida ko‘plab insonlarning taqdirini ochib bera olishi bilan xarakterlanadi. Xususan, adabiyotshunos olim D.Quronov hikoya janri haqida: “Tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqti qisqaligi bois hikoyaning hajmi kichik, syujeti sodda, personajlari kam bo‘lishini taqozo etadi. Hikoyanavisning mahorati, eng avval, hikoyabop voqeani tanlay olishi bilan belgilanadi. Zero, har qanday voqea ham hikoyabop emas, ijtimoiy–estetik qimmatga molik voqeani tanlay bilish lozim. Chunki hikoyada xarakterning ayrim chizgilarigina namoyon boladi, shu bois voqeaning o‘zi ahamiyatli mazmun mohiyatni namoyon etish uchun yaroqli bo‘lishi lozim”¹¹²,–deydi.

Abdulla Ulug‘ov esa hikoya janrini quyidagicha tavsiflaydi: “Hikoya ,asosan, qahramon hayotidagi bitta voqeani qalamga oladi va bu–janrning asosiy belgisidir. Lekin bitta voqea qissa, hatto romanga ham material berishi mumkin. Demak, asarni hikoya janriga mansub etish uchun yana uning hajman kichik bo‘lishi, xarakterning tayyor holda berilishi; syujet asosida “voqealar rivoji” emas, balki “voqeaning ichki rivoji” (ya‘ni voqea voqeaga tarzida emas, voqeaning epizodidan epizodga tarzidagi rivojlanish)yotishi talab etiladi”¹¹³. Hajm jihatidan ixcham bo‘lsa–da o‘z zimmasiga katta vazifani yuklovchi hikoya janrining shu kabi bir qator talablari mavjud. O‘zbek hikoyachiligida betakror asarlar yaratayotgan ijodkorlar salmoqli qismni tashkil etadi. Shulardan biri bugungi

¹¹² Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018. 76–bet

¹¹³ Abdulla Ulug‘ov “Adabiyotshunoslik nazariyalari. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018. 133–bet

adabiy jarayonning yirik vakillaridan biri Abduqayum Yoʻldoshevning hikoyachilik mahorati haqida toʻxtalib oʻtmoqchimiz.

Abduqayum Yoʻldoshev oʻzbek adabiyotida oʻz uslubiga, oʻz soʻziga hamda oʻzining qahramoniga ega ekanligi bilan kitobxonlar qalbidan chuqur oʻrin olgan. Yozuvchi asarlarining qiymatibaland saviyasi, uslubining oʻziga xosligi, qahramonlarning xatti-harakatlari va ichki kechinmalarining hayotiyliigi bilan belgilanadi. Abduqayum Yoʻldoshev hikoyalarida qahramonlar masalasi muallif uchun bosh muammo sanaladi. Asarni esa qahramonlarsiz va ularning ruhiy olamisiz tasavvur qilib boʻlmaydi. “Yolgʻon va haqiqat” hikoyasida ham insonlar ruhiyati oʻziga xos tarzda qalamga olingan. Tabiiyki, bizda yozuvchi hikoyani nega bunday nomlagan degan savol tugʻilishi albatta oʻrinlidir. Bu savolga javobni kitobxon hikoyani mutolaa qilish jarayonida: yolgʻon va haqiqat orasidagi ziddlik, yani yolgʻon ortida tubsiz jarlik, haqiqat ortida esa jannatga yetishish umidi borligini tushunib yetadi. Harkim haqiqatni oʻz imoni, hayotiy tajribasi va farosati darajasida taniydi. Yolgʻon soʻz bilan inson ruhiyatini oʻldirish, haqiqat bilan esa umidsiz ruhga jon bagʻishlash mumkin. Ushbu hikoyada ham ota onasining orzusini amalga oshira olmagan, turli yolgʻonlar bilan otdan tushsa ham egardan tushmaydigan noqobil farzand obrazi tasvirlangan. Hikoya Oʻzbekovullik Rayimberdi cholning kenja oʻgʻli Gʻoziquq shaharda qolib ketishi bilan boshlanadi. Hikoyada ne-ne umidlar bilan farzand tarbiyalab, oliy maʼlumotli qilib, qarigan chogʻimda belimga quvvat boʻlar deb umid qilgan chol kampirning orzulari chilparchin boʻlgan holda tasvirlanadi. Hikoyada ishtirok etgan har bir qahramon oʻziga xos xarakterga ega. Yozuvchi uchun asarlarining qiymati u tanlagan obrazlar bilan belgilanadi. Abduqayum Yoʻldoshev ushbu hikoyasiga bosh qahramon qilib Gʻoziquqni tanlagan. U juda kekkaygan, maqtanchoq, bitta rost soʻzni badalini oʻntayolgʻondan oladigan yigit. Qishloqdan shaharga borib, oʻzini avliyo darajasida baholaydigan xudbin shaxs. Gʻoziquq universitetni bitirgandan soʻng qishloqqa qaytgisi kelmaydi. Rayimberdi cholning oʻziga qolsa, oʻqishini bitirgan zahoti oʻgʻlini dikonglatib sudrab kelardi shahardan. Lekin kutilmaganda Gʻoziquq lotoreyadan “NEKSIYA” yutib oldi!!!

Ushbu oʻrinda yozuvchi kutilmagan omaddan sarxush Gʻoziquqning yangi mashinani yuvib, ogʻaynilari bilan ziyofatma ziyofat yurib, uyda unga intiq boʻlib turgan yaqinlarini unutish holatini aks ettiradi. Tabiiyki, bu xursandchiliklar uzoqqa choʻzilmasligidan dalolat berar edi. Bir necha qirq kunlardan keyin Gʻoziquq moddiy ehtiyoj tufayli qishloqqa qaytadi. Oilasi uni samimiy kutib oladi. Bilamizki, oʻzbek xalqi mehnatkash va mehmondoʻst xalqdir. Rayimberdi chol qoʻy soʻyib xalqqa osh beradi. Ziyofat avjiga chiqqan bir paytda Gʻoziquq mast ahvolda chayqalib, gandaraklab hovli oʻrtasida turgan mashina yoniga bordi—da, kutilmaganda mashinaga daranglatib urdi va : “Bu.... deya boʻkirdi, bu mashina otamning xizmatida boʻladi... Bir umr. Koʻngli boʻshab ketgan Rayimberdi chol koʻzlariga yosh oldi”. Yozuvchi Gʻoziboy soʻzlarining taʼsir doirasini shunday belgilaydiki, ushbu holatda padaribuzrukvor koʻzlariga yosh olmasligining iloji yoq edi. Albatta, har bir ota – ona oʻz zuryodidan shunday eʼtibor, iltifot kutadi. Ammo bu holat uzoqqa choʻzilmaydi. Yana bir oʻrinda yozuvchi Gʻoziboyning naqadar yuzsiz kimsa ekanligini shunday izohlaydi:” Gʻoziboy peshinga yaqin uygʻonib, otasi bilan naridan beri soʻrashdi va dangaliga koʻchadi: Ota, uch yuz ming pul kerak. Ota sergak tortdi. Tinchlikmi, bolam? Offormleniyaga, chexolga “...Gʻoziboyning hali bunday yolgʻonlari ancha edi.

Farzandning yagona ilinji qanday bo'lsa—da pul olib ketish. Mehribon ota mulohaza qilib qarz havola—yu ,o'limligi uchun yig'gan pullarni jamlab berib yubordi. G'oziquk mashinani minib yana shu kundan boshlab yo'qolib qoldi. Shu O'rinda bugungi jamiyatimizda ham G'oziqukga o'xshagan kimsalar ko'pchilikni tashkil etishini aytib o'tishimiz lozim. Oilasining rizqini olib, choyxona yu kafelarda og'aynilari bilan baham ko'radigan insofsiz kishilar. Bunday insonlar ota —ona orzusi bilan qiziqib ham ko'rmaydilar. Chunki ular hayotning maishiy tashvishlari bilan ovora bo'lib, o'zligini unutmagan kimsalardir. Rayimberdi cholning esa ko'nglida ham bir niyati bor edi. G'oziquk kelsa— yu , chol kampirni oppoq "NEKSIYA"ga mindirib, Buxoroyi sharifga ziyoratga olib borib kelsa, axir Buxoro aziz— avliyolar o'tgan joy. Rayimberdi cholning dilida ana shunday orzu—istaklari bor edi. Buxoroni ziyorat qilish yarim hajga borish bilan barobardir. Shunday ekan o'zingni mashinangda yumshoqqina o'rindiqda yastanib, beminnatgina borganga nima yetsin". Bir mushtipar otaning ko'nglidan shunday fikrlar o'tar, o'sha kun kelishini intizorlik bilan kutar edi. Yozuvchi bu vazifani G'oziboyning zimmasiga yuklaydi , va u bir qancha istiholalar bilan kelasi hafta juma kuni olib borishga va'da beradi. Doimgidek otasini aldab bir qo'yni pulini olib shaharga ketib qoladi. O'zbek yigitlari mard, jasur, oriyatli, va'dasiga vafodor, ota—onasi oldidagi burchiga sodiq o'g'lonlardir. Ammo guruch kurmaksiz bo'lmagani kabi G'oziboy va uning toifasidagi yigitlar bunday kuchli tuyg'ulardan bebahra yashab kelmoqda. Yozuvchi ushbu o'rinlarda Rayimberdi cholning ruhiy holatini mahorat bilan tasvirlaydi: "Vada qilingan juma kuni G'oziboy kelmadi. Tabiiyki, hammamiz ham tirik jonmiz, ish—pishimiz chiqib qolishi mumkin. Ammo keyingi juma ham G'oziboy kelmadi. Hatto undan keyingisida ham...Rayimberdi chol cho'kib qoldi. Bamisoli ichidan biron narsa "cho'rt" etib uzilib ketganday, birdan qaddi bukildi. Ko'zlaridagi o't so'ndi". Yozuvchi inson uchun zarracha bo'lsa—da umid bilan yashash hayotda juda muhimligi, umidsiz inson jonsiz tana kabi ekanligiga ishora qiladi. Ota—onaga berilgan vadaning ustidan chiqmaslik esa naqadar pastkashlikdir.

Muqaddas kitobimiz "Quroni Karim"da, Imom Buxoriyning mo'tabar hadislarida ota —ona muqaddas zot ekanligi ta'kidlangan. Zero Rayimberdi chol farzandida shakllangan shafqatsizlik, yolg'onchilik illatlarini his qilib, sezib tursa—da, insof kirib qolar deb qalbining tubidagi bir umid uchquni bilan yashaydi. Umuman olganda, hikoyada G'oziboy tomonidan aytilgan har bir yolg'on taftish qilinadi. Xarakteridagi manmanlik, kibr—u havoga berilish uni tubsiz jarlik sari yetaklaydi. Albatta, buning bari yolg'on so'zlarning badali edi. Hikoyaning yaxlit syujeti bilan tanishgan kitobxonda G'oziboyga nisbatan nafrat uyg'onadi. Uning tilida esa faqat bir so'z "ISHIM BESH" singib qolgan. Rayimberdi chol shaharga uni qidirib borib ahvoli ogir ekanligini korib turgan bo'lsa—da, G'oziquk oliftalik qilib, "Yaqinda ishim besh boladi. Qishloqqa "Mers"minib boraman. "Mers"da Buxoroga ziyoratga olib boraman". G'oziqukni ogir ahvoli va yengil so'zlarini o'qiganimizda yolg'on va haqiqatning yuzma — yuz kelganligini guvohi bo'lamiz. Asar nihoyasida Rayimberdi chol g'am— alamdanda betob bo'lib, kasalxonada qiynalib ko'z yumadi. Akalari tomonidan topib keltirilgan G'oziboy esa "voy otamlab" yig'lashgagina yaraydi xolos, keyingi ma'rakalarida ishtirok etmaydi. Ammo bir talabadan "ishim besh"yaqinda "Mers"da boraman—deb aytib yuboradi. Bu esa bugungi kundagi ayrim kimsalarning nafaqat moddiy balki ma'naviy ne'matlardan ham bebahra ekanligini isbotlaydi.

Ta'kidlash joizki, ushbu hikoya sodda til va ravon uslubda yaratilgani bois tag zamiridagi ma'noni anglab olish kitobxonga bir muncha qiyinchilik tug'dirmaydi. Hikoyada yolg'on so'zlarga umid bog'lab armon qurboni bolgan mehribon ota obrazi yaratilgan. Albatta, yozuvchi G'oziboy obrazi orqali ijtimoiy hayotdagi ayrim illatlardan yolg'onchilik, maishatga berilishi va u orqali kelib chiqadigan salbiy oqibatlarni ko'rsatib bergan va asarni o'ziga xos yakunlash orqali bu maqsadni yana-da aniqroq uddalagan. Agar yozuvchi hikoya so'ngini G'oziboyning "Ishim besh" yaqinda "Mers" da boraman degan so'zlar bilan yakunlamaganida o'quvchi G'oziboyga insof kiribdi—da, deb o'ylagan bo'lar edi. Ammo bu jumlaning mutolaa qilgan har bir kitobxonda fikr butunlay o'zgaradi.

Xulosa qilib aytganda, Abduqayum Yo'ldoshev hech bir qahramonni bejizga shunchaki tanlamaydi. Qahramonlarning xarakter tuzilishidagi, yani ota—o'g'il, aka — uka orasidagi bir— biridan yiroqlik go'yo bir birini to'ldirgandek bo'ladi. Hikoyada keltirilgan qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar xoh samimiy, xoh salbiy yoki ijobiy bo'lsin asar haqiqatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shu boisdan yozuvchi asarlarida hayotiylik ufurib turadi. Hikoyada har bir obrazning botiniy va zohiriy olami aks ettirilgan va bu, albatta, badiiy psixologizmni yuzaga chiqargan. Asarda personaj ruhiyatining uning xatti harakatlari, gap— so'zlari, yuz ko'z ifodalari, undagi fiziologik o'zgarishlarni ko'rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir. Yani hikoyani o'qigan kitobxon asar qahramonlarining fikr— o'ylari, his tuyg'ularini sezib, tahlil qila oladi. Abduqayum Yo'ldoshev yaratgan hikoya va uning qahramonlari ruhiyati tasviri, ularning ichki kechinma va tuyg'ulari jozibali va betakror. Ushbu hikoyada Abduqayum Yo'ldoshevning boshqa hikoyalari singari odob—axloq, mehr—oqibat munosabatlari o'z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqayum Yo'ldoshev. "Adabiyot dunyoni o'zgartira oladi" maqolasi. kh.—davron.uz kutubxonasi. 2018—yil 12—avgust.
2. Abduqayum Yo'ldoshev. "Yolg'on va haqiqat" hikoyasi. kh.— davron.uz kutubxonasi 19—noyabr 13:34.
3. Saviya .uz. 30—noyabr 18:35.
4. kh.—davron .uz kutubxonasi. 30—noyabr 20:12.

FE'LNING ZAMON SHAKLLARI

**O'lmas Ro'ziyev, JDPI talabsi
Ilmiy rahbar f.f.f.d. F.Jumayeva**

Fe'l nima qilmoq?, nima bo'lmoq so'roqlariga javob bo'lib, shaxs yoki narsalarning harakat—holatini atab keladigan so'z turkumi.

Fe'lning sintaktik qurilishi munosabat shakllariga tayanadi. Munosabat shakllari fe'l asosiga qo'shilib, gapda kesim vazifasida qo'llanilishiga xoslovchi shakllardir. Fe'llarning zamon, mayl, shaxs—son qo'shimchalari munosabat shakllari sanaladi. Bunday shakllariga ega bo'lgan har qanday fe'l kesim vazifasida keladi. Munosabat shakllari ega va kesimni bog'lab keladi. Gap qurilishi uchun xizmat qiladi.

Zamon shakllari. Harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatuvchi shakllar fe'lning zamon shakllari deyiladi. Harakarning nutq momentiga munosabatiga ko'ra fe'llar uch zamonga ajraladi:

1.O'tgan zamon–ish harakatning so'zlovchi so'zlab turgan paytdan oldin bajarilgan harakatni bildiradi.

2.Hozirgi zamon ish harakatning ayni so'zlovchi so'zlab turgan paytda yoki zamondaligini bildiradi.

3.Kelasi zamon ish harakatning ayni so'zlovchi so'zlab turgan paytdan keyin bajarilishini ifodalaydi. Gapda ega va kesimni bir–biriga bog'lab keladi.

Zamon manosi ikki xil usul bilan hosil bo'ladi:

1.Sintetik usul. Fe'ning zamon, shaxs–son, mayl qo'shimchalari orqali yasalishi: *bordim, boraman* kabi.

2.Analitik usul. To'liqsiz fe'l, ko'makchi fe'l yordami bilan: *borar edim, kelar bo'ldim*.

O'tgan zamon. Ish harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilganligini ifodalaydi, kesimni shakllantirib keladi. Ega va kesimni bir biriga bog'lab keladi.

–di, –ib, –gan va –ayotgan, –i(b), –ar formalariga edi, ekan, emish to'liqsiz fe'llarini qo'shish bilan yasaladi.

–di so'zlovchi ko'rgan, bilgan harakatning nutq momentigacha bajarilganligini ifodalaydi: *Qizlar to'da–to'da bo'lib lapar aytishdi*. (N.Safarov)

–gan so'zlovchi va tinglovchi o'zaro suhbatlashib turgan paytda bo'lmagan va harakatning ancha ilgari bajarilganligini ifodalaydi: *Men tez–tez Toshkentga borib turganman*. (O'.Umarbekov)

–ib harakatning bevosita kuzatilmaganlik, eshitganlik, to'siqsizlik ma'nosini ifodalaydi: *Sinfrahbarimiz Hasan aka menga bildirmay G'anini uyga yuboribdi*.

–edi harakat holatning hozir emas, avvalgi vaqtga oidligini ifodalaydi: *Bolakay tog'lar orasida yashovchi cho'pon tog'asini yaxshi ko'rur edi*.

Hozirgi zamon. Ish harakatning ayni paytda bajarilayotganligini ifodalaydi. Davriylik xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. aniq hozirgi zamon.

2.davomiy hozirgi zamon.

Aniq hozirgi zamon fe'ldan oldin ayni paytda, ayni damda, ayni fursatda kabi so'zlarni keltirish bilan yasaladi: *Ayni paytda men kitob o'qimoqdaman*.

Davomiy hozirgi zamon kun, hafta, oy, yil so'zlaridan keyin buyon, beri, davomida kabi so'zlarni keltirish bilan yasaladi: *Men uch yildan buyon bu ishni qilmoqdaman*.

Hozirgi zamon –yap, –yapti, –moqda, –yotib, –ayotib qo'shimchalari bilan yasaladi. Shakllar orasidagi farq sof uslubiy asosda. Aniqrog'i –yap umumuslubiy va keng iste'molliligi, –yotib va –yotir dialektal va poetik xususiyati bilan, –moqda kitobiy uslubga xosligi bilan xarakterlanadi.

Kelasi zamon. Ish harakatning nutq paytidan keyin bajarilganligini bildiradi. Gapda kesimni shakllantirib keladi, ega va kesimni bir–biriga bog'lab keladi Kelasi zamon shakllari uchga bo'linadi.

1. aniq kelasi zamon.

2. kelasi zamon maqsad shakli.

3. kelasi zamon gumon shakli.

Kelasi zamon quyidagi qo'shimchalar orqali yasaladi:–a, –y, –ajak, –gay, –ur, –gusi, –g'usi, –moqchi, –adigan, –ydigan, –r, –ar, –mas.

Bulardan –a, –y, –r,–ar, –moqchi, –adigan, –ydigan qo'shimchalari uslubiy betaraf qo'shimchalar –jak, –ajak, uslubiy xoslangan shakl hisoblanadi.

1. –a, –y affikslari bilan aniq kelasi zamon yasaladi: gapiraman, so‘zlayman.
2. –adigan, –ydigan, –moqchi, affikslari bilan kelasi zamon maqsad shakli yasaladi: gapirmoqchiman, gapiradiganman.

3. –r, –ar, –mas affikslari orqali kelasi zamon gumon shakli yasaladi: so‘zlarman, gapirarman.

–y qo‘shimchasi ba‘zan harakatning doimiy, har uch zamonga oidligini ham ifodalaydi. Akam kollejda o‘qiydi.

–jak, –gay, (–kay, –qay), –ur, –gusi shakllari badiiy va publitsistik uslubga xos bo‘lib, eski o‘zbek tilida va shevalarda qo‘llanilgan: *Kelgusi yil, albatta, Buxoroga borurmen.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Rahmatullayev “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”.
2. R.Sayfullayeva “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”.
3. U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”.

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Salomat Matvopayeva, Shovot tumani 5– maktabi o‘qituvchisi

Bugungi kunda barcha fanlar qatori ona tilini o‘qitishda ham O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017–yil 10–aprelda qabul qilingan qaroriga asosan ta‘lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish muhim hisoblanadi. Bunday yondashuvni amalga oshirishda albatta o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini va saviyasini hisobga olgan holda, ularning og‘zaki va yozma nutqini, tafakkurini o‘stirish, ularni shaxs sifatida shakllantira borishni amalga oshirish, ularda bilim olishga qiziqishni o‘stirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatlarini o‘sitirish hisoblanadi. Buning uchun umumta‘lim maktablari ona tili darslarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so‘zsiz, o‘quv jarayoniga kompleks yondashishdir. Pedagogik texnologiyaning avvalgi usullardan afzalligi, u ta‘lim jarayonini bir butunlikda ko‘rib, ta‘lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta‘lim oluvchi, ta‘lim beruvchilarni yaxlit holda ta‘lim bosqichlarini loyihalab, ta‘lim jarayonini nazorat qilish, ta‘lim natijalarini baholash kabi qismlarning o‘zaro uzviy bog‘lab, uning kompleks loyahasini tuzishidadir.

Hozirgi davrda zamonaviy ta‘limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma‘lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim va ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidagi yuksak pedagogik mahorat hamda ta‘lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab qiladi.

So‘nggi davrlarda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Bu metodlardan ayrimlarini ona tili darslarida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Quyida ularning ayrimlari haqida to‘xtalamiz.

“6x6x6”metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. “6x6x6“ metodi asosida tashkil etilayotgan ona tili darsida har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi.

Yangi shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. Bu metodning afzallik jihatlari quyidagilardir:

- 1) guruhlarining har bir a’zosini faol bo‘lishga undaydi;
- 2) ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta’minlaydi;
- 3) guruhning boshqa a’zolarining fikrlarini tinglay olish ko‘nikmalarini hosil qiladi;
- 4) ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o‘z fikrini himoya qilishga o‘rgatadi.

Eng muhimi darsda o‘quvchilarning har biri qisqa vaqt mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma’ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5,6,7 va hatto 8 nafar o‘quvchidan iborat bo‘lgan bir necha guruhlarda ham qo‘llash mumkin.

“6x6x6” metodi yordamidagi ona tili darslari quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O‘qituvchi dars boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo‘yib chiqadi.

2. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo‘linadilar .

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lishda o‘qituvchi quyidagicha yo‘l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obyektlar, masalan, **kema, to‘lqin, atirgul** surati chizilgan lavhani qo‘yib chiqadi. O‘quvchilarga kema, to‘lqin, atirgul, olma, kitob hamda bayroq surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi.

Har bir o‘quvchi o‘zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo‘yilgan stuldan joy egallaydi.

3.O‘quvchilar joylashib olganlaridan so‘ng o‘qituvchi dars mavzusini e’lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma’lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4.O‘qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o‘rinlarda guruh a’zolariga maslahatlar beradi, yo‘l–yo‘riqlar ko‘rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to‘g‘ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng guruhlardan munozaralarini yakunlashlarini so‘raydi.

5–sinfda “Gapda so‘zlarning bog‘lanishi“ mavzusini o‘rgatishda “6x6x6” metodidan foydalanish quyidagicha bo‘lishi mumkin: O‘quvchilar guruhlarga ajratilgach, darsning birinchi topshirig‘i e’lon qilinadi.

1–topshiriq. Kartochkalaridagi so‘zlarni ma’no jihatdan bir–biriga bog‘lab she’r hosil qilish. Bunda O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasidan

foydalanish mumkin. Madhiyaning birinchi to'rtligini naqorati bilan 1,2,3–guruhlarga, ikkinchi to'rtligini naqaroti bilan 4,5,6–guruhlarga tarqoq holda kartochkalarda beriladi. Guruhlar topshiriqni bajarib bo'lgach, chapak chalib, ishni tugatganlarini bildiradilar. Shu tariqa boshqa topshiriqlar ham guruhlarda bajariladi. Ushbu mavzuni o'rganishda yana bir interfaol metodni – “Klaster”ni ham qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu usulni qo'llab o'quvchilarga so'z, gap, matn tuzdirish mumkin. Doskaga “O'zbekiston” so'zi yozib qo'yiladi. O'qituvchi “O'zbekiston deganda ko'z oldingizda nimalar jonlanadi?” degan savol beradi. O'quvchilar O'zbekiston haqida bilgan so'zlarini aytadilar. O'qituvchi so'zlarni O'zbekiston so'zining atrofiga yozib boradi. So'ngra savollar orqali o'quvchilarning O'zbekiston haqidagi bilimlari mustahkamlanadi va ular asosida bog'lanishli matn tuzdiriladi.

Interfaol metodlardan ona tili ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, ishni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Zero, interfaol metodlar ona tili darslarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vositadir. Bugungi kunda ta'lim mazmunida shaxs, jamiyat, fan–texnika, ishlab chiqarish ehtiyojlari chambarchas bog'liq holda o'z ifodasini topmoqda. Binobarin, ta'lim jarayonining natijasi shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlashi bilan bir qatorda davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ham xizmat qilishi talab etilmoqda. Bu esa ta'lim metodlarini yangilash ehtiyojini keltirib chiqaradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlar ta'lim jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga, o'quvchilarning mustaqil fikrlab o'rganilgan o'quv materiallarini oson o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Roziqov O. va boshqalar. Ona tili didaktikasi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. va b. Ona tili.– 5–sinf uchun darslik.– Toshkent, “Ma'naviyat”, 2015.

"ҲАЙРАТ УЛ–АБРОР"ДА ҲУСАЙН БОЙҚАРО ОБРАЗИ

**Гуллола Абдуғаффорова ЖДПИ талабаси
Илмий раҳбари:ф.ф.н., доц. З. Мамадалиева**

Алишер Навоийнинг “Ҳайрат ул–аброр” дostonи адабиёт тарихида ижтимоий–ахлоқий, таълимий–тарбиявий, дидактик руҳга эгаллиги билан ажралиб туради. Гарчи Навоий дostonда юксак хулқ–ахлоқ учун курашган бўлса–да, замона ҳукмдори Ҳусайн Бойқарони ҳам унутмади. Дostonда Ҳусайн Бойқаро нафақат адолатли ҳукмдор, мурувватпеша афсонавий образ "Шоҳ Ғозий" номлари билан ҳам улуғланади. Бундан ташқари Сулаймон подшо, Нўширавони одил, Баҳром, Жамшид, Фаридун каби афсонавий подшолар Ҳусайн Бойқаро билан қиёсланади.

Дostonнинг III мақолати султонлар ҳақида бўлиб, бу боб Ҳусайн Бойқарога мажозан чакириқ тарзида ёзилган. Осмондаги куёш Ҳусайн Бойқаронинг адолати олдида унга соябон бўлишга интилади. Ҳатто, ой юзидаги доғда ҳам шоҳ узугининг ўрни бор:

**Ҳотами адлинға сипехри баланд,
"Рости–ю расти"била нақшбанд.**¹¹⁴

Яъни,адолат мухри бўлган узугинга Аллоҳ "Ростлик–халослик"сўзларини битган экан,бу унинг амалда юритаётган ишига боғлиқдир. Шохга агар шу мухрнинг хати ёрдам бермаса, у ҳар нарсага гирифтор бўлиши мумкин эди. Ҳусайн Бойқаро тутган тўғрилиқ йўли охиригача халқ билан унинг фармонига бўйсунма бошлайди.

**Хутбайи шохинг қадар иншо қилиб,
"Яъмуру бил–адл" ила туғро қилиб.**¹¹⁵

Шохнинг баланд мартабаси хутбасига "адолат билан амрингни юргиз" дея ёзилганлигини айтади.

Навоий фикрича "Яратилишидан ҳамма бирдек бўлгани каби инсонийлик, шукроналик, юмшоқлик, инсоф–у ҳаё бобида ҳам подшо улар билан тенг бўлиши лозим".

**Йўқки замона шаҳи бу шевалик,
Ўз хўри ҳолиға улуг то кичик.**¹¹⁶

Шу ўринда баъзи камчиликларини ҳам эслатиб ўтади. Фафлат, ўринсиз хурсандчилик фақат шу даврнинг эмас, замон подшосининг ҳам одати бўлиб қолди. Навоий шохга унинг халифалар тахтида ўтирганлигини,бу одатларини тарк этиб, пушаймон кунини эслаши, адолатли бўлиб, тоат–ибодат қилиши, бировга куёшдек тиф санчса ҳам, кетидан меҳр–муҳаббат изҳор этиши лозимлигини айтади.

**Шаҳлар аро бўйла сифат камдурур,
Ким шоҳи Ғозийға мусалламдурур.**¹¹⁷

Шохларда бундай сифатлар кам бўлади. Фақат шох Ғозийгина бу билимларни тўла эгаллагани Ҳусайн Бойқаро сиймосини акс эттирган.

Х мақолат "Ростлик таърифи"га бағишланган бўлиб, унда ҳам Ҳусайн Бойқаро эсланиб, мартабасининг юксаклиги Жамшид ва Заххокникича, кўшини икки Искандарникича, халқи ва унга бўйсунганлар кун чиқишидан, кун ботишигача,юртининг кенглиги Сулаймонникича дея таърифланади;

**Кимки эрур қайсару хоқони аҳд
Қайсару хоқон не, Сулаймон аҳд.**¹¹⁸

Навоий замонидаги одил подшоҳ шунчаки подшоҳ бўлмай, адолатли ва ҳимматли шох Сулаймон пайғамбар тимсолидаги Ҳусайн Бойқародир.

XX мақолатда Навоий Ҳиротнинг тавсифи баёнида сўз юритади. "Бу ер олдин боғ–у бўстон бўлган бўлса ҳам вайрон бўлиб қолган эди. Лекин Ҳусайн Бойқаронинг бунёдкорлик ишлари натижасида,ҳатто жаннатнинг ҳам рашки келадиган гўзал бўстонга айланди. Ҳирот бунчалик хусни шохнинг инсофидан топгани, бу ғолиб, ақли тиниқ подшодан адолатни ўрганишда Анушервон унга шогирдлик қилади. Шохдаги барча хислатлар подшоҳга

¹¹⁴ А.Навоий.Ҳайрат ул-аброр.-Т.:Ф.Ғулом нашриёти,1974.46-бет

¹¹⁵ Келтирилган манба.46-бет

¹¹⁶ Келтирилган манба.52-бет

¹¹⁷ Келтирилган манба.53-бет

¹¹⁸ Келтирилган манба.110-бет

керак–у, лекин ҳаммаси қолиб,у битта адолати билан мангулик топди ва киёматга қадар яхши от қолдирди”.

Мақолатда шундай ҳикоя келтирилади:

Шоҳ Баҳромнинг ғафлат уйқусига кетиб, мамлакатини хароб қила бошлагани ёритилган. У тақдир тақозоси билан овда адашиб қолиб, бир чайладан ҳаловат топмоқчи бўлгани, замона зулмини чеккан мазлумларнинг шоҳни битта қотган нон ва сув билан шеҳмон қилгани айтилади. Фақирлик ва ожизлик мазлумларнинг кулбасини вайрон қилиши сабабини билган шоҳнинг ғафлатдан уйғониб,золимларни йўқотиб адолат қилишни кўнглига тугиб, Худонинг номи билан шу ниятни қилганда коризни тешиб зилол сув чиқиб кетгани, шоҳ дилидаги яхши ниятларнинг нишонаси сифатида ёритилади.

Қўйди жаҳон мулкани чун Язди жирд,

Айлади Баҳром танаъумни вирд.¹¹⁹

Хисрави Ғозийки,эмасдур даме,

Ким емагай, мулки раият ғами.¹²⁰

Навоий Ҳусайн Бойқаронинг ҳар доим халқ ва мамлакат ғамини ейиши, бу ҳолдан халқ шод, мамлакат обод эканлигини ёзади. Адиб мамлакат ободлиги йўлидаги орзулари ушалишини тилаб,унга Аллоҳдан мадад сўрайди.

XX мақолат Навоий қалами орқали Бойқаронинг ўғли Бадиуззамонга панд–насихат руҳида битилган бўлиб, одил маслахатгўй беғараз бўлишини эслатиб, подшо ва шаҳзода ўртасидаги кўприк қоидаларини Бадиуззамонга тушунтириб ўтади.

Ҳар неки бу номада мастур эрур,

Барчаға шоҳ ишлари дастур эрур.¹²¹

"Бу номада мен нимаики ёзган бўлсам,буларнинг ҳаммасига шоҳимнинг адолати қўлланма бўлди"—дейди.

Агар сен ҳар бир ишингда шоҳга ўхшаш бўлсанг– бу "Бола–отанинг кўринишидир" дегани бўлади, пушаймонлик кўрмайсан, бахт ва давлат давронини суришни истасанг ҳеч қачон бу пир олдида ҳеч айб иш қилма (А.Ҳайитметов табдили)

Мақолатлардан бирида шоҳ Ғозийнинг подшоҳлик тожи учун курашгани келтирилган:

Андаки Ғозий шаҳи фархунда бахт,

Тож олайн деб талашур эрди тахт.¹²²

Шоҳ Ғозийнинг бу жанглардан бирида бир кишини беихтиёр ҳалок қилгани ўлгани ва кампир онанинг ўғли хунини талаб қилиши кузатилади. Шоҳнинг кампир билан адолат даргоҳининг одами бўлган қози хузурида икки гувоҳ:адолати ва инсофи билан жавоб бериши, хун талаб қилган кампирнинг подшоҳ адолатидан ёқа ушлаб таслим бўлиши ва ҳимматидан халқ орасида "тилла кампир"номини олиши ҳам бизда Ҳусайн Бойқаро сиймосини шакллантиришда Навоий қаламининг қирраларини намоён қилади.

Золи фалакдин неча кўрсанг алам,

¹¹⁹ Келтирилган манба.191-бет

¹²⁰ Келтирилган манба.193-бет

¹²¹ Келтирилган манба.202-бет

¹²² Келтирилган манба.53-бет

Шаҳ,чу қилур адл Навоий не ғам.¹²³

Тақдирдан қанча алам кўрсанг ҳам зам ютма,чунки сенинг шоҳинг адолат йўлини тутган шоҳлардандир.

Навоий идеалидаги шоҳ саҳоватли, қаноатли, бунёдкор, эл–юртига вафоли шоҳ бўлиб, у султон Хусайн Бойқародир.

Достон якунида Навоий бир пок фикрли оқил шоҳ билан суҳбатда бўлиб, у шоҳ қаламини ожизлик сиёҳига ботириб, асарини тугаллаганига офарин ўқийди. Навоий бу асарни ёзмаслигининг имкони йўқ эди. Ёзилиш сабаби денгиз ва кондаги гавҳарларнинг зийнати бўлган Хусайн Бойқарода эканлигини таъкидлайди. "Ҳайрат ул–аброр"нинг шоҳ номидан улуғворлик топгани, чунки саҳоват куёши ҳам Худонинг сояси бўлмиш подшоҳ оти туфайли юз берганлигини эслайди. "Эй номига адолат тангаси зарб қилинган, зотиға ҳукмдорлик хутбаси ўқилган шоҳ! Сендан уялиб осмон халқа шаклига кирди. Сенинг номинг куёшнинг узугига битилган, сенинг мадҳингни ёзиш учун мен кимман?! Бу бир зарра осмондан жой олгани билан тенгдир"(А.Ҳайитметов табдили).

Навоий таъбири билан айтганда Хусайн Бойқаро сифатларини ёритишга қалам ожиз. Чунки ундаги адолат, саҳоват, ҳиммат туганмас бир дарёдир.

Ҳайрати абрордек кўруб зотини, “Ҳатрат ул–аброр” дедим отини.¹²⁴

Навоий ёзган асарларида ҳар бир таъриф–у мадҳ Хусайн Бойқарога манавий қувват бериб, руҳлантириш воситасидир:

Шаҳки ерур адл ила даврон анга, Бўлди сирот ўтмаги осон анга.¹²⁵

Шаҳки иш адл ила бунёд етар, Адли бузуқ мулкани обод етар.¹²⁶

Демак, Навоий достонда Хусайн Бойқарога икки жиҳатдан ёндашган:

1. Адолатли, ҳиммати баланд султон Хусайн Бойқаро.
2. Мажозан шоҳ Ғозийнинг сифатлари намоён бўлган замона шоҳи.

Бу талқинлар улуғ ижодкор қаламида гўзал тарзда уйғунлаша олган.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. А.Навоий. Ҳайрат ул–аброр. Тошкент. Ғ.Ғулом нашриёти. 1989.
2. А.Навоий. Ҳамса. Тошкент. Янги аср авлоди. 2018

“PUANKARE” ASARIDA INSON RUHIYATI

Davlat Usanov, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent N.Soatova

Inson tabiatning eng oliy yaratig‘i. Olloh insonni yaratar ekan, avvalo unga hech qaysi mavjudotda bo‘lmagan ongni, fikrlash qobiliyatini berdi. Taqdirini avvaldan yaratgan holda, insonga hayot yo‘lini qanday bosib o‘tishini o‘ziga qo‘yib

¹²³ Келтирилган манба.56-бет

¹²⁴ Келтирилган манба.214-бет

¹²⁵ Келтирилган манба.214-бет

¹²⁶ Келтирилган манба.108-бет

berdi. Moddiy va ma'naviy olamda insonlar tafakkuriga va ijtimoiy muhitiga mos holda yo olg'a intildilar, yo mayda ishlarga aralashib, labirintday chuvalashib ketgan yo'llardan yorug'lik tomon olib boruvchi yo'lini topolmay qolib ketdilar. Bunday holatda esa, hayot odamlarning ko'nglida umrlik armon qoldirdi. Yuzlarini armon qoplagan insonlarda eng intim kuch doim yonib turadi. Agarki, kimdir eski dardi, armoni haqida so'z ochib qolsa bormi ular xuddi–ki lahzada lotereyada yutgan odamday butun olamni unutilib hikoyaga tushishadi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumjamlanmasi hisoblanmish A.Yo'ldoshevning "Puankare" hikoyasida hayot silsilasida o'z maqsadidan chetlashib ketgan va bir umr o'sha maqsadini ro'yobga chiqarish g'oyasidan voz kechmagan qahramon gavdalangan. Biz adabiyotchilar biror katta hajmdagi romandan tortib to'rtlik she'rni ham qanchalik berilib tahlil qilsak, matematiklar ham o'z isbotini topmagan qonunlari uchun borini berishi ushbu hikoyada tasvirlangan. Hayotda shunday ilm fidoyilari borki, butun umrini fanga baxshida etadilar. Ilm hayoti mazmuniga aylanadi. Hikoya qahramoni butun umr orzu qilib yashadi. Tinimsiz izlanishda bo'ldi, ammo hayot atalmish bu dargohning yozilmagan qonunlari bor. Oila muqaddas. Butun umri davomida gipoteza isbotlarini portfeliga yashirgan holda oilasini boqish uchun yelib–yugurib ishladi. Bir kun ortiga nazar solganda oltmish yoshga kirgan edi. **"Ey Xudo, meni o'ttiz yil ortga qaytar"** Uning birgina bo'g'zidan otilgan tovushi o'y–xayollarimizni talato'p qilib yuboradi. Chunki unda imkoniyat bor edi. U o'zini ayblab yashadi. Ya'niki do'sti bo'rini a'zosini omad keltiruvchi deya olib kelganda olmad. Bunday irim–sirimlarga ko'pchilik singari ishonmasdi. Kim bilsin, nimadir o'zgararmidi. To'qson to'qqiz foiz ishlangan formulalar quruq qog'ozda qolib ketdi. Bir vaqtlar u ham yosh, navqiron edi. Ilm–fan va oila tashvishlarini birday ko'tarmoqchi bo'ldi. Vaqt esa bu ikki buyuk tashvishni har kim ham eplay olmasligini ko'rsatdi. Vaqtning mohiyatini yozuvchi shunday tasvirlaydi:

Vaqt, vaqt, vaqt... U bunchalar tez o'tadi? Qayoqqa bunchalar shoshadi? Bu qattol shiddat inson umrini tushga, ro'yoga aylantirib qo'ymaydimi? Uxladingu, uyg'onding. Qisqagina davom etgan tushingda esa butun umringni ko'rding.

Bunchalar shafqatsizsan, vaqt...(5–bet)

Xolbuki, asar qahramoni ham hamma kabi orzular ummonida uchib yurardi. Uning tasavvurida oila qurish mo'jiza yaratishday gap edi. U hattoki qizni ko'rib ham o'tirmadi. Xalqimizda bir maqol bor: **erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin.** Ayoli yonida qo'llab quvvatlab turganida balki butunjahon teleekranlarida rus olimi Perelman emas, aksincha o'zbekning buyuk matematigi orden bilan taqdirlanmasmidi? Balki shuning uchun ham, ya'ni qaytadan turmush qurishni o'ylab hayotini ortga qaytarishni o'ylayotgandir. Ustozimiz Oybekning turmush o'rtoqlari bo'lmish Zarifa Saidnosirova o'zining "Oybegim mening" kitobida shunday deydi:

"Oybek ertalab –Zarifa qornim ochdi yegulik bormi uyda", deb so'radi. Va men uyga kirib oshxonani tekshirdim. Hech narsa yo'q yeyishga. Qarasam bir hovuch kepak bor, bir–ikki qoshiq shakar, shuncha miqdorda yog' sidirib oldim. Shuni qovurib opkeldim. Maqtab –maqtab yedilar va yana "Navoiy" asarini yozishga kirishdi."

Ko'ryapsizmi hattoki yeyishga noni yo'q, lekin sabr va qanoat ularni qanday baxtli qilgan edi. Buyuk yozuvchi o'zining buyuk asarini yarata olgan edi.

Agar qahramonimizning ayoli ham xuddi shunday qanoat egasi bo'lganda edi, matematik kashfiyot bizda kashf etilmasmidi? Balki biroz xato ham qilgandir asar qahramoni. U o'yladiki, shuncha yil kutib yashadi, sabr bardoshli ekan, men doim yonimda qo'llaydi. Yo'q, bir marta ham ko'rmay turib uylanish matematik mantiqning ustasi uchun mantiqsizlik emasmi? Savollar ketidan savollar tug'iladi. Axir, tarixda Amir Temur ham o'z kelinlarini tanlab, aql-zakovatlarini tekshirib keyin kelin qilganku. Asar qahramoni murakkab misollarni oddiylik bilan yechganday turmushni ham shunday oddiy deb bildi. Sababi, har qanday sharoitda ayol kishi erining suyanchig'i hisoblanadi. Asardagi ayol ham ish bo'lsa ishladi. U ham qarab turmadi. Ammo eriga dalda bo'lmadi. Buning oqibatida esa, talant egasi o'z talantini eski portfeliga joylab yuraverdi.

Asarda ko'rish mumkinki, chinakam ilm egasi o'z kasbini deb jinni ham bo'lish mumkin. Fanga qiziqqan inson moddiyat nimaligini unutadi. O'zligini-da unutadi. Asar qahramoni o'ziga shogird tayyorlashni qancha kutdi. Shogirdlik maqomiga ega bo'lgan talabasi ham xuddi o'zi yurgan yo'ldan ketdi. O'zimiz bilgan o'zbekchilik urf-odatlarini qahramonimizning shogirdini ham chetlab o'tmadi. U ham oila tashvishlariga sho'ng'idi. Ustozini ko'rishga kelgan shogird ustozini bergan qog'ozlarni olmadi. Nima uchun? U sezgan edi. Endi uning ham vaqti bo'lmaydi. Yangi ixtirolar qilish endi uning ham faqatgina orzularida qoladi.

Asar qahramonini kim bilandir taqqoslaydigan bo'lsak, albatta, Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani bosh qahramoni Yusufjonga taqqoslagan bo'lar edim. To'g'ri u ham taqdir zarbalariga duch keldi. Qiyinchiliklar ham uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin edi. Ammo u kuchli iroda sohibi ekanligini ko'rsata oldi. O'zining maqsadi bo'lgan Vatan tarixini yozish orzusini amalga oshirdi. "Puankare" bosh qahramoni esa maqsadining oliy ekanligini kech tushunib yetdi. Uning so'nggi so'zi ham tabiiyki **"Ey Xudo, meni o'ttiz yoshimga qaytar"** deya nido bo'lib yangradi.

Yana bir adibimiz ustoz Abdula Qahorning hikoyalarida ham shunday qahramonlar tilga olingan edi. Xususan, "To'ydagi aza", "Nomus" hikoyasidagi qahramonlar ham vaqti kelib o'z yo'lini yo'qotganini ko'rish mumkin. Bunday ijtimoiy illatlar turli davrlarda turli qatlamlarda uchratishimizni yana boshqa asarlarda ham ko'ramiz.

Darhaqiqat, bilim deb o'tuvchi insonlar doim e'zozda bo'lishadi. Asar qahramoni ham Puankare gipotezasini ocha olmadi. Lekin uning xayoli doimiy tarzda shu isbot uchun bo'ldi. Taqdir doim ham biz istaganday bo'lavermaydi. Shunday bo'lganida hamma o'z bilganicha yashab hayot muvozanatini buzib qo'yishardi. Asardagi matematik qo'lga ruchka oldimi, tezda puankareni qoralaydi. Bundan kelib chiqadiki, o'z ishiga fidoiy. Hattoki ma'ruzalarida ham ko'zlari porlab qaniydi biror talabam chiqsa, birgalashib gipotezani yechsak degan xayol bo'lar edi. Bunday ilm egalari Jaloliddin Rumiyning "ichingdagi ichingdadur" asarida shunday ta'riflanadi:

Agar bir jism tarkibida ohanrabo bilan mushtarak bo'lgan bir parcha bo'lmasa, u jism hech qachon ohanrabo tarafiga ketmaydi. Ya'ni tortilmaydi. Ular orasidagi bir xillik gizli bir narsadir, ko'zga ko'rinmaydi.¹²⁷

¹²⁷ Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадур. –Т: Янги аср авлоди, 2019. 8–бет

Muttasil o‘y xayollar asar qahramonini ichini zaharga to‘ldira bordi. Oxir–oqibatda jinniga aylandi. Ilm–fanga bo‘lgan fidoyilik illatga aylana bordi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, inson o‘z oldiga maqsad qo‘ydimi, albatta, uni bajarisi shart. Maqsad keyinga surilmaydi. Surildimi u maqsad emas, orzular ummonidan oshib o‘tib ketgan armonga aylanadi. Dunyoga kelgan har inson o‘zidan nimadir qoldirmasa, hayotga shunchaki sayrga kelganday tark etadi. Bu o‘rinda Bedilning bir ruboiysi yuragimizda jaranglab turishini istar edik:

Har ko‘zki, agar olmasa ibrat, ko‘rdir,
Har luqma agar bermasa lazzat, sho‘rdir.
Har to‘n, agar o‘zgarmasa, to‘nmas, u kafan,
Har xonaki, birdek turaversa, go‘rdir...¹²⁸

BOBUR LIRIKASIDA ADABIY TA‘SIR MASALASI

Iroda Saidova., Nilufar Oripova
Jizzax DPI talabalari

Tariximizda shunday buyuk zotlar o‘tganki, ularning ijodiy merosi hali hanuz ilmiy jamoatchilik diqqat markazida katta qiziqish bilan o‘rganib kelinmoqda. Shunday shaxslardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Ijodkorning shaxsiyati, yashagan davri, o‘sha davr adabiy muhiti, davrning ijtimoiy–siyosiy o‘zgarishlari uning asarlarida aks etadi, ya‘ni ijodkorning shaxsiyati va ijodi bir – biriga chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Xususan, Bobur ijodiga o‘zining ko‘rgan–kechirganlari, aniq tarixiy voqealar, hokimiyat taloto‘plari, Vatanidan ayro holda yashashi, ayriliq, sog‘inch motivlari singib ketgan.

Bobur o‘zigacha o‘tgan ijodkorlardan farqli ravishda murakkablikdan tamoman chekingan. Uning lirikasi o‘ziga xos nafis va sodda satrlardan iborat:

Sen kibi purkor, shevasi bisyor,
Bilmadi, ey yor, hech kishi yod.
Javrda nodir, zulmda mohir,
Ishvada qodir, g‘amzada ustod.

Bobur ijodining xalqchilligi mana shu nafislik va soddalikda. Bobur g‘azallarining o‘ziga xosligi esa ularning hajman ixchamligidadir. Bu esa Boburning lirik qahramon kechinmalarini qisqa satrlarda ham ifodalay olish mahoratini namoyon etadi.

Bobur ijodini, xususan, uning lirikasini o‘rganishda “Boburnoma” tayanch manba hisoblanadi. “Boburnoma” faqatgina tarixiy – biografik asar bo‘lib qolmay, uning juda ko‘p g‘azal, ruboiylarining yozilish tarixi aks etgan qimmatli ilmiy asar hamdir. Masalan, ushbu asarida Bobur o‘zining birinchi tugal g‘azalini yozganligi va u g‘azal

“Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim,

Ko‘nglumdin o‘zga mahrami asror topmadim”

matlasi bilan boshlanishini aytib o‘tadi (“Boburnoma” 907– hijriy yil voqealari).

¹²⁸Umar Xayyom. 333 ruboiy. –T : Musiqa nashriyoti, 2007. 54–bet)

Bobur o'zining boshidan o'tkazganlarini "Boburnoma"("Vaqoe")ni o'qigan kishi bilib olishini ta'kidlaydi:

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,
Olam eliding turfa sitamlar ko'rdum.
Har kim bu "Vaqoe"ni o'qur' bilg'aykim,
Ne ranj-u, ne mehnat-u, ne alamlar ko'rdum.

Boburning ushbu ruboiysida "olam" va "olam ahli" tushunchalariga o'ziga xos ma'no yuklanganki, buni Navoiy ijodida ham kuzatamiz:

Ey Navoiy, olam ahlig'a chu yo'q ermish vafo,
Kel-u mundin nari bekaslik bila mo'tod bo'l.

Navoiy olam ahlida vafo yo'qligini, dunyo o'tkinchi ekanini va bundan keyin yolg'izlikni odat qilishini aytadi. Bu Navoiy ijodida tasavvufiy g'oyalar yetakchi ekanligini ko'rsatadi. "Bobur nazdidagi olam manzarasi esa Navoiy qarashlariga birmuncha yaqin. Lekin, Bobur xulosalarida olamdan bezigan shoh ruhiyati yaqqol namoyon bo'ladi"¹

"Boburnoma" da Bobur Navoiy nomini hurmat bilan tilga oladi, qator asarlarini sanab o'tadi va ular haqida o'z fikr – mulohazalarini bildiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Bobur lirikasida Navoiydan ta'sirlangani yaqqol ko'zga tashlanadi. Lekin, Navoiydan farqli o'laroq, Bobur ijodida oddiylik, xalqona sodda uslub hukmron. Jumladan, "Boburnoma" ham juda sodda, ravon til bilan yozilgan.

Bobur Navoiyni o'ziga ustoz deb bilgan va asarlarini qunt bilan o'rgangan. Boburning ayrim g'azallari va aksar ruboiylarida Navoiydan ta'sirlangani seziladi. Masalan, Navoiyning eng mashhur ruboiylaridan biri bo'lgan

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish.

ruboiysi bilan Boburning

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,
G'urbatda sevunmas emish, albatta kishi.

ruboiysida hamohanglik seziladi. Bobur ham Navoiy ham juda murakkab siyosiy davrda yashagan. Bobur o'z Vatanidan ketishga majbur bo'lgan bo'lsa, Navoiyni esa bir muddat ona shahri Hirotdan yiroqlashishga, Vatan sog'inchida yashashga majbur qilishadi. Navoiyning yuqoridagi ruboiysi aynan o'sha paytda yozilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Shoir o'z Vatanidan yiroqdaligi, unga shodlik, xursandchilik begonaligini qafasdagi bulbulga mengzaydi. Bulbul uchun qafasda gul bo'lsa-da, undan zavqlana olmaydi. Sababi, u tutqunlikda. Garchi, tikanzor bo'lsa ham unga o'z oshiyoni aziz. Navoiy ham Hirotdan chetda (Astrobodda) o'zini qafasda yashagandek his qiladi. Bobur Navoiyning Vatan mavzusidagi qarashlarini nafaqat davom ettiradi balki, uni yanada rivojlantiradiki, bu ijodining bosh mavzusiga aylanadi. Bobur Vatanidan jisman uzilgan bo'lsa-da, ruhan doimo u bilan birga bo'lib, Vatan sog'inchida yashagan. "G'urbatda" yashagan kishining

shod bo‘lmasligi, sevinmasligi tabiiy hol. Demak, Vatan mavzusida bu ikki ijodkorning fikrlari mushtarakdir.

Biz Bobur ijodida butun umri jang–u jadallarda, sarson sargardonlikda o‘tgan shohni, yaqinlarining, ishongan insonlarining xiyonatlaridan aziyat chekkan shoirni, yuragi sevgiga, mehr– muhabbatga tashna oddiy insonni ko‘ramiz. Bobur shavkatli shoh, qudratli imperiya asoschisi bo‘lsa–da, sevgi oldida, muhabbat oldida o‘zini quldek biladi:

Sen gulsen–u men haqir bulbuldurmen,
Sen shu‘lasen, men ul shu‘laga quldurmen.
Nisbat yo‘qtur deb ijtinob aylamakim,
Shohmen elga, vale senga quldurmen.

G‘azallaridagi lirik qahramon ya‘ni, oshiq yorining beparvoligidan, bemehrligidan shikoyat qiladi:

Oldi ko‘nglumni sog‘indimkim, manga dildor emish,
Bilmadim, bu nav‘ mendin ul nari bezor emish.
Oshiq o‘lg‘och, ko‘rdum ul shamshod qaddin yuz balo,
Olloh– Olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish.

Buni Navoiyning oshiqona g‘azallarida ham kuzatamiz:

Menga nomehribon yor o‘zgalarga mehribon er mish,
Mening jonim olib, ag‘yorga oromi jon er mish.

Yuqoridagi misolda Navoiy va Boburning ishqiy g‘azallaridagi yaqinlik seziladi. Ikki ijodkorda ham oshiqlikning jabr – sitamlaridan ozorlangan, yorining jafokashligidan qayg‘uda bo‘lgan lirik qahramon gavdalanadi. Bobur Navoiyning ba‘zi g‘azallariga tatabbu‘lar bitgan. Masalan, “Koshki”, “Kelmadi” radifli g‘azallari shular jumlasidandir:

O‘tgan oqshom va‘da aylab, ul parirol kelmadi,
“Ko‘zlarimg‘a kecha tong otquncha uyqu kelmadi”

Aytish mumkinki, Bobur ijodida eng ko‘p Navoiyning adabiy ta‘siri seziladi. Bu Boburning Navoiy ijodini juda hurmat qilgani va Navoiyning haqli ravishda davomchisi ekanidan dalolatdir.

Navoiy bir ruboiysida shunday yozadi:

Ko‘z bila qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi,
Yuz bila so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi.
Eng bila menging yaxshi, saqog‘ing yaxshi,
Bir–bir ne deyin, boshdin oyog‘ing yaxshi.

Bobur esa xuddi shu radifli ruboiysida:

Ovoralig‘ asru xonumondin yaxshi,
Bir go‘sha manga ikki jahondin yaxshi.
Ovora bo‘lurni yaxshi emas demagil,
Bo‘lsam agar ovora, ne ondin yaxshi?!

–deya yozadi.

Navoiy ruboiysida tilimizning boy imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Ya‘ni, ijodkor birgina “yaxshi” so‘zi orqali yorining “boshdan oyoq” go‘zal ekanini tasvirlaydi. Bobur esa oshiqlikni har narsadan ustun qo‘yib, oshiqlik ham saodat ekanini ta‘kidlaydi. Garchi Bobur lirikasi hajman katta bo‘lmasa–da, mazmunan salmoqdordir. Uning g‘azallarini o‘qir ekanimiz, ijodkorning turli xil kayfiyatini, go‘zallikdan lazzatlanishini, tabiatni, hayotni sevishini ko‘ramiz:

Xotirni bahor faslida gasht oladur,

Ko‘z nurini rangi lola–yu dasht oladur.
Xush ulki, tolalarda yurub sayr etsa,
Bu faslkim, latif–u dilkash toladur!

Bobur ham xuddi Navoiydek zullisonayn shoir bo‘lib , turkiyda ham, forsiyda ham birdek qalam tebratgan. Bobur lirikasining yana bir o‘ziga xosligi shundaki, u ishlatgan tashbehtar boshqa hech bir ijodkorda uchramaydi:

Mening ko‘nglumki, gulning g‘unchasidek tah – batah qondur,

Agar yuz ming bahor o‘lsa , ochilmog‘i ne imkondur.

Shoir o‘zining xasta ko‘nglini, dard – alamlarga to‘lib ketgan qalbini qip– qizil gulning g‘unchasiga qiyoslamoqda. Tabiiyki, g‘uncha ochiladi, lekin “ tah – batah qon” ga to‘lgan ko‘ngilning ochilishi dargumon.

Yuqorida keltirilgan misollardan quyidagi xulosalarga kelindi:

- Bobur va Navoiy ijodidagi hamohanglik adabiy ta‘sir masalasidir;
- ikki ijodkordagi hamohanglik o‘sha davrda an‘anaga aylangan o‘zidan oldingi ijodkorlarga tatabbu‘ bitish , xususan, Bobur Navoiy shaxsini hurmat qilgani va o‘ziga ustoz deb bilgani sabablidir;
- Navoiy va Boburning olam haqidagi va dunyoning o‘tkinchiligi borasidagi qarashlari o‘xshash;
- Bobur va Navoiy bir davrda yashagan bo‘lsalar–da, asarlarining tili , yozilish uslubidagi farqlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularni birlashtiruvchi omil esa ikki buyuk ijodkor ham turkiy tilda ijod qilgani va bu til mavqeyini oshirganliklaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Yoz fasli yor vasli” Z.M.Bobur. Toshkent 2016.
2. “Boburnoma” Z.M.Bobur. Toshkent.2008.
3. “Z.M.Bobur ruboiy va tuyuqlari” Tafakkur .net.2019
4. “Bobur ijodida Vatan madhi” N. Cho‘liyeva saviya.uz.2013
5. “Navoiy va Bobur qarashlarida olam manzarasi” E. Hazratqulova “Tafakkur” jurnali 2019–yil, 2– son.
6. “ Biz bilgan va bilmagan Bobur” R.Vohidov Toshkent 1999.
7. 9– sinf adabiyot darsligi . Q.Yo‘ldoshev, V. Qodirov Toshkent 2014.
8. “Z.M.Bobur she‘riyatidan namunalar” kh.davron.uz 2013.
9. “Navoiy va Bobur” X. Bekmirzayeva. “Sharq yulduzi” jurnali, 2016 – yil, 2– son.

E.XEMINGUEYNING URUSH MAVZUSINI YORITISHDAGI O‘ZIGA XOS MAHORATI

Ma‘rufjon Abdug‘aniyev, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n. Abbos Tursunqulov

Amerika adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Ernest Xeminguey jahon adabiyotida alohida iz qoldirgan adiblardan hisoblanadi. Uning ispan fuqarolar urushi mavzusiga bag‘ishlangan “Qo‘ng‘iroq kimning motamini kuylayotir” inson matonati haqidagi, adibga Nobel mukofotini keltirgan”Chol va dengiz” qissasi, 1–jahon urushining dahshatlarini o‘zida aks ettirgan “Alvido qurol” romanlari ayniqsa mashhurdir. Bular ichida “Alvido qurol” romani adibga katta shuhrat keltirgan asardir. “Roman mavzusi urush va sevgidir. Italiya armiyasida xizmat qiluvchi amerikalik ofitserning ingliz hamshirasiga bo‘lgan

go‘zal va fojiali muhabbati Xemingueycha betakror talqinini topadi. Muhabbat mavzusi jimjimador, romantik shoirona libosda emas, bosiq, xolis, sirtidan befarq, biroq ichdan chuqur hissiyotga yo‘g‘rilgan holda tasvirlanadi.”

Asar bosh qahramonlari Genri va Ketrinning bir-biriga bo‘lgan go‘zal muhabbati asosiy tasvir obyektiga aylantiriladi. Umuman, asar yaratilgan XX asrning 20–yillari adabiyotida urush asosiy tasvir mavzusi edi, ammo aksar asarlarda faqat urushda qatnashib, qahramon sifatida yurtiga qaytgan insonlar ko‘rsatilar edi. Xeminguey asarida esa urush odamlar boshiga solgan kulfatlar va insonlarning ma‘naviy qiyofasiga yetkazgan jiddiy zarar bosh mavzuga aylangan. Bu mavzu haqida o‘sha davrda Erix Mariya Remarkaning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, fransuz adibi Anri Barbyusning “Olov” romanlari yaratilgan va Xeminguey ular ortidan borib betakror asar yarata olgan adib sanaladi. “Uning bu romanida urushning mohiyati nimada, kimga kerak bu mudhish urush degan muammo ko‘tariladi. Millionlab o‘g‘lonlarning o‘lib ketishiga kim aybdor? Nima uchun urushyapmiz degan g‘oya ilgari suriladi. Shuning uchun ham bu roman amerika jamoatchiligi orasida katta shov–shuvga sabab bo‘ldi”¹²⁹.

Ernest Xemingueyning ushbu romanida shuningdek urushni faqatgina sevgi orqali yengib o‘tish mumkin degan goya ham ilgari suriladi. Bosh qahramon bo‘lgan Genri faqatgina Ketrin Barklini sevib qolgachgina o‘z hayotining va urushning mohiyatiga tushunib yetadi. Asarda, shuningdek qahramonlarning ichkilikka mukkasidan ketganligi tasvirlarini ham ko‘plab uchratishimiz mumkin. Bunga sabab qilib esa qahramonlarning ruhiy zo‘riqishlarini keltirish mumkin. Ko‘plab o‘limlar, bugungi do‘stning ertaga marhumga aylanishi, inson tomonidan insonga qilingan vaxshiyliklar qahramonlarni ruhiy jihatdan falajlagan. Mana shu fojialarni unutish uchun ham asar qahramonlari ashaddiy ichkilikbozga aylangan deb o‘ylaymiz. Asarda urushga ochiq nafrat deyarli sezilmaydi. Bosh qahramon Genri urushga oddiy narsa sifatida qaraydi ammo, hayotiga Ketrin kirib kelgach u urushning dahshatlarini tushunib yetadi, uni o‘z boshidan o‘tkazadi. Shuningdek asarda muallifning urushga nafrati seziladi. Xemingueyning “Alvido qurol” romaniga 1948–yilda yozgan so‘z boshisida shunday jumlar bor. “ Bu kitobning muallifi ongli suratda shu fikrga keldiki urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir, frontning qizg‘in qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga ko‘proq duch kela boshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan foyda undirishdan boshqa narsani o‘ylamaydigan to‘ng‘izlardir. Men urushda boylar orttirganlar, urush olovini yoqqanlar urushning birinchi kunlaridayoq mamlakat fuqarolarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanmog‘i zarur deb hisoblayman”¹³⁰.

Muallif fikrini davom ettirib yana shunday yozadi: “Mobodo, oxiri borib boshlangan urushda mening ham hissam borligi aniqlanguday bo‘lsa, qanchalik qayg‘uli bo‘lmasin, mayli meni ham o‘sha o‘qchilar vzvodi otib tashlasin”¹³¹.

Asar qahramoni Genri Ketrinni sevib qolguncha urushni o‘ziga tegishli emas deb hisoblar edi. Buni quyidagi jumladan ko‘rish mumkin. “Uning menga

¹²⁹ Fayzulla Boynazarov. Jahon adabiyoti. “Musiqqa” nashriyoti, 2006-yil, 121-bet

¹³⁰ Shoira Normatova. Jahon adabiyoti, “Cho‘lpon” NMIU, 2008-yil, 52-bet

¹³¹ Ernest Xeminguey “Chol va dengiz” “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2019-yil 103-bet

hech qanday aloqasi yo‘q. U menga kinodagi urushdan farqsizday tuyulardi. Shunga qaramasdan men uning tugashini chin yurakdan istardim” (142–bet).

Bu asar o‘sib kelayotgan yosh avlodni urushga nafrat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan ham “Alvido qurol” romani XX asr amerika adabiyotining va jahon adabiyotining ajoyib yaratilmishlaridan biri hisoblanadi.

O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISH STRUKTURASI

Durdona Qo‘shmurodova, JDPI talabasi,

Ilmiy rahbar: D.Fayzulayeva

So‘zning yasash strukturasi (tarkibi) so‘zning morfem strukturasi ham, so‘zning morfologik strukturasi ham farq qiladi.

So‘zni morfem strukturasi ko‘ra tahlil qilinganda, uning (so‘zning) umuman tarkibi –morfemalari –ma‘noli qismlari aniqlanadi. Masalan: *ter–im–chilar*, *o‘qi–t–uv–chi–lik–ni*, *paxta–zor–lar–ning* kabi.

So‘zning morfologik strukturasi tahlil qilinganda esa, uning (so‘zning) shakl yasash asosi va shakl yasovchi vosita ajratiladi. Bu vositalar esa so‘z tarkibida ikkitadan oshmaydi: shakl yasovchi asos, shakl yasovchi affiks. Masalan: paxtakorlarning so‘zining shakl yasovchi asosi paxtakorlar, shakl yasovchi affiksi –ning, paxtakorlar so‘zining shakl yasovchi asosi –paxtakor, shakl yasovchi affiksi –lar, paxtakor –so‘z.

So‘z yasash tarkibida esa so‘z yasovchi asos va so‘z yasovchi affiks ajratiladi. Ya‘ni so‘zda yasovchi qismlar ham ikkitadan oshmaydi (garchi so‘z tarkibida birdan ortiq o‘zak va so‘z yasaydigan birdan ortiq affiks bo‘lsa–da). Masalan, bilimdonlik so‘zining so‘z yasovchi asosi bilimdon, so‘z yasovchi affiksi –lik, bilimdon so‘zining so‘z yasovchi asosi bilim, so‘z yasovchi affiksi –don, bilim so‘zining so‘z yasovchi asosi –bil, so‘z yasovchi affiksi –im.

Yasama so‘zining asosi (so‘z yasash asosi) qo‘shma so‘z yoki so‘z birikmasiga teng bo‘lishi mumkin. Bunday holatda ham yasovchi qismlar ikkitadan oshmaydi. Masalan, *belbog‘li* so‘zining yasovchi asosi –*belbog‘*, yasovchi affiks –*li*; *besh qavatli (bino)* yasovchi asos –*besh qavat*, yasovchi affiks–*li*; *ikki xonali (uy)* –*ikki xona* –yasovchi asos, –*li* yasovchi affiks. Ammo yasovchi affiks qatnashmagan qo‘shma so‘zlarda yasovchi komponentlar (qismlar)ning hammasi **yasovchi asos** deb yuritiladi. Masalan, *toshko‘mir tosh* –yasovchi asos, *ko‘mir* –yasovchi asos –*toshko‘mir* –yasalma; *oqqush* –*oq* –yasovchi asos, *qush*–yasovchi asos–*oqqush* –yasalma kabi.

So‘zning yasash tarkibini aniqlashda faqat yasama so‘zlar (sodda yasama va qo‘shma so‘zlar) tahlil qilinadi. Ya‘ni sodda tub so‘zlar e‘tibordan chetda qoladi. Bunday so‘zlar so‘zning morfem va morfologik strukturasi ko‘ra tahlil etiladi. Boshqacha aytganda, so‘zning yasama qismigina tahlil etiladi. Masalan, *o‘quvchilarning* so‘zining *o‘quvchi* qismi, *olmazorlar* so‘zining *olmazor* qismi, *tinchlikni* so‘zining *tinchlik* qismi va boshqalar.

So‘z tarkibida morfemalarni to‘g‘ri ajratish yasash asosining va yasovchi vositaning tarkibini, chegarasini to‘g‘ri hisobga olish katta ahamiyatga ega. Masalan, *gulchilik*, *temirchilik*, *baliqchilik* kabi yasama leksemalarda *gulchi*, *temirchi*, *baliqchi* yasash asosi hisoblanadi. Ammo *ko‘pchilik*, *ozchilik*, *dehqonchilik*, *yog‘ingarchilik* kabilarda esa yasash asosi *ko‘p*, *oz*, *dehqon*, *yog‘in* leksemalaridir. Chunki o‘zbek tilida *ko‘pchi*, *ozchi*, *dehqonchi*, *yog‘ingar*

shaklidagi leksemalar yo‘q. Demak, bu o‘rinda shu so‘zlar tarkibidagi *-chilik*, *-garchilik* qismlari yasovchi affikslar hisoblanadi.

Tahlil namunasi:

1. Morfem struktura tahlili (So‘zning eng kichik ma’noli qismlari va ularning turlari aniqlanadi).

1) *terimchilarni*:

ter=o‘zak, *-im*=s.yas.aff., *-chi*=so‘z yas.aff., *-lar*=kat.shak. yas.aff., *-ni*=kat.shak.yas.aff;

2) *baliqchilikdan*:

baliq=o‘zak, *-chi* =so‘z yas.aff., *-lik*=kat.shak. yas.aff., *-dan*=kat.shak.yas.aff;

3) *to‘qimachilikni*:

to‘qi=o‘zak *-ma*=so‘z yas.aff., *-chi*=so‘z yas. aff., *-lik*=so‘z yas.aff., *-ni* =kat.shak.yas.aff;

4) *dehqonchilikda*:

dehqon=o‘zak, *-chilik* =so‘z. Yas. Aff., *-da* =kat. Shakl yas. Aff;

5) *ko‘pchilikning*:

Ko‘p =o‘zak, *-chilik* =so‘z yas.aff., *-ning*=kat.shakl.yas.aff;

6) *Mirzacho‘llik*:

Mirza =o‘zak, *cho‘l* =o‘zak, *-lik* so‘z yas.aff;

7) *Kattaqo‘rg‘ondan*:

Katta =o‘zak, *qo‘rg‘on* =o‘zak, *dan*=kat.shakl.yas.aff;

8) *ishlagan*:

ish=o‘zak; *-la*=so‘z yas.aff., *-gan*= nok.shakl yas.aff.

2. So‘z yasalish strukturasi tahlili: (yasalmani hosil qiluvchi qismlar ajratiladi).

1) *temir*:

Temir so‘z;

2) *temirchi*:

temir=yasovchi asos, *-chi* =yasovchi affiks (*temirchi*=yasalma);

3) *kimyogar*:

kimyo=yasovchi asos, *-gar* =yasovchi affiks (*kimyogar*=yasalma);

4) *kimyogarchilik*:

kimyogar=yasovchi asos, *-chilik* =yasovchi affiks (*kimyogarchilik*=yasalma);

5) *o‘rtoqchilik*:

o‘rtoq=yasovchi asos, *-chilik*=yasovchi affiks, (*o‘rtoqchilik*=yasalma);

3. Morfologik struktura tahlili: (so‘z shakl hosil qiluvchi qismlar ajratiladi).

1) *ishlar*:

ish=shakl yasovchi asos, *-lar*=shakl yasovchi affiks, (*ishlar*=so‘z shakl);

2) *ishchilar*:

ishchi=shakl yasovchi asos, *-lar*=shakl yasovchi affiks, (*ishchilar*=so‘z shakl);

3) *ishchilarni*:

ishchilar=shakl yasovchi asos, *-ni*=shakl yasovchi affiks, (*ishchilarni*=so‘z shakl);

4) *ishchilarimizning*:

ishchilarimiz=shakl yasovchi asos, *-ning*=shakl yasovchi affiks, (*ishchilarimizning*=so‘z shakl).

“ЭЙ КҰНГИЛ, МАСТ ҰЛАЛИ.....” ҒАЗАЛИ ТАҲЛИЛИ

Дилноза Акрамова, ЖДПИ талабаси
Илмий раҳбари: ф.ф.н., доц. З. Мамадалиева

А.Навоийнинг “Хазойин ул–маоний” куллиётининг “Наводир уш–шабоб” девонидан ўрин олган ушбу ғазал мазмунан риндона, шаклан эса мусалсал кўринишга эга¹³². Риндона ғазаллар–тасаввуфий таълимот билан боғлиқ бўлиб, бунда соқий, май, майхона истилоҳлари кўчма, яъни мажозий маънони ифодалаб, устози комил, пир, орифлар суҳбатгоҳи каби маъноларни англатади¹³³.

Мусалсал ғазал–байтлари ўзаро занжирли боғланиш ҳосил қилиб матлада қўйилган мавзу силсилавий тарзда ривожланиб боради ва мактада хулосаланади. Ғазал матласи шундай бошланади:

Эй кўнгил, маст ўлали азми харобот айлаб,

Дайр кўйида гадоликқа мубохот айлаб.

Эй кўнгил, маст бўлмоқ учун майхонага боришга қасд қилдим. У майхона дардида гадога айлансамда, бу мен учун ифтихордир.

Тасаввуф илмида маст бўлиш, майхона каби атамалар мажозий маънода қўлланилади. Матлада лирик қаҳрамон кўнгилни маст бўлишга даъват этипти. Кўнгил ҳақиқий ишқ яшайдиган макон, илоҳий маърифат шаробидан сипқориш эса ўша ҳақиқий ишқ рамзи бўлган боданинг таъсирида ўзни бутунлай унутиш, яъни кўнгилни илоҳий ишқдан баҳраманд бўлишига даъватдир. Майхона эса ошиқлар борадиган жой, ҳақиқий ишқ соҳибларининг кўнимгоҳи. Ошиқ учун майхона ҳаёт–мамотдек зарур. Агар у пири комил хузури яъни майхона дардида ҳатто дарвеш, телбага айлансада бунинг ажабланарли ери йўқ, чунки бу ҳол ошиқ учун чин ифтихордир.

Матлада лирик қаҳрамон “Эй кўнгил” бирикмасида кўнгилга мурожаат қилиш орқали илтифот санъатини ҳосил қилади. Дайр яъни майхона ва маст сўзлари ҳамда гадо ва харобот сўзлари билан эса таносуб санъати юзага келган.

Бода тутким, бу улуғ коргах аҳволиндин,

Ҳеч фахм ўлмади ҳар неча ҳаёлот айлаб.

энди сен менга бода тутки, бу дунё кишилари ҳар қанча ҳаёл сурсаларда, бу улуғ фалакнинг ҳолини англашмадилар.

Бу байтда ҳам лирик қаҳрамон кўнгилга мурожаатини давом эттиради. Энди ёлғиз сен ва бода дардимга дармондир. Сабаби бу дунёнинг бутун аҳволини шунча излансалар ҳам инсонлар англай олишмадилар. Энди менга ҳамма нарсдан мана шу бода афзалроқдир. Шунинг учун сен қалбимни маърифат бодаси билан тўлдиргин. Зеро, Яратганни англаган кишигина оламдаги барча мураккаб ва чигалликларни еча олади.

Хўш мақом англа фано дайриниким бўйла мақом,

Топмади аҳли вара қати мақомот айлаб.

Йўқлик майхонасини энг яхши даргоҳ эканлигини англа. Шундай даргоҳни такво аҳли неча марта макон қилмоқчи бўлди–ю, аммо уни тополмади.

¹³² 8–синф адабиёт дарслиги". Тошкент 2014.

¹³³ “8–синф адабиёт дарслиги". Тошкент 2014.

Кўнгилга мурожаат давом этмоқда. Байтда фано ва дайр сўзлари қўлланган бўлиб, тасаввуфда фано йўқлик, ўзликдан кечиш, ўзликни унутиш ва Аллоҳ билан бирлашиб, абадиятга эришишдир. Дайр эса майхона. Қайсики ошиқлар маскани. Фано дайри ўзликдан кечганларнинг қўнимгоҳидир. Ишқ йўлида ўзликдан воз кечган, қалби Аллоҳ ишқида ёнаётган одам учун йўқлик майхонасидан ҳам яхшироқ жой бормикин. Сохта, зоҳирбин диндорлар ва такводдорлар бу маконни неча марталаб кидиришди, аммо уни топишолмади. Энди сен унинг қадрига ет.

Ринди майхона қадах туттики, зоҳид ҳаргиз,

Қилмади бўйла карам арзи каромат айлаб.

Байт мазмуни: эй, май тайёрловчи (ёки майпараст) менга май тут, зоҳид арзу каромат айлаб қилолмаган мўъжизани бир қадах май билан амалга ошир (яъни ўзлгимдан Мосуво қил ёки илоҳий маърифатга ошно айла).

Аслида зоҳид дин йўлида узлатга чекинган, ўз маслағида собит турувчи киши. Ушбу байтдаги зоҳид эса динни, таквони ниқоб қилиб олган айрим сохта диндорлардандир. Байтда лирик қаҳрамоннинг орзуси кўнгилни илоҳий ишқ билан тўлдириш, маҳбуб жамолига эришиш. Бу йўлда у нажот истамоқда, лекин бу нажотни сохта зоҳиддан топа олмади. Зоҳид унга биргина илтифот ва каромат кўрсатишни ўзига эп кўрмади. Энди лирик қаҳрамоннинг биргина умиди май улашувчи (ёки майпараст)дандир. Чунки май улашувчи жуда саховатли. У май орқали ошиқ қалбига илоҳий ишқни жойлайди. Ошиқнинг кечинмаларини, чин муҳаббатини чуқур англайди. Шу сабаб лирик қаҳрамон май улашувчидан нажот истайди ва уни топади. Шу ўринда¹³⁴ каромат ҳақида тўхталиб ўтсак. Каромат–беркилган парда ортидаги нарсанинг қалбда зуҳур этиши, очилиши. Яъни кўнгил кўзининг очилиши, каромат фақат баъзи инсонларгагина хос хусусият. Рухий камолотга етган улуғ инсонлар албатта оддий халқдан ажралиб турганлар. Уларнинг зехну заковати, ақлу шуури, фазлу фаросати жуда баланд бўлган. Улар руҳ қўмондонлари сифатида атрофдагиларга беҳад кучли таъсир ўтказиш қудратига, нажиб ҳислатларга эга бўлганлар. “Иброҳим Адҳам Балхда подшо эди. Бир куни овга борадур эрди, ғайб даракчиси нидо қилдики, эй Иброҳим, сени бу иш учун яратмабдурлар. Бу сўздин анга огоҳлик юзланди ва мулк таркин қилиб бу тоифа (яъни дарвешлар) тариқин ихтиёр қилди”. (Насойим ул–муҳаббат). Демак, Иброҳим Адҳамнинг тахтдан воз кечиш дарвеш йўлини танлаганлиги, унинг қалбида пайдо бўлган илоҳий ишқнинг дунё меҳридан устун келганлигидандир. Ошиқ ана шундай кароматни хоҳлапти, зоҳид эса бундай каромат ва саховатдан йироқда. Ушбу байтда ринд, майхўр, қадах сўзлари таносуб санъатини юзага келтирган, вара ва зоҳид сўзлари ҳам таносубга мисол бўлади. Бу икки сўз ҳам диндор, художўй деган маънони билдиради.

Қўйғил узлукни гар одам эсанг, инак шайтон,

Кибр ила найлади кўр, онча ибодат айлаб.

Агар сен чин одам бўлсанг, ўзликдан воз кеч. Шайтоннинг, гарчи шунча ибодат қилса ҳам, кибр билан қай аҳволга тушганини кўр.

Байтда лирик қаҳрамон ўша майпарастларга мурожаат қилиб, агар сен ҳақиқатдан ҳам аллоҳ ишқида маст, ҳақиқий ошиқ бўлсанг, сенга шунинг ўзи етарли. Энди сен ўзликдан воз кеч. Токи ўзингни севишдан тўхтаб, ўзингдан

¹³⁴ Н.Комилов "Тасаввуф". Тошкент 2009.

бутунлай воз кечмасанг, сенинг ошиқлигинг бекор. Чин ошиқ фақат маҳбубининг ишқи билан тирик, фақат унинг ҳаёли билан яшайди. Агар ишонмасанг, ана шайтоннинг аҳволини кўр. У ўзлигидан воз кечмади, ёлғиз ўзини севди ва охир оқибат кибр ботқоғига ботди. Унинг шунча билими–ю, қилган ибодатлари биргина кибри билан паймол бўлди. Шунинг учун сен ишқингни таъма қилмагин.

Мазкур байт ҳусни таълил яъни чиройли далиллаш санъатига мисол бўла олади.

Ганж уммиди била туфроққа эл кирди баса,

Умр зое қилибон фикри маҳобат айлаб.

Бойлик умидида умр ўтказган эл охири туфроққа кирди. Мана бу даҳшатли фикр умрни зое бўлишига олиб келди. Ганж–ҳазина умидида улуғворлик фикри билан умрини ўтказган кишилар охири вафот этишди–туфроққа киришди. Бу дунёнинг бойликларини деб бутун эл охири кўп марта туфроққа ботди. Кўнгилда ишқ бўлгандан кейин бойликнинг нима кераги бор. Ахир ишқ бутун хазинадан қимматли-ку. Бойлик орттиришдек ёмон фикр умрнинг зое бўлишига олиб келди-ку. Ошиқ учун бу кўрқинчли фикр, чунки у бойликка муҳаббат қўйса, унинг ошиқлиги, ишқи қаерда қолади. Яхшиси умрни бундай даҳшатли ҳаёлотлар билан зое кетказмаслик керак, чунки илоҳий ишқ инсонга берилган улуғ неъматдир ва бу неъматни қалб гавҳаридек асраш керак.

Чекма кўп ранж, Навойки, киши топмайдур,

Ўзидин халқни хушнуд муроот айлаб.

эй Навой, сен кўп ғам–алам чекмагин. Чунки киши халққа қанча лутфу марҳамат айласа ҳам, халқни ўзидан ҳеч қачон мамнун ҳолда кўрмайди. Ғазал мактасида лирик қаҳрамон ўзига–ўзи муурожаат қиляпти. Сен кўп дард–алам чекаверма. Бу дунё, бу одамлар сенинг ғам чекишингга арзимамайди. Чунки сен уларга қанча лутфу қаромат айласанг ҳам, улар сендан хурсанд бўлишмайди. Уларга сенинг марҳаматинг керак эмас. Сен бутун лутфингни маъшуқангнинг хузурида кўрсат. Зора, шундан кейин у сенга марҳамат кўргузса. Ундан бошқа ҳеч ким сенинг бу ишингдан у хурсанд бўлганчалик қувонишмайди, оддий одамлар ошиқнинг меҳрини қаердан ҳам тушунишарди.

Ғазал бошдан оёқ тасаввуфий руҳда ёзилган бўлиб, лирик қаҳрамон мактада тўғридан–тўғри ўзига қарата шунча азобларинг етар. Энди ҳақ ишқига эришиш, оддий одамлардан воз кечиш, яъни абадий ишқ даъвосини қилиш вақти етди. Мактада эса ранж ва хушнуд сўзлари ўзаро тазод санъатини ҳосил қилади. Киши ва халқ сўзлари эса таносуб санъатини юзага келтирган.

ИНСОН КАМОЛОТИДА ТАРБИЯНИНГ ЎРНИ

**Фирдавс Мажидов, ЖДПИ
Тарих факультети талабаси**

Ҳозирги даврда кечаётган глобаллашув жараёни инсоннинг, айниқса ёш авлоднинг тарбиясига таъсир қилмасдан қолмайди. Техника тараққиёти натижасида атроф–муҳитга, кундалик ҳаётга муносабатлар ҳам ўзгариб бораётгани табиий жараёндир. Шундай бир даврда инсоният тарбияга муҳтожлиги янада ошиб бораётганлиги сезилмоқда. Инсоният ҳамма

замонларда ҳам ўз келажаги учун қайғуриб келган. Зеро, фарзандининг тарбияси, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам инсонларнинг, олим-фузолларнинг диққат марказида бўлган. Шу боис, асрлар давомида инсоният тарбиянинг бир неча усул ва воситаларини ўйлаб чиққан. Фарзандни тарбиялаш усуллари воситалари биринчидан, жуда қадимдан ҳар бир оилада авлоддан-авлодга у ёки бу кўринишда ўтиб келган бўлса, иккинчи томондан, буюк аждодларимизнинг ўз даври, замонасидаги тарбиявий муҳитининг акс эттирган жуда кўплаб асарлари бизгача етиб келган. Ўша даврдаги тарбияга оид қўйилган талаблар ҳозирги кунда ҳам ўзининг хаётийлигини йўқотмаган. Шу ўринда тарбиянинг, тарбиялашнинг чеки, чегараси борми? деган савол юзага келиши мумкин. Йўқ албатта. Чунки кишилиқ жамияти ривожлана бориб, ҳар бир даврда ўз аъзоларига нисбатан янги-янги талаблар қўйиб бораверади. Хўш тарбия сўзининг луғавий маъноси нима? Ўзбек тилининг изоҳли луғатида “тарбия – ривожлантириш, парвариш қилиш, ўстириш, ўргатиш, илм бериш. 1) Таълим, одоб-ахлоқ ва шу кабиларни сингдириб, ўргатиб, инсонни вояга етказиш, улғайтириш, ўстириш. 2) Инсонда иш-хунар, одоб-ахлоқ ва шу кабиларни шакллантириш, ривожлантиришга, унинг жамиятда яшаши учун керак бўлган хислатларга эга бўлишини таъминлашга қаратилган иш-амаллар мавжуд ва шу йўл билан сингдирилган одоб-ахлоқ, хислат, фазилат”¹³⁵ деган маъноларни англатади дейилган. Демак, тарбия ҳақида сўз кетар экан, энг аввало инсонга маълум мақсадларни кўзда тутган ҳолда, унинг ёшидан қатъий назар, маълум бир сифатларни хислатларни юзага келтириш учун бевосита қилинадиган усуллар, таъсир доирасидир. Тарбия жараёни бевосита ва билвосита амалга оширилиши мумкин. Бевосита тарбия ҳақида гап кетар экан, инсоннинг бу жараёни амалга ошириш учун қиладиган тўхтовсиз ҳаракати кўз олдимизда намоён бўлади.

Билвосита таъсир этиш жараёни эса инсонни ўраб турган муҳитдами, оиладами, ўқув юртидами, меҳнат жамоаларидами яратилган шарт-шароитлар, ўзаро муносабатлар бошқаларга ибрат бўладиган яхши амаллар, ўзаро ҳурмат урф-одатлар ва анъаналарнинг сақланиши ва эъзозланиши ва ҳоказо кабилар киради. Билвосита тарбияда инсон атроф муҳитдан ўзига тегишли хулоса чиқариши, бошқача айтганда, онгли тарздаги фаолиятига асос яратишдир.

Тарбиянинг янада самаралироқ бўлиши учун бевосита ва билвосита тарбиялаш жараёни бир-бирига ҳамоҳанг бўлиши керак. Агар тарбияланувчи бевосита бўлаётган тарбиявий жараёнда олаётган ахборот ҳаётда ўз тасдиғини топмаса, бундай тарбиявий жараёндан тўлақонли тўлиқ мақсадга эришилади, деб бўлмайди. Тарбия жараёни ижобий ва салбий бўлиши мумкин. Ижобий жараёнда тарбиячи тарбияланувчига умуминсоний қадриятларга, анъана ва урф-одатларга мос ҳолда ўз тушунчасини, тажрибасини эътиқодини, керак бўлса, эҳтиросини ўргатиши, сингдириши тушунилади. Ижобий тарбиянинг мақсади инсонга ахлоқий софлик, маънавий баркамоллик, жисмоний етуқликни сингдиришдир. Салбий тарбия-айрим

¹³⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати.–Т.: Ўзбекистон “Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. А 7 –жилд, 2008, 678– бет.

кимсаларнинг ғаразли мақсадларини кўзлаган ҳолда тарбияланувчига таъсир ўтказишидир. Тарбия ёрдамида инсоннинг келажаги ҳал этилади. Шунингдек, тарбия ўз навбатида маънавий тарбия ва жисмоний тарбиядан ташкил топади. **Маънавий тарбия**лаш омиллари ранг–баранг, яъни тўлақонли маънавий жараёнларни тарбияланувчига сингдириб боришидир. **Жисмоний тарбия** эса инсонни соғлом, бақувват қилиб етиштиради. Демак, инсон ҳар иккала тарбия туфайли комилликка, етукликка қараб ўзгармоғи керак. Шу ўринда Биринчи Президентимиз И.А.Каримов “Тарбиячи – устоз бўлиш учун бошқаларнинг ақл–идроқини ўстириш, маърифат зиёсидан баҳраманд қилиш, ҳақиқий ватанпарвар, ҳақиқий фуқаро этиб етиштириш учун, аввало, тарбиячининг ўзи ана шундай юксак талабларга жавоб бериши, ана шундай фазилатларга эга бўлиши керак. Бу унинг зиммасига жуда катта масъулият юклайди”¹³⁶ деб таъкидлаганлар. Демак, тарбия жараёнида тарбиячининг ўрни алоҳида аҳамият касб этади.

Тарбия ривожланиб борадиган жараён бўлиб, жамият ривожланиши билан вобаста, ҳамоҳанг бўлмоғи керак. Бу ҳамоҳанглик ўзаро диалектик боғлангандир. Яъни бирининг ривожини, иккинчисининг ривожига таъсир этади. Натижада шахс жамиятнинг фаол иштирокчисига айланади. Бир сўз билан айтганда, инсон тарбия маҳсулидир. У шахс камолотига таъсир этадиган, уни шакллантирадиган жараёндир. Инсон тарбияни оилада, таълим муассасаларида, меҳнат жамоаларида ва ташқи муҳитдан олади. Юқоридаги қирралардан қайси бири етакчи ўринни эгаллайди, деган савол туғилиши табиийдир. Бу жараён тарбияланувчининг ёшига қараб ўзгариб бораверади. Дастлаб оила, кейинги босқич оила–боғча, ундан кейингиси оила–мактаб, бола 12–13 ёшга кирганида яъни, 5–6 синфлардан бошлаб оила–мактаб, ташқи муҳит кейинги босқич оила–таълим муассасалари (мактаб, коллеж, олий ўқув юрти) ташқи муҳит, кейинги босқич оила, меҳнат жамоаси–ташқи муҳит. Уларнинг ўрни аҳамияти ҳақида мазкур рисолада алоҳида сўз юритамиз. Маълумки, тарбия натижасида инсон жамиятда яшашга тайёрланади ва унинг қиёфасини белгилаб беради. Демак, тарбия ижтимоий ҳодисадир. Савол туғилиши мумкин. Жамиятда ҳамма одам ҳам ҳар томонлама баркамолликка эриша оладими? Албатта бу савол жавобсиз қолади. Чунки, ҳар томонлама баркамоллик жуда кенг қамровли, жамият ривожланган сари унинг янги–янги қирралари намоён бўлаверадиган жараёндир¹³⁷.

Тарбиянинг бош мақсади ана шу комилликка интилиб яшашга ўргатишидир. Натижада кимдир комилликнинг маълум босқичига эришади. Баркамоллик ҳамма учун орзу–интилиш бўлиб қолаверади. Ана шунинг ўзи ҳам, яъни, ҳар бир инсоннинг комилликни орзу қилиб яшаши ва бу борадаги амалий ҳаракатлари ҳам жамиятнинг ривожига ижобий таъсир кўрсатиб

¹³⁶ Ўзбек тилининг изохли луғати.–Т.: Ўзбекистон “Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. А 7 –жилд, 2008, 678 бет.

¹³⁷ Каримов И.А. Буюк келажагимизнинг ҳуқуқий кафолати. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 1 йиллигига бағишланган тантанали йиғилишда сўзлаган нутқи. 1993йил 7 декабрь. А. 2 жилд. Т. Ўзбекистон. 1996 йил 110 бет.

бораверади. Бу ҳолатда шахс камолотининг қирралари ҳам бир–бирига мос ҳолда ривожланиб, такомиллашиб бораётганини сезамиз. Асосий мақсад жамиятда тарбияли бўлиш, локал меҳнат жамоаларда, ташқи муҳитда, оилада бошқаларга халал бермайдиган қатламга эришишдир. Ҳаётдаги “тарбияли”, “тарбиясиз” каби тушунчаларнинг бир–биридан ажратадиган, фарқлайдиган меъёр мавжуд бўлиб, бу шахснинг амалий фаолиятидир. Меъёр ҳар доим ўзининг борлигини эслатиб туради. У маълум бир тартибни, интизомни сақлашни тақозо этар экан.

Тарбиячи маълум мақсадларни кўзлаб таъсир ўтказар экан, тарбияланувчи ҳам ана шу мақсадлардан воқиф бўлмоғи керак. Шундагина мақсадга тезроқ эришилади.

MAQOLLARDA KESIMNING IFODALANISHI

Jamila Hakimova, JDPI talabasi

O‘zbek tili o‘zining betakrorligi, unda ishlatiladigan turli xil birliklar: maqol, matal, ibora–yu afarizmlarning qo‘llanishi bu tilning yanada ko‘rkam, yanada betakror qiladi. Biz nutq jarayonimizda nutqqa tayyor holda olib kiritiladigan birliklarni qo‘llab keltirishimiz nutqning ta’sirchanlik darajasini oshirib keladi.

Turg‘un birliklar bir nechta so‘zdan iborat bo‘ladi va unda o‘ziga xosliklar mujassamlashgan.

1. Yaxlit holda nutq sharoitida bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi

2. Xalq donishmandligini ifodalaydi

3. Til egalarini xotirasida imkoniyat tarzida saqlanib qolgan bo‘ladi
Shunday turg‘un birliklardan bo‘lgan maqollarga alohida to‘xtalar ekanmiz, avvalo, ularning ta’rifiga to‘xtalib o‘tish joiz deya o‘ylayman.

Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalq donishmandligini natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar sanaladi.

Masalan:

Yaxshilik qilmasang, yomonlik ham qilma.

Maqollar fikrni ta’sirchan, bo‘yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir:

Masalan:

Shunda Yusufbek hoji:

–**Bilgan topib so‘zlar, bilmagan qopib**, deganlaridek, onangni aytmoqchi bo‘lgan so‘zi faqat shu edi.

Yuqorida keltirilgan jumlada Yusufbek hoji tilidan aytilgan maqol ham uning nutq ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan va o‘sha vaziyatdan olib chiquvchi vosita hisoblash mumkin. Bundan tashqari maqollar ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarning ko‘chirma gap qismini ham tashkil qiladi:

“**Ko‘pning duosi ko‘l**”,– dedi Nurmat ota.

Ushbu gapdagi maqolni quyidagicha sintaktik tahlil qilamiz:

Ko‘l–kesim

Duosi–ega

Ko‘pning– qaratqich aniqlovchi

O‘zbek adabiy tilida kesimlar ikki xil shaklda bo‘ladi: ot kesim va fe‘l kesim. Maqollarda ham kesimning ifodalanishi turlichadir. .

Ajalga davo yo‘q

Yomonga balo

Ushbu keltirilgan maqolimizda kesim modal soʻz bilan ifodalangan, bu esa ot kesim hisoblanadi. Ot kesim ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, sifatdosh va modal soʻzlar bilan ifodalanadi.

Maqolning tarkibi ikki qismdan iborat boʻlib, uning birinchisida kesim ifodalanib kelgan boʻlsa, ikkinchisida esa kesim toʻgʻridan-toʻgʻri kelmagan boʻlsada uning oʻrnini tiklasa boʻladi. Shunda maqol bunday shaklda boʻladi:

Ajalga davo yoʻq

Yomonga balo yoʻq

Maqollarning kesimi sof feʼl va ravishdosh bilan ifodalansa, bunday kesimlar feʼl kesim deyiladi.

Masalan:

Kamtarga egil,

Manmanga keril.

Maqollarda keladigan feʼl kesimlarning aksariyati Ishaxs buyruq-istak maylida boʻladi. Masalan:

Yaxshilik qilsang, yashir

Bundan tashqari, kesim boshqacha shakllar bilan ham keladi.

Masalan:

Yolgʻonchi yolchimas,

Oʻgʻri boyimas.

Husning boʻlguncha, baxting boʻlsin.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida gapning asosiy markazi kesim boʻlganligi uchun ham barcha mukammal tugal fikrga ega boʻlgan gaplarda kesimlarning barcha shakllari kela oladi. Shunday ekan maqollarda ham fikrlarni izchil bayon etishda bosh boʻlak boʻlgan kesim uning markaziy qismini tashkil etadi.

OʻZBEK XALQ MAQOLLARINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Gulhayo Eshmurodova, JDPI talabasi

Ilmiy rahbar f.f.f.d. F. Jumayeva

Maqollar xalq donoligi, donishmandligining mahsuli hisoblanadi. Adabiyotda didaktik vazifaga ega boʻlgan janrlardan biridir. Ularning sintaktik qurilishi va semantik, pragmatik xususiyatlari tilshunos olimlar tomonidan keng koʻlamda oʻrganilgan. Maqollar soʻz sanʼati mahsuli sifatida oʻz va koʻchma maʼnoda qoʻllaniladi. Bir soʻzning turli maʼno ifodalashi ulardan badiiy tasviriy vositalarni yaratishda foylanish imkonini beradi. Xalq maqollarining leksik-semantik xususiyatlari, eng avvalo, maqol matnida qoʻllangan maʼnodosh, zid maʼnoli, shakldosh leksemalar orqali namoyon boʻladi. Ayniqsa, antonimlar maqolning mazmuniy strukturasi yetakchilik qiladi. Chunki maqol hajman siqiq boʻladi va shunday ixcham shakllar orqali keng maʼnoni ifodalashda antonimlarning alohida oʻrni bor. Antonimik munosabatlar leksema, semema, semalar doirasida uchraydi. Bunga doir tahlillar F. Jumaeva ishida keng yoritilgan¹³⁸. Shunga asosan maqollarda leksema bilan leksema antonimligini soʻz turkumlari doirasida quyidagicha ifodalash mumkin:

¹³⁸ Ф. Жумаева Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. "QAQNUS MEDIA" Тошкент. 2019

Ot soʻz turkumi doirasida: *Mehr temirni eritar, qahr toshni yorar* maqolida mehr–qahr leksemalari antonim. Sifat soʻz turkumi doirasida: *Saxiy topsa boʻlib yer, baxil topsa bosib yer* maqolida saxiy–baxil leksemalari antonim. Ravish soʻz turkumi doirasida: *Uzoqdagi quyruqdan, yaqindagi oʻpka yaxshi* maqolida uzoq–yaqin leksemalari antonim. Fe'l soʻz turkumi doirasida: *Yoʻqolganga qaygʻurma, topilganga quvon* maqolida qaygʻurma–quvon leksemalarida antonim.

Maqollarda leksema va semema antonimligini quyidagi hollarda kuzatish mumkin:

Ot soʻz turkumi doirasida: *Sendan ham oʻtar bu boylik, mendan ham ketar bu yoʻqlik* maqolida boylik leksemasi va yoʻqlik sememasi antonim; Fe'l soʻz turkumi doirasida: *Tovus tanasiga qarab yayraydi, oyogʻga qarab yigʻlaydi* maqolida yayraydi leksemasi va yigʻlaydi sememasida antonimlik kuzatiladi.

Maqollarda semema bilan semema antonimligini quyidagi hollarda kuzatish mumkin:

Ot soʻz turkumi doirasida: *Kul qoldirma, gul qoldir* maqolida kul–gul sememalari oʻrtasida; Sifat soʻz turkumi doirasida: *Toʻgʻri oʻzar, egri toʻzar* maqolida toʻgʻri–egri sememalari oʻrtasida; Ravish soʻz turkumi doirasida: *Avvalini berguncha, oxirini bersin* maqolida avval–oxir sememalari oʻrtasida; Fe'l soʻz turkumi doirasida: *Rahbarning yaxshisi undirar, yomoni soʻndirar* maqolida undirar–soʻndirar sememalari oʻrtasida antonimlik kuzatiladi.

Maqollarda sema bilan sema antonimligini quyidagi hollarda kuzatish mumkin:

Ot soʻz turkumi doirasida: *Aybing boʻlsa qilday, koʻrsaturlar filday* maqolida qilday–filday semalari oʻrtasida; Fe'l soʻz turkumi doirasida: *Obru misqollab keladi, qadoqlab ketadi* maqolida misqollab–qadoqlab semalari oʻrtasida antonimlik kuzatiladi.

Maqollarida kontekstual antonimlar ham uchraydi. M: *Xotinli roʻzgʻor guldur, xotinsiz roʻzgʻor choʻldur. Aytar soʻzni ayt, aytmas soʻzdan qayt* maqollarida gul–choʻl va ayt–qayt leksemalari kontekstual antonimlikni hosil qilgan.

Maqollarda antonimlar emotsional–ekspressiv, uslubiy vosita sifatida nutqning ifodaliligi, ixchamligi, oʻtkirliги uchun xizmat qiladi.

Antonimlar maqollarda linvopoetik imkoniyatlarni yaratuvchi muhim vositalardan biridir. Masalan, antetizani yaratadi. Antetiza (antithesis – qarama–qarshi qoʻyish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama–qarshi qoʻyish, zidlash hodisasiga aytiladi. Antetizani zid maʼnoli qoʻshimchalar, zidlovchi bogʻlovchilar, soʻz va iboralar yuzaga keltiradi. Maqollarda koʻplab uchratish mumkin. M: *Tikon boʻlib oyoqqa qadalguncha, gul boʻlib chakkaga qadal. Qaynonalik kelin – qarqara kelin, qaynonasiz kelin masxara kelin. Shirin noningni berma, shirin soʻzingni ber. Bilaman – dedim tutildim, bilmayman – dedim qutildim* maqollarida tikon–gul, qaynonalik–qaynonasiz, berma–ber, bilmayman–bilmayman leksemalari antetizani yuzaga keltirgan. Maqollarda antetizaning quyidagi turlari ham uchraydi.

Muqobala – ikki yoki undan ortiq antonimlarning muqobil tarkibi bilan joylashtirilishi muqobalani hosil qiladi. Maqollar tarkibidagi barcha soʻz antonimlardan iborat boʻlishi mumkin. *Doʻst kuyunar, dushman suyunar. Yoʻqolganga qaygʻurma, topilganga quvon. Yomonning zarari tegar keng yoʻlda, yaxshining foydasi tegar tor yoʻlda. Savobi oshkoradan, gunohi pinhona afzal.*

Oksyumoron "O'tkir lekin bema'ni " degan ma'noni bildiradi. Ular ayrim adabiyotlarda "okkazional birikmalar", "noodatiy birikmalar" yoki " g'ayriodatiy birikmalar " deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, ko'nikilmaganligi va oharliligi bilan tasvir ifodaliligini ta'minlaydi. *M: Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l. Do'stga dushman bo'lish oson, dushmanga do'st bo'lish qiyin.*

Demak, maqollar badiiy adabiyotning didaktik ma'no tashuvchi muhim vositalaridan biri bo'lib, u lingvistik va lingvopoetik qonuniyatlarni o'rganishda keng imkoniyatlar yaratuvchi, semantik va pragmatik ma'no tashuvchi, murakkab sintaktik qurilma hisoblanadi.

МУНДАРИЖА
ҲАМИД ОЛИМЖОН ИЖОДИНИНГ МАЪНАВИЙ–МАЪРИФИЙ
АҲАМИЯТИ

1. Холбеков А. Қалблардан жой олган шодлик куйчиси.....	3
2. Улуғов А. Оташқалб шоир.....	6
3. Қосимов У.,Ю.Каримова. Бетакроп истеъдод ва ранг–баранг ижод..	34
4. Жўраев М., ҲамраеваГ. “Семурғ” достонида мифопоэтик образ талқини.....	40
5. Nosirov A., Abdiyev M. “Muqanna” drammasida erk va ozodlik g‘oyalari.....	43
6. Jumaniyozova M., Jumaniyozova G. Boshlang‘ich sinflarda Hamid Olimjonning “Lola” she‘rini o‘rganish.....	47
7. Мусаев А., Жуманова Д. “Муқанна” драмасида мақоллардан фойдаланиш маҳорати.....	49
8. Қурбонова С., Шарипова М. Ўзбек тили ривожига Ҳамид Олимжон ижодининг ўрни.....	52
9. Botirova Sh. Bir Vatankim, bunda elning baxti mangu barqaror.....	54
10. Қурбонова С., Назирова Х. Бўғинларнинг бадиий нутқ яратишдаги ўрни.....	56
11. Юсупова О. Ҳамид Олимжон шеъриятида эпитетлар лингвопоэтик восита сифатида.....	58
12. Шофқоров А. Ҳамид Олимжон шеъриятида фонетик такроплар.....	60
13. Siddiqova Sh., Burxonov Sh. H.Olimjon ijodida go‘zal tuyg‘ular tarannumi	62
14. Шукуров А., Эшмирзаев Б. “Зайнаб ва Омон” достонида эпитетларнинг қўлланилиши.....	64
15. Туропова П., Маматова Г. Ҳамид Олимжон ижодидида трансформацияланиш ҳодисаси.....	66
16. Исламова Д.Ҳамид Олимжон ижодидида субстантивация.....	68
17. Амиркулов С. “Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати” китобида Ҳамид Олимжон ижодидан олинган мисолларнинг айрим хусусиятлари.....	70
18. Алимова К. Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати.....	72
19. Шукуров А., Атамуротова Қ. Шоирнинг сифатлашлардан фойдаланиш маҳорати.....	73
20. Муҳиддинова М. Ҳамид Олимжон ва фольлор.....	75
21. Шомуродов С. O‘zbek adabiyotida Hamid Olimjon ijodining o‘rni.....	77
22. Botirova Sh. Vatan bahorini kuylagan shoir.....	79
23. Ro‘ziboyeva L. “Oygul bilan Baxtiyor”dostonida badiiy g‘oya.....	81
24. Do‘stova M. “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni tahlili.....	84
25. BoysinovaH.“Oygul bilan Baxtiyor” ertagini o‘rgatish yo‘llari.....	87
26. To‘laganova L. "Oygul bilan Baxtiyor" adabiy ertagi va folklori.....	89

27.	Amanova M. “Holbuki tun...” she’rida so‘zlarning g‘oyaviy–estetik ta’sir kuchi.....	91
28.	Hakimjonova S. Hamid Olimjon ijodida folklor namunalari.....	94
29.	Yashinova M. Hamid Olimjonning tarjimonlik faoliyat.....	96
30.	Xudoynazarova N. Shoirning ijtimoiy asarlarida ayol obrazi.....	98
31.	Asilbekov I. Hamid Olimjon ijodida bolalar adabiyoti.....	100
32.	Isroilova M. Hamid Olimjon ijodini o‘rganish orqali ko‘makchi mavzusini mustahkamlash.....	103
33.	Safarova O‘. Hamid Olimjon ijodida Vatan madhi.....	107
34.	Eshkuvvatova N., Qulmurodova R. Educational human creativity and the importance of education of young people in XX literature	109
35.	Sulaymonova T. Hamid Olimjon ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analari.....	111

УМУМФИЛОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР: ТАЛҚИН ВА ТАҲЛИЛ МУАММОЛАРИ

36.	Дониярова Ш. Х.Дўстмухаммад талқинида ҳаёт рамзи ва фалсафаси.....	114
37.	Jumaniyozova M., Mullayeva M. Hikoya o‘qish darslarida nutqini o‘stirish va nutq madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari.....	116
38.	Soyipov S. “Boburnoma”da o‘zlashma sifatlarining qo‘llanishi.....	119
39.	Соатова Н, Махамотова Н. Фурқатнинг ҳаёт ва ижод йўлига назар.....	121
40.	Алмаматов, Т., Абдуллаева М. Ўзбек тили ўқитиш методикасидан амалий машғулотларни ўқитишда қўлланиладиган ҳуқуқий ва меъёрий хужжатлар: “Давлат тили ҳақида”ги Қонун.....	124
41.	Файзуллаев Б., Бозорбоева Ш. Халқ дostonлари тилида йилқичилик атамалари ва уларнинг лексик–семантик хусусиятлари.....	126
42.	Tursunqulov A. “Alpomish” dostonining to‘liq nashri.....	129
43.	Мусаев А. Абдулла Орипов асарларида ҳикматли сўзлар (афоризмлар).....	131
44.	Эшонқулова С., Хамдамова М. Нодира ижодида Сулаймон образи тасвири.....	133
45.	Almamatova Sh., Turobova S. So‘z birikmasi va so‘zni o‘tish orqali o‘quvchilar nutq boyligini oshirish.....	135
46.	Мусаев А., Абдухолиқова М. Ўшатишда сўзлар тўғри ва кўчма маънода қўлланилиши.....	137
47.	Жўраев М., Олимова Ш. Бадий асар тили ва услуб масалалари...	139
48.	Туропова П, Пўлатова М. Шоира лирикасида Навоийга бахшиёна.....	141
49.	Usmonov A., Mutalov Sh., Vazifadosh bog‘lovchilarning funksional–stilistik xususiyatlari.....	144
50.	Холмухамедов Б. Белги билдирувчи сўзлар лексемалашуви.....	146
51.	Parmonov I., Majidov H. Shoh va shoir.....	149
52.	Дарвишова Г. Шарлотта Бронте бадий олами.....	150
53.	Жумаева Б. Инглиз тилига хос фраземаларни ўқитишга психолингвистик ёндашув.....	152

54. Турсунов Ғ. Олқор Даминнинг “Сув” шеърисида бадиий санъатларнинг қўлланилиши.....	154
55. Эшмуродов Х. Синтактик конструкциядаги компонентларнинг ўзига хос жойлашуви билан фарқланувчи синтактик фигуралар.....	155
56. Нормўминов Ш. Тилшуносликда майдон, ядро ва периферия масалаларининг тадқиқ этилиши масаласи.....	158
57. Қораев Б. Интеллектуал ёшлар ватанимиз келажаги.....	160
58. Жуманиёзова М. Adabiyot darslarida ilgʻor pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	163
59. Tangriyeva U. Imlo qoidalari ustida ishlash orqali imloviy savodxonlikni shakllantirish va takomillashtirish yoʻllari.....	165
60. Quryozova M. Boshlangʻich sinf ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qoʻllash.....	168
61. Jumaniozova M. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ogʻzaki nutqini sinfdan tashqari oʻqish darslarida oʻstirish.....	171
62. Шербоева Н. Шароф Рашидовнинг “Ғолиблар” романи хусусида.....	172
63. Хабибова Ш. Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламларини ривожлантириш истиқболлари.....	174
64. Matchanova Sh. Ona tili darslarida didaktik oʻyinlar texnologiyasidan foydalanish.....	176
65. Qoʻshoqova Feruza. Adabiy taʼlimda Abdulla Qahhor ijodining oʻrganilishi xususida.....	178
66. Эшмуродов Х. Семантик ва грамматик алоқанинг ўзига хослиги билан фарқланувчи синтактик фигуралар.....	181
67. Tursunqulova M. Ertaklar – ezigulik jarchisi.....	184
68. Вурхонov Z. “Qisasi Rabgʻuziy”ning mavzu koʻlami.....	185
69. Юсупова М. Бир образ таҳлили.....	187
70. Xoldorova Sh. Sheʼriyatda onomastik birliklarning ifodalanishi.....	190
71. Shukurova D. Erkin Vohidov sheʼriyatida takrorlar.....	193
72. Саидова Р. Adabiy ertaklarning janr xususiyatlari.....	194
73. Saburov E.G. Oʻqish darslarida oʻquvchilarning nutqini oʻstirish (ertaklar misolida).....	196
74. Исомиддинов С., Эшонқулова С. Алишер Навоийнинг ғазалларида Исо Масих тимсоли.....	198
75. Жуманов А. Шеърисида рухий кечинма ифодаси.....	201
76. Sulaymonova D. Chet tilini oʻzlashtirish boʻyicha psixolingvistik yondashuvlar.....	205
77. Oltmishova S. Zebunniso ijodida lirik qahramon ruhiyati tasvirlari.....	206
78. Шухратжонова Н. Жалолиддин Румий ижодидан баҳра олиб.....	209
79. Zakirova M. Taʼlim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qoʻllashning ahamiyati.....	213
80. Ochilova M. Boshlangʻich sinflarda ot soʻz turkumini oʻrgatishda maʼnodosh soʻzlar ustida ishlash.....	215
81. Fozilov L. Using videos in efl lessons.....	216

82.	Jarilkasimova G. Improving reading skills.....	218
83.	Хабибова Ш. Ижтимоий таъминотни шакллантиришда мафкуравий имунитетнинг ўрни.....	220
84.	Ibragimov X., Soatova H. Maqol va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	222
85.	Abdumurodova D.S.Zunnunova hikoyalarida oila ma’naviy masalasi.....	224
86.	Артикова Д. Экзистенциализм фалсафаси тарихига бир назар.....	226
87.	Алхиева С. “Ҳаккуш қичқирғида”ги йигирма еттинчи афсона.....	229
88.	Zarpullayeva X, Bosimov S. Zulfiya Qurolboy qizining “O, NAYOT!” hikoyasi xususida.....	232
89.	Тўхтамишова Х. Нодира ижодида маънавий ва лафзий санъатларнинг ўрни.....	234
90.	Radjabova U. “Mashaqqatlar girdobi” asarida qahramonlarining xarakter xususiyatlari.....	236
91.	Eshquvvatova N. Inson psixologiyasida stress hamda uning yuzaga kelish xususiyatlari.....	238
92.	Sayfullayeva G. “Alisher Navoiy g`azallarida orif ko`ngil mushohadasi”.....	240
93.	Allaberdiyeva M. Abduqayum Yo‘ldoshevning “Yolg‘on va haqiqat” hikoyasining badiiy–g‘oyaviy xususiyatlari.....	242
94.	Ro‘ziyev O‘. Fe’lning zamon shakllar.....	245
95.	Matvopayeva S. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish.....	247
96.	Абдуғаффорова Г. "Ҳайрат ул–аброп"да Хусайн Бойқаро образи.....	249
97.	Usanov D. “Puankare” asarida inson ruhiyati.....	252
98.	Saidova I., Oripova N. Bobur lirikasida adabiy ta’sir masalasi.....	255
99.	Abdug‘aniyev M. E.Xemingueyning urush mavzusini yoritishdagi o‘ziga xos mahorati.....	258
100.	Qo‘shmurodovaD. O‘zbek tilida so‘z yasalish strukturasi.....	260
101.	Акрамова Д. “Эй кўнгил, маст ўлали.....” ғазали таҳлили.....	262
102.	Мажидов Ф. Инсон камолотида тарбиянинг ўрни.....	264
103.	HakimovaJ. Maqollarda kesimning ifodalanishi.....	267
104.	Eshmurodova G. O‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik tahlili.....	268

**“ФИЛОЛОГИЯНИНГ УМУМНАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИГА”
БАҒИШЛАНГАН РЕСПУБЛИКА МИҚЁСИДАГИ
ИЛМИЙ – АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**

Муҳаррир С. Ҳошимов
Мусахҳих Н. Соатова
Саҳифаловчи А. Ҳидоятлов

Нашриёт лицензияси №АІ 242, 04.07.2013 й.
Офсет қоғози. Босишга рухсат этилди 08.01.2020 й.
Формат 70x108 ^{1/16}. Гарнитура “Times New Roman”.
Босма табоқ 17.0. Адади 100 нусха. Буюртма №3

“VNESHINVESTPROM” масъулияти чекланган жамияти
матбаа бўлимида чоп этилди.
100011, Тошкент шаҳри, Навоий кўчаси, 30.
Тел.: +99871 244-75-75